

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
A K A D E M I Y A

# JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ

DARSLIK

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
tomonidan tavsiya etilgan*

TOSHKENT–2019

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma’qullangan*

**T a q r i z c h i l a r :**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov departamenti;  
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi

**Mualliflar jamoasi:**

yuridik fanlar doktori, professor **B.A.Mirenskiy** – XXVI, XXVII, XXVIII boblar;  
yuridik fanlar doktori, professor **M.A.Rajabova** – XXII, XXIII boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **D.M.Mirazov** – VI, VII, XXV, XXXII, XXXV boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **B.B.Murodov** – V, XXXIII boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **A.R.Akilov** – XXIX bob;  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A.X.Rahmonqulov** – VIII, XVI boblar;  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B.T.Akramxodjayev** – X, XXIV, XXXIV boblar;  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist **A.O.Sharafutdinov** – IX, XIV boblar;  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B.N.Rashidov** – So‘z boshi, I, II, III, VI, VII, XII, XIII, XV boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **B.A.Rajabov** – VI, XXX, XXXI boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **A.A.Matchanov** – XVII, XIX boblar;  
yuridik fanlar doktori, dotsent **Sh.A.Kulmatov** – IV, VII boblar;  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **V.V.Kadirova** – XX, XXI boblar;  
dotsent **A.A.Sultonov** – XI, XVII, boblar.

J-72 **Jinoyat-protsessual huquq:** Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 732 b.

Darslikda jinoyat-protsessual huquq fanining barcha asosiy kategoriyalari, tushunchalari, institutlari, ishni sudga qadar yuritishda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining faoliyati, sud bosqichida esa jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash, sud muhokamasi, hukm, appelyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritish, alohida toifadagi ishlarni yuritish, halqaro hamkorlik faoliyatlarining asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlari, professor-o‘qituvchilari, shuningdek, barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

**KBK 67.99 (5 U) 93.ya.73**

---

---

## SO‘ZBOSHI

Mamlakatimiz huquqiy tizimi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, milliy-diniy urf-odatlar, shariat va roman-german huquqiy oilasiga mansub normalarini qamrab oladi. So‘nggi yillarda xalqaro huquqiy normalar, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini milliy qonunchilikda aks ettirish borasida bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi hamda qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Davlatimiz sud-huquq tizimida amal qilinadigan qonunchilik asosi bizga sobiq Ittifoq davridan meros bo‘lib qolgan. Sobiq Ittifoq va Chor Rossiyasining huquqiy tizimi o‘z navbatida kontinental Yevropa davlatlari, xususan, Fransiya qonunchiligidan andoza olinib, rivojlantirilgan. Rivojlanish asosida muayyan davr hukumat tepasida bo‘lgan amaldorlarning siyosatiga mos bo‘lgan talab, shu talabga muvofiq jinoiy-huquqiy siyosat maqsadiga yo‘naltirilgan sud-huquq tizimi va qonunchilik yaratilgan (shakllangan). Jumladan, Chor Rossiyasi davrida burjuaziya manfaatlari bilan mustamlaka o‘lkalarda xalqni itoatda ushlab turishga xizmat qiluvchi normalar ustuvorlik kasb etgan. Ittifoq davrida esa dastlab hokimiyatni mustahkamlash (ikkinchi jahon urushigacha), so‘ngra inson huquq va erkinliklarini e‘tirof etish, xalqaro huquqning ustuvorligiga muvofiqlashtirish yo‘nalishlarida qonunchilik biroz rivojlantirilgan. Chor Rossiyasida ham sobiq Ittifoq davrida ham sud-huquq tizimida javobgarlikning qattiqligi, jazoning og‘irligi va muqarrarligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Mustaqilikka erishilgan dastlabki yillarda tartibni saqlash, xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida eski qonunlarga asosan ish yuritilgan bo‘lsa-da, ayrim repressiv va inson huquq va erkinliklarini oshkora tarzda kamsitadigan normalarning amal

qilishi to'xtatildi. Bosqichma-bosqich yangi qonunlar biroz takomillashtirilib, sekin-asta zamonaviy qonunlar yaratila boshlandi. Mustaqillik yillarida milliy qonunchilik zamonaviy talablar asosida yangilanmoqda, shu jumladan sud-huquq tizimi ham.

Mustaqillik yillaridagi sud-huquq tizimidagi dastlabki asosiy islohotlar yangi kodeks va qonunlarning qabul qilinishi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi keyingi islohotlar 2000-yildagi sudlar faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan bog'liq bo'lib, apellatsiya instituti joriy etildi. 2001-yilda esa anchagina jiddiy islohotlar bo'lib o'tdi, jinoyat-protsessida yarashuv instituti belgilandi, muddatlar bilan bog'liq protsessual kafolatlar mustahkamlandi. Shuningdek, soliq, valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish bilan bog'liq islohotlar o'tkazildi, bu borada ichki ishlar organlarining ayrim vakolatlari qisqartirilib, prokuratura organlarining vakolatlari kengaytirildi. Jinoyat kodeksida jazolar liberallashtirildi, jinoyatlar tasnifi qayta belgilandi, majburlov tavsifiga ega bo'lgan jinoyat-protsessual choralarni qo'llash cheklandi, javobgarlik va jazodan ozod qilish mexanizmlari takomillashtirildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarni liberallashtirish bugunga qadar davom etmoqda. Keyingi asosiy islohotlar 2005-yilda boshlandi va 2008-yil 1-yanvardan amalga joriy etildi, ya'ni o'lim jazosini bekor qilindi va qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Ushbu islohotlar ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi muhim o'zgarish bo'ldi deb aytish mumkin. 2008-yilda yana islohotlar davom ettirilib, jinoyat protsessi ishtirokchilarining, xususan guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning protsessual huquqlari, jumladan, himoyalaniş huquqi kengaytirildi. Himoyachining jinoyat protsessidagi faoliyatini belgilovchi normalar va advokatura instituti takomillashtirildi. Advokatlarga himoyasi ostidagi shaxsni oqlash va uning aybini yengillashtirish uchun jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida fodalanilishi mumkin

bo'lgan ma'lumotlarni to'plash huquqi yanada mustahkamlandi. 2008-yil dekabrda amnistiya aktini qo'llash mexanizmi takomillashtirildi va dastlabki tergovda ham sudlar tomonidan qo'llanadigan bo'ldi. 2010-yilda jinoyat ishlarini yuritishda xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlik tartibi batafsil belgilandi.

2010-yil 12-noyabrdagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da belgilab berilgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning amalga oshirilishi sud-tergov faoliyatida yangi natijalarga erishish imkonini berdi. Jumladan, 2012-yil sentabrda qabul qilingan qonunga asosan dastlabki tergov bosqichida shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish protsessual majburlov choralarini qo'llashning yangi tartibi amaliyotga joriy etildi, ya'ni dastlabki tergovda shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va lavozimdan chetlashtirish vakolati sudlarga o'tkazildi. Shuningdek, 2012 yil yanvarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar sodir etilgan jinoyatlarga huquqiy baho berish, kvalifikatsiya qilish va ish qo'zg'atish masalalarini hal etishda liberal yondashuvni talab etuvchi, insonparvarlik tamoyillariga mos huquqiy tizim va amaliyot shakllanishiga olib keldi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarga moddiy zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar tarkiblari uchun zarar miqdori o'zgartirildi va uning eng kam eng kam oylik ish haqining 30 barobaridan kam bo'lmasligi belgilandi. Ushbu islohotlar natijasida ish yurituvda bo'lgan ko'pgina jinoyat ishlari tugatildi va tekshiruv materiallari bo'yicha ish qo'zg'atishni rad etish haqidagi qarorlar qabul qilindi. Natijada ko'pgina fuqarolarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan jinoyat protsessining vazifalari bajarilishiga erishilmoqda.

2011-yilda qamoqda saqlash tartibi takomillashtirildi. 2012-yilda esa Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida jabrlanuvchining arizasi asosida qo'zg'atish mumkinligi belgilangan jinoyat tarkiblari va

qisman xususiy ayblov instituti kengaytirildi. 2014-yilda ehtiyot choralari tizimi uy qamog‘i bilan va 2015-yilda jinoiy jazolar tizimi esa ozodlikni cheklash chorasi bilan to‘ldirildi. Jinoyat protsessida isbotlash eng nozik masalalardan biri bo‘lganligi bois isbotlash tartibida ham o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonun qabul qilinishi munosabati bilan tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan dalil sifatida foydalanish masalalari Jinoyat-protsessual kodeksida qisman o‘z yechimini topdi.

2016-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, sud-huquq sohasida davlat siyosati yangicha mazmun kasb etdi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta‘minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi<sup>1</sup>. Qonunchilikdagi so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalar tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyotni liberallashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini ta‘minlashga qaratildi. Taftish tergov harakatini tayinlash va o‘tkazish tartibi belgilandi va u iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilinishini takomillashtirishga qaratilgan edi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning qabul qilinishi orqali sud-huquq islohotlarining yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Uning ijro etilishi natijasida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va erkinligini ta‘minlash, odil sudlovning sifati va shaffofligini oshirish, «Xabeas korpus» institutini qo‘llashni kengaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son Farmoni.

tizimini yaratishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar jinoyat-protsessual qonunchilikda aks etdi. Jumladan, sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish tartibining bekor qilinganligi sud va tergov organlarining haqiqatni va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash, shuningdek, qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilish borasidagi mas'uliyatini oshirish imkonini berdi. Jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar jinoyat protsessida dalillar maqbulligi talablariga qat'i amal qilish, surishtiruv institutini takomillashtirish, shaxsning himoyalani huquqini yanada mustahkamlash, jinoyat ishlarini yuritishda axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron ish yurituv va hujjatlar aylanishini joriy etish, shuningdek, sudga qadar ish yuritishni soddalashtirishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida va 2018-yilgacha sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar asosan jazolamay turib javobgarlik natijasidan kutiladigan maqsadlarga erishish, jinoyat ishlarini yuritish va javobgarlikni belgilashda jazoning og'irligiga emas, javobgarlikning muqarrarligini hamda inson huquq va erkinliklarining ustuvorligini ta'minlashga, sudlar mustaqilligini mustahkamlash va taraflar tengligini ta'minlash orqali odil sudlovga erishish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan ayrim normalarini milliy qonunchilikda aks ettirish kabi yo'nalishlarni o'zida mujassam etdi.

Islohotlar albatta kerak, chunki jamiyat bir joyda to'xtab turmaydi va doim taraqqiy etib boradi. Shu bois tartibni saqlash va taraqqiyotning davomiyligini ta'minlash uchun sud-huquq tizimini ham zamon o'zgarishlariga mos ravishda takomillashtirib borish har doim dolzarb bo'lib kelgan. Bugunga qadar odil sudlovni ta'minlashda adolatga amal qilish, o'z vaqtida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash, jinoyatchilikning oldini olish va unga

yo‘l qo‘ymaslik, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik masalasini hal etishda samaradorlikni ta‘minlash, jinoyat natijasida yetkazilgan zararining to‘liq qoplanishiga erishish, jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlari faoliyatida samarador ish usullarini joriy etish kabilar muhim yo‘nalishlar sifatida sud-huquq islohotlarining mazmunida aks etgan edi.

Jinoyat-protsessual qonun normalarini takomillashtirish va bugungi talablarga javob bera oladigan tizimni joriy etishda avvalo qonun, uning talablari mazmuni, shuningdek, qonunni qabul qilish va uni amalga kiritishdan ko‘zlanadigan maqsad-vazifalarning mazmun mohiyatini yaxshi anglagan mutaxassislar tayyorlanishi zarur. Huquqshunoslik yo‘nalishidagi yetuk mutaxassis sud-huquq tizimida amalga oshiriladigan islohotlar mazmunini hayotga to‘laroq tatbiq eta oladi. Shunga ko‘ra, huquqni muhofaza qilish tizimida jinoyat-protsessual faoliyatning o‘rni muhimligi, mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi huquqshunos mutaxassislar tayyorlashda jinoyat-protsessual huquq fanidan yaratiladigan darsliklar alohida e‘tiborga loyiqligi e‘tiboringizga havola etilayotgan ushbu kitobni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonining uzviy qismi deb e‘tirof etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining bir guruh tajribali pedagog-olimlari tomonidan tayyorlangan Jinoyat-protsessual huquq darsligining to‘ldirilgan uchinchi nashri Akademiyada o‘qitiladigan «Jinoyat-protsessual huquq» fani dasturi va amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning tuzilishiga asoslangan. Darslik respublikamizda huquqshunos kadrlar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash ishiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ladi, deb umid qilamiz.



## I BOB. «JINOYAT PROTSESSI» TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA VAZIFALARI

### 1.1. «Jinoyat protsessi» tushunchasi va uning vazifalari

Jinoyat protsessi mazmunan bir necha xil ma'nolarni anglatadi. Jinoyat protsessi avvalo faoliyatning bir turi, shu bilan birga, huquq tarmog'i va yana o'quv fani hisoblanadi. Jinoyat protsessi faoliyat sifatida jinoiy-huquqiy sudlov, huquq tarmog'i va o'quv fani sifatida jinoyat-protsessual huquq ham deb yuritiladi.

Faoliyati sifatida *jinoyat protsessi deganda*, odil sudlovni amalga oshirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga asosan jinoyatlarni aniqlash, ochish jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish, ularga jinoiy jazo choralari yoki boshqa ta'sir choralarni qo'llash, jinoyatlarning sabablari, uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Ushbu faoliyat va munosabatlar rasmiy tavsifga ega bo'lib, ixtiyoriy ravishda kechmaydi, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalariga muvofiq va ularda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual faoliyat insonning asosiy huquq va erkinliklariga eng ko'p darajada daxl qiluvchi jinoiy jazoni, shuningdek, davlat majburlov choralari (ushlab turish, hibsga olish (qamoq), tintuv o'tkazish va h.k.)

qo'llash bilan bog'liq bo'lib, bu orqali jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda jinoyat sodir etganlarning javobgarlikka tortilishini ta'minlash uchun zarur sharoit yaratiladi. Shu sababli ushbu faoliyat odil sudlov kafolatlarini hamda shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini yaratuvchi huquqiy normalar (Jinoyat-protsessual kodeks<sup>1</sup> 11–27-m.) bilan qat'iy va batafsil tartibga solinadi. Ushbu normalar muhimligi sababli, ularni faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat belgilaydi.

Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov, jinoyat ishlarini tergov qilish protsessual deb atalmish maxsus tartibda amalga oshiriladi. JPKda tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat aniqlangan paytdan boshlab, jinoyat ishi sudda uzil-kesil hal qilingunicha amalga oshiradigan harakatlarning ketma-ketligi, ushbu faoliyat daxl qiladigan fuqarolarning huquq va erkinliklari, barcha tergov va sudlov harakatlarini yuritish hamda ularning natijalarini qayd etish shakllari belgilab berilgan. Ushbu protsessual tartib sud, prokuratura, tergov, surishtiruv va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar jinoyat sodir etilganligi sababli olib boradigan faoliyat qonuniy bo'lishining zaruriy shartidir.

Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, shuningdek, himoyachilar va vakillar ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining obyektlari emas, balki tegishli huquq va burchlarga ega bo'lgan huquq subyektlaridir.

JPK bilan tartibga solingan jinoyat-protsessual faoliyat sud hamda boshqa davlat organlari, shuningdek, ushbu organlar bilan fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar shaklida kechadi. Ushbu faoliyat huquqiy mazmunga ega. Jinoyat-protsessual faoliyat murakkab jarayon bo'lib, ushbu faoliyat subyektlarining ongidagi muayyan hodisa haqidagi tasavvurlari, tasmol va taxminlar, to'plangan dalillarni baholash va tegishli xulosalarga

---

<sup>1</sup> Bundan buyon matnda qisqacha JPK tarzida berilgan.

kelishdan iborat psixik jarayonlarni, dalillarni to'plash va tekshirish, odil sudlovni ta'minlash uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan protsessual va tergov harakatlarini bajarish jarayonini hamda psixik jarayonlar va amalga oshirilgan harakatlarni rasmiylashtirish, protsessual hujjatlarda qayd etish kabi jarayonlarini o'zida qamrab oladi.

Huquq tarmog'i sifatida *jinoyat protsessi deganda*, jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar olinganda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, tekshiruv natijalariga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish, qo'zg'atilgan jinoyat ishini tergov qilish, ishni sudda ko'rish, ishni qonuniy, asosli va adolatli hal qilish, protsessual majburlovni qo'llash, qo'llanilgan jazo va boshqa majburlov choralarini ijro ettirish hamda jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish tartibini belgilovchi normalar yig'indisi tushuniladi.

Huquq tarmog'i sifatida jinoyat protsessi jinoyat qonunini amalda tatbiq etish tartibini belgilaydi. Jinoyat huquqi va jinoyat protsessini bir biridan ajratish juda muhim. Jinoyat huquqi qaysi qilmish jinoyat deb topilishi va ushbu qilmishni sodir etgan subyektga qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi aniqlab beradi. Jinoyat-protsessual huquq esa jinoyat sodir etilganmi yoki yo'qligini, sodir etilgan bo'lsa, u qaysi jinoyatligini aniqlash, jinoyatni kim sodir etganligi va uning aybi bor yoki yo'qligini, jinoyat sodir etilishida aybi bor bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish hamda jazolash kerakmi yoki yo'qligini aniqlash tartibini belgilab beradi. Qisqacha aytganda ish yuritish jarayonini tartibga soladi.

Jinoyat-protsessual huquq tizimi, tuzilishi, bosqichlari, vazifalari va funksiyalari jinoyat protsessi fanining tizimi, tuzilishi, predmeti, maqsad va vazifalari sifatida o'rganiladi.

Fan sifatida *jinoyat protsessi deganda*, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, sudda ko'rib chiqish va jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish faoliyatini, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining mazmunini, sud-tergov

amaliyotini, jinoyat-protsessual qonunchilikning rivojlanishini o'rganuvchi huquqiy fan, bilimlar yig'indisi tushuniladi.

«Jinoyat protsessi» atamasi «og'ir gunoh» ma'nosini bildiruvchi arabcha «jinoyat» so'zidan va «chiqish, namoyon bo'lish, olg'a intilish» kabi ma'nolarni bildiruvchi lotincha fe'ldan yasalgan. Lug'aviy jihatdan muayyan turdagi faoliyatning rivojlanishi, harakatini bildiradi va jarayonni anglatadi. Jinoyat protsessiga o'xshash jarayonni qamrab oluvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish, fuqarolik protsessi, iqtisodiy sudlarda ish yuritishni ham o'zaro farqlash zarur.

Jinoyat protsessi fanida jinoyat-protsessual huquq va jinoyat-protsessual qonunni qo'llash faoliyati o'rganiladi hamda ushbu fanni chuqur o'zlashtirish uchun mazkur qonun va uni qo'llash faoliyatini tashqi va ichki tomondan aniq tasavvur qilish talab etiladi.

Jinoyat protsessi tashqi tomondan jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar aniqlanganda ushbu ma'lumotni qabul qilish, ro'yxatga olish, tekshirish, jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish, ish qo'zg'atilganda surishtiruv yoki dastlabki tergovni o'tkazish, protsessual majburlov choralari qo'llash, ishni tugatish yoki sudga yuborish, ishni sudda ko'rib chiqish, hukm yoki ajrim chiqarish, hukm yoki ajrimni tekshirish va hukm yoki ajrimni ijro ettirish jarayonlaridan iborat tarkibda namoyon bo'ladi. Ichki tomonidan esa, jinoyat protsessi jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarda aks etgan hodisa haqiqatdan sodir etilgan yoki sodir etilmaganligi, hodisa sodir bo'lgan bo'lsa, u jinoyat yoki jinoyat emasligi, jinoyat bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish kerakligi yoki ish qo'zg'atishni rad etish kerakligi, jinoyat sodir etilgan va/yoki jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, jinoyatni kim sodir etganligi, gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs shu jinoyatni sodir etgan yoki sodir etmaganligi, shaxs jinoyatni sodir etgan bo'lsa, uning aybi bor yoki aybi yo'qligi, jinoyat sodir etilishida aybi bor bo'lgan (isbotlangan) shaxsni javobgarlikka tortish kerakmi yoki javobgarlikdan ozod qilish kerakligi, aybdor deb topilgan shaxsga jazo tayinlash kerak yoki yo'qligi, qanday va qancha miqdordagi

jazo tayinlash kerakligi, jazoni ijro etish kerak yoki jazodan ozod qilish kerakligi, shuningdek, jazo ijrosi qanday o'talishi kerakligi kabi masalalarni dalillarni to'plash, tekshirish va baholash orqali aniqlash va hal etish jarayonlarida o'z ifodasini topadi.

Jinoyat protsessi fanida ko'proq faoliyat va qonun normalariga tashqi tomondan yondashilib o'rganiladi. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeks tuzilishiga ko'ra fanda jinoyat-protsessual qonunlar, jinoyat protsessining prinsiplari, ishtirokchilari, dalillar va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, tergov harakatlari, protsessual majburlov, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, jinoyatlarning oldini olish choralari, rehabilitatsiya, protsessual muddatlar va chiqimlar, ishni sudga qadar yuritish, tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergovning umumiy shartlari, surishtiruvning umumiy shartlari, jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, surishtiruv va dastlabki tergovni to'xtatish hamda qayta tiklash, surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlash, surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazorat, birinchi instansiya sudida ish yuritish, sudlovga tegishlilik va jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash, sud muhokamasining umumiy shartlari, sud muhokamasining tartibi, hukm, hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatligini tekshirish, apellatsiya tartibida ish yuritish, kassatsiya tartibida ish yuritish, nazorat tartibida ish yuritish, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash, hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish, alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish, ishni sudga qadar yuritishda amnistiya aktini qo'llash, jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik, xorijiy davlatlarning jinoyat protsessi kabi mavzular o'rganiladi.

Jinoyat protsessining vazifalari uning maqsadi bo'lgan – odil sudlovni ta'minlashdan kelib chiqib belgilanadi. Vazifalar mazmunini

anglashda maqsad muhim ahamiyat kasb etadi. Odil sudlov deganda, jinoyat-protsessual faoliyatning muayyan xususiyatga egaligi va uning natijasini tushunish kerak. Odil sudlov atamasini teranroq anglash uchun «sudlov» va «odil» soʻzlarining mazmunini tushunish talab etiladi. Sudlov soʻzi yuqorida taʼriflangan jinoyat-protsessual faoliyatni toʻliq oʻziga qamrab oladi, ammo maʼmuriy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarga oid sudlov tushunchalari ham mavjudligini unutmaslik zarur. Jinoyat protsessining maqsadini ifodalovchi sudlov soʻzi mazmunida jinoyat ishlarini yuritish jarayonlari aks etadi. Odil soʻzi esa «adolat», «bir tomonga yon bosmay, qonun va adolat yuzasidan, xolisona, haqqoniy ish tutadigan» maʼnolarini anglatadi. Odil sudlovning maʼnosi haqiqiy holatni aniqlab, tomonlar oʻrtasidagi kelishmovchilik yoki nizoning sud tomonidan bir tomonga yon bosmay, qonun va adolat yuzasidan, xolisona hal qilib berilishini bildiradi. Odil sudlovni taʼminlash osongina erishiladigan natija emas. Odil sudlovni taʼminlash deganda, jinoyat ishlarining adolatli hal qilinishiga, qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlari qabul qilinishiga, ijtimoiy adolat oʻrnatilishiga xizmat qiladigan hukm chiqarilishiga, yanada aniqroq aytganda jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi boʻlmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligiga erishish tushuniladi.

Odil sudlovni taʼminlash jinoyat ishlarining haqqoniy hal qilinishiga xizmat qiladigan ish yuritish mexanizmlari, adolatli hal qiluv qarorlari qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoit yaratadigan tartib-qoidalar belgilanishi va ularga rioya etish orqali amalga oshadi. Yaʼni jinoyat-protsessual qonun asosida amalga oshiriladigan jinoyat-protsessual faoliyat pirovardida odil sudlovni taʼminlashi kerak.

Odil sudlovni taʼminlash uchun bajarilishi kerak boʻlgan jinoyat protsessining vazifalarini uning jamiyat hayotida tutgan oʻrnini bildiruvchi umumijtimoiy hamda jinoyat ishini tergov qilish va hal qilishda erishilishi kerak boʻlgan aniq vazifalariga ajratish mumkin. Jinoyat protsessining umumijtimoiy va aniq vazifalari jinoyat ishlari boʻyicha odil sudlovni taʼminlash uchun uygʻunlashadi. Jinoyat protsessining asosiy va pirovard

maqsadi bo'lgan odil sudlov faqat sud tomonidan eng yuqori darajadagi huquqiy kafolatlarni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessining umumijtimoiy vazifalari qonuniylikni mustahkamlash; jinoyatlarning oldini olish; shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishdan iborat. Umumijtimoiy vazifalar bilvosita, ya'ni aniq vazifalar ijro etilishi orqali bajariladi. Shunga ko'ra jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi umumijtimoiy vazifalar – qonuniylikni mustahkamlash; jinoyatlarning oldini olish; shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga ko'maklashishi shart.

Jinoyat protsessining aniq vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- jinoyatlarni tez va to'la ochish;
- jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lganlarni fosh etish;
- qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash (JPK 2-m.).

Jinoyatlarni tez va to'la ochish mazmunini tushunish uchun «jinoyatni ochish», «jinoyatni tez ochish» va «jinoyatni to'la ochish» jumla-larining ma'nolarini yaxshi anglash zarur bo'ladi. *Jinoyatni ochish* deganda, jinoyat sodir etgan shaxsning va jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan shaxsning kimligini (uning qayerdaligini) aniqlash tushuniladi. *Jinoyatni tez ochish* deganda, Jinoyat sodir etilganligi ma'lum bo'lganidan boshlab qisqa vaq oralig'ida, ya'ni darhol yoki o'n sutka ichida jinoyat sodir etgan shaxsning kimligi va uning qayerdaligini aniqlash tushuniladi. Darhol deganda, o'sha zahoti jinoyat sodir etgan shaxsni jinoyat ustida yoki uni sodir etishi bilan qo'lga olishni tushunish kerak. *Jinoyatni to'la ochish* deganda, jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanishi bilan birga uning boshqa jinoiy sheriklari va boshqa jinoiy qilmishlarini ham aniqlash tushuniladi. Umumiy qilib aytganda jinoyat sodir etgan shaxsning va jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan barcha shaxslarning kimligini, ularning qayerdaligini, ularning boshqa barcha jinoiy qilmishlarini qisqa fursat ichida aniqlash tushuniladi.

*Jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lganlarni fosh etish* deganda, jinoyat sodir etilishida aybi bo'lgan shaxslarni aybini aloqador, maqbul, ishonchli va yetarlicha bo'lgan dalillar bilan isbotlash, ya'ni shaxs

jinoyatni qanday sodir etganligi yoki jinoyat sodir etilishidagi ishtiroki qandayligi, jinoyatni ehtiyotsizlik yoki qasddan sodir etganligi, jinoyat natijasida kelib chiqqan oqibat, qancha va qanday zarar yetkazilganligi, shaxsning qilmishi va kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligi holatlari to'plangan va tekshirilgan dalillar bilan to'liq isbotlanganligi tushuniladi.

*Qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash* deganda, jinoyat qonunini to'g'ri qo'llash, ya'ni shaxsning jinoiy qilmishiga to'g'ri huquqiy baho berish, malakalash, shaxsni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarini to'g'ri qo'llash, jinoyat uchun adolatli jazo chorasi tanlash va miqdorini, shuningdek, boshqa ta'sir choralari belgilash tushuniladi.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi obyektiv ravishda jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi. Jinoyatlar qanchalik muvaffaqiyatli ochilsa, sud hokimiyati organlari shunchalik adolatli harakat qiladi, shu bilan birga, jinoyat qonunining kuchidan ham samarali foydalaniladi. Jinoyatlarning o'z vaqtida ochilmasligi, jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarlikka tortilmasligi va jazosiz qolishi yangi jinoyatlar sodir etilishi, huquqiy tartibning susayishi, shaxsning jinoiy tajovuzlardan himoyasiz qolishi uchun sharoit yaratadi.

Jinoyat protsessi fanining vazifalari jinoyat-protsessual qonunning tizimi va rivojlanishini, prinsiplari, ishtirokchilari, jinoyat protsessining bosqichlari, jinoyat ishlarini yuritish tartibi va xususiyatlari, protsessual qarorlar, jinoyat-protsessual huquqiy institutlar mazmuni, takomillashuvi, sud-tergov amaliyotida qo'llanilishi, nazariy va amaliy muammolarini o'rganishdan iborat.

## **1.2. Jinoyat protsessining tizimi, protsessual harakatlar, protsessual qarorlar, jinoyat-protsessual funksiyalar**

Jinoyat protsessining tizimi Jinoyat-protsessual kodeks kabi umumiy va maxsus qismdan, bosqichlardan tashkil topgan. Jinoyat protsessi sodir etilgan jinoyat yoki jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayot-



ganligi yoki sodir etilayotganligi aniqlanishi sababli boshlanadi hamda qonun bilan belgilangan bir nechta bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar jinoyat protsessining vazifalarini samarali bajarish uchun zarur shart-sharoit yaratuvchi mantiqiy izchil tizimni tashkil qiladi. Har bir bosqich keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zamin yaratadi. Binobarin, jinoyat protsessining tizimi JPKda (320<sup>1</sup>–338; 344–388; 395–404; 428–477; 497<sup>1</sup>–497<sup>18</sup>; 498–509; 510–521; 528–546-m.) nazarda tutilgan bosqichlardan, jinoyat protsessi ilm va o'quv fani sifatida bo'limlar va boblardan, shu jumladan, fanning predmeti, metodologiyasi, tarixi kabilardan iborat.

Jinoyat protsessi fani asta-sekin, tarixiy rivojlanish natijasida shakllangan bilimlar tizimidir. U ushbu fan doirasidagi masalalar majmuini, jumladan, qonuniy tartibga solish, qonunni qo'llash hamda jinoyat protsessi o'quv fani tizimiga oid boshqa masalalarni qamrab oladi.

Jinoyat protsessi o'quv fanining mazmuni fandagi muammolarning o'rganilishi bilan chambarchas bog'liq. Fanda erishilgan yutuqlar jinoyat protsessining mazmuniga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quv fanining mazmuni va uni nazariy o'rganish (dars berish)ning darajasi jinoyat protsessi muammolarining ilmiy jihatdan o'rganilganlik darajasiga bog'liq. Jinoyat protsessi fani tizimining ko'p jihatdan jinoyat-protsessual qonun tizimini aks ettiradi. Jinoyat protsessi o'quv fanining tizimi jinoyat protsessining dasturidan kelib chiqib, uning tushunchalari, institutlari va bosqichlarining izchil yoritib berilishini ta'minlaydigan tartibda bayon etiladi.

Jinoyat protsessi nafaqat davlat organlari va shaxslarning qat'iy belgilangan tartibdagi faoliyatini, balki jinoyat ishini yuritish bosqichlariga ajratilgan *protsessual harakatlar tizimini* ham qamrab oladi. Bunday harakatlar tizimi muayyan bosqichlarda faoliyat olib borishni ta'minlaydi. Jinoyat protsessining bosqichi umumiy vazifalar bilan birlashtirilgan hamda vakolatli organlar ish bo'yicha chiqaradigan xulosalar bilan yakunlanuvchi protsessual harakatlar va qarorlar

majmuidir. Har bir bosqich keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatilishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

*Jinoyat protsessining bosqichlari deganda*, protsessning o'zaro bog'liq, nisbatan mustaqil, bevosita vazifalar, ishtirok etadigan organlar va shaxslar doirasi, faoliyat tartibi va jinoyat-protsessual munosabatlar xususiyati bilan ajralib turadigan, vakolatli shaxsning ish bo'yicha qabul qiladigan to'xtam va qarorlari bilan yakunlanuvchi, alohida qismlari tushuniladi. Jinoyat protsessi tergovga qadar tekshiruv (jinoyat ishini qo'zg'atish), jinoyat ishini tergov qilish (surishtiruv va dastlabki tergov), jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash, sud muhokamasi (sud majlisi), apellatsiya tartibida ish yuritish, kassatsiya tartibida ish yuritish, nazorat tartibida ish yuritish, hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish kabi bosqichlardan iborat.

Tergovga qadar tekshiruv (jinoyat ishini qo'zg'atish) birinchi va zaruriy bosqich bo'lib, unda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror jinoyat ishi qo'zg'atish uchun sabab va asos mavjudligiga doir masalani hal qiladi, jinoyat alomatlarini aniqlanganda jinoyat ishi qo'zg'atadi, yoki mavjud asoslarga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etadi.

*Tergovga qadar tekshiruv deganda*, jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotni ro'yxatga olish hamda jinoyat ishini qo'zg'atish sababi qonuniyligini va asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida ayrim tergov va protsessual harakatlarini o'tkazish, olingan yoki aniqlangan ma'lumotlardan kelib chiqib, jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi.

Jinoyat ishini tergov qilish bosqichi barcha jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilishi majburiy. U surishtiruv va dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu bosqichda surishtiruvchi va tergovchi jinoyatlarni ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish vazifasini bajaradi, ishning qonuniy, asosli va adolatli hal qilinishi uchun zarur bo'lgan boshqa barcha holatlarni aniqlaydilar, sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash choralarini ko'radi.

*Jinoyat ishini tergov qilish bosqichi* deganda, jinoyatni tez va to'la ochish, uni sodir etgan shaxslarni fosh etish va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, jinoyatni va uning oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish, jinoyatning sabablari va uning sodir bo'lishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, shuningdek, jinoyat tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish maqsadlarida surishtiruv va dastlabki tergov organlarining ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan dalillarni to'plash, tekshirish, shuningdek, ishni tugatish yoki ishni sudga yuborish haqida tegishli qaror qabul qilish borasidagi (baholash) faoliyati tushuniladi.

Ishni sudga qadar yuritish prokuror nazorati ostida amalga oshiriladi.

*Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichi* deganda, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan sudga kelgan ishni sudda muhokama qilish uchun barcha asoslar mavjudligi, sud majlisi joyi va vaqtini tayinlash, bu haqda chaqirilishi zarur bo'lgan protsess ishtirokchilariga xabar berish, protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash, shuningdek, sud muhokamasi har tomonlama, to'liq va xolisona o'tkazilishi hamda ishni qonuniy, asosli, adolatli hal etilishi uchun zarur bo'lgan boshqa barcha shart-sharoitlarni yaratish va tashkiliy choralarini ko'rishga qaratilgan va bu haqda tegishli qaror chiqariladigan jarayon tushuniladi.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida jinoyat ishi ayblov xulosasi yoki boshqa qaror bilan sudlovga tegishlilik qoidalariga muvofiq tegishli sudga kelib tushgandan so'ng sud ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilishi, uning mazmuni bilan tanishib chiqishi, ish yuritishni to'xtatishi, jinoyat ishini tugatishi, texnik yo'sindagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ishni prokurorga yuborishi mumkin.

*Sud muhokamasi* deganda, sud majlisida jinoyat ishini ko'rib chiqish orqali jinoyat sodir etilgan yoki sodir etilmaganligiga, sudlanuvchi ushbu jinoyatni sodir etgan yoki sodir etmaganligiga, sudlanuvchining aybi

bog'liq yoki aybi yo'qligiga, sudlanuvchi javobgarlikka tortilishi va jazolanishi kerak yoki kerak emasligiga, jazoning turi va miqdori qanday bo'lishi kerakligi, jazo o'talishi kerakligi va u qanday o'talishi yoki jazodan ozod qilish kerakligi, shuningdek, mazkur jinoyat ishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan, hukm yoki ajrim chiqarish bilan yakunlanadigan munozara, tortishuv jarayoni tushuniladi.

Sud muhokamasi jinoyat protsessining markaziy bosqichi bo'lib, unda sud sudlanuvchining aybdorligi yoki aybsizligiga hamda unga nisbatan jinoiy jazoni qo'llash yoki qo'llamaslikka doir masalani hal qiladi. Odil sudlovning eng muhim hujjati bo'lmish sud hukmi faqat sud muhokamasi natijasidagina chiqarilishi mumkin.

*Apellatsiya tartibida ish yuritish bosqichi* deganda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan apellyatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest asosida, birinchi instansiya sudida chiqarilgan hukm, ajrim, qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish maqsadida jinoyat ishini yuqori instansiya sudida to'liq qayta ko'rilishi, shuningdek, hukmni bekor qilish va yangi hukm chiqarish yoki ishni tugatish yoxud ishni yangidan sudda ko'rish uchun yuborish, hukmni o'zgartirish yoki o'zgarishsiz qoldirish haqida ajrim chiqarish jarayoni tushuniladi.

*Kassatsiya tartibida ish yuritish* deganda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmi ustidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest asosida, birinchi instansiya sudi chiqargan hukm, ajrim, qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish maqsadida jinoyat ishini yuqori instansiya sudida kassatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan holatlardan kelib chiqib qayta ko'rilishi, shuningdek, hukmni bekor qilish va ishni tugatish yoki ishni yangidan sudda ko'rish uchun yuborish, hukmni o'zgartirish yoki o'zgarishsiz qoldirish haqida ajrim chiqarish jarayoni tushuniladi.

Apellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritishda sud ish materiallari hamda qo'shimcha ravishda taqdim etilgan hujjatlarga, eng muhimi, adolat mezonlariga asoslanadi.

*Nazorat tartibida ish yuritish bosqichi* deganda, apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan chiqarilgan hukm yoki ajrimlar, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan chiqarilgan ajrimlar ustidan nazorat tartibida bildirilgan protest asosida apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi chiqargan hukm yoki ajrimning, shuningdek, birinchi instansiya sudi chiqargan hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatligini tekshirish maqsadida jinoyat ishining protestda keltirilgan holatlardan kelib chiqib qayta ko‘rilishi, shuningdek, hukmni bekor qilish va ishni tugatish yoki ishni yangidan sudda ko‘rish uchun yuborish, hukmni o‘zgartirish yoki o‘zgartirishsiz qoldirish haqida ajrim chiqarish jarayoni tushuniladi. Nazorat instansiyasi sudining ajrimi (qarori) ustidan ham nazorat tartibida protest kiritilishi va yuqori sud instansiyasida mazkur jinoyat ishi nazorat tartibida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Nazorat tartibida ish yuritish barcha jinoyat ishlarida ham mavjud bo‘lmaydi. Ushbu bosqich istisnoli bosqich deb ataladi, chunki unda qonuniy kuchga kirgan, aksariyat hollarda esa hatto ijro etilgan yoki ijro etilayotgan hukmlar, ajrimlar va qarorlar juda kam qismi yuqori sudlar tomonidan vakolatli subyektlarning protestlari asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

*Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish bosqichi* deganda, qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrim, qarorlarda belgilangan qarorlarning ijrosini ta‘minlashga qaratilgan, hukmni chiqargan sudning, hukm ijrosini ta‘minlash yuklatilgan vakolatli mansabdor shaxslarning hukmni ijro ettirish, hukm ijrosini tashkil etish, bevosita ijroni ta‘minlash, hukmni ijro etish vaqtida yuzaga keladigan protsessual masalalarni hal etishga qaratilgan protsessual faoliyat tushuniladi.

Ushbu bosqich mantiqan qaralgandi jinoyat protsessi so‘nggi bosqichi bo‘lib, sud hukmida ifodalangan qarorlarni ijro ettirish, hukmni ijro etish paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan protsessual masalalarni hal qilish tartibini o‘zida qamrab oladi.

Jinoyat protsessining bosqichlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Ishni sudga qadar yuritish bosqichlari:

tergovga qadar tekshiruv;  
jinoyat ishini tergov qilish;  
2. Sud bosqichlari:  
jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash;  
sud muhokamasi;  
apellatsiya tartibida ish yuritish;  
kassatsiya tartibida ish yuritish;  
3. Alohida bosqichlar:  
nazorat tartibida ish yuritish;  
hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish.

Jinoyat protsessining bosqichlari *protsessual harakatlar* yig‘indisidan tashkil topadi.

*Protsessual harakatlar* deganda, jinoyat protsessining maqsadiga qaratilgan, vazifalar ijrosini ta‘minlash uchun jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibda, jinoyat protsessining ishtirokchilari tomonidan amalga oshiladigan, har biri muayyan maqsad va vazifaga ega bo‘ladigan, protsessual tartibda rasmiylashtiriladigan harakatlar tushuniladi.

Protsessual harakatlar orasida JPKda qat‘iy tartibga solingan tergov harakatlari muhim o‘ringa ega. Tergov harakatlarining sifatli o‘tkazilishi jinoyat ishlarini tergov qilish va sud muhokamasining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Jinoyat ishlarini yuritishda o‘tkaziladigan protsessual harakatlar miqdori tergov harakatlari soniga nisbatan ancha ko‘p bo‘ladi. Tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, tergov qilish va ko‘rib chiqish bilan bog‘liq butun jinoyat-protsessual faoliyat protsess ishtirokchilarining aniq protsessual harakatlaridan tashkil topadi.

Protsessual harakatlarning mazmuni ularning huquqiy tartibi bilan bog‘liq bo‘lib, harakatlarning xususiyati, ularni amalga oshirish ketma-ketligi va huquqiy oqibatlari qonun bilan tartibga solinadi.

Protsessual harakatlar – nafaqat protsess ishtirokchilarining huquq va burchlarini amalga oshirish, balki jinoyat protsessi vazifalarini hal qilishning ham muhim usulidir. Protsessual harakatlar juda xilma-xil bo‘lib, ko‘plab asoslar – subyektlari, predmeti, mazmuni, huquqiy

ahamiyati, bosqichlari, maqsadlari, ushbu faoliyat orqali amalga oshiriladigan protsessual funksiyalarga ko‘ra tasniflanishi mumkin.

Protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan har qanday shaxs protsess ishtirokchisi va jinoyat-protsessual faoliyat subyekti hisoblanadi. Ammo protsessual faoliyat subyektlarining vazifalari JPKda ularga berilgan vakolatlar, huquq va majburiyatlar xususiyati bo‘yicha o‘zaro keskin farq qilishi mumkin. Shunga ko‘ra, ularning jinoyat protsessining vazifalarini bajarishga qaratilgan protsessual harakatlari ham farqlanadi. Masalan, davlat organlari va ularning vakillari bo‘lgan mansabdor shaxslar – sud va sudya ishni ko‘rib chiqish, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishlarini tergov qilish borasidagi davlat funksiyalarini bajaradilar. Ularning faoliyati hokimiyat xususiyatiga ega bo‘lib, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan boshlab hukm ijro etilguniga qadar bo‘ladigan harakatlarini qamrab oladi. Ushbu protsessual harakatlari JPKda batafsil belgilab qo‘yilgan bo‘lib, muayyan hodisalar yuz berganda yoki shart-sharoitlar yuzaga kelganda bajarilishi shart hisoblanadi.

Jinoyat protsessining o‘z manfaatlarini yoki vakolat bergan shaxs manfaatlarini himoya qiluvchi, jinoyat protsessida ishtirok etish uchun jalb etilgan, yoxud o‘z ixtiyori bilan protsessga kirishgan boshqa ishtirokchilarining harakatlari hokimiyat xususiyatiga ega emas va har doim ham JPK bilan tartibga solinmaydi. Masalan, jinoyat protsessidagi ishtiroki o‘z manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar va fuqaroviy javobgar o‘zlariga tegishli bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish va tegishli protsessual harakatlarni bajarish masalasini o‘z xohishlariga ko‘ra hal qilishlari mumkin bo‘lsa, boshqa shaxsning manfaatini himoya qilayotgan shaxslar (himoyachi va vakillar) o‘z harakatlarini tanlashda kamroq erkinlikka egadirlar. Protsessda ishtirok etishga uning vazifalarini bajarishda ko‘maklashish uchun jalb qilingan shaxslar (guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar va boshqalar) esa belgilangan huquqiy maqomi doirasida harakat qiladilar: qo‘yilgan savollarga javob beradilar, taqdim etilgan matnni tarjima qiladilar va h.k.

Jinoyat protsessi subyektlarining huquqiy maqomi nuqtai nazaridan harakatlarni majburiy va nomajburiy, asosiy va hosila, hokimiyat xususiyatiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan harakatlarga ajratish mumkin. Protssual harakatlar predmeti, umuman olganda, jinoyat protsessining predmeti bilan mos kelib, uni ushbu harakatning aniq maqsadiga va harakat qiluvchi subyektning manfaatlariga yaqinlashtiradi hamda maqsadning yanada oydinlashishi uchun xizmat qiladi.

Jinoyat-protssual faoliyatning va protssual harakatlarning asosiy qismini isbotlash jarayonlari tashkil qiladi. Dalillarni to'plash, qayd etish, tekshirish va baholash, shuningdek, ushbu faoliyat uchun muayyan shart-sharoitlar yaratish (ya'ni ehtiyot choralarini qo'llash, dastlabki tergov va qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish kabilar hamda ular asosida protssual qarorlarni qabul qilish) bilan bog'liq harakatlar, aslida, jinoyat protsessining predmetini tashkil qiluvchi, amalga oshirilayotgan faoliyatning xususiyatini belgilab beradi.

Faktik mazmuniga ko'ra, protssual harakatlar subyektning faol harakatlariga (so'roq qilish, yuzlashtirish, tintuv o'tkazish, ashyolarni olib qo'yish, shaxsni ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish, iltimos va shikoyatlar qilish, qaror qabul qilish) hamda muayyan protssual oqibatlarga olib keluvchi passiv xatti-harakatiga, harakatsizligiga (masalan, mahkum yoki jabrlanuvchining shikoyat berish huquqini rad etish kabilarga) ajratilishi mumkin.

Protssual harakatlar ularning huquqiy munosabatlar bilan aloqasiga ko'ra ham o'zaro farqlanishi mumkin. Protsess subyektlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarsiz mavjud bo'la olmaydigan harakatlar (masalan, so'roq qilish, iltimos keltirish, sudda nutq so'zlash kabilar) ham bor. Shuningdek, bir tomonlama, ya'ni huquqiy munosabatdan avval keluvchi, uni yuzaga keltiruvchi protssual harakatlar ham mavjud (masalan, jinoyat ishi qo'zg'atish, shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorlarni chiqarish, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash haqida ajrim chiqarish va h.k.). Ushbu harakatlarning o'zi



huquqiy munosabatlar mazmunini tashkil etmaydi. Ular yuridik faktlar vazifasini bajaradi. Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi ushbu faktlarga bog‘liq bo‘ladi.

Nihoyat, protsessual harakatlar protsessning bosqichlari bo‘yicha guruhlashtirilishi mumkin, chunki ularning xususiyati to‘planib boradigan axborotning xususiyati va hajmiga hamda qabul qilinadigan qarorlar xususiyatiga bog‘liq. Masalan, ishni sudga qadar yuritishda protsessual harakatlarning xususiyatlari ko‘proq axborot izlash vazifalari bilan, sud bosqichlarida esa ularni tekshirish va baholash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Protsessual harakatlarni tasniflash uchun turli asoslarning mavjudligi ularning tizimni tashkil etuvchi xususiyatlari ifodasi bo‘lib, ushbu xususiyat harakatlarni yetarlicha aniq tizimga jamlash imkonini beradi. Jinoyat protsessi – protsessual harakatlarning shunchaki yig‘indisi emas, balki protsessual faoliyatning predmeti, vazifalari va maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar tizimidir. Chunki protsessual faoliyatni va harakatlarni amalga oshirishdan ko‘zlanadigan maqsad oxir-oqibatda jinoyatni ochish, uning sodir etilish holatini aniqlash, aybdorlarni fosh etish va adolatli jazo tayinlash, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sudning huquqni qo‘llash faoliyati – qarorlar qabul qilishni ham o‘z ichiga oladigan protsessual harakatlar tizimidan tashkil topadi. Protsessual hujjatlarda aks etadigan ushbu qarorlar jinoyat ishini yuritishda yuzaga keladigan ayrim savollarning yechimiga oid xulosa va to‘xtamlarni ifodalaydi. Qarorlar hujjatda qayd etiladi. Ushbu hujjat esa huquqni qo‘llovchi subyektning yuridik harakatini asoslantiruvchi, alohida huquqiy ko‘rsatma mavjudligini ta’minlovchi shakldir.

Jinoyat-protsessual kodeksda ish yuritish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va qaror qabul qilishni talab etadigan yuzdan ortiq turli xil protsessual-huquqiy masalalar belgilangan. Ushbu masalalarga oid qarorlarda huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, muayyan

harakatlarni sodir etishga imkon beradigan va huquqiy ko'rsatmalar («jinoyat ishini qo'zg'atish», «jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish», «ish yuritishni tugatish» va boshqalar)ni bajarish talab etilmaydigan holatlarning bor-yo'qligiga aniqlik kiritilishi shart.

*Protsessual qarorlar* boshqa qarorlar singari muayyan masalaning yechimiga oid bo'ladi hamda faqat protsessual faoliyat davomida, jinoyat protsessining subyektlari tomonidan qabul qilinadi va protsessual masalaning yechimini aks ettiradi. Protsessual qaror mazmunan ham rasmiy ish yurituv hujjatining nomi, ham shaxs aqliy faoliyatining natijasi yoki muayyan masalaga oid tahliliy fikrlash jarayonining oraliq yoxud yakuniy bosqichidagi xulosa, to'xtam hisoblanadi. Rasmiy hujjat sifatida qaror yozma shaklda bo'ladi. Xulosa yoki to'xtam sifatida esa qaror jarayonni aks ettiradi va og'zaki, yozma shakllarda bo'ladi. Xulosa yoki to'xtam sifatidagi qaror albatta hujjatda ramiylashtirilishi shart. Rasmiy hujjat sifatida qaror shaklni bildirsa, xulosa yoki to'xtam sifatidagi qaror munosabatni, ya'ni hal qiluvchi fikrni, mulohazani bildiradi. Rasmiy hujjat sifatida «qaror chiqarish» deyilsa, xulosa yoki to'xtam sifatida «qaror qabul qilish» deyiladi. Protsessual faoliyat tizimida protsessual qaror deyilganda ko'pincha faoliyat natijasida qabul qilinadigan xulosa yoki to'xtam sifatidagi qaror nazarda tutiladi.

Shunday qilib, protsessual huquqiy qarorda muayyan vaziyatda umumiy me'yoriy qoidaga muvofiq ravishda «nima aniqlandi» va «qanday harakat qilish kerak», degan savollarga javob beriladi. Protsessual qarorlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya jinoyat ishini yuritishi davomida qabul qiladigan taktik qarorlardan farqlash kerak. *Taktik qaror* maqsadga erishish va faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlash uchun umumiy tergov vaziyatiga, tergov jarayonining borishi va natijalariga, alohida tergov va boshqa protsessual harakatlarning qismlariga ta'sir ko'rsatish usullari, yo'llari va vositalarini tanlash, harakatlarni amalga oshirish ketma-ketligini aniqlash hamda ushbu usul, vosita va ketma-ketlikka rioya etish vaqti va joyi haqidagi xulosalar majmuidir.

Protsessual qarorlar mansabdor shaxslar va davlat organlarining o'z majburiyatlarini bajarish vositasigina emas, balki protsess ishtirokchilari-ning protsessual huquq va majburiyatlarini amalga oshirish sharti hamdir. Protsessual qonunchilikni qo'llash hujjatlari sifatida qarorlar jinoyat, fuqarolik, jinoyat-ijroiya qonunlari tatbiq etilishini aks ettirish vazifasini ham bajaradi. Ayrim qarorlar faqat protsessual qonun hujjatlarini qo'llashga asoslanadi va protsessual harakatlarni bajarish haqida ko'rsatma beradi (masalan, surishtiruvchi, tergovchining ish yurituvini to'xtatib turish haqidagi qarori yoki sudning hukm ijrosini kechiktirish haqidagi ajrimi), boshqa protsessual qarorlarda (masalan, jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish haqidagi hukm) jinoyat huquqiga, yana boshqalarida (chiqarilgan hukmning fuqaroviy da'voga oid qism bo'yicha) esa fuqarolik huquqiga oid masalalarning ham yechimi mavjud bo'ladi.

Protsessual faoliyat va ushbu faoliyat davomida qabul qilinadigan qarorlar pirovardida jinoyatlarga oid qonun hujjatlarining normalarini qo'llashga qaratilgan bo'lib, ularning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, jinoyat-protsessual qaror jinoyat-protsessual qonunlarning ko'rsatmalarini qo'llash hujjatidir, shu sababli u ushbu qonunchilik ko'rsatmalarini amalga oshirish hujjati sifatida mustaqil huquqiy mazmun va ahamiyatga ega.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, tergov, prokuratura va sud organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qabul qilishi mumkin bo'lgan qarorlarda protsessual faoliyatning xususiyatlari, vazifalari hamda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashda tutgan o'рни aks etadi. Jinoyat protsessida ushbu qarorlar yuridik kuchi bilan ajralib turadi. Ular yuridik normalarning kuchiga va huquqni qo'llovchi subyektlarning hokimiyatdan olgan vakolatlariga tayanadi. Jinoyat protsessida qarorlarning yuridik kuchi ushbu hujjatlar bajarilishining majburiyligida namoyon bo'ladi.

Qonun normalarini qo'llash borasidagi faoliyatning hokimiyatga xos xususiyati protsessual qarorlar mazmunida hamda ushbu

normalarning bajarilishini ta'minlash uchun qaror chiqargan mansabdor shaxslargina qo'llashga haqli bo'lgan vositalarda namoyon bo'ladi.

Jinoyat protsessida qaror hukm, ajrim yoki hal qiluv qarori, shuningdek, prokurorning sanksiyasi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning qarori, topshirig'i, ko'rsatmasi, taqdimnomasi shakllarida chiqariladi. Hal qiluv qarori – hujjatning mohiyatini, huquqiy tabiatini ifodalasa; qaror, ajrim, hukm – hujjat shaklini aks ettiruvchi bir turga oid tushunchalardir.

Jinoyat protsessida qabul qilinadigan qarorlar ularni qabul qilishga vakolatli subyektlar (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sud); hal qilinadigan masalalarning mazmuni bo'yicha (protsess ishtirokchisini, masalan, jabrlanuvchi deb topish to'g'risida, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risida); funksional vazifasi (masalan, boshlang'ich – ish qo'zg'atish to'g'risida; ish yuritishni yakunlovchi – ishni tugatish haqidagi qaror; ishni mazmunan hal qiluvchi – hukm; jinoyatning oldini olishga qaratilgan – taqdimnoma va xususiy ajrim); yuridik kuchi (qonuniy kuchga kirgan va kirmagan qarorlar); qarorlarning majburiy kuchi daxldor bo'lgan shaxslar doirasi bo'yicha tasniflanishi ham mumkin.

Har bir alohida olingan qaror bir necha tasniflovchi belgilarga ega bo'lishi mumkin.

Protsessual qarorning jinoyat-protsessual qonun normalarini qo'llash hujjati sifatida ega bo'lgan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud: a) qarorlarni faqat ishni yuritayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z vakolatlari doirasida chiqarishlari mumkin; b) qarorlarda davlat organlarining hokimiyat irodasi aks etadi, ular jinoyat-protsessual munosabatlarni yuzaga keltiradi, o'zgartiradi yoki tugatadi, moddiy-huquqiy munosabatlarning mavjudligini tasdiqlaydi yoki yo'qligini aniqlaydi; v) JPKda belgilangan tartibda chiqarilishi va unda belgilangan shaklda ifodalanishi kerak.

Jinoyat protsessida qaror JPKda belgilangan protsessual shaklda ifodalanuvchi hujjat sifatida ta'riflanishi mumkin. Unda tergovga qadar

tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sud o'z vakolatlari doirasida ish yuzasidan paydo bo'ladigan huquqiy savollarga belgilangan tartibda javob beradi hamda aniqlangan holatlardan va jinoyat protsessining vazifalarini bajarishga qaratilgan qonun normalarining ko'rsatmalaridan kelib chiquvchi harakatlar xususida hokimiyatning irodasini aks ettiradi.

Jinoyat protsessida qabul qilinadigan barcha qarorlar tizimiga muayyan ijtimoiy hodisa sifatida qarash mumkin. Chunki ushbu qarorlar shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini, sog'lig'i, hayoti va mol-mulkini, shuningdek, davlatni himoya qilish uchun katta ahamiyatga ega. Qarorlarning ijtimoiy qadri ularning shaxsni sud hukmidan boshqacha tartibda aybdor deb topishga yo'l qo'yilmasligi, protsessning barcha ishtirokchilariga ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlanishini ta'minlash, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash singari muhim talablarni ifodalovchi huquqiy ko'rsatmalar amalga oshirishini belgilagan hujjatlar ekanligi bilan bog'liq.

Shunday qilib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sud qabul qiladigan qarorlari orqali shaxsning huquqiy himoyalanganligiga, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari amalga oshirilishining kafolatlanishiga ko'maklashishlari kerak. Protsessual qarorlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining o'z vazifalarini bajarishlari va butun faoliyati davomida zimmasiga yuklatilgan funksiyalarni ijro etishlarining eng muhim omildir.

Jinoyat protsessining funksiyalari uning vazifalaridan kelib chiqadi. *Jinoyat-protsessual funksiyalar* deganda, jinoyat protsessining vazifalarini hal etish, ish yurituvining maqsadga muvofiq yo'nalishda borishi va samarali natijasini ta'minlovchi organlar va shaxslar faoliyatining asosiy yo'nalishlari tushuniladi.

Jinoyat-protsessual faoliyat protsessual funksiyalarga mos keluvchi muayyan yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi. Shuningdek, protsess ishtirokchilari amalga oshiradigan protsessual faoliyat mazmuniga ko'ra

quyidagi funksiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin: tergov, ayblov, himoya, nazorat, ishni hal qilish (odil sudlov).

Jinoyat protsessining funksiyalari quyidagicha tasniflanadi:

*asosiy funksiyalar*: odil sudlov; ayblov; himoya; tergov;

*qo'shimcha funksiyalar*: jinoyatlarning oldini olish; yetkazilgan zararni qoplash; huquqni tiklash.

*Odil sudlov* – sudning jinoyat ishini har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqish, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etilishida aybi bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish, unga qonuniy, asosli va adolatli jazo tayinlash hamda aybsiz shaxsni oqlashga qaratilgan faoliyatidir.

Odil sudlov sudga xos bo'lgan va faqat sud tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim jinoyat-protsessual funksiya bo'lib, sud majlisida jinoyat ishini ko'rib chiqish va jinoyat sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxslarga jazo qo'llash yoki aybsiz shaxslarni oqlashdan iborat. Uning asosiy mazmunini sud majlisida ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'liq, xolisona tekshirish, jinoyat ishini ko'rib chiqish va hukm chiqarish tashkil etadi. Birinchi, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalarida amalga oshirilishi mumkin.

*Ayblov* – vakolatli organlar va shaxslarning jinoyatni ochish, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etilishida aybi bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortish, shuningdek, jazolash haqidagi masalalar to'g'ri hal qilinishini ta'minlash maqsadida ushbu shaxsning aybdorligini isbotlashga qaratilgan faoliyati.

Ayblov funksiyasini kim va qanday shakllarda bajarishiga ko'ra uning uch turi farqlanadi: davlat (ommaviy) ayblovi, xususiy-ommaviy (aralash) va xususiy (jabrlanuvchi quvvatlaydigan) ayblov.

Ayblovning asosiy shakli davlat ayblovi bo'lib, uni prokuror amalga oshiradi va jamoat birlashmasi yoki jamoa vakili – jamoat ayblovchisi quvvatlashi mumkin.

Xususiy-ommaviy ishlar faqat jabrlanuvchining shikoyati bo'lganda qo'zg'atiladi va keyinchalik ayblovni prokuror ham

quvvatlaydi. Muayyan shartlar bajarilganda jabrlanuvchining ayblanuvchi bilan yarashuvi natijasida ayblov tugatilishi mumkin. Ayblovni quvvatlash huquqi jabrlanuvchi va prokurorga tegishli.

Xususiy ayblov faqat jabrlanuvchining shikoyati (xususiy ayblov) bo'lgandagina qo'zg'atiladigan, sudgacha ish yuritishda ham sudda ishni ko'rishda ham faqat jabrlanuvchining talabi yoki roziligi bilangina ayblovni tugatish mumkin bo'lgan jinoyat ishlarida amalga oshiriladi. Bu toifa ishlarda ayblovni faqat jabrlanuvchi quvvatlaydi va ayblovni tugatishda faqat jabrlanuvchining xohish-irodasi inobatga olinadi. Jinoyat-protsessual kodeksning 325-moddasiga ko'ra mamlakatimizda qisman xususiy ayblovni amalga oshirish tartibi belgilangan. Chunki, to'liq xususiy ayblovda ushbu turdagi jinoyat ishlari qo'zg'atilganidan keyin ham agar jabrlanuvchi shikoyatini qaytarib oladigan bo'lsa, boshqa hech qanday shartlarsiz ayblovni tugatish tartibi belgilanishi talab etiladi.

*Himoya* – ayblovni rad etish va ayblanuvchining aybsizligini aniqlash yoki uning javobgarligini yengillashtirishga qaratilgan o'ziga xos protsessual faoliyatdir. Himoya funksiyasi asosan advokatlar, shuningdek, jimoat birlashmasi yoki jamoaning vakili tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligining ta'minlanishi odil sudlovni amalga oshirishning muhim shartidir. Shunga asosan himoya funksiyasi ham dastlabki tergov va sud muhokamasi paytida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlari himoyalashida muhim ahamiyatga ega bo'lgan himoyachining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

*Tergov* – jinoyat sodir etilganligi, ish qo'zg'atish zarurati bor yoki yo'qligini, jinoyatni kim sodir etganligini va uning aybi bor yoki yo'qligini, jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish kerakmi yoki yo'qligini aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash, shuningdek, sudga qadar va sudda ish yuritish uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Jinoyatlarni tergov qilish jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi

organlar, surishtiruvchi, tergovchi va qisman prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin tergovga qadar tekshiruv, ish qo‘zg‘atildandan keyin esa surishtiruv yoki dastlabki tergov amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruv – jinoyat haqidagi ariza yoki boshqa xabarlar kelib tushgandan so‘ng jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabab va asoslari mavjudligini aniqlash; jinoyatni tez ochish; jinoyat sodir etgan shaxsning qochib ketishiga yoki yashirinishiga, shuningdek, dalillarning yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaslik; jinoyatning oqibatlarini bartaraf etish yoki jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararining o‘rni qoplanishini ta‘minlash maqsadida barcha kechiktirib bo‘lmaydigan harakatlarni amalga oshirish faoliyatidir.

Tergovga qadar tekshiruvning vazifasi jinoyat hodisasi sodir etilganmi yoki yo‘qligi, jinoyat sodir etilgan bo‘lsa jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabab va asoslari mavjudmi yoki yo‘qligi, jinoyat ishini qo‘zg‘atish kerakmi yoki ish qo‘zg‘atishni rad etish kerakligi, qanday sabab va shart-sharoitlari jinoyatga olib kelganligi, jinoyatning oqibatlarini bartaraf etish yoki yetkazilgan mulkiy zararining o‘rni qoplanishini ta‘minlash uchun qanday choralar ko‘rish kerakligi kabi masalalarni hal etish hisoblanadi.

Surishtiruv – ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va ayrim og‘ir jinoyatlarga doir ishlarda jinoyat sodir etgan shaxsni, uning aybi bor yoki yo‘qligini aniqlash, agar aybi bor bo‘lsa, uni javobgarlikka tortish va jazolash masalasini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish uchun aniqlanishi zarur bo‘lgan holatlarga oid dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash faoliyatidir. Surishtiruv jinoyat ishini tergov qilishning qisqaroq shakli bo‘lib surishtiruvchi, ba‘zan tergovchi va prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki tergov – jinoyatni ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni, jinoyat sodir etgan shaxsning aybi bor yoki yo‘qligini aniqlash, ishni har tomonlama va to‘liq tekshirish, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish va jazolash masalasi qonuniy, asosli va adolatli hal qilinishi uchun



aniqlanishi zarur bo'lgan holatlarga oydinlik kiritish maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash faoliyatidir. Dastlabki tergov jinoyat ishini tergov qilishning bir shaklidir. Dastlabki tergov tergovchi, ba'zan prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Asosan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga oid ishlarda dastlabki tergov o'tkazilishi shart.

Surishtiruv va dastlabki tergovning vazifasiga jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat ishlarini har tomonlama va to'liq tergov qilish, aybdorlarni fosh etish hamda ishni sudga ko'rish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar (dalillar)ni to'plash kiradi.

*Yetkazilgan zararni qoplash* tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning jinoyat yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxsga yetkazilgan mulkiy zararining o'rni qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish faoliyatidir. Bunda fuqaroviy da'vo qo'zg'atilishi, mol-mulk xatlanishi va boshqa bir qator choralar qo'llanilishi mumkin. Zararni qoplash masalasi sud tomonidan uzil-kesil hal etilishi shart.

*Jinoyatlarning oldini olish* jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan organlarning jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ushbu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini belgilash hamda ushbu choralar amalga oshirilishini ta'minlash borasidagi faoliyatidir. Jinoyatlarning oldini olish jinoyat ishlarini yuritishda ikkilamchi vazifadek ko'rinsa-da, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining eng asosiy vazifasi hisoblanadi hamda faqat shu tarzda yondashuv asosida faoliyat olib borilganda, ular o'z zimmasidagi vazifalarni samarali bajara oladilar.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sud jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari, ularni bartaraf etish choralarini ko'rishlari hamda belgilangan choralar o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashlari shart. Har bir organ tomonidan jinoyatlarning oldini olish faoliyati o'ziga xos shakllarda amalga oshiriladi.

*Huquqni tiklash funksiyasi* jinoyat protsessining ishtirokchilari jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab sud hukmi to‘liq ijro etilguniga qadar amalga oshiriladigan hamda jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs, fuqaroviy da‘vogar va reabilitatsiya qilingan shaxs foydasiga qaratilgan faoliyat bo‘lib, ularning jinoyat sodir etilganligi yoki vakolatlarning suiiste‘mol qilinganligi natijasida poymol etilgan umumfuqarolik huquqiy maqomining to‘liq tiklanishini ifodalaydi.

### **1.3. Jinoyat-protsessual huquq. Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar**

«Jinoyat-protsessual huquq» «jinoyat protsessi» tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlat ruxsat bergan hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishni tartibini belgilovchi normalar, protsessual xatti-harakatlar va faoliyatni amalga oshirish tartibiga oid qoidalar majmuini bildiradi. «Jinoyat-protsessual huquq»ning asosiy manbai Jinoyat-protsessual kodeksdir. JPK normalari jinoyat ishlarini yuritish va jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirish tartibini, jinoyat protsessining subyektlari huquq va majburiyatlarini, jinoyat protsessining bosqichlarini, jinoyat-protsessual huquqiy institutlarni qo‘llash mexanizmini belgilab beradi.

Huquqning ushbu sohasi jinoyat huquqi bilan boshqalaridan ko‘ra ko‘proq bog‘liq, chunki u jinoyat sodir etganlik uchun ta’sir chorasini qo‘llash tartibini belgilab beradi. Jinoyat-protsessual huquqning mazmuni asosan jinoyat huquqining normalarida o‘z aksini topadi (masalan, jinoyat tarkibi jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishda isbotlash predmetini belgilab beradi; jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning muomalaga layoqatliligi yoki layoqatsizligi haqidagi qoida tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash tartibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va h.k.).

Biroq jinoyat-protsessual normalar mazmuni va vazifasi bo‘yicha huquqning boshqa tarmoqlari – fuqarolik-protsessual, ma’muriy hukuq, xalqaro huquq, fuqarolik huquqi va boshqa huquq tarmoqlarining

normalari bilan ham aloqadordir. Bunday aloqadorlik ko'p masalalarda namoyon bo'ladi, jumladan jinoyat tufayli, shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan ziyonni qoplash fuqarolik qonun hujjatlarining normalariga; xorijiy davlatlar talabi bo'yicha jinoyat sodir qilgan shaxslarni ushlab berish, xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari iltimosini bajarish bilan bog'liq bo'lgan va boshqa ayrim masalalar xalqaro huquq normalariga rioya etgan holda hal qilinadi.

Shuningdek, jinoyat-protsessual normalar turli millatlardan tashkil topgan xalqimizning ma'naviyati, mentaliteti va an'analariga mos keluvchi axloq qoidalari bilan chambarchas bog'liq (masalan, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligidan yoxud shaxsiy kafillikdan ehtiyot chorasi sifatida foydalanish). Axloqiy asoslar ko'plab protsessual taqiqlarning negizida yotadi. Masalan, shaxsni so'roq qilish chog'ida ko'rsatuv berishga majburlash, oqlov hukmiga oqlangan shaxsning obro'sini to'kadigan ma'lumotlarni kiritish va shu kabilar taqiqlangan.

*Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar* jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ularning ishtirokchilari jinoyat ishini qo'zg'atish, tergov qilish, muhokama qilish va hal qilish borasidagi faoliyat davomida protsessual huquq va majburiyatlarning subyektlari sifatida qatnashadilar. Ushbu huquqiy munosabatlarda davlat organining ishtiroki shart ekanligi mazkur munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda mazkur munosabatlar davlat organlarining o'zi, masalan, tergovchi va prokuror, prokuror va sud kabilar o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin. Binobarin, jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar hokimiyat va bo'ysunish munosabatlaridir va shu bois ular hokimiyat munosabatlari deb atalishi mumkin.

Protsessual huquqiy munosabatlar doimo ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni ushbu munosabat subyektlaridan birining huquqi albatta boshqasining majburiyatiga mos keladi va, aksincha.

Hatto, agar u yoki bu harakatda bir necha shaxs ishtirok etsa ham, huquqiy munosabatlar ikki tomonlama bo‘lib qolaveradi hamda ularda muayyan huquq va majburiyatlar egasi sifatida davlat organi ishtirok etishi shart bo‘ladi. Masalan, yuzlashtirish chog‘ida so‘roq qilinayotgan shaxs surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan so‘roq qiluvchi boshqa shaxsga savol berishi mumkin (JPK 123-m). Biroq ular o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlar yuzaga kelmaydi.

Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarning boshqa bir xususiyati ularning jinoiy-huquqiy munosabatlar bilan aloqadorligi hisoblanadi. Chunki jinoyat-protsessual faoliyat jinoiy-huquqiy munosabatlarning xususiyatini aniqlashga qaratilgan. Aynan jinoiy huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyat-protsessual munosabatlarning hokimiyat bilan bog‘liq xususiyatini keltirib chiqaradi.

Biroq jinoiy-huquqiy va protsessual munosabatlar o‘rtasida farqlar ham mavjud. Jinoiy-huquqiy munosabatlar bevosita davlat hamda jinoyatni sodir etgan shaxs o‘rtasida yuzaga kelsa, jinoyat-protsessual munosabatlarda davlatning o‘zi emas, balki uning huquqni qo‘llash faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan organlari ishtirok etadi. Jinoiy-huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik faktni ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), jinoyat-protsessual munosabatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik faktni esa sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning kelib tushishi tashkil qiladi va h.k.

Jinoyat-protsessual huquqda protsessual huquq va majburiyatlar berilgan shaxslar va organlar jinoyat-protsessual munosabatlarning ishtirokchisi hisoblanadi. Qonunda ularning doirasi, faoliyatining xususiyatlari ham belgilangan. Protsess ishtirokchilarining jinoyat-protsessual huquq normalarida belgilangan muayyan protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyati ularning *protsessual huquqiy layoqati* deb ataladi.

#### 1.4. Jinoyat-protsessual shakl va uning bo‘linishi

Jinoyat-protsessual faoliyat nafaqat muayyan ketma-ketlikda, balki qonunda qat’iy belgilangan protsessual shakllarda ham amalga oshiriladi. *Jinoyat-protsessual shakl* jinoyat protsessi va uning ayrim bosqichlari, shartlarining jinoyat-protsessual huquqda belgilangan tuzilishi, protsessual harakatlarni bajarish hamda faoliyatni huquqiy hujjatlarda qayd etish ketma-ketligi va tartibidir. Jinoyat-protsessual shaklning xususiyatlarini quyidagilar tashkil etadi: 1) masalani hal qilish va protsess ishtirokchilarining xatti-harakat usullarini tanlashda ommaviylik prinsipining dispozitivlikdan ustunligi; 2) protsess ishtirokchilari amalga oshirishi talab etiladigan muayyan tartibdagi xatti-harakatlarning davlat majburlov choralari bilan ta’minlanganligi; 3) majburlov xususiyatining sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog‘liqligi; 4) surishtiruv va dastlabki tergov institutining mavjudligi; 5) odil sudlov aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish va unga jazo tayinlashning yoki aybsiz shaxsni oqlashning yagona usuli ekanligi; 6) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish institutining mavjudligi.

Protsessual faoliyatning eng muhim qismlariga protsessual shakl beriladi. Huquqiy tartibga solinganlik darajasi ushbu faoliyat turlarining pirovard maqsadi bo‘lmish jinoyat huquqini qo‘llashda obyektiv haqiqatni aniqlashdagi ahamiyatiga bog‘liq.

Masalan, JPKda (96–108, 114–120-m.) guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish asoslari va tartibi batafsil bayon etilgan. JPKda hatto alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish shartlarigina emas, balki ketma-ketligi, ularni rasmiylashtirish tartibi ham belgilangan. Masalan, so‘roq jarayoni va natijalari surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida – so‘roq bayonnomasida, sud muhokamasida esa – sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi (106-m.), shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi (360-m.) va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida ta’kidlaganidek, JPK talablaridan arzimas darajada chekinishga ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, unda nazarda tutilgan protsessual shaklga og‘ishmay rioya etish esa jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qaror qabul qilishning muqarrar shartidir. Protsessual shaklning buzilishi bir qator hollarda u yoki bu protsessual hujjatlarning haqiqiy emas deb topilishiga, shuningdek, ayrim protsessual harakatlarning qayta amalga oshirilishiga olib keladi.

Biroq, protsessual shaklning asosiy xossalari bir xil bo‘lgani holda JPKda ushbu shaklni jinoiy javobgarlikning xususiyati, huquqbuzarlik subyektlarining o‘ziga xos jihatlari va bir qator boshqa sabablarga ko‘ra tabaqalashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, JPKning 13-moddasida jinoyat ishlarini hay’atda va yakka tartibda ko‘rib chiqish prinsipi haqida so‘z yuritilgan, qaysi ishlar yakka tartibda, qaysilari esa xalq maslahatchilari ishtirokida ko‘rib chiqilishi, nazorat tartibida, sud hay’atlarida va tegishli sudlar rayosatida ishlarni ko‘rib chiqish qanday tartibda amalga oshirilishi batafsil ko‘rsatilgan.

Protsessual shaklning muhim tarkibiy qismini JPKda belgilangan protsessual shakldagi protsessual hujjatlar tashkil qiladi. Mazkur hujjatlarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sud o‘z vakolati doirasida, qonunda belgilangan tartibda jinoyat ishi bo‘yicha yuzaga keladigan savollarning yechimiga oid xulosalarni ifodalaydilar.

## **II BOB. JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNLAR**

### **2.1. Jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish tartibining mohiyati**

Jinoyat ishlarini tergov qilish va hal qilish tartibi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, tergov, prokuratura organlari va sudning ushbu yo'nalishdagi faoliyati jinoyat-protsessual qonun (jinoyat-protsessual huquq) normalari bilan tartibga solinadi.

Jinoyat ishini yuritish, ya'ni tergov qilish, sudda ko'rish jarayoni ish yuritishning maxsus qonun bilan tartibga solingan alohida ko'rinishidir. Jinoyat ishlarini yuritish tartibi jinoyat-protsessual qonunlar bilan belgilangan. Jinoyat-protsessual qonunlarda protsess ishtirokchilarining protsessual munosabatlari ham tartibga solingan. Jinoyat-protsessual huquqning asosini Jinoyat-protsessual kodeks tashkil etadi.

Jinoyat-protsessual kodeks har qanday boshqa qonun singari bajarilishi shart bo'lgan hamda aniq va og'ishmay rioya etilishi lozim bo'lgan qonundir. Ushbu qonunga qat'iy amal qilgan taqdirdagina jinoyat protsessining maqsadlariga erishish mumkin. Jinoyat-protsessual qonun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, tergov, prokuratura organlari va sudning tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishlarini tergov qilish va mazmunan hal etishdagi faoliyati hamda ularning jinoyat protsessida ishtirok etadigan fuqarolar va tashkilotlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. Jinoyat-protsessual qonunning tartibga soluvchi vazifasi uning protsess subyektlari bo'lgan organ va shaxslarga muayyan huquqlar berishi va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklashida namoyon bo'ladi. Bu jinoyat-protsessual qonun bilan belgilanadigan huquqiy qoidalar jinoyat-protsessual normalarni amalga oshirishning umumiy va majburiy shakli bo'lgan jinoyat-protsessual munosabatlar orqali ro'yobga chiqishini bildiradi.

Darhaqiqat, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etayotgan biror-bir davlat organi, jamoat birlashmasi yoki fuqaroning har qanday protsessual

harakati jinoyat-protsessual munosabatlarni keltirib chiqaradigan faktlar yoki ushbu munosabatlar subyekti o'z huquqlarini amalga oshiradigan yoxud majburiyatlarini bajaradigan harakatlardir.

Ish yuritish tartibi protsessual faoliyatning bir qismi hisoblangan, faoliyatni rasmiylashtirish, hujjatlashirish va hujjatlar harakati (aylanishi)ni belgilovchi qoidalar majmuidir. Ish yuritish tartibi jinoyat-protsessual qonunning alohida me'yorlarida ham aks etgan. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeks 139-moddasida, fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish zarurati bo'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi bu haqda qaror chiqaradi deb qayd etilgan. Ish yuritish tartibi qachon, qaysi holatlarda qanday hujjat rasmiylashtirilishi, mazkur hujjat qanday va necha nusxada rasmiylashtirilishi, kimga yoki qayerga taqdim etilishi, saqlanishi, o'zgartirilishi, bekor qilinishi, kuchga kirishi, kuchini yo'qotishi, hujjatdan foydalanish xususiyatlariga oid qoidalarni o'ziga qamrab oladi.

Jinoyat ishlarini yuritish tartibi esa mazmunan jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar, jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin tergov davomida, sudda ishni ko'rishda qanday hujjatlar rasmiylashtirilishi, mazkur hujjat qanday, qay ketma-ketlikda va necha nusxada rasmiylashtirilishi, kimga yoki qayerga taqdim etilishi, saqlanishi, o'zgartirilishi, bekor qilinishi, kuchga kirishi, kuchini yo'qotishi, hujjatdan foydalanishning xususiyatlarini belgilab beradi.

Ish yuritish tartibi va xususiyatlari muayyan faoliyat turi, uning subyektlariga mos ravishda farqlanishi mumkin. Ammo jinoyat ishlarini yuritish tartibi umumiy shakl va tartibga mos bo'lishi shart. Jinoyat-protsessual kodeksda hujjatlarning yagona shakli va namunasi belgilanmagan, lekin ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish qonun talablari doirasida amalga oshiriladi. Jinoyat ishlarini yuritish tartibiga o'tkazilgan protsessual harakat muayyan protsessual hujjatda, tegishli ketma-ketlikda rasmiylashtirilishi, hujjatning muayyan rekvizitlari mavjudligi, tasdiqlanishi, hujjat nechta nusxada tayyorlanishi, kimga



berilishi yoki qayerda saqlanishi, hujjatlar to‘plami qay izchilikda taxlanishi va tikilishi, to‘plamdagi hujjatlardan nusxalar olinishi, hujjatlar yig‘ma jildi taqdim etilishi, yo‘qolgan hujjatlar yig‘ma jildi yoki undagi ayrim hujjatlar yo‘qolganda ularni qayta tiklash bilan bog‘liq ish yuritish jarayonlarining jinoyat-protsessual qonunda belgilangan qoidalari, shuningdek, jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan maqbul deb topilgan va jinoyat ishlarini yuritishda amal qilnadigan qo‘shimcha talablar tegishlidir. Protsessual harakatlar o‘tkazilishi bilan bog‘liq rasmiylashtiriladigan hujjatlarga qaror, bayonnoma, xulosa, dalolatnoma, ariza, xat, ma’lumotnoma, iltimosnoma, taqdimnoma va boshqalar kiradi. Ushbu hujjatlarning asosiylarini rasmiylashtirish qoidalari amaldagi jinoyat-protsessual qonunda belgilangan, shu bilan birga, boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarda ham ayrim protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi berilgan. Har qanday holatda ham hujjat rasmiylashtirishning tartibini qonunda to‘liq belgilash imkoni yo‘q. Qonun normalarida umumiy talablar, ya’ni shu talab doirasida rasmiylashtirish kerakligiga oid qoidalar beriladi. Shu bois jinoyat ishlarini yuritishda ish yuritishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar alohida toifadagi jinoyat ishlari uchun maqbul bo‘lgan hujjatlarni rasmiylashtirishning xususiy qo‘shimcha talablarini sud-tergov amaliyotiga joriy etadilar. Jinoyat ishlarini yuritishning bunday qoida va talablari jinoyat-protsessual qonunning talablariga zid bo‘lmasligi kerak. Jinoyat ishlarini yuritishning umumiy tartibi jinoyat-protsessual normalarda belgilangan.

## **2.2. Jinoyat-protsessual norma tuzilishi va turlari**

«Jinoyat-protsessual qonun» jinoyat-protsessual normalardan tashkil topgan umumiy tushuncha. *Jinoyat-protsessual huquqiy norma* ushbu protsessual norma qo‘llanilishining shart-sharoitlarini ifodalovchi gipoteza, bajarilishi shart bo‘lgan talabni ifodalovchi dispozitsiya hamda ushbu talab bajarilmagan taqdirda kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni ifodalovchi sanksiyadan iborat.

Jinoyat-protsessual normalar tavsiya etuvchi va qat'iy talab qiluvchi normalardan tashkil topgan. Ular protsessual harakatlarni amalga oshirishning muayyan majburiy tartibi, o'zgarmas shakliga rioya etishni buyuradi. Jinoyat-protsessual huquqda jinoyat protsessi ishtirokchilariga muayyan vakolatlar, huquqlar beruvchi normalar katta o'rin egallagan. Jinoyat-protsessual huquq normalari jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar, fuqarolarga muayyan huquqlarni bergan va kafolatlagan taqdirda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, surishtiruv, tergov, prokuratura organlari va sudning burchi mazkur shaxslarga o'zlarining ushbu huquqlaridan to'liq va qarshiliksiz foydalanishlari uchun imkoniyat yaratilishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Biroq u yoki bu huquqdan foydalanish yoxud foydalanmaslik, masalan, iltimos bilan murojaat etish yoki murojaat etmaslik, shikoyat qilish yoki qilmaslik kabilar ishda ishtirok etayotgan shaxslar, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining ixtiyoriga bog'liq. Mazkur protsessual normalar dispozitiv xususiyatga ega, ya'ni huquqdan foydalanishdagi erkinlik ushbu normalarning o'ziga xosligini ifodalaydi.

Bir qator jinoyat-protsessual normalar konstitutsiyaviy xususiyatga ega, ya'ni Konstitutsiyadan olingan. Aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolarning himoyalanih huquqi, sudyalarning mustaqilligi haqidagi normalar davlatimizning Konstitutsiyada mustahkamlangan siyosatini ifodalab, jinoyat-protsessual hujjatlar hokimiyat kuchiga egaligini tasdiqlaydi.

Jinoyat-protsessual qonunlar protsessual faoliyatni tartibga solishda turlicha ahamiyat kasb etadi. Zotan, ayrim protsessual qonunlar sudga qadar va sudda ish yuritish uchun asos bo'ladigan qoidalarni, chunonchi jinoyat protsessi prinsiplarini ifodalaydigan, ishtirokchilarning protsessual maqomini belgilaydigan, protsessual muddatlar va protsessual chiqimlarni tavsiflaydigan bo'lsa, protsessual qonunlarning aksariyat qismi jinoyat ishini yuritishga doir qoidalar tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini tergov qilish, tergovni to'xtatish, qayta tiklash, tamomlashni tartibga soladi. Aynan shu

xususiyatlar jinoyat-protsessual qonunlarni jinoiy-huquqiy va boshqa normalardan farqlashga imkon beradi. Basharti, JKning moddasi gipoteza, jinoiy taqiqni ifodalaydigan dispozitsiya va uni buzgan shaxsga nisbatan ko‘riladigan jinoyat-huquqiy ta’sir choradan iborat sanksiyani nazarda tutsa, JPK moddasi, odatda, gipoteza va dispozitsiyadan tashkil topadi. Jinoyat-protsessual normalarda protsess ishtirokchisining qonun doirasida harakatlanish tartibiga oid qoidalar bayon qilinib, ushbu tartibga to‘liq amal qilinmaslik holatlari aniqlangan taqdirda, qo‘llanilishi kerak bo‘lgan choralar mazkur normalarda aks ettirilmaydi. Masalan, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv olib borish muddatining buzilishi borasidagi javobgarlik JPK moddalarida belgilanmagan.

Ayrim protsessual qonun normalarida protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi boshqa qonun normalar orqali hal etilishi belgilangan. Xususan, JPKning 271-moddasida: «Jinoyat ishini yuritish chog‘ida Jinoyat kodeksining 230–241-moddalaridagi odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir etgan protsess ishtirokchilari mazkur Kodeksning umumiy qoidalariga binoan javobgarlikka tortiladilar», – deyilgan. Protsessual faoliyatning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ba’zi protsessual qonun normalarida imperativ (majburiy) belgi sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan protsessual ta’sir choralar qayd etilgan. JPKning 272-moddasida sud majlisida tartibni buzgan shaxs uchun qo‘llaniladigan javobgarlik sudda raislik qiluvchining farmoyishiga muvofiq, sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi yoki munosib xulq-atvorda bo‘lish haqidagi tilxat (JPKning 250-moddasi)ga amal qilmagan, ya’ni ayblanuvchi yoki sudlanuvchi zimmasiga olgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, ularga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo‘llanilishini misol tariqasida keltirish mumkin.

Bunday mazmundagi sanksiya jinoyat huquqi sanksiyasidan farqli o‘laroq, qo‘llanilishi lozim bo‘lgan ta’sir chorasining miqdorini belgilamaydi, ular tergovga qadar tekshiruv, tergov yoxud sud jarayonida

ishni yuritishga ko‘mak beradigan vosita tariqasida xizmat qiladi. Jumladan, JPKning 255–260-moddalariga ko‘ra ayblanuvchi, cudlanuvchi o‘z ish joyida qolsa, u jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga to‘sqinlik qiladi yoki jinoiy faoliyatini davom ettiradi deb hisoblashga yetarli asoslar bo‘lsa, tergovchining iltimosnomasiga asosan sud uni lavozimidan chetlashtiradi. JPKning 261–264-moddalarida esa, jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko‘rsatilgan vaqtda hozir bo‘lmasalar, ular majburiy keltirilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Protsessual qonunlar tuzilishi jihatidan moddadan, modda esa asosan norma yoki bir necha normalardan tashkil topadi. Zero, JPKning ayrim moddalari bir necha xatboshidan iborat bo‘lsa-da, biroq ular normaga doir xususiyatlarga ega emas. Mazkur holat ko‘pincha tergov harakatlarini ifoda etadigan moddalarda ko‘zga tashlanadi.

JPKning alohida moddasi yoki moddalar majmui aniq bir protsessual institutni ta’riflaydi. Masalan, JPKning 220–235-moddalari ushlab turish, 236–254-moddalari ehtiyot choralar institutlarini tartibga soladi. Bu borada aytish joizki, ehtiyot choralarining har qaysisi alohida institut mavqeiga ega, masalan, garov instituti (JPKning 249-m.). Protsessual qonun normalarining dispozitsiyalari bayon etish uslubida shakllantiriladi, ya’ni protsessual faoliyatni amalga oshirish uchun yaratiladigan protsessual sharoitlar, protsessual harakatlarni o‘tkazish asoslari va tartibi, protsessual faoliyatni rasmiylashtirish shakli, chiqariladigan protsessual qarorlar (ajrim, hukm)ning tuzilish tartibi va h.k.

Demak, protsessual normalar mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra tasniflanadi. Mazmuniga ko‘ra protsessual qonun majburlov va tavsiyaviy normalarga ajraladi. Jinoyat-protsessual qonunlarning aksariyati majburlov xususiyatiga ega bo‘lib, fuqarolar, jamoat birlashmalari va jamoalarning jinoyat ishini sudga qadar yuritishda va

sudda ishlarni ko'rishda ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Ularning ba'zilar majburlov asosida amalga oshiriladi. Lekin, shu bilan birga, ayrim majburlov asnosida o'tkazilishi mumkin bo'lgan harakatlar, ya'ni ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishda; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya tomonidan mutaxassis yoki ekspert ishtirokidagi guvohlantirishda; ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishda; eksperiment va tintuv o'tkazishda; olib qo'yishda, shuningdek, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchidan ko'rsatuv olishda zo'rlik ishlatish, po'pisa qilish, aldash hamda shaxslarning hayoti va sog'ligi uchun xavfli bo'lgan usullardan foydalanish yoki sha'n va qadr-qimmatni kamsitish taqiqlanadi (JPKning 88-m.).

Yo'nalishiga ko'ra protsessual normalar jabrlanuvchi va davlat manfaatlarini himoya qilishga, keltirilgan zararni qoplashga va kelgusida jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan normalarga ajralib ular, odatda, jinoyat ishlarini yuritish tartibini, shu jumladan tergov harakatlarini o'tkazish asoslari va tartibini belgilab beradi. Umuman olganda, mazmun va yo'nalishiga ko'ra tavsiflanadigan protsessual normalar jinoyat sodir etgan har bir shaxsga chiqarilgan hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini ta'minlash yo'li bilan adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi, ya'ni odil sudlovga erishish uchun belgilangan vazifalarning bajarilishi jihatidan quyidagicha shartlangan:

birinchidan, jinoyatlarni tez va qisqa muddatda ochib, yetkazilgan zararni qoplash, dalillarni saqlab qolish;

ikkinchidan, jinoyatlarni to'la ochish, jinoyatning barcha ishtirokchilarini va ular tomonidan sodir etilgan barcha jinoiy epizodlarni aniqlash;

uchinchidan, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash orqali aybdorlarni fosh etish;

to'rtinchidan, jinoyat qonunining to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash, ya'ni sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni to'g'ri baholash, ushbu qilmishni sodir etganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning sodir etgan

qilmishiga, uning oqibatlariga munosabatini to'g'ri hisobga olish hamda munosib huquqiy ta'sir chorasi yoki jazo qo'llash yoxud jazodan ozod etish.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyat protsessining funksiyalarini belgilab beradi. Xususan, tergovchi (surishtiruvchi)ning amalga oshiradigan tergov (ayblov) funksiyasi jinoyatlarni tez va to'liq ochish bo'lib, u: a) shaxsan o'zining sa'y-harakatlari; b) tergov harakatlarini o'tkazish yo'li bilan tezkor ma'lumotlarni tekshirish; v) tezkor-qidiruv organining xodimlari taqdim etgan ma'lumotlarni protsessual rasmiylashtirish; g) gumon qilinuvchi shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxldorligini isbotlashdan iborat. Mazkur vazifaning tergovga qadar tekshiruv organi bilan hamkorlikda va ularning yordamida bajariladi. Birinchidan, jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'yilmaslik; dalillarni to'plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab hamda yashiringan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan barcha harakatlarini amalga oshirish, ikkinchidan, tergovchining ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish, uchinchidan, tergovchiga uning talabiga ko'ra ayrim protsessual harakatlarni bajarishda ko'maklashish orqali.

Albatta, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari nafaqat jinoyatning tez va to'la ochilishi, uni sodir etgan shaxsning aybini fosh etilishi va shu orqali jinoyatlarning oldini olish funksiyasini, balki har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligini ta'minlash himoya va sudlov funksiyasini amalga oshirish lozimligini nazarda tutadi.

Jinoyat-protsessual kodeks jinoyat-protsessual huquqning bosh manbaidir. Bu hol boshqa qonunlarning, xususan, «Sudlar to'g'risida»gi, «Prokuratura to'g'risida»gi, «Advokatura to'g'risida»gi qonunlar, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy

himoyalaniishi to'g'risida»gi va boshqa qonunlarning ahamiyatini pasaytirmaydi. Biroq amaliy faoliyatda jinoyat protsessining ishtirokchilari odatda jinoyat-protsessual qonun normalariga asoslanadilar. Shu bois, garchi boshqa manbalari bo'lsa ham, u haqda jinoyat-protsessual huquqning bosh manbai sifatida gapiriladi.

Jinoyat-protsessual qonun normalari Jinoyat-protsessual kodeksga birlashtirilgan. Amaldagi JPK xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalariga mos keladi. Unda jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar to'liqroq tartibga solingan, jamiyat va davlat manfaatlarini ifodalangan hamda inson huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchliroq mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi Umumiy va Maxsus qismlardan iborat. Umumiy qismda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining asosiy qoidalari, jinoyat protsessining prinsiplari, protsess ishtirokchilari, dalillar va isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar, tergov harakatlari, protsessual majburlov, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash, jinoyatlarning oldini olish choralari; reabilitatsiya, protsessual muddatlar va chiqimlar belgilangan. Maxsus qismda esa ishni sudga qadar yuritish, birinchi instansiya sudida ish yuritish; hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliгинi tekshirish; hukm, ajrim va qarorlarni ijro etish, alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik tartibi belgilangan.

Protsessual qonunlarning yig'indisini tashkil qiladigan Jinoyat-protsessual kodeks jinoyat-protsessual faoliyatni muayyan ketma-ketlikda tartibga solish maqsadida tizimlashtirilgan. Vaholanki, faoliyatni tartibga solishda jinoyat protsessining bosqichlarini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu protsessual qoidalarning mantiqiy ketma-ketlikda ifodalanishi, JPK boblarining o'zaro muvofiq bo'lishi va institutlar bog'liqligini ta'minlaydi. Aynan mazkur g'oyadan kelib chiqib amaldagi Jinoyat-protsessual kodeks umumiy va maxsus qismlarga bo'lingan.

### **2.3. Jinoyat-protsessual qonunning vaqt, hudud va chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan amal qilishi**

Jinoyat-protsessual normalar (JPK moddalari) shaxsga nisbatan, zamon va makonda cheklangan muayyan doiradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu chegaralar normaning o'zida ko'rsatish yoki amal qilish vaqti va hududiga doir umumiy qoidalar orqali belgilanadi.

Jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar, har qanday boshqa obyektiv reallik kabi, vaqt doirasida amal qiladi. Amal qilish boshlangan vaqt esa ularning kuchga kirish paytiga qarab belgilanadi. Ushbu paytni aniqlash jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining ham, protsessual huquq amalga qilish jarayonining ham muhim jihatidir. Zero, qonunning kuchga kirishi shu paytdan e'tiboran tergovga qadar tekshiruv, tergov, prokuratura, sud va advokaturaning barcha mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar unga amal qilishlari shart ekanligini, u bajarish uchun majburiy hujjatga aylanishini bildiradi.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari (normalari)ning kuchga kirish paytini aniqlashning quyidagi usullari mavjud: birinchidan, ushbu normalar qabul qilingan va rasmiy manbalarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi; ikkinchidan, jinoyat-protsessual xususiyatga ega bo'lgan normativ hujjat uning o'zida ko'rsatilgan vaqtda, ya'ni rasmiy manbalarda e'lon qilingan kundan kechiktirilib kuchga kiradi; uchinchidan, qonun chiqaruvchi organ qabul qiladigan (xuddi JPKdagi kabi), qonun hujjatini qabul qilish va amalga kiritish haqidagi alohida normativ hujjatda bevosita ko'rsatilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Jinoyat-protsessual hujjatning amal qilish muddati (davomiyligi) u kuchga kirgan paytdan amal qilishi to'xtagan paytgacha o'tgan vaqt bilan



o'lchanadi. Jinoyat-protsessual qonunlar quyidagi asoslar bo'yicha kuchini yo'qotgan, ya'ni, amal qilishdan to'xtagan hisoblanadi: yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat yoki vakolatli organning maxsus qarori matnidagi bekor qilish to'g'risidagi bevosita ko'rsatma natijasida; ilgari amalda bo'lgan protsessual normativ-huquqiy hujjatni almashtiruvchi yangisi qabul qilinishi munosabati bilan (bunda avvalgi hujjat rasman bekor qilinmaganligining ahamiyati yo'q); protsessual hujjatning o'zida belgilangan amal qilish muddatining tugashi natijasida.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining makonda amal qilishi O'zbekiston Respublikasining hududi bilan cheklanadi, ya'ni ushbu hududda ularga rioya etiladi. Bunda davlat hududi deganda, yer yuzining davlat chegarasi bilan cheklangan qismi, ichki va hududiy suv havzalari, ular ustidagi havo bo'shlig'i, shuningdek, davlatning ochiq dengizda bo'lgan harbiy kemalari, davlat hududidan tashqaridagi havoda parvoz qilayotgan havo kemalari hamda elchixonalarning hududlari tushuniladi.

Mamlakatimiz hududida jinoyat-protsessual normalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, shuningdek, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirganda chet el yuridik shaxslariga, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, amal qiladi. Ayrim jinoyat-protsessual normalarda qonunning yoki uning qismlarining kimlarga nisbatan qo'llanilmasligi bevosita ko'rsatilgan bo'ladi. Bu o'ziga xos ta'sir etuvchi shaxslarning doirasi aniqlashtirilgan, ya'ni majburiyatga ega bo'lgan shaxslar doirasini cheklovchi normadir.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari fuqarolari bilan bir xil huquqiy layoqatga egadirlar. O'zbekiston qonun hujjatlarida ayrim cheklovlar belgilanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mamlakatimiz qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda muomala

layoqatiga ega bo'lmagan yoki muomala layoqati cheklangan deb topilishlari mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarida davlatning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ko'rsatilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomalarning qoidalari qo'llaniladi.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi ayrim shaxslarga nisbatan amal qilishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan qoidalardan kelib chiqib, hal etiladi. Masalan, diplomatik immunitetga ega bo'lgan chet el fuqarosining ishtiroki talab etiladigan jinoyat ishlarida immunitetga ega bo'lgan shaxsga nisbatan jinoyat-protsessual qonunlarning qo'llanilishiga xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid kelmaydigan hollarda yo'l qo'yiladi. Aksincha hollarda esa jinoyat-protsessual qonunlar ushbu shaxslarga tatbiq etilmaydi. Ular, shuningdek, ko'rsatuv berish uchun sudga majburan chaqirilishlari ham mumkin emas. Diplomatik immunitetga ega bo'lgan ajnabiy fuqarolarning qonunga nomuvofiq harakatlari haqidagi masala faqat diplomatik yo'l bilan hal etiladi. Ular faqat fuqarolik ishlari bo'yicha va xalqaro huquq normalari yoki tegishli davlatlar bilan imzolangan bitimlar bilan belgilanadigan doirada O'zbekiston Respublikasining qonunlariga bo'ysunadilar.

### **III BOB. JINOYAT PROTSESSINING PRINSIPLARI**

#### **3.1. «Jinoyat protsessi prinsiplari» tushunchasi va ularning ahamiyati**

Har qanday faoliyat singari jinoyat ishlarini yuritishda ham jarayonning qay yo'sinda kechishi, kelgusida qanday harakatlanish zarurligi borasida ustuvorlik kasb etgan muhim qoidalar, tamoyillar belgilab olinishi va ularga qat'iy amal qilinishi maqbul natijalarga erishishga qaratilgan omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga, prinsiplar faoliyatning muvofiqligi va umumiy mazmunini ham aks ettiradi.

Jinoyat protsessining prinsiplari jinoyat protsessining vazifalaridan kelib chiquvchi jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rib chiqish faoliyatining eng muhim jihatlarini, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, butun protsessual jarayonlarning tuzilishi va yo'nalishini belgilovchi rahbariy qoidalardir. Prinsiplar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Nazariy qaralganda, prinsiplar qonun ijodkorining jinoyat protsessining asoslari, muhim shart-sharoitlari va faoliyat yo'nalishlari haqidagi tasavvurlari majmui bo'lib, qat'iy qoida sifatida qonunda ifodalanishi orqali yuksak ahamiyat kasb etadi. Huquqiy normalar sifatida ushbu prinsiplar protsessual tizim asoslanadigan va amal qiladigan eng umumiy, rahbariy qoidalardir. Shu bilan birga, prinsiplar muayyan qonun tarmog'ining xususiyatlarini, masalan demokratik yoki insonparvar ekanligini ko'rsatuvchi va e'tirof etuvchi vazifani ham bajaradi. Ya'ni prinsiplar orqali qonunning qanday ekanligiga baho berish mumkin. Prinsiplar bajarilishi shart bo'lgan huquqiy normalar hisoblanib, ularga rioya etilmasligi, qonunning qo'pol ravishda buzilishi deb e'tirof etiladi.

Prinsiplar fanda huquqning asosiy tushunchalari, kategoriyalari sifatida, huquqiy ongda alohida norma sifatida mavjud bo'ladi va rivojlanadi.

Ayrim prinsipial jihatdan muhim g'oyalar alohida huquqiy normalarda mustahkamlanmasligi mumkin, shu bois prinsiplar har doim ham protsessual normalar sifatida belgilanavermaydi.

Huquqni qo'llash amaliyotida protsessual qonunda mustahkamlanmagan huquqiy g'oya-prinsiplar ham tartibga soluvchi ta'sirni ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, protsessual faoliyat davomida jinoyat protsessi bilan chegaralanmaydigan, huquqiy doira qamrovidan keng bo'lgan g'oya-prinsiplar (insoniylik, adolat)ga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ushbu umumijtimoiy prinsiplar protsessual qonunlar matnida aniq atamalar yoki jumlalar ko'rinishida umuman mustahkamlanmaydi yoxud qisman mustahkamlanadi.

Prinsiplar jinoyat protsessining maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. «Maqsad» faoliyat nimaga qaratilganligini va qanday natijaga erishish kerakligini bildirsa, «prinsip» faoliyat yoki jarayon qay tariqa va qay yo'nalishda amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatadi. Jinoyat protsessining maqsadi va prinsiplari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik biri ikkinchisini taqozo etishida ko'zga tashlanadi. Maqsad prinsiplar belgilanishiga ta'sir etsa, prinsiplar belgilanishi maqsadga erishishga xizmat qiladi. Bu ular biri ikkinchisidan kelib chiqadi, degani emas. Ya'ni maqsad va prinsiplar alohida mustaqil tushunchalardir.

Shunday qilib, prinsiplar jinoyat protsessining asosini, ya'ni uning eng muhim yo'nalishini belgilovchi negizlarini tashkil qiladi. Ushbu asos va negizdan jinoyat protsessining boshqa barcha institutlari, tarkibiy qismlari va protsessual munosabatlar yuzaga keladi. Protsessning prinsipial asosi qanday bo'lsa, uning mohiyati ham shunday bo'ladi. Prinsiplarsiz jinoyat protsessi mavjud bo'lishi va rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi.

### **3.2. Jinoyat protsessi prinsiplarining tizimi va tasniflanishi**

Jinoyat protsessi prinsiplari tizimini protsessual qonunchilikda belgilangan prinsiplar tashkil etadi. Prinsiplar tizimi mantiqiy-nazariy xususiyatga ko'ra shakllantiriladi. Ushbu yondashuv yordamida

prinsiplar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish va tasniflash mumkin. Prinsiplar tizimini eng umumiy xususiyatga ega bo'lgan yuridik normalar tizimi sifatida e'tirof etish mumkin. Ushbu tizim protsessning tuzilishini, protsessual faoliyatning mexanizmi, mazmuni va shaklini, protsessual qarorlar va harakatlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi kafolatlarini belgilab beradi.

Prinsiplar tizimi yaxlit bo'lib, ushbu yaxlitlik faoliyatni birlashtiruvchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Faqat prinsiplar tizimigina jinoyat protsessining pirovard maqsadlariga erishishni kafolatlashi mumkin. Maqsadga erishishni kafolatlash sifati aynan prinsiplar tizimigagina xos bo'lib, bunday sifatga alohida olingan hech bir prinsip ega bo'lmaydi.

Tizimning yaxlitligi uning to'liqligi oqibatida yuzaga keladi. Tegishli huquqiy kategoriyalar orqali jinoyat protsessining tabiatini, asosiy xususiyatlari va qonuniyatlarini yetarli darajada ifodalaydigan prinsiplar tizimigina to'liq deb e'tirof etilishi mumkin. Jinoyat protsessi prinsiplarining yaxlit tizimi yakuniy maqsadga erishish, ya'ni odil sudlovni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlarni ta'minlaganda to'liq hisoblanadi.

Jinoyat protsessi prinsiplari tizimi o'zining to'liqligi hamda uni tashkil etuvchi elementlarning turli mazmunga egaligi sababli, yaxlitligini saqlab qolish, o'zini tiklash sifatiga ega. Shu tufayli protsessning biror-bir prinsipi buzilishi tizimning ishlamay qolishiga muqarrar ravishda olib kelmaydi, jinoyat protsessining vazifalarini bajarish imkoniyatini yo'q qilmaydi.

Alohida prinsipning amal qilish doirasi jinoyat protsessining umumiy vazifalari va ish yurituvchi muayyan bosqichining bevosita vazifalari ijrosini ta'minlashga qaratilgan, shu bilan birga, jinoyat protsessining barcha prinsiplari ayni vaqtda odil sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat-protsessual huquq fanining asosiy kategoriyasi sifatida prinsiplar mazmunini yaxshiroq va oson anglash uchun prinsiplar tizimi turli jihatlarga ko'ra tasniflanadi.

Jinoyat protsessi prinsiplarining tizimini prinsiplarning muayyan xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasniflash mumkin. Birinchidan, prinsiplarning shakllanish manbasiga ko‘ra: konstitutsiyaviy, sohaviy va maxsus prinsiplarga ajratiladi. Bunday tasniflashning mezoni sifatida ularning konstitutsiyaviy, umumhuquqiy va jinoyat-sudlov sohasiga oid normalardan kelib chiqishi va protsessual faoliyatning ushbu turi uchun xos bo‘lgan mazmunga egaligi belgilangan.

Ikkinchidan, protsessning alohida bosqichiga tegishliligiga ko‘ra: sud jarayonida amal qilinadigan, ishni sudga qadar yuritishda amal qilinadigan, barcha bosqichlarda amal qilinadigan prinsiplarga ajratish mumkin. Mazkur tasnif prinsiplarga rioya etilishi jinoyat protsessining ma’lum bosqichiga xosligidan kelib chiqadi.

Uchinchidan, prinsiplar mazmuni va tartibga solish xususiyatiga ko‘ra: huquq beruvchi, majburiyat yuklovchi, tavsiya etuvchi va e’tirof etuvchi prinsiplarga tasniflash mumkin. Jumladan, jinoyat protsessining prinsiplari alohida jinoyat protsessining ishtirokchisiga huquq berishi, majburiyat yuklashi yoki tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ba’zi prinsiplar muayyan harakat sodir etish uchun tavsiya etuvchi yoki shunchaki e’tirof etish mazmunida ifodalangan. Prinsiplarni ushbu xususiyatga ko‘ra tasniflash mazkur prinsiplarga qonunni qo‘llash amaliyotida rioya etilishining darajasi va namoyon bo‘lishidan kelib chiqadi.

### **3.3. Qonuniylik prinsipi**

«Qonuniylik» huquqiy voqelik holati, huquqiy normalar qay yo‘-sinda bajarilayotganligi, amaldagi huquq tizimining asoslari boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy rejim bilan bog‘liq ravishda qanday ahvolda ekanligiga oid tasavvur bo‘lib, ushbu o‘zida uchta qoidani, ya’ni qonuniylik nazariyasi, shaxslarning huquq talablarini majburiy bajarishi va jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot tarzini qamrab oladi. Qonuniylik nazariyasi, birinchi navbatda, huquqiy ongda shakllanadi hamda huquqiy munosabatlar ishtirokchilari harakatlarining qonunga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi.

Qonuniylik quyidagilarni o'zida qamrab oladi: huquqqa oid umumijtimoiy tushunchalarga ega bo'lish, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning huquqiy normalar orqali boshqarilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi va qonun bilan boshqarilishini e'tirof etish, konstitutsiya va qonunlar ustunligini tan olish; fuqarolarning qonun oldida tengligi maqomiga rioya etish; qonun ijrosini ta'minlovchi yuridik va ijtimoiy mexanizmlarning mavjudligi; huquqiy normalarning yuqori darajada sifatli bajarilishi, ya'ni har qanday huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, har bir huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlik ta'minlanishi; huquqiy tartibning mustahkamligi va barqarorligi, huquqiy boshqaruv mexanizmi faoliyatining bir xildaligi.

Qonuniylik deganda, muayyan jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar va ijtimoiy munosabat subyektlarining amalda bo'lgan qonunlarga qat'iy rioya etishi, qonun talablarini to'liq bajargan holda faoliyat olib borishi, harakatlanishi yoki harakatsiz holda bo'lishi, hayot kechirishi tushuniladi. Qonuniylik huquq subyektlarining boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilgan holda, o'z huquqlaridan foydalanishi va majburiyatlarini ado etishlari kerakligini anglatadi.

Jinoyat-protsessual munosabatlarda ishtirok etuvchi sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, himoyachi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari qonuniylik talablariga qat'i rioya etishlari kerak. Jinoyat protsessining ishni yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar toifasiga kiruvchi ishtirokchilari qonunlarni bajarishdan bir oz bo'lsada chekinishlari mumkin emas. Jinoyat ishlarini yuritishda qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya qilishdan chekinish, ya'ni noqonuniy harakatlarning sodir etilishi qonuniylik prinsipining buzilishi deb topiladi va tegishli javobgarlikka olib keladi. Noqonuniy xatti-harakatning bila turib yoki bilmasdan sodir etilishi, kelib chiqqan oqibatni hisobga olgan holda, mutanosib ravishda intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jinoyat protsessida faoliyatni amalga oshirayotgan protsess ishtirokchisi jinoyat-protsessual qonun talablarini aniq bajarishi va amaldagi qonunlarga qat'i rioya etishi shartligi qonuniylik prinsipining mohiyatini tashkil etadi. Qonuniylik prinsipiga birinchi navbatda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya namunali tarzda amal qilishlari zarur. Chunki jinoyat protsessining ishni yuritishga mas'ul bo'lgan ushbu subyektlari o'z faoliyatida jinoyatchilikka qarshi kurashish orqali qonuniylikni mustahkamlash maqsadini ko'zlaydilar hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarining normalari amalga to'g'ri tatbiq etilishi uchun mas'uldirlar. Ishni yuritayotgan mas'ul mansabdor shaxsning har qanday sababga ko'ra qonuniylikdan chekinishi, qay darajada bo'lishidan qat'i nazar, jinoyat sodir etgan shaxsda yoki uning manfaatini ifodalayotgan boshqa ishtirokchilarda, shuningdek, jinoyatdan jabrlangan shaxslarda qonun himoyachisi va uning faoliyati haqidagi tegishli tasavur paydo bo'lishiga, oqibatga jamiyatda qonunga nisbatan hurmatsizlik munosabati vujudga kelishiga va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi amallarimizning samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ya'ni qonun himoyachisining qonuniylikka munosabatini ko'rgan oddiy fuqaro, agar u jinoyat sodir etgani uchun jazolanayotgan bo'lsa, unga nisbatan javobgarlik belgilanishi va tayinlangan jazoning mazmunini to'g'ri anglashiga ta'sir etadi. Xuddi shunday jabrlanuvchiga ham sodir etilgan jinoyat sabab va shart-sharoitlaridan kelib chiqib qonun talablariga rioya etish zarurligi, ko'pincha shaxsning o'zi jinoyatlarga sabab bo'lib qolishi haqidagi tushuntirishlar o'z samarasi berishida ishni yuritayotgan mas'ul mansabdor shaxsning qonunlarni qanchalik aniq bajarayotganli va amal qilayotganligiga qarab o'z samarasini beradi.

Protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar qonun talablariga muvofiq bajarilishi kerak va ishtirokchilar o'z protsessual huquqlaridan to'liq foydalanishga haqlidirlar. Agar jinoyat protsessi ishtirokchilaridan biri protsessual majburiyatlarini bajarmasa, bu shaxs qonuniylik prinsipini buzgan hisoblanadi va unga



nisbatan javobgarlik choralari qo‘llanilishi mumkin. Jinoyat protsessining muayyan ishtirokchisi zimmasidagi majburiyat bajarilishi, boshqa ishtirokchilarining protsessual huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan va qonun talablariga to‘liq rioya etilishi jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning kafolatidir. Majburiyatlarni bajarmagan holda huquqlardan foydalanish qonuniylik talabiga zid keluvchi holat hisoblanadi.

### **3.4. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi**

Jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Sud deganda, birinchi instansiya sudlari hamda jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rib chiquvchi yuqori instansiya sudlari nazarda tutiladi. Suddan boshqa hech bir organ, korxonalar, tashkilot, birlashma sudlovni amalga oshirishga, ya‘ni insonni biror bir noqonuniy xatti-harakat sodir etilishida aybdor deb topish va jazolash huquqiga ega emas. «Sudlov» tushunchasi keng ma‘noda muayyan nizo vujudga kelganda, nizolashayotgan taraflar murojaati asosida nizoni ko‘rib chiqish, holatlarga oydinlik kiritish asosida taraflardan birining foydasiga nizoni hal etish va qonun talablariga xilof ish tutgan ikkinchi tarafga nisbatan tegishli ta‘sir chorasini qo‘llashga qaratilgan ish yurituv jarayonini anglatadi. «Odil sudlov» deganda esa, vakolatli organ (sud) tomonidan nizo (yoki jinoyat) bilan bog‘liq ishni har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqish, qonun buzilishi bilan bog‘liq barcha ahamiyatli holatlarni aniqlash orqali, nizolashayotgan taraflarning ahvoli va ishga munosabatini e‘tiborga olib, nizo vujudga kelishida aybi bo‘lgan shaxsni aybdor deb topish, aksincha aybi bo‘lmagan shaxsni aybsiz deb topish, aybdor shaxsga nisbatan qilmishiga yarasha adolatli ta‘sir chorasini tayinlash va zaruratga ko‘ra tayinlangan ta‘sir chorasini ijroga qaratish bilan bog‘liq hal qiluv qarori qabul qilish jarayoni tushuniladi.

Jinoyat protsessida odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi deganda, jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish va odil sudlov faqat

jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan amalga oshirilishi kerakligi, odil sudlov faoliyati boshqa organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin emasligi va bunga yo'l qo'yilmasligi tushuniladi. Ya'ni jinoyat protsessining hal qilish (sudlov) funksiyasi faqat sud tomonidan amalga oshirilishi kerakligi qat'i belgilangan. Jinoyat ishlarini hal qilishda adolatli qaror qabul qilinishi orqali odil sudlov ta'minlanadi. Mazkur prinsip talabiga ko'ra jinoyat ishlarini hal etish ishni sudga qadar yuritishda ham, sud jarayonida ham, agar bu shaxsning aybsizligini e'tirof etish bilan bog'liq bo'lmasa, faqat sud tomonidan amalga oshirilishi shartligini bildiradi.

Sudning qonunga xilof tarzda olib borgan ishi «odil sudlov» tushunchasiga mos kelmaydi va qonunga xilof tarzda chiqargan hukm huquqiy kuchga ega bo'lmaydi. Odil sudlov amaldagi qonunlarning prinsiplariga mos kelishi shart. Odil sudlov talablariga rioya etmaydigan sud hamda ushbu sud chiqargan hukm yuzasidan sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi shikoyat qilishga haqlidir. Odil sudlov sudlarning daxlsizligi va mustaqilligini himoya qilish orqali ta'minlanadi. Qonunga muvofiq sud muhokamasini qanday bo'lmasin cheklashlarga, bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish, tahdid qilish yohud sud faoliyatiga mansabdor shaxs yoki fuqaroning qay tarafdin va qanday masalada bo'lmasin aralashishiga yo'l quyilmaydi.

### **3.5. Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish**

Sudda jinoyat ishlari yakka tartibda yoki hay'atda ko'rib chiqiladi. Sudda ishlarni yakka tartibda ko'rib chiqish deganda, bitta sudya ishni ko'rib chiqishi tushuniladi. Jinoyat kodeksining 15-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar haqidagi (o'n yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan) ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. O'ta og'ir jinoyatlar haqidagi ishlar hay'atda ko'riladi. Hay'at deganda, bir necha shaxslardan iborat, bir xil vazifani bajaradigan

jamo'a tushuniladi. Jinoyat ishlarini ko'ruvchi sud hay'atlari quyidagicha bo'lishi mumkin: bitta sudya va ikki nafar xalq maslahatchisidan iborat hay'at, uch nafar sudya iborat hay'at, besh nafar sudya iborat hay'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida esa rayosat a'zolarining ko'pchiligidan iborat hay'at.

Sud muhokamasida ikki nafar xalq maslahatchisining ishtirok etishi aholini odil sudlovni amalga oshirishga jalb etish vositasi deb hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi sud tizimining demokratiya talablariga rioya etishidan dalolat beradi. Xalq maslahatchilari quyidagilarga ham yordam beradi: jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlash; jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning xulqini, uning voqelikka munosabatini baholash hamda adolatli jazo tayinlash uchun ko'maklashadi. Ular sudya ega bo'lgan barcha huquqlardan foydalanadilar, sud majlisida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda, sud bayonnomasi bilan bog'liq shikoyatlarni hal qilishda, sud jarayoni va hukm chiqarishda yuzaga keladigan turli protsessual masalalarni muhokama qilishda ishtirok etadilar, ular yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar, ulardan kelib chiquvchi muammolarni hal qilishda ishtirok etadilar. Raislik qiluvchi sudya xalq maslahatchilarining fikridan xabardor bo'lishi va yuzaga kelgan vazifalarni ular bilan birga hal qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi jinoyat ishlarini uch sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqadi. Oliy sud va apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalarida xalq maslahatchilari ishtirok etmaydi, chunki ushbu instansiya sudlari birinchi instansiya sudlari chiqargan hukm, ajrim va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmlariga nisbatan berilgan apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari (protestlari) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tegishli sudlov hay'atlarida besh nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi, chunki mamlakatimiz Oliy sudi jinoyat ishini birinchi instansiya sifatida ko'rib chiqishda, yuqorida ta'kidlanganidek, uch nafar sudya ishtirok etadi.

### **3.6. Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasiga muvofiq, sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Oliy sud raisi va sudyalari deputat yoki boshqa saylanadigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda ishlashlari mumkin emas. Sudyalar, shu jumladan jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlarining sudyalari, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. Sudyalar, qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lmasa, vakolat muddati tugaguniga qadar sudyalik vazifasidan ozod etilishlari mumkin emas.

Sudyalar mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishining kafolati ushbu mansabdor shaxslarning sudyalik lavozimiga maxsus tartibda tayinlanishida ham namoyon bo'ladi. Bu sudyalarga ularning ishlariga har qanday mansabdor shaxslarning aralashishlaridan qo'shimcha kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi prinsipi xalq maslahatchilariga ham taalluqlidir. Sud muhokamasi jarayonida xalq maslahatchilari sudyalar bilan teng huquqlidirlar.

Sudyalarning mustaqilligi deganda, sudyaning ishni ko'rayotganda hech kimga buysunmasligi, boshqa shaxslarning fikrlarini hisobga olishi shart emasligi, shu jumladan ijro hokimiyati mansabdor shaxslari, deputatlar, senatorlar, hokimlar, vazirlar va ularning o'rinbosarlari, shu jumladan yuqori turuvchi sud organlari mansabdor shaxslaridan mustaqilligini va ushbu shaxslarning aralashuvisiz ishlarni ko'rishi va qaror qabul qilishi tushuniladi.

Sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi deganda esa, amaldagi qonunlar asosida harakatlanishi, qonunlarga qat'i rioya etishi va ularni aniq bajarishi, qonun talablaridan chetga chiqmasligi, faqat qonun normalariga bo'ysungan holda jinoyat ishlarini ko'rishi va hal qilish tushuniladi.

Jinoyat protsessida sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi deganda, jinoyat ishlarini ko'rishda va hal qilishda (hukm chiqarishda) hech kimga bo'ysunmasligi, sudyaning faoliyatiga hech kim aralashmasligi, sudya faqatgina qonunga asoslanib, o'zining huquqiy onggi va ichki ishonchigagina tayanib ishlarni ko'rish, halq iluv qarorlari va hukm chiqarishi shartligi tushuniladi.

Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) sudyalar ayrim shaxslar yoki turli davlat organlari va jamoat birlashmalarining ta'siridan to'liq ozoddirlar; sudda ko'rib chiqiladigan ishlarni mustaqil muhokama qilish hamda qonunga mos bo'lgan to'g'ri qaror va ajrimlar chiqarish majburiyatiga egadirlar; b) sudlar yuqori turuvchi sudlardan mustaqildirlar va jinoyat ishlarini yuqoridan kelgan topshiriqqa ko'ra emas, balki qonun asosida hal qiladilar; sudlar tergov organlarining, shuningdek, jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga tayyorlashda ishtirok etuvchi shaxslarning ta'siridan mustaqildirlar; v) sudyalarga ta'sir o'tkazish mumkin emas.

Hukmni bekor qiluvchi va jinoyat ishini sudda yangitdan ko'rib chiqish uchun yuborishga vakolatli yuqori instansiya sudi dalillarga baho berar ekan, quyi turuvchi sud sudyasiga hukm chiqarishida ta'sir o'tkazishi mumkin emas. Jinoyat ishi muayyan tartibda va tegishli hukm asosida tekshirilishi zarur.

Sud majlisida sudyalar jinoyat ishiga oid dalillarni tekshiradilar, zarur hollarda esa yangi dalillarni jalb etishga haqlidirlar.

Sudyalar ishni xolisona hamda surishtiruvchi, tergovchi yoki davlat ayblovchisi (prokuror) yondashuvidan, shuningdek, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jabrlanuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi hamda boshqa shaxslarning fikr va e'tirozlaridan mustaqil ravishda ko'rib chiqishlari kerak. Taraflar o'z fikrlari va e'tirozlarini bildirgan taqdirda ham sudyalar mustaqil ravishda qaror chiqarishlari zarur.

Sudyalarning mustaqilligi nafaqat ularning qonungagina bo'ysunishi bilan, balki hukm chiqarishdan avval alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqib ketishlari bilan ham kafolatlanadi (JPK 456-m.).

Sud hay'atidagi har bir sudyaning mustaqilligi ularning teng huquqliligi bilan kafolatlangan. Bundan tashqari, raislik qiluvchi sudya hukm chiqarilayotganida o'z fikrini eng oxirgi bo'lib bildiradi. Xuddi shuningdek, u hukm chiqarish haqidagi masalalar muhokama qilinayotganida oxirgi bo'lib ovoz beradi. Agar sudyalardan birortasi sudning hukmiga rozi bo'lmasa, o'z fikrini yozma tartibda bayon etishi va hukmga ilova qilishi kerak.

Sudyalar va xalq maslahatchilarining qonunga bo'ysunishi quyidagilarda namoyon bo'ladi: jinoyat ishini ko'rib chiqishda sud majlisi vaqtida, hukm chiqarilayotgan paytda ular jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarning talablariga rioya etadilar, jinoyat ishini avval mavjud bo'lgan fikrlari, takliflar va har qanday ta'sirlardan xoli tarzda yuritishlari kerak. Ular jinoyat ishini qonun talablariga asosan hal qilishlari shart.

Sudyalar va xalq maslahatchilari amalga oshiradigan odil sudlovga aralashuv g'ayriqonuniy harakat deb topiladi va bunday shaxslar qonun asosida javobgarlikka tortilishlari kerak.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga muvofiq, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Sud hokimiyati chiqargan hujjatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilish uchun sabab bo'ladi.

### **3.7. Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi**

Tergovga qadar tekshiruv organi boshlig'i va mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat alomatlari aniqlangan har bir holatda jinoyat ishi qo'zg'atishlari shart. Qo'zg'atilgan ishni tergov qilish davomida jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanadi, tegishli javobgarlikka tortiladi, sud majlisi davomida adolatli hukm chiqarish uchun sharoit yaratiladi. Jinoyat ishining qo'zg'atilishi jabrlanuvchi, ushbu

ishdan manfaatdor boshqa shaxs yoki tashkilotning talablariga bog'liq bo'lmasligi kerak. Bu qoida jinoyat ishi jabrlanuvchining shikoyati asosida qo'zg'atilgan hollarga tegishli emas, chunki bunday hollarda jinoyat ishi aynan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra qo'zg'atilishi mumkin (JPK 325-modda).

Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish aniqlangandan keyin, ushbu qilmishda jinoyat alomatlari mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish va mavjudligi aniqlanganda jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov o'tkazilishi shartligini, bu orqali jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qonun talabi tushuniladi. Ammo bugunga kelib jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash masalasiga boshqacha yondashuvlar vujudga kelmoqda, umuman olganda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoyat ishlarining yuritilishi kelgusida jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilishi darkor. Shu bois bugun har bir jinoiy qilmish uchun muqarrar jazolashga erishish emas, balki jinoyat sodir etgan shaxslarda o'z qilmishiga pushaymonlik hissini shakllantirish va kelgusida takror jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qonun talablarini bajarish ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikdagi ayrim huquqiy institutlar ba'zan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishni hamda javobgarlik va jazodan ozod etishni talab etadi.

### **3.8. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish**

Jinoyat protsessida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egadirlar. Ular – jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar – qonun oldida tengdirlar.

Agar biron-bir shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi vaqtida uning huquqlari irqiy va milliy mansubligiga ko'ra cheklanadigan bo'lsa,

yoxud unga, bevosita yoki bilvosita ekanligidan qat'i nazar, ortiqcha huquqlar beriladigan bo'lsa, bunday vaziyat yuzaga kelishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxs qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish deganda, ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishni yuritishlari davomida jinoyat protsessining barcha ishtirokchilariga ularning teng huquqliligi asosida munosabatda bo'lishlari, huquqlar barcha uchun bir xilda ta'minlashlari, protsess ishtirokchisining kim bo'lishidan qat'i nazar unga protsessual qonunchilikda belgilangan barcha huquqlaridan foydalanishlari uchun bir xil sharoit yaratishlari, hech kimga ortiqcha imtiyozlar bermasliklari, kimningdir huquqini ortiqcha cheklamasliklari asosida jinoyat ishini adolatli hal qilishlariga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Fuqarolar ijtimoiy, moliyaviy ahvoli yoki lavozimidan; irqiy, jinsiy, milliy mansubligidan yoki qaysi tilda so'zlashishidan; qaysi dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligidan qat'i nazar qonun va sud oldida teng ekanligi belgilangan. Fuqarolarning qonun oldida tengligi jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni sudga qadar yuritish va ishni sudda ko'rib chiqish vaqtida barcha fuqarolarga bir xil jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari qo'llanilishini bildiradi. Fuqarolarning sud oldida tengligi ularning surishtiruv va dastlabki tergov vaqtida ham teng ekanligini anglatadi.

Diplomatik daxlsizlikka ega bo'lgan shaxslarga nisbatan odil sudlov faqat tegishli ruxsat olinganidan so'ng va istisnoli hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Aks holda bu shaxslar «persona non-grata» (nomaqbul shaxs) deb e'lon qilinishi va O'zbekiston Respublikasining hududidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs deputat bo'lsa, unga nisbatan jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlarni uni deputatlik mandatidan mahrum etgandan keyingina qo'llash mumkin. U boshqa fuqarolar oldida hech qanday imtiyozlarga ega emas va ular bilan teng huquqlidir.



Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga muvofiq, «barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar... har qanday kamsitishdan teng muhofaza qilinish huquqiga... egadir». Ushbu norma O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, mamlakat hududida amal qiladi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarga muvofiq, barcha kishilar sud oldida tengdirlar. Har bir inson o‘ziga nisbatan yuritilayotgan ishning qonuniy tashkil etilgan nufuzli va mustaqil sud organida adolat asosida va oshkora ko‘rib chiqilishini talab qilish va undan foydalanish huquqiga ega. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisiga huquq va majburiyatlari tushuntirib beriladi, ularga huquqlaridan foydalanishlari uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratiladi.

### **3.9. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish**

Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, avvalo, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasida va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyamizning 27-moddasida: «Har kim o‘z sha’ni va obro‘sigga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega», – deb belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida shunday deyiladi: «Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega». Mansabdor shaxsning ushbu talablarni tan olmasligi, qo‘pol ravishda va qasddan haqoratlashi konstitutsiyaviy va xalqaro huquqiy normalar buzilganidan dalolat

beradi. Bunday harakatlarni oddiy fuqaro sodir etgan taqdirda, u ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida: «Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak», – deb belgilangan. Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasida ko'rsatilishicha, «hech kim azob-uqubatga solinmasligi va unga nisbatan shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatini xo'rovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o'zining roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'tkazilishi mumkin emas». Ushbu qoidalar Konstitutsiyamizda ham belgilangan (26-m.).

Jinoyat protsessida shaxsning sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish prinsipi juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu prinsip oddiy qilib aytganda ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining mansabdor shaxslari boshqa shaxslarni hurmat qilish kerakligini, kamida hurmatini joyiga qo'yish kerakligini anglatadi.

Jinoyat ishlarini yuritishda turli toifadagi shaxslar ishtirokini kuzatish mumkin. Ular jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari vakillari bo'lishi mumkin. Har bir inson o'zi yashab turgan jamiyatda muayyan o'ringa ega. Shaxsning jamiyatdagi o'rni uning sha'ni va qadr-qimmatidan kelib chiqib belgilanadi.

*Sha'n* deganda, shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqeiga nisbatan o'zi tomonidan berilgan baho tushuniladi. *Qadr-qimmat* deganda esa, shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqeiga jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan berilgan baho tushuniladi. Shaxsning jamiyatdagi o'rni, ya'ni martabasi uning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli va moddiy sharoiti, sog'ligining holati, dunyoqarashi va bilimi, odobi va tarbiyasi, xushmuomalaliligi, mehnatsevarligi, fidoyiligi, hayotdagi erishgan natijalari, yaqinlari va tanish-bilishlari doirasi, so'z boyligi va nutqi ravonligi, ish joyi va lavozimi, qobiliyati va tajribasi, shaxsiy fazilatlariga egaligi yoki akluncha nuqsonlari mavjudligi

bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra kimdir pastroq, kimdir yuqori va yana kimdir o‘rta martabaga ega bo‘ladi. Shaxsga egallagan martabasidan kelib chiqib o‘zi tomonidan va boshqalar tomonidan doimiy ravishda baho beriladi. Beriladigan baho turlicha bo‘lishi tabiiy, chunki bir insonni kimdir juda qadrlashi va uni hurmat qilishi, boshqalar esa aksincha qadrlamasligi va unga umuman befarq bo‘lishi yoki achinib yo jirkanib qarashi mumkin. Xuddi shuningdek, har bir inson o‘ziga nisbatan yuqori baho berishi va o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi yoki o‘ziga past baho berib, o‘ta kamtarona tutishi mumkin. Har qanday holatda ham jinoyat ishlarini yuritishda protsess ishtirokchisining jamiyatdagi o‘rni va martabasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qadr-qimmatini yo‘q bo‘ladimi yoki baland bo‘ladimi, sha’nini yuksak baholaydimi yoki o‘ta past baho beradimi, kamtar bo‘ladimi yoki mag‘rur bo‘ladimi, shaxsning martabasini hurmat qilib muomala qilish kerak.

Jinoyat protsessida shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish deganda, protsess ishtirokchisining kimligidan, uning sha’ni va qadr-qimmatini qandayligidan qat’i nazar uni inson sifatida protsessning boshqa ishtirokchilari, ayniqsa ishni yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining mansabdor shaxslari hurmat qilishlari tushuniladi.

Boshqalarga nisbatan hurmatsizlik qilish taqiqlanadi. Atayin shaxsni qiynash kuchli og‘riqqa solish va ruhiy azoblash deb hisoblanadi. Boshqa shaxsga nisbatan bunday harakatlar sodir etilishi uning jinoyat sodir etganlikka iqror bo‘lishi uchun harakat qilish deb baholanadi. Shu bilan birga, insonni qo‘rqitish maqsadida unga ruhiy ta’sir o‘tkazish yoki unga nisbatan kuch ishlatish bilan birga qo‘rqitish zarur ko‘rsatuvlar berishiga harakat qilish deb topilishi lozim. Ushbu harakatlarning barchasi inson huquqlari va erkinliklarini poymol etish deb hisoblanadi.

Agar jinoyat ishi bo‘yicha tergov o‘tkazish davomida yoki sud muhokamasi jarayonida ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan uni qiynoqqa solish, unga zulm o‘tkazish yoki sha’ni va qadr-qimmatini yerga urish bilan bog‘liq harakatlar qo‘llanilganligi aniqlansa hamda bu harakatlar dastlabki tergov jarayonida amalga oshirilgan bo‘lsa, sud

sudlanuvchiga nisbatan puxta tekshiruv o'tkazilishini tashkil qilishi va uning natijalaridan kelib chiqib, hukm chiqarishning maqsadga muvofiqligi haqidagi masalani hal qilishi kerak. Bunday sudlanuvchi sud zalining o'zidayoq darhol ozod qilinishi lozim.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan dastlabki tergov davomida unga nisbatan go'yoki kuch ishlatilgan, u qiynoqqa solingan, shafqatsiz yoki sha'ni va qadr-qimmatini yerga uruvchi munosabatda bo'linganligi haqida ariza tushsa-yu, ushbu ma'lumotlar hech bir dalillar bilan isbotlanmasa, bunday hollarda sud muhokamani davom ettiradi hamda sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishga va uning axborotini isbotlanmagan deb topishga haqli bo'ladi.

### **3.10. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish**

Jinoyat ishini yuritish uchun mas'ul bo'lgan barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida ishtirok etayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyati xalqaro huquqiy hujjatlarda, Konstitutsiyamizda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida qayd etilgan bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish talablarining darhol bajarilishi va ta'minlanishidan iborat. Masalan, har bir kishi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi nafaqat jinoyat protsessining ishtirokchilari, balki jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq holda huquq va qonuniy manfaatlari himoyaga muhtoj bo'lgan barcha fuqarolarga ham tegishlidir. Chunki jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etiladigan fuqarolarning muayyan vaqt davomida ma'lum huquqlari va erkinliklari to'liq yoki qisman cheklanishi mumkin va oqibatda ushbu ta'sir chorasi nafaqat ushbu shaxsga va cheklanayotgan huquqlariga, balki boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy

manfaatlari, shuningdek, ushbu shaxsning boshqa huquqlari va erkinliklari buzilishi yoki ta'minlanmasligi uchun muayyan sharoit tug'dirishi mumkin. Shu bois jinoyat ishlarini yuritishda ishga jalb etilayotgan shaxslarning holati, sharoiti, ularning yaqinlari ahvoli va sharoitini o'rganib, ularning huquq va erkinliklari buzilishi ehtimoli bor yoki yo'qligi aniqlanishi, huquq va erkinliklarni muhofaza qilishga qaratilgan barcha choralar ko'rilishi shart. Muhofaza qilish kerak bo'lgan huquq va erkinliklarga avvalo fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari va erkinliklari kiradi, jumladan mol-mulk daxlsizligi, ta'lim olish, mehnat qilish, tibbiy xizmatdan foydalanish, qarovda bo'lish kabilar.

Jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish deganda, jinoyat ishi yuritilishi munosabati bilan ishda ishtirok etayotgan shaxslarning yoki ularning yaqin qarindoshlarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishi ehtimoli borligini aniqlash va bunday tahdid mavjud bo'lganda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan barcha zarur choralarni ko'rish tushuniladi.

Shu bilan birga, protsess ishtirokchisining protsessual huquqlari ta'minlanishi orqali ham uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muhofaza qilinishi ta'minlanadi.

Qamoqqa olinayotgan paytda shaxsga buning sababi tushuntirilishi va qonunda ko'rsatilgan muddatlarda ayb qo'yilishi lozim. Aks holda uni qamoqda saqlash qonunga xilof deb topiladi va tegishli mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo'ladi. Bu borada Konstitutsiyamizning 25-moddasida: «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas», – deb belgilangan. Noqonuniy tarzda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qamoqda qonunda yoxud sud hukmida belgilangan muddatdan ortiq saqlanayotgan har qanday shaxs darhol ozod qilinishi shart. Ushbu talabni bajarmagan mansabdor shaxslar esa qonun asosida javobgarlikka tortilishlari kerak.

Mansabdor shaxslar qonun talablariga rioya etishlari hamda fuqarolarning shaxsiy hayotiga, uy-joyi, yozishmalariga, telegraf xabarlari

va telefon orqali so‘zlashuvlariga aralashmasliklari shart. Aks holda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 12-moddasi, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilangan talablar qo‘pol ravishda buziladi. Bunday hollarda jabrlangan shaxs qonuniy vositalar bilan himoyalaniş huquqiga ega bo‘ladi.

Jinoyat ishi yuritilayotganida mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta‘minlashlari kerak.

### **3.11. Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida belgilanganidek, «hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi». Ushbu moddada ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipi belgilangan bo‘lib, uning ahamiyati shundaki, birinchidan, keng jamoatchilik jinoyat sodir etgan shaxs haqida, jinoyatga olib kelgan sabablar haqida, shuningdek, jinoyatchiga sud qanday jazo belgilaganligi haqida xabardor qilingan taqdirdagina sud jarayonini yuritishning tarbiyaviy vazifalari bajarilgan bo‘ladi; ikkinchidan, fuqarolarga nisbatan sudning odil qarori chiqarilishi ta‘minlanadi; uchinchidan, fuqarolarga jinoyat ishini yuritishda to‘liq ishtirok etish hamda huquq va erkinliklardan to‘liq foydalanish uchun sharoit yaratiladi; to‘rtinchidan, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirayotganida mas‘uliyatni his etishlari ta‘minlanadi.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid bo‘lmaganida, shuningdek, jinsiy hayot bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar haqidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganida to‘liq ta‘minlanadi.

Davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid bo‘lgan, shuningdek, jinsiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar yopiq sud majlisida ko‘riladi. Bundan tashqari, sud ajrimi bilan, 18 yoshga yetmagan shaxslarning jinoyatlariga doir ishlar, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi yoki

ularning sha'ni va qadr-qimmatini yerga uruvchi ma'lumotlar oshkor bo'lishining oldini olish maqsadida, shuningdek, jabrlanuvchi, guvoh yoki jinoyat ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash manfaatlari talab etganida boshqa ishlar ham yopiq sud majlisi ko'rilishi mumkin.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi deganda, ish ko'rilayotgan sud majlisida ishdan manfaatdor bo'lmagan voyaga yetgan boshqa shaxslarning, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillarining va boshqalarning erkin qatnashishlari, omma ishtirokida sud muhokamasi o'tkazilishi va hukm e'lon qilinishi tushuniladi.

Sudning jinoyat ishi bo'yicha hukmi yoki boshqa qarori kuchga kirganidan so'ng uning bir nusxasini sudlanuvchining ish yoki yashash joyiga yuborish hamda, agar bu ish sudning yopiq majlisida ko'rib chiqilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida bu haqda xabar berish mumkin.

Shaxsiy yozishmalar va shaxsiy telegraf xabarlari ochiq sud majlisida ushbu xat-yozishmalar va xabarlarni jo'natgan va olgan shaxslarning roziligi bilangina o'qib eshittirilishi mumkin. Ushbu talab telefon apparatlari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarga taalluqli emas, chunki ularni eshitib turish uchun sud ajrimi bo'lishi lozim.

Agar protsess ishtirokchisi shaxsiy yozishmalari va telegraf orqali bergan xabarlari oshkor etilishiga rozilik bermasa, sud ushbu holda jinoyat ishini yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga va u bo'yicha ajrim chiqarishga majbur bo'ladi.

Protsess ishtirokchilari o'z ishlarining yopiq sud majlisida ko'rib chiqilishini talab qilish huquqiga egadirlar. Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari boshqa shaxslarga yopiq sud majlislarida ishtirok etishlariga ruxsat berishga haqlidir. Ammo bunda mazkur shaxslar ushbu majlislarda tekshiriladigan holatlar haqidagi ma'lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgarlikka tortilishlari mumkinligi haqida ogohlantirilishlari kerak. Qolgan shaxslarning yopiq sud majlisida ishtirok etishlariga ruxsat etilmaydi. Sud raisi, davlat sirlarini muhofaza qilish maqsadida, begona shaxslarning sud majlisida ishtirok etishiga

ruxsat bermasligi kerak. Sud jarayonida ishtirok etmaydigan hamda sudlanuvchi va jabrlanuvchining qarindoshlari bo'lmagan kishilar begona shaxslar deb hisoblanadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida belgilanganidek, «...barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi, unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Axloq yuzasidan, jamiyat tartibi yoki davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoki buni tomonlarning shaxsiy hayoti manfaatlarini talab etganida yoki sud fikriga ko'ra bu qandaydir darajada qat'iy zarur deb topilganida, ya'ni omma ko'z o'ngida bo'ladigan jarayon sudlov manfaatlariga xalal beradigan alohida hollarda matbuot xodimlari va omma barcha majlislarga yoki shu majlislarning bir qismiga kiritilmasligi mumkin; biroq jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan har qanday sud qarori oshkora bo'lishi kerak. Balog'at yoshiga yetmaganlarning manfaatlarini boshqacha talab etganda yoki nikoh borasidagi nizolarga yoki bolalarga vasiylik qilishga aloqador ishlar bundan mustasno».

Sud zalidagi tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi zaldan chiqarib yuborishi mumkin. Sudda raislik qiluvchi tartibni buzayotgan, sudga hurmatsizlik ko'rsatayotgan, janjal qilayotgan, noqonuniy va g'ayriaxloqiy harakatlarga yo'l qo'yayotgan, boshqa shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilayotgan, jismoniy kuch ishlatishga harakat qilayotgan va boshqa shu kabi harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxsni zaldan chiqarib yuborishi, bunday shaxsga nisbatan qonuniy ta'sir choralarini qo'llashi mumkin.

Sud zalida ovoz yozib olish, fotosuratga olish, videoyozuv va kinotasvirga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Bu masala yuzasidan sud ajrim chiqaradi.

Sudlarning hukmlari, ajrimlari va qarorlari barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi. Sudning yopiq majlisida chiqarilgan hukm ushbu majlis ishtirokchilariga e'lon qilinishi kerak.



Ayrim toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha sud majlisi oshkoralik keng ta'minlangan holda o'tkazish lozim. Masalan, davlatga ko'p miqdorda zarar yetkazish, qimmatbaho va noyob hayvonlarni qirib tashlash to'g'risidagi, shuningdek, portlovchi moddalar, kimyoviy vositalar va hokazolarni qo'llab, guruh bo'lib sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarga oid sud jarayoni haqida keng ommaning xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq.

Axloqiy mulohazalardan yoki davlat xavfsizligi, shuningdek, ularning shaxsini muhofaza qilish manfaatlaridan kelib chiqib yoki ayrim hollarda oshkora sud muhokamasi sudlovning odil bo'lishiga xalaqit berishi mumkin bo'lganda, matbuot xodimlari va aholi sudning barcha majlislariga yoki ularning ayrimlariga qo'yilmasliklari mumkin. Biroq sudning jinoyat ishi bo'yicha qarori oshkora e'lon qilinishi shart. Sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari jinoyat protsessi ishtirokchilarining roziligi bilan yoki shaxsini ko'rsatmasdan sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi mumkin.

### **3.12. Jinoyat ishlari yuritiladigan til**

Mamlakatimiz hududida jinoyat ishlarining qaysi tillarda yuritilishi Konstitutsiyaning 115-moddasiga asosan belgilangan. «O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi».

Jinoyat protsessi davlat tilidan tashqari, qoraqalpoq tilida va muayyan hudud aholisining ko'pchiligi so'zlashadigan tilda ham olib boriladi. Mazkur prinsip jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Unga rioya etish ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda, jinoyat protsessining tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishda, jinoyat protsessi

ishtirokchilarining huquqlarini to'la hajmda amalga oshirishda, ularning mas'uliyatini oshirishda, ish bo'yicha dalillarni bevosita va og'zaki tekshirishda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining aybsizlik prinsipini kafolatlovchi himoyasini ta'minlashda, shuningdek, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipining amalga oshirilishida katta ahamiyatga ega.

Agar tergov yoki sud jarayonida tergov va sud jarayoni ishtirokchilari ish yuritilayotgan tilni bilmasliklarini va uni to'liq tushunmasliklarini aytsalar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tarjimon jalb etiladi. Bunda tarjimon surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalarga protsess ishtirokchilarining ko'rsatuvlari, iltimoslari, arizalari va savollarini to'liq va so'zma-so'z tarjima qilishi kerak.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari ayni bir vaqtda tarjimon sifatida ham ishtirok etishga haqli emaslar, chunki ayni bir shaxsning jinoyat protsessida bir necha funksiyani bajarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ayblanuvchiga taqdim etiladigan hujjatlar, xususan ayblov xulosasi (dalolatnomasi) va hukm ona tiliga tarjima qilib berilishi lozim. Ayblanuvchiga taqdim etilmaydigan hujjatlar (masalan, jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror) og'zaki tarjima qilib beriladi.

Agar jinoyat ishida ishtirok etayotgan ayblanuvchi jinoyat ishi yuritilayotgan tilni bilmasa, mazkur ishda himoyachining ishtirok etishi shart.

JPKning 2-bobida belgilangan prinsiplarning qo'pol tarzda buzilishiga yo'l qo'ygan, tergov yoki sud majlisi davomida ularning talablariga rioya etmagan mansabdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Shu bois dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida tergovchi, prokuror, sudya ushbu talablarga, ish mazmuniga xos xususiyatlarni hamda ushbu ishda ishtirok etayotgan shaxslarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, to'liq rioya etishlari shart.

### **3.13. Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki**

Jinoyat protsessining mazkur prinsipi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudga sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlash, aybdorlarni fosh etish, adolatli hukm chiqarishga yordam beradi. Jamoatchilik yordamida jinoyatlarning sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlar aniqlanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud jinoyat ishlari bo'yicha jamoatchilikni jalb qilishning quyidagi usullaridan foydalanishlari mumkin: jamoatchilikka radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bevosita murojaat etish; mahalla, korxonalar, tashkilot jamoatchiligi bilan ularning e'tiborini jinoyat ishlariga tortgan holda uchrashish va sh.k. Bundan tashqari, tergov yoki sudlov harakatlarini o'tkazishda jamoatchilik vakillarining bevosita yordamidan foydalanish mumkin.

Jamoatchilik vakillari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga yordam berishlari kerak. Agar jamoatchilik vakillari bunday yordam ko'rsatishdan bo'yin tovtasalar, qonunga muvofiq, ularga nisbatan javobgarlik chorasi qo'llanishi mumkin.

Tergov yoki sudga yordam bergan eng faol jamoatchilik vakillarini rag'batlantirish maqsadida, bu haqda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – taqdimnoma, sud esa – ajrim chiqaradi (JPK 300-m.). Masalani bu tariqa hal qilish uchun jamoatchilik vakillarining tergov ishida faol ishtirok etganliklarini ko'rsatuvchi faktlar asos bo'ladi.

Jamoat vakillari ishtirokida o'tkazilgan tergov va sudlov harakatlari katta daliliy ahamiyatga ega. Jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jinoyat ishlarini yuritishda jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilari tariqasida ishtirok etishga haqlidirlar. Ular jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga egadirlar.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror mahalla, korxonalar, muassasa va korxonalar jamoasi oldida ushbu korxonalar ishiga taalluqli jinoyat va holatlar yuzasidan so'zga chiqishlari, og'zaki va yozma faktlar keltirishlari,

tegishli majlislarda, teleko'rsatuv yoki radioeshittirishda foydalanish uchun jinoyatlar haqida hujjatlar, ma'lumotlar yuborish hamda yordam ko'rsatishni so'rab jamoatchilikka murojaat etishlari mumkin. Jamoatchilik surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga jinoyat sodir etilgan joy va uning izlarini qo'riqlashda, jinoyat sodir etish quollarini va boshqa ashyoviy dalillarni topishda, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini qidirib topish va ushlashda, jabrlanuvchilar va guvohlarni aniqlashda, jinoyatlarning sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishda yordam ko'rsatishlari mumkin.

### **3.14. Haqiqatni aniqlash**

Haqiqatni aniqlash jinoyat protsessining eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib (JPK 22-m.), surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga jinoyat hodisasi sodir bo'lgan-bo'lmaganligini, uning sodir etilishida kim aybdor ekanligini hamda shular bilan bog'liq boshqa holatlarni aniqlash vazifasini yuklatadi. Jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun so'roq qilish hamda boshqa tergov harakatlarini xolisona o'tkazish zarur. Ushbu talablarning bajarilmasligi haqiqatni aniqlashga imkon bermaydi, keyinchalik xatolarga va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Jinoyat bo'yicha tergov o'tkazish jinoyat hodisasi va turli tasmollarni ilgari surish bilan bog'liq har xil tekshiruvlarni o'tkazishga majbur etadi. Ushbu tasmollarni tekshirishda ayblanuvchi yoki sudlanuvchini oqlaydigan, uning ahvolini yengillashtiradigan yoki og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi kerak.

*Haqiqat* deganda, real voqelikdagi mavjud holat yoki ilgari yuz bergan hodisani boricha ifodalovchi, rost va haqqoniy tasavvur, in'ikos tushuniladi. Jinoyat protsessida esa jinoyat yuz bergan yoki bermaganligi, uning sodir etilishida muayyan shaxs aybli yoki aybsizligi, shuningdek, u bilan bog'liq ahamiyatli bo'lgan barcha holatlar ish hujjatlarida va dalillarda haqqoniy tarzda va ro'yi-rost aks etishintushuniladi.

*Haqiqatni aniqlash* deganda, protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jinoyat yuz bergan yoki bermaganligi, uning sodir etilishida muayyan shaxs aybli yoki aybsizligi, shuningdek, u bilan bog‘liq va ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha holatlarni ular qanday yuz bergan bo‘lsa shu holicha, xolisona aniqlashlari, tergov harakatlari natijasida to‘planadigan ishonchli va maqbul dalillar majmui bilan isbotlab berishlari tushuniladi.

Haqiqatni aniqlash jinoyat ishini adolatli hal qilish uchun eng zarur sharoit yaratadi. Shu bois ushbu prinsip jinoyat protsessining maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi.

Jinoyat ishi bo‘yicha tergovni xolisona o‘tkazish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning jinoyat ishidagi mavjud holatlarning voqelikka mos kelish-kelmasligini aniqlashdan, dalillarni to‘plash, qayd etish, tekshirish va baholashdan iboratdir, chunki jinoyat ishining barcha ishtirokchilariga salbiy yoki ijobiy nuqtai nazardan yondashish mumkin emas. Bunda ular xolis hamda ayblashga yoki oqlashga moyillikdan xoli bo‘lishi kerak. Agar ish bo‘yicha qandaydir holatlarning xolisligi shubha uyg‘otsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, xalq maslahatchilari, sudya ishni yuritishdan chetlashtiriladi.

### **3.15. Aybsizlik prezumpsiyasi**

Aybsizlik prezumpsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi-ning 26-moddasida: «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi qonunda belgilangan tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmagunicha u aybdor hisoblanmaydi», deb belgilangan. Ushbu qoida asosida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi rivojlantirilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi voqelikning huquqiy holatidir. Shaxsning aybi ishdagi to‘plangan dalillar bilan isbotlangan, uning asosli va adolatli ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganligiga hech qanday shubha qolmagan bo‘lsa ham agarda hali sudning ayblov hukmi chiqarilmagan bo‘lsa, u aybsiz deb hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 11-moddasiga ko‘ra «jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir».

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipidan quyidagi talablar kelib chiqadi:

– surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ayblanuvchiga o‘z aybsizligini isbotlash majburiyatini yuklashga haqli emas;

– ayblanuvchining aybi isbotlanmasa, demak, uning aybsizligi isbotlanganligini tan olish kerak;

– aybdorlik borasidagi barcha shubhalar, ularni bartaraf etish imkoniyati tugagan bo‘lsa, ayblanuvchining foydasiga hal etilishi kerak.

Aybsizlik prezumpsiyasi deganda, shaxsning jinoyat sodir etilishidagi aybdorligi qonuniy tartibda isbotlanib, sudning hukmida aniq belgilanishi va hukm qonuniy kuchga kirgunigacha bo‘lgan muddatda shartli ravishda uni aybsiz deb hisoblashdan iborat konstitutsiyaviy qoida tushuniladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi belgilanishidan ko‘zlangan asosiy maqsad jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligini ta’minladan iborat.

Aybsizlik prezumpsiyasi ayblanuvchining aybi to‘liq, ravshan va shubhasiz aniqlanishini talab etadi. Agar ushbu talab bajarilmasa, ya’ni ayblanuvchining aybi dalillar bilan aniq va to‘liq isbotlanmasa, sudning bu shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb hisoblash haqidagi hukmi adolatsiz, ushbu shaxsning huquq va manfaatlarini cheklovchi bo‘ladi. Bunday hukm huquqiy kuchga ega bo‘lmasligi aniq.

Mazkur prinsipga rioya etmagan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya Konstitutsiyaning 26-moddasida va JPKning 23-moddasida belgilangan talablarga zid harakatlarni sodir etgan deb topiladi.

### **3.16. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash**

Mazkur prinsip mazmunini to'laroq anglash uchun himoyalash huquqi haqida chuqurroq anglash talab etiladi. Himoyalash deganda, jinoyat protsessida shaxsga nisbatan quyilayotgan uning jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon yoki ayblovdan, uning oqibatida cheklanishi mumkin bo'lgan huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat, harakatlar va jarayon tushuniladi. Huquq esa, shaxsning muayyan harakatlar sodir etishga, muayyan imkoniyatlardan foydalanishga, muayyanya narsalarga egalik qilishga haqliligidir. Himoyalash huquqi deganda esa, shaxsga nisbatan ilgari surilayotgan ayblov (gumon shaklida bo'lishi ham mumkin)dan va uning natijasida yuzaga keladigan javobgarlik va jazodan o'z huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq muayyan harakatlarni sodir etishga, belgilangan ma'lumotlardan xabardor bo'lishga, ma'lum imkoniyatlar va vositalarga ega bo'lishga va ulardan foydalanishga haqdorlik, shuningdek, ushbu haq-huquqlarga oid talablarni ta'minlash mexanizmi tushuniladi.

Jinoyat protsessida har bir shaxs uning protsessual maqomi qanday bo'lishidan qat'i nazar hamoyalash huquqiga ega. Ammo ushbu huquqni ta'minlash shart bo'lgan ishtirokchilar chegaralangan, ularga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)lar kiradi. Chunki, jinoyat protsessida ushbu ishtirokchilarning huquqlari jiddiy ravishda cheklanishi mumkin, agar ularga nisbatan sudning ayblov hukmi chiqarilib, kuchga kirsa. Shuning uchun ham jinoyat protsessida muhim prinsip sifatida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash prinsip sifatida belgilangan. Himoyalash huquqi bilan ta'minlash deganda, huquqdan foydalanish mexanizmi emas balki mazkur huquqdan eng yuqori darajada foydalanish uchun to'liq imkoniyat va zarur shart-sharoit yaratish tushuniladi. Mazkur imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish jinoyat

ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning zammasiiga yuklatilgan bo'lib, majburiy ta'minlanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalani sh huquqi bilan ta'minlash prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida belgilangan: «Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi».

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalani sh huquqi bilan ta'minlash prinsipining mazmuni quyidagilardan iborat:

1) gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish;

2) o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalani sh uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish;

3) himoyachi ishtirokini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni 10-moddasida himoyalani sh huquqini ta'minlash va aybsizlik prezumpsiyasi masalalarini tartibga solingan. Mazkur moddaga binoan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi himoyalani sh huquqi bilan ta'minlanadi. Sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas. Hech kim qiynokka solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Jinoyatni ochish va aybdor shaxsni aniqlash maqsadida, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ushbu shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligidan dalolat beruvchi dalillarga asoslangan holda qonunda belgilangan tartibda bunday shaxsni aniqlaydilar. Ammo jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish huquqi faqat sudga tegishli, sud bunday hukmni chiqarmagunicha shaxsning aybdorligi qayd etilishi



kerak, ya'ni surishtiruv va dastlabki tergov organlari jinoyat sodir etgan shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etishlari lozim. Mazkur harakatlar tegishli qaror asosida amalga oshiriladi. Ayblanuvchiga nisbatan jazo choralarini qo'llash yoki uni aybdor deb topishga faqat sud haqlidir.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyalanih huquqini ta'minlash prinsipini bajarmasligi protsessual qonun talablariga nomuvofiqlik faktiga olib keladi va bu mazkur shaxslarning yuqorida ta'kidlangan huquqlari qo'pol tarzda buzilganidan dalolat beradi.

### **3.17. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv**

Jinoyat ishlarini yuritishda asosiy jarayon sudda ishlarni ko'rish bilan bog'liq bo'lib, ishni qonuniy, asosli va adolatli hal etish uchun taraflar o'zaro tortishuvini yuzaga keltirish talab etiladi. Tortishuv deganda, manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ikki tarafning o'z manfaatlari himoya etgan holda dalillar taqdim etishi, o'zining munosabatini bildirishi va uni asoslashi hamda qarshi tarafning fikrlarini va dalillarini rad etishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Tortishuv asosida ishni ko'rayotgan xolis sud qaysi taraf haq ekanligi, ishni kimning manfaatiga hal etish, shuningdek, shu bilan bog'liq boshqa qarorlarni qabul qilish qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi haqida to'g'ri to'xtamlarga kelishi uchun ishga oid barcha holatlar to'liq oydinlashadi. Shu bilan birga, jinoyat protsessining vazifalarini to'la ro'yobga chiqarish va odil sudlovni amalga oshirishga erishiladi.

Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganida ish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida yuritiladi. Bu hol taraflar sud muhokamasi davomida teng huquqlardan foydalanishlarini, ularni tekshirishda ishtirok etishlarini, iltimoslar bilan murojaat etishlarini, ishning sudda adolatli ko'rib

chiqilishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini tushuntirishlarini bildiradi.

Ushbu prinsipning talabi ikkita holat bilan bog'liq:

a) ish sudda ko'rilayotganida ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas. Bu, masalan, prokurorning himoyalash vazifasini bajarmasligi kerakligini, himoyachi esa ayblov funksiyasini bajara olmasligini bildiradi. Sud ish bo'yicha qaror qabul qilishi kerak. Sud ayblovning yoki himoyaning vazifalarini zimmasiga olib, ish bo'yicha qaror qabul qilsa, sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi qo'pol tarzda buziladi.

Agar prokuror ayblash uchun yetarli asoslarga ega bo'lmasa va bu haqda sudya yoki sud hay'atiga aytish lozim, degan xulosaga kelsa, ushbu holda prokuror sudda ishlarni yuritish paytidagi tortishuvda ishtirok eta olmaydi. Aks holda ish sudda ko'rib chiqishga hattoki tayinlanmaydi;

b) birinchi instansiya sudida ish yuritish faqat ayblov xulosasi yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror mavjud bo'lganda boshlanishi mumkin.

Hozir sudda tom ma'nodagi tortishuvni ta'minlash borasida choralar ko'rilmogda.

Sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni isbotlash vazifasi, kim bo'lishidan – davlat ayblovchisimi yoki jabrlanuvchimi – qat'i nazar, ayblovchiga yuklatiladi. Ish yuritishda tortishuvni ta'minlash uchun himoyachi sudlanuvchining manfaatlarini himoya qilishda qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishi shart.

Ayni paytda sud jinoiy ta'qib organi emasligini, ayblov yoki himoya tarafida turmasligini hamda ularning huquq va manfaatlaridan boshqa biron-bir manfaatlarni ifodalamasligini inobatga olish lozim.

U xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda taraflarga protsessual majburiyatlarini bajarishlari va huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

### **3.18. Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish**

Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish prinsipi sudya va sud hay‘ati a‘zolaridan jinoyat ishini ko‘rib chiqish davomida ish bo‘yicha to‘plangan materiallardan foydalanish uchun birin-ketin barcha dalillarni tekshirib chiqishni talab etadi. Ularni dastlabki tergovda ham tekshirish, qonuniy yo‘l bilan olinganligiga, haqiqatan ham ushbu jinoyat ishiga aloqadorligiga ishonch hosil qilish, boshqa dalillar bilan qiyoslash hamda ularga baho berish lozim.

Dalillarni tekshirish ishdagi dalillarning ishonchliligini, ya‘ni unda aks etgan ma‘lumotlarning qanchalik haqiqatga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Dalillarni tekshirish ishdagi boshqadalillar bilan yoki qo‘shimcha dalillarni to‘plash va ular bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Sudda dalillarni bevosita tekshirish deganda esa, ishni ko‘rayotgan sudya yoki sud hay‘ati a‘zolarining dalilni bevosita qo‘liga olib ko‘zdan kechirishi, ushlab ko‘rish orqali solishtirishi tushunilsa, og‘zaki usulda tekshirish deganda, shaxsan o‘zi eshitishi, baland ovozda o‘qib eshittirilishi orqali qiyoslanishi, taqqoslanishi tushuniladi. Dalillarni tekshirishning bevosita va og‘zaki usullaridan odatda bir vaqtda foydalaniladi. Chunki ayrim dalillarni tekshirishda ushbu usullardan alohida foydalanish mumkin emas.

Jinoyat ishi bo‘yicha to‘plangan dalillarni tekshirish quyidagilardan iborat: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish, ekspert xulosalarini eshitish, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o‘qib eshittirish. Ushbu harakatlarni sud amalga oshirishi kerak, aks holda mazkur prinsip qo‘pol ravishda buziladi. Agar sudda ishni ko‘rib chiqish jarayonida sudya betob bo‘lib qolsa va sudga kelmasa, hamda yangi sudyalar va xalq maslahatchilarini jalb etishga to‘g‘ri kelsa, jinoyat ishi yangidan ko‘rib chiqiladi.

Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish uchun dalillarga to‘g‘ri baho berish,

haqiqatga muvofiq ichki ishonch shakllanishi, huquqiy ongga tayanib qilmishga to'g'ri huquqiy baho berish uchun zarur sharoit yaratadi va bu orqali jinoyat protsessining maqsadiga erishish mumkin bo'ladi. Sudya yoki sud hay'ati a'zolari jinoyat ishini ko'rib chiqish davomida to'plangan barcha dalillarni bevosita baholaydilar.

### **3.19. Protssual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi**

Protssual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi jinoyat protsessidagi asosiy prinsiplardan biri bo'lib, huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishdagi qonuniy vosita sifatida foydalaniladi. JPKning 27-moddasiga muvofiq, protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek, jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari protssual harakatlar yoki qarorlar ustidan shikoyat berishga haqlidirlar. Buning ustiga, protsessning har qanday bosqichida iltimoslar qilish va shikoyatlar berish mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning murojaatlarini hal qilish maxsus qonun bilan belgilanadi.

Ayblanuvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud harakatlari va qarorlari xususida shikoyat qilish huquqiga ham ega (JPK 46-m.).

Xuddi shunday huquq gumon qilinuvchi (JPK 48-m.), himoyachi (JPK 53-m.), jabrlanuvchi (JPK 55-m.), fuqaroviy da'vogar (JPK 57-m.), fuqaroviy javobgar (JPK 59-m.), qonuniy vakil (JPK 61-m.) hamda vakilga (JPK 63-m.) ham berilgan. Eng asosiysi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya mazkur shaxslarga shikoyat qilish huquqini tushuntirib berishlari va ushbu huquqning amalga oshirilishi uchun zarur sharoitni ta'minlashlari shart.

## **IV BOB. JINOYAT PROTSESSINING ISHTIROKCHILARI**

### **4.1. «Jinoyat protsessining ishtirokchilari» tushunchasi va tasniflanishi**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi «protsess ishtirokchilari» tushunchasini keng ma’noda talqin qilib, mazkur tushunchaga jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarni kiritadi. Protsess ishtirokchilaridan har birining oldida turgan vazifalari va bajarayotgan protsessual funksiyalarining xarakteri va unga belgilangan huquq va majburiyatlari hajmi ko‘rinishida bo‘lib, mazkur ishtirokchining huquqiy holatini belgilaydi.

Jinoyat protsessining ishtirokchilari jinoyat-protsessual harakatlarni amalga oshirish va jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishish uchun huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan organlar va shaxslardir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: sud, prokuror, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslar, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da’vogar va javobgar, ekspert, tarjimon va h.k.

Qonun hujjatlarini tahlil qilish, birinchidan, jinoyat protsessining ishtirokchilari qonunda to‘liq keltirilganligi; ikkinchidan, ular muayyan protsessual, tergov va sudlov harakatlarida ishtirok etishlari haqidagi xulosaga olib keladi.

Amaldagi JPKda «jinoyat protsessining ishtirokchilari» tushunchasining o‘zi berilmagan. Jinoyat protsessi ishtirokchilari deb jinoyat ishlarini yuritishda qonun bilan belgilangan tartibda muayyan bir faoliyatini bajarishga yo‘naltirilgan va qonun bilan tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga aytiladi. Ular o‘zlariga berilgan huquqlardan foydalanish, hamma vazifalarni bajarish orqali ishtirok etadigan davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar, jamoat birlashmalari, jamoalarning vakillari jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblanadilar.

Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga mos vazifani, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini utaydi. Bu vazifaning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq hodda belgilanadi.

Jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarini ular oldida turgan vazifalarga, ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga va amalga oshiriladigan turli vazifalarga bog'liq ravishda quyidagi guruhlariga bo'lib tasniflash mumkin.

Ulardan biriga muayyan jinoyat ishini yuritish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar: sud (sudya), sud majlisida sud majlisi kotibi vazifalarini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi); prokuror; tergovchi, tergov boshqarmasi bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari; surishtiruvchi, surishtiruv bo'linmasi boshlig'ining va uning o'rinbosari, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxslar hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar kiradi. Faqat shulargina huquq me'yorlarini, protsessual majburlov choralarini qo'llaydilar, jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni yuborish, uning mohiyatiga ko'ra hal qilish to'g'risida qaror chiqaradilar (JPKning 28-39<sup>2</sup>-m.).

Jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari boshqa guruhni tashkil etadi. Jamoalar va jamoat birlashmalari fikrining hisobga olinishi dazlat organlari oldida turgan vazifalarni to'g'ri hal qilishga imkon beradi (JPKning 40-44-m.).

Jinoyat protsessida ko'riladigan ish mohiyati fuqarolarning, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarning, shuningdek, jinoyat oqibatida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rganlarning (jabrlanuvchilarning) hamda mulkiy manfaatlari jinoyat ishining hal qilinishi bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning (fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgarlarning) shaxsiy manfaatlariga borib taqaladi. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini mumkin qadar samarali himoya qilish

maqsadida mazkur protsess ishtirokchilarining vakillari jalb etiladi yoki ularning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunda himoyachining o‘rni alohida ajralib turadi. Barcha sanab o‘tilgan protsess ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida «Jinoyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar» deb ataladigan guruhni tashkil qiladi (JPKning 45-64-m.).

Nihoyat, jinoyat ishlarini sudda yuritish vazifalarini bajarish uchun protsessual faoliyatga davlat organlari faoliyatiga nisbatan yordamchi, tashkiliy-texnikaviy ta‘minlash vazifalarini amalga oshiradigan (tarjimonlar, mutaxassislar, xolislar) yoxud isbotlovchi ma‘lumotni olishga ko‘maklashadigan (guvoxlar, ekspertlar) fuqarolar va mansabdor shaxslar jalb etiladilar. Yuqorida sanab o‘tilgan ishtirokchilar «Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar» deb atalmish guruh tarkibiga kiradilar (JPKning 65-75-m.)

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning jinoyat-protsessual faoliyat borasida ro‘yobga chiqariladigan huquqlari va majburiyatlari hajmini aniqlash uchun «jinoyat protsessi subyektlari» tushunchasi qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida «protsess ishtirokchilari» atamasiga eng keng tushuncha berilib, u barcha ishtirok etuvchi shaxslarni qamrab oladi. Har bir protsess ishtirokchisining oldida turgan vazifalar hamda ular bajaradigan protsessual vazifaning xususiyati bu ishtirokchiga beriladigan huquqlar va unga yuklatiladigan majburiyatlar hajmida ifoda etiladigan uning huquqiy holatini (huquqiy maqomini) belgilaydi.

Albatta, protsess ishtirokchilarining tutgan o‘rni bir xil emas. Ularning protsessual huquq va majburiyatlarining hajmi, shuningdek, vakolatlari va ishda qatnashish shakllari ham turlicha. Qonunda sanab o‘tilgan subyektlarning barchasi ham muayyan ishning yuritilishida muqarrar tarzda doimo ishtirok etmaydi.

Masalan, jinoyat protsessida hatto jabrlanuvchi yoki himoyachi ham bo‘lmasligi mumkin. Gumon qilinuvchining ishtiroki esa ba‘zan juda cheklangan vaqt davom etadi. Shunga qaramay, vazifasi va jinoyat

ishidagi ishtirokining mazmuniga ko'ra ular jinoyat protsessining ishtirokchilari va, binobarin, subyektlaridirlar.

Qonun hujjatlari va huquqiy adabiyotni tahlil qilish jinoyat protsessining ishtirokchilari, birinchidan, qonunda ko'rsatilgan; ikkinchidan, muayyan protsessual funksiyalarni bajarishda ishtirok etadigan; uchinchidan, qonunga ko'ra tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslar ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqiy maqomini bilish ulkan amaliy ahamiyatga ega. Fuqarolarning subyektiv jinoyat-protsessual huquqlari odil sudlov vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga ko'maklashadi. Aksincha, surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sudning protsess ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishdan iborat o'z vazifalarini bajarmasliklari qonuniylikning buzilishiga olib keladi.

Jinoyat protsessining ishtirokchilarini, vazifalari va manfaatlaridan kelib chiqib, tegishlicha tasniflash mumkin. JPKning ikkinchi bo'limida jinoyat protsessi ishtirokchilarining cheklangan ro'yxati va tasnifi berilganligi bois ushbu vazifa osonlashadi.

Jinoyat-protsessual faoliyat ko'p qirralidir, chunki u o'zaro mos kelmaydigan muayyan jihatlar va yo'nalishlarga ega.

#### **4.2. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar**

*Sud.* O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi.

Sud qarorlari barcha davlat korxonalarini, muassasalari, tashkilotlari, tijorat tuzilmalari, jamoat birlashmalari, shuningdek, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.



Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarish huquqiga ega. Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib, ajrim chiqaradi. Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib, ajrim chiqaradi. Nazorat instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan protestlar bo'yicha ishlarni ular appellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilganidan keyin ko'rib, qaror (ajrim) chiqaradi.

Sud chiqaradigan qaror nafaqat davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun, balki sudning o'zi uchun ham majburiydir. Sud qarorlari faqat yuqorida qayd etilgan sud instansiyalari tomonidan, qonun qat'iyan cheklagan doirada, qayta ko'rish tartibida bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Sudlar o'z faoliyatida nafaqat dastlabki tergov organlarining, balki yuqori instansiya sudlarining xulosalari bilan, basharti ular ichki ishonchga zid bo'lsa, bog'lanib qolmaydilar. Sud tazimining turli bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sudyalarning mustaqilligining daxlsizligi va ularning faqat qonunga bo'ysunish prinsipining o'zgarmas asosida tashkil etiladi. Ular keng vakolatlarga ega bo'ladi.

JPKning 29-moddasiga binoan sudning vakolatlariga: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko'rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi, murdani eksqumatsiya qilish haqidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish; prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki

jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish; jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash; ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilish; ishni apellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida ko'rib chiqish; hukmni ijro ettirish kiradi.

Yuqori sudlar, bundan tashqari, o'z vakolatlari doirasida quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Bundan tashqari, yuqori sudlar o'z vakolatlari doirasida quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sud adolat timsolidir, uning beg'araz va xolisona xizmatchisidir.

Sud faoliyati mustaqil va faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarga bo'ysunish, oshkoralik, taraflar tortishuvi va teng huquqliligi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplarga va jinoyat protsessining boshqa demokratik asoslariga tayanadi.

Sud hokimiyati faqat ana shunday shartsharoitda odil, insonparvar, chinakam mustaqil, qonun ustuvorligini va shaxsning huquqlari, manfaatlari va erkinliklari daxlsizligini ta'minlaydigan hokimiyat sifatida o'zini namoyon etadi. Sud hay'atda yoki yakka tartibda amal qilishi mumkin. Jinoyat ishini ko'rib chiqishda sudning tarkibiga saylangan yoki tayinlangan sudyalari va xalq maslahatchilari ishtirok etadilar.

Sudya o'z vakolatidan foydalanib yakka tartibda yoki sud tarkibida ish ko'radi. Bundan tashqari, sudya sud muhokamasiga ishni tayyorlash bilan bog'liq harakatlarni bajaradi, sud majlislarida raislik qiladi va JPKda ko'rsatilgan boshqa huquqlar va majburiyatlarni amalga oshiradi.

Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifalarini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi.

Sud majlisi kotibi jinoyat ishini sud majlisida ko'rish uchun tayyorlaydi; sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida protsess ishtirokchilarini xabardor qiladi; sudga chaqirilgan protsess ishtirokchilarining kelgan-kelmaganligini tekshiradi, hozir bo'lmagan shaxslarning

kelmaganligi sababini aniqlab, bu haqda sudga ma'lum qiladi; sud majlislari bayonnomasini yuritadi; raislik qiluvchining sud muhokamasini tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq boshqa topshiriqlarini bajaradi.

Sud majlisi kotibi bayonnomada sudning harakatlari va qarorlarini, shuningdek, sud majlisi barcha ishtirokchilarining harakatlari, arizalari, iltimosnomalari, ko'rsatuvlarini to'liq va to'g'ri bayon qilib borishi shart.

*Prokuror.* O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining vakolatlari, tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonunida belgilangan. Jinoyat protsessida prokurorning protsessual holati, uning faoliyat shakli va usullari sudda ishlarni yuritishning umumiy vazifalari va har bir alohida bosqichda hal qilinadigan bevosita vazifalardan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan JPKda prokurorning vakolatlari belgilangan.

JPKning 33-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat'i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rishi shart. Prokuror o'z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib va O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori ko'rsatmalariga tayangan holda amalga oshiradi.

Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida JPK 243, 382-388, 558, 589-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Prokuror sud muhokamasida qatnashib, JPKning 409-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, ularning o'rinbosarlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar va ularning o'rinbosarlari, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan boshqa prokurorlar tergov bosqichida fuqarolarni qamoqqa olish yoki uy

qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo‘llash haqida sudga iltimosnoma kiritishi mumkin.

Prokuror JPKning 382-moddasiga asosan surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi hamda jinoyat sodir etilgani to‘g‘risidagi ariza va xabarlarini ko‘rish hamda hal qilish, tekshirishni amalga oshirishning JPKda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat olib boradi.

Surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, prokuror o‘z vakolati doirasida:

surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishlarining borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma‘lumotlarni talab qilib oladi; sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma‘lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hal etish to‘g‘risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi;

surishtiruvchilar va tergovchilarning, shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi;

jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o‘zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi;

qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi;

ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi;

murdani eksqumatsiya qilish to‘g‘risida, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish haqidagi qarorlar, sudning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ajrimini ijro etishni, shuningdek, prokuror yoki prokuratura tergovchisi yurituvdagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralarni ko‘rish to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi;

surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, JPKga muvofiq har qanday ish bo‘yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to‘liq amalga oshiradi;

tintuv o‘tkazishga, telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishga, yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar va boshqa so‘zlashuvlar, pochta, kuryerlik jo‘natmalari, telegraf xabarlar hamda aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa xabarlarning sir saqlanishi, uy-joy daxlsizligi huquqini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruv organi hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat beradi;

dastlabki tergov va surishtiruv muddatlarini JPKda belgilangan hollarda va tartibda uzaytiradi;

ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo‘shimcha tergov o‘tkazish to‘g‘risidagi o‘z ko‘rsatmalari bilan qaytaradi;

jinoyat ishini prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, JPKda belgilangan hollarda va tartibda esa, bir dastlabki tergov va surishtiruv organidan boshqa dastlabki tergov va surishtiruv organiga o‘tkazadi;

surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergov chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatadi;

jinoyat ishlari qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, ishlarni tugatadi yoxud yuritilishini to'xtatadi; qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchi yoki surishtiruvchining ishni tugatishiga rozilik beradi; ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi yoki qarorini tasdiqlaydi, ishlarni sudga yuboradi.

Prokurorning JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalari ana shu organlar uchun majburiydir.

Prokuror yoki uning o'rinbosari ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plangan dalillarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko'rsatma berishga haqli (383-m).

*Tergovchi.* JPKning 35-moddasiga binoan prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmatining tergovchilari jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshiradilar.

Tabiiyki, tergovchining protsessual vakolatlari va protsessual holati uning idoraviy taalluqligiga bog'liq emas. Ularning barchasi teng. Tergovchi faoliyagining mazmuni va yo'nalishi jinoyat ishlarini sudda yuritish vazifalari bilan belgilanadi. Tergovchi jinoyatni ochishga va aybdorlarni fosh qilishga, ya'ni qanday jinoyat qayerda va qaysi usulda sodir etilganligini, uning sodir etilishiga taalluqli barcha shaxslarni (ijrochilar, dalolatchilar, tashkilotchilar, yordamchilarni va hokazolar), jinoyat tarkibini tashkil etuvchi barcha alomatlarini, uning subyektini, obyektiv va subyektiv tomonlarini, jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlashga da'vat etilgan. JPKning 36-

moddasiga muvofiq tergovchi: jinoyat ishini qo'zg'atishga va tugatishga, ishni qo'zg'atishni rad etishga; jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so'roq qilishga; JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga; shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida qaror qabul qilishga; shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash haqida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog'i mustasno; o'z yurituviga qabul qilgan ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risida yozma topshiriqlar berishga; boshqa tergovchi va surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to'g'risida topshiriq berishga; tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to'g'risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko'maklashishni talab qilishga; qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma berishga, shuningdek, ehtiyot chorasini JPKning 240-moddasiga muvofiq bekor qilishga yoki o'zgartirishga; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek, mazkur protsessual majburlov choralari JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek, mazkur choralarni JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Tergovchi tergovning yo'nalishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi.

Tergovchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov

hajmi haqidagi, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish haqidagi ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi.

Tergovchining o‘z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Tergovchi jinoyatlarni ochish, aybdorlarni fosh etish va aybsiz shaxslarni asoslanmagan jinoiy javobgarlikka tortishdan muhofaza qilish bo‘yicha butun faoliyati bilan jinoyat va jinoyat-protsessual qonun talablariga aniq rioya qilgan holda tarbiyaviy va ogoxlantiruvchi ta’sir etishga da’vat etilgandir.

*Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘i va uning o‘rinbosari.* Mazkur tushuncha barcha huquqni muhofaza qilish organlaridagi (prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati) barcha tergov tuzilmalarining rahbarlarini qamrab oladi.

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining vakolatlari JPKning 37-moddasida belgilangan. Ularning har biriga tergovchilarning o‘z vaqtida jinoyatni ochish yoki uning oldini olish bo‘yicha harakat qilishini nazorat etish, jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni mumkin qadar to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘rish huquqi berilgan.



Tergov tuzilmasining rahbari jinoyat ishini tekshirishga, tergovchiga dastlabki tergov o‘tkazishga, ishni bir tergovchidan boshqasiga o‘tkazishga, shpni tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirishga, shaxsni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok qilish uchun jalb etishga, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilashga, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida tergovchiga ko‘rsatmalar berishga, shuningdek, tergovchi vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergov olib borishda qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir.

Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarlarining ish yuzasidan ko‘rsatmalari tergovchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir.

Olingan ko‘rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilinishi ularning ijro etilishini to‘xtatib ko‘ymaydi, tergovchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish haqidagi, ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmagan hollar bundan mustasno. Shunday qilib, tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining vakolatlari tergovchining protsessual mustaqilligini mustahkamlash bilan uyg‘unlashadi. Tergov apparati boshlig‘i tergov qilishning resurs va uslubiy ta‘minlanish bilan amalga oshirayotgan tergovchi ishining tashkilotchisi sifatida ish ko‘rishi kerak.

*Surishtiruvchi.* JPKning 38-moddasiga asosan surishtiruvchi quyidagilar organlarda faoliyat olib boradi:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo‘linmalari;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va uning joylardagi bo‘linmalari;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo‘linmalari.

Surishtiruvchi: jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga; jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so‘roq qilishga; JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga; shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga; shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish haqida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i mustasno; o‘z yurituviga qabul qilgan ishlar bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish haqida yozma topshiriqlar berishga; boshqa surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to‘g‘risida topshiriq berishga; tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilishga; qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma berishga, shuningdek, ehtiyot chorasini JPKning 240-moddasiga muvofiq bekor qilishga yoki o‘zgartirishga; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek, mazkur protsessual majburlov choralari JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; murdani eksqumatsiya qilish to‘g‘risida, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek, mazkur choralarni JPKda belgilangan tartibda bekor qilishga; amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Surishtiruvchi surishtiruvning yo‘nalishiga oid barcha qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, bundan qonunda prokuror ruxsatini olish nazarda tutilgan hollar mustasno.

Surishtiruvchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini qo‘llash haqidagi, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritish to‘g‘risidagi, ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha surishtiruv yuritishni boshqa surishtiruvchiga topshiradi.

Surishtiruvchining o‘z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

*Surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i va uning o‘rinbosari.* Ular, o‘z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan surishtiruvchilarning o‘z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘radilar.

Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari ishlarni tekshirib ko‘rishga, surishtiruvchiga surishtiruv yuritish, shaxsni ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida ko‘rsatmalar berishga, ishni bir surishtiruvchidan ikkinchi surishtiruvchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha surishtiruvchiga topshirishga,

shuningdek, surishtiruvchi vakolatlaridan foydalanib, surishtiruv yuritishda qatnashishga va surishtiruvni shaxsan o'zi olib borishga haqlidir.

Surishtiruv bo'linmasi boshlig'ining va uning o'rinbosarining ish yuzasidan ko'rsatmalari surishtiruvchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir.

Olingan ko'rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilinishi, JPK 38<sup>1</sup>-moddasining учинчи қисмида назарда тутилган ҳолларни истисно этганда, уларнинг ижро этилишини тўхтатиб қўймайди.

*Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar.* O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli qonuni bilan JPKga 39<sup>1</sup>-modda «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar» kiritilib, unga asosan tergovga qadar tekshiruv quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

ichki ishlar organlari;

harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari – ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoxud o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

davlat xavfsizlik xizmati organlari – qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari – shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

davlat yong‘indan nazorat qilish organlari – yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

chegarani qo‘riqlash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

davlat bojxona xizmati organlari – bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari – budjet, soliq va valuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo‘linmalari – voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo‘yicha, shuningdek, elektr, issiqlik energiyasi, gaz, suvdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari – bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha;

Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning joylardagi bo‘linmalari – qishloq va suv xo‘jaligi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar talablari buzilishi to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo‘linmalari – qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo‘yicha.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va

jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPK qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish vazifasi yuklatiladi. Ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati, davlat bojxona xizmati organlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo'linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqli. Tezkor-qidiruv faoliyatini o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o'ziga bo'ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, jinoyat ishini qo'zg'atishga yoki ish qo'zg'atishni rad etishga yoxud arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko'ra o'tkazishga haqlidir.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi zimmasiga tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga doir vazifalarni yuklatish tartibi mazkur organ tomonidan belgilanadi.

Boshliqning topshirig'iga binoan va uning rahbarligida ishlayotgan mansabdor shaxs jinoyatning oldini olish yoki uning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik, dalillarni to'plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish hamda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, kechiktirib bo'lmaydigan barcha harakatlarni amalga oshirishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi zimmasiga tergovchi, surishtiruvchi yuritayotgan ish bo'yicha ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga, surishtiruvchiga protsessual harakatlarni bajarishida ko'maklashish majburiyati ham yuklatiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda,

xuddi shuningdek, tergovchining, surishtiruvchining topshirig'ini bajaryotganda, protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qarorlari mazkur organ boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim. Boshliqning yozma ko'rsatmalari ularni bajarishni to'xtatmay turib, ushbu ko'rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqli bo'lgan unga bo'ysunuvchi mansabdor shaxs uchun majburiydir.

Prokurorning yozma ko'rsatmalari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i va uning mansabdor shaxsi uchun majburiydir. Ular prokurorning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan taqdirda, ko'rsatmalarni bajarishni to'xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga ularning ustidan shikoyat qilishga haqlidir (JPK 39<sup>2</sup>-modda).

### **4.3. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari va jamoalar**

Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessida jamoat birlashmalari va jamoa vakillari ishtirok etishining bir nechta shakli nazarda tutiladi. JPKning 40-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar, ularning rahbar organlari hamda vakillari sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to'g'risidagi xabar bilan surishtiruv organiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga murojaat etishlari mumkin. Ular: ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligiga berishni tanlash haqida; mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish haqida; ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini o'zgartirish haqida; sudlanganlikni olib tashlash haqida va boshqa masalalar bo'yicha JPKda nazarda tutilgan hollar hamda tartibda iltimos qilishga haqlidirlar.

O'z navbatida surishtiruvchi va tergovchi fuqaroning og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga

jalb qilingani haqida uning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoaga xabar beradi, sud esa ularga shu ish bo'yicha sud muhokamasi qachon va qayerda o'tkazilishi haqida xabar beradi.

Jinoyat protsessida jamoatchilik ishtiroki jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilari institutida ko'proq namoyon bo'ladi. JPKning 42-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborishlari mumkin.

Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jamoat birlashmasining yoki korxon, muassasa, tashkilot jamoasining, shu jumladan tijorat tuzilmasining, shuningdek, yashash joyi bo'yicha jamoaning yig'ilishi ko'rsatadi. Yig'ilish qarori sudga taqdim etilishi lozim. Lekin jamoat birlashmasi, jamoa o'zi yo'llagan jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisini xohlagan vaqtda chaqirib olishga yoki uni boshqa vakil bilan almashtirishga haqlidir.

Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi o'z vazifalarini davlat ayblovchisi va himoyachisi qanday nuqtai nazarda bo'lishidan qat'i nazar amalga oshiradigan sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchilaridir.

Sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat ayblovchisi: ish materiallari bilan tanishishga; dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnoma berishga; taraflarning muzokaralarida so'zga chiqib, ayblovning isbotlangani haqida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishga haqli. Shu bilan birga jamoat ayblovchisi: sud muhokamasida ishtirok etishi; jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ish holatlarini aniqlashga ko'maklashishi shart (JPKning 43-m.).

Jamoat himoyachisi ham xuddi shunday huquq va majburiyatlarga egadir. Xususan, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat himoyachisi: ish materiallari bilan tanishishga, dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnoma berishga; taraflarning muzokaralarida so'zga chiqib, sudlanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlar xususida sudga fikr bildirishga haqlidir.



Jamoat himoyachisi: sud muhokamasida ishtirok etishi; jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ishning sudlanuvchining ahvolini yengillashtiruvchi holatlarini aniqlashga ko‘maklashishi shart.

#### **4.4. Jinoyat protsessda o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar**

Jinoyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari va vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari kiradi.

*Gumon qilinuvchi.* Jinoyat sodir etgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar uni ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo‘lmagan shaxs gumon qilinuvchi deb tan olinadi. Shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e’tirof etish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqarishi (JPKning 47-m.) qonunda novella hisoblanadi. Bundan tashqari, jinoyat sodir qilganligi gumon qilinib ushlangan shaxs ham gumon qilinuvchi deb e’tirof etiladi.

Shaxs gumon qilinuvchi deb tan olinishi protsessual hujjat sifatidagi ushlab turish bayonnomasi (JPK 225-m.), shuningdek, ushlab turish qaroriga binoan ham amalga oshirilishi mumkin (JPK 224-m.) yoki gumon qilinuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror u jinoyat sodir etganligi haqida asos bo‘la oladi.

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan shaxs JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda (shaxs jinoyat ustida ushlanganda, jinoyat shohidlarining, jabrlanuvchining u jinoyat sodir etganligi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatuvlari bo‘lganda, uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilganda va boshqalar) ushlab turilishi mumkin.

JPKning 48-moddasiga ko‘ra gumon qilinuvchi quyidagi huquqlarga ega:

o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish;

ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish;

u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, JPKning 230-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish;

o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish;

o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalaniş huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish;

iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish;

yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish;

surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Ammo gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek, o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas. Gumon qilinuvchi o'z majburiyatlarini bajarmaganda unga nisbatan ba'zi bir protsessual majburlov choralari, masalan majburiy ravishda keltirish qo'llanilishi mumkin (JPKning 262-m.) Bunda uning aybi qonuniy tarzda sud muhokamasida oshkora tasdiqlanmaguncha u aybsiz hisoblanadi va sudda unga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi.

*Ayblanuvchi.* Ayblanuvchi deganda, JPKda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs tushuniladi. Ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilganidan keyin esa, mahkum yoki oqlangan deb ataladi.

Shaxsni ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorni tergovchi chiqaradi, shuningdek, uni prokuror yoki tergov bo'limi boshlig'i ham chiqarishga, basharti ular jinoyat ishining yuritilishini dastlabki tergov bosqichida amalga oshirayotgan bo'lsalar, haqli.

JPKning 46-moddasiga binoan, ayblanuvchi: o'zining nimada ayblanayotganligini bilish; qamoqqa olinganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, JPK 230-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; o'ziga qo'yilgan ayblovlardan hamda ishning boshqa har qanday holatlari bo'yicha ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; jinoyat ishining surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan tugatilganligiga qarshi e'tiroz bildirish hamda sud muhokamasi o'tkazilishini talab qilish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha, birinchi instansiya va apellatsiya instansiyasi sudining majlislarida, sudning ruxsati bilan esa, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudining majlislarida ishtirok etish;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan protestlar, apellatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga ega. Sudlanuvchi oxirgi so'z bilan chiqish huquqiga ega.

Ayblanuvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasida ishtirok etishdan bosh tortmasligi;

haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi;

o'ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi;

guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarorlari va sudning ajrimlari hamda JPKda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi;

ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek, o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

Jinoyat, xuddi shuningdek, aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs *jabrlanuvchi* deb e'tirof etiladi. Jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – qaror, sud esa – ajrim chiqaradi.

Jabrlanuvchi voyaga yetmagan yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxs bo'lsa, ishda u bilan birgalikda yoki uning o'rniga qonuniy vakili ishtirok etadi (JPK 54-moddasi).

JPKning 55-moddasiga asosan, jabrlanuvchi: ko'rsatuv berish; dalillar taqdim qilish; iltimosnoma berish va rad qilish; o'z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlariida ishtirok etish; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; qonunda nazarda tutilgan hollarda yarashuv to'g'risida arizalar berish hamda yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha, birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; shaxsan o'zi yoki vakili orqali sudda ayblovni quvvatlash; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va u haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Jabrlanuvchi: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; haqqoniy ko'rsatuvlar berishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning talabi bo'yicha dalillar taqdim qilishi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Jabrlanuvchi uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda JPKning 261–264-moddalarida nazarda tutilgan tartibda majburiy keltirilishi mumkin. U ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi.

Jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha qonunda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarni dastlabki tergov organlari yoki sud tomonidan marhumning qonuniy vakili deb e'tirof etilgan yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar amalga oshiradilar.

Jinoyat, xuddi shuningdek, aqli noraso shaxsning jamoat uchun

xavfli qilmishi shaxsga, korxonaga, muassasaga yoki tashkilotga mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lsa, ular *fuqaroviy da'vogar* deb e'tirof etiladi. Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Voyaga yetmaganlarning, shuningdek, muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun fuqaroviy da'vo ularning qonuniy vakillari va prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

JPKning 57-moddasiga muvofiq, fuqaroviy da'vogar: fuqaroviy da'vo qo'zg'atish va uni quvvatlash; dalillar taqdim qilish; qo'zg'atilgan da'vo bo'yicha tushuntirishlar berish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; iltimosnoma berish va rad qilish; surishtiruvchidan, tergovchidan, prokurordan yoki suddan da'voni ta'minlash choralarini ko'rish haqida iltimos qilish; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; sud hukmi va ajrimining fuqaroviy da'voga tegishli qismi ustidan shikoyat qilish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Fuqaroviy da'vogar: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviy da'voga tegishli bo'lgan dalillar taqdim etishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxs ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi.

Agar fuqaroviy da'vogar sud majlisiga kelmasa, sud uning da'vosini ko'rib chiqmaydi. Biroq da'vogarning o'z da'vosini fuqaroviy protsess tartibida taqdim etish huquqi saqlanib qoladi. Agar da'vo jinoyat ishida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, shaxs davlat boji to'lash majburiyatidan ozod qilinadi.

Ayblanuvchi tomonidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun qonunga ko'ra mulkiy javobgar shaxs, korxonalar, muassasa yoki tashkilot ishda *fuqaroviy javobgar* sifatida ishtirok etish uchun jalb qilinishi mumkin. Fuqaroviy javobgar sifatida jalb qilish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi (JPK 58-moddasi).

Fuqaroviy javobgar sifatida jinoyat protsessida jinoyati tufayli zarar yetkazganligi uchun moddiy javobgarlikka tortiladigan va fuqaroviy da'vo bildiriladigan shaxslar qatnashadilar. Odatda fuqaroviy javobgar sifatida qonunga binoan moddiy javobgarlik zimmasiga yuklatilgan otalar, homiylar, vasiylar yoki boshqa shaxslar, shuningdek, muassasalar, tashkilotlar va korxonalar jalb etilishlari mumkin.

JPKning 59-moddasida fuqaroviy javobgarning huquq va majburiyatlari sanab o'tilgan.

Fuqaroviy javobgar: ayblov va fuqaroviy da'voning mazmunini bilish; da'voga e'tiroz bildirish; tushuntirish berish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; dalillar taqdim qilish; iltimosnoma berish va rad qilish; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud hukmi va ajrimining fuqaroviy da'voga tegishli qismi ustidan shikoyatlar berish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyat va protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Fuqaroviy javobgar: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviy da'voga tegishli bo'lgan dalillar taqdim qilishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Fuqaroviy javobgar yoki uning vaqilining sudga kelmaganligi, bu da'voni ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Shunday qilib, jinoyat protsessida fuqaroviy javobgar ayblanuvchiga ayblov e'lon qilingan paytdan boshlab va shaxs fuqaroviy javobgar sifatida jinoyat ishiga jalb qilish haqida qaror (ajrim) chiqarilganidan so'ng paydo bo'ladi. Agar ayblanuvchining o'zi fuqaroviy javobgar bo'lsa, ayblanuvchini fuqaroviy javobgar tariqasida ishga jalb etish haqida maxsus qaror chiqarish talab etilmaydi.

Da'voni ta'minlash maqsadida ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning mulki xatlanishi mumkin.

*Qonuniy vakil* ishda ishtirok etishga voyaga yetmagan yoxud belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun jalb qilinadi.

Ishda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmaganga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasalar va tashkilotlarning vakillari qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek, uning o'rnida ham ishtirok etadi.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilganligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – qaror, sud esa – ajrim chiqaradi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining manfaatlari bilan qonuniy vakilning manfaatlari o'zaro mos kelmasa,



gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafida ishda ishtirok etish uchun qaror yoxud ajrim bilan advokat tayinlanadi (JPK 60-moddasi).

JPKning 61-moddasiga muvofiq, qonuniy vakil: o'zi vakillik qilayotgan shaxsning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga chaqirilganidan xabardor bo'lish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning ruxsati bilan shu shaxsning so'roq qilinishida ishtirok etish; o'zi vakillik qilayotgan qamoqdagi shaxs bilan xoli uchrashish; o'zi vakillik qilayotgan shaxs JPKga muvofiq ega bo'lgan protsessual huquqlarni amalga oshirish huquqiga egadir.

Qonuniy vakil: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Qonuniy vakil guvoh sifatida so'roq qilinishi, shuningdek, himoyachi, fuqaroviy da'vogari yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Bunday hollarda qonuniy vakil yuqorida aytib o'tilgan protsess ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlariga ega bo'ladi.

Jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining *vakillari* tariqasida advokatlari, vakil sifatida ishtirok etishga maxsus ruxsatnomalari bo'lgan shaxslar, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga ko'ra ishda qatnashishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshlar va boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Vakilning ishda ishtirok etishi uchun uning jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogari yoki fuqaroviy javobgar bilan tuzgan topshiriq shartnomasi asos bo'ladi. Yuridik shaxsning vakili sifatida uning rahbari ishtirok etishi uchun alohida vakolatnoma kerak emas. Rahbar tomonidan berilgan ishonch qog'ozi bo'yicha yuridik shaxslarning vakillari sifatida uning shtatdagi xodimlariga va advokatlarga ruxsat etiladi.

Jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarining vakili ishda o'zi vakillik qilayotgan shaxs bilan birga, shuningdek, uning o'rnida ham ishtirok etadi. Jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar ish yuritishning istalgan vaqtida vakildan voz kechishga yoki boshqa shaxsni vakil qilib olishga haqlidir (JPK 62-m.).

Jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining vakili tegishlicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar ega bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanadi. Vakil ish yuritishning istalgan vaqtida o'z majburiyatlarini bajarishni davom ettirishdan voz kechishga haqlidir.

Vakil: o'zi vakillik qilayotgan shaxslarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi; ularning ishonchini suiiste'mol qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart (JPK 63-m.).

JPKning 64-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, shuningdek, jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga berilgan huquqlarini tushuntirib berishi va bu huquqlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi shart. Shu bilan birga protsess ishtirokchilariga yuklangan majburiyatlar va ularni bajarmaslik oqibatlarini tushuntirilishi lozim.

*Himoyachi* gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPK 49-moddasi).

Jamoat birlashmalarining vakili bo'lgan advokatlarni jamoat himoyachilari bilan chalkashtirmaslik lozim: jamoat himoyachilari faqat sudda ishtirok etishlari mumkin, jamoat birlashmalarining vakillari bo'lgan advokatlari esa dastlabki tergovda ham ishtirok etishga haqlidirlar va jamoat birlashmasi ushbu birlashma yoki jamoaning fikrini bildiradi. Jamoat himoyachisi esa jinoyat ishida o'z nomidan qatnashadi.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tanlangan himoyachining yigirma to'rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo'lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etishni yoki himoyachi tayinlashni so'rab O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlangan himoyachi istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to'lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo'ladi (JPK 50-m.).

JPKga muvofiq quyidagi toifadagi ishlar bo'yicha himoyachining ishtirok etishi shart hisoblanadi:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko'rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo'yicha;
- 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida o'lim jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 5) shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo'lgan ishlar bo'yicha;
- 6) davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha;
- 7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
- 8) tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda;
- 9) apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Agar JPK 51-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki

sudlanuvchining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoxud ajrim O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e'tiboran, to'rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlashi shart (JPK 51-moddasi).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritilayotgan davrda istalgan vaqtda himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bunday voz kechishga faqat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining tashabbusi bilan va himoyachining ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan advokat taklif etish orqali ta'minlanadigan real imkoniyatlar mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi, bunda advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan holi uchrashganidan keyin himoyadan voz kechilganligini tasdiqlaydi. Bu haqda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek, advokat, surishtiruvchi yoki tergovchi imzolaydigan bayonnoma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

JPK 51-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3, 4, 8 va 9-bandlarida nazarda tutilgan hollarda himoyachidan voz kechish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud uchun majburiy emas.

Himoyachidan voz kechish gumon qilinuvchini, ayblanuvchini yoki sudlanuvchini keyinchalik ishda himoyachi ishtirok etishiga ruxsat berish haqida iltimos qilish huquqidan mahrum qilmaydi. Bunday iltimos barcha hollarda qanoatlantirilishi kerak. Sud tergovi davomida himoyachining ishtirok etishi haqida berilgan iltimosnoma ishning holatlarini hisobga olib va sudlanuvchiga himoya huquqini ta'minlash manfaatlarini ko'zlab sud tomonidan hal etiladi. Himoyachining sud majlisi davomida ishga kirishishi sud tergovini qayta boshlash uchun asos bo'lmaydi.

Himoyachi: manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish; advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so'ng ishda ishtirok etish; gumon qilinuvchi so'roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e'lon qilinayotganda hozir bo'lish hamda ayblanuvchi so'roq qilinayotganda, shuningdek, ularning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga savollar berish; boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish; iltimosnoma berish va rad etish; JPK 87-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish; gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o'tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, dastlabki tergov tamom bo'lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish; sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va bu haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlar to'g'risida bilish hamda ularga nisbatan e'tirozlar bildirish; apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda bo'lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli

Himoyachining majburiyatlari qatoriga gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo'llashi hamda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shartligi kiritilgan.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas.

Shunday qilib, JPKda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining manfaatlarini himoya qilishi uchun himoyachiga katta huquq va vakolatlar berilgan. Tergovchi, prokuror, sudning o'z zimmlaridagi ayblanuvchiga himoyalani sh huquqini ta'minlashdan iborat majburiyatlarini bajarmasliklari hukmning bekor qilinishiga yoki ishning qo'shimcha tergovga qaytarilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Har qanday holda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga yoki ularning vakillariga berilgan huquqlarni tushuntirishlari va shu huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlashlari shart. Ayni vaqtda protsess ishtirokchilariga zimmlariga yuklatilgan majburiyatlar hamda ularni bajarmaslik oqibatlari ham tushuntiriladi.

#### **4.5. Jinoyat protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar**

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ushbu shaxslar qatoriga guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis kiritilgan.

Jinoyat protsessida hammadan ham ko'proq *guvoh* qatnashadi. JPKning 65-moddasiga binoan, jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin.

JPKning 115-moddasiga binoan guvoh va jabrlanuvchi tariqasida:

1) hukm va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to'g'risida – sudyani va xalq maslahatchisini;

2) jinoyat ishi yuzasidan o'z vazifalarini bajarishlari natijasida o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida – himoyachini, shuningdek, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakilini;

3) ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatni to'g'ri idrok etish va bu haqda ko'rsatuv bera olish layoqatiga ega bo'lmagan shaxsni so'roq qilish mumkin emas.

JPKning 66-moddasiga muvofiq, guvoh: advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish; so'roq yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatuvlar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; uning so'roq qilinishida ishtirok etuvchi tarjimonni rad qilish; ko'rsatuvlarini o'z qo'li bilan yozib berish; o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik; so'roq bayonnomasi bilan tanishish, unga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish; ko'rsatuvlar berishda yozma belgilar va hujjatlardan foydalanish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga egadir.

Guvoh: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum hamma narsa haqida haqqoniy so'zlab berishi; berilgan savollarga javob qaytarishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan holatlarni so'roq qiluvchining ruxsatisiz oshkor etmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Guvoh uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda JPK 261–264-moddalarida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda olib kelinishi mumkin. U ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik, shuningdek, bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi.



Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o'zlarining roziliklari bilan so'roq qilinishlari mumkin (JPK 116-modda).

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq jinoyat protsessining ishtirokchilari qatoriga yangi «guvohning advokati» deb nomlangan ishtirokchi kiritildi.

*Guvohning advokati* belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo'yicha guvohning advokati bo'lishi mumkin emas. Guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va orderni taqdim etganidan so'ng, guvoh chaqirilgan paytdan e'tiboran ko'yiladi.

Guvohning advokati quyidagi huquqlarga ega: huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning qaysi jinoyat ishi bo'yicha chaqirilganligini bilish; guvohning so'roq qilinishida, shuningdek, u ishtiroki bilan o'tkazilayotgan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish, unga qisqa maslahatlar berish; so'roq qilayotgan shaxsning ruxsati bilan guvohga savollar berish; guvohni so'roq qilishda ishtirok etayotgan tarjimonni rad qilish haqida qonunda belgilangan tartibda arz qilish; so'roq tugaganidan so'ng guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi, so'roq bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan arzlarni bayon etish huquqiga ega.

Guvohning advokati majburiyatlariga guvohga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar orqali haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda va sud majlisi vaqtida tartibga rioya qilishi shartligi kiritilgan.

Xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo'lgan har qanday shaxs *ekspert* sifatida chaqirilishi mumkin. Ekspert chaqirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish JPKning 172–187-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Ekspertiza predmeti fan, texnika, san'at, hunarning har qanday tarmog'iga kirishi mumkin, huquq masalalarigina bundan mustasno.

Ekspert: ekspertiza qilish uchun tegishli ish materiallari bilan tanishish va undan kerakli ma'lumotlarni yozib olish; o'ziga qo'shimcha materiallar taqdim etilishi haqida iltimosnoma berish; basharti hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar uning mutaxassisligiga oid bo'lmasa yoki xulosa berish uchun unga taqdim etilgan materiallar yetarli bo'lmasa, xulosa berishning iloji yo'qligi haqida hujjat tuzish; surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsati bilan tergov harakatlari yuritilishida ishtirok etish va tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarga ekspertizaga oid tegishli savollar berish; ekspertizaga oid dalillarni tek shirishda sud muhokamasida ishtirok etish va sudning ruxsati bilan so'roq qilinayotgan shaxslarga savollar berish; ashyoviy dalillarni va hujjatlarni ko'zdan kechirish; o'z xulosalarida faqat uning oldiga qo'yilgan masalalar haqida emas, balki ekspertizaga oid boshqa masalalar bo'yicha ham fikr bildirish; basharti ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa va ko'rsatuv berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga egadir.

Ekspert: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha yozma xulosalar berishi; o'zi o'tkazgan ekspertiza bo'yicha ko'rsatuvlar berishi va bu xulosalarni tushuntirish uchun qo'yilgan qo'shimcha savollarga javob berishi; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ekspert uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin. U shunday sababga ko'ra o'z vazifalarini bajarishni rad etgan yoki undan bo'yin tovlagan taqdirda,

shuningdek, bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi (JPK 68-m.).

Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va qayd etishda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun *mutaxassis* chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin.

Himoyachining iltimosnomasiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkin

Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda fan-texnika vositalarini (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlari va boshqa apparatlarni) qo'llash uchun mutaxassis chaqirilishi mumkin.

Tergov va sud muhokamasiga mutaxassis chaqirish hamda uning ishtirok etishi JPKning 91, 92, 136-138, 146, 147, 149, 151, 156 va 93-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi (JPK 69-moddasi).

Mutaxassis: o'zining qanday maqsadda chaqirilganligini bilish; basharti tegishli bilimlarga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan bosh tortish; o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga oid ish materiallari bilan tanishish; o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga aloqador arz va mulohazalar bildirish; tergov harakatlari va sud muhokamasida ishtirok etayotgan shaxslarga surishtiruvchining, tergovchining, prokuror va sudning ruxsati bilan savollar berish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga egadir.

Mutaxassis: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; tergov harakatlari va sud muhokamasini yuritishda dalillarni topish va qayd etish uchun fan-texnika vositalari, maxsus bilim va malakasidan foydalangan holda ishtirok etishi; ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning e'tiborini qaratishi; o'zi bajarayotgan harakatlar bo'yicha tushuntirishlar berishi; jinoyatning

kelib chiqish sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqishda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berishi; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart (JPK 70-moddasi).

Ekspertdan farqli o'laroq, mutaxassis tadqiqotlar o'tkazmaydi va xulosalar bermaydi. U faqat maxsus bilimi va tajribasidan foydalanib, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga tergov harakatini amalga oshirishda yordam beradi. Ekspertning xulosasi dalillar manbai hisoblanadi, mutaxassisning fikri esa bunday vazifani bajara olmaydi.

Mutaxassisni jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga jalb etish tartibi ham ekspertiza tayinlash tartibidan farq qiladi. Qonunda mutaxassis ishtiroki shart bo'lgan ikki hol ko'rsatilgan: 14 yoshgacha bo'lgan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishda va murdani ko'zdan kechirishda. Tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etish mutaxassisning majburiyati emas, huquqidir (uning ishtiroki majburiy bo'lgan hollar bundan mustasno). Ishda mutaxassis sifatida ishtirok etgan shaxs kelgusida ushbu ish bo'yicha ekspert qilib tayinlanishi mumkin (JPK 78-moddasi).

*Tarjimon* – tarjima uchun bilish zarur bo'lgan tillarni egallagan va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslar jinoyat tergov qilinayotgan yoki sud muhokamasi amalga oshirilayotgan tilni bilmaganida tayinlanadigan shaxs.

Tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov bo'lsa;

2) biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo'lsa.

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralari tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi (JPK 71-moddasi).

Surishtiruv yoki tergov olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxs ishtirokida amalga oshiriladigan har qanday tergov harakatini o'tkazishda; sud muhokamasida tarjimon ishtirok etishi shart. Tarjimonning tayinlanishi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan rasmiylashtiriladi. Jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilaridan hech biri, jumladan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya tarjimon vazifasini bajarish huquqiga ega emas. Tarjimanni tanlashda davlat muassasalari, jamoat birlashmalari, institutlar, maxsus o'quv yurtlariga murojaat etish lozim. Mutaxassisni taklif qilish imkoni bo'lmaganidagina xususiy shaxslar xizmatidan foydalanish mumkin.

Tarjimon: tarjimani aniqlashtirish maqsadida protsess ishtirokchilariga savollar berish; o'zi qatnashgan tergov harakatlari bayonnomasi, shuningdek, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish hamda bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan mulohazalar bildirish; basharti tarjima qilish uchun zarur bilim va malakaga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan voz kechish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga egadir.

Tarjimon: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; o'ziga topshirilgan tarjimani aniq va to'liq bajarishi; tarjimaning to'g'riligini o'zining ishtirokida o'tkazilgan tergov harakati bayonnomasi va sud majlisining bayonnomasiga, shuningdek, protsess ishtirokchilariga ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladigan protsessual hujjatlarga imzo chekish bilan tasdiqlashi; surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilgan taqdirda qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladi (JPK 72-moddasi).

JPKning 73-moddasiga muvofiq, *xolislarni* surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tergov yoki boshqa harakatlar o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tasdiqlash uchun JPKda nazarda tutilgan hollarda chaqirtiradi.

Tergov harakatlarini yuritishda ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro chaqirilishi lozim. Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror xolislarga ularning JPKning 74-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Xolis: tergov harakatida ishtirok etish; tergov harakati bo'yicha bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arz va mulohazalar berish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining bayonnomasi bilan tanishish; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga egadir.

Xolis: surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; tergov harakatini yuritishda ishtirok etishi; tergov harakati o'tkazilgani, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tergov harakati bayonnomasida imzo chekib tasdiqlashi; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmasligi shart.

Xolis uzrsiz sababga ko'ra o'z vazifasini bajarishdan bosh tortganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladi.

Xolis o'zi ishtirok etgan tergov harakatini yuritish bilan bog'liq holatlar bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin. U bunday hollarda JPKning 66-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

JPK 252-moddasida xolislarning tergov harakatlaridagi ishtiroki, jumladan fuqaroning tergovchining qonuniy talablari va takliflarini bajarishdan bosh tortish faktini tasdiqlash yoki tergovchiga qarshilik ko'rsatish yoki dastlabki tergovni yuritish tartibini buzuvchi boshqa g'ayriqonuniy xatti-harakatlar qilganligini tasdiqlash uchun ishtirok etishi belgilangan.

JPKning 75-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi yoki uning vakili, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida chaqirilgan shaxsning ish joyidagi o'rtacha oylik maoshi uning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud huzuriga chaqirilishi munosabati bilan ketgan

hamma vaqt uchun saqlanadi. Ishlamaydigan shaxslarga ular kundalik mashg'ulotlari bilan shug'ullana olmaganliklari uchun haq to'lanadi. Bundan tashqari, ko'rsatilgan hamma shaxslar chaqirilish munosabati bilan qilgan sarf-xarajatlarini undirish huquqiga egadirlar.

Ekspert, mutaxassis va tarjimon o'z majburiyatlarini bajarganliklari uchun haq olish huquqiga ega. Ushbu majburiyatlar xizmat topshirig'i tarzida bajarilgan hollar bundan mustasno. Sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda va miqdorda to'lanadi.

#### **4.6. Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar. Rad etishlar**

JPK jinoyat protsessining aksariyat ishtirokchilari shp yuritilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmagan holatlarni nazarda tutadi.

Ularni qonunda belgilangan hollarda protsessdan chiqarib tashlash ishning xolisona o'rganilishini va mohiyati bo'iicha hal etilishini kafolatlaydi.

JPKning 76-moddasiga muvofiq sudya, shuningdek, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti :

u shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida tilga olingan shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa.

Bundan tashqari, birinchi instansiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarida yoxud nazorat tartibida ishni ko'rishda ishtirok etgan sudya

o'zining ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinishidan keyin o'sha ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarning Plenumda jinoyat ishlarini ko'rishda ishtirok etishi bundan mustasno.

Ayni vaqtda surishtiruvchining, tergovchining hamda sud majlisi kotibining o'z protsessual majburiyatini bajarishi, basharti ushbu ish qo'shimcha tergov yuritish yoki sudda yangidan ko'rish uchun jo'natilgan bo'lsa, ular tomonidan tegishincha surishtiruv, dastlabki tergov yuritishga, shuningdek, sud majlisi bayonnomasini tuzishga monelik qilmaydi.

Jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi va jamoat birlashmasi yoki jamoaning boshqa vakillari yuqorida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ishda ishtirok etishga haqli emaslar va rad qilinislari lozim.

Ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis shu holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, ishda ishtirok etayotgan shaxslardan birortasiga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobe bo'lsa, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etashga haqli emas va rad qilinishi lozim.

Bundan tashqari, basharti ekspert, mutaxassis, tarjimonning o'z kasbiga noloyiqligi ayon bo'lib qolsa, xolislar esa ichki ishlar organi, Davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, adliya yoki sud xodimi bo'lsalar, rad qilinislari lozim.

Materiallari ishning qo'zg'atilishiga asos bo'lgan taftish yoki o'zga idoraviy tekshiruv o'tkazgan shaxs ushbu ishda ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etishga hakli emas. Lekin ishda mutaxassis sifatida ishtirok etgan shaxs kelgusida ushbu ish bo'iicha ekspert qilib tayinlanishi mumkin.

Himoyachiga, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarning vakiliga nisbatan ularning ishda ishtirok etishlariga monelik qiladigan asoslar belgilangan. JPKning 79-moddasiga binoan bu shaxslar quyidagi hollarda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas, basharti ulardan biron-biri:



ilgari shu ish bo'yicha sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida shitirok etgan bo'lsa;

ushbu ishning tergovida yoki sudda ko'rilishida ishtirok etgan yoxud ishtirok etayotgan sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud majlisining kotibi bilan qarindoshlik munosabatida bo'lsa yoxud yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida u bilan bitim tuzgan protsess ishtirokchisining manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo'lgan shaxs bilan qarindoshlik munosabatida bo'lsa;

sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi lavozimida bo'lsa, quyidagi hollar bundan mustasno: basharti u muomalaga layoqatsiz shaxslarning vakili bo'lsa yoki o'zi ishlaydigan va fuqaroviy da'vogari deb e'tirof etilgan yoki fuqaroviy javobgar sifatida ishga jalb qilingan muassasaning vakili sifatida qatnasha;

o'z himoyasidagi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki o'zi vakillik qilayotgan jabrchanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining manfaatlariga manfaati qaramaqarshi bo'lish shaxsga yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki muqaddam shunday yordam ko'rsatgan bo'lsa.

Ushbu holatlarning oldini olish uchun rad qilish va o'zini o'zi rad qilish nazarda tutilgan.

JPKning 76–79-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi, jamoat birlashmasining yoki jamoaning vakili, himoyachi, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarining vakili, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis o'zini o'zi rad etishi shart. Agar o'zlari bunday qilmasalar, ular shu asosga ko'ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogari, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, himoyachi tomonidan, sud majlisida esa, bundan tashqari davlat ayblovchisi, jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili tomonidan rad qilinishi mumkin.

Ishni tergov qilish chog'ida rad etish masalasi prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan, sud majlisida esa, sud tomonidan ham qo'yilishi mumkin.

Rad qilish haqidagi arz asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Rad qilingan shaxs rad etish haqidagi masala ko'rilguniga qadar tushuntirish berishga haqli.

Sudyani rad qilish masalasi qolgan sudyalar tomonidan rad qilingan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi. Ovozlar teng bo'linganda sudya rad qilingan hisoblanadi. Ko'pchilik sudyalarni yoki sudning butkul tarkibini yoxud sud majlisining kotibini rad qilish haqidagi masala to'la tarkibdagi sud tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal etiladi. Ishni yakka o'zi ko'rayotgan sudyani rad qilish masalasini uning o'zi hal qiladi.

Prokurorni rad qilish masalasi ishni tergov qilish chog'ida yuqori turuvchi prokuror tomonidan, sud majlisida esa, ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilini rad qilish masalasi ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchini rad qilish masalasi surishtiruv va dastlabki tergov ustidan nazorat olib boruvchi prokuror tomonidan hal etiladi.

Ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, himoyachini, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakillarini rad qilish masalasi ishni tergov qilish chog'ida surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan, sud majlisida esa, ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Xolisni rad qilish masalasi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan hal etiladi.

Ishni tergov qilish chog'ida qo'yilgan rad qilish masalasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan yigirma to'rt soat ichida hal etiladi. Rad qilish sud majlisida qo'yilgan bo'lsa, bu masala shu majlisda darhol hal etiladi.

Rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Agar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi JPK 76, 79-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjudligi sababli o'zini o'zi rad etmasa, uni rad qilish masalasi manfaatdor shaxslarning arizalariga ko'ra tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'i yoki prokuror tomonidan hal qilinadi. Rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida qaror chiqariladi.

#### **4.7. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi**

Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi avvalombor jinoyatlarni ochishga, uni to'liq, obyektiv va har tomonlama o'rganib chiqishga, surishtiruv va tergov qilishga, shuningdek, shaxsni aybdor deb topishga yetarli asoslar mavjud bo'lganda, odil sudlovni amalga oshirib sud qilishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Buning uchun albatta ushbu hamkorligi mustahkam bo'lmog'i joiz. Jinoyat protsessi ishtirokchilarning hamkorligi deb biz shu hamkorlikni mazmun va shakllarini belgilaydigan qonun hujjatlarda ifoda etilgan qoidalar va ko'rsatmalar tushinilishi lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi deganda, ularning birgalikda, maqsadlari, joyi va vaqti bo'yicha kelishilgan, qonunga va qonunosti hujjatlariga asoslangan, dastlabki tergov vazifalarini bajarishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Ularning hamkorligi, avvalo, amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Ilg'or milliy va xorijiy tajribaning dalolat berishicha, jinoyat-protsessida ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikni uyg'unlashtirish jinoyatning muvaffaqiyatli ochilishini ta'minlaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi mustaqil tizim sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorlik odil sudlovni amalga oshirishning umumiy shartidir. Jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv faoliyatining imkoniyatlarini, tergovchi va jamoatchilikning kuchlarini birlashtirish sodir etilgan jinoyatning holatlarini tez va to‘liq aniqlashga, odil sudlov vazifalarining bajarilishiga eng ko‘p darajada yordam beradi.

Har bir aniq vaziyatda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi qonunning bevosita ko‘rsatmasidan boshlanadi hamda tegishli prinsiplarga asoslanadi:

1) jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va idoraviy normativ hujjatlar talablariga qat’iy amal qilish. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida jinoyat protsessi ishtirokchilar hamkorligining shart-sharoitlari, shakllari va umumiy tartibi belgilanadi. Idoraviy normativ hujjatlar hamkorlikning ayrim shakllariga xos bo‘lgan tashkiliy asoslarni, dastlabki tergov, prokuror va sud organlaridan har birining birgalikdagi ish davomida nima qilishini belgilab beradi. Shu bois qonun va idoraviy normativ hujjatlar ko‘rsatmalarini bajarish o‘zaro hamkorlik muvaffaqiyatini belgilab beruvchi eng muhim omil hisoblanadi;

2) har bir ishtirokchining protsessual mustaqilligi. Hamkorlik ayni paytda jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi ish vositalari va usullarini tanlashiga aralashmasligini ham taqozo etadi;

3) jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi ishtirokchilarning protsessual mustaqilligini ta’minlash, ularning o‘zaro kelishgan holda protsessual harakatlarni amalga oshirilishi. Bu kim va qachon nimani bajarishi kerakligini aniq belgilashni, ishlab chiqilgan tadbirlarning muqarrar ravishda va sifatli bajarilishini taqozo etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligining muhim huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi bo‘lib, uning 1-2-moddalarida mamlakatimiz hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi,

ushbu kodeks bilan belgilanishi, ular barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek, fuqarolar uchun yagona hamda majburiylik, jinoyat-protsessual qonun-hujjatlarining vazifalari avvalombor jinoyatlarni oldini olishdan, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan biror-bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan va qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iboratligi qayd etilgan.

Shunday qilib, jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat protsessi ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sud tizimi faoliyatini yanada liberallashtirish va demokratlashtirish g‘oyalarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarmoqda, unda ishtirokchilar ichki ishlar organlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari ham muhim o‘rin egallaydi.

## V BOB. DALILLAR VA ISBOT QILINISHI LOZIM BO‘LGAN HOLATLAR

### 5.1. Dalillar va isbotlash predmeti

«Dalillar» tushunchasi, xossalari va turlari. Jinoyat-protsessual qonun normalariga talablariga muvofiq ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari ham jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan tekshirilib, o‘rnatilgan tartibda baholanganidan so‘ng jinoyat ishi bo‘yicha dalillar sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Dalillarning xossalari bu – faktik ma’lumotlardan dalil sifatida foydalanish uchun talab etilgan zarur belgilardir.

Bu xossalarga quyidagilar kiradi:

- 1) aloqadorlik (tegishlilik);
- 2) maqbullik;
- 3) ishonchlilik;
- 4) kuchga egalik (ahamiyatlilik);
- 5) yetarlilik.

Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga *aloqador deb* e’tirof etiladi.

*Dalilning maqbulligi* deganda, dalilni uning manbai, vakolatli shaxslarning faktik ma’lumotlarni olish va qayd etish usullari nuqtai nazaridan tavsiflovchi xususiyati tushuniladi.

Shuningdek, dalillar maqbul bo'lishi uchun quyidagi shartlari to'la muvofiq bo'lishi lozim:

dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq bo'lgan barcha protsessual harakatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi;

ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar faqat JPK 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan, ya'ni tergov yoki sud harakatlarini o'tkazilishi natijasida olingan bo'lishi;

dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq faoliyat jinoyat-protsessual qonun normalarida belgilangan tartibga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lishi;

dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo'lishi shart.

Dalillar maqbulligiga taalluqli yuqorida sanab o'tilgan shartlardan birortasiga amal etilmasligi dalilning nomaqbul deb topilishiga asos bo'ladi.

Agar faktik ma'lumotlar qonunga zid usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud jinoyat-protsessual qonun talablari buzilgan holda olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

Shuningdek, dalillar shu jumladan:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek, tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

Faktik ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishning maqbul yoki maqbul emasligiga doir masala tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning o'z tashabbusi bilan yoki protsess ishtirokchilari-ning iltimosnomasi asosida aniqlanadi. Tegishli vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxs dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo'l qo'yilgan buzilish nimada aniq ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan Jinoyat-protsessual kodeksi normalari buzilgan holda olingan ko'rsatuvlardan, ekspert xulosasidan, ashyoviy dalillardan, audio-, videoyozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunni aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko'ra yuz berganligidan qat'i nazar, shu yo'l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi. Maqbul emas deb topilgan dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan Jinoyat-protsessual kodeksining 82–84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas. Lekin dalillarni to'plash paytida yo'l qo'yilgan qonun buzilishi sababli nomaqbul deb topilgan ayrim dalillardan isbot



qilishda tegishli protsessual harakatlar belgilangan talablarga amal qilgan holda o'tkazilgandan so'ng foydalanilishi mumkin (*masalan, tergov yoki sud harakati o'tkazish bayonnomalarida ayrim ma'lumotlar yoki bandlarning yo'qligi, basharti bu kamchilikni xolislar, ushbu harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa, tergovchini so'roq qilish orqali bartaraf qilish imkoniyati bo'lsa*).

Shu bilan birga, nomaqbul deb topilgan ayrim dalillarni ularning yuridik tabiatiga ko'ra tiklashning imkoniyati yo'q (*masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo'lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmay turib takroran so'roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko'rsatish va h.k.*). Bu esa, isbot qiluvchi subyektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etadi. Shuning uchun ham ish bo'yicha har qanday qaror qabul qilishda, shu jumladan, ayblov xulosasi va hukmda nomaqbul dalillarga asoslanish mumkin emas.

*Dalilning ishonchliligi* olingan ma'lumotlarning qonunda nazarda tutilgan manbalarga mosligi bo'lib, uni dastlabki tergovda va sudda puxta tekshirish natijasidir. Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi. Ayblanuvchining aybdorligi (aybsizligi) to'g'risidagi xulosalarga zid bo'lgan dalillar qaror (hukm)da nafaqat ko'rsatilishi balki, tergovchi va sud tomonidan nima uchun ular ishonchsiz deb topilganligi va rad etilganligi sabablari asoslantirilgan bo'lishi lozim.

*Dalilning ahamiyatliligi* – bu uning daliliy qimmati, argument sifatida mantiqiy ishonchliligidir.

*Dalilning yetarliligi* – jinoyat holatlarini voqelikka mos tarzda aniqlash, jinoyat ishini tergov qilish va ko'rib chiqish jarayonida asoslangan qarorlar chiqarish uchun zarur bo'lgan hamda ichki e'tiqod (ishonch) bo'yicha aniqlanadigan aloqador va ishonchli dalillar majmui.

Ishda to'plangan dalillarning yetarli emasligi, dalillar qonunga zid ravishda olinganligi sababli ular dalil hisoblanmasligi yoki qo'yilgan ayblovda sudlanuvchining to'liq aybdorligi to'g'risidagi shubhani

bartaraf qilishning imkoni yoʻqligi haqidagi sudning asoslantirilgan xulosasi oqlov hukmi chiqarish uchun asos boʻladi, bu JPKning 464-moddasi mazmunidan kelib chiqadi. Agarda shaxsning aybdorligi haqidagi shubhani bartaraf qilishning imkoni boʻlsa, sud uni bartaraf etish choralarini koʻradi, agarda JPKning 419-moddasida nazarda tutilgan asoslar boʻlsa ishni qoʻshimcha tergov yuritish uchun qaytaradi.

*Dalillar oʻzining mazmuniga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:* guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining koʻrsatuvlari; ekspertning xulosasi; ashyoviy dalillar; ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar; elektron raqamli materiallar; tergov va sud harakatlarining bayonnomalari; boshqa hujjatlar.

*Dalillarning tasniflanishi.* Dalillar xususiy va ashyoviy, ayblov va oqlov, dastlabki va hosila, bevosita va bilvosita dalillarga boʻlinadi.

*Xususiy dalillarga* guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining koʻrsatuvlari, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari hamda boshqa hujjatlar, ekspertning xulosasi kabilar kiradi. Xususiy dalillarning turli guruhlari uchun umumiy boʻlgan jihat insonning hodisalarni ruhiy idrok etishi va ishning toʻgʻri hal qilinishi uchun ahamiyatli boʻlgan maʼlumotlarni ogʻzaki yoki yozma, lisoniy (til) yoki boshqa shakllarda berishi tashkil qiladi.

*Ashyoviy dalillarga* jinoyat holatlarini taʼsir, oʻzgarish, yuz berish kabilarning izlari koʻrinishida aks ettirish xususiyatiga ega boʻlgan moddiy obyektlar kiradi. Moddiy obyektlarda mavjud boʻlgan axborot lisoniy shaklda emas, balki predmet belgilarini bevosita idrok etish orqali beriladi.

Ashyoviy dalillar va hujjatlar tergov va sud majlislarida ish boʻyicha boshqa dalillar qatorida chuqur tekshirilishi (shuningdek, koʻzdan kechirilishi, eʼlon qilinishi) lozim. Shu oʻrinda ularni tanib olish uchun koʻrsatilgan shaxslar sudlarning eʼtiborini ularni tekshirish bilan bogʻliq boʻlgan u yoki boshqa holatlarga qaratishlari mumkin. Ashyoviy dalillarni koʻzdan kechirish va hujjatlarni eʼlon qilish bilan bogʻliq sudning barcha harakatlari sud majlisi bayonnomasida aks ettirilgan boʻlishi kerak.

Olinish manbasiga qarab dalillar dastlabki va hosila dalillarga bo‘linadi. *Dastlabki dalillar bu* – aniqlanishi lozim bo‘lgan holat to‘g‘risidagi ma‘lumot birinchi manbadan olingan dalillardir.

*Hosila dalillar esa* isbotlanishi lozim bo‘lgan fakt to‘g‘risidagi ma‘lumot birinchi manbadan emas, balki boshqa manbadan olingan dalillardir.

*Dastlabki va hosila dalillar* tergovchi, sud ushbu axborotni dastlabki manbalardan yoki «ikkinchi qo‘l»dan olishiga qarab farqlanadi.

O‘z navbatida hosila dalillar ham isbot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, dastlabki dalillarni topish va tekshirishda yoxud dastlabki dalil yo‘qolganida ularni qayta tiklashda hosila dalillaridan unumli foydalanish mumkin.

Dalillarni *ayblov* va *oqlov* dalillariga bo‘lish ayblov predmetiga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq.

Ayblovchi dalillar deb – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining jinoyat sodir etganligidan dalolat beruvchi yoki uning aybini og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydigan faktik ma‘lumotlar ayblov dalillari hisoblanadi. Bunday dalillarga ayblovga asos bo‘lgan dalillar yoki ayblovchining javobgarligini og‘irlashtiruvchi holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiradi.

Oqlovchi dalillar – bu muayyan shaxsning jinoyat sodir etganligini inkor etuvchi yoki uning aybini yengillashtiruvchi holatlarni aniqlaydigan faktik ma‘lumotlar, shuningdek, ayblanuvchiga qo‘yilgan ayblovni shubha ostiga oluvchi dalillardir.

JPK 464-moddasi talablariga muvofiq ishda to‘plangan dalillarning yetarli emasligi, dalillar qonunga zid ravishda olinganligi sababli ular dalil hisoblanmasligi yoki qo‘yilgan ayblovda sudlanuvchining to‘liq aybdorligi to‘g‘risidagi shubhani bartaraf qilishning imkoni yo‘qligi haqidagi sudning asoslantirilgan xulosasi oqlov hukmi chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Dalillarni ayblovchi va oqlovchi dalillarga bo‘lish shartli xususiyatga ega, chunki bir dalil ish yuritish davomida o‘z xususiyatini o‘zgartirishi mumkin. Qonun har bir jinoyat ishi bo‘yicha ayblanuvchini

ayblovchi dalillarnigina emas, uni oqlovchi dalillarni ham, shuningdek, uning javobgarligini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni ham aniqlashni shart qilib qo'ygan (JPK 22-m.).

*Bevosita va bilvosita* dalillar isbotlash predmetiga ko'ra bo'linadi. Bevosita dalillar isbotlash predmetiga kiruvchi holatlar haqidagi axborotga ega bo'lgan faktik ma'lumotlardir, bilvosita dalillar esa ikkilamchi faktlar haqidagi axborotga ega bo'lib, ulardan ish bo'yicha qidirilayotgan faktlar haqida xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida bevosita va bilvosita dalillar to'g'ri va egri dalillar deb ham ataladi.

To'g'ri dalillar isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi dalillar bo'lsa, egri dalillar oraliq faktlar to'g'risidagi faktlarni aks ettiradi.

*To'g'ri dalilda* jinoyat sodir etganligini yoki etmaganligini ko'rsatuvchi yagona xulosa bo'ladi. Masalan, T. ismli shaxsda topilgan narsa narkotik moddasi bo'lsa, mazkur narkotik moddasi to'g'ridan-to'g'ri ashyoviy dalil bo'lib xizmat qiladi.

*Egri dalillar* asosida esa, bir nechta xulosa chiqarish mumkin. Masalan: o'g'irlangan narsalar T. ismli shaxsdan topilganligi shu bilan izohlanadiki, u bu narsalarni yoki sotib olgan, yoki o'g'irlab olgan, yoki topib olgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha oyoq yoki poyabzal izlari, barmoq yoki qo'l izlaridan faqat egri dalil sifatida foydalanish mumkin.

*«Isbotlash» tushunchasi, isbotlash predmeti va uning turlari.* Isbotlash – ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lgan protsessual faoliyatdir.

JPK 22-moddasiga binoan ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat qonunda nazarda tutilgan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Isbot qilishdan maqsad haqiqatni aniqlash ekanligini aytib o'tdik. Biroq, «haqiqat» tushunchasi u yoki bu ish bo'yicha aynan qaysi holatlar

aniqlanishi lozimligini belgilab berolmaydi. Buning uchun boshqa tushuncha – isbot qilish predmeti xizmat qiladi. Ma'lumki, har bir jinoyat ishi o'ziga xos bo'ladi. Shu bilan birga, turlicha hodisalar o'rtasida umumiy bo'lgan holatlarni ajratib olish mumkin.

*Isbotlash predmeti* – xususiyati qanday ekanligidan qat'i nazar, har bir jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi shart bo'lgan va ishni mazmunan hal qilish uchun huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar majmui.

Isbotlash predmetiga quyidagilar kiradi:

1) jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;

2) jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, uni sodir etish usuli, shuningdek, Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;

4) jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;

5) ayblanuvchi yoki sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (JPK 82-m.).

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari haqidagi ishlar hamda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga oid ishlar bo'yicha isbotlash predmeti ayrim xususiyatlarga ega. Mazkur holatlar jinoyat ishini tergov qilish va ko'rib chiqish davomida jinoyat sodir etilganligini tasdiqlash va uni sodir etgan shaxsni topish uchun aniqlanadi. Shu bilan birga, isbotlash predmeti doirasida jinoyat ishi yuritishni istisno etuvchi holatlar ham aniqlanishi mumkin (JPK 83-m.). Ushbu holatlarning aniqlanishi, protsessning qaysi bosqichda ekanligiga qarab, quyidagi qarorlardan birining qabul qilinishiga olib keladi: jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish, ayblov yoki oqlov hukmini chiqarish.

Isbot qilish jinoyat protsessida juda muhim o'rinni egallaydi. Agar isbot qilish faoliyati natijasiz yakunlansa, jinoyat kim tomonidan va qanday holatlarda sodir etilganligi aniqlanmasa, jinoyat protsessining maqsadlariga erishilmagan deb hisoblash mumkindir. Shuningdek,

jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar qoplanmasa, asosiysi, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilmasa, u o'zining qonunga xilof harakatlarini davom ettirishi shubhasizdir.

Qolaversa, agar tegishli vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxs isbot qilish jarayonida xatolikka yo'l qo'ysa, og'ir oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Xususan, aybsiz bo'lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi buning yaqqol tasdig'idir. Shunday ekan, isbot qilish qanchalik to'la va mahorat bilan amalga oshirilsa, jinoyat ishi bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi shunchalik ta'minlangan bo'ladi.

*Isbotlash chegarasi.* Jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar juda ko'p bo'lib, ularning har biri o'z xususiyati va belgisiga egadir. Ushbu holatlarni to'la va har tomonlama aniqlash isbotlash chegarasini belgilash demakdir.

Isbotlash chegarasi deganda, ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning asosligini tasdiqlash uchun dalillar, ularning manbalari hajmi, shuningdek, tergov versiyalari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish doirasini belgilab beruvchi faoliyatni tushunish lozim.

Isbotlash chegarasining to'g'ri belgilanishi jinoyat ishi bo'yicha adolatni qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Isbotlash chegarasi isbotlash predmeti bilan uzviy bog'liqdir. Isbotlash predmeti va chegarasi tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga tobedir. Isbotlash predmeti javobgarlik va jazo masalalarini hal qilishi uchun faktik asos bo'lgan hamda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni o'z ichiga olsa, isbotlash chegarasi esa isbotlash predmetini aniqlash uchun faktik asos bo'lgan daliliy materiallarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga tobe bo'lib, aynan shu asosda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar to'planadi, tekshiriladi, baholanadi va tegishli protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga kiruvchi fakt (holat)larni aniqlash va tekshirishning doirasidir. Isbotlash chegarasi isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar, holatlarni tekshirilishini ta'min-

laydi. Shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha bo'lgan versiya, analizlar ham tekshiriladi.

Isbotlash chegarasi jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagona bo'lib, uning tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar (vaqt, joy va boshqalar) va jinoyat tarkibi bor yoki yo'qligi to'g'risidagi holatlar;
- shaxsning aybini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi holatlar;
- sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ko'rsatadigan holatlar;
- jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyatini va miqdorini aniqlovchi holatlar;
- jinoyatni sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni aniqlovchi holatlar.

Shunday qilib, jinoyat protsessida isbot qilish predmeti ish bo'yicha nimalar aniqlanilishini bildirsa, isbotlash chegarasi esa ish bo'yicha mavjud holatlarning tekshirish hajmi va doirasini belgilaydi.

## **5.2. Isbot qilishning umumiy shartlari**

*«Isbot qilishning umumiy shartlari» tushunchasi va tizimi.* Isbot qilishning umumiy shartlari JPKning 9-bobi (85-95-m.)da nazarda tutilgan bo'lib, ularning bajarilmasligi har qanday tergov harakatining natijalari sudga ko'rib chiqish vaqtida daliliy ahamiyatga ega bo'lmasligiga olib keladi.

Isbotlash – butun jinoyat-protsessual faoliyatga singib ketgan va jinoyat protsessi vazifalarining ish bo'yicha haqiqatni aniqlash orqali amalga oshirilishini ta'minlaydigan murakkab jarayon.

Isbotlashning mazmunini, avvalo, ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat protsessual harakatlar majmui tashkil qiladi (JPK 85-m.). Ushbu harakatlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan

organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud amalga oshiradi.

Ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Sudlanuvchini jinoyatni sodir qilganligini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan har bir dalil, JPKning 95-moddasiga muvofiq ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Isbot qilishning umumiy shartlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- isbot qilish ishtirokchilari;
- dalillar to'plash;
- isbot qilish jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash;
- davlat sirlarini qo'riqlash;
- dalillarni bayonnomada qayd etish;
- dalillarni qayd etishda yordamchi usullar. Bayonnomaga ilovalar;
- tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish, uning asoslari, shartlari va tartibi, ushbu jarayonni va natijalarini qayd qilish;
- dalillarni qayd etishning to'g'riligini tasdiqlash;
- bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish yoki imzo cheka olmaslik hollarini tasdiqlash;
- dalillarga baho berish.

*Isbotlash qilish maqsadi va ishtirokchilari.* **Isbot qilishning maqsadi** – jinoyat ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash yo'li bilan ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilishdir.

Jinoyat ishida haqiqatni aniqlash quyidagilarni bildiradi:

- 1) jinoyatni ochish;
- 2) uni sodir etgan shaxslarni aniqlash;
- 3) aybdorlarni adolatli jazolash;
- 4) aybsiz shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishiga va jazolanishiga yo'l qo'ymaslik;



5) chiqariladigan qarorlarning qonuniy va asoslangan bo'lishini ta'minlash;

6) fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ko'maklashish;

7) jinoyatning oldini olish;

8) jinoyat protsessida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash.

Jinoyat protsessidagi haqiqat tabiatan obyektiv haqiqatdir, ya'ni tergovchi va sud ish holatlari haqida chiqargan xulosalarning mazmuni ularning xohish-istaklariga bog'liq bo'lmaydi hamda obyektiv voqelikka mos kelishi kerak bo'ladi. Jinoyat protsessida aniqlanadigan haqiqat tabiatan ham mutlaq, ham nisbiy haqiqatdir. Haqiqatning nisbiyligi jinoyat protsessida obyektiv olamning tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat voqelikdagi barcha aloqalari bilan birga emas, balki jinoyat protsessining vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan muayyan doirada o'rganilishi bilan bog'liq (JPK 82-m.). Shu bilan birga, nisbiy haqiqat – tashqi dunyoning hodisalarini to'g'ri aks ettiradigan obyektiv haqiqatdir va shu bois mutlaq haqiqatning zarrasiga ega. Mutlaq haqiqatning «zarralari» qonun mavjudligini muayyan huquqiy oqibatlar bilan bog'laydigan barcha holatlarni aniqlashga taalluqlidir. Jinoyat protsessining tartibi haqiqatni aniqlash kafolatlarini yaratadi. Haqiqatga erishishda sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlaydigan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudyalarning shaxsiy xislatlari katta ahamiyatga ega.

Amaliyot har qanday bilish jarayonida haqiqatning asosi va mezoni sifatida qaraladi. Protsess turli ishtirokchilarining jinoyat-protsessual faoliyatida dalillar tekshiriladi va baholanadi hamda ular asosida jinoyat hodisasi tiklanadi. Ularning bunday faoliyati isbotlash asosi bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat protsessida, amaliy faoliyatning boshqa turlaridan farqli o'laroq, sodir etilgan jinoyatni tajriba (eksperiment) o'tkazib tekshirish ham, bunga yo'l qo'yish ham mumkin emas. Shu bois jinoyat protsessida amaliyot uning bilvosita va bevosita shakllarining, jinoyat ishini tergov qiluvchi va ko'rib chiquvchi shaxslarning bevosita va

bilvosita tajribasining majmui bo'lmish ijtimoiy amaliyot sifatida namoyon bo'ladi.

JPKning 463-moddasiga ko'ra, ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muhokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Ayblov hukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan holatlarini tekshirish, ish materiallarida ma'lum bo'lib qolgan barcha kam-ko'stni to'ldirish, yuzaga kelgan hamma shubha va qarama-qarshiliklarga barham berish natijasida yig'ilgan ishonchli dalillargina asos qilib olinishi lozim. Shundan kelib chiqib, sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo'yniga olish holati u ish bo'yicha to'plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona isbotlangan taqdirdagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo'la oladi.

Isbot qilish subyektlari deganda isbot qilish faoliyatida ishtirok etadigan va tegishli huquq va majburiyatlarga ega organlar va shaxslar tushuniladi. Bu subyektlar doirasi juda keng, biroq vakolatlari farq qiladi. Shu sababli ularni quyidagi mezonlar asosida guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1) jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar;

2) ish bo'yicha shaxsiy yoki vakillik manfaatlari bo'lgan shaxslar;

3) daliliy axborotga ega shaxslar;

4) texnik va yordamchi funksiyalarni bajaruvchi boshqa shaxslar.

*Birinchi guruhga* tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov organlari (sudgacha bosqichlarda) va sud kiradi. Bu davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

faqat mazkur davlat organlari va mansabdor shaxslar ish bo'yicha qaror chiqarishga, ya'ni tegishli holatlarni isbotlangan-isbotlanmaganligi yuzasidan xulosalar qabul qilishga vakolatlidirlar;

ular isbot qilish jarayonida eng ko'p vakolatlarga ega bo'lib, qonunda ko'rsatilgan dalillarni to'plash, tekshirish va baholash

yuzasidan sud-tergov harakatlari o'tkazishga haqlidirlar. Ular isbot qilishning boshqa subyektlaridan dalillarni taqdim qilishni talab qilishlari mumkin;

mazkur davlat organlari va mansabdor shaxslarga jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish majburiyati yuklangan.

*Ikkinchi guruhga* ayblanuvchi, uning himoyachisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va uning vakillari kiradi.

Ushbu subyektlarning umumiy xususiyati shundaki, ular dalillarni tekshirishda faol ishtirok etishlari mumkin.

Sud muhokamasi davrida esa ular teng huquqli taraf sifatida ish ko'radilar. Biroq ular birinchi guruh ishtirokchilar kabi vakolatlarga ega bo'lmay, ish bo'yicha qaror chiqarishlari mumkin emas. Ular faqat dalil taqdim etishlari mumkin. Shunday qilib, isbot qilishda ular ishtirokining asosiy shakllari dalillarni taqdim qilish, iltimos qilish, tergov harakatlarida ishtirok etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bu shaxslar isbot qilish-asoslashda ham ishtirok etadilar: ya'ni sud muzokaralarida qatnashib, ayblovning isbotlangan-isbotlanmaganligi to'g'risida o'z xulosa va fikrlarini bildirishlari mumkin.

*Uchinchi guruhga* daliliy axborotning manbai hisoblanmish shaxslar kiritilib, bularga guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar kiradi.

*To'rtinchi guruhga* tarjimon, sudyaning yordamchisi, xolislar kiradi.

Ma'lum bo'ladiki, isbot qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin ekan. Isbot qilishda ishtirok etish huquqiga esa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi egadirlar. Nihoyat, isbotlashda ishtirok etishga guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek, JPKda belgilangan tartibda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarini amalga oshiruvchi va burchlarini bajaruvchi boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar ham jalb etiladilar.

*Isbotlash jarayoni: dalillarni to'plash, tekshirish va baholash.* Isbot qilishning mazmuniga dalillarni to'plash, tekshirish va baholash

jarayonida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari, shuningdek, ushbu organlar bilan fuqarolar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ham xosdir. Isbot qilish jinoyat protsessining barcha bosqichlarida mavjud, chunki hamma bosqichda faktlarning voqelikka mosligi o'rnatilgan tartibda aniqlanilishi lozim. Turli bosqichlarning vazifalari va protsessual shakllarining xususiyatlariga qarab holatlarning xususiyati, dalillarning yetarliligi, isbot qilish vositalari va dalillarni olish usullari o'zgarishi mumkin. Ammo dalillarni to'plash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishi – ish bo'yicha haqiqatni aniqlash o'zgarmay qolaveradi.

Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksperiment qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalarni olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so'zlashuvlarni eshitish, shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi (JPK 87-m.).

Himoyachi ham jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli bo'lib, ushbu dalillar jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yiladi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida majburiy baholanadi. Himoyachi ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali dalil to'plashi mumkin.

Shunday qilib, protsessual isbot qilish deganda, surishtiruv organlari, prokuror va sudning qonunda belgilangan tartibda amalga

oshiriladigan protsessning boshqa ishtirokchilari yordamida dalillarni aniqlash, to‘plash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyat davomida ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash maqsadida yuzaga keladigan munosabatlar tushuniladi.

*Isbot qilish elementlari:*

□ *dalillarni aniqlash va to‘plash* – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning faktik ma’lumotlar manbaini aniqlash, undan zarur axborotni olish va uni qayd etish borasidagi faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan shakllar va usullarda amalga oshiriladi. Dalillarni davlat organlari va mansabdor shaxslar JPK 22 va 86-moddalarining talablari asosida to‘playdilar. Dalillarni, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, har qanday fuqarolar va tashkilotlar ham taqdim etishlari mumkin. Dalillar jinoyat protsessining har qanday bosqichida har bir bosqichning protsessual xususiyatlaridan kelib chiqadigan shakl va usullarda to‘planadi;

□ *dalillarni tekshirish* – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning faktik ma’lumotlarning ishonchliligini hamda ular olinadigan manbalarning jinoyat ishi holatlarini to‘g‘ri aniqlash uchun yaroqliligini puxta, har tomonlama va xolisona aniqlash borasidagi faoliyati. Dalillar (JPK 94-m.) protsessning barcha bosqichlarida tekshiriladi. Faktik ma’lumotlar ham, ular olinadigan manbalar ham, har bir dalil alohida hamda boshqa mavjud dalillar bilan birgalikda ham tekshirilishi lozim. Dalillarni protsessual qarorlarning qabul qilinishiga aloqador bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tekshiradilar. Protsessning boshqa subyektlari dalillarni tekshirishda ishtirok etadilar, xolos.

□ *dalillarni baholash* – sudyalar, prokuror, tergovchi, surishtiruvchining fikriy faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat davomida ular dalillarni to‘liq, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib, o‘zlarining ichki ishonchlari asosida har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va

ishonchliligi hamda ularning protsessual qaror qabul qilish uchun yetarliligi haqidagi masalani hal qiladilar. Dalillar protsessning barcha bosqichlarida baholanadi. Dalillarni baholashning mohiyatini ularning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi hamda jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlarni topish uchun yetarliligini aniqlash tashkil qiladi. Qonunda dalillarni baholashga umumiy talablar belgilangan bo'lib, ular jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagonadir (JPK 95-m.).

Dalillarni baholash jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi.

Sudlanuvchining (jabrlanuvchining, guvohning) e'lon qilingan ko'rsatuvlari sud tomonidan sud tergov jarayonida tekshirilishi lozim.

Hukmda sudlanuvchining jinoiy harakatlarini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan dalillarga asoslanganda, sud ularning mazmunini yoritishi va tegishli baho berishi lozim.

Agar ish bo'yicha jinoyat sodir qilganlikda bir nechta sudlanuvchilar ayblanayotgan yoki sudlanuvchi bir nechta jinoyatlarni sodir qilganlikda ayblanayotgan bo'lsa, sud hukmda har bir sudlanuvchiga nisbatan hamda har bir ayblov bo'yicha dalillar keltirishi va tahlil qilib chiqishi hamda xulosa qilishi zarur.

Dalillarni baholash isbot qilish jarayonining elementi sifatida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sudning aqliy, mantiqiy faoliyati bo'lib, ular ushbu faoliyat asosida har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ahamiyati hamda jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlarni aniqlash uchun yetarliligi haqida ishonch hosil qiladilar, shuningdek, jinoyat ishini yuritishning muayyan paytida mavjud bo'lgan dalillar majmui bo'yicha oraliq va yakuniy qarorlar qabul qilinadi.

JPKda dalillarni baholash yuqorida keltirilgan shaxslarning ichki ishonchiga havola qilinishi bilan birga, ushbu bahoning shakllanishi

shartlarini hamda amalga oshirilgan baholashni ifodalashning protsessual shaklini ham belgilab beradi. Bu ichki ishonchdan iborat subyektiv omil hamda ish bo'yicha baholovchi xulosalarning ko'rib chiqilgan dalillari majmuidan iborat bo'lgan obyektiv omilning uyg'unligini ta'minlaydi.

Dalillarni baholashda ichki ishonch ikki jihatdan – dalillarni baholash usuli sifatida hamda bunday baholashning natijasi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Ichki ishonch dalillarni baholash usuli sifatida sud, prokuror, tergovchining qandaydir boshqa organ protsessning har qanday bosqichida bergan dalillarni baholashga bog'liq emasligi; bir turdagi dalillarning boshqalaridan afzalligi haqidagi qoidalarning yo'qligi bilan kafolatlanadi. Dalillarni baholash natijasi sifatidagi ichki ishonch surishtiruvchi, tergovchi, sudyaning dalillarning ishonchliligi hamda ular jinoyat-protsessual isbot qilish davomida kelgan xulosalarning to'g'riligiga ishonishlarini bildiradi.

*Isbotlash jarayonida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini, davlat sirlarini qo'riqlash.* Isbotlash jarayonida, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda fuqarolarning, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash ta'minlanishi kerak. Shu bois JPKning 88-moddasiga muvofiq, isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

1) *shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish.* Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud (sudya) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga haqli emas;

2) *zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish.* Dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatish hamda insonga nisbatan boshqa shafqatsiz yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish qat'iyan man etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1984 yil 10 dekabrda qabul qilgan «Qiynoqlarga solishga va muomalada bo‘lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya»ga ko‘ra «qiynoq» har qanday tusdagi shunday harakatni anglatadiki, u bilan qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan ma‘lumotlar yoki e‘tirof olish, uni u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishda u gumon qilinadigan harakat uchun jazolash, shuningdek, uni yoki uchinchi shaxsni qo‘rqitish yoki zo‘rlash maqsadida yoki bunday og‘riq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatdagi boshqa shaxs yoki ularning gijgijlashi bilan yoki ularning xabardorligida yoki indamay roziligi bilan har qanday tusdagi kamsitishga asoslangan har qanday sabab bo‘yicha qasddan kuchli og‘riq yoki jismoniy yoxud ma‘naviy azob beriladi.

Qiynoqqa solish, zo‘rlik ishlatish, qo‘rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo‘lish, shuningdek, qonunga xilof boshqa choralar qo‘llash, shu jumladan, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini buzish natijasida olingan dalillar ayblov asosiga qo‘yilishi mumkin emas.

*3) tungi vaqtda, ya‘ni kech soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izi yo‘qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarurati bo‘lgan hollar bundan mustasno.*

Tergov harakatlarini yuritish tartibi va shartlarining buzilishi prokuror va sud tomonidan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ruhiy ta‘sir o‘tkazish deb baholanishi mumkin. Bunday ta‘sir ostida to‘plangan ma‘lumotlar dalil kuchiga ega bo‘lmaydi va ular ayblov hukmi uchun asos qilib olinishi mumkin emas.

Qonunga zid ravishda olingan barcha dalillar yuridik kuchga ega bo‘lmasligi va hukmda aks ettirilishi, qolaversa hukmga asos qilib



olinishi mumkin emas. Qonunga zid ravishda olingan dalillarga tergov olib borishning noqonuniy (ruhiy va jismoniy kuch ishlatish) usullarini qo'llab olingan dalillar yoki jinoyat-protsessual qonunining boshqa normalari buzilishi (masalan, himoya huquqining buzilishi) natijasida olingan dalillar kiradi. Dalil qonunga zid ravishda olingan deb topilgan taqdirda, sud ishdagi dalillar yig'indisidan uni chiqarish to'g'risidagi o'zining qarorini, qonunning buzilishi nimadan iborat ekanligini ko'rsatgan holda, asoslantirishi lozim.

Dalilni qonunga zid ravishda olingan deb baholashda, sud JPKning 23-moddasida nazarda tutilgan aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi asosida, dalilning maqbulligi va xolisligi to'g'risidagi har qanday shubha, agar uni bartaraf qilishning imkoni bo'lmasa, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozimligidan kelib chiqishi kerak. Bartaraf qilishning imkoni bo'lmagan shubhalar sudlanuvchining to'liq aybi yoki ayblovning alohida epizodlari bo'yicha ham topilishi mumkin.

Axloq nuqtai nazaridan, tergov yoki sud harakatlari bilan bog'liq ishlar bajarilayotganida, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va ishda mutaxassis yoki ekspert sifatida ishtirok etayotgan shifokorlardan boshqa shaxslarning o'zga jinsdagi shaxsni yalang'ochlab yechintirish chog'ida hozir bo'lishlari taqiqlanadi.

Bundan tashqari, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya tergov va sud muhokamasi jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va boshqalarning shaxsiy hayotiga doir aniqlangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik chora-tadbirlarini ko'rishi shart. Buning uchun shunday ma'lumotlar aniqlanishi mumkin bo'lgan tergov yoki sud harakatlari olib borilayotganida shitirok etadigan shaxslar doirasi cheklanadi, ishtirokchilar esa ularni oshkor qilganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladi.

Tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan narsalar va hujjatlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga narsa yoki hujjat egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinadi. Ishga aloqasi bo'lmagan narsa va

hujjatlar topilganda, ular qonuniy egasiga darhol qaytarilishi kerak. Biroq fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsa va hujjatlar yo‘q qilinishi yoxud ularni saqlashga vakolati bo‘lgan va ularni tasarruf etadigan muassasalar yoki tashkilotlarga berilishi lozim (JPK 88-m.).

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida davlat sirlari qo‘riqlanishining kafolatlari ham nazarda tutilgan. Xususan, davlat sirlari bo‘lgan hujjatlar yoki narsalarni ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish va unga doir boshqa harakatlar faqat surishtiruvchi yoki tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga binoan yoxud sud ajrimiga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Prokuror yoki sud majlisida raislik qiluvchi bunday harakatlarni o‘tkazish vaqti, joyi va boshqa shartlarini shu hujjatlar yoki narsalarni saqlash uchun javobgar bo‘lgan korxonaga, muassasa yoki tashkilot rahbari bilan kelishib oladi.

Bunday harakatlarni yuritishda ekspert, mutaxassis, xolis sifatida faqat davlat sirlari bo‘lgan hujjatlar va narsalar bilan tanishishga ruxsat berilgan shaxslar ishtirok etadilar (JPK 89-m.).

*Dalillarni qayd etish tartibi va usullari.* Fan va texnika yutuqlari jinoyat protsessiga dalillarni to‘plash va tekshirish chog‘ida turli ekspertizalar o‘tkazish ko‘rinishida, videoyozuvni qo‘llash, qolip va nusxalar tayyorlash yo‘li bilan jadal joriy etilmoqda. Qonunda ularni rasmiylashtirishning protsessual tartibi nazarda tutilgan. Fan-texnika vositalarini qo‘llash materiallari protsessda ham hujjatlar sifatida, ham ashyoviy dalillar sifatida foydalanilishi mumkin. Hammasi ushbu materiallar qanday belgilar majmuiga egaligiga bog‘liq. Fan-texnika vositalarini protsessdan tashqarida qo‘llash ularni sudda tekshirish uchun shart-sharoit yaratishni talab qiladi. Shu tariqa olingan hujjatlarni mansabdor shaxslar qanday holatlarda va kim aniqlaganini tushuntiruvchi rasmiy hujjat bilan birga taqdim etishga haqlidirlar. Hujjat uni surishtiruvchi, tergovchi, sudya yoki sud ishga qo‘shib qo‘ygan taqdirdagina dalillar manbai ahamiyatiga ega bo‘ladi.

Har qanday dalil bayonnomada qayd etilishi kerak. Ma‘lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi

bayonnomasida qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanish mumkin. Bayonnomalar yuritish uchun shaxsiy mas'uliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi zimmasiga yuklatiladi.

JPKning 90-moddasida bayonnomalarga albatta kiritilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati keltirilgan. Bular: tergov yoki sud harakatining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar, bu shaxslarga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani; tergov yoki sud harakatining o'tkazilish joyi va vaqti, shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy obyektlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo'lgan belgilari; tergov harakatlari yoki sud muhokamasi ishtirokchilari tasdiqlashni so'ragan faktlar; ularning yuz berayotgan hodisa sabanlari xususidagi ko'rsatuvlari, tushuntirishlari, mulohazalari; ular tomonidan berilgan iltimosnomalar, shikoyatlar, rad etishlar; tergov harakatini olib borish yoki sud muhokamasi jarayonidagi tartibbuzarlik hollari, shuningdek, bu tartibbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun ko'rilgan chora-tadbirlar.

JPKning 26, 90 va 455-moddalari talabiga binoan faqat sud majlisida tekshirilgan va sud majlisi bayonnomasida o'z aksini topgan dalillarga asoslangan bo'lishi lozimligini e'tiborga olishlari kerak. Sud hukmda, surishtiruv, dastlabki tergov yoki boshqa sud majlisidagi sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatuvlariga, ekspertlarning xulosalariga va tergov harakatlarining bayonnomalariga, JPKning 443-moddasiga muvofiq, ushbu dalillarga faqatgina sud majlisida o'qib eshittirilgan va tekshirilgandagina havola qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, dalillarni qayd etishning yordamchi usullari ham mavjud. JPK 91-moddasiga muvofiq, dalillarni qayd etish uchun bayon-noma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, sud dalillarni qayd etishning bu usullari qo'llanishiga ko'maklashish uchun mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

O'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tarzidagi, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti tarzidagi protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan dalillarni qayd etishning qanday usullari qo'llangani, foydalanilgan apparatlar, asboblari, uskunalari, materiallarning texnikaviy tavsifi keltirilib, tegishlicha tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Bunda tergov yoki sud harakatining borishi va natijalari aks ettirilgan fotosuratlar, fonogrammalar, videoyozuvlar, kinotasvirlar, qoliplar, nusxalar, rejalar, sxemalar va boshqalar bayonnomaga ilova qilinadi. Har qaysi ilovada tergov yoki sud harakatining nomi, o'tkazilgan joyi, sanasi ko'rsatilgan izohlovchi matn bo'lishi lozim. Bu izohlovchi matnni surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi yoki tergovchi va xolislar, sudda esa raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

*Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish.* So'roq qilish, shaxslarni va narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish, yuzlashtirish tergov harakatlari guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni ular turgan joydagi yoki yashash joyidagi viloyatning yoki tuman (shahar)ning huquqni muhofaza qiluvchi organiga yoki sudiga chaqirgan holda, texnik vositalardan foydalanib videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin. Videokonferensaloqa jarayonida tergov harakati ishtirokchilari tergov harakati jarayoni va natijalarini to'g'ridan-to'g'ri translatsiya orqali bevosita kuzatib boradi.

Tergov harakatini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish JPK 91<sup>1</sup>-91<sup>4</sup>-moddalarida belgilangan talablar doirasida amalga oshiriladi. Videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan tergov harakati jarayoni va natijalari elektron ma'lumotlarni tashuvchi tegishli vositalarga bayonnoma tuzilgan holda yoziladi va qayd etiladi.

Tergov harakatining bayonnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud va topshiriqni bajaruvchi mansabdor shaxs tomonidan JPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya qilingan holda tuziladi.

Bayonnomada jinoyat protsessi ishtirokchilari ko'rsatuvlarining mohiyati aks ettiriladi. Videokonferensaloqa materiallari bayonnomaga qo'shib qo'yiladi.

Topshiriqni bajarayotgan mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan bayonnoma surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga yuboriladi.

JPKning 92-moddasiga muvofiq, tergov harakatlari shitirokchilarining, shuningdek, sud muhokamasidagi taraflarning bu harakatlar jarayoni va natijalari aks ettirilgan bayonnoma bilan tanishish, xuddi shuningdek, bayonnomaga qo'shimcha va tuzatishlar kiritish huquqlari ta'minlanishi kerak. Bunda surishtiruvchi yoki tergovchi tergov harakatlari tamom bo'lishi bilan darhol ushbu harakat ishtirokchilariga bayonnomaning o'qib chiqishga imkon beradi yoxud iltimoslariga ko'ra ularga o'qib beradi. Shunday tartibda raislik qiluvchi yoki uning topshirig'iga binoan sud majlisi kotibi sud zalidan tashqarida bajarilgan sud harakati shitirokchilarini, shuningdek, taraflarni sud majlisi bayonnomasidagi mazkur sud harakatiga taalluqli yozuvlar bilan tanishtiradi.

Og'zaki bildirilgan qo'shimchalar, tuzatishlar, fikr-mulohazalar, e'tirozlar, iltimoslar va shikoyatlar bayonnomaga kiritiladi, yozma ravishda ifoda etilganlari esa bayonnomaga ilova qilinadi. O'chirishlar yoki kiritilgan qo'shimcha so'zlar yoxud boshqa tuzatishlar xususida bayonnoma oxiridagi imzolar oldidan izohlar beriladi. Tergov harakati bayonnomasini bilan tanishtirilgan shaxslar bayonnomaning har bir sahifasi ostiga va uning oxiriga imzo chekadilar.

Tergov amaliyotida tergov harakati bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortish yoki imzo cheka olmaslik hollari uchray turadi. JPKning 93-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi yoki tergovchi protsess ishtirokchilaridan birontasining yoki boshqa shaxslarning tergov harakatlari bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortganligi to'g'risida bayonnomaga yozib qo'yib, uni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Yuqorida nazarda tutilgan hollarda sud majlisi bayonnomasining sud harakatlari to'g'risidagi yozuvlarini imzolashdan bosh tortilganligi haqida shu bayonnomaga yoziladi hamda uni raislik qiluvchi va sud

majlisi kotibi o'z imzosi bilan tasdiqlaydilar. Bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortgan shaxs bosh tortish sababini tushuntirish huquqiga ega. Uning tushuntirishi bayonnomaga kiritilishi lozim.

Tergov yoki sud harakati ishtirokchisi o'zining jismoniy nuqsoni tufayli bayonnomani o'qib, imzolay olmasa, bayonnomani uning roziligi bilan himoyachi, vakil yoki mazkur shaxs ishonadigan boshqa fuqaro ovoz chiqarib o'qib beradi va imzo chekadi. Bu haqda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

## VI BOB. TERGOV HARAKATLARI

### 6.1. «Tergov harakatlari» tushunchasi, tizimi va tasniflanishi

Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq amalga oshiradigan, ish holatlarini aniqlash uchun ahamiyatga ega faktik ma'lumotlarni topish, tekshirish va qayd etishga qaratilgan protsessual harakatlar *tergov harakatlari* deyiladi.

Ushbu harakatlarni amalga oshirish chog'ida hal qilinadigan vazifalariga ko'ra, harakatlarning o'zi ikki mustaqil guruhga bo'linadi:

1) tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlari dastlabki (sudgacha bo'lgan) tartibda dalillarni aniqlash, tekshirish va qayd etish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda foydalanadigan va tadqiqot xususiyatiga ega bo'lgan tergov harakatlari;

2) jinoyat ishida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa tergov harakatlari.

Birinchi guruh tergov harakatlariga batafsilroq to'xtalamiz.

Dalillarni aniqlash, qayd etish va tekshirishda foydalaniladigan tergov harakatlari quyidagilardir:

– so'roq qilish (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ba'zan esa mutaxassis va ekspertni);

– yuzlashtirish;

– tanib olish uchun ko'rsatish;

– ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;

– ko'zdan kechirish;

– guvohlantirish;

– murdani eksperimentatsiya qilish;

– eksperiment;

– olib qo'yish;

– pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash;

– tintuv o'tkazish;

- telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish;
- ekspertiza;
- ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish;
- taftish;
- narsalar va hujjatlarni taqdim etish;
- narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo‘shib qo‘yish.

Biroq jinoyat-protsessual huquq nazariyasida ushbu guruhga kiruvchi tergov harakatlarini shartli ravishda yana quyidagi to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) faktik ma’lumotlarni aks ettirish usuli bo‘yicha;
- 2) axborotning xususiyati bo‘yicha;
- 3) aks ettiriladigan obyektlarning murakkabligi bo‘yicha;
- 4) tergov harakatining maqsadi bo‘yicha guruhlarga bo‘ladi.

Tergov harakatlari JPKning qaysi moddasi bilan tartibga solinganligi, uni o‘tkazish uchun prokuror yoki sudning ruxsati kerakligi, uni o‘tkazishda xolislar ishtirok etishi, rasmiylashtirilishiga ko‘ra o‘ziga xos jihatlarga ega.

T/r	Tergov harakati nomi	JPK moddasi	Qaror	Prokuror ruxsati	Sud ruxsati	Bayon noma	Xolislar ishtiroki	Izoh
1.	Ko‘zdan kechirish	135–141	Uy, binoni ko‘zdan kechirishda, 139	Kerak emas	Kerak emas	141	Shart, 74, 352	Hsbjkk ish qo‘zg‘atilishidan oldin ham o‘tkaziladi
2.	Ekspertiza	172–187	Ha, 180	Kerak emas	Kerak emas	Yo‘q	Shart emas	Ekspert xulosasi tuziladi 184
3.	Taftish	187 <sup>1</sup> –187 <sup>11</sup>	Ha, 187 <sup>2</sup>	Kerak emas	Kerak emas	Yo‘q	Shart emas	Dalolatnoma tuziladi
4.	Guvohlantirish	142–147	Ha, 144	Kerak emas	Kerak emas	147	Shart, 352	



5.	Murdani eksguma tsiya qilish	148– 152	Ha, 148	Kerak, 148	Sud ajrimi asosida o‘t-di, 148 <sup>1</sup> -148 <sup>2</sup>	151	Shart, 352	Keyingi harakatlar alohida bayonnomada qayd etiladi, 152
6.	Ekспери ment	153- 156	Ha, 154	Ba’zida kerak, 154	Kerak emas*	156	Shart, 352	Ba’zida o‘tkazish mumkin emas.
7.	Tintuv	157– 168	Ha, 159	Kerak, 161	Kerak emas*	163	Shart, 352	Prokuror ruxsati olinmaganda, 24 soat ichida prokurorga xabar beriladi
8.	Olib qo‘yish	157– 168	Ha, 159	Kerak emas (Davlat siri bo‘lgan hujjat yoki narsani ko‘zdan kechirish va olib qo‘yishda kerak)	Kerak emas	163	Shart, 352	Olib qo‘yish tintuvga, tintuv esa olib qo‘yishga aylanib ketishi mumkin
9.	Pochta- telegraf jo‘natma larini xatlash	166- 166 <sup>2</sup>	Ha, 166	Kerak, 166	Sud ajrimi asosida o‘t-di, 166 <sup>1</sup> -166 <sup>2</sup>	167	Ko‘zda n kechiris hda 167	Xatlangan jo‘natma olib qo‘yilishi mumkin.
10.	Telefon so‘zla- shuvla- rini eshitib turish	169– 171	Ha, 169	Kerak, 169	Kerak emas*	171	Shart emas	Olti oygacha davom etadi, DXX o‘tkazadi
11.	Ekspert tekshiruv i uchun namuna- lar olish	188– 197	Insondan namuna olishda, 191	Kerak emas	Kerak emas	197	Shart, 352	Namuna ekspertizaga taqdim etiladi
12.	Tanib olish uchun ko‘rsatis h	125- 131	Yo‘q	Kerak emas	Kerak emas	131	Shart, 352	So‘roq qilish qoidalariga ham rioya qilinadi

13.	Narsalar va hujjatlar ni taqdim etish	198–202	Yo‘q	Kerak emas	Kerak emas	202	Shart, 352	Hujjatlarni taqdim qilish ish qo‘zg‘atishdan oldin ham o‘tkaziladi
14.	Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish	132–134	Yo‘q, shaxs roziligi bilan o‘tkaziladi	Kerak emas	Kerak emas	134	Shart, 352	So‘roq qilish qoidalariga ham rioya qilinadi
15.	Yuzlashtirish	122–124	Yo‘q	Kerak emas	Kerak emas	123	Shart emas	So‘roq qilish qoidalariga ham rioya qilinadi
16.	So‘roq qilish:	96–108		Kerak emas	Kerak emas		Shart emas	
	gumon qilinuvchini	109–113	Ishga jalb qilish haqida, 360			106		Ushlangan yoki jalb qilingandan so‘ng 24 soat ichida so‘roq qilinishi kerak
	ayblanuvchini	109–113	Ishga jalb qilish haqida, 361			106		
	jabrlanuvchini	114–120	Ishga jalb qilish haqida, 54			106		16 yoshgacha bo‘lganlar qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi (pedagog yoki jabrlanuvchining vakili) ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi
	guvohni	114–120	Yo‘q			106		

Barcha hollarda ham har bir tergov harakati faqat yetarli asoslar bo‘lgandagina o‘tkazilishi kerak. Tergov harakatining asoslanganligi har qanday majburlash yoki kimningdir huquq va qonuniy manfaatlarini cheklash faqat haqiqatan ham zarur bo‘lganda, ya’ni muayyan vaziyat shart-sharoitlari bilan oqlangandagina yuz berishini bildiradi.

Tergov harakatiga qo'yiladigan boshqa bir talab shundaki, u qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni uni amalga oshirishda qonunda belgilangan protsessual tartibga qat'iy rioya etilishi lozim. Bu esa yo'l qo'yiladigan va yo'l qo'yilmaydigan harakatlar doirasini nazarda tutadi. Bu bilan tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etuvchi insonning huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlanishi bilan birga, ayni paytda bunda olinadigan faktik ma'lumotlarning protsessual yaroqliligi, boshqacha aytganda, muayyan ish bo'yicha ularning aloqadorligi va maqbulligi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «qonunga zid ravishda olingan barcha dalillar yuridik kuchga ega bo'lmasligi va hukmda aks ettirilishi, qolaversa hukmga asos qilib olinishi mumkin emas. Qonunga zid ravishda olingan dalillarga tergov olib borishning noqonuniy (ruhiy va jismoniy kuch ishlatish) usullarini qo'llab olingan dalillar yoki jinoyat-protsessual qonunining boshqa normalari buzilishi (masalan, himoya huquqining buzilishi) natijasida olingan dalillar kiradi. Dalil qonunga zid ravishda olingan deb topilgan taqdirda, sud ishdagi dalillar yig'indisidan uni chiqarish to'g'risidagi o'zining qarorini, qonunning buzilishi nimadan iborat ekanligini ko'rsatgan holda, asoslantirishi lozim», – deb tushuntirish berilgan.

Tergov harakatlarini yuritish muqarrar ravishda axloqiy prinsiplar va normalarga asoslanishi kerak. Xususan, ularning istalgan turini o'tkazishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar va atrofdagi kishilarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi, hamda inson sog'lig'iga xavf tug'dirish taqiqlanadi. Bunda faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Jinoyat ishi qo'zg'atilguncha o'tkazilishi ruxsat etilgan tergov harakatlari (hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza, taftish va ushlab turilgan shaxsni shaxsiy tintuv qilish)gina bundan mustasno.

Tergov harakatlarining borishi va natijalari sud uchun dalil bo'lib xizmat qiladigan tegishli bayonnomalarda qayd etilishi kerak. Tergov harakatlarining natijalari odatda bayonnomalarda mustahkamlanadi, bir qator hollarda esa qaror bo'yicha o'tkaziladi.

## 6.2. So‘roq qilish

*So‘roq qilishning umumiy shartlari.* Eng muhim tergov harakatlaridan biri so‘roq qilish bo‘lib, jinoyatlarning tez va to‘liq ochilishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning aybini isbotlanishi mazkur tergov harakatining qay darada samarali o‘tkazilishiga bog‘liqdir. Jinoyat protsessi va kriminalistika nuqtai nazaridan, so‘roq qilish so‘roq qilinuvchilardan tergov qilinayotgan jinoyatga oid ma’lumotlarni olishdir.

**So‘roq qilish** – so‘roq qilinayotgan shaxsdan tergovni qiziqtirayotgan hodisa va faktlar (holatlar) haqida to‘liq va to‘g‘ri axborot olish maqsadida tergovchining so‘roq qilinayotgan shaxs bilan bo‘ladigan muloqoti bo‘lib, bunda so‘roq qilinuvchining qonun doirasida tartibga solinadigan fikrlash, hissiy va irodaviy sohasiga ta’sir ko‘rsatiladi.

So‘roq qilish jarayonida inson muloqotining psixologik qonuniyatlari o‘ziga xos jihatlarga ega:

– so‘roq qilish jinoyat-protsessual qonun normalari bilan tartibga solingan bo‘lib, ushbu normalarga muvofiq tergovchiga muloqotni boshqarish funksiyasi beriladi;

– tergovchi bilan so‘roq qilinuvchi o‘rtasida majburlov muloqoti vaziyati yuzaga kelib, so‘roq qilinuvchining ruhiy holatiga ta’sir etadi;

– tergovchining so‘roq qilinuvchi bilan muloqoti natijalari so‘roq qilish bayonnomasida o‘z ifodasini topib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanishi kerak.

So‘roq qilish surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda yoki so‘roq qilinuvchi qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda amalga oshiriladi. Sud esa shaxsni sud muhokamasi yuritilayotgan joyda so‘roq qiladi (JPK 96-m.).

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi (guvoh, jabrlanuvchi), shuningdek, o‘z manfaatlarini himoya qiluvchi (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi) surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning huzuriga va sudga chaqiruv qog‘ozi bilan chaqiriladi. Chaqiruv qog‘ozi

pochta orqali jo‘natiladi yoki chopar orqali topshiriladi. Chaqiruv telefonogramma, telegramma, radiogramma bilan yoki telefaks orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Chaqiruv qog‘ozida shaxs kim sifatida, qaysi manzilga va kimning huzuriga chaqirilayotganligi, qaysi kuni va qaysi soatga kelishi kerakligi, shuningdek, uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmay qolgan taqdirda qanday oqibatlar ro‘y berishi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Chaqiruv qog‘ozi chaqiriluvchiga topshirilib, tilxat olinadi. Chaqiruv qog‘ozi olib borilganda chaqiriluvchi vaqtincha yo‘q bo‘lsa, unga berib qo‘yish uchun chaqiruv qog‘ozi u bilan birga yashovchi voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, yotoqxonaga ma‘muriyatiga, uy egasiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi.

Guvoh, jabrlanuvchini chaqirish vaqtini belgilashda ish manfaatlarini chaqirilayotganlarning imkoniyat va manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilish lozim. Chaqirtirish so‘roq qilinayotganlarga qiyinchilik tug‘dirmasligi va noxush kechinmalar keltirib chiqarmasligi lozim, chunki bu ularning tergovchi bilan munosabatlarini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, chaqirilayotgan shaxsni o‘z vaqtini rejalashtira olmaydigan tarzda chaqirtirmaslik lozim, qabulxonada uzoq kutishga majbur qilmaslik, so‘roq qilishni boshqa vaqtga ko‘chirish kabilar bo‘lmasligi lozim. Guvoh va jabrlanuvchini ishdan tashqari vaqtda, o‘quvchilarni esa darsdan avval yoki keyin so‘roq qilgan ma‘qul.

Sudga kelishni istisno qiluvchi holatlarga, shaxsning vafotidan tashqari og‘ir xastalik, yiroqda va ko‘p cho‘ziladigan xizmat safarida bo‘lishi, yashash joyidan ro‘yxatdan chiqib ketganda uning turar joyini aniqlashning imkoniyati bo‘lmagan holatlar kiritilishi mumkin. Har bir holatda shaxsning sudga kelishini istisno qiluvchi holat deb topish to‘g‘risida qaror sud tomonidan ushbu masalalarni muhokama qilingandan keyin qabul qilinishi kerak.

Jinoyat-protsessual kodeksining 438-moddasi mazmunidan kelib chiqib, sud majlisi qatnashchilarining yangi guvohlarni, ekspertlarni,

mutaxassislarni chaqirish, ashyoviy dalillarni va hujjatlarni talab qilib olish to'g'risidagi iltimoslari ular arz qilingan va muhokama etilgandan keyin bevosita hal qilinishi lozim bo'ladi.

Qamoqda saqlash joylarida, reabilitatsiya markazlarida, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar so'roq qilish uchun mazkur joylar va muassasalarning ma'muriyati orqali chaqirtiriladi.

Sud majlisiga kelgan guvohlar, ekspert yoki mutaxassis, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillari so'roq qilingandan so'ng ishning muhokamasi keyinga qoldirilib so'ngra ish o'sha tarkibda ko'rilyotgan bo'lsa va ularni chaqirishning hojati bo'lmasa, ushbu shaxslar ikkinchi marotaba sud majlisiga chaqirilmasligi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi va sud so'roq qilish oldidan so'roq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi va otasining ismini, tug'ilgan vaqti (yili, oyi, kuni) va tug'ilgan joyini, yashash joyi va ish joyini, mansabi, mashg'ulot turi, ma'lumoti, oilaviy ahvolini, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlashi hamda bu ma'lumotlarni jinoyat ishidagi yoki so'roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rishi yoxud so'roq qilinuvchi o'zini kim deb tanishtirgan bo'lsa, aynan o'sha shaxs ekanligiga boshqa yo'llar bilan ishonch hosil qilishi lozim (JPK 98-m.).

So'roq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni bilishi, u qaysi tilda ko'rsatuv bera olishi mumkinligiga bog'liq muammoli holatlar yuzaga kelganda, bu masala aniqlanishi lozim, zarur hollarda tarjimon chaqiriladi va u kelguncha so'roq qilish mumkin emas (JPK 99-m.).

So'roq qilinuvchining shaxsi aniqlanganidan keyin unga amaldagi JPKda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Bu huquq va majburiyatlar tushuntirilganligi so'roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi (JPK 100-m.).

Odatda so'roq qilinuvchiga ishning unga ma'lum bo'lgan holatlari to'g'risida so'zlab berish taklif qilinadi. So'roq qilinuvchi erkin so'zlab berganidan keyin uning ko'rsatuvlarini to'ldirish va aniqlashga qaratilgan savollar berilishi mumkin (JPK 101-m.).

Qonunga asosan ishora qiluvchi savollar berishga yo‘l qo‘yilmaydi. Kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo‘naltirish mazmunidagi savollar ishora qiluvchi savollar deb hisoblanadi (JPK 102-m.).

So‘roq qilinuvchining ko‘rsatuvlari statistik ma‘lumotlar yoki xotirada saqlanishi qiyin boshqa ma‘lumotlarga taalluqli bo‘lsa, u so‘roq paytida o‘zidagi yoki ishga qo‘shib qo‘yilgan hujjatlardan yoxud boshqa yozuvlardan foydalanishi mumkin. So‘roq qilinuvchiga so‘roq qilish jarayonida o‘zidagi hujjatlar va boshqa yozuvlarni o‘qib eshittirishga ruxsat etilishi mumkin. Buning ustiga surishtiruvchi, tergovchi va sud so‘roq qilinuvchidan so‘roq qilish jarayonida u foydalanayotgan hujjatlar va boshqa yozuvlarni talab qilishi, ularni keyin qaytarib berishi yoki ishga qo‘shib qo‘yishi mumkin (JPK 103-m.).

So‘roq qilinuvchining ilgarigi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlari faqat uning hozirgi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlari tinglanib, qayd qilinib, u imzo chekkanidan keyin va quyidagi hollarda o‘qib eshittirilishi mumkin:

- 1) hozirgi va ilgarigi so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda;
- 2) so‘roq qilinuvchi sudda ko‘rsatuv berishdan bosh tortganda;
- 3) ish so‘roq qilinuvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqilayotganida.

Sudlanuvchining ilgarigi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlari faqat Jinoyat-protsessual kodeksining 104-moddasida ko‘rsatilgan va ro‘yxati cheklangan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina e‘lon qilinishi mumkin.

Jabrlanuvchining yoki guvohning dastlabki tergovda bergan ko‘rgazmalari faqat ularning ushbu ko‘rsatuvlari bilan suddagi ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda, shuningdek, jabrlanuvchi yoki guvohning sudga kelish imkoniyatini cheklovchi sabablar tufayli sud majlisida qatnashmagan taqdirda e‘lon qilinishi mumkin.

O‘z navbatida, so‘roq jarayonida surishtiruvchi, tergovchi va sud, shuningdek, sud muhokamasida taraflar ishga qo‘shib qo‘yilgan yoki taraflar ixtiyorida bo‘lgan narsalar va hujjatlarni so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatishlari, shuningdek, bu hujjatlarni o‘qib eshittirishlari mumkin.

Bunda so‘roq bayonnomasida yoki sud majlisi bayonnomasida qaysi narsa yoki hujjat ko‘rsatilganligi, hujjat matnining qaysi qismi va uning kim tomonidan o‘qib eshittirilganligi, narsa yoki hujjatni ko‘rsatish vaqtida qanday savollar berilganligi va bunga javoban so‘roq qilinuvchi qanday ko‘rsatuvlar berganligi aniq aks ettiriladi (JPK 105-m.).

So‘roq jarayonining o‘zi va uning natijalari surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida so‘roq bayonnomasida, sud muhokamasida esa sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi. Bundan tashqari, so‘roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish ham qo‘llanilishi mumkin.

Ko‘rsatuvlar bayonnomaga birinchi shaxs nomidan, imkon boricha so‘zma-so‘z yozib boriladi. Savol-javob so‘roq jarayonida qanday olib borilgan bo‘lsa, shunday izchillikda qayd qilinadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi tomonidan chetlatilgan, shuningdek, so‘roq qilinuvchi javob berishdan bosh tortgan savollar ham bayonnomaga kiritilishi kerak.

Bayonnomada so‘roq qilinuvchi tomonidan avvalgi so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlarning o‘qib eshittirilgani, ko‘rsatuv berish jarayonida so‘roq qilinuvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalangani, so‘roq qilinuvchiga so‘roq davomida narsa va hujjatlar ko‘rsatilgani, so‘roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish o‘tkazilgani ham qayd qilinadi. Fonogramma, videoyozuv va kinotasma bayonnomaga ilova qilinadi.

So‘roq tugaganidan keyin bayonnoma o‘qib chiqish uchun so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatiladi yoxud uning iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi tomonidan unga o‘qib beriladi.

Shuni inobatga olish lozimki, so‘roq qilinuvchi ko‘rsatuvni o‘z qo‘li bilan yozma ravishda bayon qilishga haqli. Ushbu holda o‘z qo‘li bilan yozilgan ko‘rsatuv bayonnomaga ilova qilinadi, bu haqda unga yozib qo‘yiladi.

So‘roq qilinuvchi yoki taraflarning iltimosiga ko‘ra sud majlisida bayonnomaga imzo qo‘yilguniga qadar yozilgan ovoz, videoyozuv yoki



kinotasvir namoyish qilinishi mumkin. Ular bilan bayonnoma o'rtasida jiddiy tafovut bo'lgan hollarda, tafovut sababini aniqlash uchun yangitdan so'roq qilinishi mumkin.

So'roq qilinuvchi bayonnomani o'qib bo'lgach, ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligi va u bilan tanishganligini imzo chekib, tasdiqlaydi. Imzo bayonnomaning oxiriga qo'yiladi, agar ko'rsatuvlar bir necha sahifaga yozilgan bo'lsa, har qaysi sahifaga alohida imzo chekiladi.

So'roq qilishda tarjimon qatnashayotgan bo'lsa, u so'roq qilinayotgan shaxsning bayonnomadagi ko'rsatuvini unga og'zaki tarjima qiladi, so'roq qilinuvchining o'z qo'li bilan yozib bergan ko'rsatuvlarini esa, yozma ravishda tarjima qiladi. Tarjimon ko'rsatuvlar yozilgan bayonnomaning oxiriga va har bir sahifasiga alohida, shuningdek, so'roq qilinuvchining o'z qo'li bilan yozib bergan ko'rsatuvlarining tarjimasiga imzo chekadi (JPK 106-m.).

So'roqning umumiy davom etish vaqti bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi (JPK 107-m.). Ammo quyidagi hollarda qo'shimcha so'roq o'tkazilishi ham mumkin:

1) so'roqning umumiy davom etish vaqti cheklanganligi bois so'roq qilinuvchi ishning o'ziga ma'lum bo'lgan barcha holatlari to'g'risida ko'rsatuv bera olmaganida;

2) so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatuvlarini to'ldirish yoki o'zgartirish istagini bildirganda;

3) ayblanuvchiga yangi yoki o'zgartirilgan yoxud qo'shimcha ayblov e'lon qilinganda;

4) surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini prokuror qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topganda;

5) boshqa surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini ishni yuritish uchun qabul qilgan surishtiruvchi yoki tergovchi qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topsa;

6) ilgari so‘roq qilingan shaxsga berilishi kerak bo‘lgan ish uchun muhim yangi savollar tug‘ilganda;

7) shaxs so‘roq qilinganidan keyin ishga kirishgan zaxiradagi xalq maslahatchisi ushbu shaxsni yangitdan so‘roq qilishni talab qilganda.

*Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish.* Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi so‘roq qilishning umumiy qoidalariga rioya etgan holda so‘roq qilinadi. Ayni paytda uning bir qator o‘ziga xos jihatlari ham bor. Masalan, surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazish jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ushlangan, so‘roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilganidan keyin darhol yoki yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay, so‘roq qilinishi kerak.

Sudya sud tergov ketayotganida sudlanuvchiga istagan vaqtda ko‘rsatuv berish huquqini ta‘minlashi shart. Agar sudlanuvchi biror sud harakati o‘tkazilayotgan paytda ko‘rsatuv berish to‘g‘risida istak bildirsa, sud unga shu harakatlarni tugashi bilanoq ko‘rsatuv berish uchun imkoniyat yaratadi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi so‘roq qilinayotgan shaxsning kimligini, qaysi tilda ko‘rsatuv berishi mumkinligini aniqlagach, unga huquq va majburiyatlarini tushuntiradi va quyidagi harakatlarni bajaradi:

1) gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga uning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzgan himoyachining yoxud, agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzishga ulgurmagan yoki tuza olmagan bo‘lsa, boshqa himoyachining so‘roqda ishtirok etishini ta‘minlaydi;

3) gumon qilinuvchiga uning qanday jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganligini e‘lon qiladi;

4) gumon qilinuvchiga ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganligi to‘g‘risidagi qarorni taqdim qiladi va ayblovning mohiyatini tushuntiradi.

Tergovchi ayblanuvchini birinchi marta so‘roq qilishdan oldin u o‘zini aybli hisoblashi yoki hisoblamasligini yoki o‘z aybini to‘la yoxud qisman rad etishi yoki etmasligini ham aniqlashi kerak.

Surishtiruvchi, tergovchi ushbu harakatlarning bajarilishini gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining so‘roq bayonnomasida, sud esa sud majlisining bayonnomasida qayd qiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ushlanganidan, qamoqqa olinganidan, chaqiruv qog‘ozi bo‘yicha so‘roqqa kelganidan yoki majburan olib kelinganidan so‘ng darhol yoki yigirma to‘rt soat ichida birinchi marta so‘roq qilishning JPK 111-moddasida belgilangan qoidalariga rioya etilgan holda so‘roq qilinishi kerak.

Tergov harakatlarini yuritish tartibi va shartlarining buzilishi prokuror va sud tomonidan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ruhiy ta‘sir o‘tkazish deb baholanishi mumkin. Bunday ta‘sir ostida to‘plangan ma‘lumotlar dalil kuchiga ega bo‘lmaydi va ular ayblov hukmi uchun asos qilib olinishi mumkin emas.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining bergan ko‘rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar, ayblanuvchi o‘z aybiga iqror bo‘lgan taqdirda ham, o‘zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog‘langan holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim (JPK 112-m.).

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz bilan tegishli davlat organiga murojaat qilgan shaxs ham shunday huquqiy holatga ega (JPK 113-moddasi).

Gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko‘rsatuvlari va ayblanuvchining o‘z aybiga iqror bo‘lishi, mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Boshqacha aytganda, ayblanuvchining aybiga iqror bo‘lishi «dalillar malikasi» sifatida tan olingan o‘tmish saboqlari inobatga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o‘zining «Sud hukmi to‘g‘risida»gi 2014-yil 23-maydagi qarorida sudlanuvchining tergovda yoki sudda aybini bo‘yniga olish holati u ish bo‘yicha to‘plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona isbotlangan taqdirdagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo‘la oladi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan ishlashda aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz alohida o‘rin tutadi.

*Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz* ariza beruvchining o‘zi sodir etgan jinoyati to‘g‘risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e‘lon qilinmasidan oldin bergan xabaridir.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud og‘zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma‘lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arzni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko‘rsatuvlarini baholash borasidagi umumiy qoidalarga muvofiq baholaydilar.

*Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish, voyaga yetmagan shaxsni so‘roq qilish.* Guvoh va jabrlanuvchi umumiy qoidalar bo‘yicha so‘roq qilinadi. So‘roqqa o‘z advokati bilan hozir bo‘lgan guvohni yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish advokat ishtirokida amalga oshiriladi. So‘roq tugaganidan so‘ng advokat guvohning yoki jabrlanuvchining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi, so‘roq bayonnomasiga kiritilishi lozim bo‘lgan arzlarni bayon etishga haqli.

Guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lgan shaxslar uzrli sabablarga ko‘ra sudga kelmagan taqdirda, sudning tashabbusi bilan yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomasiga ko‘ra videokonferensaloqa vositasida so‘roq qilinishi mumkin.

Guvoh va jabrlanuvchi tariqasida:

1) hukm va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to‘g‘risida – sudyani va xalq maslahatchisini;

2) jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida – himoyachini, shuningdek, jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarining vakilini;

3) ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilish mumkin emas (JPK 115-m.).

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o'zlarining roziliklari bilan so'roq qilinishlari mumkin (JPK 116-m.).

Guvoh yoki jabrlanuvchining shaxsi aniqlanganidan va unga protsessual huquq hamda majburiyatlari tushuntirilganidan keyin u ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilib, bu haqda so'roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar. Shuning uchun ham sud, ularning sud-dagi yoki dastlabki tergovdagi ko'rsatuvlariga, mazkur ish bo'yicha dastlabki tergov bosqichida va sudda ushbu shaxslarga guvohlik ko'rsatuvlari berishdan bosh tortish huquqi tushuntirilgan va ular o'z xohishlari bilan ko'rsatuv berishga rozilik bildirgan taqdirdagina asoslanishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 31-moddasining 3-qismi, 240-moddasining 2-qismiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik, guvohlik ko'rsatuvini berishni rad etganlik yoki bundan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilmaydi. Qonun qayd etilgan shaxslarni yolg'on guvohlik berganlik uchun javobgarlikdan ozod etmasligi sababli, o'zlarining ko'rsatuv berishga roziligi mavjud bo'lganida, ular JKning 238-moddasi bilan bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilishi lozim.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud aniqlayotgan holatlar o'zida davlat sirlarini yoki kasb sirini yoxud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud boshqa shaxslar hayotining sir tutiladigan

tomonlarini aks ettirganligini bahona qilib, guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas.

Aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar o'zida davlat sirini yoki kasb sirini aks ettiradi yoxud shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlariga tegishli deb hisoblash uchun asos bo'lganda, surishtiruvchi, tergovchi va sud guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish chog'ida bu holatlarning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rishi shart (JPK 118-m.).

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko'rsatuvlari bir qator hollarda jinoyat ishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Guvoh yoki jabrlanuvchi protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganidan keyin jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar bilan o'zaro munosabatlari, guvoh esa, shuningdek, jabrlanuvchi bilan o'zaro munosabatlari to'g'risidagi savollarga javob beradi. Shundan so'ng so'roq qiluvchining taklifiga ko'ra guvoh yoki jabrlanuvchi ish bo'yicha o'zlari bilgan barcha ma'lumotlarni aytib beradilar. Ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan yoki ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday holat to'g'risida, shu jumladan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining va protsess boshqa ishtirokchilarining shaxsi haqida ham ko'rsatuvlar berishlari mumkin (JPK 118-m.).

Tergov olib borilayotgan joyda yoki sudda bo'lgan guvoh yoki jabrlanuvchi ko'rsatuv berishga xohish bildirsa, ular qoida tariqasida o'sha kunning o'zida yoki keyingi kundan kechiktirmay so'roq qilinishi kerak.

Guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuv berishga xohishi to'g'risidagi xabar tergovchi yoki sudga pochta orqali kelgan taqdirda, unga so'roq o'tkaziladigan joy va vaqt darhol xabar qilinadi va u kelishi bilanoq so'roq o'tkaziladi (JPK 120-m.).

Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishning bir qator o'ziga xos jihatlari mavjud. Bunday shaxslarni so'roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki

jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o'tkaziladi. Ko'rsatilgan shaxslar so'roq qiluvchining ruxsati bilan guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin. Bunday guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar. Biroq surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi shu guvoh va jabrlanuvchilarga ularning protsessual huquqi va majburiyatlarini tushuntirish chog'ida haqqoniy ko'rsatuv berish va bu bilan jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga ko'maklashish ma'naviy burch ekanligini eslatib o'tadi.

Jinsiy erkinlikka qarshi, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar savdosiga oid jinoyat ishlari bo'yicha voyaga yetmagan guvohni yoki jabrlanuvchini so'roq qilish, shuningdek, boshqa holatlarda so'roq qilish, agar buni odil sudlovning yoki voyaga yetmagan shaxsning manfaatlari talab etsa, stenografiya, videokuzatuv, shuningdek, audio- va video qayd etish tizimlari bilan jihozlangan maxsus xonada qonuniy vakil, pedagog yoki psixolog ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Voyaga yetmagan guvohni yoki jabrlanuvchini so'roq qilish stenografiyasi, ular ko'rsatuvlarining audio- va videoyozuvlari bayonnomaga ilova qilinadi. (JPK 121-m.).

### **6.3. Yuzlashtirish**

Ilgari so'roq qilingan ikki shaxs ko'rsatuvlari o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo'lganda bu qarama-qarshiliklar sababini aniqlash uchun o'tkaziladigan yuzlashtirish aslida so'roq qilishning turlaridan biridir. Unda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishlari mumkin.

Yuzlashtirish o'tkazish chog'ida so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya etiladi. Yuzlashtirish o'tkazishning tartibi quyidagicha: so'roq qilish oldidan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi har bir so'roq qilinuvchidan navbati bilan ularning o'zaro

tanishligi yoki tanish emasligini, o‘zaro munosabatlari qanday ekanligini so‘raydi va javoblarini tinglaydi. Shundan so‘ng har bir so‘roq qilinuvchiga navbat bilan qarama-qarshilik kelib chiqqan holatlar to‘g‘risidagi savollarga javob berish taklif qilinadi. Basharti bunday qarama-qarshilik bir nechta masalaga yoki bir nechta holatga taalluqli bo‘lsa, yuzlashtirishda har ikki so‘roq qilinuvchi bir masala yoki bir holat bo‘yicha ko‘rsatuv bergach, ularga keyingi masala yoki keyingi holat to‘g‘risidagi savollar berilishi mumkin.

Yuzlashtirish chog‘ida so‘roq qilinayotgan shaxs surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilangina boshqa so‘roq qilinuvchiga savol berishi mumkin. Sud majlisida so‘roq qilinuvchilarning har ikkalasiga xalq maslahatchilari, shuningdek, taraflar savol berishlari mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi va sud majlisida raislik qiluvchi ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan yoki yuzlashtirishda aniqlashtirilayotgan qarama-qarshilikka taalluqli bo‘lmagan savollarni chetlatishga haqlidir (JPK 123-m.).

Qonunda yuzlashtirish chog‘ida ilgarigi ko‘rsatuvlarni o‘qib eshittirishga yo‘l qo‘yiladi. Yuzlashtirish chog‘ida so‘roq bayonnomasi yoki so‘roq qilinayotgan shaxslar avvalgi so‘roqlarda bergan ko‘rsatuvlarning fonogrammalari shu shaxslar yuzlashtirilib, ularning ko‘rsatuvlari bayonnomaga kiritilganidan keyingina o‘qib berilishi yoki eshittirilishi mumkin.

#### **6.4. Tanib olish uchun ko‘rsatish**

Tanib olish uchun ko‘rsatish deganda, ilgari so‘roq qilingan shaxsning ko‘rsatuvlarini tekshirish maqsadida unda ta’riflangan obyektни ko‘rsatib qayta so‘roq qilish tushuniladi.

*Tanib olish uchun ko‘rsatish* – tergov harakatlaridan biri bo‘lib, u guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi-ning biror shaxs yoki narsa to‘g‘risidagi ko‘rsatuvini tekshirib ko‘rish uchun ushbu ko‘rsatuv muayyan bir shaxs yoki muayyan bir narsaga oid



ekanligini aniqlash zarur bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga ma'lum bo'lgan ko'plab shaxs yoki narsalar orasidan ko'rsatuvda tasvirlab berilgan shaxs yoki narsani topish zarur bo'lganda amalga oshiriladi. Bunda tanib oluvchi tanib olishi lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilingan bo'lishi shart.

Qonunda tanib olish uchun kim yoki nima ko'rsatilayotganiga qarab shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishning maxsus tartibi nazarda tutilgan. Shunga ko'ra tanib olish uchun ko'rsatish bir necha turlarga ajratiladi: shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish, narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish, murdani tanib olish uchun ko'rsatish, ko'chmas obyektlarni tanib olish uchun ko'rsatish.

Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish ham tartibiga ko'ra ikki turga bo'linadi: bevosita va fotosurat orqali tanib olish uchun ko'rsatish. Bevosita shaxs tanib olish uchun tergov olib borilayotgan jinoyatga aloqasi bo'lmagan, tashqi belgilari bilan o'ziga o'xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko'rsatiladi. Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxslarning umumiy soni uch nafardan kam bo'lmasligi kerak.

Tanib olinuvchiga tanib olish uchun ko'rsatiladigan shaxslar guruhi orasida istagan joyni egallash taklif qilinadi. U kiyimi, soch qirqtirishi yoki tarashi yoxud boshqa belgilari bilan tanib olish uchun ko'rsatiladigan o'zga shaxslar orasida yaqqol ajralib turmasligi lozim.

Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishning iloji bo'lmagan taqdirda yoki xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkin. Bunday vaziyatda tanib olish uchun jadvalga yaxshilab yopishtirilib, muhrlangan va raqamlangan, lekin suratdagi shaxslarning ismi va familiyalari ko'rsatilmagan kamida uchta fotosurat ko'rsatiladi.

Tanib oluvchining xavfsizligini ta'minlash maqsadida shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning qaroriga ko'ra tanib olinuvchining tanib oluvchini ko'rib turishi istisno etiladigan sharoitlarda o'tkazilishi mumkin.

Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi tergov o'tkazilayotgan joyga, sudga yoki boshqa joyga olib borilishi mumkin bo'lgan narsalar, narsalarning bo'lagi va hayvonlarga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur obyektlar ushbu ishga aloqasi bo'lmagan boshqa turdosh narsalar orasida tanib olish uchun ko'rsatiladi. Turdosh narsalar deganda tanib oluvchi so'roqda tasvirlaganidan tashqi belgilari, alomatlari, xususiyatlariga ko'ra jiddiy farq qilmaydigan, o'zaro o'xshash bo'lgan ko'char obyektlar tushuniladi. Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan narsani o'xshash obyektlar orasida joylashtirish surishtiruvchi, tergovchi tomonidan xolislar huzurida amalga oshiriladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida odam o'limi bilan bog'liq hodisalarni tekshirish, tergov qilish holatlari uchraydi. Bunday hollarda shaxsi noma'lum murdalar haqida to'plangan dalillarni tekshirish talab etiladi. Jumladan, ko'rsatmalarda tasvirlangan shaxsning (bedarak yo'qolgan) tashqi qiyofasi va belgilari haqidagi ma'lumotni tekshirish uchun murdani tanib olish uchun ko'rsatish o'tkaziladi. Bunda xolislar hozirligida murdaning o'zi tanib oluvchiga ko'rsatiladi. Murdani tanib olish uchun ko'rsatishda ishtirokchilarning ruhiy ahvoli e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq. Murdani tanib olish uchun ko'rsatish o'likxonalarda, ekspertiza muassasalarida, agar murda eksqumatsiya qilingan bo'lsa, qabristonda o'tkaziladi.

Ko'chmas obyektни tanib olish uchun ko'rsatish agar jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi joy, bino, binodagi alohida xona yoki boshqa ko'chmas obyekt nomini aytib va tasvirlab bersayu, biroq uning joylashgan o'rnini aniq aytib bera olmasa, biror aniq joydan obyektga borish yo'lini ko'rsatishga istak bildirganda, unga shu obyektни ko'rsatishga imkon berish orqali o'tkaziladi. Ko'chmas obyektни tanib olish uchun ko'rsatish quyidagi tartibda o'tkaziladi: surishtiruvchi yoki tergovchi xolislar yoxud sud taraflar va tanib oluvchi bilan u aytgan joyga keladilar hamda shu joydan boshlab tanib oluvchining ko'rsatmalariga asosan yuradilar, bunda ushbu tergov harakatining qolgan ishtirokchilari yoki boshqa shaxslar tomonidan tanib oluvchiga biror

yoʻnalish aytib qoʻyilishiga yoʻl qoʻymaslik zarur. Koʻchmas obyektни tanib olish uchun koʻrsatishning koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish tergov harakatidan farqi shundaki, tanib olish jarayonida koʻrsatmalar olinmaydi, tanib oluvchi koʻchmas obyekt joylashgan joyga barcha ishtirokchilarni ergashtirib borib, joy yoki binoni bevosita koʻrsatadi. Shundan soʻng unga savollar berilishi mumkin. Koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirishda esa jarayonning oʻzida ham savollar berilishi mumkin.

Tanib olish uchun koʻrsatishning boshqa turlarida tanib olish uchun bir guruh shaxslar, bir nechta narsa koʻrsatilganidan keyin tanib oluvchiga u ilgari tasvirlagan shaxs yoki narsani koʻrsatish taklif etiladi. Murda koʻrsatilganda esa tanib oluvchidan u ilgari tanigan va bedarak yoʻqolgan deb aytilayotgan shaxsning murdasimi yoki yoʻqligi soʻraladi.

Tanib oluvchi koʻrsatilgan shaxslardan yoki narsalardan birini koʻrsatsa yoki murdani taniganligi va shaxsiga oid maʼlumotlarni aytsa, unga bu shaxsni yoki narsani yoxud murdani qaysi belgilari yoki xususiyatlariga koʻra taniganligini tushuntirib berish haqida savol beriladi.

Agar tanib oluvchi tanib olish uchun unga koʻrsatilgan shaxslar yoki narsalarni ilgari koʻrmaganligini yoxud u tasvirlagan shaxs yoki narsa emasligini, shuningdek, murdani tanimasligini aytsa, unga qidirilayotgan shaxs yoki qidirilayotgan narsa ulardan nimasi bilan farq qilishini tushuntirib berish taklif qilinadi. Tanib oluvchining koʻrsatuvlari tinglanadi.

Tanib olish tergov harakati ayrim jihatlariga koʻra soʻroq qilish tergov harakatining elementlarini takrorlaydi. Shu bois tanib olish uchun koʻrsatishda ham soʻroq qilishning protsessual va taktik qoidalariga amal qilinadi.

Oʻtkazilgan tanib olish uchun koʻrsatish jarayoni va natijalari bayonnoma bilan mustahkamlanadi. Ishni sudga qadar yuritishda tanib olish uchun koʻrsatish bayonnomasi, sudda sud majlisining bayonnomasida qayd qilinadi. Barcha hollarda tanib oluvchi, tanib olish uchun koʻrsatish sharoiti, jarayoni va natijalari, shu jumladan tanib olish uchun koʻrsatilgan

shaxslar, ularning yoshi, bo'yi, millati, turar joyi, ko'zga tashlanuvchi belgilari, kilimlari; tanib olish uchun ko'rsatilgan narsalar tavsifi; tanib olish uchun ko'chmas obyektlar ko'rsatilganda esa, tanib oluvchi ko'rsatgan yo'nalishlar va izlanayotgan obyektga biror aniq joydan borish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar bayonnomaga kiritilishi shart. Tanib oluvchining ko'rsatuvlari, shuningdek, unga berilgan savollar va qaytarilgan javoblar so'roq jarayoni va natijalarini qayd qilish qoidalariga muvofiq bayonnomaga yoziladi. Tanib olish uchun fotosuratlar ko'rsatilgan bo'lsa, bayonnomaga fotojadval ilova qilinadi.

### **6.5. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish**

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi), guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatmalarini tekshirilayotgan hodisa joyida (holatlarni tiklash yo'li bilan) qayta so'roq qilish orqali tekshirish tushuniladi.

Ushbu tergov harakati mustaqil harakat hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, surishtiruvchi, tergovchi, sud gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, guvohlar hamda jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini tekshirilayotgan hodisa joyida holatlarni qayta tiklash yo'li bilan tekshirib ko'radilar. Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs hodisa sodir bo'lgan joyda bir vaqtning o'zida ko'rsatish, ko'zdan kechirish yoki ba'zi narsalarni, hujjatlarni, izlarni olish yoxud muayyan harakatlarni namoyish qilish orqali tushuntirish beradi yoki o'zining avval bergan ko'rsatuvlariga aniqlik kiritadi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma'lum, surishtiruvchi, tergovchi va sudga esa noma'lum bo'lgan narsalar, hujjatlar, izlar va belgilarni topish;

shaxsning tergov yoki sud muhokamasi davomida topilgan narsalar, hujjatlar, izlar qayerda bo'lganligini ko'rsatib berishi orqali ko'rsatmalarga aniqlik kiritish;

ish uchun ahamiyatli bo'lgan joy yoki yo'nalishni shaxs ko'rsatib berishi orqali bir necha shaxsning ayni bir hodisa to'g'risida bergan ko'rsatmalaridagi o'xshashlik va farqlarga oydinlik kiritish (hodisani haqqoniy tasavvur qilish);

holatlarni qayta tiklash va hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoit bilan qiyoslash orqali ko'rsatuvlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini (atayin yolg'on ko'rsatma bergan yoki yo'qligini) aniqlash.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish shaxs so'roq qilinganidan so'ng o'tkaziladi. Ushbu tergov harakati odatda so'roq qilingan shaxsning ixtiyoridan kelib chiqib, ya'ni roziligi bilan o'tkaziladi. Shaxsning rozi yoki rozi emasligi so'roq paytida aniqlashtiriladi. Ko'rsatuvlarni tekshirish boshlanishidan avval tekshirilayotgan hodisaning sharoit va holatlarini tiklash uchun zarur bo'lgan choralar ko'rilishi kerak. Buning uchun zarur texnika, jihozlar va vositalar tayyorlab qo'yiladi, ishtirokchilar doirasi aniqlashtiriladi. Xolislar, mutaxassislar, ekspertlar va tergov harakatining boshqa ishtirokchilariga vaqti va joyi haqida xabar beriladi. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish so'roq qilishga ko'p jihatdan o'xshash bo'lganligi, ko'rsatmalar olish bilan bog'liqligi bois unda ham so'roq qilishning qoidalariga rioya etiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud taraflar va tergov harakatining boshqa qatnashchilariga ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishni boshlashi va tekshiriladigan ko'rsatuvlarni e'lon qiladi, ko'rsatmasi tekshirilayotgan shaxsdan ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qo'shimcha va o'zgartishlar kiritishga ehtiyoj bor yoki yo'qligini so'raydi, tekshirishning maqsadi va tartibini (harakatlar ketma-ketligini) tushuntiradi. Guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatmalari tekshirilayotganda, ular, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarni istisno qilganda, ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi. Shundan so'ng ko'rsatuv bergan shaxs yo'l va yo'nalishni ko'rsatgan holda hodisa joyiga harakat ishtirokchilarini olib

boradi, ko'rsatmalar beradi; zarur bo'lsa, tekshirilayotgan hodisaning sharoit va holatini amalda tiklaydi; ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni, hujjatlarni, izlarni qidirib topadi va/yoki joyini ko'rsatadi; ayrim harakatlarni namoyish qiladi; u yoki bu narsa (harakat yoki ashyo)larning tekshirilayotgan hodisada qanday o'ringa va ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi; hodisa sodir bo'lgan joyda sharoitning o'zgarganligiga e'tiborni qaratadi; o'zining avvalgi qo'rsatuvlarini aniqlashtiradi va ularga oydinlik kiritadi. Ko'rsatuvlarni tekshirish boshlanganidan to tamomlangunga qadar chetdan aralashishga, gap o'rgatishga va ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs erkin so'zlab bergach va harakatlarni erkin namoyish qilib bo'lgach, unga savollar beriladi. Hodisa katta masofadagi joyda tekshirilishi talab etilsa, ya'ni muayyan masofani yurib o'tgan holda ko'rsatma berilayotganda, bir joydan ikkinchi joyga o'tishdan avval ham ko'rsatmalar yoki dastlabki joydagi holatlarga oydinlik kiritish maqsadida savollar berilishi mumkin.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirishda qatnashayotgan shaxslar (masalan: himoyachi yoki vakillar) surishtiruvchi, tergovchi va sudning e'tiborini, ularning fikricha ish holatlarini aniqlashtirishga yordam beradigan barcha narsalarga qaratishga, ba'zi harakatlarning takrorlanishini talab qilishga haqlidir. Ko'rsatuvlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirilayotgan shaxs va tergov harakatining boshqa ishtirokchilari o'tkazilayotgan tergov harakati yuzasidan ularni qo'shimcha ravishda so'roq qilishni talab etishga haqlidir. Bir vaqtning o'zida bir necha shaxsning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish jarayoni va natijalari surishtiruvchi yoki tergovchi tuzadigan bayonnomaga yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Shu bilan birga, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish qayerda, qachon, qanday sharoitda o'tkazilganligi; qanday joylar va narsalar ko'zdan kechirilganligi; hodisa sodir bo'lgan joyda berilgan ko'rsatuvlarning mazmuni qandayligi; hodisaning sharoiti va

holatlarini tiklash nimada o'z aksini topganligi; shaxs o'zining avvalgi ko'rsatuvlariga qanday aniqliklar kiritganligi bayonnomada ko'rsatiladi.

Jinoyat-protsessual kodeks 132-moddasi talablariga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ko'rsatuvlarini hodisa joyida tekshirish natijalari, bu shaxslarning muayyan hodisalar haqida bilganlari faqat ularning jinoyat sodir etishga daxldorligidan darak bersagina, dalil kuchiga ega bo'ladi.

## **6.6. Ko'zdan kechirish**

Ko'zdan kechirish deganda, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni (hodisa tafsilotlari va oqibatlarini) aniqlash, jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni topish maqsadida hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsa va hujjatlarni ko'rikdan o'tkazish (ko'rish, qo'l bilan ushlab, hidlash), kuzatish orqali bilish va qayd etish jarayonidan iborat tergov harakati tushuniladi.

Ko'zdan kechirish jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ko'zdan kechiriladigan obyektlarning xususiyatlariga ko'ra ko'zdan kechirish tergov harakatining tartibi farqlanadi va shunga ko'ra turlarga ajratiladi. Ko'zdan kechirishning quyidagi turlari mavjud: hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, tevarak-atrof va binolarni, narsa va hujjatlarni (hayvonlarni) ko'zdan kechirish.

Ko'zdan kechirish murakkab harakatlardan tarkib topganligi, boshqa ayrim tergov harakatlarining elementlarini ham o'zida qamrab olishi bois ko'zdan kechirish tartibining umumiy qoidalari belgilangan.

Ko'zdan kechirish tartibining umumiy qoidalari o'lchov o'tkazish, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushirish, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzish, izlardan qoliplar va nusxalar olishdan iborat. Mazkur qoidalar olib qo'yish, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda

tekshirish, narsa va hujjatlarni taqdim qilish kabi harakatlarni o'tkazishda ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan ashyo yoki obyekt tekshirilayotganda ham qo'llanilishi bois ular umumiy qoidalar deyiladi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichlarida ko'zdan kechirish xolislar ishtirokida o'tkaziladi. Agar sud majlisini o'tkazish vaqtida ko'zdan kechirishga zarurat tug'ilsa, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ko'zdan kechirishni taraflar ishtirokida o'tkazadi. Ko'zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin, ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olib qo'yilgan barcha narsalar xolislariga, taraflarga va ko'zdan kechirishning boshqa ishtirokchilariga ko'rsatiladi, ko'zdan kechirishda ishtirok etayotgan shaxslar surishtiruvchi, tergovchi va sudning e'tiborini o'zlarining fikricha ish holatlarini oydinlashtirishga yordam berishi mumkin bo'lgan barcha hollarga qaratishi mumkin.

Hodisa bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar o'tkazilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlariga kiradi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish uchun aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar asos bo'ladi, bunday ma'lumotlar jinoyat sodir etilganligi haqidagi ariza va xabarlarda, so'roqda berilgan ko'rsatma va tushuntirishlarda aks etishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish odatda tergov-tezkor guruhi tomonidan o'tkaziladi. Chunki hodisa sodir bo'lgan joyda ma'lum hajmdagi maydon, bino yoki inshootlar va boshqa narsalar ko'zdan kechirish obyekti bo'lishi mumkin va ularni tekshirish hamda jinoyatni tez ochish uchun tergov, jinoyat qidiruv, ekspert-kriminalistika va boshqa xizmatlarning yaqindan hamkorligi talab etiladi. Katta maydonlarni va binolarni ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ularning har biri kamida ikki nafar xolis ishtirokida ko'zdan kechirishni o'tkazadi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayoni videoyozuv vositasi yordamida qayd etiladi, o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan holatlarda ushbu



talabning majburiyligi belgilangan. Hodisa sodir bo‘lgan joy videoyozuv vositasida yozib olinishi to‘liq bo‘lishi kerak. Qayd etilgan yozuv hodisa sodir bo‘lgan joyni tadqiq etish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratish zarur. Jumladan, yozuvda obyekt joylashgan hududga kirish joyi, kirish va joyning keyingi qismlarida mavjud bo‘lgan narsalar, narsalarda yoki yerdagi izlar, jihozlar, ularning o‘zaro joylashuvi, ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar va izlar maxsus texnik imkoniyatlar yordamida maydalashtirilgan yoki yiriklashtirilgan holatlarda qayd etilishi kerak.

Hodisa sodir bo‘lgan joyda aniqlangan ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar, hujjatlar va izlar olinib o‘raladi va muhrlanadi. Olish imkoni bo‘lmagan katta hajmdagi narsalarni saqlash choralari ko‘riladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bir muncha murakkab xususiyatga ega, chunki bir vaqtning o‘zida joyni ko‘zdan kechirish bilan birga narsalar va izlarning joylashuvi va boshqa holatlarga qarab, ushbu joyda ko‘zdan kechirish boshlangunga qadar bo‘lib o‘tgan voqealar qanday boshlanganligi, qay yo‘sinda rivojlanganligi, hodisa yuz berganidan keyin qanday harakatlar sodir bo‘lganligi haqida tasavvur qilib ko‘rish, tasmollar tuzish va ularni xayolan tekshirish kerak. Shu bilan birga, ko‘zdan kechirish jarayonida boshqa manbalarda olingan ma’lumotlar bilan hodisa sodir bo‘lgan joydan olingan ma’lumotlarni taqqoslash ham talab etiladi. Ko‘zdan kechirish jarayoni va natijalari mantiqiy izchillikda va tushunarli tarzda bayonnomada qayd etilishi kerak.

Murdani ko‘zdan kechirish ayrim o‘ziga xos jihatlarga ega. Murdani ko‘zdan kechirishdan maqsad tanada tashqi tomonidan jarohat izlari, alohida tug‘ma belgilar, ilgari olingan jarohat yoki jarrohlik natijasida qolgan izlar (chandiqlar, igna izlari), dog‘lar (o‘lim yuz berganidan so‘ng hosil bo‘ladigan) mavjud yoki mavjud emasligini, shuningdek, suyak tuzilishi butunligi yoki singanligi aniqlash hisoblanadi. Murdaning tashqi ko‘rinishini surishtiruvchi yoki tergovchi u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko‘zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok

etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek, ekspertlar jalb qilinadi. Murdani ko'zdan kechirishda nafaqat tashqi ko'rinish balki undan taralayotgan hidga, ustidagi kiyimining holatiga, yonidan topilgan narsa va hujjatlarga ham e'tibor qaratish zarur. Murdaning bo'y-basti, alohida o'ziga xos belgilarining o'lchamlari, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lgan o'lchamlar olinadi. Jumladan barmoq izlari, soch tolasidan va boshqa biologik namunalar olinadi. Murdaning qo'l va oyoqlarini alohida diqqat bilan ko'zdan kechirish zarur, bundan tirnoq oralari, oyog'i yoki poyabzal ostidagi mayda zarralardan namunalar olish maqsadga muvofiq. Agar murda tanib olinmagan bo'lsa bunday namunalar olish qonundagi majburiy talab hisoblanadi. Tanib olinmagan murda faqat prokuror ruxsati bilangina ko'miladi.

Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu obyektlar muayyan shaxs egaligida bo'lsa, uy yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish haqida chiqariladigan qaror yoki ajrim asosida tergov harakati o'tkaziladi. Obyektning egasi bo'lgan shaxs yoki tegishli korxonada, muassasada, tashkilotning vakili chiqarilgan qaror yoki ajrim bilan tanishtirilib, bu haqda imzo chektiriladi. Ko'zdan kechirish korxonada, muassasada, tashkilotda o'tkazilsa – ma'muriyat vakilining, harbiy qismda, shtabda va muassasada o'tkazilsa – qo'mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shart. Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirishga o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

Ko'zdan kechirish harakatlari ichida eng ko'pi narsa va hujjatlarga nisbatan o'tkaziladi. Narsa yoki hujjatlarni ko'zdan kechirish boshqa ko'zdan kechirish turlariga qaraganda soddaroq bo'lib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud narsa va hujjatlarni ular topilgan joyda, basharti ko'zdan kechirish ko'p vaqt yoki qo'shimcha texnik vositalar talab qilsa, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi

o'tkazilayotgan joyda amalga oshiradi. Narsa yoki hujjatlarni ko'zdan kechirish mazkur narsa yoki hujjat ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega yoki yo'qligiga oydinlik kiritish maqsadida o'tkaziladi. Ko'zdan kechirish jarayonida narsa yoki hujjatning o'ziga xos belgilari: rangi, og'irligi, hidi, tabiiy yoki yasalganlik belgilari, yasalgan bo'lsa uning eskirishi yoki saqlanganlik darajasi, ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot beruvchi belgilar, agar obyekt hujjat bo'lsa blanki ishlab chiqarilgan yil va undagi yozuvlardagi sanaga oid ma'lumotlar, mazkur narsa yoki hujjatga yot bo'lgan boshqa moddalardan qolgan namunalar (izlar), dog'lar, botiq izlar, biologik izlar mavjud yoki yo'qligini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Davlat sirlariga ega bo'lgan narsalar va hujjatlarni faqat maxsus ruxsatga ega bo'lgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya xuddi shunday ruxsatga ega bo'lgan xolilar ishtirokida ko'zdan kechiradi.

Ko'zdan kechirish narsa yoki hujjatlarning yo'qolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasa, texnik vositalardan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin.

Ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari bayonnomada, shuningdek, chizmalarda, rejalarda hamda foto-videoyozuv vositalari yordamida rasmiylashtiriladi. Bayonnomada ko'zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda, ko'zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o'tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma'lumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi.

Bundan tashqari, bayonnomada: ko'zdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorug'likda o'tkazilganligi; qanday ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko'zdan kechirishda ko'maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko'maklashish nimada o'z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko'zdan kechirilganidan

keyin murda va ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarning qayerga yuborilganligi ko'rsatiladi.

Vaqt deganda, odatda, soat nazarda tutilgan, bayonnomada ko'zdan kechirish boshlangan va tugallangan soat, daqiqa aniq qayd etilishi kerak. Ob-havo holatini bayon etishda havoning quruqligi (ochiqligi), yog'ingarchilik, bulutli havo, issiq yoki sovuq havo, shamol tezligi va yo'nalishi, yog'ingarchilik bo'lib o'tgandan keyingi vaqt bo'lsa, yerning loy yoki loy emasligi, suv muzlaganligi, yer sirpanchiqligi yoki yo'qligi ham oydinlishtirilishi kerak. Yorug'lik tabiiy yoki sun'iy yoritish vositasi yordamida yoritilganligiga oid ma'lumotlarni o'zida qamrab oladi. Ilmiy-texnik vositalarga asosan kriminalistik texnikani aytib o'tish mumkin. Ulardan foydalanish natijalari esa barmoq izlari olinganligi, og'irlik yoki uzunlik o'lchamlari olinganligi bilan bog'liq. Ko'maklashish uchun jalb qilingan shaxslar sifatida mutaxassislarni e'tirof etish mumkin, ko'zdan kechirish jarayonida turli soha mutaxassislarning yordami zarur bo'ladi. Narsalar va hujjatlarni muhrlash odatda ushbu narsa va hujjat turgan joyida qoldirilayotganligi, unga boshqa shaxslar tegmasliklari yoki ularga ta'sir o'tkazmasliklari, shuningdek, keyinchalik mazkur narsa va hujjatlarni qo'shimcha ko'zdan kechirish yoki tadqiq qilish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda, olish imkoni bo'lmagan narsa va hujjatlar muhrlanadi va bu haqda bayonnomada qayd etiladi. Ko'zdan kechirilgan murda yoki boshqa narsalar ekspertizaga yuboriladi, shuningdek, saqlash uchun topshiriladi va bu haqda albatta ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etilishi kerak. Bayonnoma ishtirokchilarga o'qib eshittirilganligi qayd etilib, ularning imzolari bilan tasdiqlanadi.

## **6.7. Guvohlantirish**

Guvohlantirish deganda, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni (hodisa tafsilotlari va oqibatlarini) aniqlashtirish, jinoyat izlarini topish maqsadida tirik insonni ko'rikdan o'tkazish (ko'rish, qo'l bilan ushlab, hidlash), kuzatish orqali bilish va qayd etish jarayonidan iborat tergov

harakati tushuniladi. Guvohlantirish shaxsning badanidagi alohida belgilar, dog‘lar, tan jarohatlari, jismoniy rivojlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, mastlik holati yoki jinoyat ishi uchun ahamiyatli boshqa xususiyatlarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Guvohlantirishni o‘tkazish asoslariga ko‘ra guvohlantirish maqsadi birinchidan, odam badanidagi ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlar; alohida belgilar; shaxsning jismoniy rivojlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; tan jarohatlarini; ikkinchidan odamning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlashga qaratilgan.

Ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlariga shaxsning kasbi yoki odatlariga ishora qiluvchi xususiyat va belgilar, masalan, biror-bir ishni bajarish natijasida vujudga keladigan qo‘ldagi qadoqlar, qo‘l va tirnoqlarning alohida tusi, teriga turli changlar yoki boshqa kirlarning kirib qolganligi, nafas olish xususiyatlari, biror ishni bajarish odatlari va shu kabilar kiradi. Guvohlantirishda alohida belgilar bilan bir qatorda umumiy jismoniy belgilar va mazkur shaxsning muayyan irq, millat, xalqqa mansubligidan dalolat beruvchi belgilar aniqlanishi mumkin. Shaxsning jismoniy rivojlanganligi uning gavdasining tuzilishi, katta yoki kichikligi, badanidagi a‘zolarining normal yoki boshqacha hajmga egaligi, qo‘l yoki oyoq mushaklarining baquvvatligi yoki kuchsizligi, jinsiy a‘zolarining katta yoki kichikligi va shunga o‘xshash holatlarni qamrab oladi.

Guvohlantirish asosan odam badanining yuzasida joylashgan, aniqlash va qayd etish uchun maxsus tibbiy tekshiruvlarni talab etmaydigan tan jarohatlarini aniqlashga qaratilganligi bois, ko‘proq tirlangan, shilingan va qontalash joylarga e‘tibor qaratiladi.

Shilinishlar, tirlalishlar, qontalash joylar asosan o‘tmas qurollar (asbob, buyumlar) ta‘siridan hosil bo‘ladi. Shilinishlar deganda, teri yuqori qatlami (epidermis) yoki shilliq pardalar epiteliysining buzilishi tushuniladi. Uchli yoki g‘adir-budir sirtli narsa teri, badan yuzasi bo‘ylab sirg‘alishi natijasida yuzaga kelgan chiziqsimon shilinishlar tirlalishlar deb nomlanadi. Yaqinda yuzaga kelgan tirlalish pushti yoki och qizil

rangli bo'ladi; oradan ma'lum (bir necha soatdan bir-ikki kungacha) vaqt o'tgach, tiralgan joy qotgan qon va yiringli ajralmalardan zich g'adir-budir po'st bilan qoplanadi, keyinchalik u qurib, to'kilib ketadi.

Qontalash joy yoki gematoma urilgan, siqilgan yoki lat yeganda, kichik qon tomirlar yorilishi natijasida qon quyilishi hisobiga yuzaga keladigan teri ostidagi jarohatdir.

Qontalash joy rangi u qachon hosil bo'lgani haqida taxminiy bo'lsa ham xulosa chiqarish imkonini beradi. Yaqinda hosil bo'lgan qontalash joy to'q qizil rangda bo'ladi, u bir-ikki kun ichida avval ko'kimtir-qizg'ish, so'ngra binafsha rang va nihoyat, ko'k yoki kulrang-ko'k tus oladi. Bu rang uch-olti kun saqlanadi. Qontalash joy hosil bo'lganidan keyin sakkiz-o'n beshinchi kunlari u sarg'ish tus oladi, so'ngra qontalash joy yo'qolib ketadi.

Shaxsni guvohlantirish jarayonida tan jarohatlaridan tashqari boshqa moddalar ham aniqlanishi mumkin. Ular mazkur shaxs jinoyat predmetlari bo'lishi mumkin bo'lgan sochiluvchan narsalarga teginganidan va hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lganligidan dalolat berishi mumkin. Guvohlantirish jarayonida qattiq, suyuq yoki gazsimon moddalar ta'sirida yuzaga kelgan dog'lar ko'rinishidagi jinoyat izlari ham aniqlanishi mumkin. Qon va spermadan hosil bo'lgan dog'larning aniqlanishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Guvohlantirilayotgan shaxs badanida qon dog'lari uning qo'llarida, ayniqsa qo'l barmoqlarida, bilaklarida, bo'ynida, sochlarining ostida, badanining bukiladigan joylari (qo'ltiq osti, chot)da, shuningdek, sut bezlari ostida, tirnoq osti yoki sirtida joylashishi mumkin. Qon izlarining tirnoq ostida saqlanish ehtimoli ko'proq bo'ladi.

Mastlik spirtli ichimliklar, ayrim turdagi dorilar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste'mol qilish natijasida yoki zaharli moddalar va patologik omillar ta'sirida vujudga kelishi mumkin. Mastlikning asl sababini faqat mutaxassis, avvalo shifokor aniqlashi mumkin. Ayni vaqtda mastlik darajasini aniqlash ham muhim bo'lib, buning uchun maxsus bilimlar va tibbiy tekshiruvlar talab etiladi. Mazkur holat, avvalo, og'izdan alkogol hidi kelishi, qaddini tutib tura

olmaslik, nutqining o'zgarishi, qo'l barmoqlarining titrashi, yuz terisining rangi keskin o'zgarishi, vaziyatga xos bo'lmagan xulq-atvor, ko'zlarning holati, nutqning uzuq-yuluqligi, harakatlarni boshqara olmaslik kabi alomatlarida nomoyon bo'ladi.

Fiziologik holatlar odamning organizmidagi hayotiy jarayonlar majmuini tashkil etadi. Guvohlantirish shaxsning qisqa vaqt oralig'ida muayyan fiziologik holatda bo'lishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi. Juda kam sonli insonlarda sutkaning ma'lum vaqtida yoki yilning muayyan faslida yoxud ma'lum joyga borganida, shuningdek, ayrim oziq-ovqat turlarini iste'mol qilganida ayrim fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi. Mazkur fiziologik o'zgarishlar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan hollarda guvohlantirish o'tkaziladi.

Guvohlantirish jarayonida shifokor, sud tibbiyoti mutaxassisi, ekspert, boshqa fan sohasidagi mutaxassis, himoyachi, vakil va xolislar ishtirok etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh guvohlantirilishi mumkin.

Guvohlantirish o'tkazish tartiga ko'ra ikki turga bo'linadi: tergov guvohlantirishi, tibbiy guvohlantirish. Guvohlantirishni o'tkazish haqida surishtiruvchi yoki tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Qaror kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismida qaror chiqarilgan vaqt va joy; qarorni chiqargan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, darajasi yoki maxsus unvoni; jinoyat ishining soni ko'rsatiladi.

Tavsif-asoslantirish qismida guvohlantirish o'tkazish zaruratini vujudga keltirgan hodisa tafsilotlari, kimni va qanday maqsadda guvohlantirish o'tkazish kerakligi, guvohlantirishga asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlar, o'tkazish tartibi va asoslariga oid JPK moddalari aks ettiriladi.

Xulosa qismida kim guvohlantirilishi, uni o'tkazuvchi va unga ko'maklashuvchi shaxslar, guvohlantiriluvchi shaxs qachon va qayerga yetib kelishi kerakligi haqidagi to'xtamlar ko'rsatiladi.

Guvohlantirish haqidagi qaror yoki ajrim guvohlantiriluvchi shaxs

uchun majburiydir. Guvohlantirishdan bosh tortayotgan shaxslar majburiy keltirilishi va guvohlantirilishi mumkin.

Guvohlantirishni o'tkazish o'ziga xos va murakkab jihatlarga ega, shu bois guvohlantirish o'tkazilishi sud-tergov amaliyotida nisbatan kam uchraydi. Guvohlantirish o'tkazish haqidagi qaror chiqarilishi ushbu harakatni amalga oshirish uchun bir nechta shaxslarning majburiy ishtiroki talab qilinishini anglatadi. Jumladan, guvohlantiriluvchi, xolislar, shifokor va boshqa mutaxassislar jalb etiladi. Ba'zan guvohlantirishni o'tkazish shifokor zimmasiga yuklatilishi mumkin. Mazkur sabablarga ko'ra guvohlantirishni boshlashdan oldin unga tashkiliy tayyorgarlik jarayoni muhimdir. Qaror qabul qilinganidan so'ng bu haqda barcha ishtirokchilarga xabar berilishi, ularning belgilangan joyga, tayin vaqtda kelishlarini ta'minlash zarur. Barcha tashkiliy choralar ko'rilgan va taklif etilgan shaxslar hozir bo'lganidan keyin guvohlantirish haqidagi qaror yoki ajrim guvohlantiriluvchiga e'lon qilinadi. Guvohlantirishning barcha ishtirokchilariga ularning huquq va burchlari tushuntiriladi.

Agar guvohlantirish shaxsni yechintirib yalang'ochlash, shuningdek, uning badanidagi tirnalgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog'liq bo'lmasa, uni surishtiruvchi yoki tergovchi xolislar ishtirokida o'tkazadi, zarur hollarda, shifokor yoki boshqa mutaxassis jalb qilinadi. Ushbu turdagi guvohlantirishni taraflar ishtirokida sud ham o'tkazishi mumkin.

Shaxsni yechintirib yalang'ochlash yoki uning badanidagi tirnalgan, shilingan, qontalash joylarni, shuningdek, shaxsning mastlik va fiziologik ahvolini aniqlash bilan bog'liq guvohlantirish surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning topshirig'iga binoan shifokor yoxud boshqa mutaxassis tibbiy xodim tomonidan o'tkaziladi. Shaxsni yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq guvohlantirish jarayonida ishtirok etayotgan shaxslar guvohlantiriluvchi bilan bir xil jinsda bo'lishi shart, faqat ishda ekspert yoki mutaxassis sifatida qatnashayotgan shifokorgina boshqa jinsda bo'lishi mumkin.



Guvohlantirish tartibiga ko'ra guvohlantiriluvchi tanasi yoki tanasining tegishli qismi ko'zdan kechiriladi, buning uchun guvohlantiriluvchiga tanasining ma'lum qismini yoki a'zosini ishtirokchilarga ko'rsatishi yoki kiyimlarini yechish va yalang'och holatda bo'lish taklif etiladi. Guvohlantirishni o'tkazayotgan shaxs guvohlantiriluvchining alohida tana qismi, a'zosini yoki butun tanasini ko'rikdan o'tkazadi, ko'rik jarayonida aniqlangan xususiyat, belgi yoki alomatlariga xolislar va boshqa ishtirokchilar e'tiborini qaratadi, ushbu belgi va alomatlarning o'lchamlarini oladi va boshqa xususiyatlariga aniqlik kiritadi.

Agarda guvohlantirish o'tkazishga guvohlantiriluvchi qarshilik ko'rsatsa, unga mazkur tergov harakati majburiy o'tkazilishini, agarda qarshilik ko'rsatishda davom etadigan bo'lsa, unga nisbatan kuch ishlatilishi mumkinligini va majburiy tartibda guvohlantirish o'tkazilishi tushuntiriladi. Bunday vaziyatlarda shaxsni qarshilik qilmaslikka ko'ndirish maqsadga muvofiq. Buning uchun qarshilik sababini aniqlash va bartaraf etish, ijobiy muloqot va ruhiy munosabat o'rnatish talab etiladi. Qilingan barcha takliflarga qaramasdan qarshilik ko'rsatishdan to'xtamaydigan bo'lsa, shaxsni guvohlantirish uning qarshiligiga qaramasdan kuch ishlatib o'tkazilishiga va uning bunga rozi bo'lishdan boshqa chorasi yo'qligiga ishontirish kerak. Qarshilik ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'lgan vaziyatlarda shaxsning qarshiligini yengish uchun ko'maklashuvchi shaxslar oldindan taklif etilishi va ular guvohlantiriluvchiga ko'rinadigan joyda bo'lishini ta'minlash kerak.

Guvohlantirish jarayoni va natijalari bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada guvohlantirish o'tkazilgan joy, vaqt va shart-sharoitlar, ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlar, ishtirokchilarga huquq va majburiyatlar tushuntirilganligi, guvohlantirish o'tkazgan shaxsning hamma harakatlari va guvohlantirish davomida aniqlangan barcha izlar, xususiyatlar va belgilar qayd etiladi.

Guvohlantirish shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, u bayonnoma tuzadi va imzolaydi, guvohlantirilgan shaxs va xolislar ham imzolaganidan so'ng bayonnomani surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga taqdim etadi.

## 6.8. Murdani eks gumatsiya qilish

Murdani eks gumatsiya qilish deganda, ko'zdan kechirish, tanib olish, ekspertiza o'tkazish yoki ekspertiza uchun namunalar olish maqsadida murdani qabrdan chiqarib olish va qayta ko'mish jarayoni tushuniladi.

Ushbu tergov harakati ko'pincha tergovda yo'l qo'yilgan xatolar tufayli uchrab turadi. Ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalar olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish zarur bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror murdani eks gumatsiya qilish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur tergov harakatini o'tkazish asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Surishtiruvchining yoki tergovchining murdani eks gumatsiya qilish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qarori zarur materiallar bilan prokurorga yuboriladi. Prokuror mazkur qarorga rozi bo'lgan taqdirda qarorni va zarur materiallarni jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudiga yuboradi.

Murdani eks gumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnoma tegishli sud sudyasi tomonidan yakka tartibda, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soatdan kechiktirmay yopiq sud majlisida ko'riladi. Sud majlisida prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, qonuniy vakil yoki murdasi eks gumatsiya qilinishi lozim bo'lgan vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlaridan biri, zarur hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa, himoyachi va qonuniy vakil ishtirok etadi. Murdani eks gumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish prokurorning ma'ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur tergov harakatini o'tkazish zaruratini asoslab beradi, so'ngra taqdim qilingan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya alohida xonaga kirib ajrim chiqaradi. Sudya murdani eks gumatsiya qilish to'g'risida yoki murdani eks gumatsiya qilishni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Sudyaning murdani eks gumatsiya qilish to'g'risidagi ajrimi o'qib eshittirilgan

paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Sudyaning ajrimi prokurorga ijro uchun, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga esa ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning murdani eks gumatsiya qilish to'g'risidagi yoki murdani eks gumatsiya qilishni rad etish haqidagi ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish ikki soat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin.

Sud bosqichlarida ishni ko'rayotgan sud murdani eks gumatsiya qilish haqida ajrim chiqarib, uning ijrosini surishtiruvchi yoki tergovchiga topshirishi mumkin. Bunda surishtiruvchi yoki tergovchiga eks gumatsiya o'tkazishga asos bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazishga oid topshiriq (qaror) ham beriladi.

Eks gumatsiya qilish tartibi quyidagicha: surishtiruvchi, tergovchi yoki sud murdani eks gumatsiya qilishni sog'liqni saqlash organlari bilan kelishgan holda va murda ko'milgan joy vakilining ishtirokida amalga oshiradi. Eks gumatsiya surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida amalga oshirilayotgan bo'lsa, xolislarning ishtirok etishi shart. Sud eks gumatsiyani taraflar ishtirokida amalga oshiradi. Ammo bu hol deyarli uchramaydi.

Murdani eks gumatsiya qilishda sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassis shifokor, zarur bo'lsa, boshqa mutaxassislar ham qatnashadilar. Agar ekspertiza tayinlangan bo'lsa, eks gumatsiya o'tkazishda sud tibbiyoti ekspertining ishtirok etishi shart. Zarur hollarda, eks gumatsiyani o'tkazishga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi, shuningdek, murdani tanib olishi mumkin bo'lgan shaxslar jalb qilinishi mumkin.

Eks gumatsiya ekspertiza qilish maqsadida o'tkazilayotgan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish haqida qaror yoki ajrim chiqariladi. Bunda murda ekspertiza muassasasiga jo'natiladi yoki ekspertiza murda ko'milgan joyning o'zida o'tkaziladi.

Murdani eks gumatsiya qilish surishtiruvchi yoki tergovchining bayonnomasida yoxud sud majlisining bayonnomasida rasmiylash-

tiriladi. Bayonnomaga qabr, tobut va murdaning fotosuratlari, kinotasvir va videoyozuvlari ilova qilinishi mumkin.

Murda eksqumatsiya qilinganidan so'ng ko'zdan kechirish, tanib olish yoki ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish amalga oshirilgan bo'lsa, mazkur tergov harakatlari to'g'risida alohida bayonnoma tuziladi (JPK 151-m.). Eksqumatsiya qilingan murda bilan bog'liq barcha protsessual harakatlar o'tkazilganidandan so'ng murdani ko'mish murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqargan shaxsning ishtirokida amalga oshiriladi. Murda ko'milganligi to'g'risida ham alohida bayonnoma tuziladi.

## **6.9. Eksperiment**

Eksperiment so'zi lotincha «experimentum» so'zidan olingan bo'lib, «sinash», «tekshirib ko'rish» degan ma'nolarni anglatadi.

Eksperiment tergov harakati deganda, ko'rsatmalar, boshqa dalillar, shuningdek, ish bilan bog'liq tasmollarni o'rganilayotgan hodisaga oid harakatlar, sharoit va holatlarni qayta tiklash hamda tajriba harakatlarini o'tkazish orqali tekshirish tushuniladi.

Eksperiment shaxsning idrok qilish (ko'rish, eshitish yoki jismoniy) qobiliyatini, muayyan harakatlarni bajarish, biror hodisaning sodir bo'lish imkoniyatini tekshirish, shuningdek, hodisaning voqelikda qanday yuz berishi va izlarning qolish yo'sinlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Eksperiment shaxsning bergan ko'rsatuvlaridagi voqea, holat, vaziyat va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarning haqiqatga qanchalik mosligini, o'sha voqea, holat, vaziyat va jarayonlarni tajriba harakatlari orqali qayta tiklab o'tkazishdan iboratdir.

Eksperiment tergov harakati tekshiruvning xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi: eshitish qobiliyatini tekshirish; ko'rish qobiliyatini tekshirish; muayyan xatti-harakatlarni bajara olish qobiliyatini tekshirish; ma'lum bir harakatlarni muayyan vaqt oralig'ida sodir eta olish qobiliyatini tekshirish.

Ekspiriment surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yohud sudning ajrimiga asosan o‘tkaziladi.

Ekspiriment tergov harakatini o‘tkazish jarayonida uning samarali bo‘lishini ta‘minlash maqsadida jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan paytdagi holat ko‘rsatmalardan kelib chiqib qayta tiklanadi.

Shaxs huquq va qonuniy manfaatleri qo‘riqlanishiga hech qanday ta‘sir qiluvchi holatlar mavjud bo‘lmasa, ekspiriment surishtiruvchi, tergovchining qarori asosida o‘tkaziladi.

Ekspiriment natijasida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mulkiy zarar yetkazilishi, ishlab chiqarish tartibotining, transport vositalari harakati jadvalining buzilishi va boshqa noxush oqibatlarining kelib chiqishi ehtimol bo‘lsa, surishtiruvchining, tergovchining bunday ekspiriment o‘tkazish to‘g‘risidagi qaroriga prokuror sanksiya berishi lozim.

Agarda ekspirimentning o‘tkazilishi natijasida jamoat tartibi yoki axloq normalarining buzilishi yoxud inson sog‘lig‘iga zarar yetish, hayotiga xavf tug‘dirish ehtimoli bo‘ladigan yoki shunday oqibatlar yuz berishi muqarrar bo‘lsa, uni o‘tkazish taqiqlanadi.

Ekspiriment tadqiqotini o‘tkazish ekspertga topshirilgan taqdirda uning harakatlari sud ekspertizasining tarkibiy qismiga kiritiladi va u ekspiriment tergov harakati sifatida baholanmaydi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi ekspirimentni xolislar, sud esa taraflar ishtirokida o‘tkazadi, shuningdek, mutaxassis, ekspert va tajriba harakatlarini o‘tkazuvchi shaxslar jalb qilinishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya ekspiriment o‘tkazilishini rejalashtiradi, tashkillashtiradi, ishtirok etuvchi shaxslar doirasini belgilaydi hamda tergov harakati o‘tkazilishining boshidan oxiriga qadar bevosita rahbarlik qiladi. Ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslar bu jarayonda ishtirok etishi shart. Ekspiriment o‘tkazish haqida qaror chiqarilganidan so‘ng barcha ishtirokchilar belgilangan vaqtda tajriba harakatlari o‘tkaziladigan joyga yetib kelishlari ta‘minlanadi. Ekspirimentni boshlashda ishtirokchilarga huquq va majburiyatlar, ekspirimentning maqsadi va

o'tkazilish tartibi tushuntiriladi. Guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladilar.

Tajriba harakatlarini o'tkazishdan oldin o'rganilayotgan hodisa sharoitlari tekshirilayotgan ko'rsatuv yoki tasmollarga to'la muvofiq holda tiklangan bo'lishi lozim. Buning uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning har biriga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisaning sharoit va holatlarini tiklash taklif qilinishi mumkin. Hodisa holatlari va sharoitlari tiklanganidan hamda eksperiment ishtirokchilari o'z joylarini egallaganlaridan so'ng tajriba harakatlari amalga oshiriladi, shu bilan birga, o'lchashlar o'tkazish, fotosuratga tushirish, kinotasvirga olish, ovoz yozish, videoyozuvga olish, reja tuzish, sxema va chizmalar chizish, eksperimental qoliplar va izlarning nusxalarini tayyorlash mumkin.

Eksperiment o'tkazish sharoiti tiklanayotgan harakat yoki hodisalar jinoyat sodir etilgan sharoitga iloji boricha o'xshash bo'lishi lozim. Tajribalar imkon boricha bir necha marta o'tkazilishi lozim. Tajribalarning sharoitlari ishning holatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertga eksperiment yuzasidan savollar berilishi mumkin. Sudning ijozati bilan eksperimentda ishtirok etayotgan shaxslarga taraflar ham savol berishi mumkin. Taraflar va eksperimentda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar surishtiruvchining, tergovchining va sudning e'tiborini, ularning fikricha ish holatini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan barcha holatlarga qaratishga, eksperiment sharoitiga aniqlik kiritishni va tajriba harakatlarini takrorlashni talab qilishga haqlidir. Ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxs eksperiment munosabati bilan o'zining qo'shimcha so'roq qilinishini talab qilishi mumkin.

Eksperiment jarayoni va natijalari bayonnomada rasmiylashtiriladi, bayonnomada eksperimentning o'tkazish shartlari, jarayoni va natijalari to'liq qayd qilinadi. Jumladan: eksperiment o'tkazilgan sana va joy,

tergov harakatining boshlanish va tugash vaqti; eksperiment o'tkazgan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va unvoni, jinoyat ishining raqami, xolislarning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan yili, yashash manzili, boshqa ishtirokchilarning familiyasi, ismi, sharifi, tajriba harakatlarini amalga oshiruvchi shaxsning protsessual maqomi, uning familiyasi, ismi, sharifi, eksperiment ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlari, javobgarligi tushuntirilganligi to'g'risida belgilar ko'rsatiladi. Shuningdek, eksperiment qanday maqsadda, qanday sharoitda o'tkazilganligi, ya'ni ob-havo holati, holatni tiklash nimalarda o'z aksini topganligi, eksperimentning o'tkazish uslubi, eksperiment ishtirokchilari o'rtasida majburiyatlar qanday taqsimlanganligi, eksperiment paytida qanday harakatlar, qanday ketma-ketlikda, kim tomonidan va necha marta amalga oshirilganligi, uning natijasida qanday ma'lumotlar olinganligi, eksperiment paytida qanday texnik vositalar kim tomonidan va qanday tartibda qo'llanilganligi (foto, video, ovoz yozish va boshqalar) ko'rsatiladi hamda olingan fotosurat, videotasvir yoki ovozli ma'lumotlar va boshqa shunga o'xshash ashyolar bayonnoma ilova qilinganligi qayd etiladi. Bayonnomada tergov harakati ishtirokchilarining bayonnoma bilan tanishganliklari va uni o'z imzolari orqali tasdiqlaganliklari hamda bayonnoma mazmuniga ularda taklif yoki shikoyatlarning bor yoki yo'qligi qayd etiladi.

### **6.10. Olib qo'yish**

Olib qo'yish deganda, ko'rsatmalar yoki boshqa dalillarga ko'ra qayerdaligi aniq bo'lgan, ish uchun ahamiyatga ega narsa yoki hujjatni keyinchalik ishga ashyoviy yoki yozma dalil sifatida qo'shib qo'yish uchun turgan joyidan olish tushuniladi.

Olib qo'yish o'tkazish tartibiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi, ya'ni xonadon va binolarda olib quyish, shaxsiy olib qo'yish, diplomatiya vakillari va vakolatxonalaridan olib qo'yish.

Olib qo'yish surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimi bilan amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarda qayerda va

kimning xonasida olib qo'yish tergov harakatini amalga oshirish kerakligi, qanday narsa va hujjatlar olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatiladi.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xolislar, ayrim hollarda esa mutaxassis va tarjimon ham ishtirok etadilar. Shuningdek, xonadon egasi oilasining voyaga yetgan a'zolaridan biri ishtiroki ta'minlanishi lozim. Buning imkoni bo'lmasa, tegishli hokimlik yoki mahalla o'zini o'zi boshqarish organi vakilining ishtirok etishi zarur. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar joylashgan binolarda esa ularning vakillari ishtirokida o'tkaziladi.

Agar davlat sirlariga ega bo'lgan narsa va hujjatlar olib qo'yiladigan bo'lsa, olib qo'yish haqidagi qarorga prokurorning sanksiyasi olinishi kerak. Bunday olib qo'yish davlat sirlarini bilishiga ruxsat etilgan shaxslar ishtirokida o'tkaziladi.

Tintuv qilinayotganlarga, xolislariga, mutaxassislarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak. Bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart.

Surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish haqidagi qarorga yoki ajrimga asosan turar joyga yoki boshqa binoga kiradi va olib qo'yish o'tkazilayotgan shaxsni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib imzo qo'ydiradi. Shuningdek, qarorning bir nusxasini beradi.

Qaror yoki ajrim bilan tanishtirganidan so'ng olinishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qilinadi, taklif rad etilgan taqdirda narsa yoki hujjat majburiy ravishda olinadi. Agar bu narsa va hujjatlar olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan joydan topilmasa, u holda tintuv o'tkaziladi.

Olinayotgan narsa va hujjatlarning hammasi xolislariga, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi, bayonnomada to'liq aks ettiriladi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralib, muhrlanadi. O'ralgan va muhrlangan narsa va hujjatlarni keyingi tergov davomida ochishga faqat xolislari ishtirokida yo'l qo'yiladi.



Olib qo'yish majburiy ravishda amalga oshirilganligi sababli, yopiq binolarni yoki buyumlar saqlanadigan joyni uning egasi o'z ixtiyori bilan ochib berishdan bosh tortsa, surishtiruvchi yoki tergovchi ularni ochishga haqlidir. Bunda zarurat bo'lmaganida qulflar, eshiklar va boshqa narsalarning shikastlantirilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda uydagi saranjomlik buzilmasligi lozim.

Shaxsiy olib qo'yish deganda, shaxsning kiyimida, yonida yoki badanida ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar mavjudligi aniqlanib, ularni qidirishning hojati bo'lmaganida o'tkaziladigan, keyinchalik ishga ashyoviy dalil sifatida qo'shib qo'yish maqsadida mazkur narsa va hujjatlarni olish tushuniladi. Shaxsiy olib qo'yish va shaxsiy tintuv o'tkazish qoidalari bir xil bo'lganligi bois o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatik daxlsizlik huquqiga ega diplomatiya vakillaridan olib qo'yish yoki tintuv quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining iltimosiga ko'ra yoki uning roziligi bilan diplomatiya vakolatxonasi joylashgan hududda olib qo'yish yoki tintuv o'tkaziladi;

2) diplomatiya vakolatxonasi xodimlari yoki ular oilasining voyaga yetgan a'zolari iltimosi yoki roziligi bilan o'zlari yashab turgan yoki egallab turgan boshqa binolarda olib qo'yish yoki tintuv o'tkaziladi;

3) diplomatiya vakolatxonasi xodimlari yoki ular oilasining voyaga yetgan a'zolari iltimosi yoki roziligi bilan ularga nisabatan shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkaziladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatik daxlsizlik huquqiga ega diplomatiya vakillaridan olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishga rozilik Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatik daxlsizlik huquqiga ega diplomatiya vakillaridan olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish chog'ida prokuror va Tashqi ishlar vazirligidan vakil ishtiroki ta'minlangan holda umumiy tartibda olib qo'yish va tintuv o'tkaziladi.

Narsa va hujjatlarni olib qo'yish jarayoni va natijalari bayonnomada aks ettiriladi. Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qayerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma-bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralishi va muhrlanishi lozim. Olib qo'yish vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilishga yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu hol surishtiruvchi yoki tergovchi ko'rgan choralar ham ko'rsatilib bayonnomada aks ettirilishi lozim.

Olib qo'yish to'g'risidagi qaror va bayonnomaning nusxasi sud majlisining ko'chirma nusxasi olib qo'yish o'tkazilgan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a'zolariga, ular bo'lmagan taqdirda esa, tegishli hokimlik yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi. Zarur hollarda mazkur shaxslarga olib qo'yilayotgan hujjatlarning nusxalari beriladi.

## **6.11. Tintuv**

Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir. Tintuv o'tkazishda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlarni qidirish zarurati bo'ladi. Bundan tashqari, tintuv qidirilayotgan shaxsni, shuningdek, murdani topish uchun ham o'tkaziladi.

Tintuv o'tkazish haqida surishtiruvchi yoki tergovchi chiqargan qaror yoxud sud chiqargan ajrimning mazmuni olib qo'yish haqidagi qaror yoki ajrimlar mazmuniga o'xshash bo'ladi. Olib qo'yishdan farqli o'laroq, surishtiruvchi yoki tergovchining tintuv o'tkazish haqidagi asoslantirilgan qaroriga prokurorning sanksiyasi olinishi shart.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuv prokurorning sanksiyasiz o'tkazilishi mumkin, lekin bunday holda keyinchalik shu o'tkazilgan tintuv haqida 24 soat ichida prokurorga xabar qilinadi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar surishtiruvchi yoki tergovchining prokurorga yuborgan xabarnomasida asoslantirilishi lozim. Xabarnomaning nusxasi ishga qo'shib qo'yiladi.

Olib qo'yishda bo'lgani kabi tintuv o'tkazishda ham xolislar, zarurat bo'lgan taqdirda mutaxassis va tarjimon ham ishtirok etadilar, shuningdek, xonadon egasi ishtiroki ta'minlanishi shart.

Tintuv o'tkaziladigan joyga yetib kelgandan so'ng xonadon egasi yoki tashkilot vakiliga qaror tanishtiriladi, bu haqda imzo qo'ydiriladi. Tintuv qilinayotganlarga, xolislariga, mutaxassislarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilishidan avval tintuvning maqsadi, ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntiriladi. Bunday arz bayonnomaga kiritiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi tintuv o'tkazilayotgan binoda yoki o'zga joyda turgan shaxslarning tintuv tamom bo'lguniga qadar shu bino yoki joydan chiqib ketishini, shuningdek, ularning bir-birlari bilan yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishini taqiqlab qo'yishga haqlidir.

Surishtiruvchi, tergovchi tintuv o'tkazishga kirishayotganida qaror yoki ajrim taqdim etganidan so'ng, olib qo'yilishi kerak bo'lgan narsa va hujjatlarni berishni taklif qiladi. Basharti ular ixtiyoriy ravishda berilsa, olib qo'yish bayonnomasi tuziladi, ammo qidirilayotgan narsa yoki hujjatlar berilmasa yoxud to'liq holda topshirilmagan bo'lsa, tintuv o'tkaziladi. Tintuv o'tkazish haqidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan narsa yoki hujjatlar qidiriladi va olinadi. Ish uchun ahamiyatga molik boshqa narsa yoki hujjatlar, shuningdek, saqlanishi taqiqlangan ashyolar topilgan taqdirda, ular ham olib qo'yilishi kerak. Surishtiruvchini, tergovchini bu narsa yoki hujjatlarni olib qo'yishga undagan asoslar tintuv o'tkazilganligi haqidagi bayonnomada aks ettiriladi.

Shaxsiy tintuv deganda, shaxsning yonidagi, kiyimlaridagi yoki badanidagi ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarni qidirish, topilganlarini olib qo'yish tushuniladi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi faqat jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin (JPK 224-moddasi tartibida) shaxsni ushlagan taqdirda, unda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, uni shaxsiy tintuv qiladi.

Shaxsiy tintuv ham surishtiruvchi yoki tergovchining prokuror sanksiyasi olingan qarori asosida o'tkaziladi. Biroq quyidagi hollarda shaxsiy tintuv alohida qaror yoki ajrim chiqarilmasdan ham o'tkazilishi mumkin:

1) gumon qilinuvchini ushlab chog'ida ushlanuvchining yonida qurol borligiga yoxud jinoyat sodir etganligini fosh qiladigan dalillardan qutulmoqchi ekanligiga yetarli asoslar bo'lganda;

2) gumon qilinuvchi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinib, uni ushlab haqida bayonnoma tuzilganda;

3) ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilayotganida, basharti uning yonida qurol, shuningdek, saqlanishi man etilgan buyumlar yoxud ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar bo'lishi mumkin deb o'ylashga yetarli asoslar bo'lganida;

4) olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan binoda yoki boshqa joyda turgan shaxs olib qo'yish va tintuv o'tkazish haqidagi qarorga yoki ajrimga ko'ra olinishi zarur bo'lgan narsa yoki hujjatlarni o'z yonida yashirincha saqlamoqda deb o'ylash uchun yetarli asoslar bo'lganida.

Shaxsiy tintuv tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi mutaxassis va xolislar ishtirokida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatik daxlsizlik huquqiga ega diplomatiya vakillaridan tintuv o'tkazish xuddi shunday olib qo'yish o'tkazishdagi maxsus talablarga rioya etgan holda umumiy tartibda amalga oshiriladi (JPK 165-m.).

Olib qo'yishda bo'lgani kabi, tintuv o'tkazilganda ham surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzadi. Bayonnomaning bir nusxasi tintilgan shaxsga topshiriladi.

## **6.12. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olib qo'yish**

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shaxslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta-telegraf jo'natmalarida sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo'lganda, ushbu jo'natmalarni ushlab turish, ko'zdan kechirish, zurrur bo'lsa olib qo'yish yoki undan nusxa ko'chirish tushuniladi.

Xatlab qo'yilishi mumkin bo'lgan pochta-telegraf jo'natmalariga barcha turdagi xatlar, telegrammalar, radiogrammalar, banderollar, posilkalar, pochta konteynerlari kiradi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olib qo'yish anchagina o'ziga xos jihatlarga ega. Sudga qadar ish yuritishda pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi masala JPK 166-167-moddalarida belgilangan tartibda, sud bosqichlarida pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash esa JPK 423, 438-moddalarida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

Sudga qadar ish yuritishda pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olib qo'yish uchun prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Mazkur qarorda: xat-xabarlari ushlab turilishi lozim bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; bu shaxsning doimiy yashash joyi manzili; xatlanayotgan pochta-telegraf jo'natmalarining turlari; xatlash chorasining muddati; jo'natmalarni ushlab turish va bu haqda prokurorga, tergovchiga yoki surishtiruvchiga ma'lum qilish majburiyati yuklatilgan aloqa muassasasining nomi ko'rsatiladi. Qarorga

iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi. Tergovchining yoki surishtiruvchining pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi.

Prokuror pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomaning asosliligini tekshirib, unga rozi bo‘lgan taqdirda, qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudning, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, materiallar kelib tushgan paytdan e‘tiboran qirq sakkiz soatdan kechiktirmay yopiq sud majlisida, yakka tartibda ko‘rib chiqiladi. Sud majlisida prokuror, zarurat bo‘lgan hollarda tergovchi, surishtiruvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan bo‘lsa, himoyachi va qonuniy vakil ham ishtirok etadi. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish prokurorning ma‘ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur tergov harakatini o‘tkazish zaruratini asoslab beradi, so‘ngra taqdim qilingan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi. Sudya pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risida yoki pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Sud ajrimi o‘qib eshittirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi ajrim tegishli aloqa muassasasining boshlig‘iga yuboriladi va uni bajarish mazkur boshliq uchun majburiydir. Bu ajrimni bajarmaganlik yoki uning mazmunini oshkor etganlik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Aloqa muassasasining boshlig‘i sud ajrimida ko‘rsatilgan xat-xabarlar va boshqa jo‘natmalarni ushlab turadi hamda bu haqda prokurorga, tergovchiga, surishtiruvchiga yoki sudga darhol ma‘lum qiladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi aloqa muassasasiga borib, ushlangan pochta-telegraf jo‘natmalarini xolislar ishtirokida, zarurat bo‘lganda esa,

tegishli mutaxassis ishtirokida ochib, ko‘zdan kechiradi. Ish uchun ahamiyatga molik ma’lumotlar, hujjatlar, narsalar topilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi pochta-telegraf jo‘natmalarini olib qo‘yadi yoxud ulardan nusxa ko‘chirish bilan chegaralanadi. Agar ko‘zdan kechirilgan jo‘natmalarda ish uchun ahamiyatga molik ma’lumotlar, hujjatlar, narsalar bo‘lmasa, surishtiruvchi, tergovchi ularni egalariga yetkazish yoki o‘zi belgilagan muddatgacha ushlab turish haqida ko‘rsatma beradi.

Ushlangan jo‘natmalar ko‘zdan kechirilgan har bir holda bayonnoma tuzilib, unda qaysi pochta-telegraf jo‘natmalari ko‘zdan kechirilganligi, nimalar olinganligi va nimalar egalariga yuborilishi, nimalar esa vaqtincha ushlab qolinishi kerakligi, qaysi jo‘natmalardan nusxalar olinganligi ko‘rsatiladi.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorning roziligi bilan yoki bu chorani qo‘llashga zarurat qolmasa, sud tomonidan bekor qilinadi. Surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida ish tugatilganda, birinchi instansiya sudida esa, ishni tugatish haqida ajrim chiqarilganda yoxud hukm qonuniy kuchga kirgach, xatlab qo‘yish chorasi bekor qilinadi.

### **6.13. Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish**

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish deganda, ish uchun ahamiyatga ega ma’lumotlarni olish maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda o‘zlarining roziligi bilan guvoh va jabrlanuvchilarning telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boradigan so‘zlashuvlarini eshitish va tegishli ovoz yozish moslamalari orqali yozib olish jarayoni tushuniladi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining bunday so‘zlashuvlarini eshitib turish surishtiruvchi yoki tergovchi prokurorning sanksiyasini

olib chiqargan qarorga binoan yoki sud ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi. Odatda, telefon yoki boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali bo'ladigan so'zlashuvlarni eshitib turish jabrlanuvchiga, guvohga, shuningdek, ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan kuch ishlatish, tovlamachilik yoki boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etish xavfi mavjud bo'lganda, bu shaxslarning arizalari bo'yicha yoki ularning yozma roziligi va prokurorning sanksiyasi bilan yoxud sudning ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi.

Surishtiruvchi, tergovchi kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, prokurorni keyinchalik darhol yozma ravishda xabardor etish sharti bilan, uning sanksiyasiz so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qarorni davlat xavfsizlik xizmati organlariga yuborishga haqlidir. Prokuror sanksiyasi olinmagan so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qaror bir sutka davomida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qaror yoki ajrimda eshitaladigan axborotning xususiyati va hajmi, shuningdek, so'zlashuvlarni eshitib turishning borishini va natijalarini qayd etish shakli belgilanishi kerak. Ushbu hujjat davlat xavfsizlik xizmati organlariga ijro etish uchun yuboriladi. So'zlashuvlarni eshitib turish olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish chog'ida ovoz yozish moslamalari qo'llaniladi. So'zlashuv fonogrammasi aks ettirilgan magnit tasmasi tergov harakati bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

Eshitib turish va ovoz yozishni amalga oshirgan shaxs ishga aloqador so'zlashuvlar fonogrammasi mazmunining qisqacha bayonnomasini tuzadi. Fonogramma muhrlanadi va bayonnomaga qo'shib qo'yiladi, uning ish uchun ahamiyatli bo'lmagan qismi hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin yo'q qilinadi.

Eshitib turish va ovoz yozish bayonnomasida abonent raqami, eshitib turish va ovoz yozish vaqti va joyi, foydalanilgan texnikaviy



vositalar turi va modeli, bu ishlarni amalga oshirgan shaxslarga oid ma'lumotlar hamda ish uchun ahamiyati bo'lishi mumkin deb hisoblangan boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

#### **6.14. Ekspertiza**

Ekspertiza dalillarni to'plash va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashga xizmat qiladigan muhim tergov harakati hisoblanadi. Tergov harakatlari mazmunan jinoyat ishi bo'yicha isbotlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va qayd etishda ifodalanadigan protsessual harakatlar bo'lib, jinoyat protsessida haqiqatni aniqlashga yo'naltirilgan. Tergov harakatlarini turli mezonlar va xususiyatlardan kelib chiqib tasniflash mumkin. Ekspertiza maqsadiga ko'ra dalillar to'planadigan, o'tkazish tartibi va xususiyatiga ko'ra mas'ul shaxsning qarori (ajrimi)ga asosan maxsus bilim egasi amalga oshiradigan, qo'lga kiritiladigan natijalarga ko'ra isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashga xizmat qiladigan, bilvosita va yozma dalillar olinadigan tergov harakatlariga kiradi. Ekspertiza tergov harakatining jinoyat ishlarini yuritishdagi o'rni beqiyos.

Ekspertiza deganda ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki muayyan kasb sohasida bilimga ega shaxs tomonidan maxsus tekshiruv o'tkazish orqali olishdan iborat tergov harakati tushuniladi. Soddaroq ta'riflaganda oddiy ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlaganda anglash qiyin bo'lgan ma'lumotlarni ko'pchilik uchun tushunarli tarzda ifodalash jarayoni tushuniladi. Masalan, o'g'rilik sodir etilgan xonadondan topilgan odam barmog'ining izlari aynan kimga tegishliligini aniqlash uchun maxsus bilimlar talab etiladigan tekshiruv o'tkazilishi shart va ushbu tekshiruv natijasida barmoq izi kimga tegishli ekanligi haqidagi ekspertning fikri yozma ravishda bayon etiladi. Maxsus tekshiruvni o'tkazadigan mutaxassis, ya'ni ekspert tekshiruv natijalari bo'yicha xulosa yoki xulosa berishning iloji yo'qligi haqidagi hujjat tuzadi.

Ekspertiza tergov harakati sifatida shakllanishi anchagina qadimga borib taqaladi. Jumladan, davlatchilik vujudga kelgan davrda sodir etilgan qotillik jinoyatlarida haqiqatni aniqlash maqsadida ekspertiza tekshiruvlari o'tkazilganligi tarixdan ma'lum. Ekspertiza tergov harakati tergovga qadar tekshiruv davomida ham, dastlabki tergov va keyingi bosqichlarda ham o'tkazilishi mumkin. Ekspertiza tayinlash uchun jinoyat haqidagi ariza yoki boshqa xabarni tekshirish yoxud jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida, ya'ni maxsus bilim talab etiladigan tekshiruv o'tkazish orqali ma'lumot to'plash zarurligi asos bo'lib hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksda alohida belgilangan ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishi shart bo'lgan holatlarga: o'limning sababi, vaqti va kelib chiqish mexanizmi; yetkazilgan tan jarohatining xususiyati, yetkazilish mexanizmi, og'irlik darajasi, inson tanasidagi boshqa izlarning kelib chiqishi sabablari; jinsiy aloqada bo'lganlikni, uning xususiyatlarini, jinsiy aloqa, shuningdek, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish natijasida qoladigan izlar; homiladorlik holati, homilaning sun'iy yo'l bilan tushirilganligi, tug'ilgan farzandning otasi kimligi, murdaning shaxsi, insondan qoldirilgan biologik materiallarning va izlarning kimga tegishliligi; shaxsning yoshi, ruhiy va jismoniy ahvoli, o'z harakatlarini va boshqa holatlarni idrok etish va idora qilish, javobgarlikning ahamiyatini tushunish, ko'rsatuvlar berish va huquqlarini mustaqil himoya qila olish layoqati; muayyan kasallikka chalingan shaxslarni davolash zarurligi va imkoniyatlari; moddaning turi, miqdori, ishlov berilganligi, mahsulotning xususiyatlari, tayyorlanishi, iste'molga yaroqliligi; texnik vositalarning xususiyatlari, imkoniyatlari, ishlatishga yaroqliligi, undan foydalanilganligi va uning buzilganligi; valuta, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlarning, san'at asarlarining qalbakilashtirilganligi; portlashlar, halokatlar yong'inlar va boshqa favqulodda hodisalar kelib chiqishining texnikaviy sabablari; video, audioyozuvlarning montaj qilinganligi; dastxatning va ovozning kimga tegishliligi; hujjatning qaysi texnik vosita yordamida tayyorlanganligi, bosib chiqarilganligi yoki nashr qilinganligi; kompyuter tizimiga

kirilganligi, kompyuter axborotiga ishlov berilganligi, kompyuter dasturlari yaratilganligi, oʻrnatilganligi, axborot uzatilganligi, oʻzgartirilganligi, oʻchirilganligi, kompyuter tizimi buzilganligi; hayvonlar, parrandalar, baliq va oʻsimlik turlarining nobud boʻlish sabablari; epidemiya (epizootiya) tarqalishi sabablari; yer yuza qatlami, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanish darajasi; ekin yetishtirish maqsadida yerga ishlov berilganligini aniqlash zarur boʻlgan holatlar kiradi.

Oʻlimning sababini aniqlash zarurati qotillik sodir etilganligi yoki yoʻqligiga oydinlik kiritish uchun yuzaga keladi. Masalan, sud-tergov amaliyotida uchrab turadigan suv havzalaridan inson murdasi topilganda sud tibbiy ekspertiza tayinlanib oʻlimning sababi aniqlanadi. Xuddi shu kabi har bir tekshiruv oʻtkazilishi va aniqlanishi zarur boʻlgan holatdan kelib chiqqan holda tegishli ekspertiza turi tayinlanadi. Ekspertiza tadqiqoti obykti va xususiyatidan kelib chiqqan holda 50 dan ortiq ekspertiza turlari tayinlanishi mumkin. Ekspertiza obyektlari boʻlib protsessual va tergov harakatlari jarayonida olingan ashyolar, ekspert tekshiruvi uchun olingan namunalar, yaʼni tirik insonning, murdaning, hayvonning, oʻsimlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini oʻzida aks ettiruvchi namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va uning qismlari, hujjatlar, shuningdek, jinoyat ishi materiallari hisoblanadi. Jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari yoʻl-transport hodisasi bilan bogʻliq holatda ekspertiza tadqiqoti uchun muhim obyekt hisoblanadi. Ish materiallarining tadqiq etilishi ekspert tomonidan haqqoniy xulosa berilishiga xizmat qiladi. Ekspertiza tadqiqotining toʻliqligi, xulosasining aniq va asosli boʻlishi ekspert oldiga hal etish uchun qoʻyilgan savollar mazmuni va yoʻnalishiga ham bogʻliq.

Tekshiruvga taqdim etiladigan obyektlar hajmidan kelib chiqib, agar ularning oʻlchamlari va xossalari imkon bersa, oʻralgan va muhrlangan holda boʻlishi zarur. Ekspertiza obyektlari ashyoviy dalillarni saqlash qoidalariga rioya etilgan holda saqlanishi kerak. Ushbu obyektlarning bus-butun va yaroqli holda saqlanishi uchun

surishtiruvchi, tergovchi yoki sud, ekspertiza o'tkazishda esa, ekspert mas'ul hisoblanadi.

Jinoyat ishini yuritish bosqichlarida protsessual tartibga ko'ra tayinlanadigan ekspertizaning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- 1) birlamchi;
- 2) qo'shimcha;
- 3). qayta.

Shuningdek, ekspertizaning murakkabligiga ko'ra oddiy va murakkabga, murakkab ekspertizaning o'zi esa maxsus bilimlar talab etilishidan kelib chiqib, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarga ajratiladi.

Birlamchi ekspertiza deganda ish bo'yicha olingan ashyo yoki namunaga nisbatan o'tkaziladigan ilk ekspertiza tadqiqoti tushuniladi. Masalan, hodisa sodir bo'lgan joydan topilgan qizg'ish rangli qonga o'xshash dog'larga nisbatan dastlab ushbu moddaning qonmi yoki boshqa modda ekanligiga oydinlik kiritish maqsadida biologik ekspertiza tayinlanadi.

Qo'shimcha va qayta ekspertiza avval tadqiq qilingan obyektни yana tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ekspertiza deganda birlamchi ekspertiza xulosasidagi kamchilik va bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida aynan o'sha obyekt(lar)ga nisbatan o'tkaziladigan keyingi ekspertiza tadqiqoti tushuniladi.

Qayta ekspertiza deganda esa dastlabki tekshiruv natijasida berilgan xulosa yetarlicha asoslantirilmagan, ishonchli bo'lmagan yoki bunga shubha tug'dirgan yoxud ekspertiza talablari jiddiy buzilganda ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida aynan o'sha obyekt(lar)ga nisbatan o'tkaziladigan keyingi tekshiruv tushuniladi.

Jinoyat ishlarini yuritishda qo'shimcha va qayta ekspertizalar o'tkazilishiga tergovchining bilimsizligi va tajribasiligi bilan birga ekspertning xatosi ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ekspert oldiga hal etish uchun zarur bo'lgan savolning to'g'ri qo'yilmaganligi yoki

tekshiruv uchun taqdim etiladigan obyektning yetarli miqdorda emasligi yoki shikastlanganligi ekspertiza natijalarining to'liq, yetarlicha ishonchli va asosli bo'lmasligiga, shuningdek, ekspertning bilimsizligi va tajribasizligi ham xulosaning to'liq bo'lmasligiga, noaniq va shubhali bo'lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, suv havzasidan topilgan inson jasadiga nisbatan sud tibbiy ekspertizasini o'tkazish uchun taqdim etilayotgan obyekt sifatida murda topilgan suv havzasidan namuna taqdim etilmasligi, agarda o'lim sababi sifatida tana o'pkasi va nafas yo'llariga suv kirishi oqibati ekanligi aniqlansa, aynan qaysi suv havzasidagi suvga cho'kish yuz berganligi noaniq qolishiga olib keladi. Ushbu holatda qo'shimcha ekspertiza tayinlashga zarurat paydo bo'ladi. Agarda ushbu suv havzasi kichik bo'lsa va undagi suv almashtirilgan yoki qolmagan bo'lsa, yo'l qo'yilgan xatoni bartaraf etish imkoniyati ham yo'qoladi.

Birlamchi ekspertiza natijalarida bayon etilgan fikrlarga aynan qaysi tadqiqot natijasida kelinganligi ifodalanmagan, shuningdek, haqqoniyligi shubha tug'diruvchi, ishdagi boshqa dalillar mazmuniga jiddiy tarzda zid keladigan xulosa olinganda qayta ekspertiza tayinlashga asos vujudga keladi. Masalan, suv havzasidan topilgan murdaga nisbatan tayinlangan ekspertiza natijasida berilgan xulosada o'limning sababi sifatida zaharlanish oqibati deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aynan qanday modda ta'sirida zaharlanish yuz berganligi, o'limning yuz berishiga sabab bo'lgan zaharlanish alomatlari qaysi tadqiqot natijasida aniqlanganligi xulosada keltirilmasligi qayta ekspertiza tayinlashga asos bo'lishi mumkin.

Oddiy turdagi ekspertizalar bir sohaga oid bilimga ega shaxs tomonidan oddiy tekshiruv asosida o'tkaziladi. Murakkab ekspertizalar esa, bir necha soha yoki bir ixtisoslikdagi bir necha ekspert tomonidan chuqur tekshiruv o'tkazish zarur bo'lganda tayinlanadi. Murakkab ekspertizalar ham o'z navbatida tekshiruv xususiyatidan kelib chiqib, bir ixtisoslikdagi bir necha ekspert tomonidan o'tkaziladigan *komissiyaviy* va turli ixtisoslikdagi ekspertlar o'tkazadigan *kompleks* ekspertizalarga

ajratiladi. Masalan, keyinchalik o'lim kelib chiqqan badanga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyat sodir etilgan holatlarda o'limning sababini va jarohatning og'irlik darajasini aniqlash murakkab tekshiruvlarni talab etganda, komissiyaviy sud-tibbiy ekspertizasi tayinlanishi mumkin, lekin tergov amaliyotida ko'pincha qo'shimcha tayinlanadigan ekspertizalar ekspertlar komissiyasiga topshiriladi. Shuningdek, nomusga tegish jinoyatlari, shaxsi noma'lum murdaning (yonib ketgan, suyak qoldiqlaridan) shaxsini aniqlash bilan bog'liq ishlarda komissiyaviy sud-tibbiy ekspertiza tayinlanadi. Masalan, shaharlararo avtomobil yo'lining aholi yashamaydigan qismiga yaqin joyda badanining turli joylarida tan jarohatlari va nomusga tegish alomatlari bo'lgan, bo'g'ib o'ldirilgan ayol kishining jasadi topilgan holatda komissiyaviy sud-tibbiy ekspertiza o'tkazilishi zarur.

Kompleks ekspertiza esa sovuq yoki o'q otar quroldan foydalanib sodir etilgan qotillik yoxud badanga shikast yetkazish jinoyatlariga oid ishlar bo'yicha ham tibbiy soha, ham fizik-texnik bilimlar talab etiladigan tekshiruvlar o'tkazilishi zarur bo'lganda tayinlanadi. Shuningdek, yo'l-transport hodisalari sodir etilishi oqibatida odam o'limi yuz berganda ham avtotexnik, sud-tibbiy, biologik va boshqa ekspertizalarni o'ziga qamrab olgan kompleks ekspertiza tayinlanishi mumkin. Masalan, tungi payt tumanlararo avtomobil qatnov yo'li yoqasida joylashgan qishloqda yashovchi fuqarolar 15 yoshli opa va 12 yoshli singil qo'shnisidan uyiga qaytayotganida yo'ldan o'tayotgan yuk mashinasi singlisini urib yuborganligini, buni eshitgan otasi, akalari va boshqa qarindoshlari yuk mashina haydovchisini qo'l-oyoqlari va boshqa qattiq jismlar bilan urib uning badaniga tan jarohati yetkazganligini aytgan 15 yoshli opaning so'zlaridan IIBga berilgan xabar asosida hodisa sodir bo'lgan joyga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi vafot etgan 12 yoshli singilning jasadini ko'mishga va janozasini o'tkazishga tayyor turgan olomonga duch keladi. Ushbu vaziyatda bir necha turdagi ekspertiza tayinlanishi orqaligina haqiqatga oydinlik kiritish mumkin va ekspertiza o'tkazish uchun jasadni, hodisa sodir

bo'lgan joydan olingan boshqa ashyolarni ekspertiza muassasasiga olib borish talab etiladi hamda kompleks ekspertiza, ya'ni jasadga va yuk mashinasining egasiga nisbatan sud tibbiy, fizik-texnik, yuk mashinasiga va jasadga nisbatan avtotexnik va boshqa zarur ekspertizalar o'tkazish orqali ish uchun ahamiyatli bo'lgan ishonchli dalillarni qo'lga kiritish imkoni mavjud. Ammo marhumning yaqinlari ekspertiza uchun jasadni berishga qarshilik qiladigan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish masalasi anchagina jiddiy muammoga aylanadi. Bu kabi holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organning mas'ul mansabdor shaxslaridan diplomatlaracha aloqa o'rnatish, qat'iyatlilik va xushmuomalalilik, yuqori darajadagi madaniyatlilik va vazminlik, chiroyli nutq egasi bo'lishni, shuningdek, tezkorlikni va tashkilotchilikni talab etadi.

Murakkab ekspertizalarni o'tkazishda ekspertlar komissiyasining har bir a'zosi o'zaro kelishilgan holda mustaqil va alohida tekshiruv olib boradi, olingan natijalarni baholaydi va qo'yilgan savollarning yechimiga oid fikrlarini shakllantiradi.

Komissiyaviy ekspertiza o'tkazish natijasida umumiy xulosa tuziladi. Kompleks ekspertizada esa komissiyaning har bir a'zosi o'zi o'tkazgan tadqiqot jarayoni va uning natijasida kelgan fikrlarini xulosada bayon etadi. Xulosa yakunida umumiy fikr shakllantiriladi va bayon etiladi. Murakkab ekspertizalar natijalarini baholashda va umumiy fikrlarni shakllantirishda kelishmovchiliklar yuz berganda har bir a'zo alohida xulosa berishi mumkin.

Ekspertiza mustaqil tergov harakati sifatida protsessual qoidalar talablariga mos ravishda o'tkazilishi shart. Ekspertiza jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza tayinlash uchun avvalo asos bo'lishi zarur. Ushbu asos protsessual va tergov harakatlari natijasida olingan ma'lumotlarni maxsus tekshiruv o'tkazish orqali aniqlashtirish zarurligida ifodalanadi. Bunday zaruratning mavjudligi ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da bayon etilishi orqali ekspert tomonidan tekshirish o'tkazish majburiyati yuzaga keladi. Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim)da, JPK 180-moddasida

belgilanganidek, ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan holatlar, yuborilayotgan ashyolar va boshqa obyektlar, ushbu obyektlarning qachon, qayerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi, obyekt sifatida jinoyat (tergovga qadar tekshiruv) ishi materiallari taqdim etilayotganda ekspert xulosasi asoslanishi kerak bo'lgan ishdagi materiallar, ya'ni tushuntirish xatlari, so'roq va ko'zdan kechirish bayonnomalari hamda ularning ilovalari, fotosurat va chizmalar, hal etish uchun qo'yilayotgan savollar, ekspertizani o'tkazuvchi muassasa yoki ekspertning familiyasi ko'rsatilishi kerak. Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda ekspertning familiyasi ko'rsatilayotgan bo'lsa, ekspertning muomala layoqatiga egaligi, qasddan sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati (JPK 174-modda), shuningdek, JPK 76, 78-moddalarda belgilangan holatlar yo'qligi tekshirilishi shart. Shuningdek, qarorda ekspert huquq va majburiyatlari tushuntirilganligi hamda javobgarlik haqida ogohlantirilganligi haqidagi qaydlar yozilishi mumkin. Ekspertiza tayinlayotganda bu haqda qaror (ajrim) chiqarayotgan mas'ul shaxs ekspert bilan maslahatlashishi mumkin. Ekspertiza o'tkazilayotganda ekspert tajriba namunalarini tayyorlashi, eksperiment yoki tajriba harakatlarini o'tkazishi, shuningdek, boshqa tergov harakatlari jarayonida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan ishtirok etib, u yerdagi shaxslarga ekspertiza predmetiga oid savollar berishi mumkin.

Belgilangan protsessual qoidalarga amal qilgan holda tekshiruv o'tkazilganidan so'ng ekspert xulosa tayyorlaydi. Ekspertiza xulosasi zaruriy rekvizitlardan iborat bo'lgan protsessual hujjat, ya'ni yozma dalil hisoblanadi. Xulosada JPK 184-moddasida ko'rsatilgan holatlar bayon etiladi, shu jumladan hal etish uchun qo'yilgan savollar, tekshiruv predmeti, tekshiruv paytida ishtirok etgan shaxslar, qo'llanilgan usullar, ekspert tekshiruvi mazmuni va natijalari, ularning baholanishi, ekspert o'z tashabbusiga ko'ra aniqlagan ish uchun ahamiyatli holatlar ko'rsatiladi. Xulosani va tekshiruv natijalarini tasvirlovchi materiallar ilova qilinadi. Xulosa, tekshirish obyekti ekspertizani tayinlagan organ



(mansabdor shaxs)ga yuboriladi. Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror ham ekspertiza xulosasi ham aniq, ravon va tushunarli tarzda yozilishi kerak. Qisqartma so'zlar va muayyan fan sohasiga oid atamalardan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Ekspertiza o'z vaqtida, protsessual muddatlar doirasida tayinlanishi va o'tkazilishi zarur. Ekspertiza tayinlangandan so'ng uzog'i bilan bir oylik muddat ichida tekshiruv yakunlanib, xulosa chiqarilishi zarurligi belgilangan.

Qo'yilgan savollarni ekspertning bilimlari doirasida hal etish mumkin bo'lmasa, tergovga taqdim etilgan obyektlar yaroqsizligi yoki yetarli emasligi va ularni to'ldirish mumkin bo'lmaganda yoxud fan va sud-ekspertiza amaliyotining holati savollarga javob topish imkonini bermaganda xulosa berishning imkoni yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuziladi hamda ekspertiza tayinlagan organ (shaxs)ga yuboriladi.

Ekspert xulosasi JPK 95-moddasida belgilangan talablarga ko'ra baholanadi, bunda ishdagi mavjud boshqa dalillar bilan birgalikda xulosaning aloqadorligi, ishonchliligi va maqbulligiga baho beriladi. Shu o'rinda ekspert xulosasiga dastlab baho beriladi deyilishi maqsadga muvofiq, chunki baho berishda xulosani dalil sifatida hisoblash kerakligi yoki yo'qligiga baho beriladi. Qayd etish joizki, tergovchi ekspert xulosasini dalil deb hisoblasa-da, JPK talablariga ko'ra u muqarrar kuchga ega emasligi belgilangan. Baho berilganidan so'ng ekspert xulosasi ish bo'yicha muayyan protsessual qarorga kelish va uni asoslash uchun yetarliligi (ishdagi mavjud boshqa dalillar bilan birga) nuqtai nazaridan baholanadi. Bunday baholash jinoyat ishini qo'g'atish yoki qo'zg'atishni rad etish, shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi va boshqa qarorlarda, ayblov xulosasida aks ettiriladi. Ekspert xulosasiga baho berish va baholashning ajratilishi xulosaning tashkiliy-shakliy talablarga javob berishi hamda mazmunan ish uchun ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqadi. Tashkiliy va shakliga ko'ra xulosa dalil deb e'tirof etiladimi yoki yo'qligiga baho berilsa, xulosaning mazmuni isbotlash predmetiga oydinlik kiritishi va ish yuzasidan muayyan

to'xtamlarga kelish va qarorlar qabul qilish uchun asos bo'la olishi baholash natijasida aniqlanadi. Masalan, baho berishda ekspert xulosasi JPK talablari asosida tayyorlanganligi, majburiy rekvizitlarga (ekspert tomonidan imzolanganligi, muhr bosilganligi, tuzilgan sanasi va h.k.) egaligi, qaysi qarorga asosan o'tkazilganligi, qarorning qonuniy tarzda chiqarilganligi tekshiriladi. Agarda tergovchining yurituvdagi ish bo'yicha surishtiruvchi tomonidan chiqarilgan qarorga asosan ekspertiza o'tkazilgan bo'lsa, uning xulosasi maqbul dalil hisoblanmaydi. Baholashda ekspert xulosasining mazmuni jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga qanchalik oydinlik kiritishi, qilmishni huquqiy baholash uchun va protsessual qaror qabul qilish uchun asos bo'la olishi oydinlashtiriladi. Ya'ni ekspert oldiga qo'yilgan savollarga berilgan javoblar mazmuni o'rganiladi, o'limning sababi, tan jarohatining og'irlik darajasi va yetkazilish mexanizmi, yo'l-transport hodisasining kelib chiqish sababi va uning oldini olish imkoniyati mavjudligi, moddaning turi va boshqa holatlarga oid fikrlar tahlil qilinadi hamda tasmollar (jinoyat sodir etilganligi yoki aksincha) ilgari surilib, muayyan to'xtamlar (jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqidagi va h.k.) shakllantiriladi.

Ekspert xulosasiga baho berish va uni baholashda zarur bo'lsa, ekspert so'roq qilinishi mumkin. Bunda ekspert guvoh maqomiga ega bo'ladi.

Amaldagi JPKda ekspertiza tergov harakati ishni yuritishga ko'maklashuvchi boshqa ishtirokchi hisoblangan ekspert tomonidan faol harakatlar orqali o'tkazilishi, natijalari va xulosasi ishda to'g'ridan to'g'ri dalil hisoblanishi, qolaversa gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyalanih huquqini ta'minlash maqsadida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari belgilab qo'yilgan. JPK 179-moddasiga ko'ra ular:

- 1) ekspertiza o'tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishib chiqish va o'ziga berilgan huquqlar tushuntirilishini talab qilish. Bu haqda bayonnoma tuziladi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi;

- 2) ekspertni rad etish;
- 3) o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini iltimos qilish;
- 4) ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish;
- 5) ekspertiza o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, sudning ruxsati bilan hozir bo'lish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'llayotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish;
- 6) ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Sanab o'tilgan huquqlardan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxs ham, agar bunga uning ruhiy holati imkon bersa, foydalanadi.

Ushbu huquqlarning belgilanganligi jinoyat ishlarini yuritishning demokratik tamoyillari hamda inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## **6.15. Taftish**

Taftish moliya-xo'jalik hujjatlaridagi qaydlar bilan taqqoslagan holda mavjud tovar-moddiy boyliklar va valutani hisob-kitob qilishdir. Taftish deganda, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar haqidagi ma'lumotlarni tekshirilayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarini o'rganish hamda taqqoslab ko'rish yo'li bilan olish maqsadida o'tkaziladigan protsessual harakatlar tushuniladi. Taftish surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlanadi.

Taftish o'tkazish uchun tayinlangan shaxslar tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxslarini yoki vakillarini taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlar bilan taftish o'tkazish boshlangu-niga qadar

tanishtirishi, shuningdek, tekshiruvlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga yozuv kiritishi shart.

Taftish tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalari tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga imzo qo'ydirib topshirilgan, shuningdek, ular xizmat guvohnomasi va taftishga ruxsat berish to'g'risidagi maxsus guvohnoma bilan tanishtirilgan payt taftish o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarni olish va ular bilan tanishishdan bosh tortishi taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili tegishli hujjatlarni olish va ular bilan tanishishdan bosh tortgan taqdirda, taftish o'tkazish uchun tayinlangan shaxs tomonidan uning o'zi va tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili imzolaydigan bayonnoma tuziladi. Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili mazkur bayonnomaning imzolashdan bosh tortgan taqdirda, unga tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Mazkur holda bayonnoma imzolangan payt taftish o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili taftish o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, axborotni va materiallarni taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlar olinganidan va ular bilan tanishib chiqilganidan keyin taqdim etishi shart.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili hujjatlarni, axborot va materiallarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs bundan buyonggi protsessual harakatlarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladigan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga bu haqda darhol xabar qiladi.

Hujjatlarni olib qo'yish zarur bo'lgan taqdirda, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror olib qo'yish to'g'risida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Olib

qo'yish Jinoyat-protsessual kodeksning olib qo'yish tartibi belgilangan moddalaridagi qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxs zarur bo'lgan taqdirda, tekshirilayotgan subyektning hududi va binolarini tekshiruvdan, shuningdek, mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazishi mumkin.

Taftish tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan masalalarni o'rganish soliq, valutaga oid, buxgalteriya to'g'risidagi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxsning tekshirilayotgan subyektning hududiga va binolariga (turar joylar bundan mustasno) kirishiga to'sqinlik qilingan, shuningdek, taftishni amalga oshirish uchun uning mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazish rad qilingan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxsning o'zi va tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili tomonidan imzolanadigan bayon-noma tuziladi. Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, unga tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Bayonnoma bundan buyongi protsessual harakatlarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladigan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etiladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxsning tekshirilayotgan subyektning hududiga va binolariga (turar joylar bundan mustasno) kirishiga to'sqinlik qilinganligi, shu jumladan ushbu subyektning mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazish rad etilganligi, shuningdek, taftish o'tkazuvchi shaxsning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilinganligi qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxslarning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilinganligi uchun javobgarlikka tortish taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma topshirilgan kun taftish o'tkazish tugallangan kun deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomani olishdan bo'yin tovlagan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga bu haqda tegishli yozuv kiritadi va shu paytdan e'tiboran taftish tugallangan deb hisoblanadi. Mazkur holda taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan subyektga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili turgan joy noma'lum bo'lgan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalarini tekshirilayotgan subyektning yuridik manziliga va uning mansabdor shaxsining yashash joyi manziliga uch ish kuni ichida buyurtma xat bilan yuboradi. Bunday holda buyurtma xat yuborilgan sana taftish o'tkazish boshlangan sana deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining yo'qligi taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Bunday holda taftish tekshirilayotgan subyektning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi, ishda mavjud bo'lgan hujjatlar, axborot va materiallar asosida o'tkaziladi.

Tekshirilayotgan subyektning hujjatlari, axboroti va materiallari yo'qotilgan, yo'q qilingan yoki mavjud bo'lmagan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan masalalarni o'rganishni soliq, valutaga oid, buxgalteriya to'g'risidagi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma tekshirilayotgan subyektning yuridik manziliga va dalolatnomaning ko'chirma nusxasi tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yashash joyiga buyurtma xatlar bilan yuborilgan kun taftish o'tkazish tugallangan kun deb hisoblanadi.

Taftish o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan iboratdir.

Zarur bo'lgan taqdirda, tekshirilayotgan subyektning hujjatlari

hajmi, faoliyatining turi va ko‘lamlari hisobga olingan holda, taftish muddati moliya-xo‘jalik faoliyatining taftishini o‘tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o‘rinbosarining roziligiga ko‘ra yoxud sudning ajrimi bilan:

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan o‘ttiz kalendar kunga;

davlat organlari va tashkilotlariga, shuningdek, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq miqdorda bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilishning JPKda belgilangan muddatlaridan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Taftish o‘tkazuvchi shaxslar o‘tkazilgan taftish natijalariga ko‘ra dalolatnoma tuzadi.

Taftish natijalari to‘g‘risidagi dalolatnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) taftish o‘tkazilgan joy, dalolatnoma tuzilgan sana;

2) taftish o‘tkazish uchun asoslar;

3) taftish o‘tkazilgan muddat;

4) taftish o‘tkazgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi;

5) yuridik shaxsning to‘liq nomi, tekshirilayotgan davrda uning rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirgan mansabdor shaxslarining familiyasi, ismi, otasining ismi (yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi);

6) tekshirilayotgan subyektning joylashgan yeri (pochta manzili), bank rekvizitlari, shuningdek, uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

7) tekshirilayotgan subyekt moliya-xo‘jalik faoliyatining ilgarigi tekshiruvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

8) tekshirilayotgan davr hamda taftish o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar, axborot va materiallar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar;

9) qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarining (ular mavjud bo'lgan taqdirda) batafsil tavsifi qonun hujjatlarining buzilgan normalariga havola qilingan holda;

10) o'tkazilgan taftish natijalariga doir, shu jumladan qonun hujjatlarining buzilishlari mavjud emasligi to'g'risidagi xulosalar.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma kamida uch nusxada tuziladi.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning barcha nusxalari taftish o'tkazuvchi shaxslar tomonidan imzolanadi. Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga topshiriladi, u dalolatnomaning barcha nusxalariga olganligi to'g'risida olish sanasini ko'rsatgan holda imzo qo'yishi shart. Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning qolgan nusxalari taftish material-lariga qo'shib qo'yiladi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomadagi imzosi uning taftish natijalaridan rozi ekanligini bildirmaydi.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organ-ning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalari, taftish doirasida sodir etilgan harakatlar to'g'risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, taftish o'tkazish chog'ida olingan materiallar, shuningdek, taftish doirasida sodir etilgan harakatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qo'shib qo'yilishi kerak.

Taftish tugallangan kundan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmay taftish materiallari taftish o'tkazish vakolatiga ega bo'lgan organda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi va taftishni tayinlagan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etilishi kerak.

Taftish o'tkazgan organ taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning tasdiqlangan ko'chirma nusxasini qonuniy choralar ko'rilishi uchun tegishli vakolatli organga ham yuboradi.



Tadbirkorlik subyektlarini taftish qilish yuridik xizmat vakillari va (yoki) jalb etilgan advokatlar albatta ishtirok etgan holda (tadbirkorlik subyekti mazkur huquqdan voz kechgan hollar bundan mustasno) o‘tkaziladi.

Yuridik xizmat vakilining ishtirokidan va (yoki) advokatning yuridik yordamidan voz kechish taftishning keyingi bosqichlarida tadbirkorlik subyekti tomonidan ularni jalb etish uchun to‘siq bo‘lmaydi.

Taftish o‘tkazuvchi shaxs tadbirkorlik subyektining vakolatli vakiliga uning taftish o‘tkazishda ishtirok etishga yuridik xizmat vakilini va (yoki) advokatni jalb etishga yoxud ularning ishtiroki-dan voz kechishga bo‘lgan huquqini taftish o‘tkazish boshlanguniga qadar yozma shaklda tushuntiradi va bu haqda bayonnoma tuziladi.

Agar tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxsi yoki vakili tomonidan yuridik xizmat vakilini va (yoki) advokatni jalb etish niyati bildirilsa, taftish o‘tkazishning boshlanishi yuridik xizmat vakili va (yoki) advokat yetib kelguniga qadar, biroq ko‘pi bilan yigirma to‘rt soatga to‘xtatib turiladi.

Yuridik xizmat vakilining va (yoki) advokatning yigirma to‘rt soat ichida yetib kelish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, taftish ularning ishtirokisiz boshlanadi.

Taftish o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi quyidagi hujjatlarning mavjud bo‘lishi tadbirkorlik subyektini taftish-dan o‘tkazishning majburiy shartidir: taftish tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim; vakolatli organning taftish o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i; taftish o‘tkazuvchi shaxsning xizmat guvohnomasi; taftishga ruxsat berish to‘g‘risidagi maxsus guvohnoma.

## **6.16. Ekspertiza uchun namunalar olish**

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish deganda, keyinchalik ekspertiza tayinlash va tekshirish obyekti sifatida ekspertga taqdim etish maqsadida tirik insonning, murdaning, hayvonning, o‘simlikning,

buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalari olish tushuniladi.

Tirik odamdan: biologik – qon, soch, so‘lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik – dastxat; anatomik – teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; ovoz xususiyatlari va kasb malakasini aks ettiruvchi namunalari olinadi. Murdadan ham biologik va anatomik namunalari olinadi.

Hayvonning terisi, juni, tuyoq izlari, axlatidan namunalari olinadi. O‘simlik, buyum, material va moddalardan namuna sifatida ularning tadqiqot uchun zarur bo‘lgan miqdordagi qismi (ikki, uch dona, bir necha gramm) olinadi.

Namunalari olish ekspertiza tadqiqoti uchun zarur bo‘lganda va ikki holatda amalga oshiriladi: birinchisi, namunaning o‘zini chuqur tadqiq etish, ikkinchisi avval tadqiq etilgan predmet bilan taqqoslash, ya‘ni aynanlashtirish maqsadida. Masalan, ommaviy zaharlanish bilan bog‘liq jinoyatlarga oid ishlarda mahsulotlarning namunalari chuqur tadqiq qilish, o‘g‘irlik bilan bog‘liq jinoyat ishlarida shaxslarning barmoq izlari hodisa sodir bo‘lgan joydan topilgan barmoq izlari bilan solishtirish maqsadida olinadi. Tergov amaliyotida ko‘pincha shaxslardan tegishli namunalari olish alohida tergov harakati sifatida o‘tkaziladi, boshqa turdagi namunalari olish esa boshqa tergov harakatlari jarayonida amalga oshiriladi.

Mantiqan olganda namunalari olish natijasi ekspertiza o‘tkazish uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qiladi. Alohida tergov harakati sifatida namunalari olishni tugallangan harakat deb bo‘lmaydi. Chunki olingan namunalari ish uchun ahamiyatli ekanligi ekspertiza xulosasida aniqlanadi. Shuning uchun namunalari olish harakatini mustaqil tergov harakati sifatida e‘tirof etmaydigan olimlarning fikrlari o‘rinli ko‘rinadi.

Namunalari olish nafaqat alohida harakat sifatida, balki boshqa tergov harakatlari jarayonida ham amalga oshiriladi. Masalan, ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish, tintuv, murdani eksperimentalni qilishda ham namunalari olinadi, bu haqda ushbu tergov harakati bayonnomasiga qayd etiladi.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud haqli bo‘lib, tirik insondan tegishli namunalar olish haqida qaror (ajrim) chiqariladi. Namunalar olish jarayoniga shifokor yoki mutaxassis jalb qilinishi mumkin. Shuningdek, namunalar olish yechintirib yalang‘ochlash bilan bog‘liq bo‘lsa yoki alohida kasb mahoratini talab qilsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning topshirig‘iga ko‘ra tibbiy mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, shuningdek, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxslardan hamda yetarlicha asoslar bo‘lganda boshqa shaxslardan ham namunalar olinadi.

Shaxsga nisbatan o‘tkazilayotgan ekspertiza, shaxsdan ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish jarayonida qo‘llaniladigan usullar og‘riq bermaydigan hamda hayot va sog‘liq uchun xavfsiz bo‘lishi talab etiladi. Ushbu talabga rioya etilgan holda ekspertiza ham, namunalar olish ham majburiy tarzda o‘tkazilishi mumkin. Agarda ekspertiza tekshiruvi va namunalar olish jarayonida kuchli og‘riq beruvchi usullardan foydalanish zarur bo‘lsa, shaxsning roziligi olingandan so‘ng ushbu harakatlar o‘tkaziladi. Shaxs 16 yoshga to‘lmagan yoki aqli noraso bo‘lsa, uning qonuniy vakili, vasiysi yoki homiylarining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Namunalar olish jarayonida ikki nafar xolis ishtirok etishi shart. Shaxsni yalang‘ochlash bilan bog‘liq namunalar olish jarayonida qatnashuvchilar bir xil jinsda bo‘lishlari kerak.

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish jarayoni va natijalari bayonnomada aks ettiriladi. Bayonnoma surishtiruvchi, tergovchi tomonidan JPKning 90–92-moddalariga asosan tuziladi.

## **6.17. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish**

Ayrim jinoyat ishlari bo‘yicha fuqarolar tomonidan muayyan narsa, ashyo, buyum va hujjatlar ish uchun ahamiyatga ega deb baholanib, ishga qo‘shib qo‘yish uchun surishtiruvchi, tergovchi va sudga taqdim

etiladi. Shu bilan birga, surishtiruvchi, tergovchi va sud ham ayrim narsa va hujjatlarni fuqarolardan, korxonada, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan talab qilib oladilar.

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish deganda, ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan yoki ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni ishga qo'shib qo'yish maqsadida, uning egasi tashabbusi bilan yoki ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga ko'ra taqdim etilishi tushuniladi.

Taqdim etish harakati ikki xususiyatiga ko'ra turlarga ajratiladi:

- 1) taqdim etiladigan obyektga ko'ra;
- 2) tashabbus subyektiga ko'ra.

Taqdim etiladigan *obyektga ko'ra ikki turga* bo'linadi:

- 1) narsalarni taqdim etish;
- 2) hujjatlarni taqdim etish.

Tashabbus *subyektiga ko'ra ham ikkiga* bo'linadi:

- 1) narsa va hujjat egasining tashabbusiga ko'ra taqdim etish;
- 2) surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga ko'ra taqdim etish.

Taqdim etish harakati ham dalillarni to'plashga, ham kelgusi tergov harakatlarini o'tkazish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. Dalillarni to'plash maqsadida o'tkazilgan taqdim etish natijasida olingan narsa va hujjatlar belgilangan tartibda ishga qo'shib qo'yiladi.

Narsa egasining tashabbusiga ko'ra taqdim etish harakati dalillarni to'plashga xizmat qiladi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ish uchun ahamiyatli bo'lishi va dalil deb e'tirof etish mumkin bo'lgan narsalar kimda va qayerdaligini bilsalar, taqdim etish tergov harakatini emas olib qo'yish yoki tintuv tergov harakatini o'tkazadilar. Faqat hujjatlarni taqdim etishni talab qilish yoki vaziyatga ko'ra olib qo'yish yoxud tintuv tergov harakatini o'tkazish orqali olishlari ham mumkin. Ammo jinoyat ishi qo'zg'atishdan avval tergovga qadar tekshiruv o'tkazish paytida ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan hujjatlar faqat taqdim etish orqali talab qilib olinadi.

Tergov harakatlarini o'tkazishga sharoit yaratish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi va sudning talabiga ko'ra taqdim etish quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

1) eksperiment o'tkazishda tekshirilayotgan hodisaning holatini va sharoitini qayta tiklash uchun foydalaniladigan o'xshash narsalar yoki maketlar;

2) tanib olish uchun ko'rsatilayotgan narsa bilan turdosh bo'lgan narsalar;

3) tergov yoki sud harakatlarini yuritish yoxud ekspert tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moslamalar, asbob-uskunalar, anjomlar, materiallar, agar bunday narsalar surishtiruvchi, tergovchi yoki sudda yoxud ularning topshirig'i bo'yicha harakat qilayotgan mutaxassis, ekspert yoki ekspertiza muassasasida bo'lmasa. Zarurat qolmagach, bu narsalar egasiga qaytariladi.

Narsa va hujjatlarni taqdim etish jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning faol ishtirokini ifodalash bilan birga isbotlash jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki ushbu harakat jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar kuchlari bilan jamoatchilikning bir maqsad sari intilishi ko'zga tashlanadi.

Faqat ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim etish natijalari belgilangan tartibda bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada umumiy rekvizitlar bilan birga narsa yoki hujjatni taqdim etgan shaxs haqida ma'lumotlar, ushbu shaxsning taqdim etgan narsa va hujjatni ishga qo'shib qo'yish haqidagi iltimosi, narsa va hujjatni ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari, narsa va hujjatni ish uchun ahamiyatli yoki ahamiyatli bo'lishi mumkin deb topilganda, u olinganligi, aksincha holatda esa, u taqdim etgan shaxsga qaytarib berilganligi ko'rsatiladi. Narsa va hujjat olinganda uni taqdim etgan shaxsga bayonnoma nusxasi beriladi. Narsa va hujjat egasiga qaytarib berilganida esa, uni ishga qo'shib qo'yish haqidagi iltimosni rad etish haqida qaror chiqariladi.

Muayyan tergov harakatlarini o'tkazishga sharoit yaratish maqsadida vaqtincha foydalanish uchun talab qilingan narsalarning olinganligi va qaytarib berilganligi tilxat orqali rasmiylashtiriladi.

Jinoyat ishi bo'yicha, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv davomida (JPK 329-moddasi) surishtiruvchi, tergovchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslardan, fuqarolardan hujjatlar va yozma tushuntirish berishni talab qilishga haqli. Shu bilan birga, korxonalar, muassasalar, tashkilot rahbarlaridan o'z vakolatlari doirasida hujjatli taftish yoki xizmat tekshiruvi o'tkazib taftish yoki tekshiruv dalolatnomasini taqdim etishlarini ham talab etishlari mumkin. Bunda hujjat yoki ma'lumot taqdim etish so'rovnomalar, yozma topshiriqlar orqali talab qilinadi. Ushbu tartibda taqdim etilgan tushuntirishlar, hujjatli taftish dalolatnomasi, xizmat tekshiruvi xulosasi yoki boshqa hujjatlar ishga maxsus rasmiylashtirilmasdan qo'shib qo'yiladi.

### **6.18. Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish**

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish haqida so'z yuritishdan avval dalillar haqida qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiq.

Dalil deganda, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-yuz bermaganligini, shu qilmishni kim sodir etganligini va uning sodir etilishida kimlar aybliligini hamda ishni haqqoniy hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan, qonunda belgilangan tartibda to'plangan ma'lumotlar tushuniladi. Dalillar ashyoviy yoki yozma bo'lishi mumkin.

Ashyoviy dalillar deganda, kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki joyi o'zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsalar, jarayonlar, hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar va belgilarga ega bo'lgan narsalar

tushuniladi. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan hujjatlar ham ashyoviy dalil sifatida e'tirof etiladi. Ashyolar tegishli tergov harakati jarayonini aks ettiruvchi bayonnoma orqali rasmiylashtirilganidan keyingina va ashyoviy dalil sifatida e'tirof etilib, ishga qo'shish haqida qaror chiqarilganidan so'ng dalilga aylanadi.

Yozma dalillar deganda so'z, raqam, chizma yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni saqlash, o'zgartirish, berish uchun mo'ljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar tushuniladi. Shuningdek, tergov harakatining bayonnomasi, sud majlisi bayonnomasi va ularning ilovalari ham yozma dalil hisoblanadi. Hujjatlar va boshqa yozuvlar JPK 205-moddasida belgilangan tartibda olinishi bilan maxsus rasmiylash-tirilmasdan yozma dalil sifatida ishga qo'shiladi (JPK 202-modda).

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish deganda ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotga ega narsalar, hujjatlar yoki boshqa yozuvlarning ish uchun ahamiyatligini aniqlash va belgilangan tartibda ishga qo'shib qo'yishdan iborat jarayonlar tushuniladi.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish ikki usulda amalga oshiriladi:

- 1) ashyoviy dalil sifatida ishga qo'shish;
- 2) yozma dalil sifatida ishga qo'shish.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish alohida tergov harakati sifatida e'tirof etilmaydi, ammo ko'pgina tergov harakatlari natijalarini ifodalaydigan va ularga baho berish amalga oshiriladigan harakat hisoblanadi.

Ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlar olinganda ko'zdan kechiriladi va tegishli tergov harakati bayonnomasida ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari qayd etiladi. Ko'zdan kechirishda narsa yoki hujjatning ish uchun ahamiyatli, shuningdek, uni boshqa narsa va hujjatlardan farqlovchi o'ziga xos belgilari aniqlanadi. Ko'zdan kechirish natijasida ish uchun ahamiyatli

belgilarga (ma'lumotlarga) ega ekanligi aniqlangan narsa va hujjatlarni ashyoviy dalil deb e'tirof etish va uni ishga qo'shib qo'yish haqida qaror chiqariladi. Ushbu qarorda ashyoviy dalilni ishda qoldirish yoki uni saqlab turish uchun topshirish masalasi hal qilinadi. Ashyoviy dalillar JPK 210-moddasiga asosan egasiga qaytariladi yoki ashyoviy dalillar masalasi JPK 211-moddasi talablari asosida hal etilgunga qadar belgilangan tartibda saqlab turish uchun topshiriladi.

Ishga ashyoviy dalil sifatida qo'shib qo'yilgan pul, qimmatli qog'ozlar, valuta boyliklari, zargarlik buyumlari va qimmatbaho metallardan, qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlar, shuningdek, bunday buyumlarning rezgilari mutaxassis ishtirokida ko'zdan kechirilib, saqlash uchun surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisobiga topshiriladi. Boshqa narsalar surishtiruv, dastlabki tergov organining ashyoviy dalillarni saqlash xonalarida, tegishli moddiy javobgar shaxs mas'ulligida saqlanadi. Tez buziladigan narsalar, uy hayvonlari, parrandalar va boshqa hayvonlarni egasiga qaytarib berish mumkin bo'lmaganda, ular qarab turish yoki belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish uchun tegishli korxonalar, muassasa, tashkilotlarga topshiriladi.

Jinoyat ishi bo'yicha saqlash uchun topshirilgan ashyoviy dalillar masalasi hukmda, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yoki ajrimda JPK 211-moddasida belgilangan qoidalar asosida hal etiladi.

Jinoyat ishi boshqa tergov organiga o'tkazilayotganda, prokuror yoki sudga yuborilayotganda ashyoviy dalillar ro'yxat qilinib, birma-bir sanab ko'rsatiladi, har bir ashyoviy dalilning qayerda ekanligi qayd etiladi va ushbu ro'yxat ishga ilova qilinadi.

Ashyoviy dalillar yo'qolganda yoki shikastlanganda kelib chiqadigan masalalar JPK 212-moddasiga asosan hal etiladi.



## VII BOB. PROTSESSUAL MAJBURLOV

### 7.1. «Protsessual majburlov» tushunchasi, turlari

Amaldagi JPKga muvofiq, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazgan (jinoiyat sodir etgan) subyektlarga nisbatan davlat tomonidan belgilangan ta'sir choralari tegishli organlar (muassasalar), mansabdor shaxslar va shaxslar majburiy tartibda qo'llashi mumkin. Bunda davlat majburlovining shakli bo'lgan jinoiyat-protsessual majburlov qo'llaniladi. Jinoiyat-protsessual majburlov choralari qo'llashdan maqsad protsess ishtirokchilarining zimmasidagi majburiyatlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek, jinoiyat ishlarini yuritish uchun maqbul bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Jinoiyat ishini yuritish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud qabul qiladigan turli xil protsessual qarorlar va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan protsessual harakatlardan tashkil topadi. Ushbu qaror va harakatlar u yoki bu tarzda jinoiyat protsessining u yoki bu ishtirokchisining huquq va manfaatlariga daxldor bo'ladi. Ushbu qarorlarga xos jihat shundaki, ular ba'zan jiddiy xususiyatga ega bo'lgan muayyan cheklovlar bilan bog'liq bo'ladi, ba'zan protsessning u yoki bu ishtirokchisiga o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishiga cheklovlar bilan bog'liq jiddiy ta'sir choralari ham qo'llaniladi.

Bunday cheklovlarning imperativ xususiyati jinoiyatlarni ochish, muayyan shaxsning sodir etilgan jinoiyatga aloqadorligini ko'rsatuvchi dalillarini aniqlash va tegishli ravishda uni jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq jinoiyat-protsessual vazifalardan kelib chiqadi. Jinoiyat-protsessual faoliyat, avvalo, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan faoliyat sifatida amalga oshiriladi va ushbu majburlov tegishli protsessual majburlov choralari o'z ifodasini topadiki, ular jinoiyat protsessi u yoki bu ishtirokchisining noqonuniy va g'ayrihuquqiy manfaatlariga teskari munosabatda bo'ladi. Aynan shu bois jinoiyat-

protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga jinoyat protsessi vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilinishini ta'minlash maqsadida turli majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq keng protsessual vakolatlar berilgan.

*Jinoyat-protsessual majburlov* deganda, jinoyat protsessining vazifalari samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga tahdid tug'diruvchi noqonuniy qilmishlarning oldini olish maqsadida, qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va belgilangan tartibda vakolatli subyektlar tomonidan jinoyat protsessining ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy, mulkiy va tashkiliy tavsifdagi huquqiy cheklovlar ko'rinishidagi davlatning ta'sir choralari yig'indisi tushuniladi.

Majburlov choralari o'zining mazmuni va oqibatlari bo'yicha farqlanadigan tegishli hokimiyat harakati tarzida amalga oshiriladi. Sud majlisida tartibni buzgan, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmagan yoki sudni behurmat qilgan taqdirda tartibbuzarga nisbatan JPKning 272-moddasiga muvofiq choralari qo'llaniladi.

Sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan shaxs (sudlanuvchi, ayblovchi va himoyachi bundan mustasno) raislik qiluvchi tomonidan sud zalida chiqarilgan ajrimga asosan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ajrim sud majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Jinoyat ishini yuritishda Jinoyat kodeksining 230–241-moddalarida nazarda tutilgan odil sudlovga qarshi jinoyatlarni sodir etgan surishtiruvchi yoki tergovchi JPKning umumiy qoidalari bo'yicha javobgarlikka tortiladilar. Bu odil sudlovga qarshi jinoyatlarni sodir etgan protsess ishtirokchilariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilishini va ular jinoiy javobgarlikka tortilishini bildiradi.

Protsessual majburlov choralari jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta'minlash uchun zarur bo'lgan taqdirda qo'llaniladi.

Jinoyat-protsessual majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

–ushlab turish;

–ehtiyot choralari;

–lavozimdan chetlashtirish;

–majburiy keltirish;

–shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish;

–protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash;

–surishtiruv, dastlabki tergov va sudda protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik.

Shu bilan birga, majburlov xususiyatiga ega boshqa protsessual harakatlar ham mavjud. Jumladan tintuv, olib qo'yish, guvohlantirish, ekspertiza, mol-mulkni xatlash kabi harakatlar maqsadi, huquqlarni cheklash darajasi va ta'sir doirasiga ko'ra majburlov choralaridan farq qilishi bois ular boshqa protsessual harakatlar tizimiga kiradi.

## **7.2. Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari**

Shaxs huquqlarini cheklash jiddiy chora bo'lganligi bois faqat yetarlicha asoslar bo'lgandagina va qonunda belgilangan tartibda qo'llanilishi mumkin. Amaldagi JPKga ko'ra jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov yoki sud harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotganligi, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta'minlash zarurligi majburlov chorasini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Protsessual majburlov choralari qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sud ajrimida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi. Qonunda belgilangan birgina istisno bu – jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin faqat tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini JPKning 221 va 224-

moddalarida belgilangan hollarda va tartibda qo'llashi mumkin. Majburlov chorasini qo'llashning asosliligi majburlov chorasi qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda qo'llanilishi va bu haqidagi qaror yetarlicha asoslantirilgan bo'lishi shartligini anglatadi. Ya'ni majburlov chorasi o'zboshimchalik bilan, tasdiqlanmagan yoki ishonchli bo'lmagan dalillarga tayanib qo'llanilishi mumkin emas.

*Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi* deganda, qonunda belgilangan tartibda majburlov chorasi qo'llaniladigan shaxsning o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatining odil sudlovni ta'minlash maqsadiga erishishga to'sqinlik qilmaydigan hamda shaxs huquq va erkinliklari ortiqcha cheklanmasligini, qonuniy manfaatlarga zarar yetmasligini ta'minlaydigan darajada, miqdorda bo'lishi tushuniladi.

Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi hamma ishlarda ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Jinoyatning og'irlik darajasi, kelib chiqqan oqibat va boshqa bir qancha holatlarni e'tiborga olgan holda shaxs huquqlari qonunga muvofiq turli darajada cheklanadi. Shaxs huquqlarini cheklash chegarasi majburlov chorasini qo'llashda e'tiborga olinadigan, qonunda belgilangan holatlar, axloq qoidalari, chorani qo'llash vaqtidagi mavjud vaziyatga mutanosib bo'lishi kerak.

Jiddiy tarzda huquqlar cheklanadigan majburlov choralari qo'llanilganda shaxs huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetmasligini ta'minlash maqsadida qonuniy kafolatlar belgilangan. Ushbu kafolatlar nafaqat majburlov chorasi qo'llanilgan shaxs, balki boshqa shaxslarning ham huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan. Qonuniy kafolatlar shaxsni saqlash sharoitlari, ta'minoti, qarovsiz qolmasligi, muayyan huquqlardan foydalana olish, mol-mulki daxlsizligi, xabardor bo'lish (bilish) kabilarni ta'minlaydi.

Ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish protsesual majburlov chorasi qo'llangan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan barcha huquqlarga egadirlar va shu hujjatlarda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajaradilar, shu bilan birga, ularga nisbatan vaqtincha

saqlash hibsonasi yoki tergov izolatoridagi tartibga oid cheklashlar qo‘llanilishi mumkin.

Huquqlarni cheklash nuqtai nazaridan eng og‘ir bo‘lgan protsessual majburlov choralari – ushlab turish, qamoqqa olish yoki tibbiy muassasaga joylashtirish, uy qamog‘i qo‘llangan shaxslarga nisbatan g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘lish mumkin emas, bu mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan halqaro huquqiy hujjatlarning normalariga to‘liq mutanosibdir.

Mamlakatimiz qonunlariga muvofiq ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan, uy qamog‘i qo‘llanilgan shaxsga himoyalani huquqini to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash maqsadida u saqlanayotgan joyda o‘zining himoyachisi bilan xoli uchrashish, qonun hujjatlaridan foydalanish imkoniyati, shikoyat, iltimosnoma va boshqa protsessual hujjatlarni yozishi uchun ixtiyorida qog‘oz va yozuv jihozlari bo‘lishi ta‘minlanadi.

Aynan yuqorida keltirilgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash, tergov va sud muhokamasining adolatli bo‘lishi uchun ushlab turilgan va qamoqqa olinganlar saqlanadigan joy ma‘muriyati: ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarga advokat bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda undan maslahat olish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashi; qamoqqa olinganlarga ayblov xulosasining yoki dalolatnomasining nusxasini, shuningdek, sud hukmi va ajrimining nusxasini ular kelib tushgan kunda topshirishni ta‘minlashi; ushlanganlar va qamoqqa olinganlarning shikoyat, ariza va xatlarini ular ma‘muriyatga berilganidan keyingi kundan kechiktirmasdan tegishli joylarga jo‘natishi; qamoqda saqlanayotgan shaxsni surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida boshqa hududdagi tergov hibsonasiga ko‘chirishni ta‘minlashi; ushlab turilganlarni ushlab turish muddati tugagach, darhol ozod qilishi shart.

Protsessual majburlov choralari qo‘llanilganligi haqida albatta

shaxsning yaqinlariga xabar berilishi lozim. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ushlab turish tarzida, sud esa qamoqqa olish, uy qamog‘i va ekspertiza o‘tkazish uchun shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qo‘llaganida bu haqda yigirma to‘rt soatdan kechiktirmasdan uning oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda esa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek, bu haqda ish yoki o‘qish joyiga ma‘lum qilishi shart. Ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo‘lsa, yuqorida ko‘rsatilgan muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berilishi shart. Xabarnomaning nusxasi ishga ilova qilinadi.

Shaxs ushlangan, qamoqqa olingan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan bo‘lsa, bu holda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ushlab turilgan, qamoqqa olingan yoki ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxsning qarovsiz va yordamga muhtoj voyaga yetmagan farzandlari, keksaygan ota-onalari, boshqa qaramog‘idagilari bo‘lsa, ularni qarindoshlarining yoki boshqa shaxslar yoxud muassasalarning homiyligiga topshirish, majburlov chorasi qo‘llanilgan shaxsning nazoratsiz qolayotgan mol-mulki yoxud uy-joyi bo‘lsa, ularni qo‘riqlash chorasini ko‘rishi shart.

Oila a‘zolari, qarindoshlar yoki yaqin shaxslarga – ota-ona, farzandlar, er, xotin, farzandlikka olgan shaxslar, farzandlikka olinganlar, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar, buva, buvi, nabiralar, shuningdek, hayoti, farovonligi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga ularning o‘zaro shaxsiy munosabatlari tufayli aziz bo‘lgan boshqa shaxslar kiradi.

Xabar berish telefon qo‘ng‘irog‘i, chopar orqali, yozma shaklda yoki boshqa umum e‘tirof etilgan usulda amalga oshirilishi mumkin. Xabar berish ushlab turish, qamoqqa olish yoxud ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi majburlov choralari qo‘llanilgan paytdan boshlab 24 soat ichida amalga oshirilishi kerak.

### 7.3. Ushlab turish

Jinoyat protsessida dastlab tergovga qadar tekshiruv o'tkaziladigan bo'lsa, eng birinchilardan qo'llaniladigan majburlov chorasi ushlab turishdir. *Ushlab turish* deganda, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etishdan iborat protsessual majburlov chorasi tushuniladi.

Gumon qilinuvchini ushlab turish protsessual majburlov chorasi bo'lib, jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin ushlab turish faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Ushlab turishning asosiy maqsadi dalillarni to'plash uchun sharoit yaratish bilan birga odil sudlovning muhimroq manfaati – gumon qilinuvchini surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinish, jinoiy faoliyatini davom ettirish va boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etish imkoniyatlaridan mahrum qilish hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan gumon qilinuvchini ushlab turish chorasini ma'muriy ushlab turish va qamoqqa olish ehtiyot choralaridan farqlash zarur. Jinoyat-protsessual tartibda ushlab turishda shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan bo'ladi. Shaxsni ma'muriy ushlab turish esa shaxsning kimligini aniqlash, huquqbuzarlikni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqdan ushlab turish bir necha belgilari bilan farq qiladi: birinchidan, ushlab turish ko'pincha ehtiyot choralari qo'llanilishidan avval amalga oshiriladi. Ikkinchidan, protsessual majburlov sifatida u faqat ishni sudga qadar yuritish chog'ida qo'llanilishi mumkin. Ehtiyot chorasi esa tergov o'tkazish chog'ida, shuningdek, jinoyat protsessining sud bosqichlarida hukm qonuniy kuchga kirgunicha qo'llaniladi. Bundan tashqari, ehtiyot chorasini prokuror va sud tanlashi mumkin. Uchinchidan,

ushlab turish muddati qisqa bo'lib, qamoq ehtiyot chorasini qo'llash muddati ko'proq. To'rtinchidan, ushlab turilgan shaxs vaqtincha saqlash hibsxonasiga joylashtiriladi, qamoq qo'llanilgan shaxs esa tergov hibsxonasida saqlanadi.

Ushlab turish uchun albatta qonunda belgilangan asoslardan biri mavjud bo'lishi shart. Ushlab turish uchun asos bo'lib muayyan shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi faktik ma'lumotlar xizmat qiladi. Qonunda bunday asoslar to'rt guruhga ajratilgan. Ulardan aqalli bittasining mavjudligi shaxsni (gumon qilinuvchi tariqasida) ushlab turish huquqini beradi. JPK 221-moddasiga asosan jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turishga quyidagilar asos bo'ladi:

1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;

2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;

3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Gumon qilinuvchini ushlab turishning «shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa» asosining mazmuni tushunarli va unga chuqurroq to'xtalishga zarur yo'q.

«Jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar gumon qilinayotganni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar» asosi mazmunan jinoyat sodir etilishiga bevosita shohid bo'lgan, ya'ni o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxslar bu haqda ushlab turishni amalga oshirishga vakolatli mansabdor shaxsga aytishi, agar shaxs tanish bo'lsa ismini, yashash joyini ma'lum qilib, agar shaxs haqida ma'lumotga ega bo'lmasa, yaqinroq joydan qo'li bilan ko'rsatgan holda (tanib olishdagi singari) og'zaki aytishidir. Bunday ma'lumotlar qat'iy



hamda asosli bo'lishi kerak. Agar shohid jinoyat sodir etgan shaxsni aniq bilmasa, uning aybdorligiga shubhalansa, u holda uning ko'rsatuvlari ushlab turishga asos bo'lib xizmat qilmaydi. Qonunga muvofiq, jinoyat shohidi bo'lmagan shaxslarning ko'rsatuvlari shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ushlab turish uchun asos bo'la olmaydi.

«Gumon qilinuvchining o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa» asosidagi «o'zida» so'zi shaxsning qo'lida, og'zida, badanida yoki ichki a'zolarida izlar mavjudligini bildiradi. Kiyimida deganda shaxs ustidagi, ya'ni kiygan kiyimlarida, kiyimining cho'ntagida izlar mavjudligini tushunish zarur. «Yonida» deganda esa qo'lida olib yurgan, yelkasiga ilib olgan yoki beliga bog'lab olgan biror buyumda, qopda, qutida, qopchiqda izlar mavjudligi tushuniladi. «Uyida» deganda, gumon qilinuvchi jinoyat sodir etishdan avval yoki keyin amalda yashab turgan joyda izlarning mavjudligi tushuniladi. «Jinoyatning yaqqol izlari» deganda kelib chiqishiga ko'ra jinoyat sodir etilganligini to'g'ridan-to'g'ri va ochiq-oydin ko'rsatuvchi ashyolar, izlar, ya'ni jinoyat narsasi (predmeti), quroli kabilar tushuniladi. Bunda ushbu izlar shaxsning jinoyatga aloqadorligiga hech qanday shubha qoldirmasligi shart.

«Shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa» asosi mazmunidagi «shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar» deganda JPK 221-moddasi 1,2,3-bandlarida ko'rsatilganidan boshqa, gumon qilinayotgan shaxs jinoyat sodir etganligi yoki unga aloqadorligi haqidagi dalillar (masalan guvohlarning shaxsni jinoyat sodir etilgan joyda ko'rganligiga oid ko'rsatmalari, shaxsning hodisa joyidan topilgan barmoq izlari) tushuniladi. Ushbu dalillar shaxsning jinoyat sodir etganligi yoki unga aloqadorligi haqida shubha uyg'otishi bois yetarli bo'lmaydi, shuning uchun ushbu vaziyatda qo'shimcha shartlar mavjud bo'lishi kerakligi belgilangan. Ya'ni bunda shaxs qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud

shaxsi aniqlanmagan bo'lsagina uni ushlab turish mumkin. Qonunda boshqa ma'lumotlar oldindan nazarda tutish mumkin emas, chunki ular turli xil holatlar bo'lishi mumkin. Qonunda ushbu ma'lumotlar bo'yicha asossiz ravishda ushlab turishga yo'l qo'ymaslik uchun, ushlab turish shartlari ham nazarda tutilgan.

Ushlab turish uchun mazkur asoslardan birining mavjudligi shaxsni albatta ushlab turish shart degani emas. Qonunda ushlab turish asosliligining qo'shimcha kafolati sifatida gumon qilinuvchi ozodlikda qolsa, tergovdan yashirinishi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal berishi yoki jinoiy faoliyatini davom ettirishi mumkinligi borasida real xavf mavjud bo'lishi kerakligi belgilangan.

JPKning 222, 224, 227-moddalariga muvofiq, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish huquqiga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organning xodimi, shuningdek, har qanday muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxs ega.

Ushlab turish protsessual tartibiga ko'ra ikkiga ajratiladi: 1) jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turish; 2) jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng ushlab turish.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turish JPK 221-moddasida sanab o'tilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda JPK 224-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jumladan, ichki ishlar organi xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning asoslaridan bittasi mavjudligini bevosita ko'rib yoki boshqa shohidlarning so'zlaridan aniqlasa, gumon qilingan shaxsga o'zini tanishtirib, u jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlanganligini aytadi va undan yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qiladi. Shu bilan birga, ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berish yoki ko'rsatuv berishni rad etishga oid protsessual huquqlarini tushuntiradi, shuningdek, u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildiradi. Bunda ushlayotgan shaxs

ushlanayotgan shaxsning talabiga ko'ra shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi shart. Shaxs ushlanganda, unda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, darhol aynan uning jinoyat sodir etganligini oydinlashtirish maqsadida ikki nafar xolislar ishtirokida shaxsiy tintuv (olib qo'yish) o'tkaziladi. Shaxsiy tintuv o'tkazilishidan avval yoki keyin ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoki xabar berish huquqidan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ushbu harakatlar belgilangan tartibda bayonnomada rasmiylashtiriladi.

Shaxs jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turilganda tergovga qadar tekshiruv 24 soat davomida o'tkazilishi, 24 soat ichida jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasi hal etilishi kerak. Shuningdek, ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish, hujjatlarni talab qilish va ko'zdan kechirish ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soatdan kechiktirmay o'tkazilishi shart. Tekshiruv natijalariga ko'ra ushlab turish asoslari tasdiqlanmasa, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarori chiqariladi va shaxs ozod qilinadi.

Shu bilan birga, shaxs ushlab turilganda agar jinoyat ishi qo'zg'atish haqida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, ushbu shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish, unga nisbatan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarur yoki zarur emasligi masalasi ham hal etilishi shart. Ushbu masalalarni hal etish uchun ushlangan shaxsning jinoyatga aloqadorligini isbotlovchi dalillar to'planishi, jumladan uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar yig'ilishi, jinoyatni sodir etish holatlarini aniqlashtirish va ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish uchun tergov harakatlari o'tkazilishi kerak.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror chiqarilgan hollarda ushbu qaror bilan yoki u bilan bir vaqtda shaxs ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinadi. Ushlab turishga zarurat bo'lmasa,

ya'ni qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarur bo'lmasa, shaxs ozod qilinadi. Ushlab turishga zarurat bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin ushlab turish muddati tugagunga qadar quyidagi vazifalar hal etilishi kerak:

shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun dalillar to'plash va asoslar yetarli bo'lsa, unga ayb e'lon qilish;

JPK 109 – 112-moddalaridagi qoidalarga asosan, dastlab gumon qilinuvchi va ayb e'lon qilinganidan keyin ayblanuvchi tariqasida so'roq qilish;

JPK 236 – 240-moddalari qoidalariga amal qilgan holda qamoq, uy qamog'i yoki garov ehtiyot chorasidan birini tanlash;

qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror va zarur materiallarni prokuror orqali ushlab turish muddati tugashidan kamida sakkiz soat oldin sudga yuborish.

Alohida hollarda, ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot choralari qo'llanilishi mumkin. Bunda gumon qilinuvchiga u ushlangan kundan e'tiboran o'n kun ichida ayblov e'lon qilinishi kerak. Aks holda ehtiyot chorasi bekor qilinadi va shaxs qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod etiladi, garov esa garovga qo'yuvchiga qaytariladi.

Shaxsni ushlashda uning quyidagi himoyalanih huquqlari ta'minlanadi:

– qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinib ushlanganligini tushuntirish;

– advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoki xabar berish, ya'ni gaplashish, SMS yoki mobil internet yordamida xabar yuborish imkonini yaratish;

– ko'rsatuvlar berish yoki ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqini tushuntirish;

– bergan ko'rsatuvlari jinoyat ishiga oid dalil sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini ma'lum qilish.

Ushbu huquqlardan birontasi ta'minlanmasligi himoyalaniş huquqi buzilishi tariqasida baholanib, olingan dalillar nomaqbul deb topilishiga hamda sudlanuvchini oqlashga asos bo'ladi.

Qonunda ushlab turish, ushlab turilgan shaxsni shaxsiy tintuv qilish ushbu harakatlarning bayonnomasini tuzish chog'ida xolislarning ishtirok etishi nazarda tutilgan. Bu shaxsni vaqtincha saqlash hibsonasiga joylashtirishning zaruriy shartidir.

Gumon qilinuvchini ushlab turish bayonnomasida ushlab turishni amalga oshirayotgan shaxs (uning lavozimi, unvoni, familiyasi) haqidagi ma'lumotlar, ushlab turilgan shaxs (uning familiyasi, ismi-sharifi, tug'ilgan yili va joyi, ish joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat) haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Ushlab turilgan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng huquqni muhofaza qiluvchi organning navbatchisi yoki boshqa xodimi boshliqning ko'rsatmasiga binoan ushlab turish bayonnomasini tuzadi va unda kimning, kim tomonidan, qachon, qanday holatda, qonunda ko'rsatilgan qanday asoslarga ko'ra ushlanganligini; ushlangan shaxs qanday jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligini; ichki ishlar organi bo'limiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga u qaysi vaqtda olib kelinganligini aks ettiradi.

Ushlab turish nafaqat protsessual majburlov chorasi, balki ozodlikdan mahrum qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan holatlarni aniqlash vositasi hamdir. Shu bois bayonnomada ushlab turish asoslarini (masalan, shohidlar va jabrlanuvchilarning ushbu shaxsni jinoyat sodir etgan shaxs deb ko'rsatishlari, jinoyatchini jinoyat sodir etilgan joyda yoki uni sodir etgandan so'ng darhol, qo'lida jinoyat quroli bilan o'g'irlangan narsani tashish vaqtida ushlanganligi haqidagi ma'lumotlar va h.k.) ko'rsatish zarur. Ushbu asoslar shaxsni jinoyat sodir etganlikda fosh etuvchi muhim dalillardir.

Bayonnomada ushlab turish motivi, ya'ni ushlab turish haqida qarorga olib kelgan undovchi jihat, masalan, gumon qilinuvchi tergov va suddan

yashirinishi mumkinligi haqidagi xavf, ushlab turish soati, kuni, oyi, yili, joyi, ushlangan shaxsning tushuntirishlari va ushlab turish muddati boshlangan vaqt ko'rsatilishi shart. Bayonnomaga ushlab turishning asosligini tekshirish vazifasi topshirilgan xodim, ushlab keltirgan vakolatli shaxs yoki fuqaro, ushlangan shaxs va xolislar imzo chekadi. Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi tuzgan ushlab turish bayonnomasini ushbu organning boshlig'i tasdiqlaydi.

Ushlab turish bilan bir vaqtning o'zida shaxsiy tintuv o'tkazilganligi sababli, bu haqda ham bayonnoma tuziladi. Ushlab turish va shaxsiy tintuv haqida bayonnomalarni alohida-alohida tuzish kerak. Bu protsessual hujjatning to'liq va xolisona bo'lishini ta'minlaydi.

Ushlab turish haqida ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan e'tiboran o'n ikki soat ichida prokurorga yozma shaklda xabar berilishi shart.

Vakolatli shaxslar va fuqarolar noqonuniy yoki asossiz ravishda ushlaganlari uchun yoxud ushlab chog'ida o'z vakolatlaridan tashqari chiqqanlari uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Agar ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin amalga oshiriladigan bo'lsa, buning uchun qaror chiqarish zarur. Surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ushlab turish, gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarori asosida ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ xodimi shaxsni ushlaydi va JPK 224-moddasi qoidalariga rioya etgan holda eng yaqin ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga darhol olib boradi. Shaxs ushlanganligi to'g'risida ushlab turish haqida qaror chiqargan vakolatli shaxs darhol xabardor qilinishi lozim.

Ushlab turish muddati ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab hisoblanadi va ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etadi. Asoslar bo'lganda, ya'ni taraflar qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning asoslanganligi yoki asoslanmaganligiga doir qo'shimcha dalillarni taqdim etishlari uchun ushlab turish muddati sud qarori bilan yana

qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin. Shuningdek, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad qilingan va garov tarzidagi ehtiyot chorasini tanlangan taqdirda, gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini ushlab turish muddati garov kiritish imkonini berish uchun sud tomonidan ko‘pi bilan yana qirq sakkiz soatgacha bo‘lgan muddatga uzaytiriladi.

Ushlangan paytdan boshlab shaxs gumon qilinuvchi protsessual maqomiga ega bo‘ladi. Gumon qilinuvchi haqiqiy ushlangan paytdan boshlab o‘tgan vaqt ayblanuvchini qamoqda saqlash yoki uning uy qamog‘ida bo‘lishi hamda Jinoyat kodeksining 62-moddasida belgilanganiga mutanosib ravishda sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga kiritiladi.

Ushlangan shaxs ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so‘ng u ozodlikdan mahrum etish joyi hisoblanmagan xizmat binolarida saqlanadi yoki vaqtincha saqlash hibsonasi kamerasiga, ushlab turilgan harbiy xizmatchi esa gauptvaxtaga joylashtiriladi. Ushlab turilganlarni ayrim joylarda istisno tarzida maxsus moslashtirilgan binolarda, dengiz va daryo kemalarida esa, maxsus ajratilgan kayutalarda, jazoni ijro etish muassasalarida maxsus jihozlangan kameralarda saqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Ushlab turilgan shaxsga himoyachi bilan uchrashuvga JPK 46-moddasining birinchi qismida, 48-moddasining birinchi qismida va 230-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga ko‘ra ruxsat beriladi. Ushlab turilgan shaxsga qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvga ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma‘muriyati ushlab turish to‘g‘risidagi materiallar qaysi tergovchi yoki surishtiruvchining ish yurituvida bo‘lsa, faqat o‘sha tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsati asosida ijozat beradi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxs, agar:

- 1) jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa;
- 2) ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash zarurati bo‘lmasa yoki uni qo‘llash sud tomonidan rad etilsa;

3) ushlab turishning belgilangan muddati tugagan bo'lsa va ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan yoxud JPK 243-moddasi o'ninchi qismining 3-bandiga muvofiq ushlab turish muddati uzaytirilmagan bo'lsa, ozod qilinadi.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga binoan ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ozod qilish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushishi bilan darhol ijro etiladi.

Ushlab turilgan shaxsni bundan buyon ushlab turish uchun asoslar yo'qligi aniqlanishi bilanoq surishtiruvchi va tergovchi uni darhol ozod qilishlari shart.

Prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining ushlab turilgan shaxsni ozod qilish haqidagi qarori yoxud sudning uni ushlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi qonunda belgilangan ushlab turish muddati ichida ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushmasa, ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i bu shaxsni ozod qiladi va uning ozod qilinganligi to'g'risida prokurorga, tergovchiga yoki surishtiruvchiga bildirish xati yuboradi.

Zarur hollarda ushlab turilganlar saqlanadigan joyning ma'muriyati ozod qilingan shaxslarning yashash joyiga bepul jo'nab ketishini ta'minlaydi; ularning iltimosiga ko'ra, ushlab turilganlar saqlanadigan joyda bo'lgan vaqti haqida ma'lumotnoma beradi.

Shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa yoki JPK 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish tugatilgan bo'lsa, noqonuniy ushlab turish tufayli unga yetkazilgan ziyon to'liq hajmda qoplanadi.

#### **7.4. Ehtiyot choralari**

Odil sudlovni amalga oshirish jinoyatni o'z vaqtida aniqlash va jinoyat sodir etgan shaxsni qisqa muddatlarda javobgarlikka tortish masalasining muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq. Buning uchun



muayyan sharoit mavjud bo'lishi talab qilinadi. Shunga ko'ra, qonun bilan tergov, prokuratura va sud organlariga gumon qilinuvchi, ayblanuvchilarning shaxsiy erkinligini cheklaydigan, ularning yangi jinoyatlar sodir etishga, jinoyat izlarini yashirishga qaratilgan harakatlariga chek qo'yadigan protsessual majburlov choralari qo'llash huquqi berilgan. Ushbu choralar ehtiyot choralari deb ataladi.

*Ehtiyot choralari* deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuv-chining zimmasidagi majburiyatlarni to'la ijro etishlarini va hukm ijrosini ta'minlash, shuningdek, jinoyat protsessining vazifalari bajarilishi uchun sharoit yaratish maqsadida qonunda belgilangan tartibda, muayyan asoslar bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan qo'llaniladigan protsessual majburlov choralari tushuniladi. Ehtiyot choralari qo'llashda majburlov ayblanuvchining shaxsiy erkinligini (erkin harakatlanish huquqi va sh.k.) cheklash yoki chegaralashda namoyon bo'ladi.

Ehtiyot chorasi faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va muomala layoqatiga ega bo'lmagan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ularning tergov va suddan bo'yin tovlashi hamda keyingi jinoiy faoliyatining oldini olish, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'maslik, shuningdek, hukmning yoki ajrimning ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olish, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi, garov, uy qamog'i, qamoq, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv kabi ehtiyot choralari mavjud.

Ehtiyot choralarining ahamiyati ularning jinoyat protsessini muvaffaqiyatli amalga oshirishda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jinoyatchilar tajovuzidan himoya qilishda muhim o'rin tutishi bilan belgilanadi. Ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qonuniy va asosli ravishda qo'llash tergov o'tkazish uchun qulay sharoit yaratadi, uning tez va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Ehtiyot chorasi qo‘llanilishi ayblanuvchi yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qonunda majburlov choralari qo‘llash huquqi belgilanishi bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqlarini asossiz tarzda cheklashga, xususan, ularga nisbatan asossiz ravishda ehtiyot choralari tanlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan qat’iy talab aks etgan.

Ehtiyot choralari qo‘llash doimo fuqaroning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog‘liq. Shu bois, qonun talablariga va ayniqsa protses-sual kafolatlarga aniq rioya etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bir vaqtda bir shaxsga nisbatan faqat bitta ehtiyot chorasi qo‘llanilishi mumkin.

Ehtiyot chorasini tanlash va qo‘llashning umumiy qoidalari belgilangan bo‘lib, ehtiyot choralaridan qaysi birini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal qilishda jinoyatning xavflilik darajasi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergov va suddan yashirinishi ehtimolining yuqoriligi, qo‘yilgan aybning og‘irligi, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning shaxsi, mashg‘ulot turi, yoshi, sog‘lig‘i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar ham hisobga olinadi. Boshqa holatlar deganda shaxsning moddiy ahvoli, qaramog‘idagilar mavjudligi, egallab turgan lavozimi, jamiyatda tutgan o‘rni va martabasini, jamoatchilikning unga munosabatini tushunish mumkin.

Ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish yoki o‘zgartirish qaror yoki ajrim bilan amalga oshiriladi. Ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish, o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda: shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; ehtiyot chorasi qanday qonuniy asoslarga tayanib qo‘llanganligi yoxud tegishli dalillar keltirish yo‘li bilan bu asoslar yo‘qligi yoki o‘zgargani; ehtiyot chorasini tanlashga ta’sir qiluvchi, qonun bilan belgilangan holatlarni hisobga olib, ehtiyot choralari qo‘llash, bekor qilish yoki o‘zgartirish zaruratini izohlovchi sabablar ko‘rsatilishi zarur. Qaror yoki ajrim kimga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxsga darhol e’lon qilinadi, shaxsning og‘ir kasalligi yoki uning qochib ketganligi tufayli e’lon qilinishi mumkin bo‘lmagan hollar bundan mustasno.

Qaror yoki ajrimning o‘zi kirish, tavsiflash va xulosa qismlaridan iborat. Kirish qismida – qaror chiqarilgan vaqt va joy, uni chiqargan shaxsning lavozimi, unvoni va familiyasi; tavsiflash qismida – ayblovning mohiyati hamda u yoki bu ehtiyot chorasini tanlash asoslari bayon etiladi. shuningdek, ehtiyot chorasini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar – jinoyatning og‘irligi, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining nima ish bilan shug‘ullanishi, yoshi, oilaviy ahvoli kabilar – ham ko‘rsatilishi kerak. Xulosa qismida ayblanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan yili hamda unga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasining nomi ko‘rsatiladi.

Qaror (ajrim)ni uni chiqargan shaxs imzolaydi. Qamoq yoki uy qamog‘i ehtiyot chorasini tanlash haqida ajrim sud tomonidan chiqariladi. Bir necha shaxs jinoiy javobgarlikka tortilayotgan ishlar bo‘yicha har bir shaxsga ehtiyot chorasini tanlash haqida alohida qaror yoki ajrim chiqariladi. Ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror (ajrim) ushbu qaror (ajrim) chiqarilgan shaxsga e’lon qilinganligi to‘g‘risida qarorda belgilab qo‘yiladi.

Ayblanuvchiga nisbatan u yoki bu ehtiyot chorasini belgilash haqidagi masalani surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud o‘zining ichki ishonchi bo‘yicha, ishning muayyan holatlaridan kelib chiqib hal qiladi. Biroq jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi yoxud shaxsiy kafillik kabi ehtiyot choralarini qo‘llash uchun mazkur organlarning bir tomonlama qarorining o‘zi yetarli emas. Ushbu hollarda jamoa, jamoat birlashmasi yoki alohida shaxslar o‘zlarining kafillik berish istagini bildirishlari talab etiladi.

Muayyan ehtiyot choralarini tanlashda bu haqda qaror chiqarishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Agar munosib xulq-atvorda bo‘lish haqidagi tilxat olish ehtiyot chorasini tanlanadigan bo‘lsa, ushbu ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror asosida ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan yozma majburiyat olinadi. Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasini tanlanganida, ulardan o‘z zimmlariga olgan majburiyat haqida tilxat olinadi. Jamoat birlashmasi (jamoat)ning kafilligi ham yozma shaklda, ya’ni jamoat

birlashmasi yoki jamoa umumiy majlisining qarori shaklida taqdim etiladi.

Ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan tergovni nazorat qilayotgan, uni bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli bo'lgan prokurorga shikoyat berilishi mumkin. Prokuror shikoyatni olgan paytdan e'tiboran uch sutka ichida uni ko'rib chiqishi hamda shikoyat bergan shaxsni o'z qaroridan xabardor etishi shart.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida qamoqqa olish, uy qamog'i, garov tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llash haqidagi yoki qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoxud uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqidagi sudning ajrimi ustidan mazkur ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish ikki soat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin. Shikoyat, protest ajrim chiqargan sud orqali beriladi, ushbu sud ularni yigirma to'rt soat ichida materiallar bilan birga apellatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Apellatsiya instansiyasi sudi mazkur materiallarni ular shikoyat yoki protest bilan birga kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soatdan kechiktirmay ko'rib chiqadi.

Shikoyat yoki protest berilishi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi masala bo'yicha qaror ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Sirdan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxs mazkur ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrim ustidan u tegishli vakolatli organga keltirilgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soat ichida sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

*Qamoqqa olish.* Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalash, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi samarali muhofaza etilishini ta'minlashdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining halqaro majburiyatlari bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, 1966-yilda qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»<sup>1</sup>ning

---

<sup>1</sup> Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар(тўплам).–Т.,2004.Б.40.

9-moddasi 3-qismiga asosan «Jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi berilgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko'rilishi yoki ozod qilib yuborilish huquqiga ega»ligi qayd etilgan. Mazkur xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadida 2007-yil 11-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 2008-yilning 1 yanvaridan boshlab qo'llana boshlandi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs faqat prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan beriladigan iltimosnomaga asosan sud tomonidan ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olinishi mumkin. Qamoqda saqlab turish muddati ham faqat sud tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Qamoqqa olish – eng og'ir ehtiyot chorasi bo'lib, insonning huquq va erkinliklarini, jumladan shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqlarini jiddiy ravishda cheklaydi. Shu bois qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi boshqa ehtiyot choralarini qo'llash orqali ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning munosib xulq-atvorda bo'lishini va hukm ijrosini ta'minlash imkoni bo'lmagan, bundan buyongi jinoiy faoliyatini davom ettirishiga yo'l qo'ymaslikning boshqa chorasi qolmagan hollarda qo'llanadi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llamaslik yoki o'z vaqtida qo'llamaslik yangi jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo'llashning alohida asoslari mavjud bo'lib, ular ikki xil yo'nalishdagi holatlarni o'zida aks ettiradi. Birinchi holatlarga: sodir etilgan jinoyat uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarga kirishi; ikkinchi holatlarga esa gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va

suddan yashirinishi mumkin degan o‘rinli taxmin (asoslovchi dalillar) mavjudligi kiradi. Mazkur ikki holatlar bir vaqtda mavjud bo‘lishi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash uchun asoslar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, qonunda birinchi holatlarga oid asosni istisno etuvchi qo‘shimcha shartlar bilan bog‘liq holatlar belgilangan. Bu shartlar alohida hollar sifatida belgilangan bo‘lib, ularga: ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanligi; ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganligi; ilgari qo‘llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganligi; ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmaganligi; jinoyat ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash davrida sodir etilganligi kiradi.

Qayd etilgan asoslar mavjudligi jinoyat ishida albatta qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanishi shart degani emas. Jinoyat-protsessual qonunda tergov va sud organlariga ehtiyot chorasini (tanlash) qo‘llash huquqi berilgan, shu bois ehtiyot chorasi qo‘llanilmasligi qonun buzilishi hisoblanmaydi.

Sud-tergov amaliyotida ko‘pincha qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatga oid ishlarda, voyaga yetgan, lekin 60 yoshdan oshmagan, sog‘ligi holati yaxshi bo‘lgan erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi.

Qamoq boshqa ehtiyot choralari kabi JPK 236-moddasida ko‘rsatilgan maqsadlarda qo‘llaniladi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish ishni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish uchun zarur sharoit yaratish, jazoning ijro etilishini ta‘minlashga qaratilgan, ayblanuvchini jamiyatdan majburiy ajratgan holda, maxsus muassasada saqlashdan iborat.

Ehtiyot chorasi sifatida *qamoqqa olish* deganda, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning tergov va suddan bo‘yin tovlashi va bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida tergov organining iltimosnomasiga

asosan sud tomonidan qo‘llaniladigan, ayblanuvchini ozodlikdan mahrum qilish tushuniladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi:

faqat ushlangan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga nisbatan qo‘llaniladi;

shaxsning jinoyat sodir etilishida aybi borligini tasdiqlovchi dalillar bo‘lganda qo‘llanilishi mumkin;

isbotlash vositasi hisoblanmaydi va ushbu choraning qo‘llanilishi o‘z-o‘zicha shaxsning jinoyat sodir etganligiga dalil bo‘lmaydi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sodir etilgan jinoyat uchun jazo deb baholab bo‘lmaydi. Ehtiyot choralarida protsessual javobgarlik elementlari bo‘lsa-da, ammo ularning asosiy vazifasi – huquqbuzarliklarning oldini olish, chunki ular jinoyat sodir etganlik yoki protsessual qoidani buzganlik uchun emas, balki ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning protsessual majburiyatlarni bajarishini ta‘minlash va uning yangi jinoyatlar sodir etishi, tergov va suddan yashirinishi, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilishga urinishlarining oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash huquqi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi, okrug, hududiy harbiy sudning sudyalariga berilgan.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ushlangan gumon qilinuvchi – bu ushlab turish haqidagi qarorga asosan (ushlab turish bayonnomasi tuzilgan) ushlangan, jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsdir. Ayblanuvchi – JPKning 45, 361-moddalarida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etish uchun jalb qilish haqida qaror chiqarilgan shaxsdir.

Asoslar mavjud bo‘lganda va tergov davomida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanganda prokuror, shuningdek, prokurorning

roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqqa olish zaruratini keltirib chiqargan asoslar bayon qilinadi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror uch qismdan: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosadan iborat bo'ladi.

*Kirish qismida* protsessual hujjatning nomi, tuzilgan vaqti va joyi, hujjatni tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi, jinoyat ishining raqami va boshqa ma'lumotlar keltiriladi.

*Tavsif-asoslantirish qismida:* jinoyatning sodir etilish tafsilotlari; sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiyasi; shaxsning aybi mavjudligiga oid dalillar; JPKning 236, 242-moddalarida nazarda tutilgan holatlar mavjudligini, aynan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llash zarurligini hamda boshqa ehtiyot choralarini qo'llash maqsadga muvofiq emasligini asoslantiruvchi ma'lumotlar; JPKning iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqarilishi uchun huquqiy asos bo'lgan moddalar ko'rsatiladi.

*Xulosa qismida* tergovchining quyidagi masalalarga oid to'xtamlari bayon etiladi:

shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida iltimosnoma qo'zg'atishga oid (bunda ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi haqidagi ma'lumotlar: uning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan vaqti va joyi, millati, ish va yashash joyi, ma'lumoti, sudlanganligi kabi ma'lumotlar to'liq yoziladi);

qabul qilingan qaror haqida manfaatdor taraflar xabardor qilinishiga oid;

qaror va unga ilova qilinayotgan zarur materiallarni tegishli sudga yuborish haqidagi. Qaror surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokuror (shaxsan o'zi iltimos qo'zg'atgan hollarda) tomonidan imzolanadi.

Iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorga uni asoslantiruvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qaror nusxasi;



gumon qilinuvchini ushlab turish bayonnomasining nusxasi;  
shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish (va ushlab turish) haqidagi qaror nusxasi;  
shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish haqidagi qaror nusxasi;  
ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi qaror nusxasi (ayblanuvchi ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasining shartlarini buzgan bo'lsa);  
gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ushbu shaxs shu jinoyatni sodir etganligini tasdiqlovchi ko'rsatmalar bergan boshqa shaxslarni so'roq qilish bayonnomalarining nusxalari;  
gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi hujjatlar;  
jinoyat ishidagi shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni asoslantiruvchi boshqa materiallardan nusxalar.

Iltimosnoma gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atilayotganligiga qarab ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati o'zgarishi mumkin. Iltimosnomaga ilova qilib sudga yuborilayotgan barcha hujjatlar qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Prokuror surishtiruvchi yoki tergovchining qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, iltimosnoma qo'zg'atish to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi. Bunda prokuror iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror, unga ilova qilingan va iltimosnomani asoslantiruvchi hujjatlar bilan tanishib, ushbu shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi va buning uchun asoslar yetarliligini tekshiradi. Prokuror tergovchining iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorida aks ettirilgan vajlariga qo'shilgan taqdirda qarorga roziligini tasdiqlovchi imzosini qo'yadi. Qarorning prokuror imzo qo'yadigan qismida prokuratura organining nomi, prokurorning unvoni, familiyasi va ismi, otasining ismi, sana, imzo tegishli prokuratura organining gerbli muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Prokuror qarorga ilova qilingan materiallar yetarli emasligi, isbotlanmaganligi yoki to'liq emasligi yoxud boshqa sabablar tufayli tergovchining keltirgan vajlariga rozi bo'lmaganida tergovchiga qaror va uning ilovalarini yozma ko'rsatmalar bilan qaytaradi. Ularda iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror hamda unga qo'shilgan materiallar qaytarilishining sabablari aks ettiriladi. Shuningdek, materiallarni to'ldirish zarurligi, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo'llashning to'liqroq asoslantirilishi yoxud boshqa ehtiyot chorasi qo'llanishi haqida aniq ko'rsatma berilishi mumkin.

Ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi qarorning asoslanganligi deganda, qaror va taqdim etilgan materiallarda tegishli ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini tasdiqlovchi, jumladan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shaxsi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi nazarda tutiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi deganda, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash tartibini belgilovchi jinoyat-protsessual qonunchilikning barcha normalariga rioya etilganligi tushuniladi.

Agar iltimosnoma ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atilayotgan bo'lsa, qaror va ko'rsatilgan materiallar ushlab turish muddati tugashidan kamida sakkiz soat oldin sudga taqdim qilinishi kerak. Bunda jinoyat ishlarining tergovga va sudlovga tegishliligi qoidalariga rioya etilishi zarur.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda, yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran sakkiz soat ichida, lekin ushlab turishning eng ko'p muddatidan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma prokuror, himoyachi, ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Ushlab turilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sud majlisiga olib kelinadi. Sud majlisida gumon

qilinuvchining yoki ayblanuvchining qonuniy vakili, shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi ishtirok etishga haqli. Zarur bo'lgan hollarda surishtiruvchi, tergovchi sudga chaqirilishi mumkin. Tergovchini sudga chaqirish shaxsni qamoqqa olish zaruratini tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar olinishi kerakligi bilan asoslantirilishi mumkin. Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi. Ushbu qoida ayblanuvchi kelmagan hollarga taalluqli emas, chunki manfaatdor tarafning ishtirokisiz iltimosnomani ko'rib chiqish sudda ish yuritishning tortishuvi prinsipini va ayblanuvchining himoyalash huquqini buzadi. Sud majlisining kotibi majlis boshlanguniga qadar prokuror, himoyachi, ushlangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sud majlisiga chaqirilgan boshqa shaxslarning kelganligini tekshiradi. Qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma ayblanuvchining ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Sudda raislik qiluvchi ko'rib chiqiladigan masala mazmuni, taraflar hamda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnoma ko'rib chiqiladigan shaxsga oid ma'lumotlarni e'lon qiladi. Sudya taraflar va boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Protsess ishtirokchilarining iltimoslarini qabul qiladi va hal etadi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish prokuror ma'ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini asoslab beradi. Jumladan, shaxsning tergov va suddan yashirinishi mumkinligini, yangi jinoiy harakatlar sodir etishga moyilligini, shuningdek, ayblanuvchi yoki uning qarindoshlari guvohlar va jabrlanuvchilarga ularning ko'rsatmalarini o'z foydasiga o'zgartirishga erishish maqsadida tazyiq o'tkazishga urinishlarini ko'rsatuvchi dalillar va xulosalarni keltirishi mumkin. Prokuror bildirgan fikrlar ish holatlariga va ayblanuvchining shaxsiga oid haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim. Shundan so'ng

gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, himoyachi eshitiladi, ular qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi vajlar asossiz ekanligini yoki maqsadga muvofiq emasligini asoslab beradilar, shuningdek, shaxsni qamoqqa olish mumkin emasligidan dalolat beruvchi holatlarni keltirishlari ham mumkin. Sud majlisida sudga chaqirtirilgan va ko'rsatuvlari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qo'llamaslik haqida ajrim chiqarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar tinglanadi, sudga ayblov tomonidan ham, himoya tomonidan ham taqdim etilgan materiallar tekshiriladi.

Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

Sudya gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

1) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida;

2) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad qilish to'g'risida;

3) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad qilish va uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida;

4) uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad qilish va garov tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida (shu haqda iltimosnoma bo'lsa);

5) taraflar qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning asoslanganligi yoki asoslanmaganligiga doir qo'shimcha dalillarni taqdim etishlari uchun ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatdan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirish to'g'risida.

Ushlab turish muddatini uzaytirishga sud ushlab turishni qonuniy va asosli deb topgan taqdirdagina taraflardan birining iltimosi bo'yicha sud qarori chiqarilgan paytdan e'tiboran 48 soatdan ortiq bo'lmagan muddatga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash asosli ekanligi yoki asosli emasligini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etish uchun yo'l qo'yiladi. Bunday uzaytirishga ayblov tarafining ham, himoya tarafining ham iltimosi bo'yicha ruxsat berilishi mumkin. Ushbu

iltimosning ma'nosi shundaki, uni bildirgan taraf qamoqqa olish asosli ekanligini isbotlovchi yoki rad etuvchi qo'shimcha dalillar taqdim etishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Sharoitdan kelib chiqib, muddatni uzaytirish ayblov tarafiga ham, himoya tarafiga ham foydali bo'lishi mumkin.

Qamoqqa olish (uy qamog'i) tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingan va garov tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan taqdirda, gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini ushlab turish muddati garov kiritish imkonini berish uchun sud tomonidan ko'pi bilan qirq sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga uzaytiriladi, ko'rsatilgan muddatda garov kiritilmagan taqdirda qamoqqa olish (uy qamog'i) tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnoma qanoatlantirilgan hisoblanadi.

Sudyaning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi yoki uni qo'llashni rad qilish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro qilinishi kerak. Sudyaning ajrimi ijro uchun prokurorga, ma'lumot uchun esa gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga yuboriladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrim asosida ozodlikda bo'lgan ayblanuvchi sud zalining o'zida qamoqqa olinadi va qamoqqa olingan shaxslarni saqlanadigan joyga (tergov hibsonasiga) soqchi qo'riqlovi ostida yuboriladi. Ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar tergov hibsonasining kameralarida, vaqtincha saqlash hibsonalarida va boshqa maxsus joylarda JPK 244-moddasida belgilangan tartibda saqlanadi.

Qidiruvdagi shaxsni ushlab chorasini prokuror tomonidan tashkil etiladi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad etish haqida ajrim chiqarilganida ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi darhol sud zalida ozod qilinadi.

Sudyaning ajrimi ustidan JPK 241-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidalarga binoan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin. Bunday hollarda apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyati yoki protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

1) sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;

2) sudyaning ajrimini bekor qilish va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqdan (uy qamog'idan) ozod qilish yoxud unga nisbatan qamoqqa olish (uy qamog'i) tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga haqli.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingan taqdirda, aynan o'sha gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan mazkur masala bo'yicha takroran sudga murojaat qilishga qamoqqa olishni taqozo etadigan yangi holatlar yuzaga kelganda yo'l qo'yiladi.

*Uy qamog'i.* Uy qamog'i qamoqqa olishga nisbatan yengilroq ehtiyot chorasi bo'lib, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

Uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash asoslari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash asoslari bilan bir xil, shu bilan birga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yoshi, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarga ko'ra unga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash mumkin emasligi sharti mavjud bo'lishi kerak. Uy qamog'i ehtiyot chorasini tanlashga yuqorida qayd etilgan yengillashtiruvchi holatlarning har biri yoki majmui asos bo'lishi mumkin. Uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llashda har bir yengillashtiruvchi holatlar asoslantirilgan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi shart. Bunda, yengillashtiruvchi holatlar nima sababdan va qaysi xususiyatlariga ko'ra, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga asos bo'lishi yoritilishi va tasdiqlovchi hujjatlar ish materiallariga ilova qilinishi kerak. Uy qamog'i gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining jamiyatdan to'liq yoxud qisman ajratib qo'yilib, o'zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlar)

yuklatilgan, shuningdek, uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo‘lishidan iborat. Tibbiy muassasa uy qamog‘ida saqlash joyi etib belgilanishi mumkin.

*Uy qamog‘i ehtiyot chorasi* deganda, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning tergov va suddan bo‘yin tovlashi va bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida, tergov organining iltimosnomasi bilan sud qarori asosida ayblanuvchiga nisbatan muayyan taqiqlar o‘rnatiladigan va uni yashab turgan joyida nazorat ostida saqlagan holda jamiyatdan ajratish tushuniladi.

*Turar joy* deganda – fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari, boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar tushuniladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining sog‘ligi holatini hisobga olgan holda tibbiy muassasa ham uy qamog‘ida saqlash joyi etib belgilanishi mumkin. Bunda tibbiy muassasani uy qamog‘ida saqlash joyi etib belgilashga ekspertning shaxs statsionar tartibda davolanishga muhtojligi haqidagi xulosasi asos bo‘ladi.

*Tibbiy muassasa* deganda – sog‘liqni saqlash tizimiga qarashli kasalxona va klinikalar tushunilib, bunda tegishli sog‘liqni saqlash muassasasining hududi uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyi hisoblanadi.

Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilganda shaxsga quyidagi taqiqlar (cheklovlar) to‘liq yoki ulardan ayrimlari o‘rnatilishi mumkin:

- 1) muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lish;
- 2) xat-xabar olish va jo‘natish;
- 3) har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so‘zlashuvlar olib borish;
- 4) uy-joyni tark etish.

*Muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishga taqiq (cheklov) o'rnatish* deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ish holatlaridan kelib chiqib, shu ishning boshqa ishtirokchilari va shu kabi boshqa shaxslar bilan bevosita va bilvosita uchrashish va gaplashishga, har qanday tarzda yozishmalarni amalga oshirishga taqiq (cheklov) qo'yilishi tushuniladi.

*Xat-xabar olish va jo'natishga taqiq (cheklov) o'rnatish* deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining har qanday xat-xabarni ya'ni pochta-telegraf, faks orqali jo'natmalarni, o'zaro xat yozishmalarni, shuningdek, YE-mail, SMS, MMS va boshqa elektron shakldagi xabarlarni qabul qilishiga yoki jo'natishiga taqiq (cheklov) qo'yilishi tushuniladi.

*Har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishga taqiq (cheklov) o'rnatish* deganda – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining bevosita yoki bilvosita aloqa vositalari orqali so'zlashuvlarni, pochta-telegraf, faks jo'natmalarini, shuningdek, E-mail, SMS, MMS va shu kabi boshqa elektron shakldagi yozishmalarni amalga oshirishiga to'liq taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi.

*Uy-joyni tark etishga taqiq (cheklov) o'rnatish* deganda – shaxsni uy qamog'i ehtiyot chorasini o'tash joyidan chiqishga sud ajrimi bilan to'liq yoki qisman taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi. Qisman taqiq (cheklov) o'rnatilganda sud tomonidan uy qamog'i qo'llanilgan shaxsning o'qish yoki ish joyiga borishiga yoxud kundalik oila turmush masalalarini hal etishi uchun kunning ma'lum paytlarida uy qamog'i qo'llanilgan joydan tashqariga chiqishga ruxsat berilishi mumkin.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risidagi qarorda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi duchor qilinadigan ozodlik bo'yicha aniq taqiqlar (cheklovlar), shuningdek, o'rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish zimmasiga yuklatilayotgan organ ko'rsatiladi. Har qanday taqiqni



(cheklov) oʻrnatishda uning taʼsirchanligi eʼtiborga olinishi va zaruratsiz ularning doirasi kengaytirilmasligi zarur.

Quyidagi holatlarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining telefon aloqasidan foydalanish huquqi cheklanishi mumkin emas:

himoyachi, qonuniy vakil, belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bilan soʻzlashish uchun;

zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, tez tibbiy yordamni, yongʻin xavfsizligi xizmatini, qutqaruv xizmatini va boshqa shoshilinch xizmatlarni chaqirish uchun.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻz yashash joyidagi uy qamogʻini ijro etish zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organiga har bir shunday qoʻngʻiroq haqida xabar beradi.

Muayyan shaxslar bilan aloqada boʻlish, xat-xabar olish va joʻnatish, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida soʻzlashuvlar olib borish kabi taqiq va cheklovlar doirasiga uy qamogʻida saqlash joyi sifatida belgilangan turar joyda gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga yashab turgan shaxslar kirmaydi.

Shu bilan birga, uy qamogʻi qoʻllanilgan joyda istiqomat qiluvchi shaxslar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan sud ajrimi bilan oʻrnatilgan taqiqlarni (cheklovlarni) buzilishiga olib keladigan harakatlarni sodir etishlari mumkin emas. Bu haqda ular uy qamogʻi qoʻllanilishidan oldin ogohlantirilib, bunga yozma roziliklari olinadi.

Xat-xabar olish va joʻnatishga taqiq (cheklov) oʻrnatilganda, ushbu taqiqlarning doirasiga uy qamogʻi qoʻllanilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan pensiya va ijtimoiy toʻlovlar, sugʻurta badallari va shu kabi boshqa toʻlovlarni amalga oshirish bilan bogʻliq, shuningdek, sogʻliqni saqlash, surishtiruv va tergov organlari, sudlar, sud ijrochilari bilan bogʻliq xat-xabarlarni kiritilmaydi.

Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsning himoyachisi va qonuniy vakili bilan uchrashishi va gaplashishi uchun taqiqlar (cheklovlar) o‘rnatish mumkin emas.

Qamoqqa olinganning yashash (uy qamog‘ida saqlash) joyi qo‘riqlanishi va zarur hollarda uning xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatilishi mumkin.

Uy qamog‘ini ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy-joyidan chiqishi bo‘yicha o‘rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilgan mas‘ul xodim uning yashash joyida bo‘lishini sutkaning istalgan vaqtida, kunduzgi vaqtda ko‘pi bilan bir marta va tungi vaqtda ko‘pi bilan bir marta tekshirishga haqli. Zarur hollarda, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsning xulq-atvori ustidan nazorat nisbatan elektron kuzatish vositalari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Yashab turgan uyi uy qamog‘ida saqlash joyi sifatida belgilangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tibbiy ko‘rsatuvlarga ko‘ra sog‘liqni saqlash muassasasiga olib kelingan va yotqizilgan bo‘lsa, sud o‘rnatgan taqiqlarning (cheklovlarning) amal qilishi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o‘zgartirish yoxud bekor qilish masalasi prokuror tomonidan, shuningdek, prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi sud tomonidan hal etilguniga qadar davom etadi. Bunda tegishli sog‘liqni saqlash muassasasining hududi uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyi hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tergov organiga, shuningdek, sudga nazorat qiluvchi organning transport vositasida olib boriladi.

Uy qamog‘ida jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yilgan sharoitda bo‘lgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyachi, qonuniy vakil bilan uchrashuvlari ushbu ehtiyot chorasi ijro etilayotgan joyda o‘tkaziladi.

Uy qamog'ini qo'llash tartibi, uning muddati, muddatini uzaytirish va uning ustidan shikoyat qilish tartibi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi bilan bir xil bo'lib, JPK 241, 243, 245 – 248-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma berishdan oldin ehtiyot chorani o'tash nazarda tutilayotgan turar joy haqida to'liq ma'lumot to'playdi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining turar joyda yashashga bo'lgan qonuniy huquqlarini tekshiradi, shuningdek, ushbu turar joydan kelgusida uy qamog'ida saqlash joyi sifatida foydalanishga turar joy mulkdori va unda istiqomat qilayotgan shaxslarning yozma roziligini oladi. Uy qamog'ida saqlash joyi sifatida tibbiy muassasa yoki maxsus uylar nazarda tutilganda ham tibbiy muassasa vakilining yoki uy-joy ixtiyorida bo'lgan vakolatli shaxsning bunga yozma roziligi olinishi va saqlash sharoitlari o'rganilishi shart.

Uy qamog'i ehtiyot chorasini o'tash nazarda tutilayotgan turar joy, tergov olib borilayotgan hududdan tashqarida bo'lgan hollarda, uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llashga fakatgina bu holat jinoyat ishi bo'yicha ish yurituvni qonuniy muddatlarda yakunlashga, jumladan shaxsni surishtiruv, dastlabki tergov organi va sudga yetkazib keltirishga to'sqinlik qilmasa yo'l qo'yiladi.

Qonunda nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganda va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanganda prokuror, prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi, tergovchi uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorning tavsif-asoslantirish qismida quyidagilar bayon qilinadi:

shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgani yoki ayblanayotganligi;

shaxsni uy qamog'iga joylashtirish zaruratini keltirib chiqargan asoslar;

uy qamog‘i ehtiyot chorasini o‘tash davomida qo‘llanilishi nazarda tutilayotgan taqiqlarning (cheklovlarning) turi va doirasi;

uy qamog‘ida saqlash joyi sifatida tavsiya etilayotgan turar joy (tibbiy muassasa, maxsus uylar) manzili, uning mulkdori va ushbu uyda vaqtincha yoki doimiy ro‘yxatda turgan shaxslar haqida aniq ma’lumotlar;

uy qamog‘ida saqlash joyi sifatida tavsiya etilayotgan joy fuqarolarning turar joy sifatida vaqtincha yoki doimiy yashashlari uchun mo‘ljallanganligi hamda belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob berishi;

uy qamog‘ida saqlash joyi sifatida tavsiya etilayotgan turar joyda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining vaqtincha yoki doimiy yashashi uchun qonuniy asoslari;

turar joy mulkdori yoki turar joyga nisbatan mulkiy huquqlarga ega shaxslarning va ushbu turar joyda birga yashovchilarning yoki tibbiy muassasa vakilining mazkur joydan foydalanishga roziligi.

Shu bilan birga, tanlangan taqiqlar (cheklovlar) xususiyatidan kelib chiqib, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorda:

– gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lishiga taqiq (cheklov) o‘rnatish nazarda tutilganida, ushbu shaxslar haqida aniq ma’lumotlar va ularni tanlashga asos bo‘lgan holatlar;

– uy qamog‘i qo‘llanilgan shaxsga texnik kuzatuv vositalari (elektron bilaguzuk, video kamera) qo‘llanilishi lozim deb topilganda, texnik kuzatuv vositasining turi va uni qo‘llash sabablari;

– tibbiy muassasa uy qamog‘ida saqlash joyi etib belgilanganda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining statsionar tartibda davolanishga muhtojligi haqidagi ekspertlarning xulosasi hamda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi davolanib bo‘lganidan keyin uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish davom ettiriladigan turar joyning manzili ko‘rsatiladi.

Iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qaror ko'rsatiladigan yuqorida qayd etilgan holatlar, agarda qaror qanoatlantiriladigan bo'lsa, sudning tegishli ajrimida ham ko'rsatiladi. Shuningdek, sudning ajrimida uy qamog'i ehtiyot chorasi muddatining o'tishi boshlanish va tugash sanasi hamda uy qamog'i ehtiyot chorasining ijrosini nazorat qiluvchi va ta'minlovchi organ nomi ham qayd etiladi.

Aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishga, xat-xabar olish va jo'natishga taqiq va cheklovlar o'rnatishda yoki ushbu taqiqlarni (cheklovlarni) ijro qilish jarayonida, zarurat tug'ilganida qonunda belgilangan tartibida pochta-telegraf jo'natmalar xatlanishi hamda telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlar eshitib turilishi mumkin.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro qilish bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan elektron bilaguzukni (braslet) qo'llash bilan bog'liq chiqimlarni undirilishini ta'minlash maqsadida, jinoyat ishini ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuborish bilan bir vaqtda da'vo ariza kiritiladi.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnomaning asosiligi sud jarayonida qonunda nazarda tutilgan tartibda tekshiriladi.

Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash haqidagi ajrimda sud tomonidan shaxsga nisbatan qo'llanilayotgan cheklovlarning turi va doirasi aniq ko'rsatilishi shart. Shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga o'qish va ish joyiga borib kelish va boshqa shu kabi holatlarda turar joydan tashqariga chiqishga ruxsat berilganda ham ularning vaqti aniq ko'rsatiladi. Zarur hollarda, sud ajrimi bilan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari (elektron bilaguzuk, video kamera) qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ish holatidan kelib chiqib, eng oxirgi chora sifatida jamiyatdan to'liq ajratib qo'yish sharti bilan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslarning yashash joyi qo'riqlanishi belgilanishi mumkin. Bu haqda sud ajrimida alohida ko'rsatiladi.

Uy qamog‘i qo‘llanilgan shaxsga ish va o‘qish vaqtida uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini o‘tash joyidan tashqarida bo‘lishga ruxsat berilganda, hududiy ichki ishlar organlari zimmasiga ish va o‘qish joyi ma‘muriyati bilan hamkorlikda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining mehnat qilish va ta‘lim olish qoidalariga rioya etishini ta‘minlash maqsadida uning xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatish yuklatilishi mumkin.

O‘rnatilgan taqiqlar (cheklovlar) uy qamog‘ida bo‘lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, ya‘ni uy qamog‘i qo‘llanishi orqali ehtiyot chorasini qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadlarga erishilmagan bo‘lsa, unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilishi, shuningdek, belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) o‘zgartirish yoxud qo‘shimcha taqiqlar (cheklovlar) belgilanishi mumkin. Uy qamog‘i bo‘yicha belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) bekor qilish yoki o‘zgartirish yoxud qo‘shimcha taqiqlar (cheklovlar) belgilash JPK 243<sup>-1</sup>-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog‘i voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat JPK 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘lganda va unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e‘lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo‘lishini boshqa ehtiyot choralari ta‘minlay olmaydigan taqdirda qo‘llanilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi masalani ko‘rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asosliligini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha so‘roq qilishi shart.

*Qamoqda va uy qamog‘ida saqlab turish muddati, muddatni uzaytirishning asoslari va tartibi*

Jinoyatlar tergov qilinayotganda qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddati ko‘pi bilan uch oyni tashkil etadi.

Qamoqda saqlab turishning yoki uy qamog'ining qonun normalarida belgilangan uch oylik muddati sud tomonidan:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga binoan besh oygacha;

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlarining iltimosnomasiga binoan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin.

Muddatni yanada uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Muddatni uzaytirish haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishda sud taqdim etilgan materiallarning asosliligini, shuningdek, protsessual normalar va talablarga rioya etilganligini inobatga oladi.

Qamoqda saqlab turish muddatiga JPK 599-moddasiga muvofiq shaxsni O'zbekiston Respublikasiga ushlab berish to'g'risidagi so'rovga ko'ra uning xorijiy davlat hududida qamoqda saqlangan vaqti qo'shib hisoblanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasiga xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxsni qamoqda saqlab turishning oxirgi (yetti oy) muddati tugagan bo'lsa va ishning holatlariga ko'ra qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini o'zgartirish mumkin bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlarining iltimosnomasiga binoan sud JPK 247-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda, qamoqda saqlab turishning qo'shimcha muddatini belgilashga haqli, ammo ushbu muddat shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha saqlash hibsxonasiga yoxud tergov hibsxonasiga joylashirilgan paytdan e'tiboran uch oydan ortiq bo'lmasligi kerak.

Tergovi tamomlangan jinoyat ishining materiallari ayblanuvchiga va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun qamoqda saqlab turishning oxirgi muddati (yetti oy yoki yetti+uch oy) tugashidan kamida bir oy oldin taqdim etilgan bo'lishi zarur. Ayblanuvchi va uning himoyachisi ishning materiallari bilan tanishib chiqishi uchun ketgan vaqt ehtiyot chorasi tariqasida qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini hisoblab chiqishda inobatga olinmaydi.

Qamoqqa olish muddatini uzaytirish haqida iltimosnoma kiritish huquqi faqat yuqori turuvchi va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga berilgan. Nazorat qilishning bunday mexanizmi tergov organlari tomonidan jinoyat ishlarining tergov qonunda ko'rsatilgan uch oylik muddatda tamomlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Ayblanuvchini qamoqda saqlab turishning yoki u uy qamog'ida bo'lishining belgilangan muddati tugashidan kamida olti sutka oldin tegishli prokuror qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi, bu qaror sudga yuboriladi.

Qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda tergovning cho'zilib ketganligi sabablari, tekshirilishi lozim bo'lgan tasmollar va holatlar, qo'shimcha ravishda so'ralayotgan muddat ko'rsatiladi.

Qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma jinoyat sodir etilgan yoki tergov yuritilayotgan joydagi tegishli sudning sudyasi tomonidan, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soat ichida yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma prokuror, ayblanuvchi, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, himoyachi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda surishtiruvchi, tergovchi sudga chaqirilishi mumkin. Ayblanuvchi statsionar sud-psixiatriya ekspertizasidan o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilgan taqdirda, qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma sud tomonidan ayblanuvchining ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda ayblanuvchining himoyachisi sud majlisida ishtirok etishi shart.

Sudya qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

1) qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida;



2) qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirishni rad qilish to‘g‘risida.

Sudyaning qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish haqidagi yoki qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirishni rad qilish to‘g‘risidagi ajrimi o‘qib eshittirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi va darhol ijro qilinishi kerak. Sudyaning ajrimi ijro uchun prokurorga, ma‘lumot uchun esa ayblanuvchiga, himoyachiga yuboriladi. Sudyaning ajrimi ustidan JPK 241-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidalarga binoan yetmish ikki soat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko‘rib chiqib, o‘z ajrimi bilan:

1) sudyaning ajrimini o‘zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;

2) sudyaning ajrimini bekor qilish va qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirishni rad etishga yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirishga haqli.

*Garov.* Ehtiyot choralari tizimida garov o‘ziga xos o‘rinni egallaydi, chunki garov ehtiyot chorasi qo‘llanilganda odil sudlovni ta‘minlash uchun ham, jinoiy ta‘qib amalga oshirilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlash uchun ham maqbul shart-sharoitlar yaratiladi.

Garov ehtiyot chorasining huquqiy tabiatiga e‘tibor beriladigan bo‘lsa, ushbu huquqiy institut jinoyat-protsessual huquqqa fuqarolik huquqidan kirib kelgan bo‘lib, fuqarolik huquqida garov deganda bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatni ta‘minlash uchun berishi tushuniladi (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 264-m.).

Garov ehtiyot chorasini qo‘llashdan *maqsad* gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni jamiyatdan ajratmagan holda garovga qo‘yilgan mol-mulkdan mahrum bo‘lish tahdidi ostida zimmasidagi majburiyatlarning bajarilishini va hukm ijrosini ta‘minlash hisoblanadi.

Shu bilan birga, garov ish bo'yicha hukm chiqarilguniga qadar shaxsni erkinlikda qoldirish va jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini ta'minlash maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

Garov ehtiyot choralarini qo'llashning umumiy asoslariga ko'ra qo'llaniladi, shuningdek, garov ehtiyot chorasini qo'llashga ish bo'yicha mavjud dalillarga tayangan holda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tergov va suddan yashirinishi, haqiqatni aniqlashga va odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkinligi haqida qilingan o'rinli taxmin va bunday oqibatlar kelib chiqishining moddiy zarar ko'rish tahdidi orqali oldini olish imkoniyatining mavjudligi haqidagi xulosa asos bo'ladi. Noxush oqibatlar kelib chiqishi (tergov va suddan yashirinish, ishda haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilish, jinoiy faoliyatni davom ettirish)ning moddiy zarar ko'rish tahdidi orqali oldini olish imkoniyati barcha jinoyat ishlarida mavjud bo'ladi, lekin gumon qilinuvchi, ayblanuvchining belgilangan garov miqdoriga teng mol-mulk (pul)ga ega emasligi garov qo'llanilmasligiga olib keladi.

Ehtiyot chorasi sifatida *garov* deganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tergov va suddan yashirinmasligi, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmasligi, chaqiruvga binoan yetib kelishini, shuningdek, ochiqda qoldirilishini ta'minlash maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari, boshqa shaxslar tomonidan tergov organi yoki sud (ularning bankdagi depozit hisobi)ga pul mablag'i, qimmatbaho qog'ozlar, valuta boyliklari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlar (bunday buyumlarning rezgilari) hamda boshqa qimmatbaho buyumlarning topshirilishi tushuniladi.

Garov predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisobvarag'iga topshiradigan pul mablag'i yoki qimmatbaho buyumlardan, shuningdek, ko'chmas mulkdan iborat.

Garovni qo'llashda qo'yilgan aybning og'irligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsi, mashg'ulotining turi, yoshi, sog'lig'i, oilaviy

ahvoli va boshqa holatlar ham hisobga olinishi zarur. Ushbu holatlar garov ehtiyot chorasini qo'llashda, uning miqdorini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etilganlar bilan bir qatorda, garov miqdorini belgilashda garovga qo'yuvchining shaxsi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) va garovga qo'yuvchining mulkiy ahvoli hamda o'zaro munosabatlarini ham inobatga olish zarur.

Jinoyat ishlarini yuritishda ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi masala shaxs ushlanganidan so'ng yoki jinoyat ishi qo'zg'atilib, shaxsga ayb e'lon qilingan paytda vujudga keladi. Ehtiyot chorasi sifatida garovni qo'llash masalasi tegishli asoslar (shart-sharoitlar) yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Garov ehtiyot chorasini tanlash haqidagi tashabbus asosan ishni yuritayotgan tergovchi yoki prokuror, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi yoki yaqin qarindoshlari tomonidan bildiriladi.

Ish bo'yicha garov ehtiyot chorasini qo'llash haqida to'xtamga kelinganidan so'ng, garov predmeti va miqdori bilan bog'liq masalalarni hal etiladi. Garov predmeti garovga qo'yuvchi (ayblanuvchi yoki boshqa shaxs) bilan kelishilgan holda aniqlanadi va tergovchi tomonidan hal etiladi. Garov sifatida pul mablag'i, qimmatbaho buyumlar va ko'chmas mulk topshirilishi mumkin. Pul mablag'i deganda, bugungi kunda amalda bo'lgan (muomalada) milliy valuta, chet el valutasini tushuniladi va ular garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, qimmatbaho qog'ozlar ham garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Qimmatbaho buyumlar deganda esa, erkin muomalada bo'lgan turli texnika vositalari va ularning ehtiyot qismlari, transport vositalari va ularning alohida qismlari, tele-video apparaturalar, telefon apparatlari, maishiy texnika vositalari, qimmatbaho san'at asarlari, xususiy egalikda bo'lishiga ruxsat etilgan tarixiy buyumlar, oltin, kumush va boshqa shu kabi qimmatbaho metallar va toshlar hamda ulardan yasalgan taqinchoqlar, buyumlar, yombilar, shuningdek, muayyan vaqt o'tishi bilan qadri keskin tushib ketmaydigan va sifati tez buzilmaydigan iste'mol mollari (tovarlar), to'qimachilik mahsulotlari, mebellar tushuniladi. Ko'chmas mulk

deganda esa, uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan boshqa binolar, ishlab chiqarish sexlari va binolari, savdo uylari, do'konlar, firma, maishiy xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan binolar, oshxona, choyxona, qahvaxona, restoran, mehmonxona, klub va boshqa shu kabilar tushuniladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 83-m.).

Garov predmeti aniqlangandan so'ng, garov miqdori belgilanadi. Garov summasi eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan oz bo'lishi mumkin emas va uni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ayblovning og'irligini, ayblanuvchining, sudlanuvchining va garovga qo'yuvchining shaxsini, garovga qo'yuvchining mulkiy ahvolini va uning ayblanuvchi bilan munosabatlarini e'tiborga olib belgilaydi. JPKda belgilangan holatlarni inobatga olgan holda garov miqdorini belgilash haqidagi tergovchining fikri asoslantirilgan holda garovni qo'llash haqidagi qarorda aks ettiriladi.

Garov ehtiyot chorasi qo'llash haqidagi qaror uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan. Kirish qismida protsessual hujjatning nomi, qayerda, qachon, kim tomonidan, qanday jinoyat ishi bo'yicha chiqarilayotganligi ko'rsatiladi. Garov ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi qarorning tavsif-asoslantiruvchi qismida kimga chiqarilayotganligi va uning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi, jinoyat tafsilotlari, garov ehtiyot chorasini qo'llash asoslari, uni qo'llashda inobatga olingan qonunda belgilangan holatlar hamda ushbu asoslar va holatlarni, shuningdek, garov ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini izohlovchi sabablar, ularni tasdiqlovchi dalillar yoki ish bo'yicha qaysi sabablarga ko'ra garov ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini, ushbu ehtiyot chorasi qo'llanilishini ijobiy jihatdan ta'riflovchi holatlar, aynan garovni qo'llash orqali ham ehtiyot choralari qo'llash maqsadlariga erishish mumkinligi haqidagi o'rinli taxmin hamda ushbu qarorni qabul qilish tartibini belgilovchi JPKning tegishli normalari ko'rsatiladi. Garovni qo'llashda e'tiborga olingan holatlar, ya'ni e'lon qilingan ayblovning turi, shakli, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsi, mulkiy ahvoli, mashg'ulotining turi, oilaviy

ahvoli, yoshi, sogʻligʻi, shuningdek, garov miqdorini belgilashda hisobga olingan holatlar, yaʼni garov qoʻyayotganning mulkiy ahvoli, shaxs haqidagi maʼlumotlar, agar garovga qoʻyuvchi boshqa shaxs boʻlsa, uning ayblanuvchi bilan munosabatlari hamda jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zarar miqdori kabilar maxsus holatlar boʻlib hisoblanadi, yaʼni ular faqatgina garovni qoʻllash haqidagi qarorda aks ettiriladi. Xulosa qismida ushbu ish boʻyicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan garov ehtiyot chorasini qoʻllash haqidagi, garov miqdori va garov sifatida nima qabul qilinishi, qayerda saqlanishi, ushbu qarorning ayblanuvchiga va boshqa shaxslarga eʼlon qilinishi haqidagi toʻxtamlar bayon etiladi va uni chiqargan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Garov ehtiyot chorasini qoʻllash haqida qaror chiqarilganidan soʻng, uning mazmuni gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga va uning himoyachisiga yaqin qarindoshlaridan biriga yoki garovga qoʻyuvchiga eʼlon qiladi hamda ularning garov predmetini topshirish boʻyicha majburiyatlari (harakat qilish tartibi) tushuntiriladi. Garov predmeti topshirilayotganda yoki garov topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda (garov sifatida pul yoki depozit hisobvaragʻiga topshiriladigan qimmatbaho buyum taqdim etilganda), tergovchi (sud) tomonidan tegishli bayonnoma tuziladi.

Garovni qabul qilish haqidagi bayonnoma ikki: kirish va tavsif qismlaridan iborat boʻladi. Bayonnomada uning qachon, qayerda, kim tomonidan, qaysi ish boʻyicha va nima maqsadda tuzilganligi, shuningdek, ushbu bayonnoma tuzilishiga sabab boʻlgan garovni qabul qilishda kimlar hozir boʻlganligi (kirish qismida); gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ismi-sharifi, uning garov ehtiyot chorasi qoʻllanilishi uchun taqdim etgan garov predmeti yoki uni tasdiqlovchi hujjat nomi va raqami, garovning miqdori, ayblanuvchiga uning zimmasidagi majburiyatlar tushuntirilganligi va ushbu majburiyatlarni buzgan taqdirda, garovga qoʻyilgan narsalar davlat foydasiga oʻtkazilishi, unga esa jiddiyroq ehtiyot chorasini (qamoq) qoʻllanilishi haqida maʼlum qilinganligi, agarda garovga qoʻyuvchi boshqa

shaxs bo'lsa, uning ismi-sharifi, manzili, ayblanuvchiga aloqasi (garovga qo'yuvchi yuridik shaxs bo'lsa, uning nomi va manzili ham), garovga qo'yuvchiga yuritilayotgan ishning mohiyati, ayblanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va o'zining garov ehtiyot chorasi qo'llanilishi bilan bog'liq huquq va majburiyatlari (ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi, zimmasidagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlamasligini ta'minlash va ushbu majburiyatdan noxush oqibatlar kelib chiqquncha voz kechishi mumkinligi), gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) o'z majburiyatlarini buzsa, garov davlat foydasiga o'tkazilishi haqida tushuntirilganligi, garov predmetining yoki uni tasdiqlovchi hujjatning surishtiruvchi, tergovchi (sud) tomonidan qabul qilinganligi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi), garovga qo'yuvchi va surishtiruvchi, tergovchi (sudya)ning imzolari (tavsif qismida) qayd etiladi.

Garovni qabul qilish bayonnomasi garov predmeti taqdim etilganligini ifodalovchi va tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Ushbu bayonnoma tuzilib, imzolanganidan so'ng, garov ehtiyot chorasi sifatida qo'llanilgan hisoblanadi. Garovni qabul qilishda o'tkaziladigan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, garovga qo'yuvchiga majburiyatlarini tushuntirish, garovga qo'yuvchini ishning mohiyati, ayblanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo haqida xabardor qilish surishtiruvchi, tergovchi (sud) tomonidan garovni qo'llashda o'tkaziladigan boshqa harakatlar bo'lib, ular albatta amalga oshirilishi va tegishlicha bayonnomada qayd qilinishi zarur. Bayonnoma tuzilgandan so'ng, o'qib eshittiriladi. Ushbu bayonnoma ikki nusxada tuziladi va bir nusxasi jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, ikkinchisi esa, garovga qo'yuvchiga taqdim etiladi.

Garovni qabul qilish bayonnomasiga, agar garov tariqasida pul yoki qimmatbaho buyum tergov yoki sudning depozit hisobvarag'iga topshirilgan bo'lsa, buni tasdiqlovchi hujjat (kirim orderi, kvitansiya va h.k.) ilova qilinadi. Agarda garov tariqasida tergov va sudning depozit hisobvarag'iga topshirilmaydigan qimmatbaho buyum (televizor, avtomashina va h.k.) taqdim etilgan bo'lsa, bayonnomada uning

xususiyatlari va belgilari to'liq tavsiflanishi, shuningdek, uning qiymati, bahosini aniqlash (mutaxassis yordamida) bilan bog'liq harakatlar ham qayd etiladi.

Agarda garov tariqasida ko'chmas mulk taqdim etiladigan bo'lsa, uning hujjatlari olinadi va mulkning narxini aniqlash bilan bog'liq harakatlar bajarilishi kerak. Mamlakatimizda ko'chmas mulklar bilan bog'liq harakatlar muayyan idoralar tomonidan ro'yxatga olinadi. Ko'chmas mulk garov sifatida taqdim etilganda, davlatning ushbu idoralari, hududiy notarial idoralar ham xabardor qilinishi zarur.

Ehtiyot chorasini o'zgartirish uni tanlash shart-sharoitlari buzilganligi tufayli ro'y bermayotgan bo'lsa, shuningdek, ish yuritish tugatilgan hollarda yoxud sud hukmi kuchga kirishi munosabati bilan garov uni qo'yuvchiga qaytariladi. Ayblanuvchi, sudlanuvchi zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda garov sud ajrimi bilan davlat foydasiga o'tkaziladi va ayblanuvchiga, sudlanuvchiga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llaniladi.

*Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat.* Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat ayblanuvchining yoki sudlanuvchining surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga tergov va suddan yashirinmaslik, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruvi bilan yetib kelish haqida bergan yozma majburiyatidir. Tilxat beruvchi shaxs bundan tashqari o'z zimmasiga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning ijozatisiz ushbu aholi punktidan chiqib ketmaslik va shu aholi punkti doirasida istiqomat joyini o'zgartirsa, bu haqda ularni xabardor qilish majburiyatini oladi.

Ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda unga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin, bu haqda u tilxat olish chog'ida ogohlantiriladi.

Munosib hulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat shaklidagi ehtiyot chorasining mohiyati shaxsning nafaqat huquqqa xilof xatti-harakatlarni

sodir etmaslik, balki o'zi yashab turgan aholi punktidan chiqib ketmaslik majburiyatini olishdan ham iborat bo'ladi.

Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olish ehtiyot choralarini qo'llashning umumiy maqsad va asoslariga ko'ra umumiy tartibda qo'llaniladi. Bunda ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror chiqariladi va ushbu qaror ayblanuvchiga tanishtirilib, uning majburiyatlari va majburiyatlarga amal qilmaslikning oqibatlari tushuntirilib, undan tilxat olinadi.

*Shaxsiy kafillik.* Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasining mohiyati shundaki, ishonch tug'diradigan shaxslardan ular gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi haqida yozma majburiyat olinadi.

JPKda shaxsiy kafillikka nafaqat ayblanuvchining organlarga kelishini ta'minlash vositasi, balki ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlash vositasi sifatida ham qaraladi. Munosib xulq-atvorda bo'lish deganda, ayblanuvchining boshqa jinoyat, shuningdek, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiluvchi harakatlar sodir etmasligi tushuniladi.

Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi tanlanganda kafillar soni qancha bo'lishini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud belgilaydi. Kamdan-kam hollarda alohida ishonchga ega bo'lgan bitta shaxs ham kafil bo'lishi mumkin.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi masala ko'pincha ayblanuvchini kafillikka olishni istovchi fuqarolardan arizalar tushishi munosabati bilan yuzaga keladi. Qanday ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror, shuningdek, ayblanuvchini ishonib topshirish mumkin bo'lgan kafillarni tanlash uchun mas'uliyat surishtiruv o'tkazayotgan shaxs, tergovchi, prokuror va sudning zimmasiga tushadi.

Shaxsiy kafillik haqida tilxat olinayotganida, kafil ehtiyot chorasi tanlangan ishning mazmunidan xabardor qilinishi hamda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ehtiyot chorasini tanlash bilan oldini olish



mo'ljallanayotgan harakatni sodir etgan, ya'ni tergov va suddan yashiringan, yangi jinoyat sodir etgan yoki ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilgan taqdirda javobgar bo'lishi haqida ogohlantirilishi kerak. Ushbu hollarda kafillar qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Kafillar ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatish imkoni bo'lmaganligini bahona qilishga haqli emaslar. Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladigan asoslar kelib chiqquniga qadar zimmalariga olgan majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin.

Shaxsiy kafillik ham ehtiyot choralari qo'llashning maqsad va asoslariga ko'ra umumiy tartibda qo'llaniladi. Bunda ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror chiqariladi va ushbu qaror ayblanuvchiga, kafillarga tanishtirilib, ularning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarga amal qilmaslikning oqibatlari tushuntirilib, bu haqda bayonnoma rasmiylashtiriladi.

*Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi.* Jamoat birlashmasi yoki jamoa ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni kafillikka olish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli bo'lib, o'z qarorini ayblanuvchining, sudlanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanligi to'g'risidagi yozma majburiyat tarzida bayon qiladi. Bu majburiyat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga taqdim qilinadi, ular jamoat birlashmasi yoki jamoaning qaroriga rozi bo'lsalar, shunday ehtiyot chorasini tanlab, bu haqda qaror yoki ajrim chiqaradilar. Ayni vaqtda jamoat birlashmasi yoki jamoa vakiliga ushbu ehtiyot chorasini qo'llanilishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga esa, basharti xulq-atvori nomunosib bo'lsa, ehtiyot chorasini og'irrog'i bilan almashtirilishi mumkinligi tushuntirilgani to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa ishga o'tgan yoxud istiqomat joyini o'zgartirgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa bu haqda ehtiyot chorasini tanlagan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga darhol xabar berishi shart. Bunday hollarda jamoa kafilligi bekor qilinadi

va boshqa ehtiyot chorasi bilan almashtirilishi mumkin. Ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvori nomunosib bo'lgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa kafillikdan voz kechishga haqlidir.

Jamoat birlashmasining kafilligi jamoatchilikning jinoyat protsessida ishtirok etishi shakllaridan biridir. Lekin ehtiyot chorasi sifatidagi jamoat birlashmasining kafilligini uncha xavfli bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxsni jamoat birlashmasi yoki jamoa otalig'iga berishdan farqlash lozim. Otaliqqa berilganda aybdor jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi va jinoyat ishi tugatiladi. Jamoat kafilligiga olish ehtiyot chorasi tergov yuritilayotganida yoki ish sudda ko'rilayotganida tanlanadi.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash uchun majburiyat jamoat birlashmasi yoki jamoa a'zolarining umumiy majlisidan kelib chiqishi zarur. Ushbu majburiyat majlisning yozma qarori ko'rinishida bo'lishi va unda jamoa ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi va chaqirilganda hozir bo'lishiga kafolat berishi talab etiladi.

Muassasa va korxonalar ma'muriyatidan yoki jamoat birlashmalarining ijro organlaridan kelib chiqadigan kafillik jamoat kafilligini qo'llash uchun yetarli emas. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, jamoa kafilligi ehtiyot chorasi sifatida hali juda kam qo'llanilmoqda. Chunki tergov organlari amaliyotida jamoatchilikni jinoyatchilikka qarshi kurashga jalb etishning ushbu shakli yetarli baholanmayapti. Ba'zan jamoatchilik bilan aloqaning sustligi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Jamoat birlashmasining kafilligi ehtiyot chorasi ayblanuvchi ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan va kelajakda uni tegishli jamoat ta'siri chorasini ko'rib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Ushbu holda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishi va tergov yoki ishni ko'rib chiqish jarayonida hozir bo'lishi uchun majburiyat olgan jamoa ilgari jinoyat ishi materiallari bilan to'qnashgan hamda o'z a'zosining taqdirini belgilashda faol ishtirok etgan bo'lardi. Ayblanuvchiga kelganda esa, jamoat tashkiloti uning pirovard taqdiri hal bo'lmasidan

avval kafillik berishi unga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi va ish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilinishiga yordam berishi mumkin.

Ushbu choraning kuchi jamoaning ishonch bildirishida bo'lib, bunday ishonchni yo'qotish o'zini jamoadan tashqari qo'yish bilan barobardir. Ana shu narsa ayblanuvchining o'z vaqtida hozir bo'lishini va munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydi. Bunday ehtiyot chorasini tanlash tashabbusi tergov olib borayotgan shaxslardan ham, jamoat birlashmalaridan ham chiqishi mumkin.

*Voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish.* Voyaga yetmagan ayblanuvchilarga nisbatan maxsus kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish ehtiyot chorasi qo'llanilishi belgilangan. Unga ko'ra voyaga yetmaganlarni ota-onalari, vasiylari, homiylari, bolalar muassasasining ma'muriyati kuzatuv ostiga olishi uchun topshirish mumkin. Ushbu ehtiyot chorasining mohiyati shundaki, mazkur shaxslardan birontasi voyaga yetmaganning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror huzuriga va sudga o'z vaqtida kelishini, shuningdek, ayblanuvchining JPK 46-moddasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishini ta'minlash mas'uliyatini yozma ravishda o'z zimmasiga oladilar. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarga nisbatan ushbu ehtiyot chorasini tanlash nafaqat ehtiyot choralariga xos bo'lgan maxsus maqsadlarga erishish, balki tarbiya choralari ko'rilishiga erishish maqsadida ham qo'llaniladi. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillar, shuningdek, tegishli bolalar muassasalari ma'muriyatining kuzatuv voyaga yetmagan shaxsni tergov bosqichidayoq tarbiyalash bilan shug'ullanish uchun real imkoniyat beradi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchilarga nisbatan maxsus kuzatuv ostiga olish uchun (qarovga) topshirish ehtiyot chorasi ikki xil tartibda qo'llaniladi: 1) voyaga yetmagan shaxsni to'g'ridan-to'g'ri qarovga topshirish; 2) voyaga yetmagan shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish orqali qarovga topshirish.

Tergovchi kuzatuv ostiga berish ehtiyot chorasini tanlayotganida ushbu shaxslar o'z vazifalarini qay darajada bajara olishlarini va voyaga

yetmagan shaxsga to'g'ri tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini aniqlashi shart. Buning uchun mazkur shaxslarning shaxsiy xislatlari, ularning jamiyatlardagi mavqei, farzandlariga ta'siri kabi jihatlari puxta o'rganiladi.

Voyaga yetmaganni ota-onasining, vasiylarning, homiylarning yoki boshqa shaxslarning qaroviga topshirish ularning, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsning o'zining roziligi bilangina amalga oshiriladi.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash haqida qaror chiqarishdan oldin surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ota-onalar, vasiylar yoki homiylarning shaxsi, ularning voyaga yetmagan shaxs bilan o'zaro munosabatini o'rganishi va ular o'smirni qarov ostiga olishni lozim darajada amalga oshirishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Qaror qarovga olayotganga, ayblanuvchiga tanishtiriladi, ota-onalardan, vasiylardan, homiylardan bolalar muassasasi rahbarlaridan voyaga yetmagan shaxsni qarovga qabul qilish haqida tilxat olinadi. Shuningdek, ularga ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga asos bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va voyaga yetmagan shaxs sodir etishi ehtimol tutilgan qilmishlarning oldini olish maqsadida qarovga berilganidan keyin u xuddi ana shu xatti-harakatlarni sodir etsa, qarovga oluvchilarning javobgarligi haqida tushuntiriladi va bu haqda qarovga berish bayonnomasida yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi.

Voyaga yetmagan shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish orqali kuzatuvga topshirish ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni turmush va tarbiyalanish sharoitiga ko'ra ilgari yashash joyida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lmasa, surishtiruvchining, tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga yoki sudning ajrimiga binoan amalga oshiriladi. Ish yurituv davrida shaxsni bolalar muassasasiga joylashtirish haqidagi qaror ayblanuvchini bolalar muassasasiga joylashtirish zarurligini asoslovchi va boshqa kerakli hujjatlar ilova qilingan holda bolalar muassasasiga yuboriladi. Mazkur qarorni taqdim etish bilan bir vaqtda voyaga yetmagan ayblanuvchi ham ushbu muassasaga joylashtiriladi. Voyaga yetmagan ayblanuvchi bolalar muassasasiga joylashtirilganidan so'ng ehtiyot chorasi

qo‘llash haqidagi qaror muassasa rahbariyatiga tanishtirilib, ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilib, tegishli bayonnoma rasmiylashtiriladi.

*Harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv.* Ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o‘quv yig‘iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo‘yicha harbiy qism, qo‘shilma, harbiy muassasa, harbiy o‘quv yurti *qo‘mondonligining kuzatuviga* berilishi mumkin.

Qo‘mondonlik kuzatuv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo‘lishini ta‘minlaydigan choralarni ko‘rishdan iborat.

Ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimi qo‘mondonlik uchun majburiydir, unga harbiy xizmatchi ustidan kuzatuv o‘rnatish zaruratini keltirib chiqargan ayblovning mohiyati tushuntirilishi lozim. Oldini olish maqsadida mazkur ehtiyot chorasi qo‘llanilgan harakatlarni ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan taqdirda, qo‘mondonlik surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudni bu haqda darhol xabardor qilishi shart.

Aslida voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish va harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv ehtiyot choralari shaxsiy kafillikning bir ko‘rinishi bo‘lib, ayblanuvchi shaxsiga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda alohida tartibda qo‘llanilishi belgilangan.

## **7.5. Lavozimdan chetlashtirish**

Ish yurituvchi davrida ayblanuvchi, sudlanuvchi o‘z ish joyida qolsa, jinoyat ishiga oid haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga to‘sqinlik qiladi yoxud jinoiy faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, ular lavozimidan chetlashtirilishi mumkin.

Ishni sudga qadar yuritishda ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish uchun asoslar mavjud bo'lganda prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uning ish joyi; lavozimdan chetlashtirish asoslari ko'rsatiladi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi.

Surishtiruvchining, tergovchining ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi. Prokuror ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning asoslilikini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda, yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Sud majlisida prokuror, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, himoyachi va qonuniy vakil ishtirok etadi. Zarur bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi sudga chaqirilishi mumkin. Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi.

Iltimosnomani ko'rib chiqish prokurorning ma'ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash zaruratini asoslab beradi. So'ngra ayblanuvchi, himoyachi, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim qilingan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

Sudya ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida yoki ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishni rad qilish haqida ajrim chiqaradi.

Sudyaning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimida: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uning ish joyi; lavozimdan chetlashtirish asoslari; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga qo'yiladigan talab ko'rsatiladi.

Sudyaning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Ajrim tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga ijro uchun, prokurorga, ayblanuvchiga, himoyachiga esa ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish ikki soat ichida ayblanuvchi, uning himoyachisi va qonuniy vakili, lavozimidan chetlashtirilgan ayblanuvchi ishlagan tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari tomonidan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi yoxud prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin. Shikoyat, protest ajrimni chiqargan sud orqali beriladi, mazkur sud qirq sakkiz soat ichida ularni materiallar bilan birga apellatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Shikoyat yoki protest berish sudning ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi ajrimi ijrosini to'xtatib qo'ymaydi. Apellatsiya instansiyasi sudi ushbu materiallarni shikoyat yoki protest bilan birga ular kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqishi kerak.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;

sudyaning ajrimini bekor qilish va ayblanuvchiga nisbatan lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llashga yoki mazkur protsessual majburlov chorasini bekor qilishga haqli.

Sudning ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi ajrimi korxonasi, muassasa, tashkilot rahbari uchun majburiy bo‘lib, rahbar ajrimni olishi bilan darhol uni ijro etishi hamda bu haqda surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni va sudni xabardor qilishi shart.

Ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish mazkur protsessual majburlov chorasini qo‘llash uchun asos bo‘lgan holatlar bekor bo‘lguniga qadar o‘tgan vaqt mobaynida qo‘llaniladi.

Ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan bekor qilinadi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo‘llash rad qilingan yoki u bekor qilingan taqdirda, aynan o‘sha ayblanuvchiga nisbatan mazkur masala bo‘yicha takroran sudga murojaat qilishga lavozimidan chetlashtirish uchun asos bo‘ladigan yangi holatlar yuzaga kelganda yo‘l qo‘yiladi.

## **7.6. Majburiy keltirish**

Jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko‘rsatilgan vaqtda hozir bo‘lishlari shart. Uzrli sabablarsiz kelmagan taqdirda ular majburiy keltiriladilar.

Majburiy keltirish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining, guvohning protsessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta‘minlash uchun, ular uzrli sabablarsiz kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda qo‘llaniladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirib yurgan yoki aniq yashash joyi bo‘lmagan taqdirda qo‘llanilishi mumkin.

Sudlanuvchining sudga kelmaganligi sababini oldindan aniqlamasdan turib, majburiy keltirishga alohida hollarda, ishni ko‘rish



sudlanuvchi bo‘lmaganligi sababli keyinga qoldirilayotgan va bunda uning turgan joyi to‘g‘risida ma’lumot bo‘lmagan taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Guvohga yoki jabrlanuvchiga nisbatan majburiy keltirishning qo‘llanilgani ularni ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror majburiy keltirish to‘g‘risida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Ushbu qaror yoki ajrimda: majburiy keltirilishi kerak bo‘lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; uning protsessual mavqei; yashash yoki ish joyi; majburiy keltirish uchun asoslar; shaxsni qayerga va qachon olib kelish kerakligi; majburiy keltirish kimga topshirilganligi ko‘rsatiladi.

Majburiy keltirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim ijro etish uchun ish yuritilayotgan joydagi ichki ishlar organiga topshiriladi. Majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxsni topgan ichki ishlar organining xodimi uni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib tilxat oladi va mazkur qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoxud sudga olib keladi. Bunda qarorga (ajrimga) shaxs topilgan vaqt va joy, u keltirib topshirilgan vaqt, shuningdek, uning majburiy keltirilishi bilan bog‘liq ariza, shikoyat va iltimoslar haqidagi ma’lumotnoma ilova qilinishi lozim.

Ichki ishlar organi shaxsning qochib ketganligi, ta’tilda, xizmat safarida ekanligi, og‘ir kasalligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra yo‘qligi oqibatida majburiy keltirishga imkon bo‘lmaganligini aniqlasa, bu haqda ma’lumotnoma tuzadi hamda qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoxud sudga xabar beradi.

### **7.7. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish**

Agar sud-tibbiyot yoki sud-psixiatriya ekspertizasini o‘tkazishda ayblanuvchini, sudlanuvchini statsionar ko‘rikdan o‘tkazish zarurati vujudga kelsa, ular tegishli tibbiy muassasaga joylashtirilishi mumkin.

Ruhiy holati ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish va ayblov e’lon qilish imkoniyatini istisno etadigan gumon

qilinuvchi ham, agar aynan uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligiga yetarlicha dalillar mavjud bo'lsa, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy psixiatriya muassasasiga joylashtirilishi mumkin.

Jabrlanuvchilar va guvohlar tegishli sud ekspertizasini o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy joylashtirilishi mumkin emas, ular gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining Jinoyat kodeksi 15-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganligini fosh qilayotgan va ular bergan ko'rsatuvlarning ishonchliligini tekshirishning boshqa imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Agar shaxsning gumon qilinuvchi tariqasida bo'lishi muddati statsionar sud-psixiatriya ekspertizasi tamom bo'lguniga qadar tugasa, uning ruhiy holati imkon bersa, unga ayblov e'lon qilish yoki uni tibbiy psixiatriya muassasasidan ozod qilish yoxud uni tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs tariqasida e'tirof etish to'g'risida qaror chiqarish zarur.

Shaxs tibbiy muassasaga ko'pi bilan bir oy muddatga joylashtirilishi mumkin. Alohida hollarda, shifokorlarning statsionar sud ekspertizasini o'tkazish davomida olingan xulosasiga asosan, bu muddat sud tomonidan faqat ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan bir oygacha uzaytirilishi mumkin. Ayblanuvchining ishni sudga qadar yuritish bosqichida tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish sud tomonidan prokurorning qonunda belgilangan tartibda kiritilgan iltimosnomasiga binoan, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish esa JPK 423, 438-moddalarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma ayblanuvchi tibbiy muassasada bo'lishining belgilangan muddati tugashidan kamida olti sutka oldin tegishli prokuror tomonidan kiritiladi.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilayotganda, agar mazkur muassasa qamoqqa

olinganlarni yoki uy qamogʻidagi shaxslarni saqlash uchun moslashtirilgan boʻlsa, qamoqqa olish yoxud uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanishi mumkin. Boshqa holda mazkur ehtiyot chorasi bekor qilinishi yoki yengilrogʻi bilan almashtirilishi kerak.

Ishni sudga qadar yuritishda shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish uchun asoslar mavjud boʻlganda prokuror, tergovchi va surishtiruvchi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisida iltimosnoma qoʻzgʻatish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qoʻllash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Iltimosnoma qoʻzgʻatish haqidagi qarorda: tibbiy muassasaga joylashtiriladigan shaxs haqidagi maʼlumotlar va uning protsessual holati; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish asoslari; shaxs joylashtiriladigan tibbiy muassasaning nomi; ehtiyot chorasi toʻgʻrisida taklif etilayotgan qaror koʻrsatiladi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi. Surishtiruvchining yoki tergovchining shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisida iltimosnoma qoʻzgʻatish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi. Prokuror shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisidagi iltimosnomaning asosliligini tekshirib, unga rozi boʻlgan taqdirda, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisida iltimosnoma qoʻzgʻatish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisidagi iltimosnoma tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda, yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan eʼtiboran qirq sakkiz soat ichida koʻrib chiqiladi. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish toʻgʻrisidagi iltimosnoma prokuror, himoyachi, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan boʻlsa, oʻziga nisbatan ekspertiza oʻtkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish masalasi koʻrib chiqilayotgan shaxslarning manfaatlarini ifodalovchi jabrlanuvchining vakili, guvohning advokati, qonuniy vakillar ishtirokida koʻrib chiqiladi. Tibbiy muassasaga joylashtirilayotgan shaxs, agar uning sogʻligʻi imkon bersa, sud majlisida qatnashishga haqli. Zarur hollarda surishtiruvchi yoki tergovchi sudga chaqirilishi mumkin. Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada

xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish prokurorning ma'ruzasi bilan boshlanadi, u mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash zaruratini asoslab beradi. So'ngra tibbiy muassasaga joylashtirilayotgan shaxs, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, himoyachi, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim qilingan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

Ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joyda yoki tibbiy muassasa joylashgan yerda, yuqorida qayd etilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda sud taqdim etilgan materiallarning asosligini, shuningdek, protsessual normalarga va talablarga rioya etilganligini hisobga oladi.

Sudya shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risida yoki shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishni rad qilish haqida ajrim chiqaradi. Sudning shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi ajrimida: tibbiy muassasaga joylashtiriladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uning protsessual holati; shaxs joylashtirilayotgan tibbiy muassasaning nomi; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish asoslari; ehtiyot chorasi to'g'risidagi qaror, zarur hollarda esa, shaxsni mazkur muassasaga ko'chirish to'g'risidagi farmoyish ko'rsatiladi. Sudya ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish haqida yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sud ajrimi o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Ajrim ijro uchun prokurorga, ma'lumot uchun esa himoyachiga, jabrlanuvchining vakiliga, guvohning advokatiga, qonuniy vakilga yuboriladi.

Sud ajrimi ustidan mazkur ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish ikki soat ichida tibbiy muassasaga joylashtirilayotgan shaxs, uning himoyachisi, jabrlanuvchining vakili, guvohning advokati va qonuniy vakil tomonidan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi yoxud prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin. Shikoyat, protest ajrim chiqargan sud orqali beriladi, mazkur sud ularni qirq sakkiz soat ichida materiallar bilan birga apellatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart. Shikoyat yoki protest berilishi sud ajrimining ijrosini to'xtatib qo'ymaydi. Apellatsiya instansiyasi sudi ushbu materiallarni shikoyat yoki protest bilan birga ular kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqishi kerak.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;

sudyaning ajrimini bekor qilish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llashga yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirishga yoxud mazkur protsessual majburlov chorasini bekor qilishga haqli.

Statsionar sud-tibbiy yoki sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasini olganidan so'ng prokuror, tergovchi va surishtiruvchi qaror chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini bekor qilish haqida qaror chiqaradi. Sud ekspertizasi natijalariga ko'ra shaxs aqli noraso deb e'tirof etilganda uning tibbiy muassasada bundan buyon bo'lishi to'g'risidagi masala JPK 61-bobi normalariga muvofiq hal etiladi, jabrlanuvchi, guvoh aqli noraso deb e'tirof etilgan yoki shaxsning psixiatriya yordami ko'rsatish talab etiladigan boshqa turdagi ruhiy kasalligi aniqlangan hollarda esa, qonun hujjatlariga muvofiq umumiy asoslarda hal etiladi.

## **7.8. Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash, protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik**

*Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlash* deganda, jinoyat protsessi ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i, mulkiy hamda boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy-texnikaviy va boshqa mazmundagi choralar kompleksini amalga oshirish tushuniladi.

JPKning 270-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o'zga g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayapti deyish uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek, aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralarini ko'rishlari shart.

Jinoyat protsessining xavfsizligi ta'minlashi kerak bo'lgan ishtirokchilarga quyidagilar kiradi:

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat haqida ariza bergan yoki jinoyatni aniqlash, uning oldini olish, uni bartaraf etish va ochishda boshqacha tarzda ishtirok etgan shaxs;

– jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi va uning vakili;

– ayblanuvchi, uning himoyachisi, vakili yoki qonuniy vakili;

– jinoyat ishida jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash zarurligi munosabati bilan ishtirok etayotgan fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari;

– guvoh;

– ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis;

– mazkur shaxslarning oila a'zolari va yaqinlari (agar jinoyat protsessining ushbu ishtirokchilariga ular orqali g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishga harakat qilinayotgan bo'lsa).

Himoya qilinayotgan shaxslarning xavfsizligini quyidagi organlar ta'minlaydilar:

a) xavfsizlik choralarini qo'llash haqida qaror qabul qiladigan organlar;

b) xavfsizlik choralarini amalga oshiradigan organlar.

Xavfsizlik choralarini qo'llash haqidagi qaror qabul qiladigan organlarga tergov qilishda yoki sudda ko'rib chiqishda himoya qilinayotgan shaxslar ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan jinoyatlar haqidagi ishlarni yuritayotgan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudya kiradi.

Xavfsizlik choralarini amalga oshirish vazifasi tergovga tegishliligi bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, ichki ishlar idoralari va prokuraturaga yuklatiladi. Protsessual harakatlarni o'tkazishda xavfsizlik choralarini jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudya amalga oshiradi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan xavfsizlik choralarini harbiy qismlarning komandirlari ham ko'radilar.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish borasidagi qonun hujjatlarining ijrosini O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar nazorat qiladilar.

Xavfsizligi ta'minlanayotgan shaxslar quyidagi huquqlarga egadirlar: o'zlarining va boshqa shaxslarning xavfsizligini ta'minlash haqida iltimosnoma berish; o'zlariga nisbatan xavfsizlik choralari qo'llanilishini bilish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudyadan qo'shimcha xavfsizlik choralari qo'llanilishini yoki amalga oshirilayotgan choralarning bekor qilinishini talab qilish; yuqori turuvchi organ, prokuror yoki sudga xavfsizlikni ta'minlovchi organlarning noqonuniy qarorlari va harakatlari yuzasidan shikoyat qilish.

Ayni paytda ushbu shaxslar quyidagilarga majburdirlar: xavfsizlikni ta'minlovchi organlar amalga oshirayotgan xavfsizlik choralarini amalga oshirish shartlarini va qonuniy talablarini bajarish;

o'zlariga nisbatan tajovuz qilingan yoki g'ayriqonuniy harakat sodir etilgan har bir holat haqida mazkur organlarga zudlik bilan xabar qilish; ularga huquqni muhofaza qiluvchi organlar xavfsizligini ta'minlash uchun shaxsiy foydalanishga bergan ashyolardan belgilangan qoidalarga muvofiq foydalanish.

Xavfsizligi ta'minlanishi haqida qaror qabul qiladigan organlar quyidagilarga haqlidirlar: bunday turdagi ta'minlashga muhtoj bo'lgan shaxslardan kelib tushgan xavfsizliklariga tajovuz haqidagi arizalar va xabarlar bo'yicha zarur materiallarni talab qilib olish va tergov harakatlari o'tkazmay turib tushuntirishlar olish; xavfsizlik choralari qo'llovchi organlardan qo'shimcha choralarni ko'rishni talab qilish; amalga oshirilayotgan choralari to'liq yoki qisman bekor qilish.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ichki ishlar idoralariga ishda ishtirok etayotgan shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadri-qimmati va mol-mulki muhofaza qilinishini ta'minlovchi barcha zarur choralarni ko'rish xususida yozma ravishda topshiriq berishga haqlidir. Bunda ichki ishlar idorai xavf tahdid solayotgan shaxslarga doir jinoyat ishidagi mavjud ma'lumotlardan, bu xavfning ehtimol tutilgan xususiyati, manbalari, joyi, vaqti va boshqa holatlaridan xabardor etilishi lozim.

Biroq jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash vazifasini faqat ichki ishlar idoralariga yuklatib qo'yish ularning to'liq xavfsizlik choralari ko'rish imkoniyatlariga mos kelmaydi. Aftidan, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar ham jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rishlari lozim.

Xavfsizlik choralari amalga oshiruvchi organ quyidagi huquqlarga ega bo'lishi kerak: xavfsizlik choralari ro'yxati, ularni qo'llash vositalari va usullarini belgilash, zarur bo'lganda ushbu choralarni o'zgartirish va to'ldirish; himoya qilinayotgan shaxslardan xavfsizlik choralari amalga oshirish shartlariga rioya etishlarini, shuningdek, ushbu choralarni qo'llash bilan bog'liq qonuniy farmoyishlarini bajarishlarini talab qilish; jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud



yoki sudyaga protsessual harakatlarni o'tkazish vaqtida xavfsizlik choralari qo'llash yoki amalga oshirilayotgan choralari bekor qilish haqida iltimos bilan murojaat etish.

Xavfsizlikni ta'minlovchi organlar quyidagilarga majburdirlar: shaxsiy xavfsizligining ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan jinoyat protsessi o'tkazishga ko'maklashish munosabati bilan sodir etilgan ularga ma'lum bo'lib qolgan har bir qonunga xilof harakat hodisasi bo'yicha zudlik bilan chora ko'rish; himoya qilinayotgan shaxslar xavfsizligiga solinayotgan tahdidning xususiyatini inobatga olgan holda ularning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati, uy-joyi va mulki-ning himoyalanihini ta'minlash; himoya qilinayotgan shaxslarni xavfsizlik choralari o'zgartirilishi yoki bekor qilinishidan o'z vaqtida xabardor qilish; xavfsizlikni ta'minlashda qonuniylikka rioya etish hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish.

Xavfsizlikni ta'minlashda ishtirok etuvchi organlar xodimlarining, shuningdek, himoya qilinayotgan shaxslarning ko'rilayotgan xavfsizlik choralari haqidagi ma'lumotlarni oshkor etishi taqiqlanadi.

Xavfsizlik choralari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- shaxsiy muhofaza, uy-joy va mulkni qo'riqlash;
- qurol hamda xavfdan ogohlantiruvchi yakka tartibda himoyalash vositalarini berish;
- telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni nazorat qilish va eshitib borish texnik vositalaridan foydalanish;
- hujjatlarni almashtirish va tashqi qiyofani o'zgartirish;
- boshqa turar joyga ko'chirish;
- ish joyini o'zgartirish;
- bolalar tarbiya muassasasiga yoki ijtimoiy ta'minot organlari muassasasiga joylashtirish;
- yopiq sud majlisi o'tkazish.

Himoya qilinayotgan shaxslar hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati, mulkiy va boshqa huquqlari uchun tug'ilgan xavfning xususiyati va

darajasini inobatga olgan holda ularga nisbatan boshqa xavfsizlik choralarini ham qo'llanilishi mumkin (masalan, ayblov xulosasiga berilgan ilovada, ya'ni sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxatida ularning taxallusi ko'rsatilishi mumkin. Xavfsizligi ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar ular ishtirokida o'tkazilgan tergov harakatlari bayonnomalarining kirish qismlari bilan birga sudga muhrlangan shaklda taqdim etiladi. Ushbu hujjatlar bilan ayblov xulosasini tasdiqlovchi prokuror va ishni ko'rib chiquvchi sudyalargina tanishishlari mumkin).

Zarur bo'lganda, xavfsizlikni ta'minlovchi organlar shaxsni muhofaza qiladilar, uy-joyi va mulkini qo'riqlaydilar. Bu shaxslarning uy-joyi va mulki yong'inga qarshi vositalar va qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlanishi mumkin. Ularning uy telefonlari nomerlari va transport vositalarining davlat raqamlari o'zgartirilishi mumkin.

Himoya qilinayotgan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga xavf bo'lganda ularga qurol hamda yakka tartibda himoyalaniшни ta'minlovchi va xavfdan ogohlantiruvchi maxsus vositalar berilishi mumkin. Ularga nisbatan zo'ravonlik qilish yoki qonunga xilof boshqa harakatlar sodir etilishi xavfi yuzaga kelsa, ularning arizasiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan yoki roziligisiz surishtiruvchi va tergovchining prokuror sanksiyasi olingan qarori asosida yoxud sud ajrimi bo'yicha JPKning 169–171-moddalariga muvofiq telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlar eshitib turiladi.

So'zlashuvlarni eshitib turish va yozib olish ishtirokchilari ularga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor etganligi uchun javobgarlikka tortilishlari haqida ogohlantiriladilar. Himoya qilinayotgan shaxs xavfsizligiga tahdidni bartaraf etish undan avvalgi ish joyidan bo'shashni talab qilsa, uning iltimosi yoki roziligi bilan yangi ishga joylashishga yordam beriladi. U majburan ishdan qolgan kunlar mehnat stajiga kiritiladi, mazkur davr uchun kompensatsiya (tovon) to'lanadi, yangi ish joyida kamroq maosh olgan taqdirda ish haqidagi farq to'lanadi.

Voyaga yetmagan shaxsning xavfsizligini ta'minlash uchun ular ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan vaqtincha bolalar tarbiya muassasalariga, voyaga yetgan mehnatga layoqatli shaxslar esa – ijtimoiy ta'minot organlarining muassasalariga joylashtirilishlari mumkin.

Himoya qilinayotgan shaxslarning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni quyidagi yo'llar bilan oshkor qilmaslik mumkin:

- tergovgacha bo'lgan tekshiruv materiallarida (arizalari, tushuntirish xatlari va boshqalarda), shuningdek, tergov harakatlari va sud majlislari bayonnomalarida ularning shaxsiga oid ma'lumotlarni cheklash, ushbu hujjatlardagi familiya, ism, ota ismlarini taxalluslar bilan almashtirish va ayni paytda haqiqiy anketa ma'lumotlarni jinoyat ishi materiallaridan alohida saqlanayotgan maxsus kartochkalarga kiritish;

- himoya qilinayotgan shaxs haqidagi ma'lumotlarning adreslar byurosi, pasport xizmati, yo'llarda harakatlanish xavfsizligi xizmatining bo'linmalari, ATS ma'lumotlar berish xizmati hamda boshqa davlat va xususiy axborot-ma'lumot fondlaridan, shuningdek, peyjing va uyali aloqa xizmatidan berilishini vaqtinchalik taqiqlash.

Sud yoki sudya kamdan-kam hollarda xavfsizlik choralari qo'llanilayotgan jabrlanuvchilar va guvohlardan ishni ko'rib chiqishda foydalanish uchun yozma ko'rsatuvlar olishga va bu bilan mazkur shaxslarni sud majlisiga kelishdan ozod qilishga haqlidir.

Himoya qilinayotgan shaxs xavfsizligining manfaatlari talab etgan hollarda sudning asoslantirilgan ajrimi va sudyaning qarori bo'yicha yopiq sud muhokamasi o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Bunday shaxs ushbu hollarda niqobda yoki niqoblovchi libosda so'zga chiqish huquqiga ega, himoya qilinayotgan shaxsni sudlanuvchiga niqobsiz va niqoblovchi libossiz ko'rsatish qat'iy taqiqlanishi kerak.

Sudlanuvchilarning qarindoshlari maxsus ajratilgan xonada jinoyat ishi bo'yicha guvohlar va jabrlanuvchilardan ajratilgan holda bo'lishlari kerak. Guvoh yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisi, ko'rsatuv berganidan keyin uning xavfsizligini ta'minlash uchun, qo'riqchilar bilan

birga sud joylashgan yerdan uzoqdagi boshqa joyga transportda olib borilishi kerak.

Harbiy xizmatchilarning xavfsizligi ushbu shaxslarning harbiy xizmatda bo'lishini inobatga olgan holda qo'llaniladigan mazkur choralar orqali ta'minlanadi. Harbiy xizmatchilarni himoya qilish uchun quyidagi choralar ham qo'llanilishi mumkin: boshqa harbiy qism, bo'linma yoki harbiy muassasaga xizmat safariga jo'natish; yangi xizmat joyiga ko'chirish; qism qo'mondonining kuzatuviga olish.

Jazoni ijro etish muassasasidagi shaxslarning xavfsizligi ularning huquqiy holatidan kelib chiquvchi ayrim cheklashlar bilan yuqorida keltirilgan choralar orqali ta'minlanadi. Ularga quyidagi choralar ham qo'llanilishi mumkin: bir jazoni ijro etish muassasasidan boshqasiga o'tkazish; alohida xonada saqlash; ehtiyot chorasi, jazoni o'tash turi yoki rejimini o'zgartirish.

Ehtiyot chorasi, jazoni o'tash turi yoki rejimini o'zgartirish amal-dagi jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan jinoyat protsessi amalga oshirilishi yoki sudning jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolik da'vosini hal qilishi munosabati bilan ularga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilish yoki shikastlash yoxud sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni oshkor etish hamda boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etish bilan qo'rqitish harakatlari qilinayotganligi haqida yetarli ma'lumotlarning mavjudligi xavfsizlik choralarini qo'llash uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarni mazkur shaxslarning yozma yoki og'zaki arizasi bo'yicha yoxud boshqacha tarz-dagi xabar-lari bo'yicha xavfsizlik choralarini qo'llash haqida qaror qabul qiluvchi organ belgilaydi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi organning himoya qilinayotgan shaxs jinoyat protsessiga ko'maklashayotganligi tufayli uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va mulkiga nisbatan tahdidning yo'qligini aniqlashi JPKning 270-moddasiga muvofiq ravishda amalga oshirilayotgan xavfsizlik choralarini bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Himoya qilinayotgan shaxslar xavfsizligini ta'minlash choralari tegishli asoslar bo'lgandagina qo'llaniladi. Ushbu choralarni qo'llash tartibi JPKning 270-moddasi va uni ijro etish uchun chiqarilgan normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Jinoyat protsessi ishtirokchisining xavfsizligiga tahdid solinayotganligi haqida ariza yoki xabar olgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudya uning arizasini (xabarini) tekshirishi hamda ko'pi bilan uch sutka ichida, kechiktirib bo'lmas hollarda esa darhol xavfsizlik choralari qo'llash yoki qo'llashni rad etish haqida qaror qabul qilishlari shart. Kelingan to'xtam haqida ular asoslantirilgan qaror yoki ajrim chiqaradilar va uni xavfsizlik choralari ko'rish vazifasi yuklatilgan organga ijro etish uchun yuboradilar. Mazkur organlar ushbu ajrim yoki qarorni bajarishlari shart.

Xavfsizlikka tahdid solinayotganligi haqidagi ariza (xabar)da jinoyat sodir etilganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudya jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jinoyat ishi qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish yoxud jinoyat sodir etilganligi haqidagi ariza (xabar)ni tergovga yoki sudlovga tegishlilik bo'yicha yuborish haqida qaror qabul qiladi. Ariza beruvchiga qabul qilingan qaror haqida xabar beriladi.

Xavfsizlik choralari ko'rish topshirilgan organ zarur choralar va ularni amalga oshirish usullari ro'yxatini belgilaydi, bunda ishning aniq holatlari hamda mavjud tahdidni bartaraf etish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Mazkur choralarni amalga oshiruvchi organ ko'rilgan xavfsizlik choralari va ularning natijalari haqida jinoyat ishi bilan shug'ullanayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki sudyaga xabar beradi, tahdid bartaraf etilganda unga yoki himoya qilinayotgan shaxs yashaydigan joydagi tegishli organga xavfsizlik choralari bekor qilish haqida iltimos bilan murojaat etadi.

Xavfsizlik choralari ko'rayotgan organ himoya qilinayotgan shaxs bilan ushbu choralarni qo'llash shartlari va taraflarning

javobgarligi haqida shartnoma tuzishga haqlidir. Xavfsizlik choralari bekor qilishga faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori sud yoki sudyaning ajrimi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Zarur hollarda jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xavfsizlik choralari ko‘rmasligi, shuningdek, xavfsizlik choralari haqidagi ma‘lumotlarning oshkor qilinishi qonun bo‘yicha tegishli chora ko‘rilishiga olib keladi. Himoya qilinayotgan shaxsning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida unga shaxsiy foydalanish uchun berilgan mulkni sotish, garovga qo‘yish yoki boshqa shaxslarga berish, xuddi shuningdek, yo‘qotish yoki buzish qonunga muvofiq tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi.

*Protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik.* Jinoyat protsessi ishtirokchilari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash uchun qonunda tegishli javobgarlik belgilangan.

*Protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik* deganda, protsess ishtirokchilari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni va majburiyatlarni bajarmayotgan yoki lozim darajada bajarmagan bo‘lsa, jinoyat protsessining vazifalarini ro‘yobga chiqarish maqsadida, ularga nisbatan qo‘llaniladigan ta‘sir choralari va ularni qo‘llash tartibi tushuniladi.

JPKning 271-moddasiga muvofiq, jinoyat ishini yuritish chog‘ida Jinoyat kodeksining 230–241-moddalarida nazarda tutilgan, odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatni sodir etgan protsess ishtirokchilari JPKning umumiy qoidalariga binoan javobgarlikka tortiladilar.

Bundan tashqari, protsessual majburiyatlarni buzganliklari uchun, xususan:

jabrlanuvchilar va guvohlar – surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning guvohlantirishdan, ekspertizadan o‘tish, ekspert tekshiruv uchun namunalar taqdim etish to‘g‘risidagi qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortganlik uchun;

uyida olib qo‘yish, tintuv o‘tkazilayotgan shaxslar, shuningdek, mol-mulki xatlangan shaxslar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va

ularning yaqin qarindoshlaridan tashqari) – surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning talabi bilan izlanayotgan ashyolarni berishdan bosh tortganlik uchun;

aloqa muassasalarining xodimlari – surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi qarorini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun;

mansabdor shaxslar va fuqarolar – basharti ular hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishga, tergov eksperimenti o‘tkazishga, murdani eksqumatsiya qilishga, olib qo‘yish va tintuv o‘tkazishga to‘sqinlik qilsalar;

protsess ishtirokchilari – surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilganlik uchun, agar ular ma‘lumotlarni oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan ogohlantirilgan bo‘lsalar;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, mutaxassis, ekspert, tarjimon, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, xalq maslahatchilarining kelishiga to‘sqinlik qilganlik, jinoyatning sabablariga va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga barham berish to‘g‘risidagi surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdim-nomasini yoki sudning xususiy ajrimini bajarmaganlik yoxud talab darajasida bajarmaganlik uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Odatda, sud majlisida tartibni buzgan, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo‘ysunmagan yoki sudni behurmat qilgan taqdirda tartibbuzar bunday harakatlarning takrorlanishi uni sud majlisi zalidan chiqarib yuborishga sabab bo‘lajagi haqida, JPK 272-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan tartibbuzar esa, bundan tashqari, ma‘muriy javobgarlikka tortilishi ham mumkinligi xususida ogohlantiriladi. Bu ogohlantirish ta‘sir qilmasa, protsess ishtirokchisi sudning

ajrimiga, boshqa shaxslar esa, raislik qiluvchining farmoyishiga muvofiq sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi. Ishni ko‘rish chiqarib yuborilgan shaxslarsiz davom ettiriladi.

Sudning ajrimi ayblovchi yoki himoyachiga taalluqli bo‘lgan taqdirda, ishni eshitish keyinga qoldirilishi lozim, bir shaxsni bir necha ayblovchi ayblayotgan yoki bir necha himoyachi himoya qilayotgan hollar bundan mustasnodir. Zalidan chiqarib yuborilgan ayblovchi yoki himoyachining nomunosib xulq-atvori to‘g‘risida sud xususiy ajrim chiqarib, uni tegishliligiga qarab, yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlarni malaka komissiyasiga yuboradi.

Sud zalidan sudlanuvchi chiqarib yuborilgan bo‘lsa, hukm uning ishtirokida e‘lon qilinishi yoki e‘lon qilinganidan keyin unga darhol ma‘lum qilinib, tilxat olinishi lozim. Sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan shaxsni (sudlanuvchi, ayblovchi va himoyachi bundan mustasno) raislik qiluvchi shu joyning o‘zida chiqargan ajrimiga asosan ma‘muriy javobgarlikka tortishi mumkin. Ajrim sud majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Protsess ishtirokchisining odil sudlovga qarshi jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishiga asoslar sud muhokamasida yoki ish kassatsiya yoxud nazorat tartibida ko‘rib chiqilayotganida aniqlangan bo‘lsa, sud bu protsess ishtirokchisiga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atadi va tergov qilish uchun uni prokurorga yuboradi.

JPKda nazarda tutilgan hollarda pul undirish va jarima solish jinoyat ishini ko‘rish qaysi sudga taalluqli bo‘lsa, shu sud tomonidan amalga oshiriladi. Protsessual majburiyatlarni yoki tartibni buzishga bevosita sud majlisida yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, jarima solish haqidagi ajrim ishni ko‘rayotgan sud tomonidan shu majlisning o‘zida chiqariladi. Boshqa hollarda pul undirish to‘g‘risidagi masala sud tomonidan pul undiriladigan shaxs chaqirilib hal qilinadi. Mazkur shaxsning uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasligi ishni ko‘rishga monelik qilmaydi.

Sud majlisida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan tartibbuzarlik to‘g‘risida tuzilgan bayonnoma va unga ilova qilingan



materiallar yoxud sud majlisi bayonnomasidan olingan tegishli ko'chirma o'qib eshittiriladi. Shundan so'ng javobgarlikka tortilayotgan shaxsning izohlari, sud majlisida prokuror qatnashayotgan bo'lsa, uning fikri eshutiladi va ajrim chiqariladi.

Tarjimonga, mutaxassisga, kafilga pul undirish yoxud sud majlisi zalida tartibni buzgan shaxsga jarima solish to'g'risidagi ajrimni chiqargan sud bu ajrimning ijrosini uch oygacha muddatga kechiktirishga yoki ijroning bo'lib-bo'lib bajarilishiga ruxsat berishga haqlidir.

## **VIII BOB. JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH**

### **8.1. Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar va uni qoplash**

Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash deganda jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni bartaraf etish uchun yetkazilgan zararni hisoblash, zarar uchun moddiy javobgar shaxsni aniqlash va ushbu shaxsdan da'vogar foydasiga u ko'rgan zarar o'rnini qoplash yoki pul undirishga qaratilgan choralar tushuniladi.

Jinoyat ishi bo'yicha ashyoviy dalillar deb topilgan jinoyat predmetlari tergov apparatining ashyoviy dalillar saqlanadigan xonasida turadi. Ularni egalariga o'z vaqtida qaytarish uchun, JPKning 287-moddasida shunday deb belgilangan: «Jinoyat sodir etilishi natijasida jabrlanuvchi yoki yuridik shaxsning yo'qolgan va ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan mol-mulki egasiga baytarilishi lozim. Jabrlanuvchi vafot etgan taqdirda uning mol-mulki merosxo'rlariga, tugatilgan yuridik shaxsning mol-mulki esa, uning huquq vorisiga o'tkaziladi».

Agar jinoyat ishida egasini aniqlab bo'lmagan mol-mulk mavjud bo'lsa, u davlat egaligiga o'tkaziladi. Mol-mulkni qaytarib berish yoki uni davlat egaligiga o'tkazish sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ajrimiga asosan, ish tugatilganda esa, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi.

Sudda ko'rilishi kerak bo'lgan ish bo'yicha tergovchi yoki prokuror mol-mulkni egasiga qaytarish yoki davlat mulkiga aylantirish haqidagi masalani o'z qarori bilan hal qila olmaydi. Bunday ish bo'yicha bu masala faqat sudning vakolatiga kiradi.

Jinoyat sodir etilishi natijasida mahrum bo'lingan va ish bo'yicha ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan mol-mulkning mulkdori yoki qonuniy

egasi bu mol-mulkdan voz kechsa va uning qiymatini undirib berish to'g'risida fuqaroviy da'vo qo'zg'atsa, sud mol-mulkdan voz kechishni asosli deb topib, fuqaroviy da'voni qanoatlantirgan holda mol-mulkni mahkumga yoki fuqaroviy javobgarga beradi.

Sud mol-mulkdan voz kechishni asossiz deb topsa, da'voni qondirmaydi yoki qisman qondirib, qaytariladigan mol-mulkning qiymati qanchaga pasaygan bo'lsa, shu summani yoxud tovar ko'rinishini yo'qotganligi sababli (ta'mirlash zarur bo'lsa), ta'mirlashga qilinadigan chiqim summasini va tovonini jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar foydasiga undirib beradi. Mol-mulkning dastlabki va keyingi qiymati hamda tovar ko'rinishini yo'qotganlik uchun tovon puli mutaxassis yoki ekspert ishtirokida aniqlanadi, ta'mirlash qiymati esa, ta'mirlashni amalga oshirayotgan va ta'mirlanganligini tasdiqlaydigan korxonaga bergan hujjat asosida aniqlanadi.

Xususiy egalikda bo'lishi man qilingan mol-mulk ish bo'yicha ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan bo'lsa, mulkdor to'g'ri yoki g'ayri-huquqiy ravishda qo'lga kiritganiga qarab, u rekvizitsiya qilinadi yoki musodara etiladi, ya'ni mol-mulk haqini to'lash yoki to'lamaslik sharti bilan sud tomonidan bunday mol-mulkka (dori-darmonlar, o'qotar qurol va shu kabilarga) egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan tegishli davlat organiga yoki yuridik shaxsga beriladi.

## **8.2. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo. Boshqa mulkiy undirishlar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida «har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi» deyilgan. Ushbu huquqni amalga oshirish shakllaridan biri jinoyat ishini tergov qilish va sudda muhokama etish davomida jinoyat ishi bo'yicha fuqaroviy da'vo qilish mumkinligidir. Bunday da'vo da'vogarning

javobgarga nisbatan moddiy huquqqa asoslangan talabidan iborat moddiy-huquqiy hamda moddiy-huquqni amalga oshirish shakli va tartibini tashkil qiluvchi protsessual tarkibiy qismlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Odatda barcha turdagi da'volar fuqarolik sudlovida ko'rib chiqiladi. Biroq agar da'vo mazmunini jinoyat protsessi tartibida sudda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararni qoplash haqidagi talab tashkil etsa, qonunga binoan jabrlangan shaxs jinoyat protsessida ham da'vo bilan murojaat etishga haqlidir (ushbu da'vo jinoyat ishi bilan bir vaqtda ko'rib chiqilishi va hal qilinishi uchun). Bunday da'vo jinoyat protsessidagi fuqaroviy da'vo deb ataladi.

Jinoyat protsessidagi *fuqaroviy da'vo* – oddiy majburlash haqidagi da'vo, chunki uning mazmunini javobgarni da'vogar foydasiga muayyan harakatlar sodir etishga majburlash, jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararni qoplash haqidagi talab tashkil etadi. Bunday da'vo jinoyat protsessida ko'rib chiqilishi sababli fuqarolik protsessi yuritilganda bo'lmaydigan bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin ushbu xususiyatlar uning huquqiy tabiatini o'zgartirmaydi, uni majburlash da'vosidan boshqacha da'voga aylantirmaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksning beshinchi bo'limida tartibga solingan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash mexanizmida fuqaroviy da'vo instituti muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 275-moddasida qayd etilganidek, jinoyat protsessida jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash, shuningdek, jabrlanuvchini dafn etish yoki uning statsionarda davolanish xarajatlarini hamda sug'urta tariqasida unga to'langan pul, nafaqa yoki pensiya pulini undirish to'g'risidagi fuqaroviy da'volar ko'riladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqishda jabrlanganlarning o'zlariga yetkazilgan zararni undirish huquqlarini ta'minlash protsessual mexanizmining ta'sirchanligi ko'p jihatdan sud faoliyatining samaradorligini ham belgilab beradi.

Jinoyat protsessida «fuqaroviy da'vo» tushunchasini ta'riflashda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon va jismoniy zararni undirish – buning uchun maxsus vakolat berilgan mansabdor shaxslar va organlarning rasmiy faoliyati ekanligi hisobga olinishi lozim. Yetkazilgan mulkiy ziyon va jismoniy zararni fuqaroviy da'vo qo'zg'atish yo'li bilan undirish faoliyati bunday da'vo taqdim etish va qabul qilish, shaxsni fuqaroviy da'vog'ar deb e'tirof etish, taqdim etilgan da'vodagi talablarni asoslash, ularni ta'minlash bo'yicha zarur choralar qabul qilish va hokazolarni o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat fuqaroviy da'vog'arlar, fuqaroviy javobgarlar va ularning vakillarining jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va sud muhokamalarida faol ishtirokini talab qiladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voning mohiyatini belgilab olish uchun, avval «da'vo» tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur bo'ladi. «Da'vo» asli arabcha so'z bo'lib, o'z haq-huquqini himoya etish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talab tushuniladi. Shuningdek, zamonaviy huquqda da'vo (lot. «actio» – da'vo, «actionare» – sud muhofazasini izlash) barcha sud ish yurituvlari uchun xos bo'lgan turdosh tushuncha hisoblanadi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo deyilganda bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar ko'rgan shaxsning, uning qonuniy vakili yoxud uning manfaatlari asosida prokurorning aybdorga yoki moddiy javobgar shaxsga nisbatan, jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud muhokamasi tugaguniga qadar yetkazilgan zararni qoplash uchun bildiradigan va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan talabi tushuniladi.

Demak, jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning subyektiv fuqarolik huquqlarini muhofaza qilishning eng keng tarqalgan va asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo ma'naviy zararni undirish uchun ham taqdim etilishi mumkinligi e'tiborga loyiqdir. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 7-sonli «Ma'naviy zararni

qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi qarorining 9-bandida tushuntirishlar bilan bayon etib berilgan.

Jinoyat protsessidagi fuqaroviy da‘vo ikki jihat, ya‘ni moddiy va protsessual huquqiy tabiatga ega. Uning moddiy tabiati – keng ma‘noda fuqaroviylik hisoblansa, protsessual tabiati – jinoyat-protsessualdir. Uning moddiy tabiati da‘vogar va javobgar o‘rtasida vujudga kelgan munozarali moddiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga ega moddiy huquq sohasi bilan belgilanadi. Bunda da‘vogar javobgarga nisbatan talabini protsessual shaklda, moddiy-huquqiy talab sifatida amalga oshiradi. Jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni undirish to‘g‘risidagi da‘vo esa jinoyat protsessida qo‘zg‘atilib, hal etilganligi bois, tabiiyki, uning protsessual tabiati faqat jinoyat-protsessuallikni ifodalaydi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da‘vo o‘z mohiyatiga ko‘ra undirish to‘g‘risidagi da‘vo hisoblanadi. O‘z o‘zidan ma‘lumki, fuqaroviy da‘vo mohiyatiga ko‘ra fuqaroviy da‘vogarning moddiy huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talabi bo‘lib, u javobgarga emas, balki sudga yo‘naltirilgan bo‘ladi, shu sababli da‘vo ishini javobgarga nisbatan emas, balki javobgarga qarshi qo‘zg‘atish to‘g‘risida va undan yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risida bo‘ladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da‘vo boshqa da‘volar singari ikkita element – predmet va asosga ega. Ular ish bo‘yicha isbot qilinishi kerak bo‘lgan faktlar doirasini belgilash va bu bilan tergov organlari hamda sudning muvaffaqiyatli faoliyatini ta‘minlash, da‘vo bo‘yicha qonuniy va asoslangan qaror chiqarishga yordam beradi.

Fuqaroviy da‘voning predmeti – bu mulkiy va jismoniy zararni undirish to‘g‘risida sudga taqdim etilgan moddiy-huquqiy talabdir. Zararni undirish to‘g‘risidagi talab sudgacha bo‘lgan bosqich, shuningdek, jinoyat protsessining boshqa bosqichlari bilan cheklanmaydi, balki sud hukmining fuqaroviy da‘voga oid qismi ijro etilishi bilan yakunlanadi. Jismoniy zarar shaxsning hayotdan mahrum etilishida, unga tan jarohati yetkazilishida va sog‘lig‘iga zarar yetishida o‘z ifodasini

topadi. Jinoyat tufayli fuqaroning, korxonaning, muassasaning yoki tashkilotning mulkiy holatlariga zarar yetishi moddiy zararni keltirib chiqaradi. Ammo, shu bilan birga, moddiy zarar jinoyat tufayli mulkning o'ziga moddiy zarar yetmagan holatlarda ham, masalan, jismoniy shikast olgan jabrlanuvchi o'z mehnat qobiliyatini qisman yo'qotishi oqibatida maoshining ma'lum ulushidan mahrum bo'lganida yoki uning qonuniy vakili uning davolanishi uchun dori-darmonga xarajat qilganida, protez sotib olganida, ko'mish marosimlari va boshqa shu kabilarga sarflagan xarajatida ham mavjud bo'lishi mumkin. Jinoyat tufayli vafot etgan shaxsning mehnatga layoqatsiz oila a'zolari yoki voyaga yetmagan bolalarini boqish uchun ketadigan xarajatlari ham fuqaroviy javobgardan undiriladi.

Da'voning asosini yuridik faktlar tashkil etadi, da'vogari esa ulardan o'zining talablarini shakllantiradi, qonun da'vogari va ayblanuvchi (fuqaroviy javobgar) o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelishini ular bilan bog'laydi. Bunday faktlarga quyidagilar kiradi: jinoyat sodir bo'lishi; da'vogari tomonidan moddiy zararning mavjudligi; jinoyat va zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Quyidagi muayyan protsessual asoslarning mavjudligi da'voni jinoyat ishi bilan birga ko'rib chiqishning zarur sharti hisoblanadi: jinoyat ishining mavjudligi; jinoyat ishiga fuqaroviy da'vo taqdim etish; xuddi shu taraflar o'rtasida, xuddi shu predmet va asoslar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud qarorining yoki da'vogarning da'vodan voz kechganligini qabul qilish yoki kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida sud ajrimining mavjud emasligi; fuqaroviy da'vogarning fuqaroviy protsessual muomala layoqatiga egaligi.

Fuqaroviy da'vo bo'yicha ishni yuritish jinoyat protsessining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab va asoslarning mavjud emasligi jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu haqda JPK 276-moddasi 2-qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan: fuqaroviy da'vo jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud tergovini boshlangunga

qadar taqdim etiladi. JPKning 277-moddasiga asosan, fuqaroviy da'vo qo'zg'atilgan hollarda sodir etilgan qilmish oqibatida shaxsga mulkiy ziyon yetkazilgan deb hisoblasa, uni fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Qarorning yoki ajrimning nusxasi da'voni qo'zg'atgan shaxsga yoki uning vakiliga taqdim etiladi. Bunda fuqaroviy da'vogarga JPKning 57-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish rad qilingan shaxsga esa, qaror ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq jarayonni ikki bosqichga ajratish zarur:

- sudga qadar ish yurituv davrida fuqaroviy da'voni ta'minlash;
- sud jarayonida fuqaroviy da'voni hal etish.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 276–278-moddalari mazmunidan ko'rinib turibdiki, fuqaroviy da'vo yuzasidan ish yuritish surishtiruvchi, tergovchining jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o'zini mulkiy zarar ko'rgan deb hisoblovchi shaxsdan da'vo arizasini olish bilan boshlanadi. Mulkiy zarar ko'rgan shaxs o'z huquqlarini amalga oshirib, fuqaroviy da'voni qo'zg'atadi. Faqat ana shunday holatda fuqaroviy da'vo masalasida protsessual munosabatlar vujudga keladi. Surishtiruvchining, tergovchining shaxsni fuqaroviy da'vogar sifatida tan olib chiqargan qarori mazkur bosqichdan keyingi huquqiy munosabatlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, sudgacha bo'lgan tergov jarayonida fuqaroviy da'voga xos asosiy holat jinoyat tufayli moddiy zarar ko'rgan jabrlanuvchi yoki boshqa shaxs tomonidan da'vo qo'zg'atilgan vaqt hisoblanadi.

Ushbu holat fuqaroviy da'vogarga ham taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi JPK 54-moddasining uchinchi qismiga ko'ra, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxs, ayni vaqtda, jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi.

Agar fuqaroviy da'voni taqdim etish bilan bog'liq protsessual asos mavjud bo'lmasa, jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo bo'yicha ish



yuritish boshlanmaydi. Agar jinoyat ishida da'vo taqdim etilmagan bo'lsa, mulkiy ziyonni undirish masalasini boshqa ko'rinishda hal qilishga ruxsat etiladi. Da'vo talablari og'zaki tarzda ifodalanishi va jabrlanuvchini so'roq qilish bayonnomasiga qayd etilishi yoki yozma shaklda bildirilishi va tergovchi tomonidan ish materiallariga tikib qo'yilishi mumkin. Da'vo talablarining yozma shaklda bildirilishi va da'vo arizasi taqdim etilishi maqsadga muvofiq. U faqat jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vog'ar bitta shaxs bo'lmagan holatlarda, ya'ni da'vo voyaga yetmaganlarning, fuqaroviy protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda protsessual muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb tan olingan shaxslarning, shuningdek, biror sabab tufayli o'zining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olmaydigan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha da'vo ularning qonuniy vakili yoki prokuror tomonidan, davlat manfaatlarini himoya qilishda esa, prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, shuningdek, jabrlanuvchini dafn etish yoki uning statsionarda davolanish xarajatlarini hamda sug'urta tariqasida unga to'langan pul, nafaqa yoki pensiya pulini undirish to'g'risidagi bunday fuqaroviy da'volar jinoyat protsessida ko'riladi. Fuqaroviy da'voning sudlovga tegishliligi bu da'vo qo'zg'atilgan jinoyat ishining qaysi sudlovga tegishliligiga qarab aniqlanadi.

JPKning 276-moddasi jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qilish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, «jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o'zini mulkiy ziyon ko'rgan deb hisoblovchi shaxs yoxud uning vakili jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud tergovni boshlanguniga qadar fuqaroviy da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Jinoyat sodir etish yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida mol-mulki yo'qolgan yoki shikastlangan shaxs vafot

etgan taqdirda uning merosxo'rlari jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish va uni quvvatlash huquqiga ega bo'ladi».

Agar zarar bir necha shaxsning birgalikdagi harakatlari tufayli yetkazilgan bo'lsa, jinoyat ishida bir necha shaxsga da'vo qilinishi mumkin. Bunda shuni e'tiborda tutish lozimki, faqat birgalikdagi harakatlari bilan zarar yetkazgan shaxslargina jinoyat protsessida da'vo bo'yicha birgalikdagi javobgarlikka tortilishlari mumkin. O'shanda ham ularning barchasi ish bo'yicha ayblanuvchi, sudlanuvchi bo'lishi kerak.

Fuqaroviy da'vo yozma shaklda ham, og'zaki shaklda ham qo'zg'atilishi mumkin. Tergovda ham, sudda ham og'zaki da'vo arizasi bayonnomaga yozib qo'yiladi.

Jinoyat protsessida fuqarolik da'vosi kiritilganda, ko'rib chiqilganda va hal etilganda davlat boji olinmaydi. Jinoyat protsessida fuqarolik da'vosi kiritmagan shaxs, shuningdek, da'vosi ko'rib chiqilmay qoldirilgan shaxs da'voni fuqarolik sudiga berishga haqlidir.

Sud protsessning faol ishtirokchisi hisoblanadi va ishning haqiqiy ahvolini, manfaatdor tomonlarning haqiqiy huquqlari va o'zaro munosabatlarini aniqlashi, ya'ni obyektiv haqiqatni bilib olishi kerak. Ushbu maqsadlarda u taraflar taqdim etgan hujjatlarni ko'rib chiqish va ularning tushuntirishlarini tinglash bilan cheklanmay, huquqiy qoidalardan bexabarligi yoki boshqa holatlardan ular o'zlariga zarar keltiradigan tarzda foydalanmasliklari uchun ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishda ularga ko'maklashishi kerak. Bunda fuqaroviy da'vo jinoyat protsessining barcha prinsiplari (oshkorlik, bevositalik, tortishuv va shu kabilar)ga rioya etgan holda ko'rib chiqiladi. Biroq amaldagi JPKda sudning ahamiyatini kamaytirmagan holda jinoyat protsessining dastlabki bosqichlarida fuqaroviy da'vo qilishga e'tibor qaratildi. Jumladan JPKning 277-moddasida aytilishicha, fuqaroviy da'vo qo'zg'atilgan hollarda sodir etilgan qilmish oqibatida shaxsga mulkiy ziyon yetkazilgan deb hisoblasa, uni fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Qarorning yoki ajrimning nusxasi da'voni qo'zg'atgan

shaxsga yoki uning vakiliga taqdim etiladi. Bunda fuqaroviy da'vogarga JPKning 57-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish rad qilingan shaxsga esa, qaror ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Ariza beruvchi fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgach va ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi to'g'risidagi masala qo'yilgan shaxsning qilmishlari oqibatida yetkazilgan ziyon uchun qonunga ko'ra boshqa shaxslar mulkiy javobgar ekanligi aniqlangach, tegishli fuqaroni yoki yuridik shaxsni ishda fuqaroviy javobgar tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Qaror yoki ajrim fuqaroviy javobgarga yoki uning vakiliga e'lon qilinadi. Ularga tegishlicha fuqaroviy javobgar va da'vogarning huquq va majburiyatlari tushuntirib beriladi.

Fuqaroviy da'vo va jinoiy ayblovni birga taqdim etish jabrlanuvchining jinoyat tufayli buzilgan mulkiy huquqlari tez tiklanishini ta'minlaydi, sudlar ishidagi parallelizmni va ayni bir jinoyat ishi bo'yicha ziddiyatli qarorlar chiqarilishi imkoniyatini istisno etadi, dalillarning iloji boricha to'liq tekshirilishini kafolatlaydi hamda jinoyat-protsessual faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun qulaylik tug'diradi.

JPKning 279-moddasi prokurordan fuqaroviy da'voni qo'zg'atish yoki qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voni quvvatlash yoxud, basharti davlat yoki jamiyat manfaatlarini yoxud fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish taqozo etsa, da'voga qarshi e'tiroz bildirishni talab etadi. Prokuror fuqaroviy da'vogar siymosida ayblovni quvvatlashga yordam beruvchi ishonchli ittifoqchiga, fuqaroviy da'vogar esa prokuror siymosida qudratli yordamchiga ega bo'ladi.

Jinoyatdan jabrlangan shaxs sud muhokamasida ikki marta ishtirok etish zaruratidan va, binobarin, sodir etilgan jinoyatning holatlarini tekshirish bilan bog'liq muayyan og'ir ruhiy kechinmalar (hayajonlar)ga duchor bo'lishdan, shuningdek, odatdagi mashg'ulotlaridan chalg'ishdan ozod bo'ladi. O'z talablarini isbotlashdan iborat vazifasi ancha

osonlashadi, chunki ushbu talablarga asos bo'lib xizmat qiluvchi jinoyat sodir etilganligi faktini tergovchi va prokuror isbotlaydi. Bundan tashqari, jabrlanuvchi davlat boji to'lamaydi.

Sudlanuvchi sud oldida ikki marta, ya'ni avval jinoyat ishi bo'yicha, so'ngra esa fuqarolik ishi bo'yicha javobgar sifatida hozir bo'lish majburiyatidan ozod bo'ladi. Fuqaroviy da'vogar kabi u ham davlat boji to'lashdan ozod etiladi.

Guvohlar, tarjimonlar, ekspertlar va boshqa shaxslar o'zlarining odatdagi mashg'ulotlaridan ikkinchi marta chalg'amaydilar.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, bir qator jinoyat ishlari bo'yicha yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash jinoyatni to'g'ri tavsiflash (masalan, o'zgarar mulkini talon-taroj qilish haqidagi ishlar bo'yicha), javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni baholash va hatto jinoyat tarkibining o'zi bor yoki yo'qligi haqidagi masalani hal qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Ayblov va fuqaroviy da'voni birgalikda ko'rib chiqish bunday hollarda ularning to'g'ri hal qilinishi uchun qo'shimcha kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Nihoyat, jinoiy javobgarlik va fuqaroviy da'vo bo'yicha moddiy javobgarlikni bir vaqtning o'zida kompleks qo'llash jinoyatchining takroran jinoyatlar sodir etishining oldini olib, uning o'ziga ham (xususiy oldini olish), boshqa shaxslarning qonunlarga og'ishmay rioya etish va jamiyatda yashash qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalanishiga ko'maklashib, ularga ham (umumiy oldini olish tarzida) eng samarali ta'sir etishga yordam beradi.

Agar zarar bir necha shaxsning birgalikdagi harakati tufayli yetkazilgan bo'lsa, jinoyat ishida bir necha shaxsga da'vo qilinishi mumkin. Bunda shuni inobatga olish lozimki, birgalikdagi harakatlari bilan ziyon yetkazgan shaxslargina, basharti ularning barchasi ayblanuvchilar (sudlanuvchilar) bo'lsalar, jinoyat protsessida da'vo bo'yicha birgalikdagi javobgarlar bo'ladilar.

Agar moddiy ziyonni sudlanuvchi ishi alohida jinoyat ishi sifatida ajratilgan boshqa shaxs bilan birgalikda yetkazgan bo'lsa, sud zararni

qoplash majburiyatini to‘lalgicha sudlanuvchining zimmasiga yuklaydi. Keyinchalik alohida jinoyat ishi yuritilgan shaxsga nisbatan chiqarilgan ayblov hukmida sud uning zimmasiga zararni ilgari hukm etilgan shaxs bilan birgalikda qoplash vazifasini yuklatishi mumkin.

Sud amaliyotida jinoyat haqida xabar bermaganligi yoki uni yashirganligi uchun jazoga hukm etilgan shaxs jinoyat tufayli yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi haqidagi qoidaga izchil ravishda asoslanilmoqda. Ushbu hollarda da’vo fuqarolik sudlovi tartibida ko‘rib chiqilishi lozim. Da’vo talablarini ushbu zararni ko‘rgan shaxs, uning vakili yoki prokuror berishi mumkin. Agar fuqaroviy da’vo berilmay qolsa, sud jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni qoplash haqidagi masalani o‘z tashabbusi bilan hal qiladi.

Jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni qoplash haqidagi talab ish ko‘rib chiqilguniga qadar va undan keyin fuqaroviy sudlov tartibida berilishi mumkin. Surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda fuqaroviy da’vo bo‘yicha ish yuritish JPKda nazarda tutilgan tartibda olib boriladi. Fuqaroviy da’vo bo‘yicha yuzaga keladigan protsessual munosabatlar JPK bilan tartibga solinmagan bo‘lsa, unda jinoyat protsessi prinsiplariga xilof bo‘lmagan fuqaroviy-protsessual qonun hujjatlarining qoidalari qo‘llaniladi.

Fuqaroviy da’vo bo‘yicha ish yuritishda ziyonni undirish asoslari, shart-sharoiti, hajmi va usuli fuqaroviy, mehnat va boshqa soha qonun hujjatlari qoidalariga muvofiq aniqlanadi. Boshqa soha qonun hujjatlarida belgilangan da’vo muddati jinoyat protsessidagi fuqaroviy da’voga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Fuqaroviy da’voni ko‘rib chiqishda o‘zaro kelishuv bitimi tuzilishi ham mumkin. Ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning da’voni tan olganligi, shuningdek, fuqaroviy da’vogar, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud fuqaroviy javobgarning o‘zaro kelishganlik to‘g‘risidagi arizasi fuqaroviy da’vo bo‘yicha ish yuritishning tugatilishiga olib kelmaydi va surishtiruvchini, tergovchini fuqaroviy da’voga doir holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirish

majburiyatidan, sudni esa fuqaroviy da'voni ko'rish va hal qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Da'vodan voz kechishning qabul qilinishi da'vo bo'yicha ish yuritishni tugatishga asos bo'ladi va jinoyat protsessida ham, fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida ham fuqaroviy da'vogarni o'sha shaxsga xuddi shu asos bilan da'voni qayta qo'zg'atish huquqidan mahrum qiladi.

Ayblov hukmini chiqarishda, shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash yoki sodir etgan qilmishning xususiyatiga va o'zining ruhiy holatiga ko'ra shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmagan hollarda bunday chorani qo'llamaslik haqida ajrim chiqarishda sud asoslarning isbotlanishi va da'vo hajmini e'tiborga olib, uni to'liq yoki qisman qanoatlantiradi yoxud uni qanoatlantirishni rad etadi.

Sud oqlov hukmini chiqarayotganida, shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ishni tugatish haqida ajrim chiqarayotganida fuqaroviy da'voni qondirishni quyidagi hollarda rad etadi, basharti:

1) jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish hodisasi yuz bermagan bo'lsa;

2) sudlanuvchining yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash masalasi hal etilayotgan shaxsning sodir etilgan jinoyatga yoki ijtimoiy xavfli qilmishga daxli yo'qligi aniqlangan bo'lsa;

3) sudlanuvchining yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash masalasi hal etilayotgan shaxsning mulkiy ziyon keltirgan harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan holda sodir etilgan bo'lsa.

Sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan qilmish jinoyat deb topilmaganligi sababli u oqlangan taqdirda, shuningdek, JPK 283-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan boshqa asoslarga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritish tugatilganda sud da'voning isbotlanish darajasi va hajmini e'tiborga olib, uni to'liq yoki qisman qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi.

Da'voning hajmi jinoyat tavsifiga va aybdorga jazo chorasi tayinlashga ta'sir etmasa, fuqaroviy da'voni qanoatlantirishda sud da'vo

talabi chegarasidan chiqishga haqlidir. Biroq jinoyat protsessida qo'zg'atilgan fuqaroviy da'vo qanoatlantirilmagan taqdirda da'vogar shu shaxsga va xuddi shu asoslar bo'yicha fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqidan mahrum bo'ladi. Bu ba'zan sodir etilgan jinoyatlardan foyda olishga harakat qilib, ayrim shaxslarning vijdotsizlarcha sudma-sud yurishining oldini oladi.

Jinoyat predmeti bo'lgan mol-mulk, agar avvalgi egasiga qaytarib berilishi lozim bo'lmasa, sud hukmi bilan davlat egaligiga o'tkaziladi. Bu mol-mulk topilmagan bo'lsa, sud hukmi bilan, jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, sudning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra uning qiymati davlat foydasiga undiriladi. Ayblanuvchi jinoiy yo'l bilan orttirgan pullar, buyumlar va boshqa boyliklar sud hukmi bilan yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash uchun sarflanadi, ziyonni qoplashdan ortgan summa esa davlat foydasiga o'tkaziladi.

Jinoyat predmeti bo'lmish mol-mulk uchinchi shaxslarda topilib, ulardan tortib olingan va tegishligiga qarab, qaytarilgan bo'lsa, sudlanuvchi tomonidan ushbu mol-mulkni sotish yo'li bilan orttirilgan pullar, buyumlar va boshqa boyliklar sud hukmi bilan davlat egaligiga o'tkaziladi. Mol-mulkni halol yo'l bilan topgan puliga sotib olgan shaxsga bu mol-mulk egasiga qaytarilishi natijasida yetkazilgan ziyonni undirish haqida mahkumga nisbatan fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi.

Hukmning va tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimning fuqaroviy da'voni qanoatlantirishga, shuningdek, boshqa mulkiy undirishlarga oid qismi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ijro etiladi.

### **8.3. Hukmning mulkiy undirishlar to'g'risidagi qismi ijrosini ta'minlash**

Jinoyatlar haqidagi ishlarni tergov qilish va muhokama etish chog'ida tergov va sudning oldida yuzaga keladigan eng qiyin masala –

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mol-mulkni undirish borasidagi qarorning ijrosini ta'minlash. Hukmning fuqaroviy da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun surishtiruvchi, tergovchi yoki sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning mol-mulkini xatlashi shart. Garchi boshqa usullar mavjud bo'lsa-da, bu mol-mulkning undirilishini ta'minlashning eng to'g'ri va qonuniy usulidir.

Biroq qonunda xatlanishi mumkin bo'lmagan mulk turlari sanab o'tilgan (JPK 290-m.) Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgar oilasining normal turmushini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira, uy anjomlari va jihozlari, kiyim va buyumlar xatlanmaydi.

Turar joylar yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, mulk shaklidan qat'i nazar, davlatga xoinlik qilish, konstitutsiyaviy tuzumga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish, terrorizm, qo'poruvchilik jinoyatlari sodir etish uchun foydalanilgan yoxud bu jinoyatlar qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, talonchilik yoki boshqa og'ir, o'ta og'ir jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan hollarda – bu joylar xatlanadi.

Mol-mulkni xatlash mulkdorga yoki mol-mulkning egasiga mol-mulkni tasarruf qilish, zarur hollarda esa, undan foydalanish man etilganligini e'lon qilishdan yoxud mol-mulkni tortib olishdan va uni saqlab turish uchun boshqa shaxslarga topshirishdan iboratdir.

Mulkni xatlash surishtiruvchi, tergovchi qarori bo'yicha yoxud bu tergov harakatini bajarishni tergov organiga topshirishga haqli bo'lgan sudning ajrimi bo'yicha amalga oshiriladi. Xatlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda u kim tomonidan, qachon va qaysi ish bo'yicha chiqarilgani, nima maqsadda va kimning mol-mulki xatlanishi lozimligi, fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun xatlanayotganida esa, xatlanayotgan mol-mulk summasi ham ko'rsatiladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi hukmning mulkiy undirish yoxud mulkiy yo'sindagi jazo qismining ijrosini ta'minlovchi choralarni



ko‘rmagan taqdirda, ishni yuritayotgan sud ularga bunday choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi. Fuqaroviy da‘voni qanoatlantirganda yoki boshqa mulkiy undirishlarni qo‘llayotganda hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar, basharti oldin chora ko‘rilmagan bo‘lsa, sud hukmning shu qismi ijrosini ta‘minlaydigan choralar ko‘rish haqida ajrim chiqarishga haqlidir.

Diplomatiya vakolatxonalarini binolaridagi va diplomatiya vakillariga qarashli mol-mulkni xatlashda diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatiya vakillaridan olib qo‘yish yoki ularda tintuv o‘tkazish qoidalariga rioya qilinishi lozim. Surishtiruvchi yoki tergovchi mol-mulkni xatlash to‘g‘risida JPKning 90–92-moddalari talablariga rioya qilgan holda ikki nafardan kam bo‘lmagan xolislar ishtirokida bayonnoma tuzadi. Bayonnomada xatlangan barcha mol-mulkning nomi, o‘lchovi, og‘irligi, eskirish darajasi va boshqa o‘ziga xos belgilari sanab o‘tilib, mol-mulkni xatlayotgan shaxsning harakatlari to‘g‘risidagi va bayonnomaga kiritilgan mol-mulkning uchinchi shaxslarga tegishliligi haqidagi arzlilar bayon etiladi. Mol-mulk olib qo‘yilgan taqdirda aynan nimaning olinganligi va qayerga yoki kimga saqlash uchun topshirilganligi bayonnomada ko‘rsatiladi.

Mol-mulkni xatlash chog‘ida uni yashirish, yo‘q qilib yuborish yoki shikastlashga urinishlar qilingan bo‘lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan qo‘llangan choralar ko‘rsatilib, bayonnomada aks ettirilishi lozim. Bayonnomaning nusxasi mol-mulki ro‘yxatga olingan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda, mol-mulk ro‘yxatga olingan hududdagi fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib tilxat olinadi. Korxonalar, muassasa, tashkilot yoki diplomatiya vakolatxonasi hududidagi mol-mulkni ro‘yxatga olish o‘tkazilgan bo‘lsa, mol-mulk xatlanganligi to‘g‘risidagi bayonnomaning nusxasi tegishli ma‘muriyat yoki diplomatiya vakolatxonasi vakiliga topshirilib, imzo qo‘ydirib olinadi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi xatlanishi lozim bo‘lgan mulkni baholashi kerak. Xatlanayotgan mol-mulk surishtiruvchi yoki tergovchi

tomonidan uning eskirish darajasini e'tiborga olib, baholash paytidagi bozor narxida baholanadi. Zarurat bo'lganda mol-mulkni baholash mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi. Pullar, obligatsiyalar, cheklar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar o'z qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Hukmning fuqaroviy da'vo qismi ijrosini ta'minlash uchun mol-mulkni xatlashda bayonnomaga qiymati ziyonni qoplash uchun yetarli mol-mulk kiritiladi. Bunda mulkdor yoki mol-mulk egasi, o'zining fikricha, qaysi mol-mulkni bayonnomaga kiritish zarur deb hisoblasa, shu mol-mulkni ko'rsatishga haqlidir. Xatlangan mol-mulk olib qo'yilib, saqlash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoxud boshqa tashkilot vakiliga topshirilishi mumkin. Bu mol-mulk mulkdorga yoki mol-mulk egasiga, uning voyaga yetgan oila a'zolaridan biriga yoki boshqa shaxsga saqlab turish uchun qoldirilib, unga ushbu mol-mulkning to'la-to'kis saqlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlik tushuntiriladi va bu haqda undan tilxat olinadi. Bunda muomalada bo'lishi man qilingan ashyolar har qanday hollarda ham olib qo'yilishi kerak. Ularni saqlash tartibi qonun bilan belgilanadi.

Bank muassasalarida saqlanayotgan pullar, shuningdek, davlat zayomi obligatsiyalari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olib qo'yilmaydi, lekin mol-mulk xatlangani to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni olish bilanoq, ularni xarjlash operatsiyalari to'xtatib qo'yiladi. Oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, jinoyat ishi tugatilganda, shuningdek, fuqaroviy da'vogar o'z da'vosidan voz kechganda hamda fuqaroviy da'voni qanoatlantirish yuzasidan ko'rilgan choralarga sabab bo'lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda mol-mulkning xatlanganligi bekor qilinadi.

Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararning qoplanishini ta'minlash jamiyatdagi ijtimoiy adolat tamoyillarini to'la ro'yobga chiqarilishiga xizmat qiladi. Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni undirish turli shakllardagi mulkning daxlsizligini ta'minlashda, davlat hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jinoyat uchun

javobgarlikning muqarrarligini ta'minlanishi har doim ham jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararni va mulkiy ziyonni qoplanishiga bevosita bog'liq bo'lmaydi. Bunda moddiy zararining qoplanmaganligi yoki qisman qoplanganligi jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar)ga e'tiborsizlik qilinganligini anglatadi.

Sudlar fuqaroviy da'voni ta'minlash choralarini ko'rishlari, zararining miqdori va xususiyati to'g'risidagi dalillarni to'liq tekshirishlari, fuqaroviy da'volarni yetarli asoslar bo'lgandagina ko'rmasdan qoldirishlari, fuqaroviy da'vo qo'zg'atilmagan hollarda yetkazilgan mulkiy zararni undirish masalasini o'z tashabbuslari bilan hal qilishlari, ishtirokchilikda sodir etilgan harakatlar natijasida zarar yetkazgan shaxslarning solidar javobgarligi haqidagi qonun talablariga rioya etishlari kerak. Shu bilan birga, zararni keltirib chiqaruvchi jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash ishlariga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Jinoiy harakat oqibatida moddiy zarar yetkazilgan har bir ish yuzasidan hukm chiqarishda sud fuqaroviy da'voni hal etishi, agar bunday da'vo keltirilmagan bo'lsa, moddiy zararni undirish haqidagi qarorni o'z tashabbusiga ko'ra chiqarishi mumkinligi haqidagi masalani muhokama qilishi lozim. Sud muhokamasini qoldirmay turib da'vo hajmini aniqlash imkoniyati bo'lmagan va zarar miqdori jinoyatning tavsifiga, sudlanuvchiga tayinlanadigan jazo miqdoriga hamda hukm chiqarishda yuzaga keladigan boshqa masalalarni hal etishga ta'siri bo'lmagan alohida hollarda sud, O'zbekiston Respublikasi qonunlari talabiga ko'ra, fuqaroviy da'vogarning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo miqdorini hal etish uchun talab keltirish huquqini e'tirof etishi mumkin.

Jinoyatdan, shuningdek, aqli noraso shaxsning jamoat uchun xavfli xatti-harakatidan zarar ko'rgan shaxs, shuningdek, yuridik shaxs hisoblanuvchi korxonalar, muassasa yoki tashkilotlar zararni qoplashni talab qilsalar, JPKning 56-moddasiga binoan, jinoyat ishida fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etiladilar.

Voyaga yetmaganlarning, shuningdek, muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun fuqaroviy da'vo ularning qonuniy vakillari va prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Jinoyat sodir etilishi yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida mol-mulki yo'qolgan yoki shikastlangan shaxs vafot etgan taqdirda jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish va uni quvvatlash huquqiga marhumning merosxo'rlari egadirlar.

Dastlabki tergov davomida fuqaroviy da'vo talabi keltirilmagan bo'lsa, sud zarar ko'rgan shaxsga yoki korxonaga, muassasa, tashkilotlarga ularning sudlanuvchiga yoki qonun tapabiga ko'ra zarar uchun moddiy javobgar hisoblanuvchi shaxslarga fuqaroviy da'vo keltirish huquqlarini tushuntirishi lozim. Bunday da'vo keltirilmagan taqdirda sud o'z tashabbusi bilan jinoiy harakat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasini muhokama qilib, bu majburiyatni mahkum zimmasiga yuklash haqida qaror chiqarishga haqlidir.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiylari hamda JPKning 58-moddasiga binoan, fuqaroviy javobgar tariqasida ishga jalb etilgan korxonaga, muassasa va tashkilotlar zarar ularning aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, jinoiy harakat natijasida yetkazilgan moddiy zarar uchun javobgar bo'ladilar.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda mustaqil javobgar bo'ladilar. Voyaga yetmaganning zararni qoplash uchun yetarli mol-mulki yoki boshqa daromad manbai bo'lmagan hollarda yetkazilgan zarar yoki uning yetishmagan qismi bu shaxsning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan to'lanishi lozim.

Ota va onaning bola tarbiyasida teng hukuq va majburiyatlari inobatga olingan holda sud qarori asosida voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyati ularning har ikkalasiga yuklatilishi lozim.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash jarayonida sud fuqaroviy da'vo qo'zg'atilgani va jinoiy harakat oqibatida yetkazilgan moddiy zararining undirilishini ta'minlovchi choralar ko'rilgani haqidagi masalalarni aniqlashi zarur. Agar surishtiruvchi yoki tergovchi fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari ko'rmagan bo'lsa, sud JPKning 290-moddasi talabiga binoan o'z tashabbusi bilan bu choralarni ko'radi yoki tegishli organlar zimmasiga moddiy zararining qoplanishini ta'minlash choralari ko'rish majburiyatini yuklaydi va bu haqda ajrim chiqaradi.

Aybdor shaxslarning mol-mulkini xatlash mulkiy zarar qoplanishini ta'minlashning muhim shakllaridan hisoblanadi. Ish materiallarida mol-mulk ro'yxatining yo'qligi mulkiy zararni qoplash to'g'risidagi masalani ko'rmasdan qoldirishga asos bo'la olmaydi, chunki bunday mol-mulk hukm ijrosi jarayonida ham aniqlanishi mumkin. Shu bilan birga, sudlar xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan surishtiruv va tergov organlari tomonidan aybdor shaxslarning mol-mulkini xatlash chorasini ko'rmaganligi yoki o'z vaqqida ko'rmaganligi to'g'risidagi har bir holatga munosabat bildirishlari lozim.

Moddiy zarar sudlanuvchi va jinoyat ishining qismi alohida ish yurituvga ajratilgan shaxsning birgalikdagi jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan holatda sud zararni to'la qoplash majburiyatini mahkum zimmasiga yuklaydi. Ishi alohida yurituvga ajratilgan shaxsga nisbatan keyinchalik ayblov hukmi chiqarilayotganda sud uning zimmasiga muqaddam sudlangan mahkum bilan birgalikda zararni (solidar) qoplash majburiyatini yuklatishi mumkin.

Agar moddiy zarar sudlanuvchi va ishi unga nisbatan tugatilgan shaxsning birgalikdagi jinoiy harakatlari oqibatida yetkazilgan bo'lsa, sud zararni to'la hajmda qoplash majburiyatini mahkumga yuklaydi va fuqaroviy da'vogarga ishi harakatdan tugatilgan shaxsga nisbatan mahkum bilan birgalikda yetkazilgan zararni solidar tartibda undirish yuzasidan fuqarolik ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish hukuqini tushuntiradi. Sud hukmida birgalikda yetkazilgan zararining jinoyat ishi unga nisbatan tugatilgan yoki alohida yurituvga ajratilgan shaxslardan undirilishi haqida ko'rsatilishi mumkin emas.

Jinoyat yoki ijtimoiy xavfli xatti-harakat yuz bermaganligi yoxud shaxsning jinoyatga daxldor bo'lmaganligi, shuningdek, shaxsning harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan holda sodir etilganligi sababli oqlov hukmi chikarilayotganda sud JPK 283-moddasining ikkinchi qismiga binoan fuqaroviy da'voni qanoatlantirishni rad etadi.

Amnistiya akti qo'llanishi tufayli sud ajrimi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan shaxslarga nisbatan fuqaroviy da'vo ko'rmay qoldirilganda manfaatdor shaxslarga fuqaroviy ishlarni yuritish tartibida da'vo bilan sudga murojaat etish huquqlari tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishi apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida yuqorida ko'rsatilgan asoslarga binoan tugatilganda ham fuqaroviy da'voga nisbatan shunday oqibatlar yuzaga keladi.

Fuqaroviy da'vo masalasini hal etishda sud JPKning 467-moddasiga binoan ayblov hukmining tavsif qismida da'voni to'la yoki qisman qanoatlantirish yoxud uni rad etish asoslarini, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining mohiyati va hajmini ko'rsatishi, shuningdek, zarar mikdorining tegishli hisoblarini keltirishi, fuqaroviy da'voni hal qilishda asoslanilgan qonunni ko'rsatib o'tishi lozim.

Qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voning qanoatlantirilishi jinoiy ishni sudda ko'rish jarayonida rad etilgan taqdirda da'vogar shu shaxsga va xuddi shu asoslar bo'yicha fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqidan mahrum bo'ladi.

Fuqaroviy da'vogarning da'vo hajmini hal etish uchun fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo talabi bilan murojaat etish huquqini e'tirof etgan sud o'z hukmida ko'rsatilgan da'vo talablari bo'yicha jinoyat ishtirokchilaridan aynan qaysilariga nisbatan moddiy javobgarlik majburiyati yuklatilishi lozimligi haqida ko'rsatib o'tishi mumkin emas.

Jinoyat obykti bo'lgan mulk qiymatini aniqlashda uning egasi tomonidan xarid qilinishi holatlaridan, jinoyat sodir etilgan vaqtdagi davlat ulgurji narxidan, bozor yoki komission narxlardan kelib chiqish lozim. Mulk qiymatini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, u tegishli mutaxassislar jalb qilinib, ekspert xulosasiga ko'ra belgilanadi.

Jinoiy tajovuz oqibatida yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlashda, mulkning moddiy zararni undirish haqida qaror chiqarilayotgan kundagi narxini inobatga olish zarur.

Yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasini hal qilishda sudlar jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar to'liq hajmda qoplanishiga e'tibor qaratishlari kerak. Sud ma'lum ish holatlarini, mahkumning ayb darajasini va mulkiy holatini hisobga olib, yetkazilgan zararining qoplanishi lozim bo'lgan miqdorini hukmda o'z xulosasini asoslab, kamaytirishi mumkin. Zarar qasddan sodir etilgan jinoyat oqibatida yetkazilgan hollarda qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdorining kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birgalikdagi jinoiy harakatlar natijasida zarar yetkazgan barcha shaxslar yetkazilgan moddiy zararni qoplashda solidar javobgar bo'ladilar. Fuqarolik kodeksining 1000-moddasiga binoan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra va uning manfaatlarini ko'zlab, agar bu tartib zarar qoplanishini ta'minlasa, sud birgalikda zarar yetkazgan shaxslar zimmasiga solidar emas, hissali javobgarlikni yuklatishga haqli.

Bu o'rinda sudlar quyidagilarni nazarda tutishlari zarur:

jinoyatlar bir necha shaxslar tomonidan sodir etilganda, ular birgalikdagi ishtiroki aniqlangan epizodlar bo'yicha jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplashda solidar javobgar hisoblanadilar;

bir jinoiy ish bo'yicha sudlansalar-da, lekin umumiy maqsad bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil jinoiy harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan, shuningdek, ulardan ayrimlari qasddan sodir etilgan, masalan, mulkni talon-toroj qilish jinoyati uchun, boshqalari esa sovuqqonlik jinoyati uchun sudlanganda, oxirgilarining harakatlari oldingilarining jinoyat sodir etishlariga qay darajada bo'lmasin sharoit yaratgan bo'lsa-da, ularga nisbatan solidar javobgarlik majburiyati yuklatilmaydi;

korxonalar, muassasa, tashkilotga uning bir necha xodimi yoki bir xodimi va korxonalar bilan mehnat munosabatlarida bo'lmagan boshqa shaxslar aybi bilan zarar yetkazilib, bu zarar ularning birgalikdagi qasddan sodir etilgan jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgani aniqlansa,

sud ularning barchasiga solidar javobgarlik majburiyatini yuklashga haqli;

mahkumning g'ayriqonuniy harakatlari uchun qonun talablariga ko'ra, moddiy javobgar hisoblanuvchi fuqaro yoki korxonalar jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplashda solidar emas, balki hissali javobgar bo'ladilar.

Bir necha shaxslar tomonidan yetkazilgan zararni qoplash haqida qaror chiqarayotgan sud hukmning qaror qismida sudlanuvchilardan qaysi biriga solidar, qaysi biriga hissali javobgarlik majburiyati yuklanishini, shuningdek, zararni qoplash uchun qancha miqdorda va kimning foydasiga summa undirilishini ko'rsatishi lozim.

Solidar moddiy javobgar bo'lgan mahkumlarga nisbatan chiqarilgan hukm ayrim shaxslarga nisbatan bekor qilinib, ish qayta sudlovga yuborilganda umumiy zararining barchasini qoplash majburiyati hukm o'zgarishsiz qoldirilgan mahkumlar zimmasiga yuklatiladi.

Ishi yangidan ko'rilganda bu shaxsga nisbatan ayblov hukmi chiqarilsa, uning zimmasiga ham ushbu jinoyat yuzasidan muqaddam sudlangan shaxslar bilan birgalikda zararni solidar qoplash majburiyati yuklatilishi mumkin.

Jinoyat ishida ma'naviy zararni undirish haqidagi fuqaroviy da'voni ko'rishda sud ma'naviy zarar moddiy jihatdan qoplanishiga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l ko'yilishini yodda tutishi lozim. Jabrlanuvchi vafot etgan taqdirda ma'naviy zararni undirish huquqiga uning yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillari egadirlar. Mahkumlar tomonidan yetkazilgan ma'naviy zararni undirish masalasini hal etishda sud zarar yetkazgan shaxslardan har birining ayb darajasini inobatga olishi lozim. Agar ma'naviy zarar jabrlanuvchining yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash huquqini nazarda tutuvchi qonun amalga kiritilguniga qadar yetkazilgan bo'lsa, fuqaroviy da'vogarning bu hakdagi talabi qanoatlantirilmaydi.

Ishni apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rayotgan sud hukmning moddiy zararni qoplash qismiga o'zgartirish kiritishi mumkin,



masalan, birinchi instansiya sudi tomonidan moddiy zarar yetkazish holatlari to'g'ri va to'liq aniqlangan bo'lib, ishga oid qo'shimcha dalillar to'plash va tekshirish talab qilinmasa, lekin moddiy huquq me'yorlarini qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat bosqich sudi undiriladigan zarar hajmini kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish va uni ko'rib chiqishda davlat boji undirilmaydi va bunday da'volarga da'vo muddati joriy qilinmaydi (JPK 276, 281-m.). Ish bo'yicha bir necha shaxslar aybli deb topilgan taqdirda, sud xarajatlari mahkumlar zimmasiga ulardan har birining ayb darajasi va mulkiy ahvoli inobatga olinib yuklatiladi.

## **IX BOB. JINOYATLARNING OLDINI OLISH CHORALARI**

### **9.1. Jinoyatlarning oldini olish choralari mazmuni va ahamiyati**

Jinoyatchilikka qarshi kurashdagi eng samarali usul jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko‘rish hisoblanadi. Shu bois jinoyat protsessida ham ishni yuritishga mas‘ul bo‘lgan vakolatli mansabdor shaxslarning eng muhim vazifasi jinoyatlarning oldini olish choralari ko‘rish hisoblanadi. Jinoyat protsessida jinoyatlarning oldini olish tergov qilinayotgan yoki muhokama qilinayotgan jinoyatning kelgusida takroran sodir etilishiga yoki xuddi shu kabi boshqa yangi jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning faoliyati, shuningdek, ushbu shaxslarning talabi bilan mas‘ul shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar yig‘indisidir.

*Jinoyatlarning oldini olish* – jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etuvchi yoki ularni zararsizlantiruvchi (susaytiruvchi cheklov) va bu bilan ularning kamayishini ta‘minlovchi davlat, jamoat va boshqa ta‘sir xususiyatiga ega bo‘lgan choralarning kompleks tizimi. Uning asosini, birinchi navbatda, davlatning xalq farovonligini oshirish, kishilarning dunyoqarashi va madaniyatini yuksaltirish, mehnat va ijro intizomini mustahkamlash, shaxsning asosiy huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta‘minlash borasidagi g‘amxo‘rliги tashkil etadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyatlarning oldini olish borasidagi ishi ham protsessual, ham noprotsessual shakllarda amalga oshiriladi.

Huquqiy va axloqiy normalarni targ‘ib qilish, aholi orasida yuridik bilimlarni tarqatish, ma‘ruzalar, nutqlar, gazeta va jurnallarda e‘lon qilinadigan turli maqolalar, radio va televideniye orqali chiqishlar, turli

xil konferensiyalar va davra suhbatlarining materiallari kabilar jinoyatlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash, yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini, ruxsat etish tizimini va boshqalarni ta’minlovchi ko‘pgina xizmatlarining noprotsessual faoliyati ham ko‘p jihatdan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan. Patrul-post va jinoyat qidiruv xizmati xodimlari ijtimoiy uchun xavfli harakatlar sodir etayotgan shaxslarni aniqlaydilar va jinoyat ustida ushlaydilar.

Jinoyat protsessi, umuman olganda, fuqarolarni huquqiy va axloqiy tarbiyalashga yordam beradi. Jinoyat protsessi jinoyatlarning g‘ayriijtimoiy mohiyatini ochib, har bir jinoyat uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligini hamda jinoyatdan jabrlangan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini ta’minlab, jinoyat sodir etganlarning noto‘g‘ri qarashlari va fikrlarini ijobiy tomonga o‘zgarishini ta’minlaydi, beqaror shaxslarni bu kabi qilmishlar sodir etishdan saqlaydi, keng aholi qatlamlarini huquq-tartibotni muhofaza qilishga safarbar etadi.

Jinoyatlarning oldini olish protsessual faoliyatning bir turi, ya’ni alohida funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat protsessida jinoyatlarning oldini olish funksiyasi deganda, jinoyatlarning oldini olish maqsadlariga bo‘ysunuvchi kriminogen omillarni aniqlash va bartaraf etish, fuqarolarni huquqiy va axloqiy tarbiyalashga qaratilgan protsessual faoliyat tushuniladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ularga mavjud holatlarni baholashlari va eng maqbul harakat tarzini tanlashlari uchun muayyan imkoniyat berilganda ko‘rsatadigan faoliyati jinoyat protsessining JPK 2-moddasida ko‘rsatilgan maqsadlariga erishish darajasiga jiddiy ta’sir etadi. Jinoyat protsessi jinoyatlarning oldini olish funksiyasining samaradorligi uning maqsadlariga erishish darajasiga, ular bilan haqiqiy natijalar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq.

Jinoyat-protsessual faoliyat bir necha bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu bosqichlarda jinoyatlarning oldini olishning huquqiy normalar bilan tartibga solingan o‘ziga xos shakllari, usul va vositalari amal qiladi.

Masalan, JPKning 296-moddasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga jinoyat ishini yuritishda jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash majburiyatini yuklaydi; JPKning 21-moddasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning o'z vakolati doirasida jinoyatning sodir etilish holatlarini aniqlash, aybdorlarni qidirib topish va fosh etish, adolatli hukm chiqarish, shuningdek, jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash uchun jamoatchilik yordamidan foydalanish huquqi mustahkamlangan; JPKning 349-moddasida jamoatchilikning dastlabki tergovda, jumladan, jinoyatlarning oldini olish va ularni ochish maqsadida ishtirok etishi tartibga solingan. Buning uchun tergovchi jamoat birlashmalari, jamoalar, aholiga jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni xabar qilish, qidirilayotgan shaxslar yoki narsalar qayerda joylashganligini aytish haqida iltimos bilan murojaat qilishga haqlidir; JPKning 339-moddasida surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat sodir etilishining oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan; JPKning 384-moddasida prokuror yoki uning o'rinbosariga tergovchidan ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishda jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarining aniqlangan yoki aniqlanmaganligini hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini tekshirish talab qilinadi; JPKning 409-moddasida prokuror birinchi instansiya sudida jinoyatlarga doir ishlarni ko'rishda ishtirok etib, boshqa vazifalari bilan bir qatorda jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etish choralari haqida o'z fikrini bildirishi ta'kidlanadi; JPKning 298-moddasida suddan jinoyat ishini ko'rish jarayonida jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlaganidan keyin xususiy ajrim chiqarib, unda tegishli davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar yoki mansabdor shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish talab qilinadi.

Ushbu normalarni qo‘llash samaradorligi umuman jinoyat protsessi jinoyatlarning oldini olish funksiyasining samaradorligiga ham yordam beradi. Ushbu funktsiyaning ijtimoiy samaradorlik darajasini baholash – juda murakkab vazifa, chunki uning hal qiluvchi pirovard natijasi bo‘lmish jinoyatchilik darajasining o‘zgarishiga faqat sudlarning emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan omillar ham ta’sir etadi. Biroq bunday bahoni har holda jinoyat protsessini amalga oshirishda uning maqsadiga erishish darajasidan kelib chiqib berish lozim.

Maqsadni belgilash jinoyatlarning oldini olish borasidagi protsessual faoliyatni baholash mezonlarini aniqlashga, bunda uning samaradorligini o‘rganishdagi bir qancha bosqichlarni shartli ravishda ajratishga yordam beradi.

*Birinchi bosqichda* jinoyat ishining materiallari tergovga qadar tekshiruv (jinoyat ishini qo‘zg‘atish) va tergov qilish bosqichlarida kriminogen holatlarni aniqlash va bartaraf etish borasida ko‘rilgan choralarni aniqlash nuqtai nazaridan o‘rganiladi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning huquqbuzarliklarning oldini olishda tutgan o‘rni aniqlanadi.

*Ikkinchi bosqichda* jinoyat ishi materiallari sud muhokamasi davomida jinoyatlarning oldini olish va kriminogen holatlarni eng to‘liq va har tomonlama aniqlash borasida ko‘rilgan choralarni aniqlash nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Sudyaning JPKning 395-moddasida belgilangan tartibda jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash haqidagi ajrimi uning ushbu masalalarga munosabatini, kriminogen omillarni aniqlashga va bartaraf etishga intilishini aks ettiradi.

Shunday qilib, sudning bartaraf etilishi lozim bo‘lgan kriminogen holatlarni eng to‘liq, har tomonlama va ishonchli aniqlashi uning jinoyatlarning oldini olish borasidagi faoliyati samaradorligining mezonlaridan biridir. Ushbu faoliyatni, avvalo, jinoyat ishi materiallarini o‘rganib baholash mumkin.

*Uchinchi bosqichda* aniqlangan kriminogen holatlar sudning xususiy ajrimida bayon etilgan faktlarga mos kelishini, uning qonuniyligi va asoslilikini aniqlash uchun sudning xususiy ajrimi mazmuni va (agar ishda mavjud bo'lsa) tergovchining taqdimnomasi tekshiriladi.

*To'rtinchi bosqichda* jinoyatlarning oldini olish faoliyatining samaradorligini o'rganish jinoyat ishi materiallari doirasidan chiqadi. Sud chiqargan xususiy ajrimlarning lozim darajada bajarilayotganligini uning o'z vaqtida ijro etilishini aniqlab, sudning jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan shart-sharoitlarning bartaraf etilishini nazorat qilish faoliyatini ko'rib chiqib, shuningdek, sudga taqdim etilgan xususiy ajrimni ijro etish haqidagi hujjatlarni, unga sudning munosabatini o'rganish orqali aniqlash mumkin.

Pirovardida, jinoyatlarning oldini olish borasidagi protsessual faoliyat samaradorligining mezonini bo'lib sudning xususiy ajrimida jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarining haqiqatda bartaraf etilishi xizmat qiladi. Shu bois ushbu faoliyat samaradorligiga faqat jinoyat sodir etilishiga olib kelgan holatlarning bartaraf etilganligini inobatga olgan holda ijobiy baho berish mumkin.

## **9.2. Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash**

Ishni sudga qadar yuritishda jinoyatlarning oldini olish borasida eng muhim, shu bilan birga, eng murakkab jarayon bu jinoyatning asl sabablari hamda jinoyat sodir etilishiga imkon bergan barcha shart-sharoitlarni aniqlashdir. Avvalo jinoyat sababi va jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar mazmunini bir biridan ajratib olish zarur.

Jinoyat sababi deganda, shaxsni jinoyat sodir etishga undagan, uni qiziqtirgan yoki majbur qilgan voqelik, vaziyat, muayyan harakat yoki harakatsizlik, faol munosabat yoki beparvolik holati tushuniladi. Odatda qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda aniq sabablar mavjud bo'ladi.

Masalan o'g'irlik jinoyatining sabablariga moddiy yetishmovchilik, oson yo'l bilan boylik orttirish niyati, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lish, shuningdek, halol va haromni farqlamaslik, jamiyatda o'rnatilgan qonunlarga ochiqchasiga rioya etmaslik (ayniqsa rahbarlar tomonidan) va buning uchun javobgarlik ta'minlanmasligi (korrupsiya ta'sirida) kabilar kiradi.

Jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar deganda, shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishida yengillik yaratadigan yoki unga ko'maklashadigan holatlar tushuniladi. Barcha jinoyatlar sodir etilishida qandaydir shart-sharoitlar mavjud bo'ladi va bu tabiiy hol. Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish kerak, hamma jinoyatlarning oldini olishda jinoyatning sabablarini to'liq aniqlash va ularni bartaraf etishga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Chunki shart-sharoitlar bartaraf etilgani bilan sabablarga qarshi kurashilmasa, jinoyat sodir etilishi davom etaverishi mumkin, jinoyat sodir etishga qasd qilgan shaxs maqsadiga erishish yo'lida kerak bo'lgan sharoitni o'zi yaratishga urinadi.

Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar tergovga qadar tekshiruv, tergov va ishni sudda ko'rish davomida dalillarni to'plash, ish holatlarini turli yo'llar bilan tekshirish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan harakatlarni bajarish jarayonida, shuningdek, boshqa vazifalarni bajarishda aniqlanishi kerak. JPK 296-moddasiga ko'ra jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning majburiyati sifatida belgilangan.

Jinoyatning asl sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan barcha shart-sharoitlar asosan tergov harakatlarini o'tkazishda aniqlanadi. Jinoyatning sabablarini aniqlashga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchini so'roq qilishda yoki ularning ko'rsatmalarini tekshirishda ko'proq e'tibor qaratish kerak. Shuningdek, ayblanuvchi va jabrlanuvchining shaxsini o'rganishda ham jinoyat sabablariga oydinlik kiritish mumkin.

Shart-sharoitlar esa ko‘proq ko‘zdan kechirish, eksperiment, tintuv o‘tkazishda aniqlanadi. Boshqa tergov harakatlarida esa mazkur holatlar haqiqatan jinoyat sodir etilishiga imkon berganligiga yanada oydinlik kiritiladi.

Binobarin, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar JPKning 82-moddasida sanab o‘tilgan holatlar bilan birgalikda jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi va amalda hal etilishi isbotlanishi kerak bo‘lgan holatlarga kiradi. Boshqacha aytganda, ushbu holatlarning yig‘indisi protsessual isbotlash predmetini tashkil etadi, shu bois tergovchining ushbu yo‘nalishdagi faoliyati protsessual xususiyatga ega bo‘lib, JPKda nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shaxsga va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga ma‘lum bir sabablar, shart-sharoitlar, holatlar xos bo‘lsa, o‘zgaralar mulkiga qarshi jinoyatlarga boshqalari xos bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ular voyaga yetmaganlar yoki retsdivistlar jinoyatlari haqida gap borganda ham keskin farq qiladi. Dastlabki tergov jarayonida jinoyatlarning umumiy va xususiy sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash rejali tartibda amalga oshirilishi kerak. Bunday tadbirlarni amalga oshirish tergovchiga jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan holatlarning yig‘indisini tekshirish faoliyatining yo‘nalishini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi.

Ularni bartaraf etishga isbotlash predmetiga kiruvchi boshqa holatlarni aniqlashda qo‘llaniladigan vositalar bilan, ya‘ni tergov harakatlari yordamida erishiladi. Shu bois tergov rejasi jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga daxldor masalalarni aniqlashni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Ko‘p voqeali ish tergov qilinayotgan hollarda alohida tadbirlar rejasini tuzgan ma‘qul. Rejalashtirish uchun asos sifatida tergov qilishning dastlabki bosqichida ma‘lum bo‘lgan jinoyatga oid haqiqiy ma‘lumotlar olinadi. Bunday ma‘lumotlar tergovchiga ushbu jinoyatni keltirib chiqargan sabablar va shart-sharoitlar haqida tasmollarni ilgari surish imkonini beradi.



Tergov jarayonida jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqidagi tasmollarni ilgari surish va tekshirish ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun sharoit yaratadi. Bunda tergovchining alohida tergov harakatlarini (so‘roq qilish, ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish, tintuv o‘tkazish, ashyolarni olib qo‘yish, eksperiment o‘tkazish va h.k.) to‘g‘ri bajarishi, surishtiruv organlari va jamoatchilik bilan mohirona hamkorlik qilishi juda muhim. Ushbu organlar hamda jamoat vakillarining faoliyati chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, ko‘pincha ularning jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini aniqlash borasidagi tadbirlari chambarchas bog‘lanib ketadi.

Surishtiruvchi, tergovchi va tezkor xodimlarining hamkorligi protsessual, ma‘muriy va tezkor-qidiruv tadbirlaridan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ularning imkoniyatlarini birlashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Tergov jarayonida tergovchi nafaqat tergov qilinayotgan jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash choralarini ko‘rishi, balki kelajakda shunga o‘xshash jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni ham aniqlashi kerak. Sabab va shart-sharoitlarni aniqlashda tekshiruv materiallari iloji boricha to‘liq va ishonchli bo‘lishiga intilish kerak. Bu ularni bartaraf etish uchun amaliy choralar ko‘rish imkonini beradi.

Jinoyatning sabablari va uning sodir bo‘lishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangandan keyin ularni bartaraf etish uchun qaysi choralarni belgilash maqsadga muvofiqligi masalasi ham jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini tanlashda ushbu choralarni amalga oshirish mumkinligi, samaradorligi, shuningdek, kim ijro etishi zarurligi va ijrochi sifatida belgilanadigan shaxsning mazkur choralarni amalga oshira olishi e‘tiborga olinishi shart. Chora noto‘g‘ri tanlansa yoki ijrochi nomunosib bo‘lsa yoxud chora samarali amalga oshirilmasa jinoyatlarning oldini olish faoliyati befoyda bo‘lib qolishi mumkin.

Amalga oshirish zarur bo‘ladigan chorani to‘g‘ri tanlash uchun avvalo muayyan jinoyatning oldini olishda qanday chora ko‘rish zarurligini, mazkur chora kim yoki kimlar tomonidan amalga oshirilishi kerakligini, ushbu chorani amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini aniqlashtirish kerak. Buning uchun esa har bir sodir etilgan jinoyatning sabab va shart-sharoitlariga alohida yondashgan holda, hududdagi tezkor va kriminogen vaziyatdan kelib chiqib xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Bir turdagi jinoyatlar odatda o‘xshash sabablar va shart-sharoitlarda sodir etiladi. Ammo jinoyat sodir etgan shaxs va hududning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, jamoatchilikning fikrini hisobga olib sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari belgilanishi talab etiladi. Hozirgi kunda jinoyatlarning oldini olish choralari bitta subyekt emas, balki bir necha mas’ul shaxslar tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishi samarali hisoblanadi. Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari tegishli taqdimnoma yoki xususiy ajrimda aniq ko‘rsatilishi kerak.

### **9.3. Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida taqdimnoma va xususiy ajrim hamda ularni bajarish**

Ishni sudga qadar yuritishda jinoyatlarning oldini olish surish-tiruvchi, tergovchi yoki prokurorning taqdimnomasini chiqarish orqali amalga oshiriladi. Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni ishonchli aniqlash jinoyat hodisasining o‘ziga olib kelgan hamda mazkur sabab va shart-sharoitlarning qonuniy natijasi bo‘lgan holatlarni tekshirish bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shu bois tergovchining ularni bartaraf etish borasidagi asosiy ishi protsessual normalar shaklini olgan. Ushbu faoliyat nafaqat ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi yoxud ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash haqidagi masalalarni ko‘rib chiqish uchun sudga

yuborish haqida qaror chiqarish bilan yakunlanadigan ishlar, balki JPKning 83, 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tugatiladigan ishlarda ham amalga oshirilishi kerak.

Taqdimnomada ishning mohiyati, ya'ni jinoyatni, uning oqibatlari, sabablari va unga olib kelgan shart-sharoitlarni ko'rsatiladi hamda ularni bartaraf etish choralari aniq belgilanib, ularning ijro etilishi talab qilinadi. Agar jinoyat ishini tergov qilishda jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rilmagan bo'lsa, ish qo'shimcha tergovga qaytarilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qonunda protsessual choralar sifatida tegishli davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxsga jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida aniqlangan jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish haqida taqdimnoma kiritish nazarda tutilgan.

*Taqdimnoma – jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar ko'rsatilgan va ularni bartaraf etish talablarini o'zida mujassamlashtirgan JPK asosida tuziladigan protsessual hujjatdir.*

Shu o'rinda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud faoliyatida ushbu yo'nalishda bir qator ijobiy jihatlar mavjudligini aytish bilan bir qatorda, barcha amaliyot xodimlari ham ushbu ishning muhimligini zarur darajada inobatga olmayotganligini, bu masalada rasmiyatchilik va nazoratsizlikka, taqdimnomalarni tuzishda xatolarga yo'l qo'yayotganliklarini ham ta'kidlash joiz.

Ulardan eng ko'p tarqalgani jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar yo umuman tushirib qoldirilishida, yo «jamoadagi tarbiyaviy ishlar»dagi kamchiliklarga tenglashtirilishida namoyon bo'ladi. Bunday yuzaki taqdimnomalarda jinoyatning bevosita sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar chuqur ochib berilmaydi va ularni bartaraf etishga doir aniq choralar ko'rsatilmaydi.

Bu kabi taqdimnomalarni tuzishga olib kelgan sabablar nima – ish holatlarining yetarli tekshirilmaganligimi yoki ushbu holatlardan sabab va shart-sharoitlarni ajratib olishni bilmaganligimi, bundan qat’i nazar bunday taqdimnomalar nihoyatda rasmiy xususiyatga ega va samarasiz bo’ladi, buning ustiga tergov organlarining obro’siga putur yetkazadi.

Taqdimnomada tarbiyaviy, ma’muriy, xo’jalik faoliyatining aynan qaysi kamchiliklari mavjudligi, ularga qachon, qayerda, kim va kimning aybi bilan yo’l qo’yganligi, qay tariqa jinoyatga imkon berilganligi aniq ko’rsatilishi zarur. Ushbu holatlarni aniqlash uchun maxsus ilmiy yoki texnikaviy bilimlar talab etilganda, taqdimnoma matnida yoki unga berilgan ilovada (xulosaning nusxasi yoki undan olingan ko’chirma ko’rinishida) ekspertning ushbu masala haqidagi fikrlarini keltirgan ma’qul. Bu esa taqdimnomaning ishonchliligi va amaliyligini oshiradi.

Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun talab etiladigan choralar masalasida tergovchi o’z fikrini faqat sof yuridik xususiyatga ega bo’lgan masalalar doirasida (masalan, muayyan huquqiy ko’rsatmalar-ning buzilishida aybdor bo’lgan shaxslarni intizomiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortish haqida) aytishi mumkin. Ekologik yoki texnikaviy xususiyatga ega bo’lgan tadbirlarni o’tkazish masalasida esa tergovchi ular xususida qandaydir qarorlar chiqarishdan tiyilgani ma’qul. Uning korxonada texnologik jarayonni o’zgartirish, asbob-uskunalarni almashtirish, shtatlar tuzilishini o’zgartirish kabi masalalarda aytgan takliflari jiddiy qabul qilinishi qiyin. Ushbu masalalar taqdimnoma yo’llangan korxonada, muassasa, tashkilotning yoxud yuqori turuvchi organning vakolatiga kiradi. Ularning hal etilishi tergovchi amalga oshirgan tergov va uning mutaxassisligi doirasidan chiquvchi ko’plab boshqaruv, xo’jalik, moliyaviy, ishlab chiqarish omillarini inobatga olishni talab qiladi.

Taqdimnoma lo’nda, shu bilan birga, mazmunan ravshan, aniq tushunilishi uchun zarur axborotga ega bo’lishi kerak. Mansabdor shaxslar yoki jamoatchilikka ishning holatlari haqida qancha hajmda

axborot berish mumkin va kerakligi haqidagi masalani har bir muayyan vaziyatda ish holatidan kelib chiqib hal qilish lozim. Albatta, oshkor etilishi dalillarning yo'qotilishiga yoki soxtalashtirilishiga, ko'rsatuvlarning ko'ngilsiz o'zgartirilishiga, fuqarolar sha'ni va qadr-qimmatining poymol etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan faktlarga doir ma'lumotlarni xabar qilish mumkin emas. Ushbu talablar gazeta maqolalari, radio va televideniye orqali chiqishlarga ham batamom taalluqlidir.

Xo'sh, tergovning qaysi bosqichida taqdimnoma kiritilishi kerak. Odatda, taqdimnomalar tergov tugaganidan so'ng beriladi, biroq buni ertaroq qilish kerak bo'lgan vaziyatlar ham bo'ladi. Jumladan, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan taqdimnomalar darhol berilishi maqsadga muvofiq.

Eng umumiy shaklda ushbu savolga jinoyat sodir etilishiga imkon bergan holatlar aniqlangan zahoti deb javob berish mumkin. Ushbu holatlar haqida ishonchli ma'lumotlar olinganda va yangi jinoiy tajovuzlar xavfi mavjud bo'lganda taqdimnoma kiritish kechiktirib bo'lmas choralardan biridir.

Ammo jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash uzoq vaqt davomida ko'p mehnat sarflab tergov qilishni, taftishlar, ekspertizalar o'tkazishni talab etishi ham mumkin. Bunday hollarda asosli taqdimnomani faqat dastlabki tergovning oxirgi bosqichlaridagina kiritish mumkin bo'ladi. Aks holda tergovchining shoshma-shosharlik bilan bergan takliflari bir tomonlama, rejasiz, yuzaki va foydasiz bo'lib chiqadi.

Jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish borasidagi choralarni eng oqilona amalga oshirishi mumkin bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsni to'g'ri belgilash ham juda muhim, chunki vakolatsiz tashkilot yoki mansabdor shaxsga yuborilgan taqdimnomaning foydasizligi mutlaqo aniq.

Taqdimnoma – protsessual hujjat. U taqdimnoma oluvchida jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitni bartaraf etish choralarini

ko'rish majburiyatini, tergovchida esa zarur choralar ko'rilganligiga ishonch hosil qilish huquqini yuzaga keltiradi. Har qanday protsessual hujjat singari, taqdimnomaga ham yozma shakl xos bo'lib, bu aniqlik, muayyanlik, ijro uchun mas'uliyat, nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Yuridik adabiyotda ko'p bora ta'kidlanganidek, taqdimnomalar bo'yicha ko'rilgan choralarning samaradorligini nafaqat IIV mas'ul xodimlari, profilaktika xizmatining xodimlari ham nazorat qilishlari kerak. Chunki ular funksional vazifalaridan kelib chiqib korxonalar, muassasa, tashkilot, davlat organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar yoki mansabdor shaxslar ko'rgan choralarning qanchalik amaliy bo'lganligini tekshirish imkoniyatiga egadirlar.

Nazarimizda, bunday nazoratni amalga oshirishni shaxsan tergovchining o'zi bir oylik muddat bilan cheklab qo'yishi kerak. Ushbu muddat ichida qonunga (JPK 299-m.) muvofiq, tegishli davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar yoki mansabdor shaxslar ushbu taqdimnomani ko'rib chiqishlari, zarur choralar ko'rishlari va ko'pi bilan bir oy ichida tegishli tergovchi, prokuror yoki sudga ish natijalar haqida xabar berishlari kerak.

Sudning jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi xususiy ajrimi surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning taqdimnomasidan kam bo'lmagan yuridik kuchga ega. Jinoyat ishini ko'rish jarayonida jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanganidan keyin sud xususiy ajrim chiqarib, unda tegishli davlat organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, jamoat birlashmalaridan, jamoalardan yoki mansabdor shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rishni talab qiladi (JPK 298-m.).

Bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra tergovchilar bergan taqdimnomalar va sudlar chiqargan xususiy ajrimlarning hammasiga ham ko'rilgan choralar haqida o'z vaqtida va sifatli javob berilmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ushbu sohasidagi asosiy kamchilik – zarur nazoratning, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda prinsipiiallikning yo‘qligi, matbuot, radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari, turli xil yig‘ilishlar, anjumanlar, davra suhbatlarining imkoniyatlaridan sust foydalanish va h.k.

JPKning 299-moddasida belgilanganidek, taqdimnoma yoki xususiy ajrim bajarilmagan yoki vijdonan bajarilmagan taqdirda korxon, muassasa yoki tashkilotning aybdor rahbari qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Ayni paytda, JPKning 300-moddasida ko‘rsatilishicha, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror – taqdimnoma, sud esa, xususiy ajrim chiqarish yo‘li bilan tegishli korxon, muassasa va tashkilot rahbarini va jamoasini jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko‘rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to‘g‘risida xabardor qilishi mumkin.

## **X BOB. REABILITATSIYA**

### **10.1. «Reabilitatsiya» tushunchasi, asoslari va oqibatlari**

«Reabilitatsiya» soʻzi lotin tilidan kelib chiqqan boʻlib «yaroqlilikning tiklanishi» maʼnosini bildiradi. Ushbu tushuncha oʻz mazmunga koʻra, sud tartibida yoki maʼmuriy tartibda shaxsning avvalgi huquqlari, yaxshi nomi va obroʻsining tiklanishi yoxud nogironlarning mehnat layoqatini turli daʼvo usullari, shuningdek, turli moslamalar yordamida tiklash tarzida izohlanadi.

«Reabilitatsiya» tushunchasi hozirgi kunda huquqning va bugungi jamiyat ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Qonun chiqaruvchi organ uni 1930–1940-yillardagi qatagʻon davri qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish hamda shaʼni va qadr-qimmatini tiklashga bagʻishlangan normativ hujjatlarda qoʻlladi. Mazkur tushuncha sobiq Ittifoqning uzoq hududlariga zoʻrlik bilan koʻchirib yuborilgan xalqlar va ayrim fuqarolarning huquqiy va maʼnaviy maqomini tiklashga bagʻishlangan huquqiy hujjatlarning nomlarida keltirilgan.

Yuridik adabiyotlarda va sud hujjatlarida ishlatiladigan «reabilitatsiya» tushunchasini qiyosiy tahlil qilish uning mazmunan bir xil emasligidan dalolat beradi. Buning sabablaridan biri shundaki, mahkumlarni reabilitatsiya etish huquqiy instituti afv etish institutidan kelib chiqqan va rivojlanmoqda. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida va Rossiyada ilgari reabilitatsiya deganda, hukm etilish bilan bogʻliq barcha huquqiy mahrumliklarni bundan buyon tugatish tushunilgan. U orqaga qaytish ahamiyatiga ega boʻlmagan va muayyan muddat oʻtgach axloqan tuzalgan jinoyatchilarning yoki jazoni oʻtab boʻlgan fuqarolarning huquqiy layoqatini tiklashga qaratilgan boʻlgan.

Ayni paytda reabilitatsiya yuridik taʼlimotda jinoyat ishlarini oqlash hamda «reabilitatsiya etiluvchi asoslar boʻyicha», yaʼni 1981-yildan keyin jinoyat ishlari boʻyicha jinoyat hodisasi boʻlmaganligi, jinoyat tarkibi boʻlmaganligi uchun tugatishning huquqiy oqibati sifatida talqin etiladi.



Tabiiyki, ushbu tushunchani ana shunday keng ma'noda, ya'ni jinoiy qilmishlarni sodir etmagan deb topilgan aybsiz shaxslarga ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'lur edi. Qonun o'zgarib, jinoyat deb hisoblangan qilmish jinoiy bo'lmay qolganda va buning natijasida fuqaroga nisbatan qo'zg'atilgan ish jinoyat tarkibi bo'lmaganligi sababli tugatilganda esa, jinoiy ta'qib natijasida yetkazilgan zarar qoplanmaydi.

Shunday qilib, *reabilitatsiya* deganda, noqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ozodlikdan mahrum qilish, aybsiz shaxslarning noto'g'ri hukm etilishi bilan bog'liq ravishda yo'qotilgan huquq va imtiyozlarning qaytarilishi, huquqiy cheklashlarning bartaraf etilishi, shuningdek, kelgusida huquqiy layoqatning tiklanishi tushuniladi.

Reabilitatsiyaning yuridik maqsadi – to'liq fuqarolik huquqlariga ega bo'lmagan insonni to'la huquqli fuqaroga aylantirish; axloqiy maqsadi esa – aybsiz fuqaroning omma oldidagi va xizmat sohasidagi hayotiga tushgan dog'ni bartaraf etish, jamiyatdagi yaxshi nomini tiklash, uning siyosiy vazifasi esa – fuqaro va davlat o'rtasida yo'qotilgan ishonchni tiklash, jinoyat sodir etilishining oldini olish, davlat uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmagan uning a'zolari xonavayron bo'lishining oldini olishdan iborat.

Ilmiy adabiyotda «reabilitatsiya» tushunchasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xatolari qurbonlarining huquqiy maqomini ifodalashda foydalaniladi. Amaldagi JPKda reabilitatsiyaga ikki bobdan iborat, butun boshli yettinchi bo'lim ajratilgan. Endi JPKning mazkur boblarini ko'rib chiqishga o'tamiz.

Asossiz va noqonuniy gumon qilingan, ayblangan, ba'zan esa aybsiz hukm qilingan shaxslarni reabilitatsiya qilish – jinoyat-protsessual fanning muhim institutidir. U fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini eng yaxshi tarzda ta'minlash g'oyasi bilan sug'orilgan. O'z vaqtida va to'liq reabilitatsiya etilishdan asossiz ushlangan, qamoqqa olingan, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tariqasida ishga jalb etilgan shaxsgina manfaatdor emas. Hech kim uning taqdiriga befarq bo'lmasligi kerak. Jamiyat har bir aybsiz shaxsning reabilitatsiya

etilishidan manfaatdor, shu bois reabilitatsiya qilish surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning burchidir.

Fuqaro o'zining aybsizligini isbotlash majburiyatidan ozod etilgan. Uning jinoiy javobgarlikka noqonuniy tortilishi va hukm qilinishida javobgarlikdan xavfsirab oqlov hukmini chiqarmaslikka harakat qiladigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim mansabdor shaxslar aybdordirlar. U mazkur organlar harakatlarining qonunga xilof ekanligini isbotlashi ham zarur emas: agar xuddi shu asoslar bo'yicha oqlov hukmi chiqarilsa, ularning aybi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Demak, bu o'rinda fuqarolik javobgarligining o'ziga xos holati ko'zga tashlanadi, chunki bunday javobgarlik aybdorlik haqidagi umumiy prinsip bo'yicha emas, ko'rib chiqilayotgan vaziyatlarda zarar yetkazilganlik prinsipi bo'yicha kelib chiqadi. Bu bilan fuqarolarni reabilitatsiya etish uchun eng qulay sharoit yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, reabilitatsiya etish huquqi amalda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga berilgan. Bunda fuqarolarni reabilitatsiya etishda sudning o'rniga alohida urg'u beriladi.

JPKning 301-moddasiga muvofiq, shaxsni reabilitatsiya etishga oqlov hukmi, shuningdek, JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan holatlar, ya'ni ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermaganligi; uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi; uning sodir etilgan jinoyatga daxli yo'qligi asos bo'ladi.

Sud nafaqat sudlanuvchini jazoga hukm qilishga, balki o'z hukmi bilan davlat nomidan ayb qo'yilgan shaxsning aybsizligini tasdiqlab uni oqlashga, ayblovni noto'g'ri deb topishga hamda sud majlisida asossiz qatnashayotgan shaxsning yaxshi nomini tiklashga ham haqlidir. Ushbu asosda har yili birinchi instansiyada jinoyat ishlarini ko'rib chiqish chog'ida yuzlab odamlar oqlanadi.

Oqlov hukmi – odil sudlovning zaruriy hujjati. Protssualchi olimlarning aksariyati oqlov hukmi chiqarilishini qonuniy hodisa, odil

sudlovning to'liq reabilitatsiyaga olib keluvchi zaruriy akti deb hisoblaydi. Ammo hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi (JPK 455-m.) talablari oqlov hukmiga ayblov hukmidan kam bo'lmagan darajada qo'yiladi.

Tergov va sud muhokamasida jinoyat hodisasining mavjudligi jinoyat ishini qo'zg'atish yoki tergovni davom ettirishning asosi sifatida isbotlanishi lozim. Jinoyat hodisasining mavjud emasligi reabilitatsiya uchun asos bo'lib, turli sharoitlarda aniqlanadi. Natijada tergov va sudlov amaliyotida haligacha ko'pincha jinoyat ishini tugatishning «jinoyat hodisasining yo'qligi» va «jinoyat tarkibining yo'qligi» singari asoslari chalkashtirib yuboriladi.

Qilmishning g'ayriqonuniyligini belgilovchi odatdagi belgilar ayni paytda qilmishda jinoyat tarkibining yo'qligini ham hal qiladi. Qonunda ularning har biri bitta jinoyat-protsessual normada nazarda tutilib, ularni ajratib qo'yishga harakat qilingan.

Ayblanuvchi yoki sudlanuvchining qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganida, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tergov predmetini tashkil qilgan qilmish haqiqatan ham sodir etilganligi, aynan shu qilmish sodir etilganligi, ammo unda jinoyat tarkibi yo'qligiga ishonch hosil qiladi. Qilmish jinoyat qonunida belgilangan taqiqni buzmasligi yoki kam ahamiyatliligi sababli ijtimoiy xavf tug'dirmasligi, shu bois jinoyat bo'lmasligi mumkin. Boshqacha aytganda, qilmishda jinoyat tarkibi elementlaridan biri – obyekt, qilmish va kimgadir yetkazilgan ziyon o'rtasidagi sababiy aloqadorlik (obyektiv tomon, ayb va h.k.) – bo'lmaganida, shaxs harakatlarida jinoyat tarkibining yo'qligi jinoyat ishini tugatish yoki oqlov hukmini chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Reabilitatsiyaning ikki turi mavjud – to'liq va qisman reabilitatsiya, ammo har qanday holda ham u muayyan ziyonning qoplanishi bilan bog'liq bo'ladi. Reabilitatsiya etilishning mulkiy va boshqa oqibatlari JPKning 302-moddasida nazarda tutilgan: reabilitatsiya etilgan shaxs qonunga xilof ravishda ushlab turilgani, ehtiyot chorasi sifatida qonunga

xilof ravishda qamoqda saqlangani yoki uy qamog‘iga joylashtirilgani, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilgani natijasida unga yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma’naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega.. Bunday hollarda reabilitatsiya etilgan shaxsning JPKning 310-moddasida nazarda tutilgan mehnat qilish, nafaqa olish, uy-joydan foydalanish va boshqa huquqlari ham tiklanishi lozim.

Asossiz ravishda zarar ko‘rgan fuqarolarga ziyonni qoplash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida muayyan huquqiy normalarga o‘ziga xos yuridik poydevor qo‘yuvchi hamda fuqaroning davlat va uning organlari (mansabdor shaxslari) bilan ommaviy-huquqiy munosabatlarining mohiyatini belgilovchi bir necha nazariy prinsip yotadi. Asosiy prinsiplar quyidagilardir:

- 1) davlatning yetkazilgan ziyon uchun fuqaro oldidagi javobgarligi;
- 2) bevosita zarar yetkazgan shaxsning fuqaro oldidagi javobgarligi;
- 3) huquqni muhofaza qiluvchi organ (mansabdor shaxs)ning immuniteti.

Turli mamlakatlarning huquqiy tizimlarida ushbu prinsiplarning turli xil nisbati kuzatiladi. Bu esa javobgarlik xususiyati va subyektlarini, repressiv talablar doirasini, jinoiy ta’qib tufayli yetkazilgan zararni qoplash haqida da’vo tushgan taqdirda sudyalari, ayblovchilar, politsiyachilarning daxlsizlik darajasini belgilab beradi. Reabilitatsiya etiladigan fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash asosan kontinental huquqda (roman-german tipiga mansub davlatlarda) ishlab chiqilgan tizimdir.

Ayblanuvchi yoki mahkumga mulkiy ziyon yetkazilgan taqdirda bunday ziyon ushbu organlar mansabdor shaxslarining aybidan qat’i nazar to‘liq qoplanadi. Bunday yondashuv katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Agar fuqaro surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi davomida o‘ziga o‘zi qarshi gapirib haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik

qilgan va bu bilan jinoiy javobgarlikka noqonuniy tortilish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olinish, shuningdek, hukm etilishga sabab bo'lgan taqdirda, ziyon qoplanmaydi.

Reabilitatsiya dastlabki tergovda ham, sud muhokamasi jarayonida ham qo'llanilishi mumkin va bunda mulkiy ziyonni qoplash masalalari yuzaga keladi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish natijasida mahkum avvalgi ish joyidan bo'shatiladi, avvalgi maoshini yo'qotadi, ozodlikdan mahrum qilinmasdan axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganida esa uning ish haqidan muayyan qismi ushlab qolinadi. Ishni tugatib hukm bekor qilingan taqdirda ozodlikdan mahrum qilmasdan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsning ish haqidan ushlab qolingani pul summasi unga to'liq qaytariladi. Ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jinoiy jazo qo'llanilganda ham reabilitatsiya munosabati bilan xuddi shu narsa yuz beradi.

Shu bilan birga, mulkiy xususiyatga ega bo'lgan jazo tayinlangan, masalan, mol-mulki musodara qilingan yoki jarima solingan mahkum reabilitatsiya etilgan taqdirda, musodara etilgan mulkni qaytarish, uning qiymatini yoki to'langan jarima qiymatini qoplash uchun asos paydo bo'ladi.

## **10.2. Qisman reabilitatsiya etishning asoslari va oqibatlari**

Yuqorida ta'kidlanganidek, reabilitatsiya to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. Qisman reabilitatsiya etish ayblanuvchi yoki mahkumga yetkazilgan darajada mulkiy ziyonni qoplash va ma'naviy zararni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

JPKning 303-moddasiga muvofiq, shaxsning qisman reabilitatsiya etilishiga quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) shaxsning qamoqda yoki uy qamog'ida saqlab turilganiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum etishga yoki ozodlikni cheklashga yoxud ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilinganligi;

2) hukmdan ayblovning qisman chiqarib tashlanganligi va buning natijasida qonunga ko‘ra qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlash yoxud ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash mumkin emasligi;

3) ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash muddatining yuqori sud tomonidan haqiqatda o‘talgan muddatga qaraganda kamaytirilganligi yoxud boshqa yengilroq jazo turi bilan almashtirilganligi;

4) jinoiy jazo tayinlamay hukm chiqarilgan hollarda ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘ining, tibbiy muassasaga joylashtirishning asossizligi.

Shaxsning qamoqda qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlab turilganiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilinishi, bari bir hukm etilish faktini bildiradi, salbiy jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan sudlanganlikni yaratadi. Hatto shaxs qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlab turilgan muddatiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum qilinganda ham mehnat va turar joy huquqiy munosabatlari mahkum uchun yomon tomonga o‘zgarishi mumkin. Mahkum avvalgi ish haqi va boshqa moddiy ne‘matlari yo‘qolishida namoyon bo‘ladigan mulkiy zarar ko‘radi.

Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilinganda ham, garchi bunday hukm qilishning oqibatlarini ozodlikdan mahrum qilishdagi oqibatlarga qaraganda yengilroq bo‘lsa ham, u har holda shaxsning ommaviy qoralanishiga, axloqi salbiy baholanishiga olib keladi, fuqaroning yaxshi nomiga dog‘ tushadi va obro‘si ketadi. Bunda sud sudlanuvchining aybsizligini ta’kidlamaydi, xato hukmga yo‘l qo‘ymaydi. Aksincha, uning hukmi qonuniy va yetarlicha asosli bo‘ladi. Axir, jazo tayinlashda JKning 55-moddasida belgilangan, shuningdek, unda nazarda tutilmagan boshqa holatlar inobatga olinadi. Qonunda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga bunday holatlarni inobatga olish majburiyati yuklatiladi. Buning ustiga ishni sudga ko‘rib chiqish paytiga kelib, dastlabki tergov davrida noma’lum bo‘lgan yangi holatlar (kasallik, nogironlikka chalinish, yaqinlarining vafot etishi va sh.k.) paydo bo‘lishi mumkin.

Hukmning qonuniyligi, asosliligi va odilligini tekshirishning bunday hollarida taftish asoslari mavjud, jazo esa kassatsiya va nazorat tartibida o'zgartirilishi mumkin.

Hukmdan ayblovning bir qismi olib tashlanishi sudning ayblov hajmi, ayb shakli yoki mahkumning jinoyat sodir etishda ishtirok etish sharti, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi haqida noto'g'ri xulosaga kelganligini bildiradi. Birinchi instansiya sudining ana shu xatosini kassatsiya va nazorat instansiyasidagi sud tuzatishi kerak.

Shunday vaziyatlarda ayblovning ortiqcha hajmi jinoyat qonunini noto'g'ri qo'llash bilan, ayniqsa jinoiy javobgarlikni belgilashda, davom etayotgan va takroriy sodir etilgan jinoyatlarni farqlashda, bir guruh shaxslar jinoyat sodir etganda har birining javobgarligini aniqlashda, jinoyatning tavsiflovchi belgilarini aniqlashda (ushbu belgilar buning ustiga jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish haqidagi qarorlar hamda hukmlarda aniq ko'rsatilmaydi) yo'l qo'yiladigan xatolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bunday ayblov hajmi shaxsning jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytishining huquqiy oqibatlarini belgilashga, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo'lsa, jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs JK bo'yicha javobgarlikka tortilishi lozimligini pisand qilmaslikka bog'liq bo'lishi mumkin (JK 26-m. 3-q.).

Ayblov hajmini noto'g'ri belgilash dastlabki jinoiy faoliyatni, ayniqsa jinoyat qilishga urinishni hamda tugallangan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik boshlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjudligini aniqlashdan kelib chiqadi.

Sud xatolari qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarni tartibga soluvchi JK moddalarini noto'g'ri qo'llashda ham namoyon bo'ladi. Bunday holatlarga oxirgi zarurat; zaruriy mudofaa; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish; kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik, shuningdek, zaruriy

mudofaa doirasidan chiqqanida va xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda o'ldirib qo'yish kabilar kiradi.

Ko'rib turganimizdek, jinoyat huquqining institutlari juda murakkab bo'lib, huquqni qo'llash faoliyatida xatolarga olib keladi. Buning asosida hukmdan ayblov qismini olib tashlash mumkin bo'ladi. Bu narsa jinoiy javobgarlik subyektlari doirasining aniq belgilanmaganida ham, shuningdek, jinoyat sodir etishda ishtirok etadigan bir guruh shaxslarning mavjudligini yoki mavjud bo'lmaganligini aniqlashda xatolarga yo'l qo'yilishida ham, ayrim hollarda jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs aybining shakli va darajasini aniqlash qiyinligida yoxud ayblilik haqidagi xulosaning asossizligida ham, va nihoyat, kimnidir o'ta xavfli retsivist deb topish shartlari va tartibini belgilovchi qonunni noto'g'ri qo'llashda ham namoyon bo'ladi (JK 34-m. 3–6-q.).

Ta'kidlash lozimki, hukmdan ayblov qismini chiqarish asosan JK normalarini noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq (JPK 484-m. 1-q. 4-b.; 488-m.). Bu hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini kassatsiya hamda nazorat tartibida tekshirish jarayonida aniqlanadi. JPKning 481-moddasida bunday vaziyatning bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan va tegishli sudga ishni yangitdan ko'rib chiqishga bermay turib, hukmga zarur o'zgartishlar kiritish mumkinligi, ammo bunda jazoni kuchaytirishga va og'irroq jinoyat haqidagi qonunni qo'llashga yo'l qo'ymasligi nazarda tutilgan. Bunday o'zgartishlarni qisman rehabilitatsiya etish deb hisoblash mumkin. Bu kabi rehabilitatsiyani qaror topgan vaziyatda qamoqqa olish yoki ozodlikdan mahrum qilishni taqiqlash bilan bog'lab bo'lmaydi.

Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash lozimki, JPKning 493-moddasida aytilganidek, jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rib, sud JPKning 83-moddasi va 84-moddasining 1 va 4-qismlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, birinchi instansiya sudida ko'rib chiqilgan dalillar sudlanuvchini aybli deb topish uchun yetarli bo'lmasa va qo'shimcha dalillar to'plash imkoniyati qolmagan bo'lsa, ayblov hukmini bekor qiladi va jinoyat ishini tugatadi.



Yuqori turuvchi sud ozodlikdan mahrum qilish muddatini amalda o‘talganiga nisbatan kamroq muddatgacha kamaytirgan yoki yengilroq jazo turiga almashtirganda, quyidagi ikki guruh asoslar mavjud bo‘ladi:

1) tayinlangan jazo jinoyatni noto‘g‘ri tavsiflash natijasida haddan tashqari qattiq bo‘lishi mumkin, sud jinoyatning ijtimoiy xavfini, sudlanuvchining shaxsini, uning ayblilik darajasini noto‘g‘ri baholagan yoki javobgarlikni yengillashtiruvchi biror holatni e‘tiborsiz qoldirgan bo‘lishi mumkin v h.k.;

2) jazoni ancha kamaytirishga imkon beradigan yengillashtiruvchi, jumladan, alohida hollar inobatga olinmagan bo‘lishi mumkin.

### **10.3. Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash tartibi**

JPKning 304-moddasiga muvofiq, reabilitatsiya etilgan shaxsga JPKning 302 va 303-moddalarida ko‘rsatilgan qonunga xilof harakatlar bilan yetkazilgan mulkiy ziyon to‘la hajmda qoplanadi. Ziyonni qoplash davlat hisobidan amalga oshiriladi. Bunda JPK 304-moddasining 1, 3, 4, 5 va 6-bandlarida ko‘rsatilgan ziyon moliya organlari tomonidan, 2-bandida ko‘rsatilgan ziyon O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan davlat budjeti hisobidan qoplanadi. 3-bandda ko‘rsatilgan mulk asli holiga qaytariladi, buning iloji bo‘lmasa, moliya organlari uning qiymatini qoplaydi.

Reabilitatsiya etilgan shaxs vafot etgan taqdirda JPK 304-moddaning 1, 3, 4, 5 va 6-bandlarida nazarda tutilgan ziyonni undirish huquqiga uning merosxo‘rlari, 2-bandida nazarda tutilgan ziyonni undirish huquqiga esa boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta‘minlanishi lozim bo‘lganlar jumlasiga kiruvchi oila a‘zolari ega bo‘ladilar.

Agar qonunga xilof ravishda hukm qilingan yoxud jinoiy javobgarlikka noqonuniy tortilgan fuqaro pensiya olish uchun murojaat

etgan kunga kelib ishlamayotgan yoki sudlanguniga yoxud jinoiy javobgarlikka tortilguniga qadar olganidan kam miqdorda maosh olayotgan bo'lsa, unga sudlangunicha yoxud jinoiy javobgarlikka tortilgunicha egallab turgan lavozimida yoki boshqa o'xshash lavozimda hukm qonuniy kuchga kirgan yoxud jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror (ajrim) chiqarilgan paytdagi maoshdan kelib chiqib pensiya tayinlanadi.

Imtiyozli shartlar bilan pensiya tayinlashda imtiyozli miqdorlarda lavozimdan chetlatilganligi tufayli fuqaro qamoqda saqlangan, jazo o'tagan vaqt pensiya olish uchun murojaat etgan shaxsning tanlovi bo'yicha yo qonunga xilof tarzda hukm qilinish yoki jinoiy javobgarlikka tortilishgacha bo'lgan ishga yoxud jinoiy javobgarlikdan yoki jazoni o'tashdan ozod etilganidan keyingi ishiga tenglashtiriladi.

JPK 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra chiqarilgan oqlov hukmida yoki ishni tugatish haqidagi ajrimda (qarorda) sud, ishni tugatish to'g'risidagi qarorda esa surishtiruvchi, tergovchi, prokuror reabilitatsiya etilgan shaxsning o'ziga yetkazilgan mulkiy ziyonni undirib olish huquqini e'tirof etishlari lozim. Hukm, ajrim yoki qarorning nusxasi reabilitatsiya etilgan shaxsga topshiriladi yoki pochta orqali yuboriladi. Ayni vaqtda unga hukm, ajrim yoki qaror ustidan shikoyat qilish tartibi, shuningdek, mulkiy ziyonni qoplash va boshqa huquqlarini tiklab olish tartibi tushuntiriladi.

Reabilitatsiya etish to'g'risida qaror chiqargan sud, prokuror yoki surishtiruvchi, tergovchi reabilitatsiya etilgan shaxsdan ariza tushgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan ziyon miqdorini aniqlaydi, zarurat tug'ilganda buning uchun moliya organlaridan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlaridan hisob-kitob talab qilib oladi. Ish kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rish chog'ida sud tomonidan tugatilgan bo'lsa, ziyon miqdorini hukm chiqargan sud aniqlaydi.

Biroq bir qator hollarda jinoyat ishini yuritishning tugatilishi jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning reabilitatsiya etilishiga olib kel-

maydi. Bunday hollarga quyidagilar kiradi: shaxsning amnistiya yoki afv etish akti chiqarilganligi tufayli jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinishi; jazoga tortish muddatining o'tishi, ahvolining o'zgarishi, ishning voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyaga topshirilishi.

Keyinchalik jinoyat ishlari yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha tugatilgan fuqarolarni jinoiy javobgarlikka tortish ularga moddiy zarar yetkazilishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin mulkiy javobgarlik maxsus qonunda faqat surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning noto'g'ri xizmat harakatlari uchungina nazarda tutilishi kerak. Bu o'rinda esa zarar qonunga muvofiq harakatlar tufayli yetkazilmoqda. Jinoyat ishlari jinoyat alomatlari aniqlanganligi tufayli qo'zg'atilgan. Keyinchalik tergov yoki sud muhokamasi bilan aybdorlarni jinoiy javobgarlikka va jazoga tortish uchun asoslarning yetarliligi aniqlangan, ammo yuqorida keltirilgan sabablar tufayli ushbu shaxslarga nisbatan jinoiy jazo o'rniga ma'muriy yoki jamoat ta'siri choralari qo'llanilgan yoxud (amnistiya akti, jazo muddati o'tganligi tufayli) hech qanday chora umuman qo'llanilmagan. Shu bois mazkur rehabilitatsiya etuvchi asoslar ayni vaqtda zararni qoplash huquqini istisno etuvchi holatlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, fuqarolik qonun hujjatlarida jabrlanuvchining aybi qoplash miqdoriga ta'sir etadigan (yoki zararni qoplash huquqini istisno etadigan) hollar nazarda tutilgan. Jamiyat manfaatlari yo'lida nafaqat bironing sog'lig'i yoki mulkiga ziyon yetkazganlik uchun javobgarlik belgilash, balki o'z sog'lig'i va mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash ham zarur. Shu sababli qonunda jabrlanuvchining o'zi zarar yuzaga kelishi yoki uning ortishiga imkon bergan vaziyatlarda uning uchun foydali bo'lmagan oqibatlar kelib chiqishi nazarda tutilgan. Biroq jabrlanuvchi o'z niyatini amalga oshirish uchun qilgan harakatlari natijasida yuzaga keltirgan oqibatlar bilan ushbu harakatlarning o'zi o'rtasidagi zarur sababiy aloqadorlik aniqlanishi kerak. Shu bois jabrlanuvchi o'ziga qarshi jinoiy ta'qib qo'llanilishini

keltirib chiqarishga harakat qilgan bo'lsa ham, ammo asossiz choralari qo'llanilishining sababi butunlay boshqa bo'lsa, zararni qoplashni rad etish haqidagi masalani qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Jinoyat-protsessual qonunda ko'rsatuvlar berishga majburlash taqiqlangani to'g'ri, majburlashda aybli bo'lgan shaxs esa qattiq javobgarlikka tortilishi kerak. Buning ustiga jabrlanuvchi ruhiy sabablar (tushkunlikka tushishi, asabiylashishi va h.k.), tajribasizligi yoki huquqiy savodsizligi tufayli qaysi holatlar oqlovchi holat bo'lishini yoki ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun ahamiyatni o'zgartiruvchi bo'lishini bila olmasligi mumkin.

Jabrlanuvchining aybini hisobga olishning yagona mezonini uning sodir etgan harakatlariga nisbatan lozim darajada isbotlangan subyektiv munosabati bo'lishi kerak, bunda faqat jabrlanuvchining zarar yetkazishga bo'lgan qasdi e'tiborga olinishi mumkin.

Qonunga xilof tarzda hukm etilganligi yoki g'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganligi uchun lavozimidan chetlashtirilganligi tufayli ishdan yoki lavozimidan bo'shatilgan shaxs murojaat etgan kundan boshlab ko'pi bilan 5 oylik muddat ichida, agar ushbu murojaat oqlov hukmi chiqarilgan yoki ish tugatilgan paytdan boshlab uch oy ichida qilingan bo'lsa, avvalgi ishi (lavozimi) qaytarilishi kerak, buning iloji bo'lmagan (korxonasi, muassasa tugatilgan, lavozim qisqartirilgan) taqdirda esa, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan va ishda (lavozimda) tiklashga to'sqinlik qiluvchi boshqa asoslar mavjud bo'lganda – boshqa teng ahamiyatli ish berilishi kerak.

Mehnat daftarchasiga yozilgan ishdan (lavozimdan) ozod qilish yoki chetlashtirish haqidagi yozuv haqiqiy emas deb topiladi. Shaxsning iltimosiga ko'ra, korxonasi, muassasa, tashkilot ma'muriyati unga haqiqiy emas deb topilgan yozuv kiritilmagan mehnat daftarchasining dublikatini beradi.

Ayni paytda yetkazilgan mulkiy zararni qoplash choralari ko'riladi. Mulkiy ziyonning miqdori hisoblab chiqarilganidan keyin bu ziyonni qoplash uchun pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risida sud ajrim, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi. Ajrim yoki

qarorning nusxasi gerbli muhr bilan tasdiqlanib, to'lovni amalga oshirishi lozim bo'lgan organlarga taqdim etish uchun reabilitatsiya etilgan shaxsga, u vafot etgan bo'lsa, oila a'zolariga beriladi yoki yuboriladi (JPK 307-m.).

Qonunda manfaatdor shaxslarga mulkiy zararni qoplash hujjatlari xususida shikoyat qilish imkoniyati berilgan. JPKning 308-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchining, prokurorning pul to'lovini amalga oshirish to'g'risidagi qarori ustidan manfaatdor shaxslar qonunda nazarda tutilgan tartibda va muddatda sudga shikoyat qilishlari mumkin. Sudning to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi ajrimi ustidan manfaatdor shaxslar yuqori sudga umumiy tartibda shikoyat qilishlari, prokuror esa protest kiritishi mumkin.

Shaxs ushlab turilganligi, qamalanganligi, lavozimidan chetlashtirilganligi, tibbiy muassasaga joylashtirilganligi yoki hukm qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar matbuotda e'lon qilingan, radio, televideniye yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan taqdirda, reabilitatsiya etilgan shaxsning, u vafot etgan bo'lsa, qarindoshlarining, sud, prokuror, surishtiruvchi, tergovchining talabiga ko'ra tegishli ommaviy axborot vositalari uning reabilitatsiya etilganligi to'g'risida bir oy ichida xabar berishlari shart (JPK 309-m.). Agar ular buni qilishdan bosh tortsalar, sud tartibida javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Reabilitatsiya etilgan shaxsning qonunga xilof ravishda ehtiyot chorasi tariqasida qamoqda saqlangan vaqti, jazo o'tagan vaqti, lavozimidan chetlashtirilganligi tufayli ishlamay yurgan vaqti, tibbiy muassasada saqlangan vaqti umumiy mehnat stajiga va ixtisoslik bo'yicha ish stajiga qo'shiladi. Agar oqlov hukmi qonuniy kuchga kirgan yoxud jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror (ajrim) chiqarilgan kun bilan ishga kirish kuni o'rtasidagi tanaffus uch oydan ortiq bo'lmasa, bu vaqt uzluksiz stajga ham qo'shiladi.

Mehnat staji, qishloq xo'jalik korxonasidagi ish staji uning xodimlariga turli xil imtiyozlar va afzalliklar berilgan, jumladan, maxsus sug'urta bo'yicha pensiya tayinlangan barcha hollarda inobatga olinadi.

Ishchi va xizmatchilarga ushbu staj imtiyozli shartlarda, imtiyozli miqdorda va belgilangan xizmat muddati uchun pensiya tayinlashda, mutaxassislik bo'yicha ishlash muddatiga qarab oylik maosh (lavozim maoshi) miqdori belgilanayotganida, shuningdek, belgilangan ish muddati uchun hamda korxonada, muassasada, tashkilotning bir yillik ish natijalari bo'yicha bir martalik mukofot to'lanayotganida ham inobatga olinadi.

Amaldagi qonun hujjatlarida rehabilitatsiya etilgan shaxsning turar joy huquqlarini tiklash haqidagi masala yetarlicha to'liq hal etilmagan deb o'ylaymiz. JPK 310-moddasining to'rtinchi qismida belgilanganidek, qonunga xilof ravishda hukm etilgani yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgani tufayli uy-joydan foydalanish huquqidan mahrum bo'lgan bunday shaxsga ilgari u egallab turgan uy-joy qaytariladi, bosharti uni qaytarib berishning imkoni bo'lmasa, o'sha aholi punktining o'zida avvalgisiga teng qulayliklarga ega bo'lgan uy-joy beriladi. Bunda hokimlik yoki korxonada, muassasada, tashkilotning ma'muriyati rehabilitatsiya etilgan shaxsga ilgari turar joyini qaytarishi, buning iloji bo'lmaganida esa belgilangan tartibda navbatdan tashqari o'sha aholi punktida teng qiymatli obod turar joy berishi shart. Bunda amaldagi normalar va oilasining tarkibi inobatga olinishi kerak.

Shaxsning mehnat qilish, pensiya olish va uy-joydan foydalanish huquqlarini tiklash, shuningdek, mol-mulkni qaytarish yoki uning qiymatini to'lash to'g'risidagi talabi qanoatlantirilmagan bo'lsa yoxud shaxs qabul qilingan qarorga rozi bo'lmasa, u tegishli talab bilan fuqarolik (da'vo) ishini yuritish tartibida sudga murojaat qilishga haqlidir (JPK 311-m.).

Xuddi shu qoida qonunga xilof tarzda hukm etilganligi, qamoqda saqlanganligi yoki tibbiy muassasaga joylashtirilganligi munosabati bilan o'quv yurtidan chetlatilgan shaxsga ham taalluqlidir, chunki bunday shaxsning iltimosi bilan u o'qishga tiklanishi kerak.

Biroq qonunda rehabilitatsiya qilish haqidagi talablarni taqdim

etishning muayyan muddatlari belgilangan. JPKning 312-moddasiga muvofiq, mulkiy ziyonni qoplash uchun pul to'voni to'lashni reabilitatsiya etilgan shaxs yoki u vafot etgan taqdirda uning merosxo'rlari va oila a'zolari bunday to'lovlarni amalga oshirish haqidagi ajrim yoki qarorni olgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida talab qilishlari mumkin.

Boshqa huquqlarni tiklashni reabilitatsiya etilgan shaxs huquqlarini tiklash tartibini tushuntiruvchi bildirish xati olgan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida talab qilishi mumkin. Uzrli sabablarga ko'ra bu muddat o'tkazib yuborilgan hollarda u manfaatdor shaxsning arizasiga binoan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tiklanishi lozim.

Reabilitatsiya etilgan turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslar (harbiy xizmatchilar, ichki ishlar idoralari, Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, sudyalar)ning mulkiy yoki boshqa huquqlarini tiklash muayyan xususiyatlarga ega. Qonunga xilof ravishda hukm etilganligi sababli harbiy yoki boshqa unvonlaridan, shuningdek, orden va medallaridan mahrum etilgan fuqaroga nisbatan jinoyat ishini tugatib hukmni bekor qilgan sudning taqdimnomasi bo'yicha belgilangan tartibda unvonlarni tiklash hamda orden va medallarni qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

JPKning 313-moddasiga muvofiq, reabilitatsiya etilgan harbiy xizmatchilarning xizmatga oid, pensiya olish, uy-joydan foydalanish va boshqa shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini tiklash va ularga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etish amaldagi jinoyat-protsessual qonunda belgilangan qoidalarga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Mudofaa vaziri, Ichki ishlar vaziri va Davlat xavfsizlik xizmati raisi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **XI BOB. PROTSESSUAL MUDDATLAR VA CHIQIMLAR**

### **11.1. Protsessual muddatlar mazmuni va ularning ahamiyati**

Protsessual muddatlar protsessual tartiblar bilan bog‘liq bo‘lib, unga rioya etish barcha harakatlar va qarorlarni jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshirish, shuningdek, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish, ko‘rib chiqish va hal etishning qonuniyligi va o‘z vaqtida ta‘minlashning sharti bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, JPKda belgilangan muddatlarga jinoyatlarni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish vazifalarining bajarilishini ta‘minlovchi muhim kafolat maqomini beradi.

*Protsessual muddat – jinoyat-protsessual harakat sodir etilishi kerak bo‘lgan yoki uni sodir etishdan tiyilish talab etiladigan vaqt oralig‘idir.* Protsessual muddatlar JPKda belgilanganligi sababli, ular huquq normasi hisoblanadi va huquqni tashkil etuvchi xususiyatga ega bo‘ladi. Bu shuni bildiradiki, agar jinoyat protsessning bir ishtirokchisi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan muayyan vaqt davomida qandaydir harakatni bajarishi mumkin yoki shart bo‘lsa, boshqa ishtirokchi ushbu harakatni amalga oshirish uchun imkon berishi, uni sodir etishga to‘sqinlik qilmasligi yoki qandaydir harakatlarni sodir etishdan tiyilishi talab etiladi.

Protsessual muddatlar muayyan tasniflashga muhtoj. Aniq ifodalanish darajasiga ko‘ra, jinoyat-protsessual normalarning uch turi ajratiladi: 1) qonunning jinoyat-protsessual harakatni darhol sodir etishni buyuruvchi normalari (masalan, JPKning 321-moddasiga muvofiq, Surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o‘z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo‘lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart); 2) qonunning aniq ifodalangan muddatlarni belgilovchi normalari esa (masalan, JPKning 475-moddasida aytilishicha, hukm e‘lon qilinganidan



keyin uch sutkadan kechiktirilmay, hajmi katta bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirilmay, uning nusxasi mahkumga va oqlangan shaxsga berilishi lozim. Boshqa taraflarga hukm nusxasi yoki uning ko'chirmasi shu muddatda, ularning iltimoslariga asosan beriladi); 3) qonunning aniq muddat belgilamaydigan, ammo muayyan harakatlarni umumiy muddatlarda sodir etish uchun ruxsat beradigan normalari. Masalan, JPKning 333-moddasida, «Ushbu Kodeks 83-moddasining 1 va 2-bandlarida hamda 84-moddasi birinchi qismining 1, 3 – 8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi prokurorga yuboriladi» deyilgan. Ammo qaysi muddatda shikoyat berilishi mumkinligi qonunda aniq ko'rsatilmagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, protsessual muddatlar jinoyat-protsessual kafolatlarning turlaridan biridir. Shu bois barcha muddatlarni quyidagi guruhlariga bo'lib tasniflash mumkin:

– *jinoyatlarni dastlabki tergov va sudga ko'rib chiqish tezligini kafolatlovchi muddatlar*: jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi (JPK 329-m.), surishtiruv yuritish muddati (JPK 381<sup>7</sup>-m.), dastlabki tergov muddatlari (JPK 351-m.), surishtiruvchi, tergovchining topshiriqlarini bajarish (JPK 347-m.), jinoyat ishining prokurorga yuborilishi (JPK 381-m.), prokurorning vakolatlari (JPK 382-m.), ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning qarori (JPK 385-m.), jinoyat ishining sudlovga tegishlilikiga ko'ra o'tkazilishi (JPK 393-m.), jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayinlash yoxud boshqacha qaror qabul qilish tartibi (JPK 395-m.), hukmning nusxasini mahkumga va oqlangan shaxsga berish

(JPK 475-m.), Hukm ustidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari berish muddati (JPK 497<sup>4</sup> m.), sud hukmlari, ajrimlarini (qarorlarini) kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqishga yo‘l qo‘yiladigan muddat (JPK 500-m.), sud hukmlari, ajrimlarini (qarorlarini) nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqishga yo‘l qo‘yiladigan muddat (JPK 513-m.), nazorat protesti bildirish haqidagi iltimoslarni ko‘rib chiqish muddatlari (JPK 514-m.) va boshqalar;

– *jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini kafolatlovchi muddatlar*: so‘roq qilish muddatlari (JPK 110-m.), ushlab turish muddatlari (JPK 226-m.), qamoqqa olish (JPK 242-m.), Uy qamog‘i (242<sup>1</sup>-m.), Qamoqda va uy qamog‘ida saqlab turish muddati (JPK 245-m.), Qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish tartibi (JPK 246-m.), mulkiy ziyonni qoplash uchun pul to‘voni to‘lashni talab qilish muddati (JPK 312-m.), Iltimoslar qilish va ularni ko‘rib chiqish tartibi (JPK 377, 381<sup>14</sup>-m.) va boshqalar;

– *prokurorning dastlabki tergov va sudda qonunga rioya etilishini nazorat qilishini kafolatlovchi muddatlar*: pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish (JPK 166-m.), telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tartibi (JPK 170-m.), prokurorning protsessual majburlov choralari qo‘llanilishi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasining majburiyligi (JPK 219-m.), Qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash tartibi (JPK 243-m.), Uy qamog‘i bo‘yicha belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) bekor qilish yoki o‘zgartirish yoxud qo‘shimcha taqiqlar (cheklovlar) belgilash tartibi (JPK 243<sup>1</sup>-m.), ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim (JPK 256-m.), Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish(257-m.), shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim (JPK 266-m.), Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish(JPK 267-m.), jinoyat ishini qo‘zg‘atish tartibi (JPK 331-m.), jinoyat ishini ish qo‘zg‘atilganidan

keyin yuborish (JPK 336-m.), jinoyat ishini boshqalarga o'tkazish (JPK 348-m.), dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibi (JPK 364-m.), to'xtatilgan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni qayta tiklash (JPK 371-m.), jinoyat ishining prokurorga yuborilishi (JPK 381, 381<sup>16</sup>-m.), Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning qarori (JPK 385-m.), jinoyat ishini sudga yuborish (JPK 388-m.) va boshqalar.

Keltirilgan tasnif, garchi shartli bo'lsa-da, bilish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, protsessual muddatlarning mohiyatini aniq aks ettiradi.

## **11.2. Muddatlarni hisoblash, uzaytirish va tiklash**

JPKning 314-moddasiga ko'ra, amaldagi JPKda belgilangan muddatlar, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlangan muddatlar soatlar, sutkalar va oylar bilan hisoblanadi. Muddatlarni hisoblashda muddatning o'tishi boshlangan soat, sutka hisobga olinmaydi, ammo bu qoida ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'ida va tibbiy muassasada bo'lish muddatlarini hisoblashga taalluqli emas.

Muddatni hisoblashda ishdan xoli vaqt ham e'tiborga olinadi. Muddatlar sutkalar bilan hisoblanganda muddat oxirgi sutkada soat 24-00 da tugaydi. Tegishli harakat sudda, prokuraturada yoki boshqa davlat muassasasida bajarilishi lozim bo'lsa, muddat ushbu muassasalarda ish vaqti tamom bo'lishi bilan tugaydi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat oxirgi oyning muddat boshlangan kuniga to'g'ri kelgan sanasida tugaydi, muddatning tugashi tegishli sanasi bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, muddat shu oyning so'nggi sutkasida tamom bo'ladi. Muddatning tugashi ishlanmaydigan kunga (dam olish, bayram kuniga) to'g'ri kelsa, muddat shundan keyingi birinchi ish kunida tugaydi, ushlab turish, qamoqda saqlash va tibbiy muassasada bo'lish muddatini hisoblash hollari bundan mustasno.

JPKning 315-moddasiga binoan, Shaxsni ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i va tibbiy muassasaga joylashtirishda muddat ushbu choralar amalda qo'llanilgan paytdan boshlab hisoblanadi. JPKning 226, 245 va 268-moddalarida ko'rsatilgan muddat o'tgach, shaxs darhol ozod qilinishi lozim.

Shikoyat, iltimosnoma yoki boshqa hujjat muddat tugagunga qadar uni qabul qilishga vakolatli shaxsga topshirilgan yoxud xabar qilingan bo'lsa, muddatga rioya etilgan deb hisoblanadi. Shikoyat, iltimosnoma yoki boshqa hujjat muddat tugagunga qadar pochtaga topshirilgan bo'lsa, qamoqda saqlanayotgan yoxud tibbiy muassasadagi shaxslar uchun esa, dastlabki qamoq yoki tibbiy muassasa ma'muriyatiga topshirilgan bo'lsa, muddat o'tgan deb hisoblanmaydi.

Protsessual muddatlarning mavjudligi protsessning barcha ishtirokchilarini intizomli bo'lishga undaydi, ularga muayyan harakatlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Muddatlarning buzilishi ularga rioya etishi shart bo'lgan shaxslarga tegishli oqibatlar keltirishi mumkin.

Protsessual muddatlarga rioya etilishi dastlabki tergov va sud qonuniylikka rioya etilish ko'rsatkichlaridan biridir. Prokuror nazorati ham aynan shunga qaratilgan. Biroq ushbu muddatlar JPKda nazarda tutilgan hollardagina uzaytirilishi mumkin.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan muayyan harakatni bajarish uchun belgilangan muddat protsessning manfaatdor ishtirokchisi qilgan iltimosga binoan muddatni belgilagan surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin (JPK 316-m.).

JPKning 317-moddasiga muvofiq, kamdan-kam hollarda uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddat ish yuritayotgan surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tiklanishi lozim. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki rad etish xususida

surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Muddatni tiklashning rad etilishi ustidan umumiy tartibda shikoyat qilinishi va protest bildirilishi mumkin.

Belgilangan muddat o'tkazib yuborilganidan so'ng shikoyat qilinganda ajrim yoki qarorning ijrosi manfaatdor protsess ishtirokchisining iltimosiga binoan, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi masala hal qilinguniga qadar to'xtatib turilishi mumkin.

### **11.3. Protsessual chiqimlar mazmuni**

Jinoyat protsessini protsessual chiqimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, mazkur institut jinoyat ishlarini yuritish jarayonining barcha bosqichlaridagi tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta'minlash bilan birgalikda, ishtirokchilarning mulkiy manfaatlarini himoyalashi bois, jinoyat protsessining moliyaviy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Protsessual chiqimlar – jinoyat protsessining ayrim ishtirokchilariga ular o'z majburiyatlarini bajarganliklari uchun, shuningdek, ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish kabilar uchun to'lanadigan pul summalaridir. «Protsessual chiqimlar» tushunchasini keng ma'noda talqin etadigan bo'lsak, ularni – jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning protsessual faoliyatini moddiy jihatdan ta'minlab, protsessual harakatlarni amalga oshirishda ko'maklashuvchi ishtirokchilarning moddiy manfaatlarini muxofazalash va dalillarni saqlash, jo'natish, tadqiq etish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirishning moddiy sharti sifatida xizmat qiluvchi hamda shu maqsaddagi faoliyat davomida kelib chiqadigan jinoyat protsessining asosiy vazifalariga muvofiq bo'lgan boshqa sarf-xarajatlar sifatida tavsiflash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib protsessual chiqimlarga xos bo'lgan quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Protsessual chiqimlarning sarflanishini jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalarini bajarilishga yo'naltirilganligi va uning maqsadlariga muvofiqligi.

2. Protsessual chiqimlarni tergov va protsessual harakatlarini amalga oshirishga sarflanishi.

3. Jinoyat ishlarini yuritish davomida amalga oshirilgan ishlar asosida sarflangan protsessual chiqimlar miqdorini aniqlash mumkinligi.

JPKning 318-moddasiga muvofiq, protsessual chiqimlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1) jabrlanuvchilar va ularning vakillari, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga ularning protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib-ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek, sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summadan;

2) doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar va ularning vakillari, guvohlar hamda xolislarga ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lanadigan summadan;

3) ekspertlar, tarjimonlar, mutaxassislarga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqdan (ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno);

4) sudlanuvchi to'lovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam ko'rsatganlik uchun himoyachiga to'lanadigan haqdan (ishni yuritayotgan surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to'lash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo'ladi);

5) ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlar summasidan;

6) ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summadan;

7) shaxslarni ushlab, majburiy keltirish va qidirish uchun qilingan xarajatlardan;

8) surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud majlisini videokonferensaloqadan foydalangan holda o'tkazish chog'ida qilingan xarajatlardan;

9) jinoyat ishini yuritishda qilingan boshqa xarajatlardan;

10) guvoh tariqasida, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi tariqasida chaqiriladigan shaxsning tergovga qadar tekshiruv organiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqirilganligi bilan bog'liq butkul vaqt uchun ularning ish joyida saqlab qolinadigan o'rtacha ish haqidan iborat bo'ladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda keltirib o'tilgan protsessual chiqimlarni qoplash nuqtai nazaridan uch guruhga taqsimlasa bo'ladi:

*birinchi guruh*, mahkumlar hisobidan undirilishi nazarda to'tilgan xarajatlar (318-modda 1-qismi 1, 2, 3 va 4-bandlari);

*ikkinchi guruh*, davlat hisobidan qoplanishi lozim bo'lgan xarajatlar (318-modda 1-qismi 5, 6, 7, 7<sup>1</sup> va 8-bandlari);

*uchinchi guruh*, protsess ishtirokchisi doimiy ishlaydigan korxonalar, tashkilot va muassasalar hisobidan qoplanishi nazarda tutilgan xarajatlar (319-modda).

Protsessual chiqimlar mazmun-mohiyati va turlaridan kelib chiqib, ularning jinoyat-protsessual ahamiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1) jinoyat ishlarini yuritish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beradi.

2) jinoyat-protsessi ishtirokchilarining moddiy manfaatlarini samarali muhofazalaydi.

3) turli sohaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar hamda zarur ma'lumotga ega ishtirokchilarni ko'proq jalb etish vositasida jinoyat ishi sifatini oshiradi.

4) jinoyat haqida berilgan ariza va habarlar o'z tasdig'ini topmaganda ularni tekshirish bilan bog'liq xarajatlar undirib olinishi haqidagi ogohlantirish asossiz murojaatlarning kamayishiga xizmat qiladi.

5) jinoyat ishlarini yuritishda davlat tomonidan sarflangan xarajatlar miqdorini aniqlash va ularni undirib olish.

Bundan tashqari, sarflangan protsessual chiqimlar miqdori hamda jinoyatchilikka qarshi kurash natijalarini taqqoslash asosida, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati samaradorligiga baho berilishi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini yanada takomillashtirishga erishish mumkin bo'ladi.

#### **11.4. Protsessual chiqimlarni to'lash va undirish tartibi**

Protsessual chiqimlarni to'lash – jinoyat ishlarini yuritish jarayonida yuzaga kelib, jinoyat ishini yuritishga xizmat qiladigan, jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual vazifalarini bajarishlari uchun sarflangan yoki sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'larni, ularni sarflagan subyektlarga amalda topshirish deganidir. Boisi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalarini ta'minlash jarayoni, jinoyat protsessi ishtirokchilarining moddiy manfaatlarini buzish evaziga amalga oshirib bo'lmaydi. Albatta bu qoida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi istisno qiladi. Chunki, u o'z jinoiy qilmishlari oqibatida protsessual chiqimlarni sarflanishiga sababchi bo'ladi.

Shu asosda, JPKning 318-moddasi dastlabki to'rt bandi va sakkizinchi bandida ko'rsatilgan summalar surishtiruvchining, surishtiruvchi, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga muvofiq budjet mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Qarorda yoki ajrimda: jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq sarflangan protsessual chiqimlarning turlari, ularni hisoblash asoslari, miqdori, to'laydigan organ ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

JPKning 319-moddasiga muvofiq, guvoh tariqasida, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi tariqasida chaqiriladigan shaxsning surishtiruvchiga, surishtiruvchi, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqirilganligi bilan bog'liq butkul vaqt uchun ularning ish joyida o'rtacha ish haqi saqlanadi.



Jinoyatlarni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish jarayonida barcha protsessual chiqimlar, jumladan, dastlabki tergov organlari va sudning muayyan jinoyat ishi bo‘yicha xarajatlari ushbu ish materiallarida qayd etilgan bo‘lishi, ya‘ni zarur hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak. Tergov yakunlangach, surishtiruvchi, tergovchi ma‘lumotnoma tuzadi, unda mahkumdan undirilishi lozim bo‘lgan protsessual chiqimlarni aks ettiradi. Ma‘lumotnomada jinoyat ishining xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlari tikilgan betlar ko‘rsatiladi. Ma‘lumotnoma ayblov xulosasiga berilgan ilovalarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Protsessual chiqimlar, mazkur moddaning oltinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarida nazarda tutilganidan tashqari hollarda, mahkumlardan undiriladi yoki davlat hisobiga o‘tkaziladi. Sud protsessual chiqimlarni, tarjimonga to‘langan summadan tashqari, mahkumdan undirishga haqli. Protsessual chiqimlar jazodan ozod qilingan mahkum, shuningdek, jazo tayinlanmagan mahkum zimmasiga yuklatilishi mumkin. Sud bir necha sudlanuvchini aybli deb topgan taqdirda, ularning har biridan qancha miqdorda protsessual chiqimlarni undirish lozimligini belgilaydi. Bu holda sud aybning og‘ir yoki yengilligini, jinoyat uchun javobgarlik darajasi va mahkumlarning mulkiy ahvolini inobatga oladi.

Sudlanuvchi oqlangan yoki JPKning 83-moddasiga muvofiq ish tugatilgan taqdirda protsessual chiqimlar davlat hisobiga o‘tkaziladi. Sudlanuvchi bir ayblov bo‘yicha oqlangan, boshqa ayblov bo‘yicha esa aybli deb topilgan bo‘lsa, sud u aybli deb topilgan ayblov bilan bog‘liq protsessual chiqimlarni to‘lashni uning zimmasiga yuklaydi.

Protsessual chiqimlar undirilishi lozim bo‘lgan shaxsning to‘lovga moddiy imkoniyati bo‘lmagan taqdirda chiqimlar davlat hisobiga o‘tkaziladi. Mahkumning protsessual chiqimni to‘lashi uning qaramog‘ida bo‘lganlarning moddiy ahvoriga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, sud mahkumni protsessual chiqimlarning hammasini yoxud bir qismini to‘lashdan ozod etishga haqlidir. Mahkum huquqiy yordam uchun to‘lovdan ozod etilgan taqdirda advokat mehnatiga haq

to'lash bilan bog'liq protsessual chiqimlar, shuningdek, tarjimonga beriladigan pullar davlat hisobidan to'lanadi.

Surishtiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga qonunda belgilangan tartibda chaqirilgan protsess ishtirokchisining uzrli sabablarsiz kelmasligi oqibatida ishning sudda ko'rilishini yoxud tergov harakatlari o'tkazishni kechiktirish bilan bog'liq protsessual chiqimlar ana shu kelmagan shaxsdan undiriladi. Moddiy javobgarlik: advokat uzrli sabablarsiz kelmagani uchun tegishli advokatlar byurosiga, hay'atiga yoki firmasiga, jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi uzrli sabablarsiz kelmagani uchun tegishli jamoat birlashmasi yoxud jamoaga yuklatilishi mumkin.

Sud voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rib chiqayotganida, protsessual chiqimlarni to'lashni voyaga yetmaganning xulq-atvori ustidan tegishli nazorat yo'qligida aybi bo'lgan taqdirda voyaga yetmagan mahkumning ota-onasiga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga yuklashi mumkin. Jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atilgan ish yuzasidan sudlanuvchi oqlangan taqdirda sud protsessual chiqimlarni surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyatni sudda ko'rib chiqishga sabab bo'lgan shikoyatni bergan shaxsdan to'liq yoki qisman undirishga haqlidir.

## XII BOB. ISHNI SUDGA QADAR YURITISH

### 12.1. Ishni sudga qadar yuritish mazmuni va shakllari

Jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan ish yurituvining o'z vaqtida boshlanishi va to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq. Jinoyat ishlarini yuritish ikki alohida bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich ishni sudga qadar yuritish bo'lib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Ishni sudga qadar yuritish jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilishdan boshlanadi va jinoyat ishi sudga yuborilgunga yoki ishni tugatish haqida qaror chiqarilgunga qadar davom etadi.

*Ishni sudga qadar yuritish* tergovga qadar tekshiruv organi (mansabdor shaxsi), surishtiruvchi, tergovchi va prokurorlarning jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash, shuningdek, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararining qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish, jabrlanuvchining jinoyat natijasida buzilgan huquqlarini tiklash, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan protsessual faoliyatidir.

Ishni sudga qadar yuritish muayyan vazifalarni ijro etish, ishni yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslar doirasi, ularning vakolatlardan foydalanish imkoniyatlari, faoliyatning mantiqiy izchilligi va o'zaro bog'liqligiga ko'ra ikki shaklda (bosqichda) amalga oshiriladi. Bular tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish bo'lib, umumiy

va alohida vazifalariga ega, shuningdek, jinoyat protsessining to'liq vazifalarini ijro etishga yo'naltirilgan.

Ishni sudga qadar yuritishning maqsadi jinoyat sodir etilganligi, jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish kerakligi haqidagi masalalarga oydin kiritish va ishni sudda har tomonlama, xolisona ko'rib chiqilishi hamda adolatli qaror qabul qilinishi uchun zarur sharoit yaratishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun muayyan vazifalar ijro etilishi zarur. Ishni sudga qadar yuritish quyidagi vazifalarga ega:

1) sodir etilgan jinoyatni aniqlash, jinoyat ishi qo'zg'atish sabab va asoslari mavjudligini tekshirish;

2) jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasini hal etish;

3) jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash, uning aybini fosh etish (aybi bo'lsa);

4) jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash, himoya qilish;

5) jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal etilishi uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar aniqlanishi va tekshirilishi uchun zarur asoslar yig'ish va tashkiliy sharoit yaratish;

6) jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini ta'minlash;

7) jinoyatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va takroran sodir etilmasligi uchun tegishli choralari amalga oshirish;

8) jinoyat protsessining vazifalarini to'la ro'yobga chiqarish uchun qilingan va qilinadigan protsessual xarajatlar qoplanishini ta'minlash choralari ko'rish.

## **12.2. Tergovga qadar tekshiruv**

*Tergovga qadar tekshiruv* deganda, jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotni ro'yxatga olish hamda jinoyat ishini qo'zg'atish sababi qonuniyligini va asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida ayrim protsessual harakatlarni bajarish, olingan yoki aniqlangan ma'lumot-

lardan kelib chiqqan holda ish qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlar qabul qilish jarayoni tushuniladi.

Tergovga qadar tekshiruvning maqsadi jinoyat hodisasi yuz bergan yoki yuz bermaganligini aniqlash, agar jinoyat sodir etilgan bo'lsa ish qo'zg'atish kerak yoki kerak emasligini asoslashdan iborat. Boshqacharoq aytganda jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qonuniy va asosli hal qilinishini ta'minlash tergovga qadar tekshiruvning maqsadi hisoblanadi. Tergovga qadar tekshiruv davomida quyidagi holatlar aniqlanishi lozim:

jinoyat hodisasining mavjudligi yoki mavjud emasligi;

agarda jinoyat holati mavjud bo'lsa aynan qanday turdagi jinoyat sodir etilganligi;

jinoyatning qachon, qayerda, qanday usul bilan sodir etilganligi;

kimga, qanday shakldagi va qancha miqdordagi zarar yetkazilganligi;

jinoyat sodir etilishi qaysi usuli, uni sodir etishda qanday vositalar qo'llanilganligi;

jinoyatning kim tomonidan sodir etilganligi, jinoyatning maqsadi va motivlari va hokazo.

Tergovga qadar tekshiruv jarayoni ba'zida qisqa muddatda amalga oshirilsa-da, juda mas'uliyatli faoliyatdir. Uning maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalar ijro etilishi kerak:

– tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqidagi xabar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qonuniy sabab bo'ladimi;

– jinoyat haqidagi xabardan olingan ma'lumotlarda aks etgan faktlarda jinoyat alomatlari bormi;

– jinoyat JKning qaysi moddasi bo'yicha tavsiflanishi mumkin;

– qanday aniq ma'lumotlar asosida olingan xabarda aks etgan faktlar haqiqatan ham mavjud bo'lgan deb topiladi;

– jinoyat holatlari bo'yicha qaysi tekshiruv harakatlarini o'tkazish;

– dastlabki tekshiruv o'tkazish zarurati yuzaga keladimi va agar bunday zarurat mavjud bo'lsa, qanday tekshiruv harakatlari o'tkazilishi kerak;

– ushbu organ va muayyan mansabdor shaxs jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qilishga haqlimi yoxud mavjud materiallar tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborilishi kerakmi (330, 335-mm.);

– jinoyat ishini qo‘zg‘atishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlanmadimi;

– materiallarni jamoat ta‘siri choralari ko‘rish uchun jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan turib yuborish asoslari mavjud emasmi (JPK 334-moddasida belgilangan tartibda);

– jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda surishtiruv yoki tergovni kim olib borishi kerak;

– jinoyat faqat jabrlanuvchining shikoyati bo‘yicha qo‘zg‘atiladigan (JPK 325-m.) va u ayblanuvchi bilan yarashgan taqdirda tugatiladigan jinoyatlar (JK 66-m.) sirasiga kirmaydimi, bunday holda sudya yarashuv uchun qanday choralar ko‘rishi mumkin;

– jinoyatning oldini olish yoki uni bartaraf etish uchun, shuningdek, jinoyat izlarini qayd etish va saqlab qolish uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak.

Mazkur masalalar jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoxud qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqarilguniga qadar hal etilishi sababli, qonunda nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilishi va quyidagi hujjatlar tuzilishi mumkin: arizachi bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilganligi haqida u imzolagan og‘zaki ariza bayonnomasi; aybiga iqror bo‘lib kelganlik haqida bayonnoma; korxonalar, muassasa va tashkilotlardan, shuningdek, fuqarolardan dastlabki tekshiruv davomida tushuntirishlar olish; tergovchi yoki prokurorning surishtiruv organiga dastlabki tekshiruv davomida operativ qidiruv choralari o‘tkazish zarurligi haqida bergan xabarlar; hujjatlarni tergovga yoki sudlovga tegishliligi bo‘yicha yuborish haqidagi qaror; hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi; ekspertiza tayinlash haqidagi qaror.

### 12.3. Jinoyat ishini tergov qilish

*Jinoyat ishini tergov qilish deganda*, qo'zg'atilgan jinoyat ishini mazmunan hal qilish uchun aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga oydinlik kiritishga xizmat qiladigan barcha dalillarni to'plash, jinoyat sodir etgan shaxsni ishga jalb qilish, uning aybini isbotlash, uning aybini yengillashtiruvchi dalillarni yig'ish, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta'minlash va jinoyatning sabablari, jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, protsessda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash, shuningdek, jinoyat ishini sudda har tomonlama va xolisona ko'rib chiqilishi va adolatli qaror chiqarilishi uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq tergov organlarining faoliyati tushuniladi.

Jinoyat ishini tergov qilishning *maqsadi* ishni sudda ko'rish uchun zarur shart-sharoit yaratish, ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan barcha holatlarga oydinlik kiritishga xizmat qiladigan ma'lumotlarni yig'ish (dalillarni to'plash)dir.

Jinoyatlarni tergov qilish ikki shaklda: surishtiruv va dastlabki tergov shakllarida amalga oshiriladi. Surishtiruvni ichki ishlar organi, Majburiy ijro byurosi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, bojxona organlari va Milliy gvardiyaning surishtiruvchilari amalga oshiradilar. *Surishtiruv deganda* muayyan toifadagi jinoyatlarga oid (JPK 381-2-m.) jinoyat ishini mazmunan hal qilish uchun aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga oydinlik kiritishga xizmat qiladigan barcha dalillarni to'plash, jinoyat sodir etgan shaxsni ishga jalb qilish, uning aybini isbotlash, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta'minlash va jinoyatning sabablari, jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, protsessda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash, shuningdek, jinoyat ishini sudda har tomonlama va xolisona ko'rib chiqilishi hamda adolatli qaror chiqarilishi uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq surishtiruvchining faoliyati tushuniladi.

Dastlabki tergov esa ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati va prokuratura tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi. *Dastlabki tergov deganda*, IIO, DXX, prokuratura tergovchilarining asosan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarga oid ishlarda dalillarni topish, aniqlash, olish, qayd etish, tekshirish va baholashdan iborat hamda jinoyatni ochish, uni sodir etgan shaxsni fosh etish va ishga jalb qilish, protsessual majburlov choralarini qo‘llash, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, jabrlanuvchi va fuqaroviy da‘vogarning jinoyat sodir etilgunga qadar ega bo‘lgan maqomini tiklashga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Jinoyat ishini tergov qilish vazifalariga quyidagilar tegishli:

1) ayblash va hukm qilish uchun asoslar yoki reabilitatsiya uchun asoslar mavjudligini aniqlash;

2) jinoyat ishini tugatish uchun asoslar mavjudligini aniqlash;

3) jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash;

4) jinoyatdan jabrlangan yoki zarar ko‘rgan shaxslarni aniqlash;

5) jinoyat sodir etgan shaxsning aybini fosh etish va uni ishga jalb qilish; uning tergov va suddan yashirinmasligini ta‘minlash choralarini ko‘rish;

6) jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta‘minlash choralarini ko‘rish;

7) protsess ishtirokchilarining huquqlarini, shuningdek, himoyalash huquqlarini ta‘minlash;

8) jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash; ushbu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish va boshqalar.

Jinoyat ishini tergov qilishda jinoyat natijasida jismoniy, mulkiy va ma‘naviy zarar ko‘rgan shaxslar, jumladan jabrlanuvchi va fuqaroviy da‘vogarlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga ham jiddiy e‘tibor qaratish zarur.



## **XIII BOB. TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV, JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH**

### **13.1. Tergovga qadar tekshiruv tartibi**

Tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ariza, xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olish; arizalar va xabarlarni tekshirish natijalariga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilish; tekshiruv natijalari haqida xabar berish; ushlangan shaxsning huquqlari (qonuniylik)ni ta'minlashga qaratilgan muhim protsessual harakatlar amalga oshiriladi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim.

Tergovga qadar tekshiruv davomida dalillarni to'plashga qaratilgan quyidagi harakatlar o'tkaziladi:

hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;

hujjatlar va tushuntirishlar talab qilib olish;

ekspertiza tayinlash;

taftish tayinlash;

shaxsni ushlash, shaxsiy tintuv va olib qo'yish;

surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning talabiga asosan tezkor-qidiruv tadbirlari, xizmat tekshiruvi yoki boshqa tekshiruv.

Tergovga qadar tekshiruvda to'plangan dalillar mazmunidan kelib chiqib jinoyat ishi qo'zg'atiladi yoki ish qo'zg'atish rad etiladi.

Tergovga qadar tekshiruv muddati jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlanadi hamda to'ishni qo'zg'atish

yoki qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lganda JPK 587-moddasiga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv materiallari prokurorga yuborilguniga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Ushbu muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o‘tkaziladi.

Tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining asoslantirilgan qaroriga ko‘ra prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin:

1) o‘tkazish uchun ko‘p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo‘lsa;

2) olis joylarda bo‘lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo‘lishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo‘lsa;

3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo‘shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo‘lmasa.

4) yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplash va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida belgilangan muddat o‘tmagan bo‘lsa.

### **13.2. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va tekshirish tartibi**

Odatda, jinoyat sodir etilganligi haqidagi ariza va xabarlar ichki ishlar organlarining navbatchilik qismiga kelib tushadi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va hal etish O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi talablaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Tergovga qadar tekshiruv amalga oshirilishi shart bo‘lgan jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi ichki

ishlar organlari va muassasalarida qabul qilish, ro'yxatga olish, hisobini yuritish va hal etishning; hal etilgan materiallar va ular yuzasidan qabul qilingan qarorlarni ro'yxatga olish va hisobini yuritishning hamda ushbu jarayonlarni nazorat qilishning tartibi maxsus yo'riqnoma bilan belgilanadi.

*Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish deganda*, qonun hujjatlariga muvofiq jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning ushbu ma'lumotni og'zaki yoki yozma shaklda olishi tushuniladi.

*Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish deganda*, kelib tushgan har bir jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar, boshqa ma'lumotlarga tartib raqam berish va o'rnatilgan tartibda hisob hujjatida uning qisqacha mazmunini qayd etish tushuniladi.

*Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarning hisobini yuritish* – bu ichki ishlar organlariga kelib tushgan va ro'yxatga olingan jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarning soni va tafsilotini hamda ularni hal etish natijalarini belgilangan statistik hisobot shaklida aks ettirishdir.

*Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirish deganda*, ariza yoki xabarda aks etgan hodisa haqiqatan sodir etilganligi, unda jinoyat alomatlari borligi, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari mavjudligiga oydinlik kiritishga qaratilgan protsessual va tergov harakatlarini o'tkazish jarayoni tushuniladi.

*Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni hal etish deganda*, jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tekshirish natijalariga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad qilish (ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish) haqidagi qarorlardan birini qabul qilish tushuniladi. JPKning 329-moddasida o'rnatilgan muddatlarda (darhol, 10 kun, alohida hollarda prokuror roziligi bilan 1 oy) hal etilishi shart va bu haqda arizachiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jinoyat va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar mazmuni, ro'yxatga olish shakli va ko'rib chiqish tartibiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) ichki ishlar organlariga kelib tushgan va jinoyat-protsessual qonunga ko‘ra jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘ladigan jinoyatning yaqqol izlariga oid ma‘lumotlar aks etgan ariza va xabarlar;

2) jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma‘lumotlar.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar – bu ichki ishlar organlariga kelib tushgan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida o‘rnatilgan protsessual qoidalarga binoan ko‘rib chiqilishi talab etiladigan ma‘lumotlardir.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarga quyidagilar kiradi:

bila turib yolg‘on xabar berish uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirilgan, bu xususda bayonnomada qayd qilingan va arizachining imzosi bilan tasdiqlangan og‘zaki ariza;

fuqarolarning zarur rekvizitlari bo‘lgan va jinoyat-protsessual qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan yozma arizalari va xatlari;

fuqaroning bedarak yo‘qolganligi haqidagi og‘zaki yoki yozma ariza va xabarlar;

mahalla posbonlari va boshqa jamoat tashkilotlarining yozma xabarlari;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning yozma xabarlari;

jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma‘lumotlar – bu jinoyat ishi qo‘zg‘atish sababi bo‘lmaydigan, biroq jinoyat alomatlari bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilishini talab qiladigan xabarlardir.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma‘lumotlarga quyidagilar kiradi:

fuqarolar, jamoat birlashmalari vakillari va mansabdor shaxslarning – telefon, telefaks, telegraf va boshqa aloqa vositalari orqali bergan xabarlari;

sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlarining – jinoiy xatti-harakatlar oqibati sifatida taxmin qilinayotgan, fuqarolarning badanga shikast

yetganligi haqidagi murojaatlari yoki behush holatda bo‘lgan shaxslar kelib tushganligi to‘g‘risidagi xabarlar;

ichki ishlar organlarining maxsus muassasalari (ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash muassasasi, ish va yashash joyi noma‘lum bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya etish markazi, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi, vaqtincha saqlash hibsonasi, jazoni ijro etish muassasasi) ma‘muriyatining – jinoyat alomatlari mavjudligi taxmin qilingan holatlar haqidagi xabarlar;

migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari xodimlarining – fuqarolar tomonidan pasporti yo‘qolganligiga oid jinoyat haqida shubha tug‘diruvchi xabarlar;

yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining – yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlari haqidagi xabarlar;

yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tumanlararo ro‘yxatga olish-imtixonlash bo‘limi xodimlarining – fuqarolarning avtotransportni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalari, avtomobilning texnik pasportlari va davlat raqam belgilari yo‘qolganligiga oid jinoyat haqida shubha tug‘diruvchi xabarlar;

qo‘riqlash xizmati xodimlarining – qo‘riqlash signalizatsiyasi uskunalarining ishlab ketganligi to‘g‘risidagi xabarlar;

Davlat yong‘in xavfsizligi xodimlarining – yong‘inlar va o‘t ketish to‘g‘risidagi xabarlar;

matbuot, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan internet orqali e‘lon qilingan maqolalar va xat-xabarlar;

huquqbuzarlik holatlariga oid fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi sug‘urta kompaniyalarining xatlari;

jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashni ta‘minlashga daxldor boshqa hodisalar, voqealar va holatlar to‘g‘risidagi xabarlar;

avariyalar, yong‘inlar, epizootiyalar, tabiiy ofatlar, odamlar bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

ichki ishlar organlari xodimlarining bevosita o'zlari aniqlagan tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi bildirgilar.

Shaxslarning arizalarida fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va jinoyat yoki boshqa hodisaning tafsilotlariga oid murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxslardan kelgan xatlarda yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va jinoyat yoki boshqa hodisaning tafsilotlariga oid murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Ariza, xat yoki boshqa shakldagi murojaat davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Yozma ariza, shikoyat va xatlar murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs rahbarining yoxud vakolatli shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yiladi.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida, qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoxud ular haqida yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek, imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni berish muddatlari belgilanmagan. Jinoyatlar va hodisalar haqidagi xabarlar, ularning sodir

etilgan joyi va vaqti, shuningdek, xabarning to'liqligidan qat'i nazar, har qanday ichki ishlar organining tezkor navbatchisi, ularning yordamchilari va belgilangan tartibda navbatchilikka tayinlangan xodimlar tomonidan kechayu-kunduz qabul qilinadi.

Ichki ishlar organlarining kotibiyatiga jinoyatlar va hodisalar haqidagi pochta, telegraf orqali yoki boshqa yo'llar bilan kelib tushgan ariza va xabarlar kelgan xat-xabarlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalariga ko'ra ro'yxatga olinadi va bu haqda ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosariga axborot beriladi. Ichki ishlar organi rahbari ma'lumot mazmunidan kelib chiqib, ariza yoki xabarni Navbatchilik qismida yuritiladigan Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni ro'yxatga olish kitobi (bundan buyon mantda 1-Shakl kitobi) yoki Ichki ishlar organlariga hodisalar haqida telefon, telegraf orqali, qo'riqlash va yong'in signalizatsiyasi uskunalarining ishlab ketishi natijasida kelib tushgan ma'lumotlarni ro'yxatga olish jurnalida (bundan buyon mantda 2-Shakl jurnal) ro'yxatga olish to'g'risida yozma ko'rsatma beradi va uning tekshirilishini tashkil etadi.

Jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni navbatchilik qismidagi 1-Shakl kitobi yoki 2-Shakl jurnaliga qayd etmasdan turib tekshirish uchun yoki ijro etish uchun berish qat'iy taqiqlanadi. Ichki ishlar organlariga arizachi (fuqaro yoki mansabdor shaxs) tomonidan bevosita taqdim etilgan jinoyat va hodisalar haqidagi yozma ariza va xabarlarni kotibiyatda ro'yxatga olib tekshirish taqiqlanadi.

Fuqarolar navbatchilik qismi, ichki ishlar organining qabulxonasi, surishtiruvchi, tergovchi yoki ichki ishlar organining boshqa xodimiga jinoyatlar to'g'risida og'zaki ariza bilan murojaat qilganlarida jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq og'zaki arizani qabul qilish bayonnomasi rasmiylashtiriladi. Bayonnomada arizachi, uning yashash va ishlash joyi, shuningdek, uning shaxsiy hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi kerak. Agar arizachi hujjatini ko'rsata olmasa, uning shaxsini tekshirish uchun boshqa choralar ko'rilishi kerak. Og'zaki

arizani qabul qilgan mansabdor shaxs arizachiga bila turib yolg'on xabar berganlik to'g'risida jinoiy javobgarlikka tortilishini tushuntirib, ogohlantirishi va bu haqda bayonnomaga imzo qo'ydirishi shart.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Bayonnomada jinoyat sodir etish holatlari xususidagi ma'lumotlar arz qiluvchi nomidan, iloji boricha so'zma-so'z aks ettiriladi. Bayonnoma arizachi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va bunda arizachi bila turib yolg'on xabar berganlik to'g'risida javobgarlikka tortilishi yuzasidan ogohlantirilmaydi.

Profilaktika inspektori xizmat hududida jinoyat belgilari mavjud bo'lgan holatlarni aniqlanganida amaldagi qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan choralarni ko'radi va shundan so'ng hodisa to'g'risida zudlik bilan (telefon yoki boshqa aloqa vositasi yordamida) ichki ishlar organi navbatchilik qismiga axborot beradi.

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yo'l-patrul xizmati saf bo'linmasi navbatchisi, shu jumladan, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yo'l-patrul va patrul-post xizmati saf bo'linmalarining har qanday xodimi yo'l-transport hodisasi to'g'risida zudlik bilan ichki ishlar organining navbatchisiga xabar beradi va o'ziga yuklatilgan majburiyatlardan kelib chiqib, (jinoyatning «issiq izidan» ochilishini tashkillashtirish; holat og'ir oqibatlariga olib kelishining oldini olish; jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab; jabrlanganlarga yordam ko'rsatish; tergov-tezkor guruhi yetib kelgunga qadar hodisa sodir bo'lgan joydagi asl holat va daliliy ashyolar qo'riqlanishini tashkil etish hamda ro'y bergan holatning tabiati va tavsifini inobatga olib boshqa) kechiktirib bo'lmaydigan harakatlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarining xizmat binolaridan tashqari joylarda jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni profilaktika inspektorlari bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining barcha safdor va boshliqlar tarkibidagi xodimlari xizmat vazifalarini bajarish chog'ida qabul qilishlari mumkin. Ular boshqa hududda xizmat qilayotganliklari yoki xabar qilingan ma'lumot jinoyat alomatlari mavjudligi to'g'risidagi



masalani hal etish uchun yetarli emasligini bahona qilib yoki boshqa bir sabab bilan ma'lumotni qabul qilishni rad etishga haqli emaslar. Ular bunday ma'lumotni olgach, tegishliligiga ko'ra bu haqda navbatchilik qismiga xabar berishlari va shundan so'ng belgilangan tartibga muvofiq harakat qilishlari talab etiladi.

Jinoyat haqidagi xabarlarni tekshirish (surishtiruvchi, tergovchi) yoki xabarni tekshirishni tashkil etish (IIB boshlig'i va uning o'rinbosarlari) huquqiga yoki vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs, xabarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, o'z vakolatlari doirasida darhol quyidagi kechiktirib bo'lmaydigan choralarini amalga oshirishi shart:

jinoyatni bartaraf etish va uni oldini olish;

jinoyat alomatlarini aniqlash, jinoyat izlarini rasmiylashtirib olish uchun saqlash, shuningdek, mustahkamlanishi talab etilayotgan ashyoviy dalillarni olish va tadqiqot o'tkazish;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda jinoyat ustida yoki «issiq izidan» ushlab uchun tezkor va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish;

jinoyat haqidagi xabar yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilganligi va uning natijalari bo'yicha 24 soatdan oshmagan vaqt ichida, tegishli organ rahbariga keyingi tekshiruv ishlarini tashkil etish uchun axborot berish.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma'lumotlar kelib tushganda navbatchi ularni darhol tekshirish choralarini ko'radi.

1-Shakl kitobi va 2-Shakl jurnalda ro'yxatga olingan ma'lumotning tekshirilishi xabar kelib tushishi bilan darhol tashkil etilishi kerak.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek, shaxsni ushlab turish,

shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, taftish va ekspertiza o'tkazish mumkin.

Ilgari telefon orqali berilgan xabarga asosan 2-Shakl jurnalida ro'yxatga olingan holat haqida mansabdor shaxsdan yozma xabar kelib tushgan vaqtda yoki og'zaki xabar asosida tekshirilayotgan holat bo'yicha muayyan fuqarodan yozma ariza yoxud xabar olinganida 2-Shakl jurnalining 3-ustuniga olingan ma'lumot shaklining o'zgarganligi to'g'risida qo'shimcha belgi qo'yiladi va jinoyat haqida ko'rsatilgan ariza yoki xabar 1-Shakl kitobiga o'tkaziladi.

Jinoyat haqidagi ma'lumot tasdiqlangan taqdirda 2-Shakl jurnalidan 1-Shakl kitobiga o'tkaziladi.

Jinoyat haqida tasdiqlangan ma'lumot 2-Shakl jurnalidan 1-Shakl kitobiga o'tkazilganida bildirgi orqali u ilk bor ichki ishlar organiga kelib tushgan sanasi (soat, daqiqa) bilan qayd etiladi. Keyinchalik jinoyat haqida fuqaroning arizasi yoki davlat yoki jamoat tashkilotining xabari ichki ishlar organiga kelib tushgan vaqtidan qat'i nazar, dastlabki bu xabarni qayd etish sanasidan boshlab hal qilish muddati boshlanadi.

Dastlabki tergov jarayonida ilgari ichki ishlar organlariga ma'lum bo'lmagan jinoyat aniqlanganida, tergovni amalga oshirayotgan mansabdor shaxs, bevosita jinoyat alomatlarini aniqlanganligi haqida bildirgi yozadi yoki jabrlanuvchidan ariza yozdirib oladi va «Tergov jarayonida qo'shimcha aniqlandi» belgisi bilan ro'yxatga olinadi.

Ichki ishlar organining navbatchilik qismiga kelib tushgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlar zudlik bilan 1-Shakl kitobi yoki 2-Shakl jurnalida ro'yxatga olinadi va bu haqda tegishli idora boshlig'iga axborot beriladi. Uning ko'rib chiqilishi va hal qilinishi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi va ushbu yo'riqnoma talablariga muvofiq tashkil etiladi. Axborot berish vaqtigacha hal qilinmagan jinoyatlar va hodisalar haqidagi har qaysi ariza yoki xabar bo'yicha ichki ishlar organining boshlig'i (yoki uning vazifasini bajarayotgan shaxs) o'rnatilgan talablarga muvofiq belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishi to'g'risida ijro etuvchiga yozma

ravishda ko'rsatma berishi shart. Ariza va xabarlarini ko'rib chiqishning aniq muddati 2-Shakl jurnalda majburiy tartibda qayd etiladi. Ichki ishlar organining navbatchisi 1-Shakl kitobi va 2-Shakl jurnali bo'yicha navbatchilik kuni davomida ko'rib chiqish muddati o'tib hal etilmay qolgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarning ro'yxatini ko'rsatib bildirgi tuzadi va uni boshliq yoki uning vazifasini bajaruvchisiga tegishli chora ko'rish uchun topshiradi.

### **13.3. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni hal qilish tartibi**

Jinoyat ishi qo'zg'atishga sabab bo'luvchi jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar yuzasidan JPK 330-moddasiga muvofiq – jinoyat ishini qo'zg'atish, ish qo'zg'atishni rad qilish, ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqidagi qarorlar qabul qilinishi JPKning 329-moddasida o'rnatilgan muddatlarda (darhol, 10 kun, alohida hollarda prokuror roziligi bilan 1 oy) hal etilishi shart va bu haqda arizachiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma'lumotlar: hodisa joyiga chiqishga, jinoyat izlari saqlanishiniga, kino va videotasvirga tushirishni ta'minlashga qaratilgan choralarini ko'rishga, tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini o'tkazishga, ekspertizalar tayinlashga, tushuntirishlar olishga yoki boshqa tekshiruv harakatlarini bajarishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ular bo'yicha belgilangan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi yoki tergov organlari tomonidan tekshiruv materiallariga asosan tegishli qaror (jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida, ma'muriy jazo chorasini qo'llash, materiallarni ma'muriy komissiyaga berish, noma'lum murda, noma'lum bemor yoki bolaning va h.k. shaxsini aniqlash bo'yicha ish qo'zg'atish to'g'risida) qabul qilinadi. Shuningdek, tibbiy, avtotexnik yoki boshqa maxsus tadqiqotlarni o'tkazish talab qilinadigan tekshiruvlar bo'yicha esa ular yakunlanganidan so'ng qaror qabul qilinadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida chiqargan qarori yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori ushbu organning boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Qarorni tasdiqlash vaqtida ichki ishlar organining boshlig'i mavjud hujjatlarni mukammal o'rganishi, xodim tomonidan qarorni to'g'ri, to'liq va xolisona qabul qilganligiga shaxsan ishonch hosil qilishi shart. Jinoyat ishini qo'zg'atish asossiz rad etilgan hollarda u qo'shimcha tekshiruvni o'tkazilishini tashkil etish kerak.

Hududiy jihatdan tegishliligi bo'yicha jo'natilgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar ularni jo'natgan idora hisobidan chiqarib, qabul qilgan xodim ichki ishlar organida qaytadan ro'yxatga qo'yishi kerak. Bunday hollarda xabarni ko'rib chiqish muddati ichki ishlar organiga hududiy jihatdan tegishliligi bo'yicha kelib tushgan vaqtdan boshlab hisoblanishi kerak.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish asoslari bo'lganda, tekshiruv natijalariga ko'ra tegishli qaror chiqariladi. JPK 83-moddasining 1 va 2-bandlarida hamda 84-moddasi birinchi qismining 1, 3–8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi, bu haqda jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi. Xabarnomada ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi ham tushuntiriladi. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi prokurorga yuboriladi.

Amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar bo'lganda (JPK 84-m. birinchi qismining 2-bandi), JPK 587-moddasiga muvofiq tergovga qadar tekshiruv materiallari jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish uchun prokuror orqali sud yuboriladi.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno etuvchi holatlar aniqlanishi mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atish tergov o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoiy hodisa yuz bermaganligi, shaxsning

qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi, shaxs (ayblanuvchi, sudlanuvchi) vafot etganligi, shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoxud vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori mavjudligi, ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati yo'qligi, shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganligi, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararning o'zni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilganligi hamda bu shart bajarilganligi aniqlangan taqdirda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Qaror qonuniy va asoslangan bo'lishi kerak, unda jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilishni asoslovchi aniq ma'lumotlar keltiriladi.

Ish yuritishni inkor etuvchi holatlar (JPK 84-m.) mavjudligi tufayli jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi tegishli shaxsning harakatlarida ma'muriy, intizomiy va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi holatlar borasida choralar ko'rish haqidagi masalani Jinoyat-protsessual kodeks 334-moddasiga binoan hal etadi. Agar jinoyat ishini qo'zg'atish shaxsning jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganligi tufayli rad etilgan bo'lsa, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanadigan komis-siyaga yuborish mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan taqdirda manfaatdor shaxs-lar va muassasalarga zararni undirish tartibi ham tushuntiriladi, olib qo'yilgan jinoyat qurollari, muomalaga kiritish taqiqlangan buyumlarga nisbatan ko'riladigan choralar haqida qaror qabul qilinadi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarori ham xuddi jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarordagi singari kirish va tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asossiz ravishda rad qilingan taqdirda prokuror o'z qarori bilan tergovchi yoki tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining noto'g'ri qarorini bekor qilishi va jinoyat ishi qo'zg'atishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish jinoyat hodisasi bilan bog'liq tekshiruv materiallarini ikki asosga ko'ra hal etish bo'lib, birinchidan, xabarda aks etgan ma'lumot asossiz yoki jinoyat haqida bo'lmaganda ish yurituvini tamomlash, ikkinchidan, javobgarlikni ayblilik masalasiga oydinlik kiritilmasdan hal etish mumkin bo'lganda ish yurituvini tamomlashni taqozo etadi. Shu bilan birga, zaruriyatsiz rasmiyatchilik va qog'ozbozlikning oldini olishga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi qaror qonuniy va asoslangan bo'lishi shart, aks holda jiddiy qonun buzilishi yuz berib, shaxs huquqlari poymol bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Kelib tushgan xabarda jinoyat haqida emas, balki ma'muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoxud axloq normalari buzilganligi haqida ma'lumot bo'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

Kelib tushgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlari

buzilganligi ko‘zga tashlansa, unda ishni qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bir vaqtda manfaatdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntiriladi. Basharti ular ma‘lum sabablarga ko‘ra, sud orqali o‘zlarini himoya qilishni so‘rash imkoniyatiga ega bo‘lmasalar, prokuror bunday shaxslarni himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat etishga haqlidir.

Arizani (xabarni) tergovga tegishliligiga qarab yuborishga ushbu tuman (shahar) hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilgan va jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal qilish uchun tekshirish harakatlarini jinoyat sodir etilgan tumanda (shaharda) o‘tkazish zarur bo‘lgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

#### **13.4. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish, uning sabablari va asoslari**

*Jinoyat ishini qo‘zg‘atish* deganda tekshiruv natijasiga ko‘ra tergovga qadar tekshiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror to‘plangan hujjatlar (materiallar)dan kelib chiqib, hodisada jinoyat belgilari mavjudligini aniqlab, jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqarish bilan bog‘liq protsessual jarayonlar tushuniladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o‘z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo‘lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish – jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish, jazoga hukm etish va jazolashning zaruriy dastlabki sharti. U qonunda nazarda tutilgan protsessual majburlash choralari va tergov harakatlarini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Faqat jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya o‘z vakolatlari doirasida tintuv o‘tkazish, ashyolarni olib qo‘yish, shaxslarni guvohlar, jabrlanuvchilar sifatida so‘roq qilish uchun chaqirishga haqlidir va h.k. Binobarin, jinoyat ishini qo‘zg‘atish

bosqichi ayrim fuqarolarni jinoiy javobgarlikka, boshqalarni esa sudlovga asossiz jalb etishdan saqlash uchun protsessual kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish nafaqat huquqiy, balki katta siyosiy ahamiyatga ham ega. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorni tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, ya'ni davlatning vakolatli organlari va mansabdor shaxslari qabul qiladilar. Ushbu organlar va mansabdor shaxslarning ish sifatiga qarab aholida jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi, jamoat tartibini muhofaza etishni tashkil qilish haqida tasavvur shakllanadi.

Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qonunni buzish bilan bog'liq har qanday jinoiy harakatlarga nisbatan tez va dadil chora ko'rishi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashning muhim shartidir. U jinoyatning fosh etilishini va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxslarning qonunda belgilangan javobgarlikka muqarrar tortilishini ta'minlaydi. Jinoyat ishini o'z vaqtida va asosli ravishda qo'zg'atish huquqiy tartibning mustahkamlanishiga, fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya etish ruhida tarbiyalanishiga ko'maklashadi.

Faqat jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani qonuniy va asosli hal qilishgina jinoyat protsessining dastlabki bosqichida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

*Jinoyat ishini qo'zg'atish sababi deganda*, qonunda belgilangan hamda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma'lumot beradigan manba tushuniladi. Sababning mavjudligi ushbu vakolatli shaxslarning jinoyat ishini qo'zg'atish zarurligi haqidagi masalani ko'rib chiqish majburiyatini yuzaga keltiradi.

JPKning 322-moddasiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar;



3) ommaviy axborot vositalarining xabarlari;

4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o'zi aniqlashi;

5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz sabab bo'ladi.

JPKda jinoyat haqidagi ma'lumotlarning u yoki bu manбайдan jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab sifatida foydalanish shartlari va tartibi ham belgilangan.

Shaxslarning arizalari. Bular jinoyat ishini qo'zg'atishning amaliyotda eng ko'p tarqalgan sababidir. JPKning 324-moddasiga muvofiq, shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Fuqarolarning og'zaki arizalari bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- ariza qabul qilingan joy va vaqt;
- arizani qabul qilgan shaxsning lavozimi va familiyasi;
- ariza beruvchi haqidagi ma'lumotlar (familiyasi, ism-sharifi, tug'ilgan yili, lavozimi va ish joyi, shaxsini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjat, uy adresi);
- JKning 237-moddasi bo'yicha ariza beruvchiga yolg'on xabar bersa, jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida tushuntirilganligi belgi. Bu ariza beruvchining imzosi bilan tasdiqlanadi;
- ariza mazmunining birinchi shaxs (arizachi) nomidan bayoni;
- bayonnomani arizachi o'qiganligi va uning so'zlaridan to'g'ri yozilganligi haqidagi belgi, shuningdek, arizachining va arizani qabul qilgan mansabdor shaxsning imzosi.

Fuqarolar yozma arizalarini imzolagan bo'lishlari kerak. Anonim ariza, ya'ni imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan ariza jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'la olmaydi (JPK 323-m.). Anonim arizada jinoyatlarga oid aniq faktlar mavjud bo'lganda, uni surishtiruv organi (o'z tashabbusi bilan yoki prokuror, tergovchi, sudning topshirig'i bo'yicha) tekshirib chiqishi mumkin. Agar faktlar tasdiqlansa, bunday holda surishtiruv organlarining jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashlari jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi.

Qonunning arizani uning muallifi imzolashi shart ekanligiga oid talabi jinoyat haqida ma'lumotlardan xabar beruvchi fuqaroning javobgarligini oshirishga, pirovardida, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal etish uchun asos qilib olish mumkin bo'lgan ishonchli faktlarni olishga qaratilgan. Shu bois og'zaki yoki yozma ariza yoxud xabar olingan har bir holda arizachining shaxsini aniqlash jinoyat ishini asosli tarzda qo'zg'atish uchun katta ahamiyatga ega.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar. Bunday xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun mustaqil sabab sifatida ajratilgan. Bu bilan jamoatchilikning jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi ishtirokining ahamiyati ta'kidlangan. Ular yozma shaklda (xizmat xati, tasdiqlangan telefonogramma, telegramma, radiogramma shaklida) bayon etilishi mumkin. Xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o'z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar. Muayyan jinoyat to'g'risida matbuot, radio va televideniye, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek, ommaviy axborot vositalariga yo'llangan, lekin e'lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladi.

Jinoyat to'g'risidagi xabarni e'lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek, bu xabar mualliflari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan o'z ixtiyorlarida bo'lgan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart (JPK 327-m.). JPKda jinoyat ishini qo'zg'atish uchun bunday sababning belgilanganligi IIO, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarga doimiy ravishda matbuot xabarlarini kuzatib borish va ular bo'yicha chora ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Muassasa, korxonalar va tashkilotlarning devoriy gazetalarida e'lon qilingan xabarlar JPKda nazarda tutilmagan. Devoriy gazetalaridagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlarga ma'lum bo'lib qolsa, tegishli organning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi buning sababi bo'lib xizmat qiladi.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz. Bu – ariza beruvchining o‘zi sodir etgan jinoyati to‘g‘risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasidan va unga ayblov e‘lon qilinmasidan oldin bergan xabari. U og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud og‘zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma‘lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arzni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud baholaydilar (JPK 113-m.).

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz bilan gumon qilinuvchi ushlanganida o‘tkazilgan so‘roqlardan keyingi chin ko‘ngildan aybiga iqrор bo‘lishni farqlash lozim. Bunday iqrорlik ba‘zan ichki ishlar organlari amaliyotida aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz sifatida noto‘g‘ri rasmiylashtiriladi.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz bilan murojaat qilgan shaxs JPKning 221-moddasida ko‘rsatilgan shartlar mavjud bo‘lganda ushlab turilishi mumkin.

Surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi. Ushbu sababning o‘ziga xos jihati shundaki, jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masala tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ariza, xabar yoki xat tushganligi sababli emas, balki surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sudya yoki sudning tashabbusi bilan hal qilinadi. Jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘lishi mumkin:

1) tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi ma‘muriy vazifani amalga oshirayotganida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida;

2) surishtiruvchi, tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha tergov yuritish chog‘ida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida;

3) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha dastlabki tergov olib borish chog‘ida jinoyatga oid ma‘lumotlarni aniqlaganida;

Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarning to'liq va qat'iy hisobga olib borilishini ta'minlash – jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani to'g'ri va zaruriy hal qilishning sharti. Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarni ro'yxatga olishdan yashirish, jinoyatlarni har qanday shakldagi hisobdan yashirish, shuningdek, ularga nisbatan choralar ko'rmaslik qonuniylikni qo'pol ravishda buzish bo'lib, aybdorlarga nisbatan qattiq choralar, hatto jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralarni qo'llashgacha olib keladi.

*Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari deganda*, jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar (dalillar) tushuniladi. Qonuniy sababdan tashqari, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun yetarli asoslarning mavjud bo'lishi ham zarur. JPKning 321-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda qo'zg'atiladi.

«Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari» tushunchasi ikkita o'zaro chambarchas bog'liq unsurdan tashkil topadi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsga ma'lum bo'lib qolgan hodisada jinoyat alomatlarining mavjudligi;

2) jinoyat alomatlarini aniqlashga asos bo'ladigan yetarli ma'lumotlarning mavjudligi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorni qabul qilish paytida jinoyat tarkibining barcha elementlari haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish shart emas. Muayyan shaxslarni, ayb shaklini, jinoyat sodir etilishining motivlari, usullari va boshqa holatlarini to'liq va har tomonlama aniqlash dastlabki tergov bosqichining, keyinchalik esa sud muhokamasining vazifalaridir.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslarining zaruriy elementi bo'lmish «jinoyat alomatlari» tushunchasini tahlil qilishda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqning chambarchas aloqadorligi ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Jinoyat alomatlarining aniqlanishi JKning muayyan normasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli, jinoiy jazolanadigan qilmish haqida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilishda jinoiy jazoga tortiladigan qilmishni faqat ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy va boshqa munosabatlarni yuzaga keltiruvchi harakatlardan farqlash imkonini beruvchi belgilarga alohida e'tibor berish kerak. Ushbu belgilar, avvalo, jinoyatning obyektiv tomoniga taalluqli bo'lib, jinoyat hodisasining o'zi haqiqatda mavjud bo'lganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Jinoyat ishini qo'zg'atish chog'ida aniqlangan jinoyat belgilariga muvofiq, qilmish JKning tegishli moddasi bo'yicha tavsiflanadi. Jinoyat protsessini bundan keyingi yuritish davomida ushbu tavsifga aniqlik kiritilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi faktik ma'lumotlarni olish yoki tekshirish maqsadida tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud muayyan tekshiruv harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ushbu harakatlarning butun ma'nosi va vazifasi jinoyat belgilarining va ish yuritishni istisno etuvchi holatlarning bor-yo'qligini aniqlashdan iborat. Bu narsa aniqlangan zahoti jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqida tegishli qaror qabul qiladi. Tekshiruv harakatlari haqiqatan zarur bo'lgan hollarda va faqat qonunda belgilangan muddatda amalga oshirilishi mumkin. Agar sababda jinoyat alomatlarini yoki ularning yo'qligini ko'rsatuvchi yetarli faktik ma'lumotlar mavjud bo'lsa, qaror qo'shimcha tekshirishsiz qabul qilinishi kerak.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari turli usullarda tekshiriladi. Tekshiruv doirasida tegishli organga taftish yoki inventarizatsiya o'tkazish haqida topshiriq berilishi, ilmiy bilimlarni talab etuvchi u yoki bu masalada mutaxassis maslahati olinishi, jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish sababi va asoslari mavjud bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror chiqariladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror uchta qismdan: kirish, tavsiflash-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Kirish qismida: qaror nomi, tuzilgan vaqti va

joyi, qaror chiqargan shaxsning lavozimi, unvoni, FIO ko'rsatiladi; tavsiflash-asoslantirish qismida – jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslari bayon etiladi; xulosa qismida esa – jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qabul qilinayotgan qaror, jinoyatning Jinoyat kodeksining qaysi moddasiga ko'ra tavsiflanishi, jinoyat ishining bundan buyon kimga yuborilishi ko'rsatiladi.

### **13.5. Tergovga qadar tekshiruvda uni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslarning o'zaro hamkorligi**

Tergovga qadar tekshiruvda o'tkaziladigan tergov va boshqa tekshiruv harakatlari bir necha shaxslarning birgalashib, hamkorlikda faoliyat olib borishini talab qiladi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, jinoyat sodir etgan shaxslarning iziga tushib ularni ushlab choralarini ko'rish, tezkorlik bilan jinoyat haqida ma'lumotga ega shaxslardan tushuntirishlar olish, tergov tasmollarini ishlab chiqish va ularni tekshirishni tashkil etish hamda boshqa kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazish samaradorligi tergov-tezkor guruhining faoliyatiga chambarchas bog'liq.

Tergov-tezkor guruhi rahbari (surishtiruvchi, tergovchi) xabarni olgach tergov-tezkor guruhi a'zolarining darhol to'planishini ta'minlaydi va hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga shayligini yana bir bor tekshirib ko'radi. Xususan, tergov-tezkor guruhi a'zolarining to'planganligiga, tergov chemodanidagi jihozlarning to'liqliligiga, shuningdek, o'tkazilishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan vositalarning mavjudligiga, texnik va transport vositalarining hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga hozirligiga e'tiborini qaratadi. Kamchiliklar aniqlangan hollarda shaxsan o'zi yoki tezkor-navbatchi yordamida barataraf etish choralarini ko'radi, tezkor-navbatchidan xabarni 2-shakldagi jurnaldan ro'yxatdan o'tkazilganligi bo'yicha tartib raqamini oladi va tergov-tezkor guruhini hodisa sodir bo'lgan joyga tezkorlik bilan yetib borilishini ta'minlaydi. Hodisa sodir bo'lgan joyga

yetib borgach tergov-tezkor guruhi a'zolari, ya'ni tezkor vakil, profilaktika inspektori, EKB mutaxassisi va inspektor-kinologga sodir etilgan hodisaning xususiyatidan kelib chiqib vazifalar qo'yadi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida navbatchi tergov-tezkor guruhining hodisa sodir bo'lgan joyda amalga oshiriladigan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhning hodisa sodir bo'lgan joydagi harakatlari, birinchi navbatda ish bo'yicha jinoyat belgilari va izlarini, jinoyatchi shaxslarning o'ziga xos belgilarini, guvoxlarni va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga yo'naltirilgan dastlabki tergov-tezkor choralar majmuini o'zida aks ettirishi kerak. Tergov-tezkor guruhining har bir a'zosi hodisa sodir bo'lgan joyda, u tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni aniq bilishi muhim ahamiyatga ega.

Navbatchi tergov-tezkor guruhi hodisa sodir bo'lgan joyga kelganidan so'ng, guruh rahbari bo'lgan tergovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

hodisa joyi qo'riqlanayotganligini tekshirishi, agar qo'riqlanmayotgan bo'lsa profilaktika inspektoriga qo'riqlashni topshirishi;

agar jabrlanuvchilar tibbiy yordamga muhtoj bo'lsa, yordam ko'rsatishi va agarda ular tibbiyot muassasasiga yuborilgan bo'lsa, ularni qayerga jo'natilganligini yozib olishi;

hodisa joyiga birinchi bo'lib inspektor-kinologni xizmat iti bilan kiritishi va jinoyatni fosh etish hamda jinoyatchini «issiq izi»da qo'lga olishni tashkillashtirishi;

tezkor-qidiruv xodimlarga guvoxlarni, jinoyat sodir qilgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar berishi;

mutaxassis-kriminalistga jinoyatning izlari, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyatchini hodisa joyida bo'lganligini, qo'l va oyoq izlarini, boshqa izlarni (tartibsizlik, har tomonga otilgan buyumlar, yuklar, uzilgan tugmalar, soch tolalari, qon va boshqalar) jinoyatchilarga taalluqli buyum va narsalar, mikro obyektlarni topishni topshiradi;

hodisa joyidagi holat bilan tanishadi, ko‘zdan kechirishni taktik usullarini belgilaydi;

hodisa joyini ko‘zdan kechirishga kirishadi.

Jinoyat sodir etilgan joy tergov qilinayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning manbai hisoblanadi, shu sababli uni zudlik bilan tekshirish lozim, chunki, hodisa sodir bo‘lgan joyni o‘z vaqtida ko‘zdan kechirmaslik izlarni va boshqa dalillarni yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘zdan kechirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jinoyat sodir etilgan joyning holatini aniqlash;

tergov uchun ahamiyat kasb etadigan narsalar va izlarni aniqlash, qayd qilish va olish;

tergov va qidiruv tasmollarini tuzish;

isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlash;

jinoyatni sodir etgan shaxslarni fosh etuvchi ma’lumotlarni to‘plash.

Hodisa joyida aniqlangan va olingan izlar va predmetlarni ko‘zdan kechirish jinoyat sodir etish usulini aniqlash imkonini beradi. Bu esa jinoyat sodir etish usuli bo‘yicha hamda ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha kartotekalardan foydalanishi imkonini yaratadi.

Ko‘zdan kechirishni talab darajasida va samarali o‘tkazish kriminalistik-texnika vositalardan unumli foydalanishga bog‘liq, ayniqsa videoyozuv usullaridan foydalanish unumlidir. Bu esa dalillarni aniqlash jarayoni, ko‘zdan kechirish harakatlari natijasida olingan ashyoviy dalillarni obyektiv qaydetilishiga, shuningdek, qo‘llanilgan taktik usullarni to‘g‘riligini yaqqol namoyish etilishiga xizmat qiladi.

Ayrim jinoyat ishlari bo‘yicha fuqarolar tomonidan muayyan narsa, ashyo, buyum va hujjatlar ish uchun ahamiyatga ega deb baholanib, ishga qo‘shib qo‘yish uchun surishtiruvchi, tergovchi va sudga taqdim etiladi. Shu bilan birga, surishtiruvchi, tergovchi va sud ham ayrim narsa va hujjatlarni fuqarolardan, korxonada, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan talab qilib oladilar.



Ekspertiza dalillarni to'plash va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashga xizmat qiladigan muhim tergov harakati hisoblanadi. Ekspertiza maqsadiga ko'ra dalillar to'planadigan, o'tkazish tartibi va xususiyatiga ko'ra mas'ul shaxsning qarori (ajrimi)ga asosan maxsus bilim egasi amalga oshiradigan, qo'lga kiritiladigan natijalarga ko'ra isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashga xizmat qiladigan, bilvosita va yozma dalillar olinadigan tergov harakatlariga kiradi.

Umuman olganda jinoyat ishini qo'zg'atish jiddiy ahamiyatga ega jarayon bo'lib, ushbu faoliyat sifatli amalga oshirilishi talab etiladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida to'plangan materiallar (ko'zdan kechirish bayonnomasi, muassasalarning hujjatlari, arizalar, tushuntirish xatlari) ishga qo'shib qo'yiladi. Ariza, tushuntirish bergan, ma'lumotlar, aktlar va boshqa hujjatlarni imzolagan shaxslar keyinchalik so'roq qilingan bo'lsalar ham, ushbu materiallar butun ish yuritish davomida hujjatlik ahamiyatini saqlab qoladi. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirish vaqtda olib qo'yilgan obyektlarni, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida topilgan va ashyoviy dalil yoki hujjatlar ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa obyektlarni ishga qo'shib qo'yish haqidagi masalani umumiy tartibda hal etadi.

## **XIV BOB. DASTLABKI TERGOVNING UMUMIY SHARTLARI**

### **14.1. «Dastlabki tergovning umumiy shartlari» tushunchasi, tizimi va ahamiyati**

*Dastlabki tergov deganda*, jinoyatni tez va to‘liq ochish, uni sodir etgan shaxslarni fosh etish va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, jinoyatni bartaraf etish choralari ko‘rish, jinoyatning sabablari va uning sodir bo‘lishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, shuningdek, jinoyat tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini ta‘minlash choralari ko‘rish maqsadlarida tergov organlarining ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashga asos bo‘ladigan dalillarni to‘plash, tekshirish, shuningdek, ishni tugatish yoki ishni sudga yuborish haqida tegishli qaror qabul qilish borasidagi (baholash) faoliyati tushuniladi. Dastlabki tergov qonuniy, puxta, har tomonlama, to‘liq va xolisona olib borilishi kerak.

Dastlabki tergovning vazifalariga quyidagilar kiradi:

jinoyatni tez va to‘liq ochish;

jinoyat sodir etgan shaxsni ayblanuvchi tariqasida javobgarlikka tortish;

jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta‘minlash;

jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;

jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

sud muhokamasi o‘tkazish hamda adolatli, qonuniy va asoslangan hukm chiqarish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Dastlabki tergov vazifalarini bajarishga qonunda belgilangan va dastlabki tergovning umumiy shartlari deb ataladigan muayyan talablar xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 43-bobi dastlabki tergovning umumiy shartlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda barcha jinoyat ishlarida rioya etilishi shart bo‘lgan qoidalar belgilangan. Dastlabki

tergovning sifati dastlabki tergovning umumiy shartlariga rioya etilishiga bogʻliq. Bunda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

*Dastlabki tergovning umumiy shartlari deganda*, dastlabki tergov bosqichining har tomonlama, toʻliq, xolisona, qonuniy amalga oshirilishini, jinoyatni tezda va toʻla ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning qoplanishini taʼminlash, shuningdek, sud muhokamasini oʻtkazish uchun zarur sharoit yaratadigan, jarayonning tizimli va vakolatlar doirasida tartibli kechishiga hamda samarali boʻlishiga xizmat qiladigan tergov ishtirokchilari uchun majburiy boʻlgan qoidalar yigʻindisi tushuniladi.

Dastlabki tergovning umumiy shartlariga quyidagilar tegishli:

- 1) dastlabki tergovni olib borishga vakolatli mansabdor shaxslar;
- 2) jinoyat ishining tergovga tegishliligi;
- 3) hududiy jihatdan tergovga tegishlilik;
- 4) tergovchining topshiriqlarini bajarish;
- 5) jinoyat ishini boshqalarga oʻtkazish;
- 6) yoʻqolgan jinoyat ishini yoki uning materiallarini tiklash;
- 7) dastlabki tergovda jamoatchilikning ishtiroki;
- 8) dastlabki tergovning boshlanishi;
- 9) dastlabki tergovning muddatlari;
- 10) tergov harakatlarini oʻtkazishda xolislarning ishtiroki;
- 11) jinoyat ishidagi maʼlumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati;
- 12) jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish;
- 13) dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish;
- 14) tergovchilar guruhi rahbarining vakolatlari;
- 15) guruh aʼzolari boʻlgan tergovchilar;
- 16) tergov harakatini bir necha tergovchi tomonidan bajarilishi;
- 17) tergovchining va prokurorning harakatlari hamda qarorlari yuzasidan shikoyat berish;

Dastlabki tergovning umumiy shartlari ahamiyati quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

- tergovning qonuniyligi, to‘liq, har tomonlama va xolisona amalga oshirilishiga xizmat qiladi;
- tizimli va mantiqiy ketma-ketlikni ta‘minlashga ko‘mkaklashadi;
- mas‘ul mansabdor shaxslarni tergov qilishga oid vakolatlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadi;
- jinoyatchilikka qarshi kurash, xususan dastlabki tergov faoliyatining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi;

## **14.2. Dastlabki tergovning umumiy shartlari mazmuni**

*Dastlabki tergovni olib borishga vakolatli mansabdor shaxslar.* Jinoyat-protsessual faoliyat vakolatli subyektlar tomonidan amalga oshirilishi qonunda belgilangan. Unga ko‘ra dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati tuzilmalaridagi tergovchilar olib boradi. Tergovchilar deganda, tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari nazarda tutilgan. Tuman, shahar prokuraturasi, hududiy harbiy prokuratura, tuman, shahar va maxsus ichki ishlar organlari, transportda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘limlari, viloyatlar, Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Transportda jamoat xavfsizligini ta‘minlash boshqarmasi, Davlat xavfsizligi xizmatining viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmalarida, O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizligi xizmati markaziy apparatida tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi va guruh-lari faoliyat olib boradi. Ichki ishlar vazirligi tizimida Tergov departamenti tergov organlarini boshqaradi. Ushbu tergov organlarida jinoyat ishlarini tergov qilmaydigan boshqa mansabdor shaxslar ham ishlaydi.

Dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishlari mumkin.

*Jinoyat ishining tergovga tegishliligi.* Tergovni to‘g‘ri o‘tkazish uchun uni to‘g‘ri tashkil qilish zarur. Dastlabki tergovni o‘tkazishning to‘g‘ri tashkil qilinishi esa jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tergovga tegishlilik haqidagi qoidalarga qat‘iy rioya etish orqali ta‘minlanadi.

Tergovga tegishlilik deganda, tergovni u yoki bu tergov organi (mansabdor shaxs) o‘tkazishi kerakligini bildiruvchi jinoyat ishining belgilari yoki xossalari va unga asosan jinoyat ishining tergovini amalga oshiruvchi organi aniqlash qoidalari tushuniladi. Jinoyat ishining tergovini turli organlar va mansabdor shaxslar o‘tkazadilar. Bunda sodir etilgan jinoyat turi, shuningdek, qonunda belgilangan tergovga tegishlilik haqidagi qoidalar bo‘yicha jinoyat sodir etilgan joy inobatga olinadi.

Tergovga tegishlilik jinoyatning xususiyati va sodir etilgan joyiga ko‘ra ushbu jinoyat ishining tergovi qaysi organ tomonidan olib borilishi belgilanganligini oydinlashtirish orqali aniqlanadi.

JPKda tergovga tegishlilikning quyidagi turlari belgilangan: predmetli, hududiy, maxsus (shaxsga oid), muqobil, ishlarning aloqasi bo‘yicha.

*Predmetli* (jinoyat turiga ko‘ra) tergovga tegishlilik JPKning 345-moddasida nazarda tutilgan. Predmetli tergovga tegishlilik deganda, jinoyat turidan kelib chiqib tergov o‘tkazish tegishli organ tergovchilarga yuklatilishi tushuniladi.

JPKning 345-moddasida prokuratura, harbiy prokuratura, DXX va ichki ishlar organlari tergovchilari, shuningdek, quyi va yuqori tergov organi tergovchilari o‘rtasidagi tergovga tegishlilik farqlangan. Bunda ushbu organlar faoliyatining xususiyati inobatga olingan. Bunday farqlashga, avvalo, ishning murakkabligi, jinoyatning og‘irligi, jinoyat ishining ijtimoiy ahamiyati kabi mezonlar asos qilib olingan. Vakolatlarning bunday chegaralanishi jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, qonuniylikni yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pchilik jinoyatlarni ichki ishlar idoralarining tergovchilari tergov qiladilar. Ushbu organlarning tergov apparati tergovchilar, katta tergovchilar, o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchilar va o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilardan iborat. Tergov apparati IIV tizimidagi mustaqil tarkibiy tuzilmadir.

Tergovchilar protsessual munosabatlarda mustaqildirlar. O'zbekiston Respublikasi JPKning 350-moddasiga muvofiq, tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atib, uni o'z ish yurituviga oladi va bu haqda ish qo'zg'atilganligi to'g'risidagi qarorga yozib qo'yadi. Basharti tergovchiga oldin qo'zg'atilgan ish berilgan bo'lsa, u ishni o'z yurituviga olganligi to'g'risida qaror chiqaradi, shundan so'ng dastlabki tergovni boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 100-sonli buyrug'iga asosan quyidagi jinoyatlarga oid ishlarda dastlabki tergov *O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti* tomonidan olib boriladi: Jinoyat kodeksining 118-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 119-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 135-moddasining uchinchi qismi, 137-moddasining uchinchi qismi, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 164-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 165-moddasining uchinchi qismi, 166-moddasining to'rtinchi qismi, 167-moddasining uchinchi qismi, 168-moddasining to'rtinchi qismi, 169-moddasining uchinchi qismining «g» bandi hamda to'rtinchi qismi, 244-moddasi, 244<sup>1</sup>-moddasining uchinchi qismi, 244<sup>2</sup>-moddasi, 247-moddasining uchinchi qismi, 248-moddasining uchinchi qismi, 250<sup>1</sup>-moddasining to'rtinchi qismi, 251-moddasining uchinchi qismi, 252-moddasining ikkinchi qismi, 255<sup>2</sup>-moddasining uchinchi qismi, 260-moddasining uchinchi qismi, 263-moddasining uchinchi qismi, 263<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 264-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hamda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir

etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatlari. Tergov departamenti tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida o'ta murakkab, viloyatlararo xususiyatga ega, respublikada shov-shuvga sabab bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda Ichki ishlar vazirligi rahbariyatining ko'rsatmasiga asosan boshqa jinoyat ishlari bo'yicha ham dastlabki tergovni olib borishi mumkin.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari huzuridagi tergov boshqarmalari* tomonidan yuqorida qayd etilgan buyruqqa asosan Jinoyat kodeksining 104-moddasining uchinchi qismi, 113-moddasining beshinchi qismi, 116-moddasining to'rtinchi qismi, 117-moddasining uchinchi qismi, 118-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 119-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari, 127-moddasining uchinchi qismi, 130-moddasining uchinchi qismi, 131-moddasining to'rtinchi qismi, 135-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 137-moddasining ikkinchi qismi, 159-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 164-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 165-moddasining ikkinchi qismi, 166-moddasining uchinchi qismi «b» va «v» bandlari, 167-moddasining ikkinchi qismining «a» va «b» bandlari hamda uchinchi qismi, 168-moddasining to'rtinchi qismi, 169-moddasining uchinchi qismining «b» va «g» bandlari hamda to'rtinchi qismi, 171-moddasining uchinchi qismi, 186<sup>1</sup>-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 213-214-moddalarining to'rtinchi qismlari, 222-moddasi, 243-modda, 244<sup>1</sup>-moddasi, 244<sup>2</sup>-moddasining birinchi qismi, 247-moddasining ikkinchi qismining «b», «v», «g» va «d» bandlari, 248-moddasining ikkinchi qismi, 250-moddasining ikkinchi qismi, 250<sup>1</sup>-moddasining uchinchi qismi, 251-moddasining ikkinchi qismi, 251<sup>1</sup>-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlari, 252-moddasining ikkinchi qismi, 253-moddasining 2-qismi, 254-moddasining ikkinchi qismi, 255-moddasining ikkinchi qismi, 255<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismi, 255<sup>2</sup>-moddasining ikkinchi qismining «v»

bandi hamda uchinchi qismi, 257-moddasining ikkinchi qismi, 257<sup>1</sup>-moddasining uchinchi qismi, 258-moddasining ikkinchi qismi, 259-moddasining ikkinchi qismi, 260-moddasining ikkinchi qismi, 262-moddasining uchinchi qismi, 263-moddasining ikkinchi qismi, 263<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 264-moddasining birinchi qismi, 266-moddasining uchinchi qismi, 267-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 268-moddasining uchinchi qismi, 269-moddasining uchinchi qismi, 271-moddasining ikkinchi qismi «g», «d» va «ye» bandlari hamda uchinchi qismi, 273-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov olib boriladi. *Tergov boshqarmalari* Tergov departamenti rahbariyatining ko'rsatmasiga asosan boshqa holatlar yuzasidan qo'zg'atilgan, shuningdek, nazorat tartibida yuborilgan hamda quyidagi toifadagi jinoyatlar bo'yicha ham dastlabki tergovni olib boradi:

jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish, g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash bilan bog'liq jinoyatlar;

odam o'limi bilan bog'liq fosh etilmagan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlar;

odamlar o'limi bilan yoki jiddiy ziyon yetkazish bilan bog'liq atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar;

nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish, uy-joyga kirib sodir etilgan bosqinchilik hamda transport vositasini olib qochishga doir fosh etilmagan jinoyatlar.

*Tumanlar (shaharlar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari), shuningdek, transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'limlari huzuridagi tergov bo'limlari (bo'linmalari, guruhlar)* tomonidan yuqorida qayd etilgan, shuningdek, surishtiruvga taalluqli bo'lgan jinoyatlardan tashqari ichki ishlar organlarining tergoviga taalluqli bo'lgan barcha turdagi jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni olib boradi. Tumanlar (shaharlar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) huzuridagi tergov bo'limlari (bo'linmalari, guruhlari)ning, transportda jamoat



xavfsizligini ta'minlash bo'limlarining surishtiruv bo'linmalari (guruhlari) jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan surishtiruvga tegishli bo'lgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv harakatlarini olib boradi.

Predmetli tergovga tegishlilikning o'rnatilishi va unga qat'iy rioya etilishi jinoyatlarni tergov qilishni to'g'ri tashkil etish uchun katta ahamiyatga ega.

*Maxsus tergovga tegishlilik* deganda, jinoyat subyektining xususiyatidan kelib chiqib tergov o'tkazish tegishli organ tergovchilariga yuklatilishi tushuniladi. Maxsus tergovga tegishlilik jinoyat sodir etgan shaxsning xususiyatlari bilan bog'liq. Maxsus tergovga tegishlilik prokuratura, ichki ishlar va harbiy prokuratura tergovchilariga taalluqli qoida bo'lib, unga ko'ra muayyan mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar prokuratura tergovchilari tomonidan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ichki ishlar tergovchilari tomonidan, harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan tergov qilinadi.

JPK 345-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, quyidagi jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergovni harbiy prokuratura tergovchilari olib boradilar:

- a) harbiy xizmatchilar sodir etgan jinoyatlar;
- b) harbiy o'quv yig'inlariga chaqirilgan shaxslar hamda qonun hujjatlarida maxsus ko'rsatma berilgan shaxslar sodir etgan jinoyatlar;
- v) Qurolli Kuchlar xodimlari va xizmatchilari xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan yoki harbiy qism, muassasa, harbiy o'quv yurti, Qurolli Kuchlarning korxonalari yoki tashkilotlari hududida sodir etgan jinoyatlar.

*Muqobil tergovga tegishlilik* deganda, jinoyatni qaysi organ aniqlaganligi va jinoyat ishini qaysi organ qo'zg'atganligidan kelib chiqib tergov o'tkazish tegishli organ tergovchilariga yuklatilishi tushuniladi. Muqobil tergovga tegishlilik ayrim jinoyatlarga oid ishlarni jinoyat ishini qo'zg'atgan organ tergov qilishi bilan bog'liq.

Jinoyat kodeksining 130-moddasi uchinchi qismida, 167-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, 176, 178, 186<sup>-3</sup>, 188, 188<sup>-1</sup>, 244<sup>-1</sup>, 244<sup>-2</sup>, 259<sup>-1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov ishni qo'zg'atgan organ tomonidan olib boriladi. Jinoyat kodeksining 237–241-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat qaysi organning tergoviga tegishli bo'lsa, o'sha organ tomonidan olib boriladi.

*Ishlarning aloqasi bo'yicha tergovga tegishlilik deganda*, bir necha tergov organining tergoviga tegishli ishlar bitta ishga birlashtirilganda jinoyatlarning og'irrogi, ko'proq muddat tergov qilinganligidan kelib chiqib ishni tergov qilish tegishli organ tergovchilariga yuklatilishi tushuniladi. Ishlarning aloqasi bo'yicha tergovga tegishlilik boshqa belgilari bo'yicha turli xil dastlabki tergov organlarining tergoviga tegishli bo'lgan bir necha jinoyat ishini birlashtirilganda vujudga keladi.

Agar tergovni olib borishda boshqa dastlabki tergov organi tergoviga tegishli yangi jinoyat aniqlansa, ishni yuritayotgan dastlabki tergov organi faqat tegishli prokurorning roziligi bilan tergovni to'liq hajmda tamomlashi mumkin. Agar tergovni olib borishda surishtiruv organiga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlansa, jinoyat ishini ajratish va boshqalarga o'tkazish JPK 332 va 381<sup>-2</sup>-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda agar mazkur yangi jinoyat JPK 381<sup>-2</sup>-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar turkumiga kirsam, ajratilgan jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv prokuror qaroriga asosan tegishli surishtiruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Turli dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, prokuror tergovni olib borishni og'irroq jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining tergovi qaysi organga tegishli bo'lsa, shu organga, jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishini uzoqroq muddat davomida tergov qilayotgan organga topshiradi.

*Hududiy jihatdan tergovga tegishlilik.* Hududiy jihatdan tergovga tegishlilik deganda jinoyat sodir etilgan yoki jinoyat oqibatlarini vujudga keltirgan, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining ko'pchiligi yashaydigan hududni e'tiborga olib ishni tergov qilish tegishli organ tergovchilariga yuklatilishi tushuniladi. JPKning 346-moddasida hududiy jihatdan tergovga tegishlilik belgilangan hamda unga ko'ra jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha tuman (shahar) tergovchisining tergoviga tegishli bo'ladi. Basharti ish holatlarini ancha tez, puxta, to'la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, dastlabki tergov, ish qo'zg'atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko'pchiligi turgan yerda o'tkazilishi ham mumkin. Bunda yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori tergov bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan ish boshqa tuman (shahar) tergovchisi tomonidan tergov qilinadi.

Tergovchi tergovni boshlagach va jinoyat boshqa tumanda sodir etilganligini aniqlasa, jinoyat ishini tergovga tegishlilik bo'yicha jo'natish uchun yuqori turuvchi prokurorga yoki yuqori tergov bo'limi boshlig'iga topshiradi. Shu o'rinda tergovchi jinoyat ishini tergovga tegishlilik bo'yicha yuborishdan oldin barcha kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlari tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida jinoyat ishini, tergovga tegishlilik qoidalaridan qat'i nazar, quyidagi hollarda asoslantirilgan qarorga binoan bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazishga haqli:

1) agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo'lgan organ jinoyatni hisobga olishdan ilgari yashirgan bo'lsa;

2) agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo'lgan organning rahbari yoki rahbarning yaqin qarindoshi ish yuzasidan jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar deb topilgan bo'lsa;

3) aybsizligi ayon bo'lgan shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb etilganda yoki qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini

qo'llash to'g'risida oldindan bila turib qonunga xilof ravishda iltimosnoma qo'zg'atilganda;

4) dastlabki tergovni olib borishda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari qo'llanilganda;

5) tergovning natijalariga va ish bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarzda jinoyat-protsessual qonun talablari buzilganda.

*Tergovchining topshiriqlarini bajarish.* Jinoyat ishini tergov qilish davomida boshqa hududlarda, jumladan qo'shni tuman yoki viloyatda tergov harakatlarini o'tkazish zarurati yuzaga keladi. Ushbu holda tergovchi mazkur harakatlarni shaxsan o'zi o'tkazishi yoki bu ishni boshqa tuman tergovchisiga yoxud topshiriqni tergovchi aytgan muddatda bajarishi shart bo'lgan boshqa tergov organi yoki tergovga qadar tekshiruv organiga topshirishi mumkin.

Tergovchining bunday talabi alohida topshiriq deb ataladi. Alohida topshiriq JPK 347-moddasiga muvofiq tergov harakatlari o'tkazish topshirilayotgan tergovchiga ishni yuritayotgan tergovchining xati shaklida ifodalanadi. Unda ijro etuvchi uchun majburiy bo'lgan ijro muddati ko'rsatiladi. Tergovchining topshirig'ini bu muddat ichida ijro etishning iloji bo'lmasa, topshiriq olgan shaxs topshiriq bergan tergovchiga topshiriq qachon bajarilishi mumkinligi to'g'risida yozma ravishda, telegramma yoki telefonogramma orqali xabar qiladi va uning ko'rsatmalariga binoan topshiriqni bajarishni davom ettiradi. Topshiriq ijro etilganidan so'ng xat bilan topshiriq ijrosiga oid hujjatlar va boshqa materiallar tergovchiga yuboriladi.

*Jinoyat ishini boshqalarga o'tkazish.* Dastlabki tergov davomida turli sabablarga ko'ra jinoyat ishini bir tergovchidan boshqa tergovchining ish yurituviga o'tkazish zarurati vujudga keladi, jumladan xodimning ta'tilga yoki pensiyaga chiqishi, kasal bo'lishi yoki xizmat safariga yuborilishi holatlarida uning yurituvidagi jinoyat ishlarini belgilangan muddatlarda tergov qilish va sudga yuborish yoki qonuniy tartibda hal etish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, tergovga tegishlilik

qoidalari tulablariga ko‘ra yoki xolislikni ta‘minlash yoxud tergov zarurati tufayli ishni boshqa tergov organiga o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday hollarda jinoyat ishini bir tergov bo‘linmasi doirasida bir tergovchidan boshqa tergovchiga o‘tkazish shu tergov bo‘linmasining rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Ishni bir tergov bo‘linmasidan boshqasiga o‘tkazish yuqori tergov bo‘linmasining boshlig‘i tomonidan prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi. Ishni bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o‘tkazishga prokurorning qaroriga binoan yo‘l qo‘yiladi. Jinoyat ishini boshqalarga o‘tkazish tegishli qaror bilan rasmiylashtiriladi.

*Jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish.* Sud-tergov amaliyotida ba‘zida alohida yurituvdagi ikki yoki undan ortiq ishlarni bitta ish yurituviga birlashtirish yoki aksincha bir jinoyat ishidan yangi jinoyat ishi alohida ish yurituviga ajratilishi mumkin.

Bitta tergov yoki sud ish yurituviga faqat bir necha shaxsning bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar yoxud bir shaxsning bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar birlashtirilishi mumkin. Jumladan, bir shaxs yoki bir nechta shaxslar birgalashib sodir etgan bir nechta jinoyatlar bir vaqtda turli tergovga qadar tekshiruv yoki tergov organlari tomonidan aniqlangan paytda alohida alohida jinoyat ishi yuritilishi mumkin. Keyinchalik tergov davomida ushbu ishlarni birga yuritish, bir vaqtda sudda ko‘rish uchun ular birlashtiriladi.

Bitta jinoyat ishidan alohida ish yurituviga yana bir jinoyat ishini ajratish bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan yuritilgan ishlarda uchraydi. Jinoyat ishini ajratish basharti bu ish holatlari bo‘yicha zarur bo‘lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko‘rib chiqishning to‘liq va xolislik bo‘lishiga ta‘sir qilmasa, yo‘l qo‘yiladi. Jinoyat ishini ikkita ish yurituviga ajratishda har ikkisi uchun ahamiyatli bo‘lgan ishdagi hujjatlardan yana bir nusxa olinib, yangi ish sifatida ajratiladi. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog‘liq bo‘lmagan

yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi.

Ishlarni birlashtirish va ajratish surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan amalga oshiriladi.

*Yo‘qolgan jinoyat ishini yoki uning materiallarini tiklash.* Tergov davomida turli sabablarga ko‘ra jinoyat ishi yoki uning materiallari yo‘qolishi, foydalanib bo‘lmaydigan darajada shikastlanishi mumkin. Bu kabi holatlar ish yurituvda bo‘lgan tergovchining ehtiyotsizligi yoki qasdi bilan yuz berishi mumkin. Qonuniy tartibda hal etilmagan jinoyat ishilari yoki uning materiallari yo‘qolganda ularni tiklash orqali jinoyat protsessi vazifalarining ijrosi ta‘minlanadi. Qanday sababga ko‘ra yuz berganligidan qat’i nazar yo‘qolgan jinoyat ishini yoki uning materiallarini tiklash prokurorning qaroriga ko‘ra, jinoyat ishi yoxud uning materiallari sudda yo‘qolgan taqdirda esa ijro etish uchun prokurorga yuboriladigan sud ajrimiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Yo‘qolgan jinoyat ishini yoki uning materiallarini tiklash jinoyat ishi hujjatlarining jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibda dalillar deb topilishi mumkin bo‘lgan saqlab qolingan ko‘chirma nusxalari va protsessual harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Bunda tergov harakatlari qayta amalga oshirilishi mumkin.

*Dastlabki tergovda jamoatchilik ishtiroki.* Tergovchi jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish uchun jamoatchilikni jalb qilishga haqlidir. Shu maqsadda u jamoat birlashmalariga, jamoalarga, aholiga jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik ma‘lumotlar haqida xabar qilishni, qidirilayotgan shaxslar yoki narsalar turgan joyni ko‘rsatishni so‘rab murojaat qiladi.

Jamoat birlashmalari va jamoalar tergovchining iltimosiga ko‘ra, ayrim tergov harakatlarida ishtirok etish uchun o‘z oralaridan xolislar, tarjimonlar, mutaxassislarni tavsiya qilishlari mumkin. Jamoatchilik vakillari bo‘lmish xolislar, tarjimonlar va mutaxassislarga JPKdagi tegishli protsess ishtirokchilarining huquqlari va burchlari to‘g‘risidagi qoidalar to‘liq tatbiq etiladi.

*Dastlabki tergovning boshlanishi.* Dastlabki tergov jinoyat ishini qo‘g‘atish haqida qaror chiqarilgan kundan boshlanadi. Dastlabki tergovning boshlanishi ishni o‘z yurituviga olgan tergovchiga tergov o‘tkazish vakolatini beradi. Dastlabki tergov belgilangan muddat davomida ish bir mas‘ul shaxsning yurituvidan boshqa mas‘ul shaxsga yuborilguncha, ish kelib tushganidan so‘ng, ish yurituvi to‘xtatilguncha, ish tugatilguncha, ish yurituvi qayta tiklanganidan keyin davom ettiriladi. Tergov tamomlanganda dastlabki tergov muddati o‘tishi to‘xtaydi.

*Dastlabki tergov muddatlari va muddatni uzaytirish.* Dastlabki tergovni o‘tkazish muddati, JPKning 351-moddasiga muvofiq – uch oy. Ushbu muddatda jinoyat ishi tergov qilinib, dastlabki tergov tamomlanishi shart. Ish ayblov xulosasi bilan, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni dastlabki tergov tamomlangan hisoblanadi. Tergov muddatiga qat‘iy rioya etilishini prokuror nazorat qiladi. Ular har qanday sansalorlik hamda qonunda belgilangan tergov muddatlarini buzish hollari aniqlanganda, bunday qonunbuzarliklarga kelgusida yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radilar.

Dastlabki tergov muddatini hisoblash jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jumladan, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan kundan boshlab uch kalendar oy o‘tgan bo‘lsa-da, tergov muddati tugamagan bo‘lishi mumkin. Chunki dastlabki tergov muddatiga muayyan vaqt qo‘shilmaydi, ya‘ni ushbu vaqt dastlabki tergov muddatini hisoblashda ayirib tashlanadi. Dastlabki tergov muddatiga quyidagilar kirmaydi:

1) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqishlari uchun ajratilgan vaqt;

2) dastlabki tergov to‘xtatib turilgan vaqt;

3) qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish tergovchiga kelib tushgunga qadar o‘tgan vaqt. Ko‘rsatilgan vaqt sutkalarda yoki oylarda hisoblanadi. Shuningdek, ish o‘rganish uchun yoki nazorat tariqasida talab qilib olinganda, dastlabki tergov muddatiga ish taqdim etilgan kundan u o‘rganilgach tergovchiga qaytarib berilgunga qadar o‘tgan vaqt ham kiritilmaydi.

Jinoyat ishlari birlashtirilayotganda ular bo‘yicha ish yuritish muddati uzoqroq muddat davomida tergov qilingan jinoyat ishi bo‘yicha belgilanadi. Bunda qolgan jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati bilan qamrab olinadi va qo‘shimcha ravishda hisobga olinmaydi.

Alohida ish yurituvga ajratilgan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov muddati, agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo‘yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratilayotgan bo‘lsa, tegishli qaror chiqarilgan kundan e‘tiboran hisoblanadi. Qolgan hollarda muddat bu jinoyat ishi qaysi jinoyat ishidan alohida ish yurituvga ajratilgan bo‘lsa, o‘sha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan e‘tiboran hisoblanadi.

Ish murakkabligi va katta hajmdagi harakatlarni bajarishni talab etishi bois qonunda belgilangan tergov muddati yetarli bo‘lmagan hollarda, dastlabki tergov muddatini uzaytirish mumkin. Dastlabki tergov muddatini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar besh oygacha uzaytirishi mumkin. Keyinchalik dastlabki tergov muddatini faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarlari yetti oygacha uzaytirishi mumkin.

Tergov muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomani tergovchi tergov muddati tugashidan kamida o‘n sutka ilgari prokurorga topshiradi. Iltimosnomada dastlabki tergov muddatini uzaytirish zarurati va asoslari ko‘rsatiladi. Prokuror o‘z ustxati bilan iltimosnomani qanoatlantiradi yoki dastlabki tergovni tamomlab, ishni sudga yuborish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Ish qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek, to‘xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda



qo‘shimcha tergov muddati mazkur ishni tergovchi qabul qilgan paytdan boshlab bir oy doirasida belgilanadi. Bu muddatni yanada uzaytirish ish prokurorga berilgunga, to‘xtatib turilgunga yoki tugatilgunga qadar o‘tgan tergov muddatini hisobga olgan holda umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Dastlabki tergovni tez amalga oshirish shoshma-shosharlik va pala-partish tergov o‘tkazish mumkinligini bildirmaydi. Shoshma-shosharlik tergovning bir tomonlama amalga oshirilishiga, pirovardida ishning qo‘shimcha tergov uchun qaytarilishiga olib kelishi mumkin. Jinoyat ishining o‘z vaqtida yuritilishiga ishni to‘g‘ri tashkil qilish va tergovchining har bir aniq jinoyat ishi bo‘yicha tergovni to‘g‘ri rejalashtirishiga doimiy ravishda harakat qilishi bilan erishiladi. Dastlabki tergovni qisqa muddatlarni tamomlash shaxs huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasagina maqsadga muvofiqdir. Jumladan, dastlabki tergovning tez o‘tkazilishi ish holatlari to‘liq aniqlanmay qolishiga, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar to‘g‘ri hisoblanmasdan va qoplanmasdan qolishiga olib kelsa shaxs huquqlari buzilishi va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishi deb baholanishi mumkin.

*Tergov harakatlarini o‘tkazishda xolislar ishtiroki.* Dastlabki tergovda o‘tkaziladigan protsessual harakatlarning o‘tkazilganligi, ushbu jarayonlarda qonuniylikka rioya etilganligi, shuningdek, bayonnoma to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tasdiqlash, tergov jarayonining ishonchliligini ta‘minlash maqsadida ishdan manfaatdor bo‘lmagan shaxslarning kuzatuvchi sifatida ayrim protsessual harakatlarda ishtirok etishi belgilangan.

Dastlabki tergovda olib qo‘yish, tintuv o‘tkazish, ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, eksperiment o‘tkazish, tanib olish uchun ko‘rsatish, ko‘rsatuvlarni hodisa yuz bergan joyda tekshirish, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish, murdani eksqumatsiya qilish kamida ikki nafar xolis ishtirokida amalga oshiriladi. Basharti bir tergov harakatini bir necha tergovchi yoki tergovchi va u rahbarlik qilayotgan surishtiruvchilar bir paytning o‘zida turli xonalarda yoki bir-biridan

ancha uzoq joylarda o'tkazayotgan bo'lsalar, har bir tergovchi va surishtiruvchi huzurida doimo kamida ikki nafar xolis ishtirok etishi lozim. Fuqaro tergovchining qonuniy talablarini va takliflarini bajarishdan bosh tortayotganligini yoki tergovchiga qarshilik ko'rsatayotganligini yoxud dastlabki tergov yuritish tartibiga to'g'ri kelmaydigan boshqa huquqqa zid xatti-harakatlar qilayotganini tasdiqlash uchun ham xolislar taklif qilinishi mumkin.

*Jinoyat ishidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati.* Dastlabki tergov o'tkazilishida jinoyat ishi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar, isbotlanishi kerak bo'lgan holatlarga oid tergov tasmollari va boshlang'ich xulosalar, shuningdek, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchilarning shaxsiy hayotiga oid oshkor etib bo'lmaydigan hamda xizmat yoki tijorat sirlari bo'lgan ma'lumotlar jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga ma'lum bo'lib qolishi mumkin. Bunday holatlarda protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jinoyat ishidagi barcha ma'lumotlar yoki uning muayyan qismidagi ma'lumotlar oshkor qilinmaydigan deb e'tirof etiladi. Bu haqda qaror chiqariladi. Ana shu asosda muayyan tergov harakatlarida ishtirok etayotgan yoki tergov harakatlarini bajarishda hozir bo'lgan yoxud tergov materiallari bilan tanishayotgan shaxslarning zimmasiga ishda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilmaslik to'g'risida majburiyat yuklatiladi. Bu haqida ulardan tilxat olinadi. Tilxatda, shuningdek, mazkur majburiyatni buzganlik uchun Jinoyat kodeksining 239-moddasiga binoan javobgarlik haqidagi ogohlantirish ham aks ettiriladi.

*Dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish.* Jinoyat ishini tergov qilish ko'p mehnat talab etsa, juda murakkab yoki o'ta dolzarb bo'lsa, prokuror yoki tergov bo'linmasining boshlig'i shu ish bo'yicha dastlabki tergov yuritishni doimiy yoki maxsus tuzilgan tergov guruhiga topshirishi mumkin. Bu haqda qaror chiqariladi, unda tergov guruhining rahbari va a'zolari ko'rsatiladi. Basharti dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish to'g'risidagi qaror jinoyat ishini qo'zg'atish

to'g'risidagi qaror bilan ayni bir vaqtda qabul qilingan bo'lsa, ikkala masala bir qarorning o'zida bayon etiladi. Guruh tarkibida o'zgarishlar bo'lganda va guruh rahbari o'zgartirilganda ham qaror chiqariladi.

Dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish tergov bitta tergovchiga og'irlik qiladigan, shuningdek, ko'p vaqt talab etiladigan jinoyat ishlariga nisbatan amalga oshiriladi. Bunday qaror tergovda ishtirok etadigan mas'ul shaxslarning o'zaro hamkorlikda ishlashi, shuningdek, tergovning samarali bo'lishi uchun ko'maklashadi. Murakkab va ko'p hajmli ishlarda nafaqat tergovchilar guruhiga, balki tergov-tezkor guruhi ham tuzilib ular birgalikda faoliyat olib borishi tashkil etiladi.

Dastlabki tergov tergovchilar guruhiga topshirilganda yoki tergov-tezkor guruhi tuzilganda tergov harakatlarini o'tkazish vaqti va ularning ketma-ketligini aniqlashtirib olish juda muhim. Biroq qonunda tergovchi va tergovga qadar tekshiruv organlarining har bir aniq vaziyatda jinoyat ishi bo'yicha qanday hamkorlik qilishi batafsil belgilanishi mumkin emas. Shu bois vazifalar taqsimoti va ularning hamkorligi jinoyatlarni tergov qilish davomida amalga oshiriladi. Bunda tashkil qilish vazifasini tergovchi bajaradi.

Tergovchining tergovga qadar tekshiruv organi bilan hamkorligi jinoyatni ochish va aybdorlarni fosh etish manfaatlari yo'lida tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan ma'lumotlardan foydalanish, birgalikda tergov harakatlarini o'tkazish, tergovni rejalashtirish yo'nalishlarida amalga oshiriladi. O'zaro hamkorlik vaqtida ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar, dalillarni aniqlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan manbalar haqida ma'lumotlarni olish katta ahamiyatga ega.

*Tergovchilar guruhi rahbarining vakolatlari.* Dastlabki tergov tergov guruhiga topshirilganida guruh rahbari, shuningdek, guruh a'zolari bo'lgan tergovchilarning vakolatlari va vazifalari aniq belgilanishi maqsadga muvofiq. Guruh rahbari bo'lgan tergovchi o'z yurituviga qabul qilib olgan jinoyat ishida tergovning umumiy yo'nalishi

va pirovard natijasi uchun, shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida bajariladigan har bir harakat va qarorning qonuniy hamda asoslangan bo'lishi uchun to'la javobgar bo'ladi. Shu bilan birga, u:

1) tergov o'tkazish bilan bog'liq vazifalarni guruh a'zolari bo'lgan tergovchilarga taqsimlab beradi, ularning har biri bajara di gan tergov faoliyati yoki yo'nalishini belgilaydi, ayrim tergov harakatlari bajarishni topshiradi, ularni ijro etish muddatini belgilaydi;

2) shaxsan o'zi tergov harakatlarini bajaradi va rahbarligi ostidagi tergovchilar o'tkazayotgan ayrim tergov harakatlarida ishtirok etadi;

3) qarorlar chiqaradi, shu jumladan shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnomalar qo'zg'atish, ishni to'la yoki uning biror qismini tugatish yoxud to'xtatish haqida qarorlar chiqaradi;

4) prokurorning ko'rsatmalari ijro etilishini ta'minlaydi, JPK 36-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ishni o'z e'tirozlari bilan birga yuqori turuvchi prokurorga yuboradi;

5) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergov harakatlari yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar va ko'rsatmalar beradi, shuningdek, ulardan tergovchilar bajarayotgan tergov harakatlarini o'tkazishda yordam berishni talab qiladi, o'z topshiriqlari, ko'rsatmalari, talablari bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi;

6) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralari to'g'risida taqdimnomalar yuboradi;

7) ayblov xulosasini tuzadi yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi va tasdiqlash uchun ularni ish bilan birga prokurorga yuboradi yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritadi.

*Guruh a'zolari bo'lgan tergovchilar.* Guruh a'zolari bo'lgan tergovchilar guruh rahbarining topshiriqlarini, ko'rsatmalarini bajaradilar va ijro natijalari haqida uni xabardor qiladilar. Tergovchilar guruhiga topshirilgan ish bo'yicha guruh a'zolari bo'lgan tergovchilar tomonidan bajarilgan tergov harakatlarining natijalari mazkur jinoyat ishini yurituviga qabul qilib olgan tergovchi bajargan harakatning natijalari kabi ahamiyatga egadir.

Guruh a'zosi bo'lgan tergovchi guruh rahbari bo'lgan tergovchining topshirig'ini, ko'rsatmasini qonunga xilof yoki asossiz deb hisoblasa, bu haqda u guruh rahbariga o'z e'tirozlarini bildiradi. Guruh rahbari bo'lgan tergovchi bu e'tirozlarni ko'rib chiqib, topshiriqni yoki ko'rsatmani bekor qiladi yoki uni ijro etish uchun boshqa tergovchiga beradi yoxud o'zi tegishli tergov harakatini bajaradi. Guruh a'zosi bo'lgan tergovchi o'z e'tirozlari bo'yicha tergovchilar guruhining rahbari qabul qilgan qarorga rozi bo'lmasa, nazorat olib boruvchi prokurorga o'z e'tirozlarini yetkazadi, prokuror uzil-kesil qaror qabul qiladi.

*Tergov harakatining bir necha tergovchilar tomonidan bajarilishi.* Muayyan sharoitlarda va maqsadlarda ko'zdan kechirish, tintuv, eksperiment yoki boshqa tergov harakatlarini o'tkazishda uning ishtirokchilari ayni bir vaqtda turli binolarda bo'lishlari yoki birlaridan ancha masofaga uzoqlashishlari, shuningdek, basharti tergov harakatlarini yuritishda bir qancha ishtirokchilarni yoki hozir bo'lgan shaxslarni kuzatish ta'minlanishi lozim bo'lib qolsa, tergov harakatlarini bir necha tergovchi, surishtiruvchi yoki tergovchining o'zi unga yordam berayotgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxs bilan amalga oshirishi mumkin. Bunda tergovchilardan biri qolgan tergovchilar, surishtiruvchilar va boshqa tergov harakati ishtirokchilari faoliyatiga rahbarlik qiladi.

*Tergovchining va prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat berish.* Dastlabki tergov o'tkazishda, umuman jinoyat ishlarini yuritishda qonuniylikni ta'minlash kafolati sifatida jinoyat protsessining manfaatdor ishtirokchilari yoki o'tkazilgan protsessual

harakat yoki qabul qilingan qaror huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslarga tergovchi va prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat berish huquqi mustahkamlangan. Unga muvofiq, tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat tergov bo'linmasi boshlig'iga va ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishini nazorat qilayotgan prokurorga, prokurorning harakatlari va qarorlari yuzasidan shikoyat esa yuqori turuvchi prokurorga beriladi.

## **XV BOB. SURISHTIRUVNING UMUMIY SHARTLARI**

### **15.1. «Surishtiruvning umumiy shartlari» tushunchasi, tizimi va ahamiyati**

Jinoyat-protsessual qonunchilikdagi o'zgarishlar natijasida surishtiruv institutidagi takomillashtirildi. Surishtiruv jinoyat ishlarini tergov qilishning yangi shakli sifatida belgilandi. Surishtiruv shaklida tergov qilinadigan jinoyatlar ajratildi va ushnga ko'ra surishtiruvning umumiy shartlari qonunda o'z aksini topdi.

*Surishtiruvning umumiy shartlari deganda*, surishtiruvning har tomonlama, to'liq, xolisona, qonuniy amalga oshirilishini, jinoyatni tezda va to'la ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning qoplanishini ta'minlash, shuningdek, sud muhokamasini o'tkazish uchun zarur sharoit yaratadigan, jarayonning tizimli va vakolatlar doirasida tartibli kechishiga hamda samarali bo'lishiga xizmat qiladigan protsess ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan qoidalar yig'indisi tushuniladi.

Surishtiruvning umumiy shartlariga quyidagilar kiradi:

- 1) surishtiruvni amalga oshirishga vakolatli mansabdor shaxslar;
- 2) jinoyat ishining tergov (surishtiruv)ga tegishliligi;
- 3) surishtiruvni amalga oshirishda jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalarining qo'llanilishi;
- 4) surishtiruvchining topshiriqlarini bajarish;
- 5) jinoyat ishini o'tkazish;
- 6) surishtiruvning boshlanishi;
- 7) surishtiruv yuritish muddati;
- 8) surishtiruvning surishtiruvchilar guruhi tomonidan amalga oshirilishi hamda tergov harakatlarining bir necha surishtiruvchilar tomonidan bajarilishi;
- 9) surishtiruvni to'xtatish;

- 10) surishtiruvni tamomlash turlari;
- 11) jinoyat ishini tugatish;
- 12) ayblov dalolatnomasi;
- 13) jinoyat ishi tamomlanganidan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqish huquqini ta'minlash;
- 14) iltimoslar qilish va ularni ko'rib chiqish tartibi;
- 15) jinoyat ishi bilan qayta tanishtirish;
- 16) jinoyat ishining prokurorga yuborilishi;
- 17) surishtiruvchining harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat berish.

## **15.2. Surishtiruvning umumiy shartlari mazmuni**

*Surishtiruvni amalga oshirishga vakolatli mansabdor shaxslar.* Surishtiruvni 1) ichki ishlar organlari; 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari; 3) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari; 4) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalari; 5) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari amalga oshiradilar. Shuningdek, surishtiruvni tergovchilar va prokurorlar ham amalga oshirishlari mumkin. Qaysi organ qaysi jinoyat ishini tergov qilish masalasi tergovga tegishlilik qoidalariga asosan hal etiladi.

*Jinoyat ishining tergov (surishtiruv)ga tegishliliigi* JPK 381<sup>2</sup>-moddasida keltirilgan bo'lib, predmetli, hududiy, maxsus, muqobil va ishlarning aloqasiga oid qoidalardan kelib chiqib belgilangan. Predmetli tergovga tegishlilik qoidalariga ko'ra Jinoyat kodeksining 105-moddasi birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasi birinchi qismida, 111, 112-moddalarida, 113-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 114-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 115-moddasida, 117-moddasi



birinchi qismida, 120-moddasida, 121-moddasi birinchi qismida, 125, 126-moddalarida, 127-moddasi birinchi qismida, 127<sup>-1</sup>-moddasi birinchi qismida, 128-moddasi birinchi qismida, 129-moddasi birinchi qismida, 131-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 132-moddasida, 133-moddasi birinchi qismida, 136-moddasida, 138-moddasi birinchi qismida, 139, 140-moddalarida, 168-moddasi birinchi qismida, 169-moddasi birinchi qismida, 170-moddasida, 171-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 172-moddasida, 173-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 185–185<sup>-1</sup>-moddalarida, 186<sup>-2</sup>-moddasi birinchi qismida, 213-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 214-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 224-moddasida, 225-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 226-moddasi birinchi qismida, 227-moddasida, 228-moddasi birinchi va uchinchi qismlarida, 228<sup>-1</sup>–229<sup>-3</sup>-moddalarida, 244<sup>-4</sup>-moddasi birinchi qismida (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlardan tashqari), 248<sup>-1</sup>-moddasi birinchi qismida, 255<sup>-2</sup>-moddasi birinchi qismida, 259-moddasi birinchi qismida, 260-moddasi birinchi qismida, 260<sup>-1</sup>-moddasi birinchi qismida, 261-moddasida, 262-moddasi birinchi qismida, 263<sup>-1</sup>-moddasi birinchi qismida, 266-moddasi birinchi qismida, 268-moddasi birinchi qismida, 269-moddasi birinchi qismida, 270-moddasi birinchi qismida, 274-moddasi birinchi qismida, 276-moddasi birinchi qismida, 277-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 278-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 278<sup>-1</sup>–278<sup>-6</sup>-moddalarida, 278<sup>-7</sup>-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha surishtiruv ichki ishlar organlarining surishtiruvchilari tomonidan; Jinoyat kodeksining 122, 123, 185<sup>-2</sup>-moddalarida, 232-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning joylardagi bo‘linmalari surishtiruvchilari tomonidan; Jinoyat kodeksining 177, 179, 183-moddalarida, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlardan tashqari), 184<sup>-1</sup>-moddasida, 186-moddasi birinchi qismida, 189–192-

moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari tomonidan; Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 130<sup>1</sup>-moddasida, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 244<sup>3</sup>-moddasida, 244<sup>4</sup>-moddasi birinchi qismida, 250<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari tomonidan; Jinoyat kodeksining 250<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismida (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari) va 259<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari tomonidan tergov qilinadi. Ichki ishlar organlari tizimida surishtiruvni amalga oshiruvchi surishtiruvchilar faqat tuman va shahar ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarida faoliyat olib boradilar.

Muqobillik qoidalariga asosan Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari), 130<sup>1</sup>-moddasida (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari), 167-moddasi birinchi qismida, 244<sup>3</sup>-moddasida (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari) nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ishni qo'zg'atgan organ tomonidan, shuningdek, Jinoyat kodeksining 237-moddasi birinchi qismida, 238-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 239, 240-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat qaysi organning tergoviga tegishli bo'lsa, o'sha organ tomonidan olib boriladi.

Agar surishtiruvni olib borishda boshqa surishtiruv organi tergoviga tegishli yangi jinoyat aniqlansa, ishni yuritayotgan surishtiruv

organi faqat tegishli prokurorning roziligi bilan surishtiruvni to'liq hajmda tamomlashi mumkin.

Agar surishtiruvni olib borishda dastlabki tergov organiga tegishli bo'lgan va tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan yangi jinoyat aniqlansa, prokurorning roziligi bilan jinoyat ishi JPKning 345-moddasida belgilangan tergovning tegishliligiga ko'ra dastlabki tergov organiga o'tkaziladi.

Ishlarning aloqasiga oid tegishlilik qoidalariga ko'ra turli surishtiruv organlariga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, prokuror surishtiruvni olib borishni og'irroq jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining tergovni qaysi organga tegishli bo'lsa shu organga, jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishi bo'yicha uzoqroq muddat davomida surishtiruv olib borayotgan organga topshiradi. Surishtiruv organlari tergovga tegishli bo'lgan jinoyat ishlari boshqa dastlabki tergov organlari tergovga tegishli bo'lgan jinoyat ishlari bilan bitta ish yurituviga birlashtirilganda esa, prokuror tergovni olib borishni JPKning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalariga bo'yicha dastlabki tergov organiga topshiradi. Surishtiruv shaklida tergov qilinishi belgilangan jinoyatlar voyaga yetmaganlar, harbiy xizmatchilar va ayrim mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan holatlarda ushbu ishlar dastlabki tergov shaklida tergov qilinadi.

Hududiy tegishlilik qoidalariga ko'ra jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha tuman (shahar) surishtiruv organining surishtiruvchisiga tegishli bo'ladi. Surishtiruv, agar ish holatlarini ancha tez, puxta, to'la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, ish qo'zg'atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko'pchiligi turgan yerda ham o'tkazilishi mumkin. Yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori turuvchi surishtiruv bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan surishtiruv hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilishi ham mumkin.

*Surishtiruvni amalga oshirishda jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalarining qo'llanilishi.* Surishtiruvni amalga oshirishda jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi, ko'proq ishni sudga qadar yuritish bilan bog'liq jinoyat-protsessual qoidalarga amal qilinadi, jumladan dastlabki tergovning umumiy shartlari, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, dastlabki tergovni to'xtatish, dastlabki tergovni tamomlash tartibiga oid normalarga rioya qilinadi.

*Surishtiruvchining topshiriqlarini bajarish.* Sodir bo'lgan jinoyatlarni ochish va tergov harakatlarini o'tkazishda, surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruv organlariga topshiriqlar, ko'rsatmalar berishi va ularning bajarilishini talab qilish huquqiga ega, shuningdek, o'z yurituvida bo'lgan jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o'zi bajarishga yoxud uni o'tkazishni boshqa surishtiruvchiga topshirishga haqlidir.

Surishtiruvchi o'z ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishlari, shuningdek, tekshiruvidagi jinoyat haqidagi ariza va boshqa xabarlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv organiga protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar berishga haqli.

*Jinoyat ishini o'tkazish.* Jinoyat ishlarini tergov qilishda bir surishtiruvchidan boshqasi, bir surishtiruv bo'linmasidan ikkinchi surishtiruv bo'linmasiga yoki bir organdan boshqa surishtiruv organiga ishni o'tkazishga zarurat yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda JPK 381<sup>-5</sup>-moddasiga asosan harakat qilinadi. Jumladan, jinoyat ishini bir surishtiruv organi doirasida bir surishtiruvchidan boshqa surishtiruvchiga o'tkazish shu surishtiruv organining rahbari yoki surishtiruv bo'linmasi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ishni bir surishtiruv bo'linmasidan boshqasiga o'tkazish yuqori surishtiruv organi rahbari yoki yuqori surishtiruv bo'linmasining boshlig'i tomonidan prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi. Ishni bir surishtiruv organidan boshqa surishtiruv organiga o'tkazish prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tergovning har tomonlama, to'la va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida prokuror quyidagi holatlarda ishni sudga qadar yuritishning har qanday bosqichida jinoyat ishini dastlabki tergov shaklida tergov qilish uchun dastlabki tergov organiga o'tkazishi yoki o'z ish yurituviga olishi mumkin:

1) ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxsni aniqlash uchun dastlabki tergov organlari va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni jalb qilgan holda qo'shimcha tergov va protsessual choralarni qo'llash zarur bo'lganda;

2) JPKning 345-moddasi o'n birinchi qismi 1–5-bandlarida nazarda tutilgan hollarda. Bunda jinoyat ishini o'tkazish haqida prokuror asoslantirilgan qaror chiqaradi.

*Surishtiruvning boshlanishi. Surishtiruv yuritish muddati.* Surishtiruv jinoyat ishi qo'zg'atilgan va ish yurituviga qabul qilinganidan boshlanadi va bir oyda tamomlanishi kerak. Ish ayblov dalolatnomasi bilan, ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni surishtiruv tamomlangan hisoblanadi.

Surishtiruv muddatiga quyidagilar kirmaydi:

1) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt;

2) surishtiruv to'xtatib turilgan vaqt;

3) qo'shimcha surishtiruv o'tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o'tgan vaqt.

Surishtiruvning bir oylik muddati prokuror tomonidan yana yigirma kungacha uzaytirilishi mumkin.

Ish qo'shimcha surishtiruv o'tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek, to'xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda

qo‘shimcha surishtiruv muddati mazkur ishni surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e‘tiboran o‘n kun doirasida belgilanadi.

*Surishtiruvning surishtiruvchilar guruhi tomonidan amalga oshirilishi hamda tergov harakatlarining bir necha surishtiruvchilar tomonidan bajarilishi.* Jinoyat ishi ko‘p mehnat talab etsa, juda murakkab yoki o‘ta dolzarb bo‘lsa, prokuror yoki surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i tomonidan ishning tergov doimiy yoki maxsus tuzilgan surishtiruvchilar guruhiga topshirishi mumkin. Surishtiruvchilar guruhini tuzish tartibi, guruh rahbari va a‘zolarining vakolatlari, shuningdek, tergov harakatlarining bir necha surishtiruvchilar tomonidan bajarilishi tartibi JPKning 354–357-moddalariga asosan tergovchilar guruhini tuzish, guruh rahbarining va guruh a‘zolari bo‘lgan tergovchilarning vakolatlari, shuningdek, tergov harakatlarini bir necha tergovchilar tomonidan bajarish tartibi bilan bir xilda amalga oshiriladi.

*Surishtiruvni to‘xtatish.* Tergov davomida ish yuritishni to‘xtatishga zarurat tug‘ilishi mumkin. Bunday hollarda surishtiruv surishtiruvchining qarori bilan JPKning 364–371-moddalarida belgilangan hollarda va tartibda to‘xtatiladi.

*Surishtiruvni tamomlash turlari.* Surishtiruv jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov dalolatnomasi, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlanadi.

*Jinoyat ishini tugatish.* Surishtiruv jinoyat ishini tugatish bilan tamomlanishi mumkin. Jinoyat ishi JPK 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda tugatiladi. Bu haqda asoslantirilgan qaror chiqariladi.

*Ayblov dalolatnomasi.* Ayblov dalolatnomasi bilan tergovni tamomlash deganda, to‘plangan dalillar ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli bo‘lganida, ya‘ni JPK 82-moddasida belgilangan asoslar isbotlangandan so‘ng ayblov dalolatnomasini tuzish, taraflarga ish

materiallarini tanishtirish va mazmunan ko'rib chiqib hal etilishi uchun ishni sudga yuborishga qaratilgan jarayon tushuniladi. Ayblov dalolatnomasi soddalashtirilgan shaklda tuziladigan va surishtiruvda aniqlangan holatlar, ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, e'lon qilingan ayblovning mazmuni, shuningdek, surishtiruv davomida aniqlangan va ushbu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan tergovni tamomlaydigan protsessual hujjatdir.

*Jinoyat ishi tamomlanganidan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqish huquqini ta'minlash.* Jinoyat ishi tamomlanganidan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqish huquqi ishdan manfaatdor shaxslarning muhim protsessual huquqi bo'lib ishni sudga qadar yuritishning yakunida ta'minlashi zarur. Bunda surishtiruvchi ayblov dalolatnomasini tuzganidan so'ng ayblanuvchi va himoyachiga surishtiruv tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni tikilgan hamda raqamlangan ko'rinishda, hujjatlarning har bir jildini ro'yxati bilan taqdim etadi.

*Iltimoslar qilish va ularni ko'rib chiqish tartibi.* Jinoyat ishi bilan qayta tanishtirish. Ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish bilan tanishib chiqishgach yoki biror sababga ko'ra tanishib chiqishdan bosh tortganlaridan keyin surishtiruvchi ulardan qo'shimcha harakatlarini o'tkazish yoki yangi qarorlar qabul qilish xususida iltimoslari bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Agarda iltimoslar bo'lsa ularni hal etadi. Iltimoslar qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan va qo'shimcha harakatlar o'tkazilgan bo'lsa, manfaatdor ishtirokchilarga ish qaytadan tanishtiriladi.

*Jinoyat ishining prokurorga yuborilishi.* Ayblov dalolatnomasi surishtiruvchi tomonidan imzolanadi va surishtiruv bo'linmasi boshlig'i bilan kelishilganidan so'ng, jinoyat ishi darhol prokurorga yuboriladi.

*Surishtiruvchining harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat berish.* Shikoyat berish gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillarining huquqlari kafolati sifatida belgilangan protsessual norma bo'lib, ishni sudga qadar yuritishda qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Surishtiruvchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar surishtiruv bo'linmasi boshlig'iga yoki ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi.



## **XVI BOB. JINOYAT ISHIDA GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI TARIQASIDA ISHTIROK ETISHGA JALB QILISH**

### **16.1. Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslari va protsessual tartibi. Gumon qilinuvchini so‘roq qilish**

Jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida tergovchi tomonidan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlari va manfaatlari cheklanishi mumkinligi qonuniy tartibga solingan. Bunda surishtiruvchi, tergovchi (ba‘zan prokuror)ning shaxs huquqlarini cheklaydigan harakatlari va qarorlari eng avvalo qonuniy va asoslangan bo‘lishi talab etiladi. Aynan shu maqsadlarda jinoyat protsessining muayyan institutlari kiritilgan. Jumladan, surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida to‘plangan materiallar muayyan shaxs ushbu jinoyatni sodir qilganligini ko‘rsatsa-da, ular uni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda to‘liq asoslantirilmagan taxminlarga tayanib, ayb e‘lon qilish qonun buzilishi va inson huquqlarni buzilishiga olib kelsa, boshqa tarafdin shaxsga ayb e‘lon qilmaslik va odil sudlovni ta‘minlash usullarini qo‘llamaslik surishtiruvchi, tergovchining jinoyatlarni tez va to‘la ochish hamda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qiladi. Bu tergov organlarining vazifalari va jinoyat protsessiga jalb qilingan shaxslarning huquqlari o‘rtasida ziddiyatli holatni yuzaga keltiradi. Aynan shunday holatlarni bartaraf qilish maqsadida gumon qilinuvchi instituti tartibga solingan.

Gumon qilinuvchining ishga jalb qilish asosida, birinchi navbatda muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir qilinganligi haqida taxmin yotadi. Bunday gumon shaxsning huquqlarini cheklaydigan majburlov choralarida o‘z aksini topmaguniga qadar hech qanday huquqiy oqibatga

ega bo'lmaydi. JPKga binoan bunday choralar sifatida ushlab turish va qamoqqa olish ehtiyot chorasini ko'rsatish mumkin.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchining jalb etishning birinchi sharti ushlab turishdir. Ushlab turish birinchidan, muayyan shaxs jinoyat sodir qilganligi haqida gumon mavjud bo'lgan hollardagina, ikkinchidan esa sodir qilingan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lsagina qo'llanilishi mumkin. Gumonning o'zi esa jinoyatni mazkur shaxs sodir qilganligini ko'rsatuvchi obyektiv ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi va JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslardan biri mavjud bo'lsagina, ya'ni: 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa; 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar; 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa; 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa, qo'llaniladi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchining yuzaga kelishining ikkinchi sharti surishtiruvchi, tergovchi va prokuror shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida qaror chiqarishi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jinoyat protsessida ishtirokchi sifatida gumon qilinuvchining yuzaga kelishi uchun bir tomondan shaxs muayyan jinoyatni sodir qilganligi haqida gumonning mavjudligi shart bo'lsa, boshqa tomondan gumon qilinuvchining jinoyat ishida ishtiroki uchun, agar unga nisbatan protsessual majburlov chorasi (ushlab turish) qo'llanilmagan bo'lsa, mazkur gumon ahamiyatga ega emas.

Jinoyat protsessining subyektivi bo'lgan gumon qilinuvchining protsessual maqomi haqidagi, uning protsessda paydo bo'lish asoslari, qaysi paytdan boshlab shaxs gumon qilinuvchi deb hisoblanishi mumkinligi, gumon qilinuvchi qanday huquq va burchlarga ega ekanligi kabi masalalar borasidagi bahs-munozaralar hanuzgacha davom etmoqda.

Protsess ishtirokchisi sifatida gumon qilinuvchini yuzaga keltiradigan yuridik fakt o‘z tarkibiga ko‘ra murakkab va turli protsessual hodisalar – gumon qilish va protsessual majburlash choralari birlashtirgan. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan shaxsga eng og‘ir majburlov choralari ushlab turish va qamoqqa olishni qo‘llanilishi faktining o‘zi jinoyat protsessida gumonni shakllantiruvchi chegarani belgilaydi.

Shu bilan birga, biror jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs ish qo‘zg‘atilgunga qadar ushlangan bo‘lsa va JPKning 225-moddasida nazarda tutilgan tekshirish ushlab turishning asosli ekanligini tasdiqlagan bo‘lsa, tergovchi shaxsni ushlab turish, ish qo‘zg‘atish va ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida to‘xtamlarga kelib, ularni bitta qarorda bayon qiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi tomonidan jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, eng avvalo to‘plangan dalillar majmui, JPK 221-moddasining tegishli bandi va shaxs qilmishining JK Maxsus qismi tegishli jinoiy-huquqiy normasi bilan kvalifikatsiyasiga bevosita bog‘liq. Bunda qarorni chiqarish, uni gumon qilinuvchiga taqdim etish, unga tegishli huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish gumonni ifodalashdir.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish bo‘yicha protsessual harakatlarda quyidagi muhim jihatlarga e‘tibor berish zarur:

- dalillar majmui (ular ayb e‘lon qilish uchun yetarli bo‘lmaydi);
- gumonning ifodalanishi (gumon asoslangan bo‘lishi shart);
- qarorning chiqarilishi;
- qarorning taqdim etilishi;
- huquqlarning tushuntirib berilishi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish natijasida jinoyat ishida markaziy ishtirokchi – gumon qilinuvchi paydo bo‘ladi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar bo‘lishi kerak:

1) gumon qilinuvchi tariqasida jalb etilayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan kuni, oyi va yili;

2) gumonning mazmuni, ya’ni shaxsning qanday jinoyatni sodir qilganlikda gumon qilinishiga bog‘liq jinoyat hodisasi, u sodir etilgan joy, vaqt va boshqa muhim holatlar bayoni;

3) Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutgan moddasi, qismi, bandi aks ettirilishi lozim.

Shaxs Jinoyat kodeksining turli moddalari, qismlari yoki bandlarida nazarda tutilgan bir necha jinoyatni sodir etishda gumon qilinganida, bu jinoyatlardan har birining mohiyati va yuridik tavsifi alohida ko‘rsatilishi lozim.

Qarorning xulosa qismida mazkur shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risida to‘xtamga kelinganligi ifodalanishi lozim (JPK 360-m.).

Qaror gumon qilinuvchiga u birinchi marta so‘roq qilinguniga qadar e‘lon qilinadi. Ayni vaqtda unga JPKning 48-moddasida nazarda tutilgan gumon qilinuvchining huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi. Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e‘tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma‘lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan holi uchrashish (JPK 230-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno); ushlanganidan keyin yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishini talab qilish; o‘ziga nisbatan qo‘rilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to‘g‘risida ko‘rsatuvlar berish yoxud ko‘rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish; o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalani huquqini shaxsan o‘zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar

taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

So'ngra surishtiruvchi yoki tergovchi JPKning 111-moddasiga muvofiq, himoyachining gumon qilinuvchini birinchi so'roq qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi, bunda gumon qilinuvchi qo'yilgan gumonni rad etish maqsadida o'zini himoya qilish masalalari bo'yicha himoyachi bilan yolg'iz gaplashish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi surishtiruvchi yoki tergovchiga aniq bir himoyachi kerakligini shaxsan aytishi mumkin yoxud surishtiruvchi yoki tergovchi unga himoyachini ta'minlashi kerak. Bunda gumon qilinuvchi bilan tegishli advokatlik firmasi beradigan order asosida bitim tuziladi. Agar gumon qilinuvchining iltimosiga ko'ra yoxud uning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoxud ajrim O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e'tiboran, to'rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlashi shart.

Surishtiruvchi yoki tergovchi himoyachining huzurida gumon qilinuvchiga u qaysi jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligini e'lon qiladi va uni so'roq qiladi. So'roqdan so'ng gumon qilinuvchi tegishli so'roq bayonnomasini imzolagach, vaqtinchalik saqlash hibsxonasiga kiritib qo'yiladi va ushlangan paytdan boshlab 48 soat mobaynida tergovchi gumon qilinuvchiga ayb qo'yish uchun uning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini ko'rsatuvchi ishonchli dalillarni aniqlashi shart.

Gumon qilinuvchi ishda o'z manfaatlarini himoyachi qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Uning huquq va majburiyatlari JPKning

48-moddasida belgilangan. Uning huquq va majburiyatlari juda keng, biz undan isbotlash jarayoniga taalluqli bo'lganiga to'xtalib o'tamiz. Gumon qilinuvchining o'ziga qo'yilgan gumon yuzasidan va ishning boshqa har qanday holatlari bo'yicha ko'rsatuv va tushuntirishlar berish huquqini ro'yobga chiqarish uchun tergovni olib boruvchi shaxslar, sud unga gumon, gumonning mohiyatini tushuntirib berishga, uni qonunda ko'rsatilgan muddatda so'roq qilishga majbur.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan bir qatorda turli masalalar (ishni tugatish, qo'shimcha dalillar talab qilish, qo'shimcha tergov harakatlari yuritish, himoyachi ishtiroki to'g'risida va h.k.) bo'yicha iltimosnoma berishga haqli. Iltimosnomalar surishtiruv, dastlabki tergov davomida berilishi mumkin. Isbotlash jarayonida bu subyektlar buzilgan huquqlarini yuqorida ko'rsatilgan huquqlari – iltimosnomalar, shikoyatlar berish orqali tiklaydilar, lekin bu qonun buzilishlarini mustaqil ravishda bartaraf etish imkoniyatiga ega emaslar.

Dalillar taqdim qilish huquqi nafaqat ko'rsatuvlar berish, ashyoviy dalillar va hujjatlar taqdim qilish, balki tergov harakatlarini yuritishda shaxsan ishtirok etish imkoni orqali u yoki bu dalilni talab qilib olish to'g'risida iltimosnoma berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Himoyachiga berilgan qonuniy huquqlar hajmi o'z himoyasi ostidagi shaxsnikiga qaraganda birmuncha kengroq. JPKning 53-moddasiga ko'ra, himoyachi dalillar taqdim etish bilan birga, turli tashkilotlar, muassasa va korxonalaridan turli hujjatlarni so'rab olish, ekspertlar, mutaxassislar, guvohlarga savollar berishga ham haqli. Bundan kelib chiqadiki, agar gumon qilinuvchi himoyachiga ega bo'lmasa, uning dalillarni to'plashdagi imkoniyatlari cheklanadi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish harakatining ahamiyati protsessda yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi; shu paytdan boshlab himoyachining ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi; jinoyat ishi bo'yicha tekshiruv predmetining aniqlanishida namoyon bo'ladi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish paytiga kelib isbotlash predmetini tashkil qiluvchi holatlarning

hammasini aniqlash talab etilmaydi. Bu tergovning turli bosqichlarida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan faktlar doirasi turlicha bo'lishi haqidagi qoidadan kelib chiqadi.

JPKning 360-moddasiga ko'ra jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish paytiga kelib quyidagilar aniqlanishi talab etiladi:

a) jinoyat hodisasi (u sodir etilgan vaqt, joy, usul);

b) jinoyatni ushbu shaxs sodir etganligi to'g'risida gumon qilish uchun asos (JPK 221-m.);

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish chog'ida hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biri shaxsning gumon qilishga yetarli asos bo'lganligini ishonchli va to'liq aniqlashdir. Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish paytida tergovchining aybdorlik haqidagi ishonchli xulosasi bo'lmaydi va to'la-to'kis deb hisoblanishi mumkin emas. Bu o'rinda gap mish-mishlar va taxminlarga emas, balki faktlarga asoslangan ehtimollik haqida boradi, zero qaror bu holda dalillarning to'liq bo'lmagan majmuiga asoslanadi. Ishonchli xulosaga faqat dalillar yetarli bo'lgandagina kelinadi va gumon qilinuvchi ayblanuvchiga aylanishi mumkin. Ammo ishonchli xulosa haqidagi konsepsiya amaliyotda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning noxolisligiga olib kelishi va gumon qilinuvchining himoyalanih huquqi jiddiy cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish haqida qaror chiqarar ekan, to'plagan dalillari ziddiyatsiz ekanligiga hamda gumon qilinuvchi tariqasida jalb qilish uchun yetarli asos bo'lganligi to'g'risida xulosaga olib kelishiga, uni istisno qiluvchi boshqa holatlarning yo'qligiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Ayni paytda tergovchi yetarli bo'lmagan dalillarga asoslangan gumondorlik haqidagi xulosasini ishonchli va oxirgi xulosa deb hisoblash mumkin emasligi, yangi dalillar olish va tekshirish qo'yilgan gumonni muayyan darajada o'zgartirishi mumkinligini anglashi kerak.

Gumon qilinuvchini so'roq qilish – kechiktirib bo'lmas tergov harakati bo'lib, uni taktik jihatdan o'tkazish xususiyatlarini belgilab

beradi. Birinchidan, gumon qilinuvchini so‘roq qilish uchun qonunga asosan 24 soat belgilangan. Ikkinchidan, surishtiruvchi, tergovchida so‘roqni boshlashdan avval aniqlangan va tegishli tartibda to‘planagan dalillar yig‘indisi bo‘lishi kerak va ularga asoslanib mazkur shaxsni jinoyat sodir etganligi bo‘yicha gumon qilishi uchun asoslarga ega bo‘ladi. Uchinchidan, gumon qilinuvchining shaxsi amaliy jihatdan o‘rganilgan bo‘lishi kerak.

Shuning uchun surishtiruvchi, tergovchi protsessual qonunning so‘roq qilish tartibiga oid talablarini so‘zsiz bajarishi lozim. Bunda u gumon qilinuvchiga uning qanday jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganini e‘lon qiladi (shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtiradi), JPKning 48-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi va so‘roq qilinuvchi uni imzolaydi. Shundan so‘ng gumon qilinuvchiga gumon bilan bog‘liq holatlar to‘g‘risida gapirib berishni taklif qiladi.

Agar gumon qilinuvchi ko‘rsatuv berishdan voz kechsa, u holda surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchidan uning nima uchun ko‘rsatuv berishni istamayotganligi va uning sababini aniqlashi kerak va unga dastlabki tergovda yuzaga kelgan gumonga qarshi qonuniy himoyalanihdan voz kechayotganligini tushuntirib, shu shaxsga ko‘rsatuv berishiga da‘vat qilishi kerak. Agar surishtiruvchi, tergovchida shubha uyg‘otmaydigan ishonchli dalillar bo‘lsa va ular asosida gumon ham asoslangan ta‘rifga ega bo‘lsa, ushbu dalillar gumon qilinuvchiga to‘liq hajmda yoki qisman ko‘rsatishi hamda gumon qilinuvchidan shu dalillarga nisbatan qanday fikrga egaligi to‘g‘risida so‘rashi mumkin.

Agar gumon qilinuvchi sodir etilgan jinoyatga daxli yo‘qligini ta‘kidlasa, bu holda ishontirish usullarini qo‘llab uni to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berishga undashi kerak. Gumon qilinuvchining shaxsini inobatga olgan holda quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

- gumon qilinuvchiga uning ko‘rsatuvlarini ishga to‘g‘ri kelmasligini ta‘kidlab, haqiqatni gapirib berishni tavsiya qilish;
- chin ko‘ngildan aybini bo‘yniga olishi belgilangan javobgarlik va uning huquqiy oqibatlari yengilroq bo‘lishini tushuntirishi;



– so‘roq qilinuvchiga ish bo‘yicha to‘ldiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish;

– so‘roq qilinuvchiga jinoyatga aloqador biron-bir obyektning namoyish qilishi (masalan, gazeta bilan yopilgan va hodisa sodir bo‘lgan joydan olingan ashyoviy dalilni tasodifiy ravishda so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatib qo‘yishi);

– gumon qilinuvchiga uning ko‘rsatuvlaridan tashqari ish bo‘yicha to‘plangan va uning jinoyatga aloqadorligini bevosita tasdiqlaydigan dalillar mavjudligini tushuntirishi (masalan, ekspert xulosasini tanishtirish va hokazo);

– surishtiruvchi, tergovchi o‘z ixtiyorida dalillarning hajmi kattaligi to‘g‘risida gumon qilinuvchida tasavvur hosil qilishi lozim.

Dalillarni taqdim etishdan avval surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchini ushbu dalillar bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar to‘g‘risida so‘roq qilishi shart. Bunday qoida gumon qilinuvchini kelajakda o‘z aybini yashirish uchun taqdim etilgan dalillarning nomaqbulligi to‘g‘risidagi da‘volarining oldini olish uchun kerak.

Gumon qilinuvchiga uni fosh etuvchi ko‘rsatuvlarni keltirishdan avval uni guvoh bilan bo‘lgan munosabatini aniqlash kerak. Dalillar har xil ketma-ketlikda taqdim etiladi. Odatda dalillar ular daliliy ahamiyatining o‘sib borish ketma-ketligi bo‘yicha taqdim etiladi. Bu usul gumon qilinuvchi tomonidan jinoyatga aloqadorligini inkor etish hollarida samarali yordam beradi. Ba‘zi hollarda gumon qilinuvchining haqqoniy ko‘rsatuvlar berishi uchun unga ish bo‘yicha katta ayblov ahamiyatga ega bo‘lgan dalilni taqdim etish mumkin.

Xulosa o‘rnida gumon qilinuvchini samarali so‘roq qilishda quyidagi bir qator taktik masalalarni hal qilish lozim:

so‘roq predmetini aniqlash;

so‘roq qilinuvchining shaxsini aniqlash;

so‘roq qilishning taxminiy rejasini tuzish;

so‘roqning boshqa qatnashchilarini belgilab, ularning ishtirok etishini ta‘minlash;

so‘roq qilish vaqti va joyini belgilash;

so‘roq jarayonida ish bo‘yicha zarur ashyoviy dalillarni, ish materiallarini tayyorlab qo‘yish;

so‘roqni qayd etish maqsadida zarur ovoz va videoyozuv jalb qilish» kabi tushunchalar bir ma’noda ishlatilib kelinayotganini uchratish mumkin. Umuman bu tushunchalar bitta jarayonni, ya’ni muayyan shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilinishini ifodalasada ularni aynanlashtirmaslik lozim. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish tergovchining to‘plangan dalillar majmuidan kelib chiqib, bu to‘g‘risida qaror chiqarishdan, ushbu qarorni ayblanuvchiga taqdim etib, ayni paytda unga tegishli huquqlarini tushuntirib berishdan kelib chiquvchi ayblovni ifodalashdir.

## **16.2. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish tartibi. Ayblanuvchini so‘roq qilish**

Amaldagi JPKning 360–361-moddalariga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha muayyan shaxsning shu jinoyatni sodir etganligi to‘g‘risida yetarli dalillar to‘plangandan so‘ng, surishtiruvchi, tergovchi shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Ushbu protsessual hujjat bilan shaxsga ayb e’lon qilinishi jarayoni boshlanadi.

Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror uch qismdan iborat bo‘ladi:

1. Kirish qismi. Unda qarorning nomi, chiqarilgan vaqti va joyi, uni chiqargan vakolatli mansabdor shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi, jinoyat ishining tartib raqami ko‘rsatiladi.

2. Tavsif-asoslantirish qismida quyidagilar aks ettiriladi:

ayblovning mazmuni, ya’ni shaxsning zimmasiga qo‘yilayotgan jinoyat hodisasi, u sodir etilgan joy, vaqt va boshqa muhim holatlar bayoni;

ayblanuvchi tariqasida jalb etilayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tugʻilgan kuni, oyi va yili;

Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutgan moddasi, qismi, bandi aks ettirilishi lozim.

Shaxs Jinoyat kodeksining turli moddalari, qismlari yoki bandlarida nazarda tutilgan bir necha jinoyatni sodir etishda ayblanganida, bu jinoyatlardan har birining mohiyati va yuridik tavsifi alohida koʻrsatilishi lozim.

3. Xulosa qismida mazkur shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish toʻgʻrisida toʻxtamga kelinganligi ifodalanishi lozim (JPK 361-m.).

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish natijasida jinoyat ishida markaziy ishtirokchi – gumon qilinuvchi va ayblanuvchi paydo boʻladi.

Jinoyatlarni tergov qilishning butun tizimi uch bosqichga boʻlinadi. Ular:

1) jinoyat ishi qoʻzgʻatishdan boshlab jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishgacha;

2) jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishdan boshlab, dalillar toʻplashni tugatish haqida qaror qabul qilinguncha;

3) jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilgandan keyin surishtiruv va dastlabki tergovni yakunlash. Bungacha kechiktirib boʻlmas tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari oʻtkaziladi.

Jinoiy javobgarlikka tortish holati shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida qaror chiqarilishidan boshlanadi.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish harakatining ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

1) protsessda yangi ishtirokchilarning paydo boʻlishi;

2) shu paytdan boshlab himoyachining ishtirok etishiga yoʻl qoʻyilishi;

3) jinoyat ishi bo'yicha tekshiruv predmetining aniqlanishi;

4) javobgarlik muddatini hisoblash uchun oxirgi nuqta bo'lib xizmat qilishi.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishning o'z vaqtida bo'lishi jinoyat protsessida demokratiyaning yorqin belgisidir.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga o'z vaqtida jalb qilishning zarurligi JPKning 110-moddasida belgilangan bo'lib, unga asosan surishtiruvchi, tergovchi darhol qaror chiqaradi. Ushbu protsessual harakatni kechiktirib yuborilishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayblovning o'z vaqtida qo'yilishini idoraviy nazorat va prokuror nazorati ta'minlashi kerak.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslarini jinoiy javobgarlik asoslaridan farqlash kerak, ular bir xil emas (jinoyat hodisasi, shaxsning aybliligi), ammo mazmunan aloqadordir. Bu aloqa jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishning jinoiy javobgarlik belgilashda boshlang'ich nuqta ekanligida namoyon bo'ladi.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslari shaxsning jinoyat sodir etganligini ko'rsatuvchi yetarli dalillar majmuidir.

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishga yetarli bo'lgan dalillar majmuini aniqlash uchun quyidagi ikki holatni aniqlash lozim:

1) ayb qo'yilguniga qadar qaysi faktlar aniqlanishi kerak, ya'ni nimani aniqlash kerakligi;

2) surishtiruvchi, tergovchining ushbu faktlar mavjudligi haqidagi xulosasi qanchalik darajada ishonchli bo'lishi kerakligi talab etiladi.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish paytiga kelib isbotlash predmetini tashkil qiluvchi holatlarning hammasini aniqlash talab etilmaydi. Bu tergovning turli bosqichlarda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan faktlar doirasi turlicha bo'lishi haqidagi qoidadan kelib chiqadi.

JPK 360 va 361-moddalarini qiyosiy tahlil qilishning ko'rsatishicha, jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish paytiga kelib quyidagilar aniqlanishi talab etiladi:

- a) jinoyat hodisasi (u sodir etilgan vaqt, joy, usul);
- b) jinoyatni ushbu shaxs sodir etganligi;
- v) ushbu shaxsning mazkur jinoyatni sodir etganlikda aybdorligi, ya'ni isbotlashning dastlabki ikki elementini aniqlash talab etiladi, xolos (JPK 82-m. 1, 2-b.). Boshqa elementlarni aniqlash (JPK 82-m. 3, 4, 5-b.) – tergovning keyingi vazifasiga kiradi.

Ushbu holatlar orasida jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatadigan hollar, ya'ni ayb shakli, sudlanganlik, takroriylik, zarar miqdori kabilar bundan mustasno.

So'roq qilish – shaxsning oldiga bo'lib o'tgan voqeani xotirada tiklash va axborotni og'zaki shaklda berish vazifasini qo'yib, undan jinoyat ishining muhim holatlari haqidagi ma'lumotlarni olishdan iborat tergov harakati. Ayblanuvchini so'roq qilish ikki xil, ya'ni dalillar manbai va himoya vositasi vazifalarini bajaradi.

Ayblanuvchini so'roq qilishning protsessual tartibi bir qator elementlardan tashkil topadi: so'roq qilish vaqti, joyi, ishtirokchilari, mazmuni hamda ko'rsatuvlarni qayd etish.

JPK 110-moddasining birinchi qismiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchini unga ayb qo'yilganidan so'ng darhol yoki bo'yin tovlayotgan bo'lsa, ayblanuvchi ushlangan, so'roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilganidan keyin 24 soatdan kechiktirmay so'roq qilishi kerak. Kechiktirib bo'lmas holat bo'lmasa, shaxsni tunda so'roq qilish taqiqlanadi. Agar bu vaqtda so'roq qilish imkoni bo'lmasa, kechiktirish sabablari birinchi marta so'roq qilish bayonnomasida ko'rsatiladi. Ayblanuvchi surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkaziladigan joyda so'roq qilinadi. Surishtiruvi, tergovchi agar zarur deb topsa, ayblanuvchi kasal bo'lsa, u davolanayotgan joyda so'roq qilishi mumkin. Tergovchi, surishtiruvchi so'roq qilish uchun zarur bo'lgan ishtirokchilar – qonuniy vakil, pedagog, tarjimon, himoyachini taklif qilish uchun oldindan harakat qilishi kerak.

Surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchini birinchi marta so‘roq qilishdan oldin uning ayblovga munosabatini, ya’ni o‘zini aybli hisoblashi-hisoblamasligini yoki o‘z aybini to‘la yoxud qisman rad etishi yoki etmasligini aniqlashi shart (JPK 111-m.). Ushbu masala hal qilinganidan so‘ng ayblanuvchiga qo‘yilgan ayb yuzasidan tushuntirish berish taklif qilinadi. Tergovchi ayblanuvchining ko‘rsatuvlarini eshitadi, bayonnomaga yozib boradi, zarur hollarda savollar beradi.

Ayblanuvchini so‘roq qilish haqida surishtiruvchi, tergovchi bayonnoma tuzadi (JPK 106-m.), unda ayblanuvchining shaxsiga oid ma’lumotlar qayd etiladi. Uning ko‘rsatuvlari bayonnomaga birinchi shaxs nomidan va imkon qadar so‘zma-so‘z kiritib boriladi. Zarur hollarda bayonnomada berilgan savollar va olingan javoblar ko‘rsatiladi. So‘roq qilish tugaganidan so‘ng surishtiruvchi, tergovchi bayonnomani o‘qib chiqish uchun ushbu protsess ishtirokchilariga taqdim etadi yoki ularning iltimosiga ko‘ra o‘qib beradi.

Ayblanuvchi bayonnomaga zarur qo‘shimcha va tuzatishlar kiritishni talab qilishga haqlidirlar. Ayblanuvchi bayonnomaning har bir betiga, surishtiruvchi, tergovchi hamda so‘roqda ishtirok etgan boshqa shaxslar oxiriga imzo chekadilar.

### **16.3. Ayblovni o‘zgartirish, tugatish va to‘ldirish. Tugatilgan ayblovni qayta tiklash**

Ayblov turli holatlarda o‘zgartirilishi mumkin. Bunday hollarda ayblanuvchining aybini og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi yangi dalillar to‘planishi kerak.

Ayblanuvchiga nisbatan jinoyat ishi bo‘yicha qo‘shimcha faktlar aniqlangan bo‘lsa, ayblov to‘ldirilishi zarur. Agar ayblanuvchiga ayb sifatida qo‘yilgan JK moddasi, qismi yoki bandi yuridik jihatdan noto‘g‘ri yoritilgan bo‘lsa va uning ish bo‘yicha harakatlari boshqa modda bilan tavsiflanadigan bo‘lsa, ayblov o‘zgartiriladi. Bundan tashqari, agar ayblanuvchining jinoyat ishida boshqacha tarzda ishtirok

etganligi aniqlansa yoki uning jinoiy faoliyati bosqichlari qarorda noto'g'ri qayd etilgan bo'lsa, ushbu hollarda qaror o'zgartirilishi va yangitdan ayb qo'yilishi zarur. Agar jinoiy harakatlarning yuridik jihatdan yoritilishi avvalgi holda qoldirilsayu, faktik holatlarning xususiyatigina o'zgartiriladigan bo'lsa, dastlabki ayblov ham o'zgartirilishi kerak.

Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi yangi qaror ayblanuvchiga e'lon qilinadi. Ayrim hollarda tergovchilar yangi ayblovdan to'liq foydalanmagan holda, ayblovni «qo'shimcha sifatida» yangi faktlar asosidagina taqdim etadilar, ilgari e'lon qilingan faktlarni esa ushbu qarorda keltirmaydilar, natijada ayblov to'la hajmda taqdim etilmaydi va jinoyat ishini sud qo'shimcha tergovga qaytarishi mumkin. Shu bois yangi ayblovda avvalgi qarorda ko'rsatilgan va yangi aniqlangan jinoyat voqealari tavsiflanishi kerak, aks holda to'liq taqdim etilmagan ayblovni sud qo'shimcha tergov o'tkazish uchun qaytarishi mumkin.

Ayblov o'zgartirilgan yoki unga qo'shimchalar kiritilgan taqdirda ayblanuvchini uning protsessual huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish zarur. Bu to'g'rida ayblanuvchi bilan birga surishtiruvchi, tergovchi qarorga belgi qo'yadi va uni imzolaydi. Agar prokuror jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarsa, surishtiruvchi, tergovchi yangi ayb qo'yishi hamda ayblanuvchini har bir voqea bo'yicha so'roq qilishi kerak, aks holda jinoyat ishi takroriy tergov uchun qaytarilishi lozim.

Ayblanuvchining rehabilitatsiya etilishi uchun asos bo'ladigan yoki JPK 83-moddasining birinchi, to'rtinchi qismlarida nazarda tutilganidek, ishni yuritishga to'sqinlik qiluvchi asoslar aniqlansa, ayblov tugatiladi. Ayblovning tugatilishi haqida tergovchi qaror chiqaradi va ayni paytda xuddi shu qaror bilan ayblanuvchiga qo'llanilgan ehtiyot chorasini, mol-mulkining xatlanishini, lavozimdan chetlashtirilishini bekor qiladi hamda shaxsga yetkazilgan zararni qoplatish huquqini tushuntirib beradi. Qarorning nusxasi darhol topshirilishi yoxud ushbu shaxs nomiga jo'natilishi kerak.

Agar Jinoyat kodeksi yoki JPK normalarini qo'llashdagi xatolar natijasida jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, shuningdek, ayblanuvchining aybdorligini ko'rsatuvchi yangi dalillar aniqlansa, tugatilgan ayblov qayta tiklanishi mumkin. Bunday hollarda, shuningdek, ayblovni odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatning yoki ayblanuvchining yoxud uning iltimosi yoki roziligi bilan harakat qilgan o'zga shaxsning dalillarni qalbakilashtirishi, yashirishi yoxud yo'q qilib yuborishi oqibatida noto'g'ri tugatilgan bo'lsa, ayblov Jinoyat kodeksining 64-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddati ichida qayta tiklanishi mumkin (JPK 363-m.)

Agar ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atilgan ayblov tugatilgan bo'lsa, keyinchalik u ayblanuvchi yoxud uning roziligi bilan harakat qilgan boshqa shaxsning guvohlar va jabrlanuvchilar hamda boshqa shaxslarga, masalan, ishtirokchilarga, ularni jinoyat hodisasi mavjud bo'lmaganligi haqida ko'rsatuv berishga undash maqsadida ta'sir etganligi sababli, shuningdek, ish bo'yicha dalillarni qalbakilashtirish, yashirish yoki yo'q qilib yuborish oqibatida qayta tiklanadi.



## **XVII BOB. SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISH HAMDA QAYTA TIKLASH**

### **17.1. Surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning mohiyati va asoslari**

Jinoyat ishi yuritishni to‘xtatish deganda, jinoyat ishini yuritishdagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solingan, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning qarori bilan rasmiylashtirilgan vaqtinchalik tanaffus tushuniladi. Ushbu tanaffus vaqtida mazkur mansabdor shaxslar va ular ishlaydigan organlar jinoyat ishi yuritishni to‘xtatishga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish choralarini ko‘radilar.

JPKning 364-moddasiga muvofiq, dastlabki tergov:

- 1) ish bo‘yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmagan;
- 2) ayblanuvchining qayerda ekanligi noma‘lum bo‘lgan;
- 3) ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta‘minlash imkoniyati bo‘lmasa;
- 4) ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda to‘xtatiladi.

Jinoyat ishi yuritishni to‘xtatishning mazkur holatlari har qanday tergov yoxud protsessual harakatni jinoyat ishini qayta tiklamay turib o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi huquqiy shartlardir. Shu bois mazkur shartlarning mavjudligi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning tergovni to‘xtatish majburiyatini yuzaga keltiradi.

Jinoyat ishi yuritishni to‘xtatishning ushbu asoslari surishtiruvga ham tegishli bo‘lib, JPKning 364-moddasida belgilangan hollarda surishtiruvchi o‘z qarori bilan jinoyat ishini yuritishni to‘xtatadi.

Shu bilan birga, surishtiruvchi tomonidan faqat ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e‘lon qilinishi mumkin.

Agar surishtiruv ushbu JPKning 364-moddasi 1-bandida belgilangan asoslarga ko‘ra to‘xtatilgan bo‘lsa, surishtiruvchi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar orqali ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxsni aniqlash va uni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi shart.

Surishtiruv, dastlabki tergov JPK 364-moddasining 1–4-bandlarida nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelgan vaqtdan boshlab to‘xtatiladi. Lekin tergov to‘xtatilguniga qadar surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchi yo‘qligida amalga oshirish mumkin bo‘lgan barcha tergov harakatlarini bajarishi shart.

Surishtiruv, dastlabki tergovning qonunda belgilangan muddatlari jinoyat ishi yuritish to‘xtatilganda o‘tmagan hisoblanadi. Surishtiruvchi, tergovchi tergov to‘xtatilguniga qadar ayblanuvchining ishtirokisiz bajarish mumkin bo‘lgan barcha tergov harakatlarini amalga oshirishi, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash choralarini ko‘rishi kerak. Jinoyat ishi yuritish to‘xtatilganda JKning 64-moddasida belgilangan javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketsa to‘xtatilgan jinoyat ishi tugatilishi lozim.

## **17.2. Surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning tartibi**

Surishtiruv yoki dastlabki tergov surishtiruvchi, tergovchining asoslantirilgan qarori bilan to‘xtatiladi, qarorning nusxasi prokurorga yuboriladi. Agar jinoyat ishi bo‘yicha ikki yoki undan ortiq nafar ayblanuvchilar jalb etilgan bo‘lsalar, lekin to‘xtatish uchun asoslar barcha ayblanuvchilarga taalluqli bo‘lmasa, surishtiruvchi, tergovchi ayrim ayblanuvchilarga nisbatan jinoyat ishini ajratishga va to‘xtatishga yoki butun ish yuritishni to‘xtatishga haqli bo‘ladi.

JPKning 369-moddasida tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorning mazmuni tartibga solingan. Ushbu qaror uch qismdan: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘lishi kerak.

Qarorning kirish qismida u tuzilgan kun, oy va yil; joy; tuzuvchining lavozimi, harbiy yoki maxsus unvoni, familiyasi, ismi va

otasining ismi; ushbu qaror chiqarilgan jinoyat ishining materiallari ko'rsatilishi kerak.

Tavsif-asoslantirish qismida sodir etilgan jinoyatning mohiyati, u sodir etilgan vaqt va joy, hodisa joyini ko'zdan kechirish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish natijalari, jinoyat sodir etish usuli, motivlari va boshqa holatlari dastlabki tergovda aniqlangan darajada ko'rsatilgan holda bayon etiladi.

Jinoyatni sodir etish holatlari ishonchli bo'lishi, jinoyat ishi materiallari bilan muayyan darajada tasdiqlashlari kerak. Tergovchi qarorda ko'rsatgan holatlarning haqiqiylikiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risidagi qarorning noma'lum jihatlarini turli taxminlar bilan to'ldirish mumkin emas.

Ayblanuvchi bir necha jinoyat sodir etgan taqdirda har bir voqeaning holatlari alohida bayon etiladi hamda har bir voqea Jinoyat kodeksining qaysi moddasi va qismi bo'yicha tavsiflanishi haqida bayon etiladi. Agar jinoyatni bir necha ayblanuvchi sodir etgan bo'lsa, qarorda ulardan har biri qaysi qilmishni sodir etganligi va har birining jinoyat sodir etishdagi o'rni ko'rsatiladi. Jinoyat sodir etilishining holatlari tavsiflanganidan so'ng qarorda dastlabki tergovni to'xtatish asoslari, jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va qidirib topish uchun ko'rilgan choralar bayon qilinadi.

Xulosa qismida surishtiruvchi, tergovchi tergovni to'xtatish haqidagi qaror bilan bir qatorda jinoyat sodir etgan shaxsni (agar bunday shaxs aniqlanmagan bo'lsa) aniqlash borasida olib borilayotgan qidiruv harakatlarini davom ettirish haqidagi to'xtam ko'rsatiladi.

Ayni paytda surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risidagi qarorda jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etilishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan taqdirda har doim ham jinoyat sodir etilgan aniq vaqt va joyi ko'rsatishning, shuningdek, sodir etilgan joyning boshqa holatlarini yetarlicha to'liq tavsiflashning imkoni bo'lmasligini inobatga olish lozim. Bu «kamchiliklar» bunday qarorni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Lekin agar prokuror surishtiruvchi,

tergovchi surishtiruv yoki dastlabki tergovni ayblanuvchining ishtirokisiz o'tkazish mumkin bo'lgan barcha tergov harakatlarini amalga oshirmay turib, to'xtatganligini aniqlasa, o'z qarori bilan tergovchining ushbu qarorini bekor qilishi hamda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash uchun qo'shimcha ravishda bir qator tergov harakatlari o'tkazishni topshirishi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi tergovni to'xtatganligi haqida jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillariga xabar qiladi.

### **17.3. Qidiruv e'lon qilish**

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb etilgan shaxsning qayerdaligi noma'lum bo'lgan hollarda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov to'xtatilishidan oldin surishtiruvchi, tergovchi bunday shaxsni topish maqsadida qidiruv e'lon qiladi.

Ayblanuvchining turgan joyi noma'lum bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi uning turgan joyini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha choralarni ko'rishi, zarur hollarda esa, unga nisbatan qidiruv e'lon qilishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi faqat ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi to'g'risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilishga haqli.

Qidiruv surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkazilayotganida ham, shuningdek, u to'xtatilganidan keyin ham e'lon qilinishi mumkin.

JPKning 242 va 243-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda qidirilayotgan ayblanuvchi topilgan taqdirda, sudning ajrimi bilan unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Qidirilayotgan ayblanuvchi ushlangan taqdirda u ushlangan joydagi prokuror ushlangan shaxsning qidirilayotgan ayblanuvchi ekanligini aniqlashi va qamoqqa olish uchun qonuniy asoslar mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Aynan tergovchi jinoyatni ochishning tashkilotchisi bo'lishi kerak. Bunga jinoyat qidiruv bo'linmasi va jamoatchilik bilan hamkorlikda erishiladi.

Qidiruv e'lon qilish to'g'risidagi qaror jinoyat-qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'limiga yuborilganidan so'ng tergovga qadar tekshiruv organlari va ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari jinoyat sodir etgan shaxsni qayerdaligini aniqlash uchun zarur choralarni amalga oshiradilar va erishilgan natijalar haqida tergovchiga xabar berib turadilar. Surishtiruvchi, tergovchi bilan tergovga qadar tekshiruv organlarining hamkorligi ularning jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga qat'iy rioya etgan holda ayblanuvchini qayerda ekanligini aniqlashga qaratilgan faoliyatida namoyon bo'ladi.

Jinoyatni ochish, ayniqsa tergovda samaraga erishilmagan va jinoyat ishi to'xtab qolgan hollarda ko'p vaqt, kuch va vositalar sarflashni talab qiladi. Surishtiruvchi, tergovchining tergovga qadar tekshiruv organlari bilan jinoyatni ochish borasidagi hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi. Hamkorlik shakllari deganda, ushbu organlarning birgalikda kelishib ishlashini ta'minlovchi JPKga asoslangan aniq hamkorlik usullari, jinoyatni tergov qilishdagi o'zaro aloqalari tushuniladi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

- mavjud materiallarni birgalikda o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda keyinchalik to'xtatilgan jinoyat ishi bo'yicha ishlarni kelishgan holda rejalashtirish;

- surishtiruvchi, tergovchi va tergovga qadar tekshiruv organi o'rtasida ularning faoliyati jarayonida muntazam axborot almashish;

- surishtiruvchi, tergovchining topshiriqlari va ko'rsatmalarini tergovga qadar tekshiruv organiga yuborish;

- qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish;

- tergovga qadar tekshiruv organlarining tergov va tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazayotgan tergovchiga yordamlashishi;

- surishtiruvchi, tergovchi va tezkor xodimlar, tergovga qadar tekshiruv organlarining to'xtatilgan ishlar bo'yicha ishlash uchun tuziladigan tezkor tergov guruhlarida birgalikda ishlashi.

Ushbu asos bo'yicha dastlabki tergovni to'xtatish uchun surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchining aynan tergovdan yashirinayotganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Bunday holda shaxs tergovdan yashirinayotganligiga doir ma'lumot bo'lganda, surishtiruvchi, tergovchi unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash haqida qaror chiqaradi. Odatda bunday vaziyatda ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish tanlanadi.

Qidiruv e'lon qilish to'g'risidagi qaror bilan jinoyat qidiruv bo'linmasiga quyidagi hujjatlar yuboriladi:

- a) jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorning nusxasi;
- b) jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorning nusxasi;
- v) qamoqqa olish haqidagi sud ajrimi;
- g) pochta, telegraf xat-xabarlarni xatlash to'g'risidagi qarorning nusxasi;
- d) xorijga chiqish kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limiga, aeroport, vokzal va chegara postlariga ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni ilova qilgan holda uni chiqarmaslik haqida taqiq belgilash to'g'risidagi xat nusxasi;
- e) ayblanuvchining fotosurati yoki uning og'zaki portreti, uni qayerdan izlash lozimligi, nima sababdan yashiringanligi, bunda kim aybdor ekanligi ko'rsatiladigan maxsus shakl (ABD) va h.k.

surishtiruv yoki dastlabki tergovni yuritish bilan bir vaqtda yashiringan ayblanuvchi ham qidiriladi. Biroq qidiruvni boshlashdan avval ayblanuvchi haqiqatan ham yashiringanligini aniqlash va u bironta baxtsizlikka uchramaganligiga (ya'ni vafot etmaganligiga, kasalxonada emasligiga, boshqa ish bo'yicha qamoqqa olinmaganligiga) ishonch hosil qilish kerak.

Qidiruv e'lon qilishdan avval ayblanuvchining shaxsiga doir to'liq va batafsil ma'lumotlarni to'plash zarur. Bu esa, o'z navbatida guvohlarni so'roq qilish, telefon orqali so'zlashuvlarni eshitib turish, tintuv o'tkazish, majburiy keltirish va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash singari kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari o'tkazishni talab qiladi.

Qidiruv vaqtida surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar tekshiruv organlarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi kerak. Qidiruv e'lon qilinganidan so'ng esa u hujjatlarni to'plash bilan shug'ullanishi lozim. Aynan shu vaqtda u ayblanuvchini aniqlash maqsadida uni ushlab bo'yicha turli rejalar tuzadi va surishtiruv, dastlabki tergov davomida rejaga u yoki bu tuzatishlar kiritadi.

#### **17.4. Surishtiruv va dastlabki tergov to'xtatilganidan keyingi harakatlar**

Jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov to'xtatilgan bo'lsa ham tezkor-qidiruv harakatlari davom ettiriladi va muntazam ravishda surishtiruvchi, tergovchiga xabar berib boriladi, tegishli ma'lumotlar bazalari (markazi)dan tekshiruvlar amalga oshirilib turiladi.

Qidiruv vaqtida protsessual harakatlarni tezkor-qidiruv tadbirlari bilan chambarchas bog'lab olib borishi kerak. Surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar tekshiruv organlariga qidiruv o'tkazish haqida topshiriq berishga va ulardan ushbu topshiriq qanday bajarilayotganligi haqida ma'lumot berishni talab qilishga haqlidir.

Mazmuniga ko'ra, qidiruv harakatlari jinoyatni ochishga hamda qonun talablariga muvofiq, tergov o'tkazishga, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topish va ushlabga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining majmui sifatida qaraladi.

Surishtiruvchi, tergovchi qidiruv harakatlarini amalga oshirishda ushbu harakatlar tergovga qadar tekshiruv organlariga taalluqli bo'lgan tezkor-qidiruv choralarga aylanib ketmasligi uchun muayyan talablarga rioya etishi zarur. Ushbu talablarga quyidagilar kiradi:

– surishtiruvchi, tergovchining qidiruv harakatlari faqat oshkora vositalar va usullar bilan, atrofdagilar uchun ochiq holda amalga oshirilishi mumkin, ammo bu gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan, jinoyatga daxldorligi haqida ayrim dalillar mavjud bo'lgan shaxsdan yashirincha o'tkazilishini istisno etmaydi;

– qidiruv harakatlarini o‘tkazayotgan surishtiruvchi, tergovchi har doim rasmiy shaxs sifatida harakat qilishi lozim.

Surishtiruvchi, tergovchining to‘xtatilgan ish bo‘yicha tashkiliy va qidiruv harakatlari bilan bir qatorda, boshqa ishlar bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni chuqur tekshirish ham jinoyatlarni ochishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, hozirgi vaqtda ilgari yillarda sodir etilgan jinoyatlarning kattagina qismi aynan shu yo‘l bilan ochilmoqda.

Bunday shaxslarni tekshirish surishtiruvchi, tergovchining tegishli tergov harakatlarini o‘tkazishi, shuningdek, uning topshirig‘i bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv organlarining tezkor-qidiruv xususiyatga ega bo‘lgan vositalardan foydalangan holda o‘tkazadigan harakatlari orqali amalga oshiriladi. Tekshirishning asosiy yo‘nalishlarini ayblanuvchining shaxsini, uning o‘tmishi va aloqalarini o‘rganish, ayblanuvchini taktik jihatdan to‘g‘ri so‘roq qilish tashkil qiladi. Bunday so‘roq qilish u sodir etgan barcha jinoyatlarni aniqlashga, ayblanuvchining xonasida o‘tkaziladigan tintuv chog‘ida bu shaxs boshqa jinoyatlarni ham sodir etganligidan dalolat berishi mumkin bo‘lgan narsa va buyumlarni qidirishga qaratilishi kerak.

### **17.5. To‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergovni qayta tiklash**

Surishtiruvchi va tergovchining to‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha faoliyati jinoyat ishini qayta tiklash bilan bog‘liq. JPKning 371-moddasiga muvofiq, «to‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov: 1) tergovni to‘xtatish uchun asos tariqasida JPKning 364-moddasida nazarda tutilgan holatlar bartaraf etilganda; 2) ish bo‘yicha ayblanuvchining ishtirokisiz bajarilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha tergov harakatlarini o‘tkazish zarurati tug‘ilganda qayta tiklanadi».

Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv, dastlabki tergov ayblanuvchi dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyga olib kelingan paytdan boshlab, ya’ni tergovchi tergov hibsxonasidan ayblanuvchi ushlanganligi va



qamoqda saqlanayotganligi haqida xabarnoma olgan paytdan boshlab, yoki surishtiruvchi, tergovchi tergov hibsxonasida ayblanuvchini birinchi marta so‘roq qilishni boshlagan vaqtdan boshlab qayta tiklanadi.

Ushbu holda muayyan darajada qonunning surishtiruv yoki dastlabki tergovni qayta tiklash haqidagi talabidan chekinishga yo‘l qo‘yiladi. Chunki u tergovni to‘xtatish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar yo‘qolgan zahoti tiklanmaydi.

Surishtiruvchi va tergovchilar masalani bu tariqa hal qilib, ayblanuvchi tergov harakatlari o‘tkaziladigan joyga olib kelinishiga qadar ayblanuvchining ishtirokida tergov harakatlari o‘tkazishning amalda mumkin emasligidan kelib chiqadilar. Bundan tashqari, ular qayta tiklangan ish bo‘yicha tergov muddatini saqlab qolishga harakat qiladilar, buning esa ko‘pincha dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyga uzoq vaqt davomida bosqichma-bosqich olib boriladigan ayblanuvchining ishtirokisiz imkoni bo‘lmaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchining ishtirokida tergov harakatlari o‘tkazish uchun real imkoniyatga ega bo‘lgan paytdan boshlab surishtiruv, dastlabki tergovni qayta tiklashi shart, chunki jinoyat ishi aynan ayblanuvchining jinoyatni tergov qilishda ishtirok etishini ta‘minlash mumkin bo‘lmaganligi sababli to‘xtatiladi. Binobarin, surishtiruv, dastlabki tergovni qamoqqa olingan ayblanuvchi surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyga yetkazib kelingan, sog‘lig‘i tiklangan yoki mamlakatimizga qaytib kelgan paytdan boshlab qayta tiklash amaliyotini to‘g‘ri deb hisoblash lozim, chunki ushbu holdagina to‘xtatish asoslari amalda yo‘qoladi va surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchi ishtirokida tergov harakatlari o‘tkazish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘ladi.

Surishtiruv, dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror asoslantirilmagan yoki noqonuniy bo‘lsa, prokuror uni bekor qilishi va surishtiruv, dastlabki tergovni qayta tiklash to‘g‘risida qaror chiqarishi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi dastlabki tergovning qayta tiklanganligi haqida prokurorga darhol xabar qilishi kerak.

Ish yuzasidan dastlabki tergov qayta tiklanishi bilan bir paytda surishtiruv, dastlabki tergovning muddati ham tiklanadi. Tergov muddatining keyinchalik uzaytirilishi surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatishdan oldin o'tgan tergov muddatini e'tiborga olgan holda JPKning 351-moddasiga binoan amalga oshiriladi.

## **XVIII BOB. SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOVNI TAMOMLASH**

### **18.1. Surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlash**

Surishtiruv va dastlabki tergovning soʻnggi bosqichiga ish boʻyicha toʻplangan dalillarning toʻliqligi, har tomonlamaligi va xolisligini tekshirishga, oʻtkazilgan tergovning kamchiliklarini toʻldirishga, tergov harakatlarini qonun talablariga muvofiq ravishda uzil-kesil rasmiylashtirishga, tergov xulosalarini ifodalash va asoslashga, protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini taʼminlashga qaratilgan protsessual harakatlar (va tegishli huquqiy munosabatlar) majmui xosdir.

Surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlashning quyidagi turlari mavjud:

- a) jinoyat ishini tugatish toʻgʻrisida qaror chiqarish;
- b) ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tuzish;
- v) ishni tibbiy yoʻsindagi majburlov choralarini qoʻllash uchun sudga yuborish toʻgʻrisida qaror chiqarish;
- g) ishni taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish toʻgʻrisida qaror chiqarish;
- d) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish toʻgʻrisida taqdimnoma tayyorlash.

Yuqorida koʻrinib turganidek, surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlash oʻrtasidagi farq ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasin tuzish bilan izohlanadi. Demak, dastlabki tergov yakunlariga koʻra ayblov xulosasi tuzilsa, surishtiruv yakunlariga koʻra ayblov dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Surishtiruv, dastlabki tergovni tamomlashda surishtiruvchi, tergovchi ishning barcha materiallarini tahlil qiladi va baholaydi, ish holatlarining toʻliq, har tomonlama va xolisona tadqiq etilganligini tekshiradi. Surishtiruvchi, tergovchi tergov jarayonida haqiqatga erishish

uchun zarur bo'lgan qonuniy isbotlash vositalarining barchasidan foydalanilganiga hamda ish holatlari aniqlanganiga ishonch hosil qilgach, dalillar to'plashni to'xtatadi, materiallar (hujjatlar)ni tartibga soladi, ishning mazmuni bo'yicha xulosalarini ifodalaydi va asoslaydi. Surishtiruv, dastlabki tergovning ushbu yakunlovchi bosqichida ishni bundan keyin kimga jo'natish kerakligi haqida qaror chiqariladi.

Surishtiruvchi, tergovchi ishning isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarini to'liq aniqlaganidan va tergov davomida yuzaga kelgan tergov tasmollari tekshirilganidan keyingina tergov tugallangan hisoblanadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish qonuniy bo'lgan va surishtiruv, dastlabki tergov jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan bo'lsa, u qonuniy yakunlanadi.

Agar ayblanuvchining sodir bo'lgan jinoyatda aybdorligi isbotlanmagan bo'lsa va unga qarshi qo'shimcha ayblov dalillari bo'lmasa, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ushbu shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish haqida qaror chiqarilishi mumkin.

Basharti ushbu jinoyat ishi bo'yicha bitta ayblanuvchi javobgarlikka tortilgan bo'lsa, jinoyat ishi uni tugatish haqida qaror chiqarish bilan yakunlanishi mumkin.

Mabodo ayblanuvchi muomala layoqatiga ega emas, deb topilgan bo'lsa va atrofdagi kishilar uchun xavfli harakatlar sodir etayotgan bo'lsa, tergov ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun sudga yuborish haqida qaror chiqarish bilan tamomlanishi mumkin.

## **18.2. Jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqish huquqini ta'minlash**

Dastlabki tergov shaklida tergov qilingan jinoyat ishi materiallar bilan tanishib chiqish huquqi JPKning 375-378-moddalari asosida ta'minlanadi va tartibga solinsa, surishtiruv shaklida tergov qilingan

jinoyat ishi materiallar bilan tanishib chiqish huquqi JPKning 381<sup>-13</sup>–381<sup>-15</sup>-moddalari asosida ta'minlanadi va tartibga solinadi. Umuman olganda har ikkala tergov shaklida ham jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqish huquqi o'xshash prinsiplarga asoslanadi.

Shu asosda, tergovchi to'plangan dalillarni ayblov xulosasini tuzish uchun yetarli deb topganidan keyin ayblanuvchi va himoyachiga dastlabki tergov tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi. Surishtiruvchi to'plangan dalillarni ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb topganidan keyin ayblov dalolatnomasini tuzadi, ayblanuvchi va himoyachiga surishtiruv tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi.

Agar ish tugatilgan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi bu haqda va ish materiallari bilan tanishish huquqi haqida gumon qilinuvchini, ayblanuvchini va himoyachini xabardor qiladi hamda ularning iltimosiga binoan ularga tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi.

Surishtiruvchi, tergovchi surishtiruv yoki dastlabki tergov tamomlanganligi va ish ayblov xulosasi yoki aylov dalolatnomasi bilan sudga yuborilishi yoki ish tugatilganligi to'g'risida jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga xabar qiladi, basharti ular xohlasalar, barcha ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi. So'ng surishtiruvchi, tergovchi ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilarining iltimosiga muvofiq, tanishib chiqish uchun ularga ishni taqdim etadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, xolilar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkin. Bunday hollarda bayonnomalarning ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kirish qismlari muhrlangan holda saqlanadi.

Basharti ayblanuvchining himoyachisi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgarning vakili uzrli sabablarga binoan belgilangan vaqtda ish materiallari bilan tanishib chiqish uchun kela olmasa, surishtiruvchi, tergovchi tanishib chiqish muddatini ko'pi bilan besh sutkaga kechiktirishi mumkin. Himoyachi yoki vakil bu muddat ichida kelmagan taqdirda ayblanuvchiga boshqa himoyachini taklif qilish, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgarga boshqa vakil chaqirish uchun imkoniyat yaratiladi.

JPK 376-moddalarida jinoyat ishidagi materiallar bilan tanishib chiqish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi ishdagi materiallarni tanishib chiqish uchun tikilgan va raqamlangan ko'rinishda, har bir jilddagi hujjatlarni ro'yxat qilgan holda taqdim etadi.

Ish bilan tanishib chiqish uchun zarur bo'lgan muddat cheklanmaydi. Lekin protsess ishtirokchilari ishdagi materiallar bilan tanishishni ataylab cho'zishga urinayotgan bo'lsalar, surishtiruvchi, tergovchi o'z qarorida ishdagi materiallar bilan tanishish uchun muayyan muddat belgilashga haqlidir. Ish bilan tanishib chiqayotgan shaxs undagi hujjatlardan ko'chirmalar yozib olishga haqlidir, davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bundan mustasno.

Surishtiruvchi, tergovchi tamomlangan jinoyat ishining materiallari ayblanuvchiga va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun JPK 245-moddasiga ko'ra, tergovchi tamomlangan jinoyat ishining materiallari ayblanuvchiga va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun ushbu modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida yoxud ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan qamoqda saqlab turishning oxirgi muddati tugashidan kamida bir oy oldin taqdim etilishi shart.

Ayblanuvchi va uning himoyachisi ishning materiallari bilan tanishib chiqishi uchun ketgan vaqt ehtiyot chorasi tariqasida qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini hisoblab chiqishda inobatga olinmaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi ishdagi materiallar bilan tanishib chiqqanlik to'g'risida bayonnoma tuzadi va bundan keyingi og'zaki iltimoslarni bayonnomaga kiritadi. Protsess ishtirokchisi yozma tarzda

alohida iltimosnoma bersa, bu haqda bayonnomada yozib qo'yadi. Iltimoslar qilish va ularni ko'rib chiqish tartibi JPKning 377, 381<sup>-14-</sup> moddalarida ko'rsatilgan.

Ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish bilan tanishib chiqishgach yoki biror sababga ko'ra tanishib chiqishdan bosh tortganlaridan keyin tergovchi ulardan qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazish yoki yangi qarorlar qabul qilish xususida iltimoslari bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi iltimos qondirilgandan keyin, u kim tomonidan va kimlarning manfaatlari yo'lida bildirilgan bo'lishidan qat'i nazar, ayblanuvchi, himoyachiga, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga ishdagi barcha materiallar bilan yana tanishib chiqish imkoniyatini beradi (JPK 378, 381<sup>-15-</sup>m.).

Shu bilan surishtiruvchi, tergovchining jinoyat ishlari bo'yicha tergovni yuritishda kattagina bosqichni tashkil etuvchi harakatlari nihoyasiga yetadi. Agar surishtiruvchi, tergovchi ushbu harakatlarning barchasini amalga oshirib, tergovning to'liq va xolis ekanligi, jinoyat ishini sudga yuborish uchun yetarliligi haqida xulosaga kelsa, u ish bo'yicha dastlabki tergov yoki surishtiruv natijalari qayd etiladigan yakunlovchi protsessual hujjat bo'lmish ayblov xulosasi yohud ayblov dalolatnomasi tuzadi.

### **18.3. Jinoyat ishini tugatish**

JPK 373-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi JPK 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

JPK 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lganda, jinoyat ishini tugatish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim:

- 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;
- 2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;
- 3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

- 1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;
- 2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa ;
- 3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;
- 4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;
- 5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;
- 6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- 7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganidan keyin, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;



ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Jinoyat sodir etilganidan keyin o'z harakatlarining mohiyatini idrok etish yoki ularni idora qilish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalinib qolgan shaxs to'g'risidagi jinoyat ishi JPKning 61-bobida belgilangan tartibda ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatiladi.

Jabrlanuvchi Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan taqdirda jinoyat ishi JPKning 62-bobida belgilangan tartibda sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkin.

Jinoyat ishi quyidagi hollarda shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin, basharti:

1) ishni tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilsa;

2) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa;

3) sodir etilgan qilmishning xususiyatini, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganning shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga qarab chiqish uchun berish maqsadga muvofiq bo'lsa.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan qoidalarga rioya qilingan holda tuziladi.

Qarorning tavsif qismida:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tasmollar;

2) gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga qo'yilgan ayb va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, basharti bu shaxslarga qo'yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo'lsa;

3) jinoyat ishini tugatish asoslari;

4) bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jildlari va sahifalarida aks ettirilganligi;

5) ashyoviy dalillarning ro'yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek, manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to'g'risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo'lsa;

6) fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

1) jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi;

2) gumonni yoki ayblovni bekor qilish to'g'risidagi;

3) ehtiyot choralari, shuningdek, ta'minlash uchun ko'rilgan choralarni bekor qilish to'g'risidagi;

4) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar bayon qilinadi.

Surishtiruvchi, tergovchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek, jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek, ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakiliga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda tergovchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.

#### **18.4. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi tuzish bilan tergovni tamomlash**

Surishtiruv, dastlabki tergovni tamomlash tergovni jinoyat protsessining keyingi bosqichlaridan ajratib turuvchi chegaradir.

Ishni sudga yuborishdan avval surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlash bir qator protsessual harakatlarni o'z ichiga oladi va uning jinoyat ishi bo'yicha xulosalar to'g'riligini ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tergovni yakunlash mazmunan JPKning 375–381, 381<sup>-12</sup>–381<sup>-16</sup>-moddalarida tartibga solingan protsessual harakatlarning quyidagi majmui tashkil topadi:

1) tergov jarayonida to'plangan barcha dalillarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb topish maqsadida baholash;

2) jinoyat ishini tartibga keltirish va rasmiylashtirish;

3) jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga xabar berish va ularni ish materiallari bilan tanishtirish;

4) ayblanuvchi va uning himoyachisiga surishtiruv, dastlabki tergovning tamomlanganligini e'lon qilish va ayblanuvchiga uning huquqlarini tushuntirib berish;

5) jinoyat ishini tanishib chiqish uchun taqdim etish;

6) tergovga qo'shimcha kiritish haqidagi iltimoslarni ko'rib chiqish;

7) iltimoslar qoniqtirilganidan keyin ish bilan takroran tanishib chiqish;

8) surishtiruv, dastlabki tergovning tamomlanganligini rasmiylashtirish.

Surishtiruv va dastlabki tergovning yakunlovchi qismiga xos jihat yuqorida sanab o‘tilgan harakatlarning qat’iy izchilligidan iborat. Ayblanuvchiga uning huquqlarini tushuntirmay turib, uni ish materiallari bilan tanishtirish mumkin emas. Iltimoslar ish materiallari bilan tanishtirishdan keyin hal qilinadi, chunki ular ish bilan tanishib chiqilganidan so‘ng paydo bo‘lishi mumkin va h.k.

Jinoyat ishining sudda tez va xolisona ko‘rib chiqilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlari himoya qilinishi harakatlarning qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarilishiga bog‘liq. Shubhasiz, jinoyat ishining sudda muvaffaqiyatli ko‘rib chiqilishi butun tergov harakatlarining qanday kechishiga bog‘liq, ammo ko‘p narsa tergov tamomlanayotganida protsessual harakatlarni to‘g‘ri bajarishga ham bog‘liq. Chunki ushbu bosqichda butun ishga xulosa yasaladi hamda tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida qaror chiqariladi.

Surishtiruv, dastlabki tergov xolis, to‘liq va har tomonlama bo‘lgan taqdirda tamomlangan hisoblanadi. Bu ishning barcha holatlari hech bir shubha qoldirmaydigan tarzda aniqlanishi kerakligini bildiradi. Ishda dalillar o‘rtasida ziddiyat bo‘lmasligi, kamchiliklar, holatlarda tushunarsiz joylar, taxminlarga asoslangan xulosalar qolmasligi kerak.

Surishtiruv, dastlabki tergovning yakunlovchi qismida surishtiruvchi, tergovchidagi ishning har bir asosiy masalasi bo‘yicha tergov jarayonida asta-sekin vujudga kelgan ichki ishonchi to‘liq shakllanadi va tekshiriladi.

To‘plangan dalillar uzil-kesil tartibga solinadi, tanqidiy jihatdan tahlil qilinadi va umumlashtiriladi, ulardagi kamchiliklar va ziddiyatlar ularni tugatish maqsadida aniqlanadi va hal etiladi. Bularning barchasi ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni to‘g‘ri baholash va tergovning yakunlanganligi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish, ayblov xulosasi yoki dalolatnomasini tuzishga kirishish va ishni sudda ko‘rib chiqish uchun jo‘natish maqsadida amalga oshiriladi. Dalillarning to‘g‘ri baholanishi sud majlisida sudlanuvchining aybdorligi haqidagi masalani tez, to‘liq va ishonchli ravishda hal qilinishini ta’minlaydi.

Agar tergov yuzaki ravishda xatoliklar bilan o'tkazilgan hamda dalillar tergov tugaganidan keyin rasmiyatchilik bilan baholangan bo'lsa, bular ishni qo'shimcha tergovga qaytarish uchun asos bo'ladi va tergov organlari ishidagi jiddiy kamchilik deb hisoblanadi. Ishni qo'shimcha tergovga qaytarish uning hal etilishini cho'zib yuboradi, to'plangan dalillar tergov cho'zilganligi tufayli o'zining ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotadi, guvohlar dastlab bergan ko'rsatmalaridagi ba'zi tafsilotlarni unutishlari ayblanuvchilar va ularning qarindoshlari guvohlar va jabrlanuvchilarni o'z ko'rsatuvlaridan voz kechish yoki ularni o'zgartirishga ko'ndirish orqali tergovning borishiga ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Qo'shimcha tergovga qaytarilgan ishlar tahlili aksariyat hollarda ular tergovning to'liq emasligi va bir tomonlamaligi, jinoyatning noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi, ayblanuvchining himoyalanih huquqi buzilganligi, uning shaxsi yetarli o'rganilmaganligi kabi sabablarga ko'ra qaytarilishini ko'rsatmoqda.

Ishning tartibga solinishi va rasmiylashtirilishi tergov natijalarining to'g'ri chiqarilishi, ayblov xulosasi yoki dalolatnomasining to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlovchi zarur shart-sharoitlardan biridir.

Protsess ishtirokchilarini rasmiylashtirilmagan ish bilan tanishtirish, ishni keraksiz materiallar bilan to'ldirib yuborish tanishib chiqish jarayonini qiyinlashtiradi hamda ayblanuvchiga u yoki bu hujjatni sezdirmay olib qo'yish imkonini beradi.

Ishni tartibga solish va rasmiylashtirish – ishda mavjud materiallarni tegishli tartibda va izchillikda taxlab, ularni protsessual jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganligi nuqtai nazaridan tekshirish, tikish, raqamlash va hujjatlar ro'yxatini tuzish demakdir.

JPKda jinoyat ishida hujjatlarni qaysi tartibda taxlash ko'rsatilmagan. Amaliyotda ish materiallarini tartibga solishning eng qulay tartibi shakllangan bo'lib, ushbu tartib hujjatlar ro'yxatida ifodalanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) hujjatlar ro'yxati;
- 2) jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qaror;

3) jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lgan materiallar (ariza, xabar);

4) majburlov choralari va tintuv haqidagi materiallar (ushlab turish haqidagi bayonnoma, tintuv o'tkazish kabilar haqidagi qaror va h.k.);

5) surishtiruv va tergov materiallari (so'roq qilish, ko'zdan kechirish, tanib olish uchun ko'rsatish bayonnomalari va h.k.);

6) taftishlar, ekspertizalarga oid materiallar, ashyoviy dalillarni, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni tikib qo'yish;

7) tergov o'tkazish muddatini uzaytirish rasmiylashtirilganligiga oid materiallar (agar shunday bo'lsa, tergovni tamomlash bayonnomasi va ayblov xulosasi (alohida));

8) ashyoviy va yozma dalillar (yig'majild oxirida, konvertida).

Agar ayblanuvchilar bir nechta bo'lsa, hujjatlar xuddi shu tartibda har biri uchun alohida tikiladi.

Bir jild odatda ko'pi bilan 300 varaqdan iborat bo'ladi, undan ortiq tikish tavsiya etilmaydi. Ishni tartibga solish va rasmiylashtirish tergovchining to'plangan dalillarning to'liqligi, protsessual jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishining samarali vositasidir.

Ish materiallarini o'z vaqtida tartibga keltirish va rasmiylashtirish talabi tergovchida protsessual shaklga hurmat, ishga yuzaki qarash bilan kelishmaslik kabi xislatlarni paydo qilishga, o'z kasbining ustasi bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi.

*Ayblov xulosasi.* Ayblov xulosasi – dastlabki tergovni yakunlovchi va uning natijalarini ifodalovchi protsessual hujjat bo'lib, uning asosida jinoyat ishi sudga yuborilishi kerak. Ayblov xulosasida tergovchi kelgan xulosalar, taqdim etilishi lozim bo'lgan dalillar tahlili ayblanuvchining ayblov va oqlov maqsadida keltirilgan asoslari hamda ayblovning yuridik kvalifikatsiyasi keltiriladi.

Ushbu muhim tergov hujjatida tergovchi o'tkazilgan butun tergov natijasida shakllangan o'zining ayblanuvchining aybdorligiga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Bunda u ayblov ish bo'yicha to'plangan dalillar bilan tasdiqlanganligini, ayblanuvchining unga qo'yilgan ayb bo'yicha

keltirgan asoslari va e'tirozlari ishonarli chiqmaganligi, ayblovni rad eta olmaganligini bayon etadi. Ayblov xulosasini tergovchi tuzadi, ammo ushbu hujjat uni prokuror tasdiqlaganidan keyingina yuridik kuchga kiradi.

Ayblov xulosasi muhim yuridik (protsessual-huquqiy), siyosiy va texnikaviy ahamiyat kasb etadi. Uning yuridik ahamiyati shundaki, ayblov xulosasi tergovning yakuniy bosqichidagi protsessual vosita hisoblanadi. Tergovchi ayblov xulosasini tuzayotganida ishning barcha materiallarini ularning har tomonlamaligi, to'liqligi va xolisligi nuqtai nazaridan yana bir bor tekshiradi va baholaydi.

Ayblov xulosasining yuridik ahamiyati yana shundaki, u prokuror va sud (sudya) o'zlariga berilgan vakolat doirasida qaror chiqarishlari uchun asos hisoblanadi.

Prokurorga ayblov xulosasi – ishni sudga yuborish, sudyaga esa – uni sudda ko'rib chiqish uchun tayinlash haqida qaror chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sud ayblovni asoslangan deb topgach, ishni sud majlisida faqat ayblov xulosasida qayd etilgan shaxslarga nisbatan va dastlabki tergovda ularga qo'yilgan ayb nuqtai nazaridangina ko'rib chiqishi shart.

Bulardan yana bir – uchinchi protsessual-huquqiy ahamiyati kelib chiqadiki, u ish bo'yicha sud muhokamasining doirasini belgilab beradi. Sud agarda sud muhokamasi davomida sudlanuvchi uchun og'irroq jazoga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlasa, ayblov xulosasida keltirilgan ayblov ifodasini va yuridik kvalifikatsiyasini o'zgartirishga haqli emas. Bunday holatda sud ayblovni o'zgartirish va qayta ayb e'lon qilish uchun ishni qo'shimcha tergovga qaytaradi, shundan so'ng sud muhokamasining doirasini belgilovchi yangi ayblov xulosasi tuziladi.

Ayblov xulosasining ahamiyati uning ayblanuvchining himoyalash huquqining protsessual kafolati ekanligida ham o'z ifodasini topadi. Ayblanuvchi o'ziga berilgan ayblov xulosasi mazmuni bilan tanishib chiqqach, sud muhokamasida ishtirok etishga avvaldan

tayyorgarlik ko'rish, qanday himoyalaniшни o'ylab ko'rish, qanday iltimoslar qilishni mo'ljallab qo'yishi mumkin.

Ayblov xulosasining siyosiy ahamiyati shundaki, sud tergov boshlanishi bilan e'lon qilinadigan ushbu xulosa sud majlisi zalida hozir bo'lganlarni muhokama qilinayotgan ishning mohiyati bilan tanishtiradi.

Qonuniy tarzda to'plangan dalillarga asoslangan ayblov xulosasi fuqarolarni jinoyatlarga va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi, jinoyatlarga qarshi kurash olib boruvchi organlarning obro'sini oshiradi.

Ayblov xulosasi texnikaviy jihatdan ham ahamiyatga ega. Uni tuzish chog'ida ayblovni asoslovchi barcha daliliy materiallar muayyan tartibga solinadi. Bu esa sudning hamda sud muhokamasi ishtirokchilarining ish materiallari bilan tanishishini va uning mohiyatini tushunishini osonlashtiradi. Ayblov xulosasining tuzilishi va mazmuni jinoyat-protsessual qonun hamda tergov qilingan jinoyatning xususiyati bilan bog'liq (JPK 379-m.).

Ayblov xulosasi tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Tavsif qismida dastlabki tergovda aniqlangan holatlar: jabrlanuvchi, shuningdek, ayblanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar; ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining o'zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va ularni tekshirish natijalari bayon qilinadi.

Xulosa qismida ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi hamda e'lon qilingan ayblovning mazmuni Jinoyat kodeksining shu jinoyatni nazarda tutgan moddasi yoki moddalarini ham ko'rsatgan holda bayon qilinadi.

Ayblov xulosasida bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi ish sahifalari ko'rsatilishi kerak. Tergovchi ayblov xulosasi qayerda va qachon tuzilganligini ko'rsatib, uni imzolaydi.

Amaliyotda yuridik adabiyotda tavsiya etilgan tartib o'zini oqladi. Unga ko'ra tergov natijasida olingan ma'lumotlar quyidagi tartibda bayon etiladi:



- 1) jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'lgan holatlar yoki sabab;
- 2) jinoyatni tergov qilishda aniqlangan faktik holatlar, ularni tasdiqlovchi dalillar bilan birga;
- 3) tergovchi ayblanuvchining shaxsi haqida to'plagan ma'lumotlar, ular ushbu shaxsning jamiyat uchun xavflilik darajasi va javobgarlik xususiyati haqidagi masalani hal qilishda muhimdir;
- 4) ayblanuvchining unga e'lon qilingan ayb mazmuni bo'yicha tushuntirishlari va ularni tekshirish natijalari.

Faktik holatlarni hamda ularni aniqlashga yordam bergan dalillarning manbalarini bayon etish usuli ishning xususiyatiga bog'liq.

Agar ayblanuvchi o'zini aybdor deb tan olmasa va ayblov bilvosita dalillarga asoslansa, ish holatlarini ularni tergov qilish chog'ida aniqlangan ko'rinishda va tartibda ta'riflagan ma'qul.

Faktik holatlarni jinoyat sodir etilgan ketma-ketlikda bayon etish bevosita dalillarga ega bo'lgan ishlar bo'yicha, ya'ni ish bo'yicha to'plangan dalillar shubhasiz aniq bo'lganligi sababli, ularni juda batafsil tahlil qilish zarur bo'lmaganida tavsiya etiladi. Ko'pincha tergovchilar o'ziga xos aralash usuldan, ya'ni yuqorida sanab o'tilgan usullarni birlashtirib foydalanadilar.

Ayblov xulosasining tavsif qismida faktik holatlarni bayon etishda ayblanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni, shuningdek, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarni keltirish zarur. Ushbu holatlarning barchasi ishonchli dalillarga asoslanishi va ayblov xulosasida tegishli manbalarga havola etgan holda keltirilishi kerak.

Ushbu qismda ayblanuvchining unga qo'yilgan ayb bo'yicha tushuntirishlarining mohiyati va ularni tekshirish natijalari bayon etiladi.

Ayblanuvchining sodir etilgan jinoyatga munosabati alohida ahamiyatga ega. Chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jinoyatni ochishga faol ko'maklashish javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar hisoblanadi. Bu haqda ayblov xulosasida ko'rsatish zarur.

Ayblanuvchi o'zini aybdor deb tan olmagan holatlarda ayblov xulosasining tavsif-asoslantirish qismida uning vajlarining voqelikka mos

emasligi ko'rsatilishi lozim. Shu bois ayblanuvchining u e'tiroz bildirayotgan faktlar bo'yicha tushuntirishlarini ham, tergovchi topgan va ushbu tushuntirishlarini rad etadigan dalillarni ham keltirish zarur. Bunda ayblanuvchini fosh etadigan dalillar shunday mantiqiy izchillikda keltirilishi kerakki, bundan ularning jinoyat hodisasi bilan chambarchas bog'liqligi ko'rinib turishi, aybdorlik haqidagi xulosa esa ishonarli bo'lishi kerak.

Ayblov xulosasining tavsif-asoslantirish qismida, shuningdek, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga olib kelgan shart-sharoitlar bilan bog'liq holatlar ham bayon etilishi zarur. Bu sudga ayblanuvchining xatti-harakatini to'g'ri baholash va uning qilmishlari qanday asosga egaligini aniqlash, binobarin, jinoyatlarning oldini olish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Ushbu qismning mazmuni ish materiallariga mos kelishi kerak. Tergovchining taxminlari, tasavvurlari ish bo'yicha to'plangan dalillar mazmuni va ma'nosini buzib ko'rsatilishiga ta'sir etmasligi lozim. Aniqlangan faktlarga xolisona yondashuvni subyektiv baho bilan almashtirish ham mumkin emas.

Ayblov xulosasining mazkur qismini bayon etilayotgan holatlarni tasdiqlash uchun dalillar keltirib ishning mohiyati uchun muhim bo'lmagan umumiy fikrlar bilan to'ldirib yubormaslik kerak. Bunda jinoyat ishining tegishli varaqlariga havolalar qilish zarur, chunki bu jinoyat ishini o'rganishni va ayblov xulosasining to'g'ri tuzilganligini tekshirishni osonlashtiradi.

Tavsif-asoslantirish qismida bayon etilgan faktik holatlar asosida uning xulosa qismi tuziladi. Xulosa qismida ayblanuvchilarning anketa ma'lumotlari batafsil keltiriladi, ayblov bayoni va jinoyat deb baholanayotgan qilmishlar kvalifikatsiyalanishiga asos bo'lgan JK moddalari keltiriladi.

Ayblov ifodalanishi jinoyatning mohiyati, sodir etilgan vaqti, joyi, usuli, shuningdek, ayblanuvchining harakatlari natijasida yetkazilgan ziyon haqidagi qisqacha bayondir.

Xulosa qismi tavsif-asoslantirish qismida bayon etilgan barcha faktik holatlarga mos kelishi hamda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddasida nazarda tutilgan jinoyatning aniq tarkibini ko'rsatuvchi yuridik xulosa bo'lishi kerak.

Ayblov fabulasini tuzishda jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish to'g'risidagi qarorda bayon etilgan ayblovning ifodalanishidan kelib chiqish, e'lon qilingan ayb doirasiga hamda Jinoyat kodeksining ayblanuvchining harakatlarini kvalifikatsiya qilishga asos bo'lgan moddasi matniga qat'iy rioya etish lozim.

Jinoyat ishi bo'yicha bir necha ayblanuvchi ishtirok etayotgan bo'lsa, xulosa qismida ularga qo'yilayotgan ayb har biri bo'yicha aniq ajratilishi kerak. Ayblov bayonini tuzilayotganida ularning har biri nimada ayblanayotganligi va uning jinoyat sodir etishdagi o'rni qanday ekanligi aniq ko'rsatilgan holda ayblanuvchilarning aybi individuallashtirilishi zarur.

Agar ayblanuvchi Jinoyat kodeksining turli moddalarida ko'rsatilgan bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanayotgan bo'lsa, xulosa qismida barcha moddalar keltiriladi.

Ayblov xulosasi tuzilib, tayyor bo'lganidan so'ng, tergovchi uni ish materiallari bilan birga prokurorga jo'natadi va ushbu harakat odatda xizmat xati shaklida rasmiylashtiriladi.

Ayblov xulosasiga tergovchining fikricha sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati, shuningdek, qo'llanilgan ehtiyot choralari, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi qancha vaqt qamoqda saqlanganligi to'g'risidagi, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari, sud chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi.

Sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatida tergovchi ularning turgan joyi hamda ko'rsatuvlari yoki xulosalari ishning qaysi sahifasida bayon qilinganligini ko'rsatadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxatida ularning taxalluslari ko'rsatilishi mumkin.

Xavfsizligi ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar ular ishtirokida o'tkazilgan tergov harakatlari bayonnomalarining kirish qismlari bilan birga muhrlangan holda sudga taqdim etiladi. Ular bilan faqat ayblov xulosasini tasdiqlovchi prokuror va ishni ko'rib chiquvchi sudya tanishishlari mumkin.

Tuzilgan ayblov xulosasi barcha zarur ilovalar bilan birga bir necha nusxada tayyorlanadi. Prokuror tasdiqlagan asl nusxa jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, ikkinchi nusxasi kuzatuv yig'majildida qoladi, qolganlari esa ayblanuvchilar va himoyachilarga jo'natiladi.

JPKning 381-moddasiga muvofiq, tergovchi ayblov xulosasini imzolaganidan keyin jinoyat ishini darhol prokurorga yuboradi.

Dastlabki tergovni ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish bilan tamomlash tartibi haqida mazkur darslikning 30-bobida, ishni taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish bilan tamomlash tartibi haqida darslikning 31-bobida, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlash tartibi haqida darslikning 32-bobida so'z yuritiladi.

*Ayblov dalolatnomasi.* Ayblov dalolatnomasi – surishtiruv xulosalari chiqariladigan, ishning mohiyati, ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar va ayblov ta'rifi bayon etiladigan protsessual hujjat. Uni surishtiruvchi tuzadi va albatta, prokuror tasdiqlashi kerak.

Ayblov dalolatnomasi ikki qismdan, ya'ni tavsiflash va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Tavsiflash qismidan avval ushbu hujjatning nomi, shuningdek, u qaysi ish bo'yicha tuzilganligi (ayblanuvchining familiyasi, ismi sharifi; u sodir etganlikda ayblanayotgan jinoyatlar kvalifikatsiyasi) ko'rsatiladi. Ba'zan ayblov dalolatnomasining ushbu qismi kirish qismi deb ataladi va tegishli ravishda unda ayblov dalolat-nomasi uch qismdan, ya'ni kirish, tavsiflash va xulosa qismlaridan iboratligi ko'rsatiladi. Unda ishning mohiyati – jinoyat sodir etilgan joy va vaqt, uning qaysi usulda sodir

etilganligi, motiv-lari, oqibatlar va boshqa muhim holatlari; jabrlanuvchi haqidagi ma'lumotlar, jinoyatning mavjudligi va ayblanuvchining aybdorligini isbotlovchi dalillar havola etilishi shart.

Asosiy e'tiborni sodir etilgan jinoyat va ayblanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlarga qaratish lozim. Ayblov dalolatnomasida aniq dalillar keltirilishi, bunda ushbu dalillarning manbalari bilangina cheklanib qolmaslik kerak. Shuningdek, u yoki bu holatni qaysi dalillar tasdiqlashini ham ko'rsatish; ayblanuvchining qo'yilgan ayb bo'yicha bergan ko'rsatuvlarining mohiyatini bayon etish va agar ayblanuvchi qo'yilgan ayb yoki boshqa holatlarni batamom yoki qisman rad etayotgan bo'lsa, uning so'zlarini inkor etuvchi dalillarni keltirish zarur. Bunda jinoyat ishidagi so'roq bayonnomalarida aks ettirilgan ko'rsatmalarni to'laligicha ko'chirib olib, ayblov dalolatnomasida keltirish o'rinli emas. Umuman olganda, surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasini shakllantirishda ijodiy yondashuv talab etiladi. Shu asosda, so'roq va boshqa tergov harakatlari bayonnomalaridagi ko'rsatma va boshqa ma'lumotlar daliliy nuqtai nazardan tahliliy baholanib, mantiqiy izchillik asosida, uchinchi shaxs nomidan qayd etilishi maqsadga muvofiq.

Jinoiy faoliyati ko'p epizodli bo'lgan bir necha shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda ayblov dalolatnomasi tuzish muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda har bir ayblanuvchining jinoiy faoliyatini, uning guruh bo'lib jinoyat sodir etishda tutgan o'rnini ko'rsatish, ayblovning har bir epizodini ochib berish va ayni paytda jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligini va ayblanuvchilar shaxsini birgalikda ta'riflab berishdan iborat yana bir vazifa yuzaga keladi. Shunday qilib, ayblov dalolatnomasini tuzish vaqtidagi asosiy vazifa – ishning barcha holatlari va ularni tasdiqlovchi dalillarni izchil bayon etish.

Ayblov dalolatnomasining xulosa qismida ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar keltiriladi va Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi yoki moddalarini ko'rsatgan holda ayblovning ta'rifi taklif etiladi.

Ayblanuvchi haqida quyidagi ma'lumotlar berilishi kerak: uning familiyasi, ismi sharifi, tug'ilgan yili va joyi, millati, ma'lumoti, oilaviy

ahvoli, ish joyi yoki nima bilan mashg'ulligi, sudlangan-sudlanmaganligi, mukofotlari va turar joyi. Bundan tashqari, ayblov dalolatnomasida mazkur shaxsga ayb sifatida qo'yilayotgan jinoyat, uning sodir etilgan vaqti, joyi va boshqa holatlari, shuningdek, jinoyatni kvalifikatsiyalashga asos bo'ladigan JK moddalari va ularning bandlari (qismlari) ko'rsatilishi zarur.

Agar ayblanuvchilar bir nechta bo'lsa, ayblov ta'rifi ularning har biri uchun alohida-alohida keltiriladi.

Ayblov dalolatnomasini surishtiruvchi u tuzilgan joy va vaqtni ko'rsatgan holda imzolaydi. Unga tergov muddatlari, tanlangan ehtiyot choralari, qamoqda saqlangan vaqt, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'vo, uni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar va mulkni musodara qilish imkoniyati, sudlov xarajatlari haqidagi ma'lumotlar ilova qilinadi. Bu yerda ma'lumot xususiyatiga ega bo'lgan boshqa faktlar ham ko'rsatilishi mumkin (masalan, jinoyat sodir etilgan, jinoyat ishi qo'zg'atilgan, surishtiruvchi ishni yuritishga qabul qilgan, ayb qo'yilgan, tergov tugallangan va ayblov dalolatnomasi tuzilgan sana). Ayblov dalolatnomasiga surishtiruvchining fikricha sud majlisiga chaqirilishi kerak bo'lgan shaxslar (ayblanuvchilar, jabrlanganlar, guvohlar va h.k.) ro'yxati ilova qilinadi.

JPKning 416-417-moddalariga asosan, ayblov xulosasi yoki dalolatnomasi bilan tegishli tartibda sudga yuborilgan jinoyat ishi bo'yicha sud tergov vaqtida sudlanuvchining u ilgari ayblanmagan jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi yoxud javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud yangi ayblov bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi. Buning uchun sud ajrim chiqaradi, unda ayblovni to'ldirish yoki o'zgartirish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun qanday holatlarga aniqlik kiritilishi lozimligini va ijro muddatini bir oygacha bo'lgan doirada ko'rsatgan holda prokurorga yuboradi. Ushbu holatda qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilib, jinoyat ishi bo'yicha qo'shimcha ayblov xulosasi yoki dalolatnomasi tuzilib prokuror orqali sudga yuboriladi.

## **XIX BOB. SURISHTIRUV, DASTLABKI TERGOV VA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUVNI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLARNING QONUNLARNI IJRO ETISHI USTIDAN NAZORAT**

### **19.1. Surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazoratning mohiyati va vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga, «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunning 20-moddasida Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish vazifasi O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlarga yuklatilgan. Prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qatoriga jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlarning qonunlarni ijro etishini nazorat qilish ham kiritilgan.

Prokuror surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni yuritishda qonunlarning ijrosini nazorat qilar ekan birorta ham jinoyat ochilmay qolmasligini va jinoyat sodir etgan hech bir shaxs qonunda belgilangan javobgarlikdan qutulmasligini; qonunda belgilangan jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va tergov qilish, jinoyatda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish; protsessual majburlov choralarini qo‘llash tartibiga, qonunning shaxs huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ishning har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirilishi haqidagi talablariga qat’iy rioya etilishini; jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga olib kelgan shart-sharoitlarning aniqlanishi va bartaraf etilishi uchun choralar ko‘rilishini kuzatib turadi.

Prokuror o‘zining surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilish

funksiyasini, ushbu organlarning qaysi idoraga tegishliligidan qat'i nazar, bajaradi. Prokurorning jinoyat ishlarini qo'zg'atish va tergov qilish munosabati bilan jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan tartibda bergan ko'rsatmalari surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv organlari uchun bajarilishi majburiydir. Prokuror ushbu organlarining barcha harakatlari va hujjatlari qonunga mos bo'lishini kuzatib turish bilan cheklanmaydi, balki tergovni jinoyatlarning tez va to'liq ochilishiga va samarali tarzda oldini olishga qaratish choralarini ko'radi. U surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv chog'ida yuzaga keladigan protsessual masalalarni mazmunan hal qilish huquqiga ega. Ayrim tergov harakatlari faqat prokurorning sanksiyasi bilan o'tkaziladi.

Prokurorning surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv organlarining qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish borasidagi keng miqyosli vakolatlari protsessual majburlov choralarini qo'llash va fuqarolar huquqlarini jiddiy cheklash bilan bog'liq bo'lgan surishtiruv, dastlabki tergov xususiyatlarining o'ziga xos jihatlaridan, shuningdek, prokurorning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi muhim o'rnidan kelib chiqadi. Prokuror nazorati surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv organlarining faoliyatida qonunlarga qat'iy rioya etilishini hamda shaxsning buzilgan huquqlari tiklanishini ta'minlashga qaratilgan. Prokuror qonuniylikni nazorat qilish funksiyasini bajarish bilan birga, ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarga va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

## **19.2. Prokurorning surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazoratni amalga oshirishdagi vakolatlari**

Prokuror jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni qanday ijro etayotganligini nazorat qilish jarayonida o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:



– surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishlarining borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olish;

– sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshirish;

– surishtiruvchilar va tergovchilarning shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qilish;

– jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqida iltimosnoma qo'zg'atish jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar berish;

– qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnomalar kiritish;

– ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish;

– amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish;

– murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik berish;

– tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish haqidagi qarorlar, sudning qamoqqa olish yoki uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasini qoʻllash toʻgʻrisidagi ajrimini ijro etishni, shuningdek, prokuror yoki prokuratura tergovchisi yurituvidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralarni koʻrish toʻgʻrisida koʻrsatmalar berish;

– surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, JPKga muvofiq har qanday ish boʻyicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni toʻliq amalga oshirish;

– tintuv oʻtkazishga, telefonlar va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turishga, yozishmalar, telefon orqali soʻzlashuvlar va boshqa soʻzlashuvlar, pochta, kuryerlik joʻnatmalari, telegraf xabarlarini hamda aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa xabarlarning sir saqlanishi, uy-joy daxlsizligi huquqini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazishga, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruv organi hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat berish;

– dastlabki tergov va surishtiruv muddatlarini JPKda belgilangan hollarda va tartibda uzaytirish;

– ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qoʻshimcha tergov oʻtkazish toʻgʻrisidagi oʻz koʻrsatmalari bilan qaytarish;

– jinoyat ishini prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, JPKda belgilangan hollarda va tartibda esa, bir dastlabki tergov va surishtiruv organidan boshqa dastlabki tergov va surishtiruv organiga oʻtkazish;

– surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergov chogʻida qonun buzilishiga yoʻl qoʻygan boʻlsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatish;

– jinoyat ishlari qoʻzgʻatadi yoki ularni qoʻzgʻatishni rad etadi, ishlarni tugatadi yoxud yuritilishini toʻxtatish;

– qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchi yoki surishtiruvchining ishni tugatishiga rozilik berish;

– ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi yoki qarorini tasdiqlaydi, ishlarni sudga yuborish.

Prokurorning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bergan tergovoldi tekshiruvni o'tkazish, jinoyat ishlari qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq ko'rsatmalari surishtiruv, dastlabki tergov organlari uchun majburiydir.

Qonunda surishtiruv, dastlabki tergov organlariga eng muhim protsessual qarorlarning nusxalarini prokurorga yuborish majburiyati yuklangan bo'lib, bu ushbu qarorlarning qonuniyligi, asoslilik va o'z vaqtida qabul qilishini nazorat qilishga imkon beradi. Prokurorga jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasidan tashqari jinoyat ishini tugatish va dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risidagi qarorning nusxasi ham yuboriladi (JPK 331, 382, 364-m).

Prokuror JPKda belgilangan tartibda ayblanuvchi, guvohlarni so'roq qilishda va boshqa tergov harakatlarida ishtirok etib, ularni o'tkazish tartibini belgilovchi qonunlarning ijrosini, shuningdek, protsess tegishli ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarining muhofaza qilinishini nazorat qilish imkoniyatiga egadir.

To'liq va xolisona tergovni ta'minlash maqsadida, prokuror jinoyat ishini surishtiruv organidan tergovchiga, prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, JPKda belgilangan hollarda va tartibda bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazish huquqiga ega. Ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishning qonuniyligi va asoslilikini hamda fuqarolarning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog'liq bo'lgan ushlab turish va tibbiy muassasaga joylashtirish singari jinoyat-protsessual majburlov choralarini qo'llashni nazorat qilish ayniqsa muhim.

Prokuror hech kim noqonuniy va asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilmasligini kuzatib turishi shart. O'z tashabbusi bilan ham, shikoyat kelib tushganda ham u ayblov qo'yish uchun dalillar yetarli darajada to'planganligini tekshiradi va zarur bo'lganda ayblovni o'zgartirish yoki ayblanuvchiga nisbatan ish yuritishni tugatish haqida yozma ko'rsatma beradi yoxud jinoyat ishiga ayblanuvchi tariqasida

ishtirok etish uchun jalb etish to'g'risidagi asoslanmagan qarorni shaxsan bekor qiladi.

Fuqarolarga shaxsiy daxlsizlik kafolatlanadi. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. (Konstitutsiya 25-m., JPK 18-m.).

Prokurorga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida iltimosnoma qo'zg'atish yoki tergovchining shu haqdagi iltimosnomasiga rozilik berish huquqi berilgan. Shuningdek, unga qamoqqa olish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atishdan iborat qo'shimcha vakolatlar berildi. JPK 243-moddasining ikkinchi qismida belgilanishicha, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani yo prokuror, yo uning roziligi bilan tergovchi qo'zg'atadi (JPK 245-247-m.). Prokuror ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqqa olish yoki uy qamog'ini qo'llash uchun rozilik berayotganida ayblovning asosliliigi, suddagi istiqboli haqida o'ylashga majbur bo'ladi. Chunki, JPK 243-moddasining yettinchi, o'ninchi qismlariga muvofiq, prokuror sud majlisida ishtirok etadi va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini sud oldida asoslab beradi. Shu bois prokuror protsessual jihatdan qamoqqa olish yoki uy qamog'iga rozilik berayotganida har tomonlama o'ylab, mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga majbur.

Shu bilan birga, prokurorning surishtiruv va dastlabki tergov organlariga ko'rsatma va topshiriqlar berish vakolatlariga aniqlik kiritildi. Endi u jinoyatchilikka qarshi kurash olib borayotgan organlarga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi sud ajrimining ijrosini topshiradi. Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga sanksiya berish borasidagi vakolatlar sudga berilishi sababli, prokurorning qamoq yoki uy qamog'ida saqlash muddatini uzaytirish vakolati bekor qilindi. Qamoqda saqlash muddatlari JPKning 245-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzaytiriladi.

Prokurorning vakolatida dastlabki tergovning muddatini uzaytirish masalasi qoldirildi. Prokuror surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilib, fuqarolarning jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, asossiz ravishda ushlab turilishi hollariga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Ushlab turishning kechiktirib bo‘lmas xususiyati tufayli, jinoyat-protsessual qonunda tergovga qadar tekshiruv organi va surishtiruvchi, tergovchiga ushbu chorani qo‘llash haqidagi masalani mustaqil ravishda hal qilish huquqi berilgan. Shu bois ushlab turishning qonuniyligi va asosliligini prokuror odatda ushlab turish chorasi amalda qo‘llanilganidan keyin nazorat qiladi. Bunday tartib prokurorning asossiz ravishda ushlab turilgan shaxsni ozod qilish uchun zarur choralar ko‘rishiga va shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashiga imkon beradi, biroq unga barcha hollarda ham jinoyat protsessida fuqarolarning shaxsiy huquqlarini asossiz ravishda cheklashning oldini olishiga imkon bermaydi. Shu sababli asossiz ravishda ushlab turish hollariga yo‘l qo‘ymaslik uchun prokuror tergovga qadar tekshiruv vasurishtiruv, dastlabki tergov organlarining faoliyatida ushlab turishning faqat qonunda ko‘rsatilgan asoslar bo‘lgan hamda gumon qilinuvchi shaxsni jamiyatdan ajratish haqiqatan ham zarur bo‘lgan hollardagina qo‘llanishini kafolatlovchi qonuniylikka qat’iy rioya etilishini ta’minlashi shart.

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarning ushlab turilishi qonuniy ekanligi yuzasidan xolisona prokurorlik nazoratini ta’minlash uchun prokurorga amalga oshirilgan ushlab turish haqida o‘z vaqtida xabar berish katta ahamiyatga ega.

JPKning 225-moddasiga muvofiq, ushlab turishning asosliligini tekshirish, hujjatlarni talab qilib olish va ko‘zdan kechirish, ushlangan shaxs ichki ishlar idorasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinganidan so‘ng ko‘pi bilan 24 soat ichida amalga oshirilishi kerak.

Ushlab turishning qonuniyligi va asosliligini prokuror, avvalo, ushlab turish haqidagi xabarda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali

tekshiradi. Prokuror ushlab turishning asosliligiga shubhalansa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan shaxsdan yoki surishtiruvchi, tergovchidan kerakli tushuntirishlar oladi, shuningdek, jinoyat ishi materiallarini o'rganib chiqadi. Zarur hollarda u jinoyat sodir etganlikda gumon qilib ushlangan shaxsni so'roq qiladi. So'roq qilish ushlab turish uchun asoslar mavjudligini va ushlab turish holatlarini, shuningdek, ushlab turilgan shaxsga uning protsessual huquqlari o'z vaqtida va to'liq tushuntirilganligini tekshirish imkonini beradi.

Prokuror tomonidan ushlab turish qonuniy ekanligini nazorat qilishning muhim usuli ushlanganlar saqlanadigan vaqtincha saqlash hibsonalarini muntazam ravishda tekshirib turishdir. Bunday tekshiruv noqonuniy ushlab turish faktlarini, shuningdek, belgilangan rejim, ushlab turish muddatlari, ushlanganlarning huquqlari buzilishi faktlarini aniqlashga imkon beradi.

Prokuror tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv, dastlabki tergov organlarining qonunlarni ijro etishini nazorat qilish bilan birga, tergovchilar, surishtiruvchilar va tergovga qadar tekshiruv o'tkazayotgan shaxslarning noqonuniy qarorlarini bekor qilishga haqlidir. Bunday qaror rasmiylashtiriladigan protsessual hujjat prokurorning qaroridir.

Prokuror jinoyatni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish haqida yozma ko'rsatma berishga ham haqlidir (Prokuratura to'g'risidagi qonunning 4-m.; JPKning 34, 240, 243, 382-m.). Ushbu ko'rsatmalarning tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruv uchun bajarilishi majburiydir. Surishtiruvi, tergovchi prokurorning ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, ayblovning tavsiflanishi va hajmi, ishni sudga yuborish yoki tugatish haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmaganida ishni yuqori turuvchi prokurorga o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon etgan holda taqdim etishga haqlidir. Ushbu holda prokuror o'z qarori bilan quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini bekor qiladi yoki tergov o'tkazishni boshqa surishtiruvchi yohud tergovchiga topshiradi (JPK 36-

m. 3-q.). Bunday tartib surishtiruvchi, tergovchining protsessual mustaqilligini ta'minlaydi va tergovning eng muhim masalalari bo'yicha o'zining ichki e'tiqodiga mos qaror qabul qilishiga imkon beradi.

JPK 36-moddasining uchinchi qismida belgilangan qoidalar tergovga qadar tekshiruv organiga taalluqli emas. Tergovga qadar tekshiruv organining boshlig'i yoki xodimi prokurorning ko'rsatmalariga rozi bo'lmaganida, ularni bajarishni to'xtatmagan holda ular xususida yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidirlar.

Prokuror surishtiruvchi, tergovchi bilan tergov bo'limining boshlig'i o'rtasida jinoyat ishini yuritish munosabati bilan yuzaga keladigan nizolarni hal qiladi. Surishtiruvchi, tergovchi tergov bo'limi 'ining ko'rsatmalariga rozi bo'lmagan taqdirda ushbu ko'rsatmalar xususida prokurorga shikoyat qiladi, prokuror esa tegishli qaror qabul qiladi. Prokurorning qonunda belgilangan tartibda bergan ko'rsatmalari tergov bo'limining boshlig'i uchun bajarilishi majburiydir. Ushbu ko'rsatmalar yuzasidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish ularning bajarilishini to'xtatmaydi.

Prokuror tergovga qadar tekshiruv organi yoki surishtiruvchi, tergovchining harakatlari yuzasidan berilgan shikoyatlarni ham ko'rib chiqadi. Ushbu shikoyatlar bevosita prokurorning o'ziga yoxud harakatlari xususida shikoyat qilingan tergovga qadar tekshiruv organi yoki surishtiruvchi, tergovchi orqali beriladi. Shikoyatlar ham yozma, ham og'zaki bo'lishi mumkin. Prokuror shikoyatni olgach, uni ko'rib chiqishi va natijalar haqida arizachiga xabar berishi, shikoyatni rad etgan taqdirda esa shikoyat asossiz deb topilishiga sabab bo'lgan holatlarni bayon etishi kerak.

Prokurorning harakatlari va qarorlari xususidagi shikoyat yuqori turuvchi prokurorga beriladi. Agar ishni tergov qilish chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, prokuror JPKning 80-moddasiga muvofiq, tergovchi, surishtiruvchi yoki tergovga qadar tekshiruv organini ishni yuritishdan chetlashtirishga haqlidir. Surishtiruvchi, tergovchi yoki tergovga qadar tekshiruv organini rad etish haqidagi masalani hal qilish ham uning vakolatiga kiradi.

### **19.3. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokuror hal etishi lozim bo‘lgan masalalar**

Surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlashning qonunda ko‘rsatilgan asoslari, ya’ni jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida taqdimnoma chiqarish kabilarning qaysi biri tartibida hal qilinishidan qat’i nazar, prokuror qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini va asosliligini nazorat qiladi.

Prokurorga o‘zining yurituvida bo‘lgan yoxud tergovga qadar tekshiruv organi yoki surishtiruvchi, tergovchining yurituvida bo‘lgan ishni qonunda ko‘rsatilgan har qanday asoslar bo‘yicha o‘z qarori bilan tugatish huquqi berilgan. U jinoyat ishini yuritishni to‘xtatishi mumkin. Shuningdek, prokuror yoki uning o‘rinbosari ko‘p voqeali jinoyat ishlari bo‘yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to‘plangan dalillarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb e’tirof etsa, shu voqealar bo‘yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko‘rsatma berishga haqli.

Prokuror yoki uning o‘rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini JPKning 384-moddasida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq puxta o‘rganib chiqishi va tekshirishi kerak. Mazkur o‘rganishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1) ayblanuvchi zimmasiga qo‘yilayotgan qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini va bu qilmishda jinoyat tarkibi bor-yo‘qligini;

2) qo‘yilgan ayb ishdagi mavjud dalillar bilan asoslantirilgan-asoslantirilmaganligini;



3) ayblanuvchining isbotlangan barcha jinoiy qilmishlari ayblov mazmuniga kiritilgan-kiritilmaganligini;

4) jinoyati fosh qilingan barcha shaxslar ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan-qilinmaganligini;

5) ayblovni yoki ishni tugatishga sabab bo'ladigan holatlar bor-yo'qligini;

6) ayblanuvchining qilmishlariga to'g'ri yoki noto'g'ri tavsif berilganligini;

7) tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinganligini;

8) ehtiyot chorasi to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini;

9) fuqaroviy da'voni va boshqa mulkiy undirishlarni ta'minlash choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

10) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangan-aniqlanmaganligini hamda ularga barham berish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

11) tergov sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini, barcha vajlar tekshirilganligini va himoyaning iltimosnomalari ko'rib chiqilganligini;

12) ishni birlashtirishda yoki ajratishda JPK 332-moddasi talablariga rioya etilgan-etilmaganligini;

13) ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi JPKning 379, 380 va 381<sup>-12</sup>-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuzilgan-tuzilmaganligini;

14) surishtiruvchi va tergovchi JPKning boshqa talablariga rioya qilgan-qilmaganligini tekshirishi shart.

Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning mazkur o'rganishlari, surishtiruvchi va tergovchini jinoyat ishlarini tergov qilishning har-qanday bosqida prokuror nazoratini xis qilib turishga undaydi hamda surishtiruv va dastlabki tergov davomida qonunlarni aniq va bir hilda bajarilishini ta'minlaydi.

#### **19.4. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning qarori**

Prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini ko‘pi bilan besh sutkada JPKning 384-moddasida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq ko‘rib chiqqanidan so‘ng, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

2) o‘z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo‘llash va shu o‘zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash;

3) qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun ishni o‘z ko‘rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish;

4) surishtiruv o‘tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlangan yoki JPKning 381<sup>5</sup>-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda dastlabki tergov organiga o‘tkazish;

5) ishni yuritishni to‘xtatish;

6) ishni tugatish;

7) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish.

Basharti ayblovni to‘ldirish yoki uni og‘irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko‘ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o‘zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o‘rinbosari qo‘shimcha yoki o‘zgartirilgan ayb e‘lon qilish uchun ishni qo‘shimcha tergovga qaytaradi.

Prokuror ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlayotganida ilgari tanlangan ehtiyot chorasini bekor qilish yoki o‘zgartirishga yoxud, agar ilgari tanlanmagan bo‘lsa, ehtiyot chorasi tanlashga haqlidir. Bundan tashqari, u ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasiga ilova qilingan sud majlisiga chaqirilishi lozim bo‘lgan

shaxslar ro'yxatini o'zgartirishi mumkin. Bunda ayblanuvchilar, muomala layoqatiga ega bo'lgan jabrlanuvchilar, voyaga yetmagan ayblanuvchilarning qonuniy vakillari, shuningdek, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxslar yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinganlar va ularning vakillari ro'yxatdan tushirib qoldirilishi mumkin emas. Dastlabki tergovda yoki surishtiruvda guvoh sifatida so'roq qilinmagan va ekspert sifatida xulosa bermagan shaxslar ro'yxatga qo'shimcha qilib kiritilishi mumkin emas.

JPKning 388-moddasiga muvofiq, prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, jinoyat ishini tegishli sudga yuboradi. Xuddi shu sudga barcha iltimosnoma va shikoyatlar ish bilan birga sud majlisida tekshirilishi va hal qilinishi uchun jo'natiladi.

Prokuror yoki uning o'rinbosari ishning sudga yuborilganligi haqida ayblanuvchiga va himoyachiga, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga darhol xabar qiladi va, agar iltimoslari bo'lsa, ularni sudga yuborishga yoki sud majlisida bayon qilishga haqli ekanliklari to'g'risida ma'lum qiladi. Ayni vaqtda prokuror yoki uning o'rinbosari ayblanuvchiga va himoyachiga ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi va unga qilingan ilovalarning tasdiqlangan nusxalarini yuboradi, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxati bundan mustasno, basharti ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud ilovaga o'zgartishlar kiritilgan bo'lsa, ularni o'zgartirish to'g'risidagi qarorning nusxasi ham yuboriladi.

Agar ayblanuvchi qamoqda saqlanayotgan bo'lsa, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi va unga qilingan ilovalarning tasdiqlangan nusxalari prokurorning topshirig'iga ko'ra unga qamoqda saqlash joyining ma'muriyati tomonidan ular kelib tushgan kuni tilxat olib topshiriladi, tilxat hujjatlar topshirilgan sana va vaqt ko'rsatilgan holda sudga taqdim etiladi.

## **XX BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDIDA ISH YURITISH. SUDLOVGA TEGISHLILIK VA JINOYAT ISHINI SUDDA KO'RISH UCHUN TAYINLASH**

### **20.1. Sudlovga tegishlilik**

Sudlovga tegishlilik – muayyan sudning yoki muayyan bo'g'in yoxud darajadagi sudlarning biron-bir toifadagi jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudi tariqasida ko'rib chiqish vakolatidir. Biroq, jinoyat ishlarining sudlovga tegishliliği haqida gapirganda, odatda, ishning jinoyat ishi qaysi sudda va ushbu sudning qanday tarkibida ko'rib chiqilishi haqidagi masala hal qilinishiga imkon beradigan xususiyatlari yoki belgilari nazarda tutiladi. Sudlovga tegishlilikni aniqlash jinoyat ishi qaysi sudda va qanday tarkibda ko'rilishini aniqlash demakdir.

Predmetli (turga oid), hududiy, shaxsga oid va ishlarning aloqadorligiga ko'ra sudlovga tegishlilik farqlanadi. Predmetli sudlovga tegishlilikni aniqlashning umumiy prinsipini quyidagicha ta'riflash mumkin: tuman (shahar) jinoyat ishlari bo'yicha sudlarining sudloviga yuqori turuvchi va harbiy sudlarning sudloviga tegishli ishlardan boshqa barcha jinoyat ishlari tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudloviga Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida, 118-moddasining to'rtinchi qismida, 150, 153, 155, 157, 158-moddalarida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161-moddalarida, 210-moddasining uchinchi qismida, 230, 231, 242, 244-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar tegishlidir.

Mamlakatimiz Oliy sudining sudloviga juda murakkab va muhim bo'lgan jinoyat ishlari tegishlidir.

Yuqori sud quyi sud sudloviga tegishli har qanday jinoyat ishini birinchi instansiya sudi tariqasida o'zi ko'rish uchun olishga haqlidir.

Shaxsga oid sudlovga tegishlilik odatda jinoyat subyektining xususiyatidan kelib chiqib belgilangan. Unga harbiy sudlarga tegishli

ishlarni misol qilib keltirish mumkin. Harbiy sudlar sudloviga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi organning, Davlat xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo‘shinlarining, Milliy gvardiyaning va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o‘quv yig‘inlarida bo‘lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar; alohida holatlarga ko‘ra umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko‘rsatmayotgan joylarda barcha jinoyat ishlari; davlat sirlariga taalluqli ishlar tegishli.

Hududiy sudlovga tegishlilik qoidalariga ko‘ra jinoyat ishi jinoyat sodir etilgan joydagi sudda ko‘riladi. Jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash imkoniyati bo‘lmasa, ishni dastlabki tergov yoki surishtiruv tamom bo‘lgan hududdagi sud ko‘radi. Uzoqqa cho‘zilgan yoki davomli jinoyatlarga doir ishlar jinoyat qaysi hududda tamomlangan yoki to‘xtatilgan bo‘lsa, shu hududdagi sudning sudloviga tegishli bo‘ladi.

Ishlarning aloqadorligiga ko‘ra sudlovga tegishlilik qoidalaridan kelib chiqqan holda bir necha shaxsni turli hududlarda sodir etgan jinoyatlari uchun ayblash to‘g‘risidagi jinoyat ishlari, shuningdek, bir shaxsni bir necha jinoyatni sodir etishda ayblash to‘g‘risidagi jinoyat ishlari birlashtirilganda, agar bu ishlar bir xil darajadagi ikki yoki bir necha sudning sudloviga tegishli bo‘lsa, ishni dastlabki tergov yoki surishtiruv qaysi hududda tamomlangan bo‘lsa, shu hududdagi sud ko‘radi. Bir shaxs yoki bir guruh shaxslar turli darajadagi sudlarning sudloviga tegishli bir necha jinoyatni sodir etishda ayblangan bo‘lsa, bunday ishlarni yuqori sud ko‘radi.

Agar ish bo‘yicha bir shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatni sodir etishda ayblansalar va bu shaxslardan loaqal biri yoki jinoyatlardan biri haqidagi ish harbiy sudning sudloviga tegishli bo‘lsa, barcha jinoyatlar va barcha shaxslarga doir ishlarni harbiy sud ko‘radi.

Jinoyat ishi to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rilishini ta‘minlash maqsadida, ishni yuqori sud raisining qarori bilan bir suddan boshqa

sudga o'tkazish mumkin. Ishni boshqa viloyatdagi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sudga o'tkazish masalasini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi hal etadi.

Basharti sudya jinoyat ishini sudda muhokama qilish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida ish mazkur sudning sudloviga tegishli emasligini aniqlasa, uni sudlovga tegishliligiga ko'ra o'tkazish to'g'risida ajrim chiqaradi. Ishning o'tkazilishiga faqat u sud majlisida ko'rila boshlanguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Ish shu darajadagi boshqa sudning sudloviga tegishli ekani sud majlisida ma'lum bo'lib qolsa va ishning holatlarini to'liq tekshirishga zarar yetkazmaydigan bo'lsa, sud ishni ko'rishni davom ettiraveradi, aks holda sud uni sudlovga tegishliligiga ko'ra boshqa sudga yuborib, bu haqda ajrim chiqaradi.

Sud o'z majlisida ishning yuqori sud yoki harbiy sud sudloviga tegishliligini aniqlagach, uni tegishli sudga yuborib, bu xususda ajrim chiqaradi. Yuqori sudning sud majlisida ko'rila boshlangan ishni quyi sudga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudlovga tegishlilik xususida sudlar o'rtasida bahs bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. JPKda nazarda tutilgan tartibda bir suddan boshqa sudga yuborilgan jinoyat ishi albatta ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi lozim.

## **20.2. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash**

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichi ish sudga kelib tushgan paytdan boshlanadi.

Jinoyat protsessining jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichi quyidagi vazifalarni bajaradi:

– har bir ish bo'yicha shaxsni jinoyat protsessida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilishning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish;

– ishni sud majlisida ko'rib chiqish uchun yetarli asoslar mavjudligini tekshirish;

– mazmunan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan har bir ish bo‘yicha uni sudda o‘z vaqtida, to‘liq va har tomonlama ko‘rish uchun barcha zarur tashkiliy choralarni ko‘rish;

sudda ko‘rish uchun yetarli asoslar bo‘lmagan ishlarning bundan keyingi harakatiga, ya’ni qo‘shimcha tergovga yuborish, ish yuritishni tugatish yoki to‘xtatishga oid masalalarni hal qilish.

Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash bosqichidagi taftish (nazorat) asoslari ayniqsa dastlabki tergovda qonuniylikka rioya etilishini, surishtiruv va tergov organlari to‘plagan materiallarning to‘liqligini, sodir etilgan qilmishning to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinganligini, zarur hollarda tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, ishni tugatish va to‘xtatish huquqining amalga oshirilishini nazorat qilish – bularning hammasi sud faoliyatidagi muhim bo‘g‘indir. Biroq JPK 396-moddasining 1-bandida sudyaga sudlovga tegishlilik haqidagi masalani hal qilish vakolati berilgan, 404-moddada esa sudning jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish haqidagi ajrimi yuzasidan shikoyat berish va da’vo qilish huquqi nazarda tutilgan bo‘lsa ham, sudlovga tegishlilik va ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish haqidagi masala jinoyat-protsessual qonundan o‘rin olmay qoldi.

Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashning bosh vazifasi yuzaki tergov qilingan jinoyat ishlarining va u yoki bu shaxsga asossiz ravishda ayb qo‘yilgan yoki boshqa jiddiy qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yilgan ishlarning birinchi instansiya sudida ko‘rilishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat. Ushbu bosqichda sudya ish bo‘yicha ifodalangan ayblovni tasdiqlash yoki, buning ustiga, uni mazmunan hal qilish vazifasiga ega emas. Bu bosqichda sudya ayblovning isbotlanganligi haqida, ayblanuvchining unga ayb sifatida qo‘yilayotgan jinoiy qilmishni sodir etganlikda aybdorligi haqida hech qanday, jumladan, dastlabki xulosalarni ham chiqara olmaydi. Uning vazifasi prokuror tasdiqlagan ayblovni sudda ko‘rish uchun qabul qilish yoki, boshqacha aytganda, jinoyat ishini muhokamaga tayinlash uchun barcha faktik, moddiy-huquqiy va protsessual shart-sharoitlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Sudya jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash chog‘ida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bilan umuman

shug'ullanmasligi kerak. Ushbu bosqichda sudya aynan daliliy materiallar hajmi bilan bog'lab qo'yilgan va qo'shimcha materiallar (hujjatlar, ashyolar va boshqa faktik ma'lumotlar)ni talab qilishga haqli emas. Dalillar faqat ularning yetarliligi, maqbulligi va tegishliligi nuqtai nazaridan baholanadi. Sudya ayblov xulosasiga rozi bo'lish yoki bo'lmaslik, ayblanuvchiga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasini to'g'ri yoki noto'g'ri deb topish, ishni sud majlisida ko'rish uchun asoslarning yetarliligiga ishonch hosil qilish maqsadida, surishtiruv va dastlabki tergov organlari to'plab bergan barcha dalillarni baholashi kerak.

Bundan tashqari, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash ishni sud majlisida ko'rishga nisbatan tashkiliy vazifani ham bajaradi. Odatda, ushbu bosqichda yo'l qo'yilgan tashkiliy xatolar hukmning bekor qilinishiga olib kelmaydi, lekin ular sud muhokamasini ancha qiyinlashtirishi va ishni ko'rib chiqish muddatini cho'zib yuborishi mumkin. Bu, tabiiyki, butun sud faoliyatining samaradorligiga ta'sir etadi.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida hali muayyan shaxsga qo'yilgan aybning isbotlanganligi haqida ham, jinoyat hodisasining o'zi isbotlanganligi haqidagi masalaga ham ishonchli ravishda javob berish mumkin emas. Sudya jinoyat hodisasiga nisbatan, ish materiallaridan va qo'yilgan aybdan kelib chiqib, ayblanuvchiga qo'yilgan ayb jinoyat tarkibiga ega ekanligi yoki ega emasligi haqida hamda sud majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda ayblanuvchi unga ayb sifatida qo'yilayotgan jinoiy qilmishni sodir etganligi ishonchli yoki ishonchli emasligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Sudya yoki sud tergov davomida ish bo'yicha mavjud dalillarning ishonchliligi va yetarliligini tekshirganidan keyingina jinoyat hodisasi mavjudligi va sudlanuvchi aybining isbotlanganligi haqida xulosa qilishga haqlidir.

Tabiiyki, surishtiruv va dastlabki tergovning har tomonlamaligi, to'liqligi va xolisligi haqidagi masalalarini jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash chog'ida hal qilishga to'g'ri kelgan jinoyat ishlarining soniga qarabgina xulosa chiqarib bo'lmaydi. Biroq, agar ushbu bosqich orqali o'tgan va ko'rib chiqilgan jinoyat ishlarining umumiy sonini sudda



tugatilgan ishlar soni, shuningdek, oqlov hukmlari va qo'shimcha tergovga yuborilgan ishlar soni bilan qiyoslaydigan bo'lsak, jinoyat ishlarining asosiy qismi bo'yicha sudyalardan dastlabki tergov sifati va u yoki bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishning to'g'riligi masalasida asosli shubha tug'ilmaydi.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashda ishni sudda ko'rish uchun qonuniy asoslarning mavjudligini sud tartibida nazorat qilish surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlarining faoliyatini yanada yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, umuman, qonuniylikning mustahkamlanishiga yordam beradi. Garchi jinoyat ishini sudga yuborishdan oldin prokuror tekshirsa-da, uning sud muhokamasiga jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida dastlabki sud nazorati tartibida ko'rib chiqmay turib, bevosita sud muhokamasiga kiritish ishni mazmunan to'liq, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga salbiy ta'sir etishi mumkin. Sudning jinoyat protsessidagi faolligi sudyalarning sud muhokamasi davomida sudlanuvchining aybdorligi va adolatli jazolanishi haqidagi masalaning mazmunan hal etilishidan avval qo'yilgan aybning qonuniyligiga ishonch hosil qilish majburiyatini taqozo etadi.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash surishtiruv va dastlabki tergov yuritilishini sud darajasida tekshirishning muhim shakllaridan biri sudyaning yakka tartibda bunday tartibni o'rnatishi ushbu bosqichni surishtiruv va dastlabki tergov organlari insonni jinoiy javobgarlikka tortish haqida chiqargan xulosalarning asoslanganligini sudda tekshirish akti deb tan olishni istisno etmaydi.

Jinoyat protsessining ushbu bosqichi sud faoliyatining chetlab o'tish mumkin bo'lmagan bosqichidir. Surishtiruv va dastlabki tergov organlari tergov qiladigan barcha jinoyat ishlari, ayblov xulosasi tuzilib, uni prokuror imzolaganidan so'ng ularni sudda ko'rishga tayinlash haqidagi masalani hal qilish uchun sudga jo'natiladi.

Ushbu bosqichdan avval keladigan jinoyat ishini tergov qilish bosqichida tegishli harakatlarni amalga oshirib, jinoyatni to'liq ochish, aybdorni fosh etish, isbotlash predmetiga kiruvchi barcha holatlar

aniqlanishi zarur. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashdan keyin keluvchi sud muhokamasi bosqichida ish mazmunan ko‘rib chiqiladi, sudlanuvchining jinoiy javobgarligi va jazolanishi haqidagi masala hal qilinadi. Shu sababli jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash bosqichi, bir tomondan, dastlabki tergovga nisbatan nazorat bosqichi, boshqa tomondan, sud muhokamasiga nisbatan tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashning bevosita vazifasi esa boshqa bosqichlarning, jumladan, dastlabki tergov va sud muhokamasi bosqichlarining o‘xshash vazifalaridan tubdan farq qiladi.

Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashning bosh vazifasi uni amalga oshirishning o‘ziga xos protsessual usullari, vazifalari, shuningdek, jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilarining protsessual holatlarini ham belgilab beradi. Bu vazifa sudyaning surishtiruv va dastlabki tergov yetkazib bergan barcha materiallarni, shuningdek, protsess ishtirokchilaridan, jamoat birlashmalari va jamoalardan kelib tushgan iltimosnomalarni sinchiklab o‘rganishi va tahlil qilishi orqali bajarilishi mumkin.

Sudya qo‘yilgan aybning qonuniyligi va asoslanganligi haqidagi masala borasida kelgan xulosalar sud muhokamasida aybdorlik masalasi qanday hal qilinishini oldindan belgilab bermaydi. Dalillarning bevosita tekshirilmasligi amalda jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilari doirasi ancha tor bo‘lishiga, shuningdek, ularning ushbu bosqichdagi protsessual huquq va majburiyatlari cheklanishiga olib keladi. Ammo jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashda sudya, yangi ayblov faktik holatlariga ko‘ra ayblov xulosasida belgilangan aybdan keskin farq qilmagan taqdirda, ayblov xulosasidan ayblovning ayrim bandlarini olib tashlashi yoki yengilroq jinoyat haqidagi jinoyat qonunini qo‘llashi mumkin.

Ma’lumki, tergov organlarining pirovardida ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi shaklida ifodalangan xulosalari sud muhokamasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin tergov vaqtida to‘plangan dalillar tergov davomida jinoyat-protsessual qonun talablari ish bo‘yicha noto‘g‘ri xulosalarga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy buzilishlar

yuz bermagan taqdirdagina protsessual salohiyatga va ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bois surishtiruv va dastlabki tergov vaqtida jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining talablariga rioya etilganligini sinchiklab tekshirish sudyaning jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlashdagi eng birinchi vazifasidir. Bunday tekshiruv mazkur tayinlashning tartibi deb nomlanuvchi maxsus taomil orqali amalga oshirilishi ham tabiiydir.

Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risidagi qarorda: uning qachon va qayerda chiqarilgani; sudyaning lavozimi va familiyasi; sudlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, Jinoyat kodeksining unga nisbatan e‘lon qilingan aybga doir moddasi; ishning sud majlisida ko‘rilishi uchun yetarli asoslar borligi to‘g‘risidagi xulosa; sudlanuvchilarga nisbatan qo‘llanilgan ehtiyot chorasi to‘g‘risidagi qaror; sud muhokamasida davlat ayblovchisining, shuningdek, himoyachining ishtiroki; sud muhokamasi o‘tkaziladigan joy va vaqt ko‘rsatiladi. Sudya surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilganda jinoyat oqibatida keltirilgan mulkiy zarar qoplanishini ta‘minlash choralari ko‘rilmaganligini va bunday choralar bevosita sud tomonidan ko‘rilishi mumkin emasligini aniqlasa, surishtiruvchi yoki tergovchining zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasini yuklaydi.

Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog‘ida ayblanuvchining yashiringanligi ma‘lum bo‘lib qolsa, sudya ushbu ayblanuvchiga nisbatan ishni yuritishni to‘xtatish va unga nisbatan qidiruv e‘lon qilish to‘g‘risida ajrim chiqaradi, JPK 410 va 418-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ayni chog‘da ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o‘zgartirish masalasi hal etiladi.

Ayblanuvchining sud majlisida ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli kasallikka chalinganligi sud-tibbiy ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda, sudya ayblanuvchi sog‘ayguniga qadar ishni yuritishni to‘xtatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

JPK 399-moddasining birinchi qismiga muvofiq yuritishdan to‘xtatilgan jinoyat ishi ayblanuvchini qidirish choralari ko‘rish uchun ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlagan prokurorga o‘tkaziladi. JPKning 83-moddasida hamda 84-moddasining birinchi

qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa, sud jinoyat ishini tugatadi. Shu bilan birga, sud qo'llanilgan ehtiyot choralarini, fuqaroviy da'voni ta'minlash choralarini bekor qiladi hamda ashyoviy dalillar masalasini hal etadi.

Sud JPK 84-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatishga haqlidir. Ishning tugatilgani to'g'risida ayblanuvchi va jabrlanuvchiga xabar beriladi (JPK 401-m.).

Sudya tergov jarayonida yo'l qo'yilgan texnik yo'sindagi kamchiliklar, shu jumladan yozuvdagi xatolar, harfiy xatolar va arifmetik xatolar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun ishni prokurorga yuboradi. Texnik yo'sindagi kamchiliklar bartaraf etilganidan va ish prokuror tomonidan qaytarilganidan keyin besh sutka ichida sud umumiy qoidalarga ko'ra jinoyat ishini sudda muhokama qilish uchun tayinlash bilan bog'liq masalalarni hal etadi.

Sudya jinoyat ishi sudda muhokama qilish uchun tayinlanganidan so'ng prokuror, himoyachi, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, shuningdek, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vog'ar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga, basharti ular tergov davrida ish materiallari bilan tanishtirilmagan bo'lsalar, ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishlari va o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ko'chirib olishlariga imkoniyat yaratishi shart.

Sudya o'z qarorida ko'rsatilgan shaxslarni sud majlisiga chaqirish to'g'risida farmoyish beradi, ularga chaqiruv qog'ozi topshirilishini ta'minlaydi, shuningdek, sud majlisiga tayyorgarlik bilan bog'liq boshqa choralarni ko'radi.

Sudning jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish va ishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan ayblanuvchi, jabrlanuvchi xususiy shikoyat berishi va prokuror xususiy protest bildirishi mumkin.

Jinoyat ishini sudda muhokama qilishga tayinlash to'g'risida sudyaning qarori chiqarilgan vaqtdan boshlab ko'pi bilan o'n sutkada sud ishini ko'rishni boshlashi lozim.

## **XXI BOB. SUD MUHOKAMASINING UMUMIY SHARTLARI**

### **21.1. «Sud muhokamasining umumiy shartlari» tushunchasi va ahamiyati**

*Sud muhokamasi* – jinoyat protsessining jinoyat ishini tergov qilish va ishni sudda ko‘rish uchun tayinlashdan keyin keluvchi bosqichi bo‘lib, jinoyat ishini birinchi instansiya sudining majlisida ko‘rib chiqishdan iborat. Faqat sud muhokamasi natijasidagina sudlanuvchi jinoyat sodir etganlikda aybdor deb tan olinishi va unga jinoiy jazo tayinlanishi yoki u aybsiz deb tan olinishi va oqlanishi mumkin. Sudning shaxsni aybdor deb topish va unga nisbatan jazo chorasini tayinlash yoki aybsiz shaxsni oqlash haqidagi qarori hukmda bayon qilinadi.

Sud ushbu masalalarni hal qilish orqali odil sudlovni amalga oshiradi. Sud muhokamasi odil sudlovni amalga oshirishning o‘ziga xos protsessual shaklidir. Sud muhokamasining vazifasi jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovning vazifalari bilan mos keladi. Sud muhokamasi ish aniqlangan holatlarni haqiqatda mavjud bo‘lgan holatlarga mos tarzda aniqlanishini ta‘minlashi, ushbu holatlarga jinoyat qonuni nuqtai nazaridan to‘g‘ri baho berishi hamda jinoyat sodir etganlikda aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki aybsiz shaxsni oqlash haqida qaror chiqarish bilan tugallanishi kerak. Jinoyat protsessining bundan avvalgi bosqichlari sud muhokamasi uchun tayyorgarlik bosqichlari hisoblanadi. Sud ularsiz sud majlisida jinoyat ishini mazmunan hal qila olmaydi, lekin ular sud qarorini oldindan belgilab bermaydi. Sud muhokamasida jinoyat ishining barcha holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirish uchun imkoniyatlar ko‘proq. Buning sababi shundaki, sud muhokamasida dalillarni tekshirish natijalari ishonchliligi va jinoyat ishini hal qilish chog‘ida fuqarolar huquqlarining muhofaza qilinishini eng ko‘p darajada kafolatlash orqali jinoyat protsessining barcha prinsiplari eng to‘liq ravishda namoyon bo‘ladi.

Ishni to‘g‘ri hal qilish maqsadida sud muhokamasida jinoyat ishining barcha holatlari tekshiriladi va bu bilan dastlabki tergov

organlari harakatlari, xulosalari va qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligi tekshirilishi ta'minlanadi.

Sud muhokamasida dastlabki tergovda to'plangan barcha dalillar yangitdan tekshiriladi. Biroq sud bundan tashqari sud muhokamasi ishtirokchilari taqdim etgan yoki o'zi aniqlagan qo'shimcha dalillarni ham ko'rib chiqadi. Sudda barcha dalillar sudlanuvchi, uning himoyachisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ular vakillarining faol ishtirokida tekshiriladi. Sud muhokamasida jinoyat protsessi ushbu ishtirokchilarining qatnashishi ular huquqlarining amalga oshirilishiga xizmat qiladi, sudlovning tortishuv asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi va taqdim etilgan dastlabki tergov materiallarini xolisona baholashga imkon beradi.

Sud muhokamasi o'z vazifalari, unda ko'riladigan masalalar doirasi, qabul qilinadigan qarorlarning xususiyati va nihoyat, sud muhokamasida barcha jinoyat-protsessual prinsiplarning amalga oshirishini ta'minlovchi vazifalari bilan jinoyat protsessining asosiy, markaziy bosqichini tashkil qiladi.

Ochiq sud majlislarida, ishning natijasidan manfaatdor barcha shaxslar ishtirokida va oshkora o'tkaziladigan sud muhokamasi fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishga va huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Sud muhokamasi ishtirokchilarining ko'pligi va uning oshkora tarzda o'tishi jinoyat protsessida ijtimoiy nazoratning amalga oshirilishiga, jumladan dastlabki tergov va prokuratura organlarining harakatlari va qarorlari nazorat qilinishiga, shuningdek, sudlarning jamiyatdan ajratilgan muassasalarga aylanishining oldini olishga yordam beruvchi sharoitlarni yaratadi.

Birinchi instansiya sudida sud muhokamasining vazifalari jinoyat ishini yakka tartibda ko'rishda ham, jamoa bo'lib hal qilishda ham umumiy bo'ladi. Sud uchta professional sudyadan iborat bo'ladimi, sudya va ikki nafar xalq maslahatchisidan yoki bitta sudyadan iborat bo'ladimi – bundan qat'i nazar, ushbu vazifalar bir xildir. Sud

muhokamasining protsessual shakllari bir-biridan farq qilsa ham, ularning barchasida odil sudlov amalga oshiriladi.

Sud muhokamasi bir qator ketma-ket bir-birini almashtiruvchi bosqichlar (qismlar)ga bo‘linadi. U ishni ushbu sud majlisida ko‘rib chiqish mumkin yoki mumkin emasligi tekshiriladigan va uni tayyorlash va tashkil qilish choralari ko‘riladigan tayyorlov qismidan boshlanadi. So‘ngra sud dalillarni bevosita tekshiradigan sud tergovi bosqichi o‘tkaziladi. Shundan keyin sud muzokaralari bo‘lib o‘tadi, unda sud muhokamasi ishtirokchilari o‘zlarining ishga bo‘lgan munosabatlarini asoslaydilar, keyin esa sudlanuvchiga oxirgi so‘z beriladi. Sud muhokamasining yakunlovchi bosqichida hukm chiqariladi va e‘lon qilinadi. JPKda ushbu bosqichlarning har birida sud muhokamasini o‘tkazish tartibi belgilab qo‘yilgan.

Ishni birinchi instansiya sudida ko‘rib chiqish tartibini belgilovchi bir qator qoidalar butun sud muhokamasi davomida, uning barcha bosqichlarida amal qiladi.

*Sud muhokamasining umumiy shartlari* – sud muhokamasining qonunda mustahkamlangan o‘ziga xos jihatlarini aks ettirib, ushbu bosqichda jinoyat protsessining barcha prinsiplari amalga oshirilishini ta‘minlovchi qoidalardir. Ularga muhokamaning bevositaligi, og‘zakiligi va uzluksizligi, doirasi (chegaralari), sud tarkibining o‘zgarmasligi, sud majlisida raislik qiluvchining vazifasi, sud muhokamasining ishtirokchilari, kotibi, tartibi, bayonnomasi haqidagi qoidalar, shuningdek, sud chiqargan ayblovni o‘zgartirish, ehtiyot chorasi, jinoyat ishini tugatish va to‘xtatish, sudlanuvchini yangi ayblov bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda va Jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlanganda sudning harakatlari haqidagi normalar hamda sud majlisi tartibini buzuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan choralar kiradi.

Birinchi instansiya sudi ishni ko‘rishda ish bo‘yicha dalillarni bevosita tekshirishi, ya‘ni sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so‘roq qilishi, ekspertlarning xulosasini tinglashi va zarur bo‘lganda ularni

so‘roq qilishi, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirishi, bayonnomalar va boshqa hujjatlarni e‘lon qilishi shart. Ushbu ta‘rifda bevosita sud muhokamasining mohiyati o‘z ifodasini topgan. Sudyalar ishni hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqidagi ma‘lumotlarni barcha dalillarni sud majlisida bevosita idrok etish orqali oladilar va faqat shu asosda ish bo‘yicha xulosa chiqaradilar. Bunda odatda faktlar haqidagi ma‘lumotlarning dastlabki manbalari tekshirilishi kerak. Sud muhokamasining bevositaligi sudga ishni hal qilish uchun zarur axborotni berishda tartib buzilishlarining oldini olishga imkon beradi. Shu bois bevositalik ishning holatlarini voqelikka mos tarzda aniqlashning muhim shartidir.

Sud dalillarni bevosita idrok etish o‘rniga ishning tekshirilishi lozim bo‘lgan holatlar bo‘yicha to‘plangan dalillarni, tergov o‘tkazish vaqtida qayd etilgan yozma materiallarni o‘rganish va e‘lon qilish bilan cheklanishga haqli emas. Sud qonun bilan qat‘iy cheklangan hollardagina (odatda qandaydir dalilni dastlabki manbada bevosita tekshirish mumkin bo‘lmagan taqdirda) bunday materiallarni e‘lon qilishi mumkin. Biroq o‘shanda ham e‘lon qilingan materiallar sud majlisida har tomonlama tekshirilib tasdiqlanganidan keyingina hukmga asos qilib olinishi mumkin. Sud nafaqat guvohlar, jabrlanuvchilar, sudlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini bevosita tinglaydi, balki mavjud ashyoviy va yozma dalillarni ko‘zdan kechirishi va tekshirishi kerak. Sud ish bo‘yicha tekshiradigan faktlarni tasdiqlovchi tergov harakatlari bayonnomalari (so‘roq va yuzlashtirish bayonnomalaridan tashqari) sud muhokamasida ko‘rib chiqilgan boshqa dalillar bilan birga e‘lon qilinishi, tekshirilishi va baholanishi kerak. Sud hukmda sud muhokamasida e‘lon qilinmagan va tekshirilmagan dalillarga havola qilishi mumkin emas. Ushbu qoidaning buzilishi sud hukmining bekor qilinishiga sabab bo‘ladi.

Sud muhokamasining bevositaligi sudyalar mustaqilligi va ish bo‘yicha qaror qabul qilishda erkinligining shart-sharoiti va ifodasidir. Sud muhokamasining bevositaligi uning protsessual shaklining zaruriy



jihati. Shu bilan birga, u sud muhokamasining umumiy shartlariga kiruvchi protsessual shaklning boshqa bir qator talablari bilan kafolatlanadi. Bevositalik bilan sud tarkibining uzluksizligi va o'zgarmasligi kabi shartlari ham bog'liq.

Agar yuritilayotganida tanaffus e'lon qilingan ish hay'at tarkibida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, sudning ushbu tarkib a'zolaridan hech biri – professional sudya ham, xalq maslahatchisi ham – tanaffus vaqtida boshqa jinoyat ishini ko'rishda ishtirok etishga haqli emas. Ushbu qoida ma'muriy jazo berish haqidagi ishlarga ham daxldor. Agar bir ish bo'yicha o'tkazilayotgan sud majlisining tanaffusi vaqtida sud yoki sudya qandaydir boshqa ishni ko'rib chiqsa, birinchi ish bo'yicha sud muhokamasi davom ettirilishi mumkin emas. Hatto yangi ishni ko'rishda tanaffus e'lon qilgan sudning butun tarkibi emas, balki mazkur tarkibdagi sudyalardan faqat bittasi ishtirok etgan bo'lsa ham uni qayta boshlashga to'g'ri keladi. Ushbu qoida buzilgan taqdirda ish bo'yicha chiqarilgan hukm bekor qilinishi kerak.

Uzluksizlik talabi sud muhokamasining barcha bosqichlarida amal qiladi. Bundan tashqari, bu sud muhokamasining barcha bosqichlari bevosita navbat bilan kelishi lozimligini bildiradi. Sudyalar boshqa ishlarni sud tergovu tugaganidan keyin (tomonlar muzokarasidan oldin) ham, ularning ayrim ishtirokchilari chiqishlari orasida ham, sudlanuvchining oxirgi so'zidan avval ham ko'rib chiqishlari mumkin emas. Sud muhokamasi bosqichlarining yaxlitligi ana shunda namoyon bo'ladi.

Sud sudlanuvchining oxirgi so'zini tinglagach, hukm chiqarish uchun darhol alohida maslahatlashuv xonasiga kirib ketishi kerak. Sud muhokamasining uzluksizligi sudning tekshirilayotgan dalillarni bevosita va bir butun holda idrok etishiga yordam beradi, ish bo'yicha asoslangan ichki e'tiqod shakllanishi uchun sharoit yaratadi, hukmning asosli bo'lishini osonlashtiradi, hukmda bayon qilingan sud xulosalarining ishning haqiqiy holatlariga va sud majlisida bevosita ko'rib chiqilgan dalillarga mos kelishiga ko'maklashadi.

## 21.2. Sud muhokamasining umumiy shartlarining mazmuni

*Jinoyat ishini muhokama qilish chog'ida sud tarkibining o'zgarmasligi. Zaxiradagi xalq maslahatchisi.* Har bir ishni sudyalarning ayni bir tarkibi ko'rib chiqishi lozim. Agar sudyalardan birortasi majlisda ishtirok etishni davom ettira olmasa, uning o'rniga boshqa sudya tayinlanadi va sud muhokamasi qaytadan boshlanadi.

Qonunda sudya almashganda sud muhokamasini qayta boshlash talabidan faqat bitta istisno nazarda tutilgan. Ko'rib chiqilishi uzoq vaqt talab qiladigan ish bo'yicha zaxiradagi xalq maslahatchisi chaqirilishi mumkin. Xalq maslahatchilaridan biri sud tarkibidan chiqqan taqdirda u zaxiradagi halq maslahatchisi bilan almashtiriladi va sud muhokamasi davom ettirilishi mumkin (JPK 407-m.). Bunga zaxiradagi xalq maslahatchisi sud muhokamasida boshidan ishtirok etgan va uning almashtirilishi sud tergovini qayta boshlashni talab etmaydigan taqdidagina yo'l qo'yiladi. Sud tarkibi o'zgarmaydigan sharoitda har bir sudyaga sud muhokamasida yuz berayotgan barcha voqealarni bevosita idrok etish, shuningdek, sud tekshiruvda va qaror qabul qilishda faol ishtirok etish imkoniyati ta'minlanishi zarur. Busiz sudyalarning tengligini hamda ishni ko'rish va hal qilishda haqiqiy kollegiallikni kafolatlab bo'lmaydi.

Sud muhokamasi og'zaki shaklda o'tkaziladi. Bu uni jinoyat protsessining qarorlar asosan ishning yozma materiallari asosida qabul qilinadigan boshqa bosqichlaridan ajratib turadi. Sud muhokamasida zarur axborotning hammasi eshitish orqali idrok etilishi lozim. Sud protsessning barcha tinglovchilarini tinglaydi, guvohlar faqat og'zaki ko'rsatuv beradilar va berilgan savollarga og'zaki javob beradilar, ekspertlar o'zlarining yozma xulosalarini e'lon qiladilar, sud barcha yozma dalillarning mazmunini o'qib eshittirishi lozim, aks holda hukmda ularga havola qilish mumkin emas. Sud, shuningdek, davlat ayblovchisi, fuqaroviy da'vog'ar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, sudlanuvchi, himoyachining (agar sud majlisida himoyachi ishtirok etayotgan bo'lsa) nutqlaridan iborat

bo'ladigan sud muzokaralarini ham tinglaydi. Jinoyat protsessining ushbu ishtirokchilari sudga o'zlari taklif etayotgan sud qarorining ifodasini yozma shaklda taqdim etishga haqli bo'lsalar ham, ammo ushbu yozma ifoda muzokaralardagi chiqishlarning o'rnini bosa olmaydi.

Sud muhokamasining og'zakiligi butun sud tarkibining dalillarni baravar va bevosita idrok etishini ta'minlaydi. Og'zakilik tufayli sud muhokamasi ishtirokchilari ularga berilgan protsessual huquqlarni eng samarali tarzda amalga oshirishlari mumkin. Og'zaki shakl sud muhokamasi ishtirokchilarining dalillarni tekshirishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi, iltimoslar qilish, rad etish, savollar bilan murojaat etish, tushuntirishlar berish, o'z fikrini bildirish kabilarni ancha osonlashtiradi. Og'zakilik protsessning barcha ishtirokchilariga axborotdan teng foydalanish imkonini ta'minlaydi, chunki ular sud majlisida yuz berayotgan voqealarni bir vaqtning o'zida idrok etish imkoniga ega bo'ladilar. Og'zaki shakl tufayli sud muhokamasida ortiqcha vaqt sarfining oldini olish mumkin.

Og'zakilik yuz berayotgan barcha voqealarni sud majlisi zalida hozir bo'lganlar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Busiz sud muhokamasining oshkoraligi prinsipi hech bir ma'noga ega bo'lmaydi.

Sud muhokamasining bevositaligi, uzluksizligi, og'zakiligi va sud tarkibining o'zgarmasligi ishni hal qiluvchi sudyalarning axborotni idrok etishining protsessual usulini belgilab beradi.

*Sud majlisida raislik qiluvchi.* Sud majlisiga raislik qiluvchi sudya rahbarlik qiladi. Raislik qiluvchi ish hay'atda ko'rilganda ham, yakka tartibda ko'rilganda ham bir xil funksiyalarni bajaradi. Birinchi instansiya sudida ishni ko'rib chiqayotgan uch nafar professional sudyadan yoki sudya va xalq maslahatchilaridan iborat hay'atda sudyalar va xalq maslahatchilari barcha masalalarni hal qilishda teng huquqlarga ega bo'ladilar. Shu bilan ish bo'yicha raislik qiluvchi sudya protsessual-tashkiliy xususiyatga ega bir qator qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi. U sud majlisini va sudyalar maslahatini boshqaradi, ya'ni butun protsess ishtirokchilarining ham, sud tarkibining ham faoliyatini tashkil qiladi.

Raislik qiluvchi quyidagilarni bajaradi:

a) ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish hamda haqiqatni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan hamma choralarni ko'radi;

b) ko'rilayotgan ishga aloqasi bo'lmagan holatlarni sud muhokamasiga kiritmaydi;

v) sud majlisida sudning obro'siga mos keladigan, sud protsessini to'g'ri idrok etishga yordam beradigan muhitni yaratadi;

g) sud majlisi o'tadigan zalda tartibga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Shu sababli sud majlisida raislik qiluvchi bir qator maxsus huquq va majburiyatlarga ega. U ish bo'yicha sud majlisini ochadi, sud tarkibini e'lon qiladi, so'roq qilingan guvohlar hali so'roq qilinmaganlari bilan muloqotga kirishishlarining oldini olish uchun choralar ko'radi, protsess ishtirokchilariga – ularning huquqlarini, tarjimonga – uning majburiyatini, ekspert va mutaxassisga – ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, sudlanuvchi va guvohlarning shaxsini aniqlaydi, sudlanuvchiga ayblovning mohiyatini tushuntiradi, sud majlisida barcha protsessual harakatlar amalga oshirilganligini e'lon qiladi, qonunda belgilangan tarzda ularning amalga oshirilishini kuzatib turadi, dalillarning tekshirilishiga rahbarlik qiladi, protsess ishtirokchilarining sud muhokamasi davomida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar haqidagi fikrlarini aniqlaydi, sud majlisi bayonnomasining to'g'ri yuritilishini ta'minlaydi. Raislik qiluvchi sudyalarda muhokamasiga majlis davomida va maslahat xonasida hal qilish lozim bo'lgan barcha masalalarni qo'yadi va sud qarorini e'lon qiladi, odatda hukmni o'zi o'qib eshittiradi va uning ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib beradi.

*Sud muhokamasida prokuror ishtiroki.*

Prokuror birinchi instansiya sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko'rishda ishtirok etib, davlat ayblovini quvvatlaydi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, sudlanuvchilarga, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va sudga taklif etilgan boshqa shaxslarga savollar beradi, Jinoyat kodeksining normalarini qo'llash, sudlanuvchining harakatlarini

tavsiflash, unga jazo turini va me'yorini tayinlash to'g'risida hamda sud hal etishi lozim bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan o'z fikrini bayon qiladi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar xususida o'z fikrini bildiradi.

Sud tergovni ma'lumotlari asosida prokuror sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni o'zgartirish zarur degan xulosaga kelsa, u bu haqda sudga asoslantirilgan bayonot beradi.

Sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergovni ma'lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechadi va voz kechish sabablarini sudga bayon qiladi.

Prokuror ayblovning mazmunini o'zgartirish yoki ayblovdan voz kechish sabablari xususidagi fikrini sudga yozma ravishda taqdim etishi shart.

Prokuror, basharti fuqarolarning huquqlarini va jamiyat manfaatlarini muhofaza etish maqsadlari talab qilsa, da'vo qo'zg'atadi yoki jabrlanuvchi tomonidan qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voni quvvatlaydi.

Prokuror jinoyat ishlarini ko'rishda yoki hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalarni yoxud JPKda nazarda tutilgan hollarda boshqa masalalarni hal etishda apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudida ishtirok etadi.

*Sud muhokamasida sudlanuvchining ishtiroki.* Birinchi instansiya sudining majlisida jinoyat ishi sudlanuvchining ishtirokida muhokama qilinadi, sudlanuvchining sudga kelishi shart. Sudlanuvchi sud majlisiga kelmasa, ishni muhokama qilish keyinga qoldirilishi mumkin. Ishning sudlanuvchi ishtirokisiz muhokama qilinishiga sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan va sudga kelishdan bo'yin tovlagan, uning yo'qligi ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga monelik qilma-gan taqdirdagina yoxud u JPK 272-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan bo'lsa, yo'l qo'yilishi mumkin.

*Jabrlanuvchining sud majlisiga kelmasligi oqibatlari.* Jabrlanuvchi sud majlisiga kelmasa, sud jabrlanuvchining ishtirokisiz ishdagi barcha

holatlarni to'la aniqlash hamda uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mumkin yoki mumkin emasligiga qarab, jinoyat ishini muhokama qilish yoki keyinga qoldirish masalasini hal etadi.

*Prokurorning, himoyachining, jamoat ayblovchisining, jamoat himoyachisining sud majlisiga kelmasligi oqibatlari.* Prokuror sud majlisiga kelmay qolgan taqdirda jinoyat ishini muhokama qilish keyinga qoldiriladi. Himoyachi sud majlisiga kelmasa, uni boshqa himoyachi bilan almashtirishga faqat sudlanuvchining roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Shu sud majlisida himoyachini almashtirish imkoniyati bo'lmasa, ishni muhokama qilish keyinga qoldiriladi. Jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sudga kelmay qolsa, ishning holatlariga qarab, sud ishni ular ishtirokisiz ko'rish mumkinligi yoki muhokamani keyinga qoldirish masalasini hal etadi.

Ishga yangi kirishgan prokurorga yoki himoyachiga sud muhokamasida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur vaqt berilishi lozim.

*Fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgarning sud majlisiga kelmasligi oqibatlari.* Fuqaroviy da'vogar yoki uning vakili sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud fuqaroviy da'voni ko'rmaydi; bu holda mulkiy zarar ko'rgan shaxsning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qilish huquqi saqlanadi. Sud fuqaroviy da'voni fuqaroviy da'vogarning iltimosiga ko'ra uning ishtirokisiz ko'rishga haqlidir. Basharti fuqaroviy da'voni prokuror quvvatlasa yoki sud uni ko'rish zarur deb topsa, fuqaroviy da'vogar yoki uning vakili kelish-kelmasligidan qat'i nazar, sud fuqaroviy da'voni ko'raveradi. Fuqaroviy javobgar yoki uning vakilining sud majlisiga kelmasligi fuqaroviy da'voni ko'rishni to'xtatmaydi.

*Sud muhokamasining doirasi.*

Qonunda sud muhokamasining doirasi belgilangan, ya'ni sudga topshirilgan ish bo'yicha sud tekshiruvi va qarorining predmetini nima tashkil qilishi mumkinligi va sud ishni ko'rishda qaysi masalalarni hal qilishga haqli emasligi ko'rsatilgan.

Sud muhokamasining doirasi: a) shaxslar doirasi va; b) ayblov mazmuni bilan cheklangan. Sudda ish faqat ayblanuvchiga,

shuningdek, haqiqatni aniqlash maqsadida – ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan boshqa shaxslarga nisbatan hamda sudyaning ishni sudda ko‘rish uchun tayinlash haqidagi qarori chiqarilgan ayblov, shuningdek, JPK 416-moddasida belgilangan tartibda qo‘shimcha ayblov bo‘yicha muhokama qilinadi.

Ayb mazmuni bo‘yicha sud muhokamasi doirasi sudda ikki cheklovga rioya etilgan taqdirda, ya‘ni: 1) JPK 416, 417-moddalari belgilangan tartibda o‘zgartirilgan yoki to‘ldirilgan bo‘lsa; 2) uning himoyalanih huquqi buzilmagan taqdirda o‘zgartirilishi mumkin.

Sudlanuvchi himoyalanih uchun barcha huquqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ayblovni rad etish uchun barcha qonuniy vositalardan to‘liq foydalangan, o‘zining javobgarligini yengillashtirishga harakat qilgan taqdiridagina sud o‘zgartirilgan ayblov bo‘yicha hukm chiqarishi mumkin.

*Ayblovning sud tomonidan o‘zgartirilishi.* Sud ayblovni o‘zgartirishga haqli. Bunda ayblovning bir qismi yoki jinoyatning tavsifiy alomatlari chiqarib tashlanadi. Sudda ayblov JPKning 416 va 417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ham o‘zgartirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin.

*Surishtiruvning, dastlabki tergovning to‘liq emasligi yoki jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishlarini bartaraf etish.* Surishtiruv, dastlabki tergovning to‘liq emasligi yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlari jinoyat ishini ko‘rib chiqish chog‘ida sud tomonidan bartaraf etiladi. Sudlanuvchiga nisbatan ayblovni og‘irrog‘i bilan yoki haqiqiy ahvolga ko‘ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish uchun yoki boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan taqdirda, surishtiruv, dastlabki tergovning to‘liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini JPK 416 va 417-moddalariga muvofiq bartaraf etiladi.

*Sudlanuvchini yangi ayblov bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda sudning harakatlari.* Agar sud tergovi

vaqtida sudlanuvchining unga ilgari ayblov qo'yilmagan jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud yangi ayblov bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi. Bunda sud taqdim etgan materiallar asosida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib jinoyat ishi qo'zg'atish masalasi vakolatli mansabdor shaxs tomonidan hal etiladi. Yangi ayblov dastlabki ayblov bilan uzviy bog'liq bo'lgan va ularni alohida-alohida ko'rish imkoniyati bo'lmagan hollarda, sudlanuvchini ko'rilayotgan ish doirasida yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash tartibi davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokurorning yoki jabrlanuvchining, uning vakilining iltimosnomasiga ko'ra amalga oshiriladi. Iltimosnomada ayblovni to'ldirish bilan bog'liq protsessual harakatlarning o'tkazilishi zarurati asoslantirilgan bo'lishi kerak. Sud berilgan iltimosnoma bo'yicha uni qanoatlantirish to'g'risida yoki qanoatlantirmasdan qoldirish haqida ajrim chiqaradi. Iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, sud ajrimda ayblovni to'ldirish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun qanday holatlarga aniqlik kiritilishi lozimligini ko'rsatadi va uning ijrosini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga ijro muddatini bir oygacha doirada ko'rsatgan holda topshiradi.

Qo'shimcha protsessual harakatlar natijalariga ko'ra davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror sudga yig'ilgan dalillarni taqdim etadi, ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimchani o'qib eshittiradi hamda uning ko'chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi. Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo'yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo'shib qo'yish haqida ajrim chiqaradi.

Sud sudlanuvchining, uning himoyachisining iltimosnomasi bo'yicha ularning prokuror tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimcha bilan tanishishga, shuningdek, ushbu dalillarga va xulosaga e'tirozlar taqdim



etishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi. Sud ushbu masalalarni hal qilishda sudlanuvchi va uning himoyachisi huquqlarini ta'minlash uchun sud majlisida o'n sutkagacha tanaffus e'lon qiladi.

Sudning ajrimi belgilangan muddatda ijro etilmagan yoki dastlabki ayblovni o'zgartirish yoki to'ldirish uchun dalillarni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, sud jinoyat ishida mavjud bo'lgan dalillar asosida sud muhokamasini davom ettiradi.

Sudning ajrimini ijro etish natijalari bo'yicha yoki sud muhokamasi jarayonida taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPK 443-moddasining ikkinchi qismida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

To'plangan qo'shimcha dalillar va aniqlangan holatlar asosida prokuror og'irroq ayblovga o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan ayblov asosida yoxud haqiqiy ahvolga ko'ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov asosida qarorning ta'rifini taraflar muzokaralarida sudga taqdim etadi.

*Jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlanganda sudning harakatlari.* Agar sud tergov vaqtida javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi. Bunda sud taqdim etgan materiallar asosida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, jinoyat ishi qo'zg'atish masalasi vakolatli mansabdor shaxs tomonidan hal etiladi. Sodir etilganligi taxmin qilinayotgan jinoyat ko'rilayotgan ish bilan uzviy bog'liq bo'lgan va bu ishlarni alohida-alohida ko'rish imkoniyati bo'lmagan hollarda, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror yoki jabrlanuvchi, uning vakili iltimosnomasiga ko'ra sud boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslarni aniqlash yuzasidan tegishli protsessual harakatlarni bir oygacha bo'lgan muddatda o'tkazishni ish bo'yicha ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga topshirish haqida ajrim chiqaradi. Iltimosnomada boshqa shaxsni ayblanuvchi tariqasida

ishda ishtirok etishga jalb qilish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirish zarurati asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Sud ajrimini ijro etish natijalariga ko'ra davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror sudga yangidan tuzilgan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud ularga qo'shimchani taqdim etadi hamda uning ko'chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi. Ilgari e'lon qilingan ayblov boshqa shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi munosabati bilan o'zgartirilgan taqdirda, sud ishni ko'rishni sud muhokamasining umumiy shartlari bo'yicha qayta tiklaydi. Bunday hollarda sud muhokamasining muddati o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan ayblov bo'yicha ishni sudda ko'rish qayta tiklangan paytdan e'tiboran hisoblanadi.

Ish bo'yicha sud tergovni o'tkazilayotganda sud sudda ishni yuritish to'xtatib turilguniga qadar o'tkazilgan protsessual harakatlarni takroran o'tkazish zarurligi to'g'risidagi masalani taraflarning fikrini inobatga olgan holda hal qiladi.

Prokuror tomonidan ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimchalar taqdim etilganda, sud sudlanuvchiga, uning himoyachisiga prokuror tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo'shimcha bilan tanishishga, shuningdek, ushbu dalillarga va dalolatnoma yoki xulosaga e'tirozlar taqdim etishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi. Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo'yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo'shib qo'yish haqida ajrim chiqaradi. Sud ushbu masalalarni hal qilishda sudlanuvchi, uning himoyachisi huquqlarini ta'minlash uchun sud majlisida o'n sutkagacha tanaffus e'lon qiladi.

Qo'shimcha taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPK 443-moddasining ikkinchi qismida belgilangan tartibda o'tkaziladi. To'plangan va qo'shimcha taqdim etilgan dalillar asosida prokuror taraflar muzokaralarida sudga to'ldirilgan ayblovni inobatga olgan holda qarorning ta'rifini taqdim etadi.

Agar sud tergovni vaqtida bila turib yolg'on ko'rsatuv bergan guvoh, jabrlanuvchi yoki bila turib noto'g'ri xulosa bergan ekspert yoxud bila

turib noto‘g‘ri tarjima qilgan tarjimon tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud hukm chiqarganidan so‘ng jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

*Jinoyat ishining muhokamasini keyinga qoldirish. Sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilish muddati.* Sud majlisiga chaqirilgan shaxslardan birortasining kelmay qolganligi oqibatida yoki yangi dalillar talab qilib olish zarur bo‘lganligi munosabati bilan yoxud sud majlisini olib borishning texnik vositalaridan, shu jumladan videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanishda texnik nosozliklar yuzaga kelganligi tufayli jinoyat ishini muhokama qilish mumkin bo‘lmasa, sud ishni muhokama qilishni keyinga qoldiradi va sud majlisiga kelmagan shaxslarni chaqirish yoki yangi dalillarni talab qilib olish yoxud texnik nosozliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Jinoyat ishini sudda muhokama qilish muddati ishni ko‘rib chiqish boshlangan vaqtdan e‘tiboran ikki oydan oshmasligi shart. Jinoyat ishini sudda ko‘rish muddatini, birinchi instansiya sudining ajrimiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi to‘rt oygacha uzaytirishi mumkin. Sudlarda jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish muddatini to‘rt oydan ko‘proqqa uzaytirishga alohida hollarda faqat murakkab va ko‘p voqeali ishlar bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi. Birinchi instansiya sudining ajrimiga asosan, besh oygacha bo‘lgan bunday uzaytirishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari va olti oygacha bo‘lgan shunday uzaytirishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi amalga oshiradi.

Ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini sudda muhokama qilish muddati ishni muhokama qilish boshlangan kundan e‘tiboran bir oydan oshmasligi kerak. Ushbu muddat birinchi instansiya sudining ajrimiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining,

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudining raisi tomonidan ikki oygacha uzaytirilishi mumkin.

*Jinoyat ishini ko‘rishni to‘xtatish.* Jinoyat ishlarini sudda ko‘rish vaqtida muhokamani davom ettirishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar ham yuzaga keladi. Agarda sudlanuvchi suddan yashiringan bo‘lsa, shuningdek, sudga kelishga imkoniyat bermaydigan ruhiy yoki boshqa og‘ir kasallikka chalingan taqdirda, sud mazkur sudlanuvchiga nisbatan ishni to‘xtatadi va boshqa sudlanuvchilarga nisbatan ishni muhokama qilishni davom ettiraveradi. Agar sud JPKning 416 va 417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda prokurorga qo‘shimcha protsessual harakatlarni amalga oshirishni topshirish haqida ajrim chiqarsa, shuningdek, ishni alohida-alohida muhokama qilish haqiqatni aniqlashni qiyinlashtirgan taqdirda, ishni yuritish butunlay to‘xtatiladi. Yashiringan sudlanuvchiga qidiruv sud ajrimi bilan e‘lon qilinadi. Sud jinoyat ishini ko‘rishni to‘xtatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

*Jinoyat ishini ko‘rishni qaytadan boshlash.*

Jinoyat ishini ko‘rishni to‘xtatishga asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgach, to‘xtatilgan jinoyat ishini ko‘rish qaytadan boshlanadi. Bu haqda sud ajrim chiqaradi. Jinoyat ishini ko‘rish qaytadan boshlanganda jinoyat ishini muhokama qilish muddatining o‘tishi ham bir vaqtning o‘zida qaytadan boshlanadi.

*Sud majlisida jinoyat ishining tugatilishi.*

Sud majlisida jinoyat ishi tugatilishi mumkin, jumladan muhokama paytida JPK 84-moddasi birinchi qismining 4–7-bandlarida va beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslar aniqlansa ish tugatiladi, bunda qo‘llanilgan ehtiyot choralari, fuqaroviy da‘voni ta‘minlash choralari bekor qiladi, ashyoviy dalillar protsessual chiqimlar bilan bog‘liq masalalarni hal etadi. shuningdek, JPK 84-moddasi uchinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar vujudga kelsa JPK 61-bobida belgilangan tartibda, JPK 84-moddasi to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar vujudga kelsa JPK 62-bobida belgilangan tartibda jinoyat ishi tugatiladi.

Agar sud majlisida JPK 83-moddasida va 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar aniqlansa, sud ishni ko‘rishni davom ettiradi hamda 83-moddada nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha oqlov hukmi, 84-modda birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha esa aybdor shaxsga jazo tayinlamay, ayblov hukmi chiqaradi.

*Ehtiyot chorasi masalasini hal etish.*

Sud muhokamasi vaqtida sud zaruratdan kelib chiqib, sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini qo‘llashi, o‘zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Ushbu masala alohida (maslahat) xonada ajrim chiqarish orqali hal etiladi.

*Sud majlisida ajrim chiqarish tartibi.*

Sud muhokamasi vaqtida yuzaga barcha masalalar ajrim chiqarish orqali hal etiladi. Ajrim chiqarish ikki xil tartibda amalga oshiriladi, ya’ni alohida (maslahat) xonada va alohida hujjat tarzida rasmiylashtiriladigan ajrim chiqarish hamda zalning o‘zida (joyida) va sud majlisi bayonnomasida rasmiylashtiriladigan ajrim chiqarish.

Sud ehtiyot choralarini qo‘llash (o‘zgartirish, bekor qilish) to‘g‘risidagi, ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi, ayblanuvchining, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish haqidagi, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi, rad qilishlar haqidagi ajrimlarni, boshqa organlarga ijro etish uchun yuboriladigan o‘zga ajrimlarni, shuningdek, xususiy ajrimlarni alohida xonada (maslahatxonada) chiqaradi. Bu ajrimlar alohida hujjatlar tarzida rasmiylashtiriladi va sud tomonidan imzolanadi.

Boshqa barcha ajrimlar sudning xohishi bilan yo yuqorida ko‘rsatilgan tartibda, yoki o‘z joyida chiqarilib, bu ajrim sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.

*Sud majlisining tartibi.*

Sud muhokamasida protsess ishtirokchilari bilan birga boshqa muomala layoqatiga ega, 16 yoshga to‘lgan shaxslar ham ishtirok etishi

mumkin. Sud jarayoni ko'pchilik hozirligida bo'lib o'tishi, bu vaziyatda tinchlikni ta'minlash va barchaning tartibli harakatlanishiga erishish uchun qonunda muayyan qoidalar belgilangan. Ushbu qoidalarga ko'ra sudyalar kirib kelayotganda sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning hammasi hurmat ma'nosida o'rinlaridan turadilar. Sud protsessining barcha ishtirokchilari sudga tik turgan holda murojaat qiladilar, ko'rsatuvlar beradilar va bayonotlar qiladilar. Ushbu qoidadan faqat raislik qiluvchining ruxsati bilangina chetga chiqilishi mumkin. Sud protsessining barcha ishtirokchilari, shuningdek, sud zalida hozir bo'lgan barcha shaxslar raislik qiluvchining sud majlisida belgilangan tartibga rioya qilish to'g'risidagi farmoyishlarini so'zsiz bajarishlari shart.

Bunday tartib belgilanishi sud hokimiyatiga, adolatli sudlov amalga oshirishga nisbatan hurmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

*Sud majlisida tartibni buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan choralar.*

Sud muhokamasi ishtirokchilaridan birortasi sud majlisida tartibni buzganida, raislik qiluvchining farmoyishiga bo'ysunmaganida yoki sudga hurmatsizlik qilganida unga nisbatan JPKning 272-moddasida nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Tartibbuzar tomonidan bunday harakatlarning takrorlanishi uning sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishiga sabab bo'ladi, bundan tashqari u ma'muriy javobgarlikka ham tortilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Agar ogohlantirish ta'sir qilmasa, protsessning bunday ishtirokchisi sudning ajrimi bilan, boshqa shaxslar esa raislik qiluvchining buyrug'i bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi. Ishni esa chiqarib yuborilgan shaxslarsiz muhokama qilish davom ettiriladi.

Agar sudning ajrimi ayblanuvchi yoki himoyachiga daxldor bo'lsa, ishni ko'rib chiqish kechiktirilishi kerak. Bir shaxsni ayblash yoki himoya qilishni avval boshidan bir necha ayblovchilar yoki bir necha himoyachilar amalga oshirgan hollar bundan mustasno. Chiqarib yuborilgan ayblovchi yoki himoyachining o'zini munosib tutmaganligi haqida sud xususiy ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim tegishli ravishda yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar hay'atining rayosatiga jo'natiladi.

Agar sud majlisining zalidan sudlanuvchi chiqarib yuborilgan bo'lsa, hukm uning ishtirokida o'qib eshittirilishi yoki o'qib eshittirilganidan so'ng darhol unga imzo chektirib e'lon qilinishi kerak.

Sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan shaxsni (sudlanuvchi, ayblovchi va himoyachidan tashqari) raislik qiluvchi shu joyning o'zida chiqarilgan ajrim asosida ma'muriy javobgarlikka tortishi mumkin. Ajrim sud majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

*Sud majlisining bayonnomasi.*

Sud muhokamasi vaqtida sud majlisining kotibi JPK 90–92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida bayonnoma yuritadi. Sud majlisining bayonnomasida sud majlisi boshlangan va tamom bo'lgan vaqt ko'rsatilgan holda majlis bo'lgan joy va sana; sudning nomi va tarkibi; sud majlisining kotibi, tarjimon, ayblovchi, himoyachi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va uning vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, shuningdek, sud chaqirgan boshqa shaxslar; ko'rilayotgan ish; sudlanuvchining shaxsiga doir ma'lumotlar; hozir bo'lgan va hozir bo'lmagan guvohlar hamda ularning kelmaganlik sabablari, raislik qiluvchining barcha farmoyishlari ko'rsatiladi va sudning harakatlari qanday tartibda o'tgan bo'lsa, shu tartibda yoziladi. Shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ariza va iltimosnomalari; sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlar ko'rsatuvlarining batafsil mazmuni; berilgan savollarga ekspertning javoblari; sud muzokaralarining ketma-ketligi, sud muzokaralarida ishtirok etgan shaxslarning xulosalari hamda sudlanuvchi oxirgi so'zining mazmuni; basharti jinoyat protsessi ishtirokchilari iltimos qilsa, ishni ko'rish paytida yuz bergan holatlar to'g'risidagi arzlilar aks ettiriladi.

Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi haqidagi; texnika vositalari to'g'risidagi; sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'maklashayotgan sud va xodimlar (boshqa hududdagi) haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sud majlisi audio- yoki videoyozuvga olinganda, sud majlisi bayonnomasida bu haqda qayd etiladi. Audio- va videoyozuv shaklidagi axborotni tashuvchi elektron yoki boshqa manbalar qo'llanilganligi

haqida sud majlisi bayonnomasiga yozilib, ushbu vositalar bayonnomaga ilova qilinadi. Axborot tashuvchi elektron yoki boshqa manbalarga disklar, fleshkalar, magnit tasma kabilarni kiritish mumkin.

Sud majlisining bayonnomasi raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanadi. Sud majlisining bayonnomasi hukm chiqarilgan kunning ertasidan, murakkab ishlar bo'yicha esa uch sutkadan kechiktirmay imzolanishi kerak. Sud zarur deb topgan hollarda, guvohlar va jabrlanuvchilar sud majlisining bayonnomasidagi o'zi bergan ko'rsatuvlarni imzolaydi.

Sud majlisi bayonnomasining mazmuni bo'yicha raislik qiluvchi bilan sud majlisining kotibi o'rtasida kelishmovchilik bo'lgan taqdirda, kotib o'z mulohazalarini bayonnomaga ilova qilishi shart, bu mulohazalar sud tarkibi (hay'atda ko'rilganda) tomonidan ko'riladi. Ushbu masala yuzasidan ajrim chiqarilib, bayonnomaga ilova qilinadi. Sud majlisining bayonnomasi to'liq bo'lishini ta'minlash uchun stenogramma yuritilib, uning materiallari jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi.

*Sud majlisining bayonnomasi yuzasidan mulohazalar berish va ularni ko'rib chiqish tartibi.*

Sud majlisi bayonnomasi imzolanganidan keyin besh sutka ichida taraflar bayonnoma bilan tanishib, shu bayonnoma yuzasidan o'z mulohazalarini berishlari mumkin. Mulohazalarni raislik qiluvchi ko'rib chiqib, ularga qo'shilgan taqdirda ularning to'g'riligini tasdiqlaydi va sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yadi.

Raislik qiluvchi sud majlisi bayonnomasi yuzasidan berilgan mulohazalarga qo'shilmagan taqdirda, bu mulohazalar ushbu ishni ko'rgan sud tarkibi hal etishi uchun kiritiladi. Basharti ishni sudyaning yakka o'zi ko'rib chiqqan bo'lsa, raislik qiluvchining qarori uzil-kesil hisoblanadi, lekin manfaatdor taraflar bu qaror ustidan JPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat berishi yoki protest bildirishi mumkin.



## **XXII BOB. SUD MUHOKAMASINING TARTIBI**

### **22.1. Sud muhokamasi. Sud majlisining tayyorlov qismi**

Sud muhokamasi jinoyat ishi materiallarining har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirilishini ta‘minlashga va sudning obyektiv haqiqatni aniqlashga qaratilgan protsessual harakatlarni o‘tkazishning qonunda va sudda belgilangan ketma-ketlikda va tartibda o‘tkaziladi. Sud muhokamasini quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

- 1) sud muhokamasining tayyorlov qismi (JPK 428–438-m.);
- 2) sud tergovi (JPK 439–448-m.);
- 3) taraflarning muzokarasi (JPK 449–456-m.);
- 4) sudlanuvchining oxirgi so‘zi (JPK 451-m.);
- 5) hukm chiqarish (JPK 454-m.).

Sud muhokamasining har bir qismi sud muhokamasi bosqichining oldida turgan umumiy vazifalar doirasidagi maxsus vazifalarga ega bo‘lib, garchi turli qismlarning tartibga solinish hajmi va darajasi turlicha berilgan bo‘lsa-da, Jinoyat-protsessual kodeks normalarining talablariga qat’iy rioya etgan holda o‘tkaziladi. Masalan, sud muhokamasi tayyorlov qismi va hukm chiqarishning barcha harakatlari ketma-ketligi qonunda aniq belgilab qo‘yilgan, sud tergovidagi protsessual harakatlarning xususiyati JPKda tartibga solingan, ularni o‘tkazish ketma-ketligi esa sud ixtiyoriga havola qilingan.

Sud muhokamasining tayyorlov qismi uni ochish bilan boshlanadi va ayblov xulosasini o‘qib eshittirishgacha davom etadi. Sud majlisining ushbu bosqichida dalillarni to‘liq va har tomonlama tekshirish hamda protsess ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlariga rioya etgan holda ishni to‘g‘ri hal qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Ayni paytda sud muhokamasining tayyorlov qismi sud tergoviga tayyorlanish maqsadidagina o‘tkaziladi, deb hisoblamaslik kerak. Ariza va iltimoslarni hal qilish yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi bo‘lmaganida, jinoyat ishini ko‘rish mumkinligi haqidagi masalani hal

qilish – aslo tayyorlov ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalargina emas. Aytilganlar sud majlisining aynan shu qismida sof tayyorlov ahamiyatiga ega bo‘lgan (masalan, sudga kelganlikni tekshirish, guvohni sud majlisi bo‘layotgan zaldan chiqarish, sud tarkibini e‘lon qilish, sudlanuvchining shaxsini aniqlash kabi) bir qator masalalarning hal qilinishini istisno etmaydi.

JPKda sudning protsessual harakatlarini qaysi tartibda o‘tkazishi zarurligi haqida bevosita ko‘rsatmalar berilmagan. Amalda sudlar ushbu harakatlarni JPKning sud muhokamasining tayyorlov qismini tartibga soluvchi moddalarida joylashgan tartibda o‘tkazadilar.

Sud majlisi quyidagicha ochiladi: raislik qiluvchi sud (sudning nomi to‘liq keltiriladi)ning ochiq deb e‘lon qilinishini o‘qib eshittiradi. Shundan so‘ng u qaysi ish muhokama qilinishini, so‘ngra sudlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, jinoyat kvalifikatsiya qilingan jinoyat qonunining moddasini xabar qiladi.

Sud muhokamasi o‘tkaziladigan joy va vaqt jinoyat ishini ko‘rishga tayinlash haqidagi qarorda ko‘rsatiladi. Sud majlisi aniq belgilangan vaqtda ochilishi kerak.

«Raislik qiluvchi» deganda, jinoyat ishini birinchi instansiyada ko‘rayotgan sudning raisi, uning o‘rinbosari yoki sudyasi tushuniladi.

Tegishli protsessual harakatlarning barchasini sud va sud muhokamasi ishtirokchilari faqat majlis ochilganidan so‘ng bajarishlari mumkin. Sud majlisining kotibi majlis ochilguniga qadar sudga chaqirilgan shaxslarning kelgan-kelmaganligini tekshiradi.

Kotibning ma‘ruzasi majlis ochilganidan keyin tinglanadi. Bunda kotib sud majlisiga kelganlar haqida va kelmaganlarning hozir bo‘lmaslik sabablari haqida, shuningdek, bu qaysi manbadan ma‘lum bo‘lganligi to‘g‘risida xabar berishi kerak. Ma‘ruza tugaganidan so‘ng sudyalar va sud muhokamasi ishtirokchilari (raislik qiluvchining ruxsati bilan) kotibga aniqlik kirituvchi savollar berishlari mumkin, sud esa, zarur bo‘lganda, ayrim shaxslarning kelmaganlik sabablarini aniqlash choralari ko‘rishi lozim.

Raislik qiluvchi, agar qatnashayotgan bo'lsa, tarjimonga JPKning 72-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarini, shuningdek, javobgarligini tushuntiradi. Sud majlisi ochiq deb e'lon qilingan zahoti tarjimon o'z vazifasini bajarishga kirishadi. Shu bois uning huquqlari va majburiyatlari unga birinchi bo'lib bayon etiladi. Bunda raislik qiluvchi uning ushbu majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi va bila turib noto'g'ri tarjima qilganligi uchun javobgarligini tushuntiradi. Ushbu protsessual harakat bajarilganligi sud majlisining bayonnomasida albatta qayd etiladi. JPKning 20-moddasiga binoan, tarjima jinoyat ishi yuritilayotgan tilga qilinadi, ishda ishtirok etayotgan va ushbu tilni bilmaydigan shaxsga esa – uning ona tiliga, yoxud roziligi bilan u biladigan boshqa tilga tarjima qilinadi. JPKning 72-moddasida sanab o'tilgan majburiyatlardan tashqari, tarjimon sud hukmini ham mahkum (oqlangan) shaxsning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilishi lozim.

Sud majlisining unga kelmagan guvohlar bo'lmaganida ishni muhokama qilish mumkin yoki mumkin emasligi haqida fikr bildirishga haqli bo'lgan ishtirokchilari iltimos qilgan taqdirda ularga bu to'g'rida tarjimonga uning protsessual holati tushuntirilguniga qadar nima deyilganidan qat'i nazar, kotibning majlisga kelganlar haqidagi va kelmagan shaxslarning hozir bo'lmaslik sabablari haqidagi xulosasi bo'yicha ma'ruzasining mazmuni ham tarjima qilib beriladi.

Jinoyat ishida ishtirok etuvchi barcha shaxslar tarjimonning xizmatidan bepul foydalanadilar. Tarjimonning mehnati uchun haqni sud to'laydi. Tarjimon tariqasida kar-soqovlarning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs taklif etilgan bo'lsa, unga nisbatan ham xuddi shu qoidalar amal qiladi.

Raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qilayotganida va JPK 431-moddasida sanab o'tilgan boshqa shaxslar haqida xabar berayotganida, ularning har birining protsessual holatlarini va familiyalarini aytib o'tishi kerak. Bundan tashqari, u sud tarkibini e'lon qilganidan so'ng, agar zaxiradagi xalq maslahatchisi ham majlisda qatnashayotgan bo'lsa, uni ham tanishtirishi shart.

Sud majlisida prokuror ishtirok etayotgan bo'lsa, raislik qiluvchi uning lavozimini va unvonini xabar qiladi. Agar himoyachi ishtirok etayotgan bo'lsa, u aynan qaysi hay'atda ro'yxatda turadigan advokat ekanligi yoki jamoat birlashmasining yoxud korxon, muassasa, tashkilot jamoasining vakili yoki himoyachi sifatida ishtirok etishi uchun ruxsat berilgan boshqa shaxs ekanligi ma'lum qilinadi, ekspert yoki mutaxassis haqida esa – ularning ixtisosligi xabar qilinadi.

Ayblovchi deganda, prokuror yoki jamoat ayblovchisi, himoyachi deganda esa advokat yoki jamoat himoyachisi tushuniladi.

Raislik qiluvchi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ishtirok etishni rad etish huquqlari mavjudligini, ammo ushbu rad etish muayyan sabablarga asoslanishi kerakligini hamda JPKning 76–79-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ushbu huquqdan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. So'ngra har bir ishtirokchidan uning ushbu huquqi unga tushunarli yoki tushunarli emasligi, u rad qilishni istash-istamasligi, aynan kimni nima sababdan rad qilishini aniqlaydi.

Agar sudlanuvchi voyaga yetmagan shaxs bo'lsa va sud majlisiga otasi ham, onasi ham kelgan bo'lsa, sud voyaga yetmagan shaxsning qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlab, o'z ajrimi bilan ulardan biriga sud jarayonida qonuniy vakil bo'lish huquqini berishi mumkin. Bu to'g'rida alohida ajrim chiqariladi, qonuniy vakilga esa ajrim chiqarilganidan so'ng uning rad qilish huquqi tushuntiriladi.

JPK 431-moddasining mazmunidan zaxiradagi xalq maslahatchisini rad qilish masalasini sud to'liq tarkibda ko'pchilik ovozi bilan maslahatxonada hal qilishi kelib chiqadi.

Butun sud tarkibini yoki raislik qiluvchini yoxud ikki nafar xalq maslahatchisini yoki zaxiradagi maslahatchi bo'lmay turib, ulardan birini rad qilish haqidagi iltimos qondirilgan taqdirda ish ko'rilishi mumkin emas va uning muhokamasi qoldiriladi.

Prokurorni yoki protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish masalasi sudyalarni rad qilish masalasi hal qilinganidan keyingina ko'rib chiqiladi. Sud majlisi ochilganidan so'ng guvohlar zaldan chiqarib turiladi.

Guvohlarni maxsus ajratilgan xonaga olib borish haqidagi ko'rsatmani raislik qiluvchi beradi. Uning o'zi guvohlar zaldan chiqarilganlaridan keyin sud majlisi zalida so'roq uchun chaqirilmagunicha paydo bo'lmasliklari choralarini ko'radi. Agar sud tergovi bir kundan ortiq davom etishi oldindan ma'lum bo'lsa, raislik qiluvchi har bir guvohni sudga kelishi kerak bo'lgan kundan xabardor qilishi lozim.

Guvohlar ayni paytda jabrlanuvchi yoki qonuniy vakil bo'lgan hollar ushbu qoidadan mustasno bo'lib, ular sud zalidan chiqarilmaydilar.

Sudlanuvchining qonuniy vakili sud muhokamasining ishtirokchisi bo'lganligi tufayli u kelmagan hollarda ishni usiz ko'rib chiqish mumkinligi haqidagi masala muhokama qilinadi.

Ushbu masala yuzasidan sud muhokamasi ishtirokchilarining fikrlari tinglanganidan so'ng bironta ishtirokchi bo'lmagan holda ishni ko'rish mumkinligi yoki mumkin emasligi haqidagi xulosani prokuror beradi. Sud muhokamasini davom ettirish mumkin emas deb topilgan taqdirda sud ishni muhokama qilishni qoldirish haqida ajrim chiqaradi va kelmagan shaxslarning keltirilishini ta'minlash choralarini ko'radi.

Sudyalar o'zlarining qarorini ishni qoldirish yoxud uni joyida yoki maslahat xonasida muhokama qilishni davom ettirish haqidagi ajrim shaklida chiqaradilar.

Sud muhokamasining tayyorlov qismida hal qilinadigan masalalarga sudlanuvchining shaxsini aniqlash haqidagi masalalar ham kiradi, chunki bunday masalalar nafaqat jazo chorasi haqidagi masalalarni hal qilishda, balki ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlash tartibini belgilashda ham, fuqaroviy da'vo haqidagi masalani hal qilishda ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin va h.k. Sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarga JPKning 434-moddasida sanab o'tilganlaridan tashqari, yana Vatanni himoya qilish bo'yicha jangovar harakatlarda ishtirok etganligi, davlat mukofotlari, faxrli unvonlarining borligi, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'taganligi, ilgari sudlanganligi kabi ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

Asosli, adolatli hukm chiqarishning muqarrar shartini qonunning sudlanuvchiga eng muhim hujjatlarning tasdiqlangan nusxalarini topshirish vaqtini belgilash haqidagi talabi tashkil qiladi. Ushbu hujjatlarga ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi va uning ilovalari kiradi. Agar tegishli hujjatlarning nusxalari o'z vaqtida topshirilgan bo'lsa, raislik qiluvchi quyidagilarni aniqlashi lozim:

1) jinoyat protsessi olib borilgan tilni bilmaydigan sudlanuvchiga uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilinishi ta'minlanganligini;

2) har bir sudlanuvchining o'z hujjatlar nusxasiga ega ekanligini;

3) hujjatlardan olingan ko'chirmalar va parchalar emas, balki to'liq nusxalari topshirilganligini.

Ushbu qoidalar buzilganligi aniqlanganda ishni muhokama qilish qoldiriladi.

Protsess ishtirokchilari sud majlisida faol ishtirok etish va o'zlarining protsessual funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun ular o'zlarining huquqlarini ishni ko'rib chiqishning qaysi paytda, qaysi tartibda, qay tariqa va qaysi doirada amalga oshirishlarini aniq bilishlari kerak.

Raislik qiluvchi, avvalo, sudlanuvchiga uning JPK 46-moddasida sanab o'tilgan huquqlarini tushuntirish bilan cheklanmasdan uning protsessual holatini tushuntirib berishi, protsessual majburiyatlarini bajarmaganligi uchun va sud majlisidagi tartibni buzganlik uchun javobgar bo'lishni ham aytib o'tishi kerak.

Ishda himoyachi ishtirok etgan taqdirda sudlanuvchiga, uning himoyachisi bor-yo'qligidan qat'i nazar, barcha huquqlaridan foydalanishi mumkinligi tushuntiriladi. Jinoyat ishi bir necha sudlanuvchiga nisbatan ko'rib chiqilganda, ularning huquqlari barchalariga bir paytda (birdaniga) tushuntiriladi.

Jabrlanuvchiga uning sudlanuvchi bilan yarashish huquqi tushuntirilganida jabrlanuvchini bunday yarashuvga faqat sud maslahatxonaga chiqib ketgunicha yo'l qo'yilishi haqida ogohlantirish zarur.

Raislik qiluvchi ekspertga uning huquqlari va to'g'ri xulosa berish majburiyatini tushuntiradi. Ekspertga ikki holda, ya'ni uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha hamda sud taqdim etgan materiallar xulosa berish uchun yetarli bo'lmaganida xulosa berishdan bosh tortishi mumkinligi ma'lum qilinadi (JPK 172, 176-m.).

JPKning 69, 70-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq, raislik qiluvchi mutaxassisga uning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Mutaxassis uning bilimlari va mahoratidan foydalanishni talab qiluvchi protsessual harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etishi, sudning e'tiborini dalillarni tekshirish va ayrim protsessual harakatlarni o'tkazish bilan bog'liq holatlarga qaratishi, muhokama davomida yuzaga kelgan tergovga oid masalalar yuzasidan ko'rsatuvlar berishi shart. Mutaxassis raislik qiluvchining ruxsati bilan shaxslarga protsessual harakatlarni yuritish yuzasidan savollar berishga va dalillarni tekshirishga aloqador arizalar berishga haqlidir.

Mutaxassis o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortganligi uchun JPKning 69-moddasida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi.

Sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslarga hamda ekspertlar va mutaxassislarga alohida tarzda ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning barchasini sud majlisining kotibi bayonnoma bilan rasmiylashtiradi.

Sud muhokamasining barcha ishtirokchilari iltimosnoma qo'zg'atish bo'yicha teng huquqlarga ega. Sudlanuvchi, himoyachi va jamoat himoyachisi ham prokuror, jabrlanuvchi yoxud jamoat ayblovchisi qilgan iltimoslar bilan murojaat etishlari mumkin. Fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgarning iltimoslari da'vo predmeti bilan bog'liq. Iltimos bilan murojaat qilish uning ilgari rad etilganligi bilan bog'liq emas.

Iltimoslar og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin, ammo ikkala holda ham ular asoslangan bo'lishi lozim. Iltimoslari bor yoki yo'qligi haqidagi savol sud muhokamasining har bir ishtirokchisiga alohida-alohida beriladi.

Dastlabki tergovda u yoki bu sababga ko‘ra rad etilgan iltimosnoma bu yerda yana bir bor berilishi mumkin. Berilgan iltimoslarga doir masala to‘g‘ri hal qilinishining zaruriy sharti, fikrlarni tinglash tartibidan qat‘i nazar, har bir ishtirokchiga qolgan barcha ishtirokchilarning iltimoslari haqida o‘z fikrlarini aytish imkonini berishdan iborat.

JPK 438-moddasining ma‘nosiga ko‘ra, iltimoslar bevosita berilganidan va muhokama qilinganidan so‘ng hal etilishi lozim. Iltimosning rad etilishi shaxsning keyinchalik yana ushbu iltimos bilan murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Iltimos qanoatlantirilgan holda ham, rad etilgan holda ham sudning iltimoslar bo‘yicha qarori ajrim shaklida qabul qilinadi. Ajrim yo maslahatxonada, yo sudyalarning joydagi muhokamasidan so‘ng chiqariladi. So‘nggi holda ajrim sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi.

Sud muhokamasi boshlanguncha kelib tushgan iltimoslar sud majlisining tayyorlov qismida hal qilinadi. Ularni tezlik bilan hal qilish maqsadida, sud raisi yoki ish bo‘yicha raislik qiluvchi, agar bu vaqtga kelib u tayinlangan bo‘lsa, muayyan tayyorlov harakatlarini qilishi – ma‘lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rab olishi mumkin.

## **22.2. Sud tergov**

*Sud tergov* – sud muhokamasining markaziy qismi bo‘lib, unda sud jinoyat protsessi prinsiplarining eng to‘liq amalga oshirilishi sharoitida jinoyatning haqiqiy holatlarini aniqlash maqsadida barcha mavjud dalillarni tekshiradi.

Sud va tomonlarning sud tergov mazmunining tarkibiy qismi bo‘lgan dalillarni tekshirish faoliyati sud muzokaralari va sud hukmlariga asos bo‘ladigan poydevorni yaratadi. Shu bois hukmning qonuniyligi va asosliligi ko‘p jihatdan o‘tkazilgan sud tergovining sifatiga bog‘liq.



Sud tergovni dastlabki tergovning takrorlanishi emas. Bu – ishning barcha haqiqiy holatlarini mustaqil ravishda tekshirish bo‘lib, tergov qilish davomida dastlab to‘plangan materiallardan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Sud tergovini protsessual faoliyatning boshqa subyektlari – sud tomonlarining va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining faol yordamida o‘tkazadi, bunda barcha dalillarning turli nuqtai nazarlardan bir vaqtda tahlil qilinishi ta‘minlanadi. Sud tergovni dalillarni oshkora, og‘zaki, bevosita va uzluksiz tekshirish tarzidagi maxsus protsessual shaklda amalga oshiriladi. Sud tergovchi va prokurorning xulosalari hamda ular olgan dalillar bilan cheklanmaydi. Sud tergovida isbotlash davomida voqeaning barcha imkoniyatdagi tasmolari tekshiriladi; sud ayblov xulosasida ifodalangan tasmolga ergashmaydi va sud majlisida tekshirilgan dalillarga, jumladan, sudning o‘zi olgan qo‘shimcha ma‘lumotlarga asoslangan qarorni qabul qilishi shart.

Sud tergovida isbotlash protsessual shartlarining xususiyatiga ko‘ra, sudning faktik ma‘lumotlarini tekshirish borasidagi harakatlari jinoyatlarni tergov qilish davomida o‘tkaziladigan tergov harakatlaridan muayyan farqlarga ega. Qonunda (JPK 70-m.) sudning har qanday tergov harakatlarini o‘tkazishi mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, ko‘pgina tergov harakatlari bu o‘rinda sudning muayyan shaxslarni so‘roq qilish jarayonining tarkibiy qismi ko‘rinishida yuz beradi. JPKda sud tergovidagi isbotlash jarayoni uchun xos bo‘lgan asosiy sud harakatlari sifatida sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohni so‘roq qilish, ekspertiza o‘tkazish, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish, hujjatlarni o‘qib eshittirish, hodisa joyi va xonalarni ko‘zdan kechirish sanab o‘tilgan. Biroq sudda tergov eksperimenti, guvohlantirish, tekshirish uchun namunalarni olish jarayonlarini o‘tkazish ham istisno etilmaydi.

Sud tergovida dalillarni tekshirishdan avval ayblov ifodalangan hujjatlar o‘qib eshittiriladi, shuningdek, dalillarni tekshirish tartibi muhokama qilinib belgilanadi.

Ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini o‘qib eshittirishdan ko‘zlangan maqsad qaysi ayblov sud muhokamasining mavzui ekanligini

oshkora e'lon qilishdan iborat. Sudya ayblovni o'zgartirgan hollarda sud majlisini tayinlash haqidagi masalani hal qilish chog'ida sudyaning qarori ham o'qib eshittiriladi.

Davlat ayblovchisi ayblov xulosasini yoki dalolatnomasini o'qib eshittirganidan so'ng raislik qiluvchi sudlanuvchining ayblovga munosabatini aniqlaydi. Raislik qiluvchi sudlanuvchidan (ular bir nechta bo'lsa, har biridan) ayblovning tushunarli bo'lgan-bo'lmaganligini so'raydi, zarur bo'lganda sudlanuvchiga ayblovning mohiyatini tushuntiradi va u o'zini aybdor deb tan olish-olmasligini so'raydi (JPK 439-m.). Sudlanuvchining istagi bo'yicha raislik qiluvchi uning ayblovga munosabatini to'liq ochib bera olishi uchun unga o'z javobini asoslash imkonini beradi.

So'ngra dalillarni tekshirish tartibi muhokama qilinadi va belgilanadi, ya'ni sudning tomonlar ishtirokida ishda mavjud bo'lgan va qo'shimcha ravishda taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni ko'rib chiqish ketma-ketligi haqidagi masalani hal qiladi. Qonunda har bir sud harakatining protsessual tartibi batafsil belgilanishi bilan bir qatorda, ayni paytda har bir jinoyat ishi bo'yicha sud isbotlashi o'ziga xos bo'lganligi sababli, ularni yuritishning muayyan ketma-ketligi ilgaridan belgilanmagan. Qonunda sudga sud tergovni boshida dalillarni tekshirishning ishni ko'rish uchun eng maqbul bo'lgan tartibini belgilash huquqi berilgan. Ana shu maqsadda sud ayblovchi, sudlanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ular vakillarining sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, ekspertlarni so'roq qilish ketma-ketligi haqidagi takliflarini tinglaydi va dalillarni tekshirish tartibi haqida ajrim (qaror) chiqaradi. Sud tergovining istalgan paytida sud avval belgilangan tartibni o'zgartirishga haqli bo'lib, bu to'g'rida ham tegishli qaror qabul qiladi.

Sud mavjud dalillarning turli manbalarini tekshirish ketma-ketligini aniqlaydi, masalan, sudlanuvchilar, guvohlar, jabrlanuvchilarni qachon so'roq qilishni hal qiladi, muayyan turdagi dalillarning har biriga murojaat etish paytini belgilaydi, ya'ni sudlanuvchilarni, guvohlarni va

boshqalarni qaysi tartibda so‘roq qilish kerakligini hal qiladi. Bunda sud sudlanuvchining unga qo‘yilgan aybga munosabatini, uning ko‘rsatuvlarining so‘roq qilinayotgan boshqa shaxslar ko‘rsatuvlariga qanday ta’sir etishi mumkinligini, dalillarning muayyan manbaidagi ma’lumotlarning hajmi va ahamiyatini, bir turdagi dalillarni boshqalari yordamida tekshirish mumkinligini va boshqa holatlarni inobatga oladi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan tartibga ko‘ra, agar sudlanuvchi ko‘rsatuv berishni istasa, dastlab u, so‘ngra jabrlanuvchi, guvohlar so‘roq qilinadi va boshqa dalillar tekshiriladi. Bu bilan sud va sud muhokamasining barcha ishtirokchilari darhol ishning mohiyati bilan tanishtiriladi, sudlanuvchi esa o‘zining himoyalani huquqini eng ko‘p darajada amalga oshiradi. Agar sudlanuvchilar bir nechta bo‘lsa, birinchi bo‘lib, garchi bunday tartib ayblov tomon og‘ishning paydo bo‘lishiga va ayblanuvchining o‘z aybini tan olganligiga ortiqcha baho berishga yordam bersa ham, odatda o‘zini aybdor deb tan olgan va o‘z sheriklarini fosh etayotgan sudlanuvchilar so‘roq qilinadi.

Jabrlanuvchi odatda guvohlardan oldin so‘roq qilinadi, chunki u ishning natijasidan manfaatdor bo‘lib, barcha guvohlarni so‘roq qilish vaqtida sud zalida bo‘lishi va ularning ko‘rsatuvlarini tekshirishda ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Guvohlarni so‘roq qilish ketma-ketligi ular ko‘rsatuvlarining ahamiyatiga ko‘ra, shuningdek, jinoyatning va uning ayrim voqealarining rivojlanishidagi xronologik ketma-ketlikka qarab belgilanishi mumkin.

Sudda ekspertiza boshqa dalillarni tekshirishga asoslanishi kerak, biroq uni o‘tkazishni asossiz ravishda cho‘zish yaramaydi, chunki bu uning xulosalarini tekshirishga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish, voqea joyini va xonani ko‘zdan kechirish, hujjatlarni o‘qib eshittirish ko‘pincha sud tergovining oxiriga qoldiriladi, ammo muayyan ishlarda sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohni so‘roq qilish vaqtida ularni o‘tkazish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Murakkab, hajmi jihatidan katta ishlarni ko‘rishda dalillarni tekshirish tartibini har bir voqeaga nisbatan alohida belgilash maqsadga

muvofiq. Bu sudning va sud muhokamasi ishtirokchilarining e'tiborini ayblovning muayyan qismiga tortish va u bilan bog'liq holatlarning barchasini to'liqroq aniqlashga yordam beradi. Ba'zan ishning murakkablik darajasi va dalillarning miqdoriga qarab faqat ayblanuvchilarning ko'rsatuvlari yoxud ayblanuvchilar va guvohlarning ko'rsatuvlari voqealar bo'yicha tekshiriladi, qolgan dalillar esa barcha voqealarga nisbatan tekshiriladi.

Sudlanuvchilardan o'z aybini tan olishi yoki olmasligi haqida so'ralganidan so'ng sud tomonlarning dalillarni tekshirish ketma-ketligi haqidagi takliflarini eshitadi. Bunday ketma-ketlikni sud ajrim bilan mustahkamlaydi.

Agar dalillarni tekshirish sudlanuvchilarni so'roq qilishdan boshlangan bo'lsa, ulardan keyin jabrlanuvchilarni so'roq qiladi. Sudlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bosh tortgan yoki boshqa dalillar tekshirilgunicha ko'rsatuvlar berishga rozi bo'lmagan taqdirda jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilish, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, yozma dalillarni o'qib eshittirish, ekspertizalar va boshqa sud harakatlarini o'tkazish ketma-ketligi haqidagi masalani sud ishning aniq holatlaridan kelib chiqib va tomonlarning takliflarini inobatga olib hal qiladi.

Raislik qiluvchi guvohni so'roq qilishdan avval uning shaxsini aniqlaydi hamda uni ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi. So'ngra raislik qiluvchi guvohga barchaning oldida oshkora ravishda quyidagi mazmunda qasamyod qilishni taklif etadi: «Ish yuzasidan o'zimga ma'lum bo'lgan hamma narsani sudga aytib berishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni gapirib beraman, haqiqatdan o'zga narsani gapirmayman». Qasamyod matni guvohga uning majburiyati va javobgarligi tushuntirilgani haqidagi guvohning tilxati bilan birgalikda sud majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi.

O'n olti yoshga to'lmagan guvohga ham JPK 441-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan oshkora qasamyod qilish taklif qilinadi, lekin ko'rsatuv berishdan bosh tortgani yoki bila turib yolg'on ko'rsatuv

bergani uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydi va undan tilxat olinmaydi.

Sudda so'roq qilish JPKning 96–108-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilgan holda olib boriladi. Har bir guvoh hali so'roq qilinmagan guvohlar ishtirokisiz so'roq qilinadi. So'roq qilingan guvohlar sud majlisi zalida qoladilar va sud tergovni tamom bo'lmasidan ilgari zaldan faqat sudning ijozati bilan chiqib ketishlari mumkin.

Voyaga yetmagan guvohni so'roq qilish haqiqatni aniqlash manfaatlari talab qilgan hollarda sudning ajrimi bilan sudlanuvchining yo'qligida o'tkazilishi mumkin. Sudlanuvchi sud majlisi zaliga qaytib kirganidan keyin guvohning bergan ko'rsatuvlari unga ma'lum qilinishi hamda shu guvohga savollar berishga imkoniyat yaratilishi lozim.

O'n olti yoshga to'lmagan guvoh so'roq qilinib bo'lgach, sud bu guvohning majlis zalida qolishi zarur deb hisoblaydigan hollarni mustasno etganda, sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi lozim.

Jabrlanuvchi, shuningdek, ekspert va mutaxassis sud muhokamasining boshidan oxirigacha sud majlisi zalida bo'lishga va barcha so'roqlar chog'ida hozir bo'lishga haqlidirlar.

Sudlanuvchini so'roq qilish ishning unga ma'lum holatlari to'g'risida ko'rsatuv berishi haqida raislik qiluvchining taklifi bilan boshlanadi. Shundan keyin sudlanuvchini davlat ayblovchisi, jamoat ayblovchisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va ularning vakillari, himoyachi, jamoat himoyachisi, fuqaroviy javobgar va uning vakili so'roq qiladilar. So'ngra sudlanuvchiga boshqa sudlanuvchilar va ularning himoyachilari savollar berishi mumkin.

Jabrlanuvchilarni, shuningdek, sud majlisiga chaqirilgan yoki ayblovchi tomonning iltimosiga binoan qo'shimcha ravishda chaqirilgan guvohlar va ekspertlarni so'roq qilish ham 442-moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi. Basharti guvohlar va ekspertlar sud majlisiga himoya tomonining iltimosiga binoan chaqirilgan bo'lsalar, ularni dastlab shu iltimosni qilgan sudlanuvchi yoki uning himoyachisi, keyin esa boshqa sudlanuvchilar va ularning

himoyachilari, jamoat himoyachisi, fuqaroviy javobgar va uning vakili, davlat ayblovchisi, jamoat ayblovchisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va ularning vakillari so'roq qiladilar.

Raislik qiluvchi va xalq maslahatchilari so'roq qilinayotgan har qanday shaxsga sud tergovining istalgan paytida savollar berishga haqlidirlar.

Sud majlisida ko'rsatuv berib bo'lgan shaxslarga bergan ko'rsatuvlarini to'ldirish va aniqliklar kiritish uchun sudning ijozati bilan savollar berilishi mumkin.

Taraflarning iltimoslariga yoki sudning tashabbusiga ko'ra raislik qiluvchi, xalq maslahatchilaridan biri yoki sud majlisining kotibi surishtiruvda va dastlabki tergovda ishga qo'shib qo'yilgan, ish uchun ahamiyatli bo'lishi ehtimol tutilgan yozma dalillarni, ekspertlarning xulosalarini va tergov harakatlari bayonnomalarini o'qib eshittiradi.

Sudning talabiga ko'ra yoki boshqa shaxslarning tashabbuslari bilan taqdim qilingan hujjatlarni sud o'qib eshittiradi va taraflarga taqdim qiladi, ular esa shu hujjatlarning ishga ahamiyati bor-yo'qligi to'g'risida o'z fikrlarini bayon qiladilar. So'ngra sud hujjatlarni ishga qo'shish yoki tegishliligiga qarab qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sud ko'zdan kechirishni JPKning 135–141-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilgan holda o'tkazadi. U surishtiruvda va dastlabki tergovda ishga qo'shilgan ashyoviy dalillarni, shuningdek, taraflar va boshqa shaxslar bevosita sud muhokamasida taqdim etgan narsalarni sud majlisi zalida taraflarning ishtirokida ko'zdan kechiradi. Sud ko'zdan kechirishni o'tkazishga ekspertlarni, mutaxassislarni, guvohlarni ham jalb etishi mumkin.

Sud joy, binolar, inshootlar, xonalarni, shuningdek, sud majlisi zaliga keltirib bo'lmaydigan transport vositalari va boshqa obyektlarni ular turgan joyga borib 444-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan shaxslar ishtirokida ko'zdan kechiradi. U sud tergovida guvohlantirishni JPKning 142–147-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilgan holda o'tkazadi.

Guvohlantirish yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lsa, alohida xonada shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan, guvohlantirilayotgan shaxsning jinsidagi xolislar ishtirokida o'tkaziladi. Guvohlantirish o'tkazib bo'linganidan so'ng protsessning mazkur ishtirokchilari sud majlisi zaliga qaytib kiradilar va u yerda taraflarning, guvohlantirilgan shaxsning va xolislarining ishtirokida shifokor yoki boshqa mutaxassis guvohlantirilgan shaxsning badanida izlar yoki belgilar aniqlangan bo'lsa, shu xususda axborot beradi hamda taraflarning, sudyalarning savollariga javob beradi. Bu ma'lumotlar, shuningdek, guvohlantirilgan shaxsning hamda xolislarining mulohaza va tushuntirishlari sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi va ular shifokor, boshqa mutaxassis, guvohlantirilgan shaxs va xolislarining imzolari bilan tasdiqlanadi.

Sud tergovida ekspertiza JPKning 172–187-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilgan holda tayinlanadi va yatkaziladi. Sud majlisida ekspertizani ilgari dastlabki tergovda xulosa bergan ekspertlar yoki sud tayinlagan yangi ekspertlar yoxud ham ilgarigi, ham keyin tayinlangan ekspertlar birgalikda o'tkazadi.

Taraflardan birortasining iltimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan sud ekspertiza tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi va uni sud majlisida o'qib eshittiradi. Ajrimda ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxs yoki ekspertiza muassasasi ko'rsatiladi va ekspert oldiga savollar qo'yiladi. Bunda sud taraflarga ularning ekspertni rad etish, taraf ko'rsatgan qo'shimcha shaxsni ekspertlar safiga kiritish, ekspert oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, ekspertizani taraflarning ishtirokida o'tkazish to'g'risida iltimoslar qilish, shuningdek, ekspertiza davomida izoh berib borish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi.

Iltimoslar yoki ekspertni rad qilish to'g'risidagi arzlarni sud JPKning 80-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq holda ko'rib chiqadi.

Sud tergovida ekspert so'roq qilinayotgan shaxslarga savollar berishga, yozma dalillar, tergov harakatlarining bayonnomalari, boshqa

ekspertlarning xulosalari bilan tanishishga, ko'zdan kechirishlar, eksperimentlarda va ekspertiza predmetiga oid sudning boshqa harakatlarida ishtirok etishga haqlidir.

Sud tergovi davomida ekspertning oldiga qo'shimcha savollar qo'yilishi mumkin. Ekspertiza predmetiga oid holatlar tekshiruvi tugallangach, sud xulosa tayyorlash uchun ekspertga muhlat beradi. Basharti buning uchun laboratoriya tadqiqotlari o'tkazish lozim bo'lsa, sud ekspertga tegishli obyektlarni beradi.

Ekspert o'z xulosasini sud majlisida o'qib eshittiradi. Xulosa sud majlisining bayonnomasiga ilova qilinadi. Ekspert xulosa berganidan so'ng, xulosada bayon qilingan holatlar bo'yicha u sud majlisida so'roq qilinishi mumkin.

Sud tergovida tanib olish uchun ko'rsatish, eksperiment o'tkazish va ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish JPKning 125–131, 153–156, 188–197-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi. Taraflar shu sud harakatlari munosabati bilan iltimoslar qilishga va o'z mulohazalarini bildirishga haqlidirlar. Sud ushbu harakatlarni o'tkazishda ko'maklashishni surishtiruv organining boshlig'i yoki tergovchidan talab qilishga haqlidir.

Tanib olish uchun ko'rsatish, eksperiment o'tkazish hamda namunalar olish jarayoni va natijalari, shuningdek, mazkur sud harakatlarining yuritilishi munosabati bilan bildirilgan iltimoslar, mulohazalar va tushuntirishlar sud majlisining bayonnomasida qayd qilinadi.

Barcha dalillar tekshirib chiqilganidan keyin raislik qiluvchi taraflardan ular sud tergovini to'ldirmoqchimi va agar to'ldirmoqchi bo'lsalar, nima bilan to'ldirmoqchi ekanliklarini so'raydi. Basharti bu haqda iltimos qilinsa, sud uni muhokama qiladi va hal etadi. Iltimoslarni qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha harakatlar bajarilganidan so'ng raislik qiluvchi sud tergovini tamom bo'lgan deb e'lon qiladi.



### 22.3. Taraflarning muzokarasi

Sud tergovni tamomlanganidan soʻng sud taraflarning muzokarasini eshitishga oʻtadi. Muzokara davlat ayblovchisi va jamoat ayblovchisining nutqlari bilan boshlanadi. Soʻngra jabrlanuvchi, fuqaroviy daʼvogar yoki ularning vakillari, himoyachi va jamoat himoyachisi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar yoki uning vakili soʻzga chiqadi.

Davlat ayblovchisi va jamoat ayblovchisining, shuningdek, himoyachi va jamoat himoyachisining soʻzga chiqish navbatini sud ularning takliflarini inobatga olgan holda belgilaydi.

Taraflar oʻzlarining nutqlarida sud tergovida koʻrib chiqilmagan dalillarni keltirishga haqli emaslar. Tekshirish uchun sudga yangi dalillarni taqdim etish lozim boʻlsa, taraflar sud tergovini yangitdan boshlash toʻgʻrisida iltimos qilishlari mumkin.

Davlat ayblovchisi sud tergovining yakunlarini inobatga olib, oʻz nutqida sudlanuvchining aybliligi yoki aybli emasligi toʻgʻrisidagi xulosasini asoslantirishi lozim. Davlat ayblovchisi sudlanuvchi aybli degan xulosaga kelganda, unga nisbatan qoʻllanilishi lozim boʻlgan jazo turi va meʼyori haqida sudga oʻz fikrini bayon qiladi.

Taraflar nutq soʻzlab boʻlganlaridan keyin, ulardan har biri boshqa tarafning nutqlarida aytilgan masalalar yuzasidan eʼtirozlar yoki mulohazalar bilan yana bir martadan soʻzga chiqishlari mumkin. Soʻnggi eʼtiroz bildirish huquqi hamisha himoyachi va sudlanuvchiga beriladi.

Sud taraflarning muzokarasini muayyan muddat bilan cheklab qoʻyishi mumkin emas, lekin raislik qiluvchi muzokarada ishtirok etayotgan shaxslarning nutqlarini, basharti ular koʻrilayotgan ishga daxli yoʻq holatlarga taalluqli boʻlsa, toʻxtatib qoʻyishga haqlidir.

Muzokara tamom boʻlganidan keyin taraflar JPK 457-moddasining birinchi qismidagi 1–6-bandlarda nazarda tutilgan masalalar yuzasidan chiqariladigan qarorning oʻzlari taklif etadigan mazmunini sudga yozma ravishda taqdim etishlari mumkin. Davlat ayblovchisi va himoyachi uchun qarorning bunday mazmunini sudga taqdim etish majburiydir.

## **22.4. Sudlanuvchining oxirgi so‘zi**

Taraflarning muzokarasi tamom bo‘lganidan keyin raislik qiluvchi sudlanuvchiga oxirgi so‘z beradi. Sudlanuvchining oxirgi so‘zi vaqtida unga hech qanday savol berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud sudlanuvchining oxirgi so‘zini muayyan muddat bilan cheklab qo‘yishi mumkin emas, lekin raislik qiluvchi sudlanuvchining so‘zini, u ishga mutlaqo aloqasi yo‘q holatlarni bayon qila boshlagan hollarda, to‘xtatishga haqlidir.

Basharti taraflar muzokaradagi nutqlarida yoki sudlanuvchi oxirgi so‘zida ish uchun alohida ahamiyatga molik yangi holatlar to‘g‘risida gapirsalar yoki muqaddam tekshirilmagan, lekin ishga aloqador dalillarni keltirsalar, sud taraflarning iltimoslariga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan sud tergovini yangitdan boshlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Yangitdan boshlangan sud tergovi tamom bo‘lganidan keyin sud taraflarning muzokarasini yangitdan ochadi va sudlanuvchiga oxirgi so‘z beradi.

## **22.5. Sudning qaror qabul qilish uchun alohida (maslahat) xonaga kirishi, hukm chiqarish va uni e‘lon qilish**

Sudlanuvchining oxirgi so‘zini eshitib bo‘lganidan so‘ng sud hukm chiqarish yoki ajrim chiqarish uchun darhol alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi. Bu haqda raislik qiluvchi sud majlisi zalida hozir bo‘lganlarga e‘lon qiladi.

Sudya hukmni alohida xonada, sud hay‘ati esa maslahatxonada chiqaradi. Bunday paytda mazkur xonada faqat sudyaning o‘zi yoki ushbu ish bo‘yicha sud tarkibiga kirgan sudyalar va xalq maslahatchilari hozir bo‘lishlari mumkin. Boshqa shaxslarning hozir bo‘lishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Sudyalarning maslahatlashuvi sir tutiladi. Sudyalarning maslahatlashuvi kech kirishi bilan, zarurat bo‘lgan taqdirda esa, kun davomida ham to‘xtatilishi mumkin. Maslahatlashuv dam olish kuni va bayram kunida ham to‘xtatiladi. Sudyalar maslahatlashuv vaqtida aytilgan mulohazalarni oshkor qilishga haqli emas.

Ish sud tarkibi tomonidan ko‘rilayotgan bo‘lsa, hukm chiqarish oldidan raislik qiluvchi boshchiligida sudyalarning maslahatlashuvi o‘tkaziladi. Raislik qiluvchi tomonidan sud hal qilishi kerak bo‘lgan savollar JPK 457-moddasida ko‘rsatilgan izchillikda, har bir savolga ma‘qullovchi yoki rad etuvchi javob qaytariladigan tarzda qo‘yiladi. Javob qaytarganidan so‘ng sudya javobning sabab-asoslarini ifodalashi mumkin. Har bir savolni hal qilishda sudyalardan hech biri ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Barcha masalalar ovozlarning oddiy ko‘pchiligi bilan hal qilinadi. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi. Birinchi navbatda sudlanuvchining manfaatiga to‘laroq mos keladigan fikr ovozga qo‘yiladi. Basharti oqlash to‘g‘risida ovoz bergan sudya yoki sudyalar ozchilikni tashkil qilib, boshqa sudyalar esa jinoyatning tavsifi yoki jazo chorasi to‘g‘risida har xil fikrda bo‘lsalar, oqlash uchun berilgan ovoz yoki ovozlari Jinoyat kodeksining yengilroq jazo chorasini nazarda tutgan tegishli moddasi bo‘yicha tavsif qilish uchun berilgan ovozga qo‘shiladi.

Ishni sudya ko‘rayotgan bo‘lsa, JPK 457–459-moddalarida ko‘rsatilgan masalalarni yakka o‘zi hal qiladi.

JPK 457–459-moddalarida nazarda tutilgan masalalar hal etilganidan so‘ng sud hukmni tuzishga kirishadi. Sudda ish qaysi tilda ko‘rilgan bo‘lsa, hukm shu tilda, aniq va tushunarli iboralarda bayon qilinadi. Hukm uni chiqarishda qatnashgan sudyalardan biri yoki hukmni yakka o‘zi chiqargan sudya tomonidan qo‘lda yoki texnik vositalardan foydalangan holda yoziladi. Hukmga kiritilgan tuzatishlar hukm e‘lon qilinishidan oldin izohlanishi va sudyaning (sudyalarning) imzosi bilan tasdiqlanadi.

Hukm sudya tomonidan chiqarilgan bo‘lsa, uni sudyaning yakka o‘zi, sud tarkibi tomonidan chiqarilgan bo‘lsa, sudyalarning hammasi imzolaydi. Ovoz berish vaqtida ozchilikni tashkil qilgan sudya hukmga imzo qo‘yib, o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishi mumkin. Bu fikr bevosita maslahatxonada yoziladi. Alohida fikr ishga ilova qilinadi, lekin sud majlisining zalida e‘lon qilinmaydi. Agar alohida

fikr mavjud bo‘lgan ish apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan bo‘lsa, hukm qonuniy kuchga kirgandan keyin ish uni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish masalasini hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuboriladi.

Sud hukmni imzolaganidan keyin sud majlisi zaliga qaytib chiqadi va raislik qiluvchi yoki xalq maslahatchisi hukmning qaror qismini e‘lon qiladi. Sud majlisi zalida hozir bo‘lganlarning hammasi, shu jumladan sud tarkibi ham hukmni tik turib eshitadilar. Agar hukm sudlanuvchi bilmaydigan yoki yetarlicha bilmaydigan tilda bayon qilingan bo‘lsa, hukmning qaror qismi e‘lon qilingandan keyin, mazkur qism tarjimon tomonidan sudlanuvchining ona tilida yoki u tushunadigan boshqa tilda o‘qib eshittiriladi.

Raislik qiluvchi sudlanuvchiga va boshqa taraflarga hukmning mazmunini, hukm ustidan ular istagi bo‘yicha apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish muddati va tartibini tushuntiradi. Basharti sudlanuvchi favqulodda jazo chorasi – umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan bo‘lsa, unga afv etishni so‘rab iltimos qilish huquqi ham tushuntiriladi.

## **22.6. Hukm chiqarishda va u e‘lon qilinganidan keyin sud hal qiladigan boshqa masalalar**

Alohida xonada (maslahatxonada) hukm chiqarish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish vaqtida sud ish uchun ahamiyati bo‘lgan biror holat qo‘shimcha ravishda aniqlanishi kerak deb topsa, hukm chiqarmay, sud tergovini yana davom ettirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Davom ettirilgan sud tergovi tamom bo‘lganidan keyin yana taraflarning muzokarasi o‘tkaziladi va sudlanuvchining oxirgi so‘zi eshutiladi. Shundan so‘ng sud hukm chiqarish yoki ajrim chiqarish uchun darhol alohida (maslahat) xonaga kiradi.

Sudlanuvchi oqlanganda, shuningdek, jazo tayinlanmasdan yoki jazodan ozod qilib yoxud shartli ravishda ozodlikdan mahrum etib yoki

ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlab ayblov hukmi chiqarilganda, xuddi shuningdek, sudlanuvchi dastlabki qamoqda yoxud uy qamog'ida bo'lgan vaqtdan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlanganda, qamoqda yoxud uy qamog'ida saqlanayotgan sudlanuvchi bevosita sud majlisi zalining o'zida darhol ozod qilinadi.

Hukm e'lon qilinganidan keyin uch sutkadan kechiktirilmay, hajmi katta bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirilmay, uning nusxasi mahkumga va oqlangan shaxsga berilishi lozim. Boshqa taraflarga hukm nusxasi yoki uning ko'chirmasi shu muddatda, ularning iltimoslariga asosan beriladi. Agar mahkum qamoqda saqlanayotgan bo'lsa, hukmning ko'chirma nusxasi unga qamoqda saqlash joyining ma'muriyati tomonidan hukm kelib tushgan kuni tilxat olib topshiriladi, tilxat ko'chirma nusxa topshirilgan sana va vaqt ko'rsatilgan holda sudga taqdim etiladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning voyaga yetmagan bolalari, qari ota-onalari, qaramog'ida boshqa shaxslar bo'lsa va ular qarovsiz hamda yordamsiz qolayotgan bo'lsa, sud ayblov hukmini chiqarish bilan bir vaqtda ularni qarindoshlari yoki boshqa shaxslarning va muassasalarning vasiyligiga yoki homiyligiga topshirish, mahkumning qarovsiz qolayotgan mol-mulki yoki uy-joyi bo'lsa, ularni qo'riqlab turish choralarini ko'rish bilan bog'liq masalalarni ham hal qiladi. Bu haqda ajrim chiqariladi. JPK 50-moddasida ko'rsatilgan tartibda tayinlangan advokat ishda himoyachi bo'lib qatnashgan hollarda sud advokatlar byurosi, hay'ati yoki firmasi rahbarining iltimosnomasi bo'lgan taqdirda ajrim chiqarib, unda advokatlar byurosi, hay'ati yoki firmasi foydasiga mahkumdan haq undirish va bu haqning miqdori to'g'risidagi masalani hal qiladi. JPK 298 va 300-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, xususiy ajrim chiqaradi. Unda davlat organlari, jamoat tashkilotlari yoki mansabdor shaxslarning diqqatini jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni bir oylik muddat ichida tegishli choralar ko'rib bartaraf etish uchun, ish

yuzasidan aniqlangan qonun buzilishlari faktlariga qaratadi. Shuningdek, tegishli mansabdor shaxslarning e'tiborini surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarga jalb qilish zarur bo'lganda sud hukm chiqarish bilan bir vaqtda xususiy ajrim ham chiqaradi. Hukm chiqarish bilan bir vaqtda hal etiladigan masalalarga oid barcha protsessual qarorlar (ajrimlar) sud majlisining zalida hukm e'lon qilinganidan keyin o'qib eshittiriladi.

Shuningdek, hukm e'lon qilinganidan keyin raislik qiluvchi yoki sud raisi qamoqda saqlanayotgan mahkumning yaqin qarindoshlari yoki uning himoyachisi iltimosiga ko'ra u bilan uchrashish imkoniyatini berishi shart.

## **XXIII BOB. HUKM**

### **23.1. Hukm mazmuni va ahamiyati**

*Hukm* sud majlisida sudlanuvchining aybdor yoki aybsizligi va unga nisbatan jazo qo'llash yoki qo'llamaslik haqidagi masala xususida chiqariladigan sudning hal qiluv qarordir. Aybsizlik prezumpsiyasi konstitutsiyaviy prinsipi aynan hukmda namoyon bo'ladi va unga asosan, hech kim sud hukmisiz va qonunga xilof ravishda jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi hamda jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas (Konstitutsiyaning 26-moddasi). Hukm davlat nomidan chiqariladigan odil sudlovning eng muhim hujjatidir.

Hukm – qonuniy, adolatli va asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Hukm qonun talablari buzilmasdan amalga oshirilgan sud muhokamasi natijasida, qonunda nazarda tutilgan tartibda va sharoitda chiqarilgan bo'lsa va unda barcha masalalar to'g'ri, ya'ni moddiy va protsessual huquq normalariga muvofiq tarzda hal qilingan bo'lsa, *qonuniy* deb e'tirof etiladi.

Agar hukm sud majlisida har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilgan dalillarga asoslangan bo'lsa, u asosli deb e'tirof etiladi. Hukmning asosligi, avvalo, uning haqiqiyliги bo'lib, bu aniqlangan faktlarning shubhasizligini hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jihatdan to'g'ri baholanganligini bildiradi.

Hukm adolatli bo'lishi kerak. Bu hol sud sudlanuvchining aybini aniqlashi hamda jinoyatning og'irligiga va sudlanuvchining shaxsiga mos keladigan jazo tayinlashi kerakligini bildiradi. Hukmga qo'yiladigan barcha talablar o'zaro bog'liq va aloqadordir. Agar hukm asosli bo'lmasa, adolatsiz bo'lsa, u qonuniy bo'lolmaydi va aksincha. Hukm katta ijtimoiy-siyosiy, jinoyat-protsessual va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan protsessual hujjatdir.

Hukmning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati shundaki, sud sodir etilgan qilmishga davlat nomidan baho beradi, davlatning jinoyat sodir etgan

shaxsga munosabatini ifodalaydi hamda davlat majburlov choralari amalga oshirib, odil sudlovning insonparvarligi va demokratizmini ko'rsatadi. Hukmning jinoyat-protsessual ahamiyati quyidagilardadir:

- unda sud muhokamasiga yakun yasaladi;
- jinoyat sodir etgan har bir shaxs odil jazoga hukm qilinishi va hech bir aybsiz shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmasligi va jazoga mahkum etilmasligi kabi jinoyat protsessining vazifalari bajariladi;
- mahkum, oqlangan shaxslarga, himoyachi, qonuniy vakil, jabrlanuvchi, fuqaroviy javobgar, ularning vakiliga hukm yuzasidan shikoyat qilish, prokurorga esa kassatsiya sudiga protest bildirish huquqi beriladi.

Hukm qonuniylikning va huquqiy tartibning mustahkamlanishiga, jinoyatlarning oldini olishga hamda fuqarolarni jamiyat qonun-qoidalariga og'ishmay rioya etish ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

### **23.2. Hukm chiqarish paytida sud hal qiladigan masalalar**

Sud hukm chiqarish vaqtida alohida xonada (maslahatxonada) quyidagi masalalarni hal qiladi:

- 1) sudlanuvchi aybli deb topilayotgan qilmish haqiqatan sodir etilganmi;
- 2) bu qilmish jinoyat deb hisoblanadimi va u Jinoyat kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilgan;
- 3) bu qilmishni sudlanuvchi sodir etganmi;
- 4) sudlanuvchi jinoyat sodir etilishida ayblimi, basharti aybli bo'lsa, uning aybi qanday shaklda;
- 5) sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar bormi;
- 6) sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi kerakmi;
- 7) sudlanuvchiga qanday jazo tayinlanishi lozim va u shu jazoni o'tashi kerakmi;



8) sudlanuvchini Jinoyat kodeksining 34-moddasiga muvofiq o'ta xavfli retsivist deb topish lozimmi;

9) ozodlikdan mahrum qilingan mahkum jazoni qanday tartibli koloniyada o'tashi lozim va jazo muddatining bir qismini turmada o'tashi kerakmi;

10) fuqaroviy da'vo qanoatlantirilishi kerakmi, bu da'vo kimning foydasiga va qancha miqdorda qanoatlantirilishi lozim, shuningdek, fuqaroviy da'vo qo'zg'atilmagan bo'lsa, jinoyat tufayli keltirilgan mulkiy zarar undirilishi kerakmi, sudlanuvchilar sheriklik yoki hissadorlik tartibida javobgarlikka tortilishlari lozimmi;

11) fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun xatlangan mol-mulkni nima qilish kerak;

12) ashyoviy dalillarni nima qilish kerak;

13) protsess chiqimlarini kimning zimmasiga va qancha miqdorda yuklash kerak;

14) sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash, ilgariqisini qoldirish, o'zgartirish yoki bekor qilish kerakmi;

15) sudlanuvchiga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yoxud uning ustidan homiylik belgilash zsurmi;

16) sudlanuvchiga nisbatan lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini bekor qilish kerakmi.

Sudlanuvchi bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanayotgan bo'lsa, sud JPK 457-moddaning 1–8-bandlarida nazarda tutilgan masalalarni har bir jinoyat bo'yicha alohida-alohida hal qiladi. Jinoyatni sodir etishda bir necha sudlanuvchi ayblanayotgan bo'lsa, sud JPK 457-moddasida ko'rsatilgan masalalarni har bir sudlanuvchiga nisbatan alohida-alohida hal qiladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ekspertning tegishli xulosasi mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi mumkin.

Sud muhokamasi jarayonida JPK 533-moddasi birinchi qismining 1–4-bandlarida nazarda tutilgan holatlardan birortasi aniqlanib qolsa, sud hukmning ijrosini qonunda belgilangan tartibda kechiktirish masalasini muhokama qilishi shart.

Surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi paytida sudlanuvchining ruhiy kasalligi va aqli norasoligi haqidagi masala kelib chiqqan hollarda sud hukm chiqarish vaqtida bu masalani yana bir bor muhokama qilishi shart. Sudlanuvchi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan yoki uni sodir etganidan keyin o'z harakatlarini idrok eta olmaydigan yoki idora qila olmaydigan ruhiy kasallikka chalingan deb topgan taqdirda, sud JPKning 577-moddasida nazarda tutilgan ajrimni chiqaradi.

Shartli hukm qo'llanilganda sud shartli hukm qilingan shaxs ustidan kuzatuv olib borishni kimga yuklatish lozimligini hal qiladi. Shartli hukm qilish to'g'risida jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasi bo'lsa, sud shartli hukm qilingan shaxsning xulq-atvorini kuzatish uchun uni shu birlashma yoki jamoaga topshirishi mumkin.

Oqlov hukmi chiqarilgan taqdirda sud fuqaroga uning buzilgan huquqlarini tiklash tartibini tushuntirishi hamda noqonuniy tarzda jazoga hukm qilinishi, jinoiy javobgarlikka g'ayriqonuniy tortilishi, ehtiyot chorasi sifatida qonunga xilof ravishda qamoqda saqlanishi natijasida unga yetkazilgan zararni qoplash choralari ko'rishi shart. Zararni qoplash shart-sharoitlari va tartibi respublika qonun hujjatlarida, normativ, idoraviy hujjatlarda belgilanadi.

### **23.3. Hukm turlari. Hukmning tuzilishi**

Sudning hukmi ayblov yoki oqlov turlariga bo'linadi. Ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muhokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Ayblov hukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan holatlarini tekshirish, ish materiallaridagi barcha kamchiliklarni to'ldirish, yuzaga kelgan hamma shubha va qarama-qarshiliklarga barham berish natijasida yig'ilgan ishonchli dalillargina asos bo'lishi lozim.

Ayblov hukmining quyidagi turlari mavjud: 1) jazo tayinlash bilan; 2) jazodan ozod qilish bilan; 3) jazo tayinlamasdan chiqariladigan ayblov hukmlari.

Sud quyidagi hollarda jazodan ozod qilib, ayblov hukmini chiqaradi:

1) mazkur hukm bilan sudlanuvchiga tayinlangan jazoni qo‘llashdan ozod qiluvchi amnistiya akti e‘lon qilingan bo‘lsa;

2) shaxsning hukm chiqquniga qadar qamoqda yoki uy qamog‘ida bo‘lgan vaqti Jinoyat kodeksining 62-moddasida nazarda tutilgan ushlab turishni, qamoqqa olishni yoki uy qamog‘ini hisobga olish qoidalarini nazarda tutib, sud tomonidan tayinlangan jazo chorasiga teng yoxud bu choradan ortiq bo‘lsa.

Sud quyidagi hollarda jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqaradi:

1) mahkum sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e‘lon qilingan bo‘lsa;

2) mazkur jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa;

3) hukm chiqariladigan vaqtga kelib, qilmish ijtimoiy xavfliligini yo‘qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmay qolsa;

4) hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo‘lsa;

5) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 71-moddasiga muvofiq shaxsni o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli jazodan ozod qilish uchun asoslar mavjud bo‘lsa.

Hatto sudlanuvchining aybiga iqrorligi ham, ushbu ayb ish bo‘yicha to‘plangan boshqa dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina ayblov hukmiga asos qilib olinishi mumkin.

Oqlov hukmi jinoyat hodisasi aniqlanmagan, sudlanuvchining qilmishida jinoyat tarkibi bo‘lmagan, shuningdek, sudlanuvchining jinoyat sodir etishda ishtirok etganligi isbotlanmagan taqdirda chiqariladi.

Oqlov hukmi quyidagi hollarda chiqariladi:

1) jinoiy hodisa yuz bermagan bo‘lsa;

- 2) sudlanuvchi sodir etgan qilmishda jinoyat tarkibi bo‘lmasa;
- 3) jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxldor bo‘lmasa.

Jinoyat boshqa shaxs tomonidan sodir etilganligi aniqlansa, shuningdek, sudlanuvchiga qo‘yilgan ayblov ish holatlari batafsil tekshirilganidan keyin ishonarli tarzda o‘z tasdig‘ini topmasa, sud «jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxldor bo‘lmasa» (JPK 464-moddasi birinchi qismining 3-bandi) asosiga ko‘ra sudlanuvchini oqlaydi.

Hukm kirish, tavsif va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Har bir qism hukm turiga qarab o‘z mazmuniga ega bo‘ladi.

Hukmning kirish qismida:

- 1) hukm qachon va qayerda chiqarilganligi;
- 2) hukmni chiqargan sudning nomi, sudning tarkibi, sud majlisining kotibi, taraflar, tarjimon;
- 3) sudlanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tug‘ilgan yili, oyi, kuni va joyi, yashash joyi, ishlash joyi, mashg‘uloti, ma’lumoti, oilaviy ahvoli va sudlanuvchi xususidagi ish uchun ahamiyatli boshqa ma’lumotlar;
- 4) sudlanuvchiga qo‘yilgan ayblov Jinoyat kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilganligi ko‘rsatiladi.

Ayblov hukmining tavsif qismida sud isbot etilgan deb e’tirof etgan jinoiy qilmishning tavsifi, sodir etilgan joyi, vaqti, usuli, aybning shakli, jinoyatning sabablari, maqsadlari va oqibatlari ko‘rsatilishi lozim. Hukmda sudning har bir sudlanuvchiga nisbatan xulosalariga asos bo‘lgan dalillar va sudning boshqa dalillarni rad etish sabablari yoziladi. Javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar, aybning bir qismi asossiz deb topilgan taqdirda yoki jinoyatning tavsifi noto‘g‘riligi aniqlanganda esa ayblovni o‘zgartirish asoslari va sabablari ko‘rsatiladi.

Sud, shuningdek, Jinoyat kodeksi moddasining jazo qismida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jazo choralari ham nazarda tutilgan bo‘lsa, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo nimaga asoslanib tayinlaganini; ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm

qilinganga koloniyada saqlash tartibining muayyan turini belgilashni yoki ozodlikdan mahrum etish jazosini turmada o'tashni tayinlashni; sudlanuvchi o'ta xavfli retsivist deb topilganligini; shartli hukm qo'llanilganini; Jinoyat kodeksining moddasida xuddi shunday jinoyat uchun nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo tayinlanganligini; boshqa yengilroq jazoga o'tilganligini; umumiy qoidalaridan chekinib koloniya turi tayinlanganligini; boshqa ta'sir choralari qo'llab yoki qo'llamasdan sudlanuvchi jazodan ozod etilganligini asoslab berishi shart.

Sud qonun hujjatlariga muvofiq sudlanuvchiga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llash yoki uning ustidan homiylik tayinlash lozim deb topsa, bunday qarorga kelish sabablarini ko'rsatishi shart.

Jamoat birlashmasining yoki jamoaning sudlanuvchini shartli hukm qilib, u bilan tarbiyaviy ish olib borish uchun o'zlariga berishni so'ragan iltimosnomalari bo'lsa, sud bu iltimosnomalarni qanoatlantirish yoki rad etish sabablarini hukmda ko'rsatadi.

Sud, shuningdek, qo'zg'atilgan fuqaroviy da'vo to'g'risida yoki jinoyat oqibatida keltirilgan mulkiy zararni undirish to'g'risida o'z tashabbusi bilan chiqargan qarorning asoslarini ham ko'rsatishi lozim.

#### **23.4. Hukmning qaror qismida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar**

Hukmning ayblov yoki oqlov mazmundaligiga ko'ra uning qaror qismida turlicha bo'ladi. Ayblov hukmining qaror qismida: 1) sudlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi; 2) sudlanuvchining jinoyat sodir etganlikda aybli deb topilganligi to'g'risidagi qaror; 3) Jinoyat kodeksining sudlanuvchining aybli deb e'tirof etilishiga asos bo'lgan moddasi (moddaning qismi, bandi), shuningdek, sudlanuvchining o'ta xavfli retsivist deb topilganligi, basharti sud shunday qaror qabul qilgan bo'lsa; 4) sudlanuvchi aybli deb topilgan har bir jinoyati uchun tayinlangan jazo turi va me'yori; Jinoyat kodeksining moddalariga

muvoqif uzil-kesil tayinlangan va o'talishi lozim bo'lgan jazo chorasini; ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning jazo muddatini o'tashi lozim bo'lgan tegishli tartibli koloniya turi; 5) ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm etilgan shaxs uchun belgilanadigan taqiqlar (cheklashlar); 6) sudlanuvchi shartli ravishda hukm qilingan bo'lsa, sinov muddati va mahkumning ustidan kuzatuv olib borish vazifasi yuklatilgan jamoa yoki shaxs; 7) ushlab turilgan yoki qamoqda yoxud uy qamog'ida saqlangan vaqtni jazo tayinlashda jazo muddati hisobiga kiritish to'g'risidagi qaror; 8) hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasiga doir qaror; 9) mahkumning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar; 10) JPK 533-moddasida nazarda tutilgan asoslar aniqlangan hollarda hukmning ijrosini kechiktirish to'g'risidagi qaror ko'rsatiladi.

Basharti sudlanuvchiga Jinoyat kodeksining bir necha moddasi bilan ayblov qo'yilgan bo'lsa, hukmning qaror qismida sudlanuvchi qaysi moddalar bo'yicha oqlanganligi va qaysi moddalar bo'yicha aybdor deb topilib, hukm qilinganligi ko'rsatiladi. Sudlanuvchi jazoni o'tashdan ozod qilingan bo'lsa, bu haqda hukmning qaror qismida ko'rsatiladi.

Barcha hollarda tayinlangan jazo hukmini ijro etishda sud tayinlangan jazo turi va me'yori xususida hech qanday shubha tug'ilmaydigan tarzda ifodalanishi kerak.

Oqlov hukmining tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi: sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovning mohiyati; sud aniqlagan ish holatlari; sudlanuvchining aybsizligi to'g'risidagi sud xulosasini tasdiqlovchi dalillar; sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybi bor deb da'vo qilishga asos bo'lgan dalillarni sud nima uchun ishonarli emas yoki yetarli emas deb hisoblashi yoki nima uchun sud jinoiy hodisaning o'zi yuz bermagan yoxud sudlanuvchi sodir etgan qilmishni jinoyat emas deb hisoblashi; fuqaroviy da'voga oid qarorning asoslari.

Oqlov hukmining qaror qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) sudlanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi;

2) sudlanuvchini jinoyat sodir etilishida aybsiz deb e'tirof etish va uni oqlash to'g'risidagi qaror;

3) sudlanuvchiga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasini bekor qilish to'g'risidagi qaror; basharti ehtiyot chorasi sifatida u qamoqda yoki uy qamog'ida saqlanayotgan bo'lsa, oqlangan shaxsni darhol, sud majlisi zalining o'zida ozod qilish to'g'risidagi qaror;

4) qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voni qanoatlantirish rad etilgan bo'lsa, da'voni ta'minlash uchun ko'rilgan choralarni bekor qilish to'g'risidagi qaror;

6) oqlangan shaxsning unga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash hamda ma'naviy va boshqa ziyon oqibatlarini JPK 304–313-moddalarida nazarda tutilgan tartibda bartaraf qilish huquqiga ega ekanligi.

Ayblov hukmining ham, oqlov hukmining ham qaror qismida yuqoridagilardan tashqari, quyidagilar ko'rsatiladi:

1) sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini bekor qilish to'g'risida JPK 255–260-moddalariga muvofiq qabul qilingan qaror; qo'zg'atilgan fuqaroviy da'vo yoki sudning tashabbusi bilan ziyonni qoplash to'g'risida JPK 283–289-moddalariga muvofiq qabul qilingan qaror;

2) ashyoviy dalillar hamda ishga ilova qilingan boshqa narsalar va hujjatlar to'g'risida JPK 289-moddasiga muvofiq qabul qilingan qaror;

3) protsessual chiqimlar to'g'risida JPK 320-moddasiga muvofiq qabul qilingan qaror;

4) hukm ustidan JPKning tegishincha 497<sup>-3</sup>, 497<sup>-4</sup>, 499 va 500-moddalarida nazarda tutilgan apellatsiya va kassatsiya shikoyati berish, protest bildirish tartibi, muddatlari.

## **XXIV BOB. HUKM, AJRIM VA QARORLARNING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI VA ADOLATLILIGINI TEKSHIRISH**

### **24.1. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning mazmuni va ahamiyati**

Jinoyat protsessi – ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, birinchi instansiya sudida chiqarilgan hukm, ajrim yoki qarorlarga «oxirgi haqiqat» deb qaralishi kerak emas. Ular qonuniylik, asoslilik va adolatlilik nuqtai nazaridan tekshirilishi mumkin.

Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish deganda, shikoyat yoki bildirilgan protest asosida quyi sud chiqargan hukm, ajrim va qarorlarning ularga quyiladigan talablarga javob berishini tekshirishga qaratilgan yuqori sudda ish yuritish (sud muhokamasi) jarayoni tushuniladi. Hukm, ajrim yoki qarorlar qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi kerak. Hukm, ajrim yoki qarorlar apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tekshiriladi.

Ishni yuqori sud tomonidan apellatsiya tartibida ko‘rish JPK 497<sup>2</sup>-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan; kassatsiya tartibida ko‘rish JPKning 498-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan; nazorat tartibida ko‘rish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki ularning o‘rinbosarlari protestlariga binoan, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan esa O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosari protesti, shuningdek, JPK 498-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning shikoyatlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Apellatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat qilish va protest bildirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning shikoyatlari va protestlariga asosan hukm, ajrim va qarorlar apellatsiya yoki kassatsiya tartibida tekshiriladi. Nazorat tartibida qonunga muvofiq protest bildirish



huquqiga ega vakolatli shaxslarning protestiga asosan, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan esa shuningdek, JPK 498-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning shikoyatiga asosan hukm, ajrim va qarorlar nazorat tartibida tekshiriladi.

Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

qonuniy kuchga kirmagan, kuchga kirgan va ijro etilayotgan, ba'zida ijro etilgan qonuniy, asosli va adolatli bo'lmagan hukm, ajrim, qarorlarni bekor qilish, o'zgartirish, bu orqali odil sudlovni ta'minlash;

shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini muhofazasi ta'minlanadi, qonuniy, asosli va adolatli bo'lmagan hukm, ajrim, qarorlar qabul qilinishi natijasida buzilgan huquq va erkinliklar tiklanadi;

fuqarolarda mamlakat sud-huquq tizimiga nisbatan hurmat, odil sudlovga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi;

#### **24.2. «Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlari» tushunchasi**

Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlari deganda, yuqori sudda quyi sud tomonidan chiqarilgan hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishda amal qilinadigan, ish bo'yicha haqiqatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan yakuniy jarayonlarning muayyan tartibda, maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladigan va zarur sharoit yaratishga qaratilgan qoidalar yig'indisi tushuniladi.

Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlariga quyidagilar kiradi:

1) hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish turlari;

2) sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish huquqi hamda uning ta'minlanishi;

3) jinoyat ishining yuqori sud tomonidan ko‘rilishida prokurorning ishtiroki;

4) qo‘shimcha materiallar taqdim etish;

5) yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish chegarasi;

6) yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish muddatlari;

7) hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari;

8) sud tergovining to‘liq emasligi va bir yoqlamaligi;

9) hukmda bayon qilingan sud xulosalari jinoyat ishining haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi;

10) jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi;

11) jinoyat kodeksi normalarini noto‘g‘ri qo‘llanilganligi;

12) jazoning adolatsizligi;

13) jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘ruvchi sudning vakolatlari;

14) hukmni, ajrimni, qarorni o‘zgartirish;

15) ajrimni, qarorni bekor qilib, jinoyat ishini yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uchun yuborish;

16) ayblov hukmini bekor qilib, jinoyat ishini tugatish;

17) jazoni kuchaytirish va og‘irroq jinoyatga doir qonunni qo‘llash;

18) yuqori sud ko‘rsatmalarining majburiyligi;

19) yuqori sud ajrimining (qarorining) mazmuni;

20) ajrimni (qarorni) ijro etish uchun yuborish.

### **24.3. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlarining mazmuni**

*Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish turlari.* Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning uch xil turi mavjud. Sudning hukmi, ajrimi va qarorlarini hech kim to‘g‘ridan to‘g‘ri bekor qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin emas. Chunki sud alohida hokimiyat bo‘g‘ini hisoblanadi va sudyalar mustaqildirlar. Sudyalar, sud organi tomonidan qabul qilingan hal

qiluv qarorlari yuqorida ta'kidlanganidek hamisha ham qo'yilgan talablar doirasida bo'lmasligi mumkin yoki ishdagi taraflar va manfaatdor shaxslar sud qarorlaridan norozi bo'lishi mumkin. Shu bois hukm, ajrim va qarorlardagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, shikoyat yoki protest bildirgan tarafning e'tirozlari o'rinli yoki aksincha ekanligini o'rganish, qolaversa shaxslarning fikrini, murojaatlarni e'tiborsiz qoldirmaslik maqsadida jinoyat-protsessual qonunchilikda hukm ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning alohida ish yurituvidan tarkib topgan turlari belgilangan. Bularga apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritish kiradi.

*Sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish huquqi hamda uning ta'minlanishi.* Jinoyat-protsessual faoliyat, shuningdek, uning alohida bosqichlari ham muayyan sabab va asoslar mavjud bo'lganda boshlanadi. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish uchun ham shikoyat yoki protest sabab bo'ladi. Shikoyat va protest bildirish huquqi cheklangan shaxslargagina tegishli. JPKning 497<sup>2</sup>, 498 va 510-moddalarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilari birinchi instansiya sudining hukmi va ajrimi ustidan belgilangan tartibda apellatsiya yoki kassatsiya yoxud nazorat tartibida shikoyat berishga yoki protest bildirishga, shuningdek, sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqishni iltimos qilishga haqlidir. Bunda ular o'z vajlarini tasdiqlovchi qo'shimcha materiallarni taqdim etishi mumkin. Shikoyat yoki protest bildirishga huquqi bo'lgan shaxslar shikoyat yoki protest tushganligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ham ega. Jumladan, apellatsiya yoki kassatsiya shikoyati, apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat protesti tushganligi to'g'risida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga ko'rib chiqish uchun shikoyatni nazorat tartibida o'tkazish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi chiqargan ajrim to'g'risida sud tushgan shikoyat yoki protest o'z manfaatlariga taalluqli bo'lgan protsess ishtirokchilariga ma'lum qiladi va ayni vaqtda mazkur hujjatlarning ko'chirma nusxalarini mahkumga, jabrlanuvchiga va

oqlangan shaxsga yuboradi. Ko'rsatilgan shaxslar ish bilan, shu jumladan qo'shimcha taqdim etilgan materiallar bilan tanishishga hamda sudga o'z e'tirozlarini ma'lum qilishga haqli.

Sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish, shuningdek, bunday shikoyat va protest natijalaridan xabardor bo'lish huquqini ta'minlash uchun apellatsiya yoki kassatsiya shikoyati bergan shaxs, shuningdek, berilgan shikoyat yoki protest kimning manfaatlariga taalluqli bo'lsa, ana shu protsess ishtirokchilari sud tomonidan ishning ko'rilish vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi. Mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar hamda ularning vakillari ishni apellatsiya instansiyasida ko'rish chog'ida ishtirok etishga haqlidir. Mazkur shaxslar ishni kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish chog'ida ham ishtirok etishga haqlidir, jazoni ijro etish muassasasidagi mahkum bundan mustasno. Jazoni ijro etish muassasasidagi mahkumning kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlisida ishtirok etishi, shuningdek, uni sud majlisiga olib kelish zarurligi masalasini sud hal qiladi. Ish ko'riladigan joy va vaqt haqida o'z vaqtida ogohlantirilgan mazkur shaxslarning uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganliklari ishni ko'rishga monelik qilmaydi. Lekin sud mahkumni, oqlangan shaxsni, shuningdek, jabrlanuvchini, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni va ularning vakillarini tushuntirish berish uchun chaqirishi mumkin.

*Jinoyat ishining yuqori sud tomonidan ko'rilishida prokurorning ishtiroki.* Jinoyat ishining apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rilishida prokuror qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi hay'atlarida ishlarni ko'rishda – vakolat berilgan prokurorlar qatnashadi, ya'ni tegishincha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan vakolat berilgan prokuror. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari qatnashadi.

*Qo‘shimcha materiallar taqdim etish.*

Apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyasiga protsess ishtirokchilari ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar, mutaxassislarning fikrlari va boshqa qo‘shimcha materiallarni taqdim etishga haqlidirlar. Bunday materiallar sud tomonidan ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida ham talab qilib olinishi mumkin. Qo‘shimcha materiallar JPK 149, 170, 290 va 398-moddalarida nazarda tutilgan tergov harakatlari o‘tkazishni surishtiruvchi yoki tergovchiga topshirish yo‘li bilan ham olinishi mumkin.

*Yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish chegarasi.*

Yuqori instansiya sudi jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rishda hukm, ajrim va qarorning qonuniyligini, asoslilikini va adolatliligini ishda mavjud bo‘lgan hamda protsess ishtirokchilari qo‘shimcha taqdim etgan yoxud sudning o‘zi talab qilib olgan materiallar asosida, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ishni nazorat tartibida yangitdan ko‘rishda esa, bu holatlarni tergov qilish materiallari asosida, shikoyat yoki protestda bayon etilgan vajlar bilan chegaralanmasdan, ishni barcha mahkumlarga, shu jumladan shikoyat bermagan hamda ustidan shikoyat yoki protest bildirilmaganlarga nisbatan ham to‘la hajmda tekshiradi.

*Yuqori sudda jinoyat ishini ko‘rish muddatlari.*

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini shikoyat yoki protest bilan ish kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n besh sutkadan, nazorat instansiyasi sudi esa bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishga kirishadi. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan taqdirda va boshqa favqulodda hollarda tegishli sud raisi bu muddatni ko‘pi bilan o‘n besh sutkaga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi yoki uning o‘rinbosari esa, ko‘pi bilan bir oyga uzaytirishi mumkin. Ishni ko‘rishga kirishish muddati uzaytirilganligi haqida protsessning manfaatdor ishtirokchilari xabardor qilinishi lozim.

Yuqori sud tomonidan jinoyat ishini ko‘rib chiqish davomiyligi uni ko‘rib chiqish boshlangan kundan e‘tiboran ikki oydan oshmasligi kerak.

*Hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari.*

Apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ish ko'rib chiqilganda hukm bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Hukmni bekor qilish yoki o'zgartirishga quyidagilar asos bo'ladi:

1) sud tergovining to'liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi;

2) hukmda bayon qilingan sud xulosalari ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi;

3) Jinoyat-protsessual kodeks normalarining jiddiy buzilganligi;

4) Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanilganligi;

5) jazoning adolatsizligi.

*Sud tergovining to'liq emasligi va bir yoqlamaligi.*

Yuqori instansiya sudida ishni ko'rishda quyi instansiya sudi muhokamasida JPK 82–84-moddalarida ko'rsatilgan holatlar yetarlicha to'la aniqlanmaganligi; ko'rsatuvlari ishni hal qilishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan shaxslar so'roq qilinmaganligi, zarur bo'lishiga qaramay ekspertiza o'tkazilmaganligi, xuddi shuningdek, hujjatlar, ashyoviy dalillar talab qilib olinmagan yoki natijalari ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa sud-tergov harakatlari o'tkazilmaganligi; ishni yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqishga yuborgan nazorat instansiyasi sudi ajrimida, qarorida bayon qilingan holatlar tekshirilmaganligi aniqlansa, sud tergov to'liq emas yoki bir yoqlama o'tkazilgan deb e'tirof etiladi. Ushbu holatlar hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'ladi.

*Hukmda bayon qilingan sud xulosalari jinoyat ishining haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi.*

Hukmdagi sud xulosalari sud majlisida ko'rilgan dalillar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa; sud o'z xulosasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olmagan bo'lsa; ish uchun muhim ahamiyatli holatlarga oid dalillar bir-biriga zid bo'lgani holda, sud qaysi asoslarga ko'ra dalillardan ba'zilarini ishonarli deb topib, boshqalarini rad etganligi hukmda ko'rsatilmagan bo'lsa; sudning hukmda bayon etilgan xulosalarida mavjud bo'lgan jiddiy ziddiyatlar sudlanuvchining aybliligi

masalasini hal qilishga, Jinoyat kodeksi normalarini to'g'ri qo'llashga yoki jazo chorasini belgilashga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa hukm jinoyat ishining haqiqiy holatlariga muvofiq emas deb e'tirof etiladi hamda bekor qilinadi yoki o'zgartiriladi.

*Jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi.*

Protsess ishtirokchilarini qonunda belgilangan huquqlardan mahrum qilgan yoki bu huquqlarni cheklagan yoxud sud ishni har tomonlama ko'rib chiqishiga boshqacha tarzda xalal bergan hamda qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar JPK normalarini jiddiy buzish hisoblanadi. Shu bilan birga, hukm quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- 1) hukmni qonunga xilof tarkibdagi sud chiqargan bo'lsa;
- 2) sudyaning hukmni yakka o'zi chiqarishi tartibi yoki hukm chiqarishda sudyalar maslahatlashuvining sir saqlanishi buzilgan bo'lsa;
- 3) JPK 410-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarni istisno qilganda ish sudlanuvchining yo'qligida ko'rilgan bo'lsa;
- 4) tergov tamomlanganidan so'ng ayblanuvchi ishdagi barcha materiallar bilan tanishtirilmagan va bu hol sud tomonidan bartaraf etilmagan bo'lsa;
- 5) himoyachisi bo'lmagan sudlanuvchiga himoya nutqi uchun so'z berilmagan bo'lsa;
- 6) sudlanuvchiga oxirgi so'z berilmagan bo'lsa;
- 7) sudlanuvchining ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi buzilgan bo'lsa;
- 8) qonunga ko'ra himoyachining ishtiroki shart bo'lsa-yu, ish uning ishtirokisiz tergov qilingan yoki ko'rib chiqilgan bo'lsa;
- 9) ishni yuritishni istisno etadigan holatlar bo'la turib, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi o'tkazilgan bo'lsa;
- 10) sud majlisi bayonnomasi ishga tikilmagan yoxud imzolangan bo'lsa.

*Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanilishi.*

Jinoyat kodeksi normalari quyidagi hollarda noto'g'ri qo'llanilgan deb e'tirof etiladi, shuningdek, hukm bekor qilinadi yoki o'zgartiriladi:

1) Jinoyat kodeksi Umumiy qismi moddalarining talablari buzilgan bo'lsa;

2) jinoyat tavsifi Jinoyat kodeksining qo'llanilishi kerak bo'lgan moddasi (moddaning qismi, bandi) o'rniga boshqa moddasi (moddaning qismi, bandi) bilan berilgan bo'lsa;

3) mahkumga Jinoyat kodeksining mazkur moddasida nazarda tutilmagan jazo turi va me'yori tayinlangan bo'lsa.

#### *Jazoning adolatsizligi.*

Hukmda jazo Jinoyat kodeksining tegishli moddasida belgilangan doirada tayinlangan bo'lsa-da, turi va me'yori jihatidan ro'yi rost adolatsiz bo'lsa, jinoyatning og'irlik darajasiga va sudlanuvchining shaxsiga nomuvofiq deb e'tirof etiladi hamda hukmni bekor qilish yoki o'zgartirishga asos bo'ladi.

Adolatlilik mazmuni o'z ichiga jinoyat turi, og'irlik darajasi, sodir etilgan vaqti, jinoyat natijasida kelib chiqqan oqibat, uning bartaraf etilganligi, shuningdek, sudlanuvchining shaxsi va sodir etilgan qilmishga nisbatan munosabatiga mos keluvchi jazo turi va miqdori tayinlanishi zarurligidan iborat. Ammo odil sudlov va adolatlilik tushunchalari mazmuni juda keng bo'lib, jazo turi va me'yori jinoyatning og'irlik darajasiga va sudlanuvchining shaxsiga muvofiqligiga ko'ra bilan hukmni adolatli deyish mushkul. Hukm yuqori darajada adolatli bo'lishi uchun e'tiborga olish kerak bo'lgan boshqa barcha jihatlarni, jumladan hukm chiqarish vaqtiga kelib o'zgargan sharoitni, jabrlanuvchining munosabati (kechirganligi yoki kechirmaganligi), jazolashga oid talabini, manfaatdor ishtirokchilarning oilaviy sharoiti, hukmning jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar manfaatlariga ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiq.

*Jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'ruvchi sudning vakolatlari.*

Sud jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rib chiqib, JPK 497<sup>-13</sup>, 506<sup>-1</sup> va 521-moddalariga muvofiq qaror qabul qiladi.

Nazorat instansiyasi sudi jinoyat ishini nazorat tartibida ko'rib qisman sud tergovni o'tkazish yo'li bilan kamchiliklarni to'ldirish yoki



aniqlangan kamchiliklarni yoxud protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, apellatsiya yoki kassatsiya ajrimini bekor qiladi, shuningdek, agar keyin sud ajrimlari, qarorlari chiqarilgan bo‘lsa, ularni ham bekor qiladi va ishni yangitdan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqishga o‘tkazadi.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi to‘liq yoki qisman sud tergovini o‘tkazishga, hukmni bekor qiladi va yangi hukm chiqaradi yoxud hukmga o‘zgartirishlar kiritadi.

Nazorat instansiyasi sudi, agar birinchi instansiya, apellatsiya yoki kassatsiya instansiyalari sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish va protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish imkoniyati bo‘lsa, qisman sud tergovini o‘tkazadi va hukmga o‘zgartirishlar kiritadi.

Yuqori instansiya sudi asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, mahkumni o‘ta xavfli retsivist deb topishi, unga jazoni ijro etish koloniyasining qattiqroq turini belgilashi, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash miqdorini ko‘paytirishi mumkin.

Yuqori instansiya sudi hukmning ayrim mahkumlarga qo‘yilgan ayblov qismini yoki fuqaroviy da‘vo qismini bekor qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin.

*Hukmni, ajrimni, qarorni o‘zgartirish.*

Agar ishni apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rib chiqish chog‘ida Jinoyat kodeksi noto‘g‘ri qo‘llanilganligi yoxud jinoyatning og‘irlik darajasiga va mahkumning shaxsiga muvofiq kelmaydigan jazo belgilanganligi aniqlansa, sud ishni yangidan ko‘rib chiqishga yubormasdan, JPK 494-moddasi talablariga rioya etgan holda hukmga, ajrimga, qarorga zarur o‘zgartirishlar kiritadi.

*Ajrimni, qarorni bekor qilib, jinoyat ishini yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uchun yuborish.*

Nazorat instansiyasi sudi ajrimni, qarorni bekor qilgan taqdirda jinoyat ishini sudyalarning boshqa tarkibi yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqishi uchun ajrimni, qarorni chiqargan apellatsiya yoki kassatsiya sudiga yoxud boshqa sudga yuboradi.

*Ayblor hukmini bekor qilib, jinoyat ishini tugatish.*

Jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rib, sud JPK 83-moddasi va 84-moddasining birinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, birinchi instansiya sudida ko'rib chiqilgan dalillar sudlanuvchini aybli deb topish uchun yetarli bo'lmasa va qo'shimcha dalillar to'plash imkoniyati qolmagan bo'lsa, ayblor hukmini bekor qiladi va jinoyat ishini tugatadi.

*Jazoni kuchaytirish va og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llash.*

Sud jinoyat ishini apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish chog'ida jazoni kuchaytirishga, xuddi shuningdek, og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llashi mumkin. Apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llash yoxud jazoni kuchaytirish asoslari bo'yicha jabrlanuvchi tomonidan shikoyat berilgan yoki prokuror tomonidan protest bildirilgan hollardagina og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llashga yoxud jazoni kuchaytirishga haqli.

Sud jinoyat ishini nazorat tartibida qo'rib chiqish chog'ida jazoni kuchaytirishga, xuddi shuningdek, og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llashga haqli emas. Ammo og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llash zarurati tufayli yoki jazoning yengilligi uchun apellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudining ajrimini nazorat tartibida bekor qilish va ishni yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish uchun yuborish mumkin, bunda faqat shu asoslar bo'yicha jabrlanuvchi yoki uning vakili shikoyat bergan yoki prokuror tomonidan protest keltirilgan hollardagina mumkin.

Oqlov hukmi yuqori sud tomonidan faqat prokurorning apellatsiya yoki kassatsiya protesti, jabrlanuvchining yoki uning vakilining shikoyati yoxud oqlangan shaxsning, uning himoyachisining yoki qonuniy vakilining apellatsiya yoki kassatsiya shikoyati, shuningdek, jabrlanuvchining yoxud uning vakilining, oqlangan shaxsning shikoyati yoki nazorat tartibida berilgan protest bo'yicha bekor qilinishi mumkin.

*Yuqori sud ko'rsatmalarining majburiyligi.*

Jinoyat ishini nazorat tartibida ko'rib chiqqan sudning ish holatlari to'la-to'kis va har tomonlama tekshirilishini ta'minlashga, shuningdek,

Jinoyat kodeksi hamda JPK normalarining buzilishini bartaraf etishga qaratilgan ko'rsatmalariga ishni yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish chog'ida amal qilinishi shart.

Nazorat instansiyasi sudi ishni yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish uchun yuborayotganda ayblov isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi, u yoki bu dalillarning ishonchliligi yoki ishonchsizligi, bir dalilning ikkinchisidan afzalligi, jinoyatning tasnifi va jazo chorasi to'g'risida oldindan xulosa chiqarmasligi kerak.

*Yuqori sud ajrimining (qarorining) mazmuni.*

Jinoyat ishini apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rayotgan sudning ajrimida (qarorida) quyidagilar aks ettiriladi:

- 1) ajrim (qaror) chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim (qaror) chiqargan sudning nomi va tarkibi, ishni ko'rishda qatnashgan prokuror va boshqa shaxslar;
- 3) apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat shikoyati bergan, apellyasiya, kassatsiya yoki nazorat protesti bildirgan shaxs;
- 4) shikoyat yoki protest berilgan hukmning, ajrimning (qarorning) qaror qismi mazmuni;
- 5) shikoyatning, protestning, ularga nisbatan bildirilgan e'tirozlarning mazmuni, ishda ishtirok etayotgan shaxslar tushuntirishlarining qisqacha bayoni va prokurorning fikri;
- 6) shikoyat, protest bo'yicha sudning qarori.

Shikoyat, protest qanoatlantirilmay qoldirilgan taqdirda, ularda keltirilgan vajlar qanday sabablarga ko'ra asossiz yoki ahamiyatsiz deb topilganligi ajrimda (qarorda) ko'rsatiladi.

Hukm, ajrim (qaror) bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hollarda apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi qonunning qaysi moddalaridagi talablar buzilganligini hamda bekor qilinayotgan yoki o'zgartirilayotgan qarorning asossizligi nimadan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Ish nazorat instansiyasi sudi tomonidan yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqish uchun yuborilayotganda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar ko'rsatilishi zarur.

Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi JPK 298 va 300-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, shuningdek, tegishli mansabdor shaxslarning e‘tiborini surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazishda va sud muhokamasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarga jalb qilish zarur bo‘lganda xususiy ajrim chiqaradi.

Ajrim sudning to‘liq tarkibi tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarori raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi. Chiqarilgan ajrim (qaror) raislik qiluvchi yoki sud tarkibidagi sudyalardan biri tomonidan sud majlisi zalida darhol o‘qib eshittiriladi.

*Ajrimni (qarorni) ijro etish uchun yuborish.*

Ajrim (qaror) chiqarilganidan keyin u uzog‘i bilan besh sutka ichida jinoyat ishi bilan birga qo‘shib hukm yoki apellatsiya yoxud kassasiya ajrimi chiqargan sudga yoki boshqa sudga ijro etish uchun yuboriladi.

Qamoqdan yoki uy qamog‘idan darhol ozod etilishi lozim bo‘lgan mahkumni ozod etishga doir ajrim (qaror), agar mahkum sud majlisida ishtirok etayotgan bo‘lsa, zalning o‘zidayoq ijro etiladi. Boshqa hollarda, ushbu ajrim (qaror) chiqarilgan vaqtdan e‘tiboran yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay uning nusxasi sud tomonidan jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatiga yoki mahkumning yashash joyidagi zimmasiga uy qamog‘ini ijro etish yuklatilgan ichki ishlar organiga yuboriladi.

## **XXV BOB. APELLATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH**

### **25.1. Apellatsiya tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati**

Insonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni qonuniy ta'minlashning kuchli vositalaridan biri aybi yo'q kishini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki aksincha, biror jinoyatni sodir etgan shaxsni qonuniy jazodan qutilib ketmasligini ta'minlashdir.

*Apellatsiya tartibida ish yuritish* – yuqori turuvchi sud tomonidan protsess ishtirokchilarining shikoyati yoxud prokurorning protesti bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirmagan hukm, ajrim va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi tekshiriladigan jinoyat protsessining bosqichidir.

Yuqori turuvchi sudning apellatsiya tartibida ish yuritishda qonuniy kuchga kirmagan hukm (ajrim va qaror)larning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish, protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, birinchi bosqich sudlarining faoliyatiga rahbarlik qilish kabi vazifalari mavjud.

Hukm yuzasidan apellatsiya tartibida shikoyat qilinishi yoki protest bildirilishi mumkin. Bunda birinchi instansiya sudi chiqargan ajrimlari ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish hukm ustidan shunday harakatlarni sodir etish bilan bir paytning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o'rinbosari esa, protest bildirishga haqlidir.

Fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviy da'voga daxldor qismi ustidan, sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmning oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Ishda taraf bo'lmagan shaxslar ham sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat berish yoki protest bildirishga haqlidir.

Hukm ustidan apellyayi tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish tartibi quyidagicha:

1) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga;

2) hududiy harbiy sudlarning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan – O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hukmlari ustidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hukmlari ustidan berilgan apellatsiya shikoyatlari va protestlari ayni shu sudlarning o'zi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Apellatsiya shikoyatlari va protestlari hukm chiqargan sud orqali beriladi. Shikoyat yoki protest bevosita apellatsiya instansiyasi sudiga topshirilgan bo'lsa, sud JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarish uchun ularni hukm chiqargan sudga yuboradi.

Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida berilishi mumkin.

Belgilangan muddatdan keyin berilgan shikoyat yoki protest oqibatsiz qoldiriladi, bu haqda ularni bergan shaxslarga xabar qilinadi.

Hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish muddati uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan hollarda apellatsiya shikoyati yoki protesti berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar hukm chiqargan sudga

muddatni tiklash so‘ralgan iltimosnoma bilan murojaat qilishlari mumkin. Zarur hollarda bu masala iltimosnoma bergan shaxsning ishtirokida hal qilinadi.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklashning rad etilganligi ustidan yuqori sudga shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin, u muddatni tiklashi va ishni xususiy shikoyat yoki protest bo‘yicha ko‘rib chiqishi mumkin. Bunda JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablar bajarilishi zarur.

Apellatsiya shikoyati berilishi yoki appellatsiya protesti bildirilishi hukmni ijro etishni to‘xtatib turadi. Hukm ustidan shikoyat berish va protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagach, hukm chiqargan sud JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarib, ishni shikoyatlar, protestlar hamda ular yuzasidan bildirilgan e‘tirozlar, shuningdek, taqdim etilgan qo‘shimcha materiallar bilan birga o‘n kundan kechiktirmay appellatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Bu muddatni alohida hollarda yuqori sud raisi yoki uning o‘rinbosari ko‘pi bilan yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

Har qanday holda ham appellatsiya tartibidagi shikoyat yoki protest yozma shaklda beriladi. Shikoyat yoki protestda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- 1) shikoyat, protest yo‘llanayotgan sud instansiyasining nomi;
- 2) shikoyat bergan shaxs, uning protsessual mavqei, yashash joyi yoki turish manzili to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- 3) hukmni chiqargan sudning nomi, hukm chiqarilgan sana, shikoyat berilayotgan va protest bildirilayotgan hukm kimga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- 4) shikoyat, protest bergan shaxsning vajlari, uning fikriga ko‘ra hukm yoki boshqa qarorning noto‘g‘riligi nimadan iborat ekanligi hamda iltimosining mohiyati;
- 5) arizachi o‘z talablarini asoslayotgan va appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirilishi lozim bo‘lgan dalillar, shu jumladan ilgari birinchi instansiya sudida tekshirilmagan dalillar;

6) shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallar ro‘yxati;

7) shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest beruvchi shaxsning imzosi.

Agar apellatsiya shikoyatining, protestining mazmuni yuqorida ko‘rsatilgan talablarga javob bermasa va bu kelgusida ishni mazmunan ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilsa, sudya apellatsiya shikoyatini, protestini uni bergan shaxsga qaytarish to‘g‘risida apellatsiya shikoyatini yoki protestini qayta tuzish uchun muddatni belgilagan holda uch kunlik muddatda ajrim chiqaradi. Sudyaning apellatsiya shikoyatini, protestini qaytarish to‘g‘risidagi ajrimi talablari bajarilmagan va apellatsiya shikoyati, protesti belgilangan vaqtda kelib tushmaganda, u berilmagan deb va hukm qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti chiqargan hukmi ustidan shikoyat qilinayotgan yoki protest bildirilayotgan sud instansiyasiga protsess ishtirokchilarining soniga muvofiq ko‘paytirilgan nusxalarni ilova qilgan holda beriladi. Qamoqda saqlanayotgan shaxs jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyatiga apellatsiya shikoyatini nusxalarni ilova qilmasdan berishi mumkin.

Shikoyat qilish yoki protest bildirish uchun belgilangan muddat o‘tgach, hukm chiqargan sud instansiyasi besh kun ichida jinoyat ishini apellatsiya shikoyati yoki protesti bilan birga yuqori sud instansiyasiga yuboradi.

Hukm e‘lon qilinganidan so‘ng va apellatsiya shikoyati yoki protesti berish muddati o‘tgunicha taraflar shikoyat qilish yoki protest bildirishning ushbu yo‘lidan voz kechishlari haqida ariza berishlari mumkin. Demak, taraflar hukm xususida apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilish yoki protest bildirish yo‘lini tanlash huquqiga egadirlar.

Apellatsiya instansiyasidagi sud muhokamasi boshlangunicha, har qaysi taraf bergan apellatsiya shikoyati yoxud protestini qaytarib olishga haqlidir. Buni apellatsiya shikoyati yoki protestini bergan shaxs amalga oshiradi. Biroq prokuror bergan apellatsiya protestini faqat yuqori turuvchi prokuror qaytarib olishi mumkin.



Ish bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda JPK 497-2-moddasida nazarda tutilgan shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest bildirilishi mumkin.

Hukm chiqarish bilan yakunlangan sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berilgan yoxud protest bildirilgan taqdirda, hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagandan keyingina ish apellatsiya instansiyasi sudiga yuboriladi.

Sud muhokamasi chog'ida chiqarilgan va dalillarni tekshirish tartibiga, protsess ishtirokchilarining iltimosnomalariga, ehtiyot chorasini tanlash, uni o'zgartirish yoki bekor qilishga, shuningdek, sud majlisi zalida tartib saqlashga oid ajrimlar ustidan JPK 497-9-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda shikoyatlar berish va protestlar bildirish mumkin emas. Bularga qarshi e'tirozlar apellatsiya shikoyati yoxud apellatsiya protestiga kiritilishi mumkin.

Ushbu ish bo'yicha taraf hisoblanmagan shaxslar ham sud ajrimi ustidan, basharti ajrim ularning manfaatlariga daxldor bo'lsa, shikoyat berishga haqlidir.

Birinchi instansiya sudining raisi apellatsiya shikoyati yoki protesti tushgan ishni yuqori turuvchi sudda ko'rib chiqiladigan kun va joyni belgilaydi, JPK 497<sup>2</sup>-moddasida ko'rsatilgan shaxslar bundan xabardor qilinadi. Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar sud majlisiga sudning ixtiyoriga binoan taklif qilinadilar.

## **25.2. Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari**

Apellatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

- 1) birinchi instansiya sudining hukmini o'zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishi;
- 2) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishi va oqlov hukmi chiqarishi;
- 3) birinchi instansiya sudining oqlov hukmini bekor qilishi va ayblov hukmi chiqarishi;

4) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishi va ishni tugatishi;

5) birinchi instansiya sudining hukmini o'zgartirish, shu jumladan ayblov hajmini, jinoyatning tavsiflanishini o'zgartirish, jazoni yengillashtirishi yoki kuchaytirishi, shuningdek, og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llashi mumkin.

Agar birinchi instansiya sudi ish yuzasidan kamchiliklarga yoki sud tergovini bir yoqlama olib borishga yoxud protsessual qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudiga yangidan sudda ko'rib chiqishga yubormay, kamchiliklarni to'ldirish, protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi hamda ko'rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

Birinchi instansiya sudining ayblov hukmi jabrlanuvchining, uning vakilining shikoyati yoki prokurorning protesti bo'lgan taqdirdagina mahkumning ahvolini og'irlashtirish tomonga o'zgartirilishi mumkin.

Birinchi instansiya sudining oqlov hukmi apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan faqat jabrlanuvchining, uning vakilining shikoyati yoki prokurorning protesti bo'yicha bekor qilinib, ayblov hukmi chiqarilishi mumkin. Apellatsiya instansiyasi sudining qarorida qanday asoslarga ko'ra birinchi instansiya sudining hukmi to'g'ri deb, shikoyatning yoki protestning vajlari esa asossiz deb topilganligi, birinchi instansiya sudining hukmini bekor qilish yoki uni o'zgartirishga nimalar asos bo'lganligi ko'rsatiladi.

Apellatsiya instansiyasi qaror qabul qilayotganda birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirib ko'rilgan va ishonchli deb topilgan dalillarga apellatsiya shikoyatlari, protestlarini ko'rib chiqishda tekshirilgan yangi dalillarni qo'shgan holda tayanishga haqlidir.

Apellatsiya instansiyasi sudining qarori JPK 473-moddasi qoidalari asosida e'lon qilinadi.

Birinchi instansiya sudining hukmini o'zgartirish yoki bekor qilish va yangi hukm yoxud ajrim chiqarish uchun uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- hukmda bayon qilingan sud xulosalari jinoyat ishining apellatsiya instansiyasida tekshirilgan haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi;
- jinoyat qonunining noto‘g‘ri qo‘llanishi;
- jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi;
- hukmda tayinlangan jazoning jinoyatning og‘irlik darajasiga va sudlanuvchining shaxsiga nomuvofiqligi.

Apellatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining hukmda bayon etilgan jinoyat ishining haqiqiy holatlari haqidagi xulosalar tekshirilgan dalillarga mos kelmasligini aniqlagach, ushbu hukmni to‘lig‘icha yoki qisman bekor qiladi va amalga oshirilgan sud tergov natijasiga ko‘ra yangi hukm chiqaradi.

Apellatsiya instansiyasi, sud majlisida tekshirgan dalillarini baholab, birinchi instansiya sudining hukmi bo‘yicha aniqlanmagan yoki ushbu sud e‘tiborga olmagan faktlarni isbotlangan deb topishga haqli.

JPK 488-moddasida ko‘rsatilgan qonunbuzarliklar jinoyat qonunini noto‘g‘ri qo‘llash deb topiladi. Bunda apellatsiya instansiyasidagi sud, ishni ko‘rib chiqish natijasida qilmishni yuridik jihatdan noto‘g‘ri baholangan deb topib, jinoyat tavsifini JKning yengilroq jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bo‘yicha o‘zgartirishga haqlidir. Xuddi shu sudning o‘zi ishni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra og‘irroq jinoyat haqidagi qonunni qo‘llashga yoki qattiqroq jazo tayinlashga haqlidir. Ammo buning uchun ayblovchi yoxud xususiy ayblovchi, jabrlanuvchi, ularning vakillari ushbu asoslar bo‘yicha shikoyat qilgan yoki protest bildirgan bo‘lishlari kerak.

JPKning 487-moddasida ko‘rsatilgan qonun buzilishlari jinoyat-protsessual qonunni jiddiy buzish deb hisoblanadi. Agar birinchi instansiya sudi ish yuzasidan jinoyat-protsessual qonunni jiddiy ravishda buzishga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, apellatsiya instansiyasi sud muhokamasi o‘tkazadi. Bunda u yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etish choralarini ko‘radi, so‘ngra birinchi instansiya sudining hukmini bekor qiladi hamda ishni ko‘rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda yangi hukm chiqaradi.

Sud hukm bo‘yicha tayinlangan jazoni uning haddan tashqari og‘irligi natijasida adolatsiz, sodir etilgan jinoyatning og‘irligiga va

sudlanuvchining shaxsiga mos kelmaydi deb topib, jazo tayinlashning umumiy prinsiplarga asosan jazoni yengillashtiradi.

Ayni paytda apellatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining hukmi bo'yicha tayinlangan jazoga qaraganda og'irroq jazo tayinlashi mumkin. Ammo bunga ushbu asos bo'yicha ayblovchi protest bildirgan yoki jabrlanuvchi xususiy ayblovchi yoki ularning vakillariga shikoyat qilgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Apellatsiya instansiyasi faqat jabrlanuvchi, xususiy ayblovchi, ularning vakillari bergan shikoyat yoki prokuror sudlanuvchining asossiz oqlanganligi xususida bildirgan protest bo'yicha ayblov hukmi chiqarib, oqlov hukmini bekor qilishi mumkin. Oqlov hukmi oqlangan shaxsning shikoyatiga ko'ra oqlash asoslari bo'yicha ham o'zgartirilishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasining qarori e'lon qilinishi bilan, darhol qonuniy kuchga kiradi. Ammo JPKning 57-bobida belgilangan qoidalarga muvofiq, nazorat tartibida yuqori sudga shikoyat qilinishi yoki protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi. Ajrim sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ajrim barcha sudyalardan tomonidan imzolanadi. Ovoz berishda ozchilikni tashkil etgan sudya ajrimga imzo qo'yib, o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir. Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin.

### **25.3. Apellatsiya instansiyasida ish yuritish tartibi**

Apellatsiya instansiyasi apellatsiya shikoyati yoki protestini faqat ularni bergan shaxsga nisbatan va ular qaratilgan shaxsga nisbatan hamda apellatsiya shikoyati yoxud protestni bergan shaxsning protsessual maqomiga munosib tarzda ko'rib chiqadi.

Apellatsiya instansiyasi apellatsiya shikoyatlari yoki protestlarida ifodalangan asoslar va talablardan tashqari, ishning ham huquqiy, ham faktik tomonlarini ko'rib chiqishi shart. Bunda apellatsiya instansiyasi jinoyat ishini apellatsiya shikoyati bermagan yoki ushbu shikoyatga

aloqasi bo'lmagan tomonlarga nisbatan ham ko'rib chiqadi. Bunda ularga nisbatan ham ularning holatini og'irlashtirmay turib qaror chiqarishga haqli bo'ladi.

Prokuror taraflardan birining manfaatini ko'zlab bergan apellatsiya protesti bo'yicha apellatsiya instansiyasi uning holatini og'irlashtirishga haqli emas. Apellatsiya instansiyasining raisi, ishni olib, apellatsiya shikoyati yoki protestini ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Bunday shikoyat yoxud protest taraflarni chaqirgan holda ko'rib chiqiladi.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti odatda qamoqda saqlanayotgan sudlanuvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi. Lozim tarzda xabardor qilingan taraflardan birining apellatsiya instansiyasiga kelmasligi jinoyat ishining ko'rib chiqilishiga xalaqit bermaydi, biroq zarurat bo'lganda, taraflarning hozir bo'lishini shart deb topishi mumkin.

Apellatsiya shikoyati yoki protestini ko'rib chiqishda prokurorning ishtirok etishi shart hisoblanadi. Apellatsiya instansiyasida ish yuritish birinchi instansiya sudidagi ish yuritish qoidalari bo'yicha o'tkaziladi.

Jinoyat ishini ko'rib chiqish joyi va vaqti haqida taraflarga xabar beriladi. Ish ko'riladigan joy va sana haqida vaqtida xabardor qilingan shaxslarning hozir bo'lmasligi ishni ko'rish va qaror chiqarishga monelik qilmaydi.

Raislik qiluvchi qanday ish ko'rilishini ma'lum qiladi va taraflarning kelgan-kelmaganligini aniqlaydi, so'ngra sud tarkibi a'zolarining, prokurorning, sud kotibining, agar tarjimon majlisda ishtirok etayotgan bo'lsa, tarjimonning hamda himoyachining familiyasi va ismini e'lon qiladi, rad qilish haqida arzlari bor-yo'qligini tekshiradi. Raislik qiluvchi hozir bo'lgan protsess ishtirokchilariga ularning apellatsiya instansiyasida ishni ko'rish chog'idagi huquqlarini tushuntiradi. Shundan keyin raislik qiluvchi hozir bo'lgan taraflardan iltimoslari bor-yo'qligini so'raydi va bildirilgan iltimoslar bo'yicha apellatsiya instansiyasi ajrim chiqaradi.

Ishni ko'rish sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. U ishning mohiyati, shikoyat yoki protestning vajlari hamda ularga qarshi bildirilgan e'tirozlarning mohiyatini bayon qiladi. Sudga qo'shimcha

materiallar taqdim etilgan yoxud sudning o'zi bunday materiallarni talab qilib olgan hollarda raislik qiluvchi yoki sudya ularni o'qib eshittiradi va ishda ishtirok etayotgan shaxslarga tanishish uchun taqdim qiladi.

Raislik qiluvchi apellatsiya shikoyati bergan shaxsga, apellatsiya shikoyati va protesti kimga nisbatan berilgan bo'lsa o'sha shaxsga, ularning himoyachilari va vakillariga, so'ngra esa prokurorga so'z beradi. Agar berilgan apellatsiya shikoyatlari orasida prokurorning apellatsiya protesti bo'lsa, so'z birinchi navbatda unga beriladi.

Sud taraflarning so'zlarini eshitib, hukmning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini lozim darajada tekshirib ko'rishni ta'minlash zaruratidan kelib chiqib, bevosita sud majlisida tekshiriladigan dalillar hajmini aniqlash to'g'risida; sud majlisiga sudlanuvchini, jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlar va zarurat bo'lsa, boshqa shaxslarni chaqirish to'g'risida; sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini saqlab qolish, tanlash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shundan keyin sud uning majlisiga chaqirilgan sudlanuvchini, guvohlarni, jabrlanuvchilarni so'roq qilish yo'li bilan dalillarni tekshirishga, shuningdek, taraflarning iltimosi bo'yicha hamda o'zining tashabbusi bilan hujjatlarni, bayonnomalarni va ishga oid boshqa materiallarni o'qib eshittirishga kirishadi. Dalillarni tekshirish tartibi taraflarning fikrlari inobatga olingan holda sud tomonidan belgilanadi.

Birinchi instansiya sudida so'roq qilingan guvohlar, agar sud taraflarning iltimosi bo'yicha yoki o'zining tashabbusi bilan ularni chaqirishni zarur deb topgan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudida so'roq qilinadilar.

Taraflar yangi dalillarni talab qilib olishni iltimos qilsalar, ular ushbu dalillarni aytishlari va ularni olish yo'llarini ko'rsatishlari kerak.

Taraflar yangi guvohlarni chaqirish, ekspertiza o'tkazish, ularga birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirib ko'rish rad etilgan ashyoviy dalillar va hujjatlarni talab qilib olish to'g'risida iltimos qilishga haqlidir. Keltirilgan iltimoslarni hal etish JPKning 438-moddasi qoidalari asosida amalga oshiriladi, bunda apellatsiya instansiyasi sudi iltimos birinchi

instansiya sudida qanoatlantirilmagan degan asosda iltimosni qanoatlantirishni rad etishga haqli emas.

Dalillarni tekshirish tugagach, sudya taraflardan sud tergoviga qo‘shimcha qilish haqida iltimoslari bor-yo‘qligini surishtiradi, sud bu iltimoslarni hal etadi va sud muzokaralariga o‘tadi.

Sud muzokaralari JPKning 449-moddasi qoidalari asosida o‘tkaziladi, biroq bunda shikoyat, protest bergan shaxs birinchi bo‘lib so‘zga chiqadi. Muzokaralar tamom bo‘lganidan keyin raislik qiluvchi sudlanuvchiga, agar u ishtirok etayotgan bo‘lsa, oxirgi so‘z beradi, shundan keyin sud qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi.

Apellatsiya instansiyasining majlisida sud majlisining kotibi JPKning 426-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asosan bayonnoma yuritadi. Sud majlisining bayonnomasi xususida e‘tirozlar bildirilishi mumkin. Ularni sudya JPKning 427-moddasida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqadi.

Ba‘zi mahkumlarga daxli bo‘lgan, belgilangan muddatda yuborilgan apellatsiya shikoyati yoki protesti biror sababga ko‘ra apellatsiya instansiyasi sudiga boshqa mahkumlarning jinoyat ishi ko‘rib bo‘linganidan keyin kelib tushganda yoki o‘tkazib yuborilgan muddat JPK 497<sup>5</sup>-moddasida nazarda tutilgan tartibda tiklansa, shuningdek, mahkumning, uning himoyachisining yoki qonuniy vakilining apellatsiya shikoyati, ushbu mahkumga doir ish protsessining boshqa ishtirokchisi bergan apellatsiya shikoyati yoxud protesti bo‘yicha ko‘rib chiqilganidan so‘ng kelib tushgan bo‘lsa, apellatsiya instansiyasi sudi bunday shikoyat yoki protestni ko‘rib chiqadi va u bo‘yicha ajrim chiqaradi.

Bu ajrim avval chiqarilgan ajrimga zid bo‘lsa, ish bir yoki har ikkala ajrim ustidan protest berish masalasini hal qilish uchun nazorat tartibida protest bildirish vakolatiga ega bo‘lgan sud raisiga jo‘natiladi.

Ishni qo‘shimcha ko‘rish tartibi kechikib kelgan xususiy shikoyat va xususiy protestni hal qilishga ham taalluqlidir.

## **XXVI BOB. KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH**

### **26.1. Kassatsiya tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati**

Kassatsiya tartibida ish yuritish deganda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishga qaratilgan protsess bosqichi tushuniladi. Ushbu bosqichning vazifasi kuchga kirgan noqonuniy va asoslanmagan hukmning ijro etilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Sud qarorlarini kassatsiya tartibida tekshirish mahkumning va protsess boshqa ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi. U qonuniy kuchga kirgan hukm yuzasidan jinoyat protsessining ishtirokchilarining shikoyati yoki prokuror protesti asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunday shikoyat va protest kassatsiya shikoyati va kassatsiya protesti deb ataladi.

Jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish sudlar yo‘l qo‘ygan xatolarni to‘g‘rilashga imkon beradi, qonuniy kuchga kirgan noqonuniy va asossiz hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijro etilishining oldini oladi, bu bilan odil sudlov maqsadlari va vazifalarining amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Kassatsiya tartibida ish yuritish hukm yuzasidan shikoyat qilish yoki protest bildirish, jinoyat ishini shikoyat yoki protest bilan birga kassatsiya instansiyasiga yuborish, jinoyat ishini kassatsiya instansiyasida ko‘rib chiqish va u bo‘yicha qaror qabul qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Qonunda shikoyat shakliga hech qanday talab qo‘yilmagan. Shikoyat har qanday asos bo‘yicha berilishi, ya‘ni ish yuritishda yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishlariga ham, ishning mohiyati (aybdorlikning isbotlanganligi yoki isbotlanmaganligi, qilmishning tavsiflanishi, jazo chorasi kabilar)ga ham taalluqli bo‘lishi mumkin. Shikoyat bilan hukm chiqargan sudga ham, yuqori turuvchi sudga ham murojaat qilish mumkin. Bu esa fuqaroga o‘zining shikoyat qilish huquqini amalga



oshirishiga yordam beradi. Protsess ishtirokchilari ona tilida shikoyat qilishga haqlidirlar.

Kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rib chiqayotganida kassatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan dalillar bilan cheklanib qolmaydi, ishni to‘liq hajmda barcha, shu jumladan, shikoyat qilmagan va protest bildirilmagan mahkumlarga nisbatan ham tekshirib chiqadi. Bu kassatsiya instansiyasi hukmning qonun talablariga va ishning haqiqiy holatlariga muvofiqligini har tomonlama tekshirishi hamda o‘z vakolatlari doirasida birinchi instansiya sudida yo‘l qo‘yilgan moddiy va protsessual qonunni har qanday buzish hollarini bartaraf etishi shart. Bunda shikoyat yoki protestda ushbu qonunbuzarliklar ko‘rsatilgan-ko‘rsatilmaganligining ahamiyati yo‘q. Kassatsiya instansiyasi birinchi instansiyasi sudininggina emas, balki tergov organlarining ham harakatlari va qarorlari qonuniy ekanligini tekshiradi. Chunki ular yo‘l qo‘ygan xatoliklar qonuniy kuchga kirgan hukmning qonuniyligi va asosliligiga ta’sir etishi mumkin.

Asoslar mavjud bo‘lganda, kassatsiya instansiyasi hukmni bekor qilishi yoxud unga zarur o‘zgartishlar kiritishi shart. Ammo bunda qabul qilinadigan qaror kassatsiya protesti bildirilmagan yoki jabrlanuvchi shikoyat qilmagan mahkumlarning ahvolini og‘irlashtirmasligi kerak.

Hukmlarni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish sudning ish yuzasidan qonun talablariga rioya etishining ham, hukmda ishning haqiqiy holatlari to‘g‘ri aniqlanishining ham tekshirilishini qamrab oladi.

Hukmning qonuniyligi tergov va sud organlari JPK talablarini aniq va qat’iy bajarganligini, jinoyat qonuni normalarini to‘g‘ri qo‘llaganligini, shuningdek, fuqaroviy da’vo yoki moddiy zararni qoplash masalalarini to‘g‘ri hal qilganliklarini bildiradi. Hukmning asosliligi uning ishning haqiqiy holatlariga muvofiqligini, mazmuni bo‘yicha to‘g‘riligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, kassatsiya instansiyasi sudi ish to‘liq tekshirilganligini, ish holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirish uchun ish yuzasidan yetarli ma’lumotlar to‘planganligini, ushbu dalillar tekshirilgan-tekshirilmagan-

ligini va to'g'ri baholanganligini, sud o'z hukmida kelgan qaror ishning haqiqiy (tan olingan yoki aniqlangan) holatlariga mos kelish-kelmasligini, ushbu holatlar sud majlisida ko'rib chiqilgan dalillarga mos kelish-kelmasligini tekshiradi.

Birinchi instansiya sudidan farqli ravishda, kassatsiya instansiyasi sud tergovini amalga oshirmaydi. Hukmning qonuniyligi va asosliligini ushbu sud ishdagi yozma materiallarni o'rganish va baholash orqali tekshiradi. Zarur hollarda kassatsiya instansiyasi tergov yo'li bilan olinishi mumkin bo'lmagan qo'shimcha materiallarni talab qilib olishi mumkin. Bayon etilganlar sababli ushbu instansiya hukmda aniqlanmagan yoki rad etilgan faktlarni aniqlashga haqli emas.

## **26.2. Kassatsiya instansiyasida ish yuritish tartibi**

Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirgan, lekin apellatsiya tartibida ko'rilmagan hukmi va ajrimi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar qonuniy kuchga kirgan, lekin apellatsiya tartibida ko'rilmagan hukm va ajrim (qaror) ustidan kassatsiya tartibida protest bildirishga haqlidir. Fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmning fuqaroviy da'voga daxldor qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmning oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqlidir. Ishda taraf bo'lmagan shaxslar ham sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berishga haqlidir.

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar

sudlariga; Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan – shu sudlarning sudlov hay‘atlariga; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan – shu sudning sudlov hay‘atiga; hududiy harbiy sudlarning qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari ustidan esa shu sudning sudlov hay‘atiga kassasiya tartibida shikoyat qilinishi va protest keltirilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatida, protestida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) shikoyat, protest yo‘llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat bergan shaxs, uning protsessual mavqei, yashash joyi yoki turgan joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- 3) hukmni chiqargan sudning nomi, hukm chiqarilgan sana, shikoyat qilinayotgan va protest keltirilayotgan hukm kimga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- 4) shikoyat, protest bergan shaxsning uning fikriga ko‘ra hukmning yoki boshqa qarorning noto‘g‘riligi nimadan iborat ekanligi borasidagi vajlari va uning iltimosining mohiyati;
- 5) arizachi o‘z talablarini asoslayotgan va kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirilishi lozim bo‘lgan dalillar, shu jumladan ilgari birinchi instansiya sudida tekshirilmagan dalillar;
- 6) shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallarning ro‘yxati;
- 7) shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest berayotgan shaxsning imzosi.

Agar kassatsiya shikoyatining, protestining mazmuni yuqorida ko‘rsatilgan talablarga javob bermasa, sudya kassatsiya shikoyatini, protestini uni bergan shaxsga uch kunlik muddatda qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Kassatsiya shikoyati, protesti yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatlari va protestlari hukm chiqargan sud orqali beriladi. Shikoyat yoxud protest bevosita kassatsiya instansiyasi sudiga

topshirilgan bo'lsa, sud ularni hukm chiqargan sudga JPKning 479-moddasi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarish uchun yuboradi.

Kassatsiya tartibida shikoyat qilish yoki kassatsiya protestini bildirish hukm ijrosini to'xtatmaydi. Hukm chiqargan sud JPK 479-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni bajarib, 30 kundan ortiq bo'lmagan muddat ichida ishni shikoyatlar, protestlar va ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar, shuningdek, taqdim etilgan qo'shimcha materiallar bilan birga kassatsiya instansiyasi sudiga yuboradi. Bu muddat alohida hollarda yuqori sud raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan ko'pi bilan yigirma kunga uzaytirilishi mumkin.

Hukm ustidan shikoyat bergan yoki protest bildirgan shaxs o'z shikoyati yoxud protestini qaytarib olishga haqlidir. Yuqori turuvchi prokuror ham protestni qaytarib olish huquqiga ega. Mahkum esa o'z himoyachisining shikoyatini qaytarib olishga haqli.

Birinchi instansiya sudining raisi kassatsiya shikoyati yoki protesti tushgan ish kassatsiya instansiyasi sudida ko'riladigan kun va joyni belgilaydi, bu haqda JPKning 498-moddasida ko'rsatilgan shaxslar xabardor qilinadi. Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislar sud majlisiga sud lozim topsagina taklif qilinadilar.

JPKning 506-moddasiga muvofiq, kassatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishini ko'rish tartibi quyidagicha: raislik qiluvchi sud majlisini ochib, qanday ish ko'rilishini ma'lum qiladi va sud majlisiga kimlar kelganini aniqlaydi, shundan keyin sud ishni ko'rishga kirishish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risidagi masalani hal qiladi. So'ng raislik qiluvchi sud tarkibini, sud majlisida hozir bo'lgan protsess ishtirokchilarining familiyalarini e'lon qiladi, hozir bo'lganlardan rad qilish haqida arzlari bor-yo'qligini so'raydi. Bunday arzlar bo'lgan taqdirda sud ular yuzasidan qaror qabul qiladi.

Raislik qiluvchi hozir bo'lgan protsess ishtirokchilariga ularning kassatsiya instansiyasida ishni ko'rish chog'idagi huquqlarini

tushuntiradi, JPKning 479-moddasi talablariga rioya qilingan yoki qilinmaganligini aniqlaydi va zarur bo'lsa, ularni bajarish choralarini ko'radi. U sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslardan iltimoslari bor-yo'qligini so'raydi. Bildirilgan iltimoslar bo'yicha sud ajrim chiqaradi. Iltimoslarni qanoatlantirish uchun zarur bo'lsa, sud majlisi keyinga qoldirilishi mumkin.

Ishni ko'rish sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. U ishning mohiyati, shikoyat yoki protestning vajlari hamda ularga qarshi bildirilgan e'tirozlarning mohiyatini bayon qiladi. Sudga qo'shimcha materiallar taqdim etilgan yoxud sudning o'zi bunday materiallarni talab qilib olgan hollarda raislik qiluvchi yoki sudya ularni o'qib eshittiradi va ishda ishtirok etayotgan shaxslarga tanishish uchun taqdim qiladi.

Sud majlisida hozir bo'lgan mahkum yoki oqlangan shaxs, ularning himoyachilari, qonuniy vakillari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari tushuntiruv beradilar. Shikoyat bergan shaxs birinchi bo'lib so'zga chiqadi. Ish protest bo'yicha ko'rilayotgan bo'lsa, prokuror protestni asoslab beradi. Ham shikoyat, ham protest berilgan hollarda so'zga chiqish navbatini sud belgilaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning tushuntiruvlari eshitib bo'lingach, sud majlisiga chaqirilgan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar so'roq qilinadilar. Ularni sud muhokamasining qaysi ishtirokchisi chaqirtirgan bo'lsa, avvalo o'sha shaxs so'roq qiladi. Ixtiloflar chiqib qolsa, ularni sud hal qiladi.

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar so'roq qilinib bo'lgach, sud taraflarning JPKning 449-moddasiga muvofiq o'tkaziladigan muzokarasini boshlaydi. Taraflar muzokarasi va mahkumning oxirgi so'zi tugaganidan keyin sud qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kirib ketadi.

Sud muhokamasining borishi va mazmuni haqida sud majlisining bayonnomasi tuziladi. Bayonnoma JPKning 426-moddasida ko'rsatilgan muddatda tayyorlanishi lozim. Bayonnoma bilan sud majlisining barcha ishtirokchilari tanishishga va zarurat bo'lganda JPKning 427-moddasida nazarda tutilgan tartibda unga o'z mulohazalarini bildirishga haqlidir.

Ba'zi mahkumlarga daxli bo'lgan kassatsiya shikoyati yoki protesti biror sababga ko'ra kassatsiya instansiyasi sudiga boshqa mahkumlarning jinoyat ishi ko'rib bo'linganidan keyin kelib tushsa, shuningdek, mahkumning, uning himoyachisining yoki qonuniy vakilining kassatsiya shikoyati, ushbu mahkumga doir ish protsessning boshqa ishtirokchisi bergan kassatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha ko'rib chiqilganidan so'ng kelib tushgan bo'lsa, kassatsiya instansiyasi sudi bunday shikoyat yoki protestni ko'rib chiqishi va u bo'yicha ajrim chiqarishi shart.

Bu ajrim avval chiqarilgan ajrimga zid bo'lsa, ish bir yoki har ikkala ajrim ustidan protest berish masalasini hal qilish uchun nazorat tartibida protest bildirish vakolatiga ega bo'lgan sud raisiga jo'natiladi.

JPKning 509-moddasiga muvofiq, kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ajrimni barcha sudyalarning imzolaydilar. Ovoz berishda ozchilikni tashkil etgan sudya ajrimga imzo qo'yib, o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir.

Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat qilinishi va protest bildirilishi mumkin.

Sud ishni kassatsiya tartibida ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

1) birinchi instansiya sudining hukmini o'zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishi;

2) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishi va oqlov hukmi chiqarishi;

3) birinchi instansiya sudining oqlov hukmini bekor qilishi va ayblov hukmi chiqarishi;

4) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishi va ishni tugatishi;

5) birinchi instansiya sudining hukmini o'zgartirishi, shu jumladan ayblov hajmini, jinoyat tavsifini o'zgartirishi, jazoni yengillashtirishi yoki kuchaytirishi, xuddi shuningdek, og'irroq jinoyat to'g'risidagi qonunni qo'llashi mumkin.

Agar birinchi instansiya sudi ish yuzasidan kamchiliklarga yoki protsessual qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa yoxud sud tergovini bir tomonlama olib borgan bo‘lsa kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudiga yangidan sudda ko‘rib chiqishga yubormay, kamchiliklarni to‘ldirish, protsessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi hamda ko‘rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

Birinchi instansiya sudining ayblov hukmi jabrlanuvchining, uning vakilining shikoyati yoki prokurorning protesti bo‘lgan taqdirdagina mahkumning ahvolini og‘irlashtirish tomonga o‘zgartirilishi mumkin.

Birinchi instansiya sudining oqlov hukmi kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan faqat jabrlanuvchining, uning vakilining shikoyati yoki prokurorning protesti bo‘yicha bekor qilinib, ayblov hukmi chiqarilishi mumkin.

Kassatsiya instansiyasi sudining qarorida qanday asoslarga ko‘ra birinchi instansiya sudining hukmi to‘g‘ri deb, shikoyatning yoki protestning vajlari esa asossiz deb topilganligi, birinchi instansiya sudining hukmini bekor qilishga yoki uni o‘zgartirishga nimalar asos bo‘lganligi ko‘rsatadi.

Kassatsiya instansiyasi sudi qaror qabul qilish chog‘ida birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirib ko‘rilgan va ishonchli deb topilgan dalillarga kassatsiya shikoyatlarini, protestlarini ko‘rib chiqishda tekshirilgan yangi dalillarni qo‘shgan holda tayanishi mumkin.

## **XXVII BOB. NAZORAT TARTIBIDA ISH YURITISH**

### **27.1. Nazorat tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati**

Hukmlar qonuniy kuchga kirganidan so‘ng ijro etiladi. Biroq ushbu hukmlar qonunga xilof bo‘lishi va ham faktik, ham yuridik xatolarga ega bo‘lishi mumkin. Bir qator hollarda, garchi bunday xatolar jinoyat ishi materiallarida mavjud bo‘lsa ham, apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi hukmning qonuniyligi va asosliligini tekshirayotganida uni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslarini topa olmaydi. Ba‘zan apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarining o‘zi noto‘g‘ri qarorlar chiqaradi, hukmlarni qonunga xilof ravishda bekor qiladi yoki o‘zgartiradi.

Hech bir adolatsiz hukm kuchida qoldirilishi mumkin emasligidan kelib chiqib, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin ham ishni qayta ko‘rish va sud xatolarini tuzatish, adolatni tiklash imkoniyati nazarda tutiladi.

Nazorat tartibida ish yuritish deganda, yuqori turuvchi sud tomonidan vakolatli mansabdor shaxslar keltirgan protestga asosan birinchi va apellatsiya instansiyalari sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining, shuningdek, sud organlari kassatsiya yoki nazorat tartibida chiqargan ajrimlari va qarorlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirishga qaratilgan jinoyat protsessining bosqichi tushuniladi.

Nazorat tartibida ish yuritish quyi sudlarning faoliyatini nazorat qilish shakli bo‘lib, avvalo, sud xatolarini tuzatishga xizmat qiladi.

Apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan hukm va ajrim (qaror) ustidan JPK 498-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar nazorat tartibida shikoyat berishlari mumkin. Nazorat tartibida berilgan shikoyatning mazmuni JPK 502<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak. Nazorat tartibidagi shikoyatga ish bo‘yicha qabul qilingan sud



qarorlarining sud tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinadi.

Viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar natijasida chiqarilgan qarorlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan apellatsiya yoki kassatsiya yoxud nazorat tartibida ko'rib chiqilgan ishlar natijasida chiqarilgan qarorlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatiga nazorat tartibida shikoyat qilinishi va protest keltirilishi mumkin.

Nazorat tartibida berilgan shikoyat quyidagi hollarda ko'rib chiqilmasdan qaytariladi:

1) nazorat tartibida berilgan shikoyat JPK 502<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablarga javob bermasa;

2) nazorat tartibida berilgan shikoyatga ish bo'yicha qabul qilingan, sud qarorlarining sud tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinmagan bo'lsa;

3) ish apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilmagan bo'lsa;

4) nazorat tartibida berilgan shikoyatni qaytarib olish to'g'risida ariza kelib tushganda.

Ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin shikoyat bergan shaxs qaytadan umumiy tartibda murojaat qilishi (shikoyat berishi) mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori – barcha instansiya sudlarining hukmlari va ajrimlari (qarorlari) ustidan; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosarlari – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati qarorlaridan tashqari, barcha instansiya sudlarining hukmlari va ajrimlari (qarorlari) ustidan protest bildirishga haqli.

## **27.2. Jinoyat ishini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib olish**

Ba'zida jinoyat ishlari protest bildirish masalasini hal etish maqsadida talab qilib olinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosarlari o'z vakolatlari doirasida tekshirish va nazorat tartibida protest bildirish haqidagi masalani hal etish uchun har qanday jinoyat ishini suddan talab qilib olishlari mumkin.

Nazorat tartibidagi shikoyatni JPK 515-moddasida nazarda tutilgan tartibda o'rganayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi ham ishlarni sudlardan talab qilib olish huquqiga ega.

Ishlarni talab qilib olishga JPKning 498-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning shikoyatlari, sudyalar va prokurorlarning taqdimnomalari, ommaviy axborot vositalarining xabarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosarlarining bevosita shunday qarorga kelishi sabab bo'ladi.

Nazorat tartibidagi shikoyat unga ilova qilingan materiallar bilan birga, zarur bo'lgan hollarda esa jinoyat ishini talab qilib olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi tomonidan o'rganib chiqiladi. Shikoyatni o'rganib chiqish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi o'z ajrimi bilan quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish uchun asoslar mavjud emasligi to'g'risida;

2) shikoyatni ish bilan birga ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risida.

Nazorat tartibida shikoyat bergan shaxsga qabul qilingan qaror haqida uch kunlik muddatda xabar qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atida sud qarorlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim:

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt, joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) nazorat tartibida shikoyat bergan shaxs haqidagi ma‘lumotlar;
- 4) hukm chiqargan sudning, ajrim chiqargan apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining nomi, apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining hukmi, ajrimi chiqarilgan sana;
- 5) nazorat tartibida berilgan shikoyatning mohiyati;
- 6) nazorat tartibida berilgan shikoyatni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga o‘tkazishni rad etish sabablari va asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atida sud qarorlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat bergan shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga yoki uning o‘rinbosariga shikoyat qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning o‘rinbosari nazorat tartibida shikoyat bergan shaxsning shikoyatiga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining sud qarorlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimini bekor qilish va shikoyatni ko‘rib chiqish uchun jinoyat ishi bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining nazorat tartibidagi shikoyatni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari

bo'yicha sudlov hay'atiga ko'rib chiqish uchun o'tkazish to'g'risidagi ajrimida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt, joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) nazorat tartibida shikoyat bergan shaxs haqidagi ma'lumotlar;
- 4) hukm chiqargan sudning, ajrim chiqargan apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining nomi, apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining hukmi, ajrimi chiqarilgan sana;
- 5) nazorat tartibida berilgan shikoyatning mohiyati;
- 6) nazorat tartibida berilgan shikoyatni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga ko'rib chiqish uchun o'tkazish sabablari va asoslari;
- 7) ishni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqish joyi va vaqti.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi nazorat tartibidagi shikoyatni o'zi chiqargan ajrim bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga jinoyat ishi bilan birga o'tkazadi.

Protest kiritgan shaxs uni chaqirib olishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'z o'rinbosari tomonidan keltirilgan protestni chaqirib olishga haqli. Protestni chaqirib olishga faqat nazorat instansiyasi sudi ishni ko'rib chiqishni boshlaguniga qadar yo'l qo'yiladi. Protest va uni chaqirib olish to'g'risidagi hujjat ishda qoldiriladi.

### **27.3. Nazorat instansiyasi sudida jinoyat ishini ko'rish tartibi**

Protestda og'irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og'irlashtiradigan boshqa o'zgarishlar nazarda tutilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoki ajrimini (qarorini), shuningdek, sudning oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini (qarorini) nazorat tartibida

qayta ko‘rib chiqishga ular qonuniy kuchga kirgandan keyin bir yil mobaynidagina yo‘l qo‘yiladi.

Nazorat tartibidagi shikoyat bir oygacha bo‘lgan muddatda, ish talab qilib olinadigan va tekshiriladigan hollarda esa ikki oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasidagi har qanday sudning protest bildirilgan hukmi va ajrimi (qarori) ijro etilishini keltirilgan protest nazorat tartibida hal qilingunga qadar to‘xtatib turishi mumkin. Qonunning ochiqdan-ochiq buzilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda mazkur shaxslar jinoyat ishini talab qilib olish bilan bir vaqtda hukm, ajrim va qarorning ijrosini to ular yuzasidan protest bildirilgunga qadar uch oydan oshmaydigan muddatga to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Nazorat instansiyasi sudida jinoyat ishi JPK 506-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan ko‘riladi. Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqayotganda yuzaga kelgan masalalarni hal etish uchun nazorat instansiyasi sudi sud majlisiga chaqirilgan guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni so‘roq qilish, yozma dalillarni, ekspertlar xulosalarini va tergov harakatlari bayonnomalarini tekshirish, shuningdek, ekspertiza tayinlash yo‘li bilan qisman sud tergovni o‘tkazishga haqli. Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida ishni ko‘rish chog‘ida protestni qanoatlantirish tarafdorlari bilan qarshilar ovozi teng kelib qolsa, protest mahkum (oqlangan shaxs) foydasiga hal qilingan hisoblanadi, mahkumning (oqlangan shaxsning) ahvolini og‘irlashtirish haqidagi masala qo‘yilgan protest esa rad etiladi.

Nazorat instansiyasi sudi: 1) hukmni, ajrimni, qarorni o‘zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga; 2) ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uchun yuborishga; 3) hukmni, ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni tugatishga; 4) hukmni, ajrimni, qarorni o‘zgartirishga haqli. Bu haqda ajrim yoki qaror chiqariladi.

Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqayotgan sud oldingi hukm yoki ajrim asossiz ravishda bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan, apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ishni ko‘rish chog‘ida qonunning buzilishiga yo‘l qo‘yilgan va bu ajrim yoki qarorni to‘g‘ri chiqarishga ta’sir qilgan yoki ta’sir qilishi mumkin edi deb e’tirof etgan taqdirda apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining ajrimlari, nazorat instansiyasi sudining ajrimlari va qarorlari ham bekor qilinadi yoki o‘zgartiriladi.

Sud nazorat tartibida chiqarilgan ajrim yoki qarorni bekor qilar ekan, birinchi instansiya sudining hukmini va apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining ajrimini o‘zgartirishlar bilan yoki o‘zgartirishsiz o‘z kuchida qoldirishi mumkin.

## **XXVIII BOB. YANGI OCHILGAN HOLATLAR MUNOSABATI BILAN ISH YURITISHNI QAYTADAN BOSHLASH**

### **28.1. Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash mazmuni va ahamiyati**

Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash, mamlakatimizning amaldagi JPK bo'yicha, jinoyat protsessining mustaqil bosqichi emas, balki nazorat tartibidagi ish yuritish bosqichiga kiradi. Ammo bu jinoyat-protsessual faoliyatning ushbu bosqichi ahamiyatini pasaytirmaydi.

Ish yuritishni qaytadan boshlash orqali muayyan ishni birinchi va keyingi instansiya sudlarida muhokama qilish davomida yo'l qo'yilgan xatolar va suiiste'molliklar aniqlanadi va bartaraf etiladi. Ayblov hukmining qonuniyligi va asosliligini uni bekor qilish yoki yengilroq jazo qo'llash maqsadida tekshirish zarurati yuzaga kelganda yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash muddatlari cheklanmaydi. Ushbu tartibda barcha sud instansiyalarining hukmlari va boshqa hal qiluv qarorlari qayta ko'rilishi mumkin.

Shu bilan birga, ish yuritishni qaytadan boshlash uni jinoyat-protsessual faoliyatning boshqa bosqichlaridan, jumladan, nazorat tartibida ish yuritish bosqichidan ajratib turuvchi bir qator muhim xususiyatlarga ega. Uning asosiy xususiyati ish yuritishni boshlash asoslarining o'ziga xosligidadir.

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish huquqiga prokuror ega. Fuqarolarning murojaatlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining, jamoat birlashmalarining xabarlari, ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari, shuningdek, boshqa jinoyat ishlari bo'yicha bevosita tergov yuritish yoki sudda ko'rib chiqish jarayonida olingan ma'lumotlar yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atishga sabab bo'ladi.

JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan holatlardan biri bo'yicha yetarli ma'lumotlar bo'lsa, prokuror jinoyat ishini

qo'zg'atadi, keyin ish umumiy tartibda tergov qilinadi va ko'rib chiqiladi.

Prokuror yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atishga asos yo'q deb hisoblasa, o'z qarori bilan ish qo'zg'atishni rad etadi. Bu haqda ish qo'zg'atishni so'rab iltimosnoma bilan murojaat qilgan shaxsga xabar berilib, unga qaror yuzasidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlashga quyidagilar asos bo'ladi:

1) jabrlanuvchi yoki guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa bergani, shuningdek, ashyoviy dalillar, tergov hamda sud harakatlari bayonnomalari va boshqa hujjatlar soxta ekanligi yoki bila turib yolg'on tarjima qilingani qonunga xilof va asossiz hukm yoki ajrim (qaror) chiqarilishiga sabab bo'lganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

2) ish bo'yicha tergov o'tkazgan surishtiruvchi yoki tergovchi yoxud tergovning borishi ustidan nazorat qilgan prokuror tomonidan qonunga xilof va asossiz hukm yoki ajrim (qaror) chiqarishga olib kelgan jinoiy suiiste'mollarga yo'l qo'yilgani sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

3) mazkur ishni ko'rish chog'ida sudyalarning jinoiy suiiste'mollarga yo'l qo'ygani sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

4) hukm yoxud ajrim (qaror) chiqarish chog'ida sudga ma'lum bo'lmagan, o'z holicha yoki ilgari aniqlangan holatlar bilan birga mahkumning aybsizligidan yoxud u hukm etilganiga nisbatan og'irlik darajasi bo'yicha boshqa jinoyat sodir etganligidan yoxud oqlangan yoki ishi tugatilgan shaxsning aybdorligidan dalolat beradigan boshqa holatlar (JPK 522-m.).

Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ayblov hukmini mahkumning manfaatini ko'zlab qayta ko'rib chiqish hech qanday muddatlar bilan cheklanmaydi. Mahkumning o'limi uni rehabilitatsiya



qilish maqsadida ish yuritishni yangi ochilgan holatlar munosabati bilan qaytadan boshlashga to‘sqinlik qilmaydi.

Oqlov hukmini yoki ishni tugatish haqidagi sudning ajrimini (qarorini) qayta ko‘rish, shuningdek, sudning ayblov hukmini va ajrimini (qarorini) jazoning yengilligi yoki og‘irroq jinoyatga doir qonunni qo‘llash zarurligi sababli qayta ko‘rish faqat Jinoyat kodeksining 64-moddasida belgilangan javobgarlikka tortish muddati davomida va yangi holatlar ochilgan kundan e‘tiboran bir yildan kechiktirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Yangi holatlar ochilgan kun quyidagicha hisoblanadi:

1) JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda – soxta dalillar taqdim etganlikda, bila turib noto‘g‘ri tarjima qilganlikda yoki ish bo‘yicha tergov yuritishda yoxud ishni sudda ko‘rishda jinoiy suiiste‘mol sodir etganlikda aybli shaxslarga nisbatan chiqarilgan hukm qonuniy kuchga kirgan kun;

2) JPK 522-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda – yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risida prokuror qaror chiqargan kun (JPK 523-m.).

## **28.2. Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish va tergov o‘tkazish**

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish huquqiga prokuror ega. Fuqarolarning murojaatlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining, jamoat birlashmalarining xabarlari, ommaviy axborot vositalarining ma‘lumotlari, shuningdek, boshqa jinoyat ishlari bo‘yicha bevosita tergov yuritish yoki sudda ko‘rib chiqish jarayonida olingan ma‘lumotlar yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atishga sabab bo‘ladi.

JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan holatlardan biri bo‘yicha yetarli ma‘lumotlar bo‘lsa, prokuror jinoyat ishini qo‘zg‘atadi, keyin ish umumiy tartibda tergov qilinadi va ko‘rib chiqiladi.

JPK 522-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lsa, prokuror o'z vakolati doirasida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi va ish yuzasidan tergov olib boradi yoxud buni tergovchiga yoki surishtiruvchiga topshiradi.

Prokuror yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atishga asos yo'q deb hisoblasa, o'z qarori bilan ish qo'zg'atishni rad etadi. Bu haqda ish qo'zg'atish so'rab iltimosnoma bilan murojaat qilgan shaxsga xabar berilib, unga qaror yuzasidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Yangi ochilgan holatlar yuzasidan tergov o'tkazish qonun bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladigan holatlarni aniqlash bilan cheklanadi. Bunda JPKda nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilingan holda so'roq qilish, ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish va boshqa zarur tergov harakatlari o'tkazish mumkin.

Ish yuritishni qaytadan boshlashga asoslar mavjud bo'lganda prokuror ishni sudga yuboradi. JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda ish sudga prokurorning protesti hamda qonuniy kuchga kirgan hukmning nusxasi bilan, o'sha moddaning 4-bandida nazarda tutilgan hollarda esa, tergov materiallari bilan birgalikda yuboriladi.

Ish yuritishni qaytadan boshlash uchun asoslar bo'lmasa, prokuror o'z qarori bilan ishni tergov qilishni tugatadi. Bu haqda manfaatdor shaxslarga xabar beriladi va ularga qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi (JPK 526-m.).

Shunday qilib, yangi ochilgan holatlarni tekshirish prokurorning qattiq nazoratidadir. Aksincha bo'lishi ham mumkin emas, chunki amaliyotda yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash ko'p uchramaydi. Bu ish yuritishni qaytadan boshlash asoslarini puxta tekshirish va bunday asoslar qay tariqa tekshirilayotganini nazorat qilishni talab etadi.

Prokurorning yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risidagi protesti:

1) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan hukm yoki ajrim chiqarilgan ishlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan hukmlar, ajrimlar chiqarilgan ishlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atida;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan hukm va ajrim chiqarilgan ishlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati tomonidan qaror chiqarilgan ishlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida ko'rib chiqiladi.

## **XXIX BOB. HUKM, AJRIM, QARORLARNI IJRO ETISH**

### **29.1. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish mazmuni**

Jinoyat protsessi oldida turgan vazifalar qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarish, shuningdek, uni o'z vaqtida va aniq bajarish orqali amalga oshiriladi.

*Hukmni ijro etish* – jinoyat protsessining yakunlovchi (oxirgi) bosqichi bo'lib, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga tayinlangan jazoning ijro etilishini protsessual va jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari talablariga qat'iy muvofiq holda ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, ularning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, shuningdek, retsidiv jinoyat-chilikning oldini olishdan iborat.

Ushbu maqsadga haqiqatda erishish quyidagilarga bog'liq:

- sodir etilgan qilmishning og'irligiga to'liq mos keluvchi jazoni tayinlashda odillik;
- jinoiy jazoni ijro etuvchi organlar faoliyatining samaradorligi;
- ushbu bosqichda yuzaga keladigan masalalarni to'g'ri hal qilish.

Hukmni ijro etish bosqichining ahamiyati har bir jinoyatchi adolatli jazoga tortilishi uchun jinoyat protsessi vazifalarining bajarilishiga yordam berishidadir. Hukmning samarali ijro etilishi fuqarolarda har bir jinoyat uchun jazoning muqarrarligiga bo'lgan ishonchni hosil qilishga yordam beradi va bu jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiluvchi omil vazifasini bajaradi.

Jinoiy jazoni ijro etish maqsadiga erishishda JPK normalarini amalga oshirish bilangina cheklanib bo'lmaydi, chunki ushbu jarayon jazoni ijro etish mexanizmlarining ham ishlashini taqozo etadi. Shu bois Jinoyat-ijroiya kodeksi normalariga murojaat etishimiz asosli va maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 5-moddasiga muvofiq, jazoni ijro etish asoslarini sudning qonuniy kuchga kirgan

hukmi, ajrimi, qarori, shuningdek, amnistiya yoki afv etish hujjatlari tashkil qiladi.

Hukm uning ustidan apellatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya instansiyasining hukmi va ajrimi ular chiqarilgan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Mahkumlar ikki va undan ortiq bo'lgan taqdirda, basharti shulardan loaqal biriga nisbatan hukm ustidan shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan bo'lsa, yuqori sud ishni ko'rib chiqquniga qadar mahkumlar-ning hammasiga nisbatan hukm qonuniy kuchga kirmay turadi.

Hukm qonuniy kuchga kirgan yoki ish apellatsiya instansiyasi sudidan qaytarilgan kundan boshlab uch kundan kechikmay, hukm chiqargan sud tomonidan ijro ettiriladi. Ish faqat birinchi instansiya sudiga yuborilishi lozim, prokurorga yoki boshqa sudga yuborilishi mumkin emas (JPK 528-m.).

Qonunda hukmlarning ayrim turlarini ijro etishning alohida tartibi va muddati nazarda tutilgan. JPKning 529-moddasiga muvofiq, sud hukmni e'lon qilgach, sud majlisi zalida quyidagilarni darhol qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod qiladi: 1) oqlangan shaxsni; 2) jazo tayinlanmagan mahkumni; 3) jazodan ozod etilgan mahkumni; 4) ushlab turish yoki ehtiyot chorasini qo'llash oqibatida qamoqda yoki uy qamog'ida bo'lgan vaqtdan yoxud kassatsiya yoki nazorat tartibida bekor qilingan hukmga binoan shu ish bo'yicha jazoni o'tagan vaqtdan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etilgan yoki ozodligi cheklangan mahkumni; 5) shartli ravishda ozodlikdan mahrum etilgan mahkumni; 6) ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga mahkum etilgan shaxsni.

Birinchi instansiya sudining ajrimi shu ajrim ustidan apellatsiya tartibida xususiy shikoyat berish va xususiy protest bildirish muddati o'tishi bilan yoxud shikoyat yoki protest bildirilgan taqdirda ish yuqori sudga ko'rib bo'linganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va ijro etiladi.

Sudning shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin bo'lmagan ajrimi shu ajrim chiqarilishi bilanoq darhol kuchga kiradi va ijro etiladi. Jinoyat ishini tugatish haqidagi sud ajrimining gumon qilinuvchini, ayblanuvchini yoki sudlanuvchini qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod qilishga oid qismi darhol ijro etilishi lozim.

Kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudning ajrimi u e'lon qilingan paytdan qonuniy kuchga kiradi.

Yuqori instansiya sudning ajrimi, qarori JPKning 497-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilib ijro ettiriladi, ya'ni ajrim (qaror) chiqarilganidan keyin u uzog'i bilan besh sutka ichida jinoyat ishi bilan birga qo'shib uni ijro ettirish vakolatiga ega bo'lgan sudga yuboriladi. Agar ajrim (qaror)ga ko'ra mahkum qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod qilinishi lozim bo'lsa, mahkum sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, zalning o'zidayoq ijro etiladi. Boshqa hollarda, ajrim (qaror) chiqarilgan vaqtdan e'tiboran yigirma to'rt soatdan kechiktirmay uning nusxasi sud tomonidan jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatiga yoki mahkumning yashash joyidagi zimmasiga uy qamog'ini ijro etish yuklatilgan ichki ishlar organiga yuboriladi.

Hukmning majburiyligi uning O'zbekiston Respublikasining butun hududida bajarilishi shart ekanligini bildiradi.

Sud hukmida mavjud topshiriqlarning amalga oshishi uni ijro etishning mohiyatini tashkil qiladi. Ushbu mohiyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) hukmni qonunda belgilangan tartibda ijro ettirish;
- b) sudning hukm ijrosini nazorat qilishi;
- v) axloq tuzatish ta'siri ko'rsatish jarayoni;
- g) jazoni ijro etishda yuzaga keladigan masalalarni hal qilish.

Sud hujjatlarini ijro etish bosqichi O'zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining normalari bilan tartibga solingan bo'lib, ularda quyidagilar belgilagan:

- jinoiy jazoni, boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish prinsiplari, tartibi va shartlarini;
- mahkumlarning huquqiy maqomini;

– mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo‘llash tartibini;

– mahkumlarni jazoni o‘tashdan ozod qilish tartibini;

– mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtiroki.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo‘llash va mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag‘batlantirish prinsiplariga asoslanadi.

Mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi (rejimi), mehnat va tarbiyaviy ta‘sirning boshqa choralari; ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik kiradi. Ushbu vositalar jazo turini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shuningdek, mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo‘llaniladi.

## **29.2. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro ettirish**

Hukm, ajrim va qarorni ijro ettirish ularni qabul qilgan sud zimmasiga yuklatiladi. Hukmni ijro etish to‘g‘risidagi farmoyishni sudya yoki sud raisi hukmni ijro etish majburiyati yuklatilgan organga hukmning nusxasi bilan birgalikda yuboradi. Ish apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rilganda hukm o‘zgartirilgan bo‘lsa, hukm nusxasiga apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudning ajrimi yoxud qaroridan nusxa ilova qilinadi.

Hukmni ijro etuvchi organlar uning ijro etilganligi haqida hukmni chiqargan sudga darhol xabar beradi. Jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyati mahkum jazoni qayerda o‘tayotgani haqida hukmni chiqargan sudga xabar berishi shart.

Sud qarorini o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarmaslik qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Qonuniy kuchga kirgan hukmning

nusxasi zarur hollarda mahkumning ish, o'qish yoki yashash joyiga yuboriladi. Ushbu hukm haqida zarur hollarda matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka ma'lum qilinadi.

Sud mahkumni harbiy unvonidan yoki maxsus unvonidan mahrum etish to'g'risida qaror chiqargan bo'lsa, hukmning nusxasini ijro etish uchun ana shu unvonni bergan organga yuboradi. Sud davlat mukofotlari bilan taqdirlangan yoki oliy harbiy yoxud maxsus unvonga ega bo'lgan shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarishda uni ana shu mukofotlar yoki unvonlardan mahrum etish to'g'risida tegishli organga taqdimnoma kiritishning maqsadga muvofiqligi masalasini hal qiladi.

Sud qarorining jarima solishga va boshqa mulkiy undirishlarga taalluqli qismini ijro etish uchun ijro varaqalari yoki ularning dublikatlari sud qarorining nusxasi bilan birga birinchi instansiya sudi tomonidan sudning qarori qonuniy kuchga kirgan yoki ish apellatsiya instansiyasi sudidan qaytarilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay mahkumning yashash joyidagi yoxud jazoni o'tash joyidagi, shuningdek, mahkumning mol-mulki turgan joydagi davlat ijrochilariga yuboriladi.

Qamoqda saqlanayotgan mahkumni ozodlikdan mahrum etish to'g'risidagi hukm qonuniy kuchga kirgani va ijro ettirilishi haqida sud mahkumning oilasini xabardor qilishi shart. Qamoqda saqlanayotgan mahkum bilan uchrashuvlarga hukmni ijro ettirishdan avval JPKning 477-moddasi asosida ruxsat etiladi.

Sud mahkumning voyaga yetmagan farzandlarini muassasalarning, qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning homiyligiga berish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, sud bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik organiga, shuningdek, mahkumga xabar beradi.

Mahkumning qarovsiz qolgan mol-mulki va turar joyini qo'riqlash choralarini ko'rish zarurligi to'g'risida sud mol-mulk va turar joy joylashgan yerdagi hokimlikka yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga xabar qiladi, bu haqda mahkumni xabardor etadi (JPK 531-m.).

Jarima tariqasidagi jazoni sud ijro etadi. Bunday jazoga hukm qilingan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab uch oylik



muddat ichida ixtiyoriy ravishda to‘lashi shart. Agar belgilangan muddatda jarimani to‘liq miqdorda to‘lash imkoni bo‘lmasa, sud mahkumning iltimosiga ko‘ra hukmning ijrosini JPKning 533-moddasida belgilangan tartibda kechiktirishi yoki mahkumning moddiy ahvolini inobatga olgan holda jarimani olti oylik muddat ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat etishi mumkin.

Mahkumning jarimani to‘lashdan bo‘yin tovlashi bu jazoni Jinoyat kodeksining 44 va 82-moddalarida nazarda tutilgan tartibda va doirada boshqa jazo bilan almashtirishga sabab bo‘ladi. Ichki ishlar idoralariga qonun bilan muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum etish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish vazifasi yuklatilgan.

Muayyan huquqdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari jazosini mahkum yashaydigan joydagi ushbu organlarning jazolarni ijro etish inspeksiyasi ijro etadi. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- bunday turdagi jazolarga hukm qilingan shaxslarni hisobga olish, mahkumlarning ish joyidagi ma‘muriyatga tegishli ko‘rsatmalar yuborish;

- ma‘muriyatning hukm talablarini bajarishini tekshirish va mahkumlarning xulq-atvorini nazorat qilish, ushbu jazolarni bajarishdan bo‘yin tovlavchi shaxslarga qonunda nazarda tutilgan choralarni ko‘rish.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini jazoni ijro etish muassasalari amalga oshiradi. Jazoni ijro etish muassasalariga quyidagilar kiradi:

- jazoni ijro etish koloniyalari;
- tarbiya koloniyalari;
- turmalar;
- ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga mo‘ljallangan tergov hibsonalari.

*Voyaga yetgan mahkumlar* uchun mo‘ljallangan *koloniyalar* saqlash rejimining turlariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

– ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar uchun hukm etilgan shaxslar, shuningdek, umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan yoki tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar;

– umumiy tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum etishga birinchi marta hukm qilingan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarga bo'linadi: 1) qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun; 2) og'ir jinoyat sodir etganlik uchun; 3) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun qayta sudlangan ayollar uchun;

– qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:

1) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan koloniyalar;

2) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun qayta sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

3) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek, o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

– maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, o'ta xavfli retsivist deb topilgan, shuningdek, o'lim jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan erkaklarni saqlash uchun mo'ljallangan;

– umumiy tartibli tarbiya koloniyalari quyidagilarga bo'linadi:

a) ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun hukm qilingan voyaga yetmagan shaxslar saqlanadigan koloniyalar;

b) qasddan uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalar;

v) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalar;

g) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun qayta sudlangan ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslar saqlanadigan koloniyalar;

– kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyalari ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun qayta sudlangan erkak jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslarni saqlab turishga mo‘ljallangan koloniyalar;

– turmalar turma qamog‘iga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek, umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o‘tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o‘tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallangan.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov hibsxonasining ma‘muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to‘g‘risida sud xabarnoma olgan kundan boshlab 10 kun ichida jazoni ijro etish uchun jo‘natiladi.

Jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyati mahkum yetib kelgan kundan boshlab uch kun ichida bu haqda hukm chiqargan sudni xabardor qilishi, shuningdek, mahkumning oilasiga muassasa manzilini ko‘rsatib, hamda mahkumning yozishma olib borish, uchrashuv, posilka, yo‘qlov va banderollar olish, telefon orqali so‘zlashuv huquqlarini tushuntirib, xabarnoma yuborishi shart.

Muassasaga yetib kelgan mahkumlar ularning shaxsini o‘rganish va sharoitga moslashib olishlari uchun 15 sutkagacha muddatga, odatda qabul bo‘limiga joylashtiriladi. Ularga jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida kerakli axborot beriladi, shuningdek, ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi.

*Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs odatda butun jazo muddatini bitta muassasada o‘taydi. Qonunda erkaklar va ayollar, voyaga yetmagan va katta yoshlilar, ozodlikdan mahrum etishga birinchi marta hukm qilingan shaxslar va ilgari bu jazo turini o‘tagan mahkumlar alohida-alohida saqlanish belgilangan.*

Quyidagilar boshqa mahkumlardan batamom ajratilib, shuningdek, alohida-alohida saqlanadi: o‘ta xavfli retsivistlar; o‘lim jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan; ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan mahkumlar; sud va huquq-tartibotni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar; turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar.

Jazodan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun jazoni ijro etish muassasalarida *maxsus rejim* o‘rnatiladi. Ushbu rejim quyidagilarni ta‘minlaydi:

- mahkumlarni batamom ajratib qo‘yish, ularni qo‘riqlash va nazorat qilib turishni;

- mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, ularning o‘z majburiyatlarini ado etishini, muayyan toifadagi mahkumlarning alohida-alohida saqlanishini;

- muassasa turiga qarab, mahkumlarning har xil sharoitda saqlanishini;

- mahkumlarning va muassasa xodimlarining xavfsizligini.

*Manzil-koloniyalarda jazo* o‘tash shartlari shundayki, ularda mahkumlar:

- soqchisiz, ammo nazorat ostida saqlanadilar;

- ertalab o‘rindan turishdan kechki yotishgacha bo‘lgan vaqt mobaynida koloniya hududida erkin yurish huquqidan foydalanadilar;

- agar ular bajarayotgan ish yoki olayotgan ta‘lim taqozo etsa, ma‘muriyatning ruxsati bilan koloniya hududidan tashqarida nazoratsiz yurishlari mumkin;

- fuqarolar kiyadigan kiyimda yuradilar;

- yonlarida pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, undan cheklanmagan holda foydalanishlari mumkin;

- ularga cheklanmagan miqdorda telefon orqali so‘zlashishlari, posilka, yo‘qlov va banderollar olishlari hamda jo‘natishlariga ruxsat etilgan;

– har oyda bir marta uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga egadirlar. Bunday uchrashuv mahkumning iltimosiga binoan manzil-koloniya hududidan tashqarida o‘tkazilishi mumkin. Qisqa muddatli uchrashuv cheklanmagan miqdorda, ammo odatda ishdan bo‘sh vaqtda beriladi;

– ular xonalarga bo‘lingan yotoqxonalarda yashaydilar, saqlash rejimini buzmagani, oilasi bor mahkumlarga manzil-koloniya hududida yoki undan tashqarida oilasi bilan alohida yashashga ruxsat berilishi mumkin. Manzil-koloniya ma‘muriyatining vakili mahkumlar yashayotgan joyga sutkaning istalgan vaqtida kirishi mumkin;

– muassasa joylashgan hududdagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida sirtidan o‘qishlari mumkin;

– ularni boshqa ishga o‘tkazish, ishdan bo‘shatish kabi manzil-koloniya ma‘muriyati bilan kelishilgan holda amalga oshiriladigan muayyan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qiladilar.

*Umumiy tartibli koloniyalarda* mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar va quyidagi huquqlarga egadirlar:

– belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 40 % gacha bo‘lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish;

– yil mobaynida to‘rt marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli uchrashuv olish;

– to‘rt marta telefon orqali so‘zlashish, to‘rtta posilka yoki yo‘qlov, to‘rtta banderol olish.

*Qattiq tartibli koloniyalarda* ham mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar va xuddi umumiy tartibli koloniyalarda saqlanadigan mahkumlarnikiga o‘xshash huquqlarga egadirlar. Farqi faqat shundaki, yil mobaynidagi uchrashuvlar, telefon orqali so‘zlashuvlar, olinadigan posilka, yo‘qlov va banderollar soni bitta kam bo‘ladi.

*Maxsus tartibli koloniyalarda* mahkumlar kameralarda yashaydilar. Ularga kinofilmlar va teleko‘rsatuvlar ko‘rish taqiqlanadi. Ular quyidagi huquqlarga egadirlar:

- belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 40 % gacha bo‘lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish;
- yil mobaynida ikki marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli uchrashuv olish;
- ikki marta telefon orqali so‘zlashish, ikkita posilka yoki yo‘qlov, ikkita banderol olish.

Turmalarda mahkumlar umumiy kameralarda saqlanadilar. Alohida hollarda, mahkumning batamom ajratib qo‘yilishini ta‘minlash maqsadida, muassasa boshlig‘ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori asosida uni bir kishilik kamerada saqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Ular belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 30 % gacha bo‘lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin; har kuni 30 minutli sayr qilish hamda yil mobaynida: bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so‘zlashuv, ikkita banderol olish huquqiga ega.

Homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek, I va II guruh nogironlari turmalarda jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o‘taydilar. Ushbu sharoitda rag‘batlantirish tariqasida har kunlik sayr muddati 1 soatga uzaytirilishi mumkin.

Tarbiya koloniyalarida 16 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan mahkumlar odatda kattaroq yoshdagi mahkumlardan alohida saqlanadi. Ularga belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 50 % gacha bo‘lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishga ruxsat etilgan. Ular yil mobaynida: olti marta qisqa muddatli uchrashuv va to‘rt marta uzoq muddatli uchrashuv, to‘rt marta telefon orqali so‘zlashuv, oltita posilka yoki yo‘qlov, oltita banderol olish huquqiga ega.

Ular muassasa hududidan tashqarida o‘tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko‘rishga yuborish; qisqa muddatli uchrashuv o‘rniga ota-onasi, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida 8 soatgacha bo‘lgan muddatga erkinlikka chiqarish; hibsonada bo‘lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag‘batlantirilishlari mumkin. Ularni

hibsxonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo ham katta yoshdagi mahkumlarga qaraganda qisqaroq (16 yoshgacha bo'lgan mahkumlarga – yetti sutkagacha, 16 va undan katta yoshdagilarga – 10 sutkagacha) muddatga qo'llaniladi.

*Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan* mahkumlar maxsus saqlash sharoitlariga ega bo'lgan maxsus tartibli koloniyalarda saqlanadilar. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar kameralarga ko'pi bilan ikki kishidan joylashtiriladilar. Mahkumlarning iltimosiga ko'ra yoki zarurat taqozo etganda ular bir kishilik kameralarda saqlanishlari mumkin. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoni qattiq, odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'taydilar. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoning dastlabki o'n yilini qattiq saqlash sharoitlarida o'taydilar. Jazoning kamida o'n yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar qattiq saqlash sharoitlaridan odatdagi saqlash sharoitlariga o'tkazilishlari mumkin. Jazoning kamida o'n besh yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar odatdagi saqlash sharoitlaridan yengillashtirilgan saqlash sharoitlariga o'tkazilishlari mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan bitta mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi to'rt kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas. Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni qattiq saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining yetmish besh foizigacha bo'lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov, bitta banderol olish huquqiga ega. Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni odatdagi saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat

mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va bir marta qisqa muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so‘zlashuv, ikkita posilka yoki yo‘qlov, ikkita banderol olish huquqiga ega. Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o‘tayotgan mahkumlar o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan belgilangan eng kam ish haqining bir yarim baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va ikki marta qisqa muddatli uchrashuv, uch marta telefon orqali so‘zlashuv, uchta posilka yoki yo‘qlov, uchta banderol olish huquqiga ega. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar, saqlash sharoitlaridan qat’i nazar, har kuni bir yarim soatgacha sayr qilish huquqiga ega.

Axloq tuzatish ishlarini ijro etish vazifasi mahkumning turar joyidagi ichki ishlar idoralari inspeksiyasiga, bunday inspeksiya bo‘lmaganida esa hukm chiqarilgan joydagi ushbu organlarning inspeksiyasiga yuklatilgan. Bu jazoni odatda mahkum jazoga hukm qilinguniga qadar ishlagan joyda o‘taydi. Hukmda jazoni boshqa joylarda o‘tash zarurligi ko‘rsatilgan taqdirda bunday joyni inspeksiya belgilaydi.

Voyaga yetmagan mahkumlar turar joylaridagi korxonalariga yuboriladilar. Mahkumning ish joyidagi muassasa, korxonalar, tashkilot ma‘muriyati mahkumning ish haqidan hukmda ko‘rsatilgan foizini har oyda to‘g‘ri va o‘z vaqtida davlat foydasiga ushlab qolinishini ta‘minlaydi, inspeksiyani mahkumning xulq-atvorida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar va unga nisbatan ko‘rilgan choralardan xabardor qiladi.

Mahkum axloq tuzatish ishlarini o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda inspeksiya sudga o‘talmagan jazoni JK 46 va 83-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirish haqida taqdimnoma kiritadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazoni ijro etishni mahkumning turar joyidagi ichki ishlar idoralarining jazoni ijro etish inspeksiyasi amalga oshiradi. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ushbu turdagi jazoga hukm qilingan shaxslarni hisobga olish;



– mahkumning ish joyidagi korxonada, muassasa, tashkilot ma'muriyatiga yoki muayyan turdagi faoliyat bilan shug'ullanishga berilgan ruxsatni bekor qilishga vakolatli organga hukm talablarining ijro etilganligi haqida xabarnoma yuborish;

– mahkumning hukmda ko'rsatilgan taqiqqa rioya etishini nazorat qilish;

– u ishlaydigan joydagi ma'muriyatning, shuningdek, muayyan turdagi faoliyat bilan shug'ullanishga berilgan ruxsatni bekor qilishga vakolatli organning hukmda belgilangan talablarni bajarishini tekshirish;

– agar mahkum harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan yoki kirishgan bo'lsa, mudofaa ishlari bo'yicha bo'limga yoki xizmat joyiga hukmning nusxalarini yuborish.

Mahkumning ish joyidagi ma'muriyat inspeksiyadan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kundan kechikmay uni lavozimidan yoki shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan mehnat faoliyatining turidan ozod qilishi va inspeksiyaga hukm ijro etilganligi, shuningdek, mahkum boshqa ishga o'tkazilganligi yoxud u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilganligi haqida yozma ravishda xabar berishi shart. Xabarga tegishli hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Muayyan turdagi faoliyat bilan shug'ullanishga berilgan ruxsatni bekor qilish vakolatiga ega bo'lgan organning hukmni ijro etishi uchun ham xuddi shunday tartib va muddatlar belgilangan. Ushbu turdagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm talablarini bajarishi, inspeksiyaga ushbu jazoni o'tash bilan bog'liq hujjatlarni taqdim etishi, yashash, ishlash joyi o'zgarganligi yoki mehnat shartnomasi to'xtatilganligi haqida xabar berishi, chaqirilganda inspeksiyada hozir bo'lishi shart. Inspeksiyaga borishdan bo'yin tovlagan taqdirda belgilangan tartibda u yerga majburan olib borilishi mumkin.

Jinoyat predmeti bo'lgan mol-mulkni davlat egaligiga o'tkazish ko'rinishidagi jazoni ijro etish hukm chiqargan sudning ijro varaqasini, mulk ro'yxati va hukm nusxasini sud ijrochisiga yuborish orqali amalga oshiriladi. Bu to'g'rida tegishli soliq organi xabardor qilinadi.

Jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari ijro etuvchi muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlari;

Ushbu choralarni ijro etishda qonunlarga rioya etilishini esa O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar qonunda belgilangan vakolatlari doirasida nazorat qiladilar.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 8–9-moddalariga muvofiq, mahkumlar muayyan turdagi jazoni ijro etish tartibi va shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadigan muayyan huquqlar va erkinliklarga ega bo'ladilar hamda majburiyatlarni bajaradilar.

Mahkumlarning asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

– jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

– jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;

– o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish;

– tushuntirish berish hamda yozishmalar olib borish;

– axborot materiallaridan foydalanish;

– ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitida tibbiy yordam olish;

– ijtimoiy ta'minot, shu jumladan, qonun hujjatlariga muvofiq, pensiya olish;

– ariza bo'yicha advokatlar bilan uchrashuv olish orqali ulardan soni uchrashuvlar soni hisobiga kirmaydigan hamda miqdori va muddati cheklanmaydigan malakali yuridik yordam olish;

– jazoni ijro etuvchi organlarning mansabdor shaxslari ko'radigan choralar orqali ta'minlanadigan shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega.

JIKning 12-moddasiga muvofiq, mahkumlarga vijdon erkinligi, ya'ni har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi kafolatlanadi.

Mahkumlarning asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- jazoni o‘tash tartibi va shartlariga rioya etish;
- jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarish.

Mahkumlarning o‘z zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarmasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

### **29.3. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishda yuzaga keladigan masalalarni hal qilish**

Hukmni ijro etish bosqichida mahkum sudga hukmning ijrosini kechiktirish haqida, kasalligi yoki nogironligi tufayli jazoni o‘tashdan ozod qilish haqida, jazoning o‘talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish va muddatidan oldin shartli ozod qilish haqida, jazoni ijro etish joylarida saqlash sharoitlarini o‘zgartirish va JPKda nazarda tutilgan boshqa masalalar bo‘yicha arizalar berish; sud majlisida ishtirok etish va ko‘rsatuvlar berish, dalillar taqdim qilish, iltimoslar qilish va rad etish; ishdagi barcha materiallar bilan tanishish, sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar berish kabi huquqlarga ega.

Mahkumlarning huquqlari va protsessual tartibga ko‘ra hukmni ijro etishda bir qancha masalalar vujudga kelishi mumkin. Ushbu masalalar protsessual tartibda hal etiladi.

Hukmni ijro etishda yuzaga keladigan masalalarga:

- 1) hukmning ijrosini kechiktirish;
- 2) kasalligi tufayli jazoni o‘tashdan ozod qilish;
- 3) jazoning shartliligini bekor qilish;
- 4) jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish;
- 5) mahkumni amnistiya aktiga asosan jazodan ozod qilish;
- 6) ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarni saqlash sharoitini jazoni o‘tash vaqtida o‘zgartirish;
- 7) mahkumni tergov hibsonasida saqlab turish;

8) jarima solishni, majburiy jamoat ishlarini, axloq tuzatish ishlarini va ozodlikni cheklashni jazoning boshqa turi bilan almashtirish;

9) hukmlar, ajrimlar va qarorlarni ijro etishda fuqaroviy da'vo hamda boshqa mulkiy undiruvlarga oid qismi bo'yicha yuzaga keladigan masalalarni hal etish;

10) ijro qilinmagan boshqa hukmlar mavjud bo'lgan taqdirda hukmni ijro etish.

Shuningdek, hukmni ijro etish bilan bog'liq bo'lmagan sinov muddati to'g'risidagi, sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi, axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi, xizmat bo'yicha cheklash, intizomiy qismda saqlash vaqtini hisobga kiritish to'g'risidagi masalalar tegishli iltimosnoma asosida hal etiladi.

Sudya ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga nisbatan hukm ijrosini quyidagi asoslardan birortasi mavjud bo'lganda kechiktirishi mumkin:

1) mahkum jazoni o'tashiga monelik qiladigan darajada og'ir kasal bo'lib qolganida – u sog'aygunicha;

2) hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa – bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga;

3) mahkumaning yosh bolasi bo'lsa – u uch yoshga to'lguniga qadar;

4) jazoni darhol o'tashni boshlash yong'in yoki boshqa biror tabiiy ofat yuz berganligi, oilaning mehnatga yaroqli yagona a'zosi og'ir kasal bo'lib qolganligi, vafot etganligi oqibatida yoki boshqa favqulodda holatlar mahkum yoki uning oilasini juda mushkul ahvolga solib qo'yishi mumkin bo'lsa – uch oydan oshmagan muddatga.

Hukmning jarima solish, fuqaroviy da'voni qanoatlantirish yoki keltirilgan ziyonni qoplash qismining ijro etilishini olti oygacha kechiktirish yoki to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash masalasini sudya ishning muayyan holatlarini va mahkumning moddiy ahvolini e'tiborga olib hal qiladi.

O'ta xavfli retsdivistlarga va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan hukmning ijrosini kechiktirish mumkin emas (JPK 533-m.).

Mahkum jazoni o'tayotgan vaqtida jazoni o'tashga monelik qiladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lgan taqdirda sudya jazoning ijro qilinishiga mutasaddi organning taqdimnomasiga binoan, maxsus tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan mahkumni o'talmay qolgan jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida ajrim chiqarishga haqlidir. Surunkali ruhiy kasallikka duchor bo'lgan mahkumni o'talmay qolgan jazodan ozod qilishda sudya unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llashga yoki uni sog'liqni saqlash organlari yoxud qarindoshlari vasiyligiga berishga haqlidir. Bunday shaxslar sog'aygan taqdirda, basharti bu hol jazoning ijro etish muddati tugashiga qadar sodir bo'lsa, sud tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ruhiy kasallikka duchor bo'lgan shaxslardan tashqari, og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligini, mahkumning shaxsini va boshqa holatlarni hisobga oladi.

Mahkumni o'talmay qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli, bu ajrimda ko'rsatilishi lozim (JPK 534-m.).

Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa, sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan Jinoyat kodeksi 72-moddasining oltinchi qismiga muvofiq, jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin (JPK 535-m.).

Jinoyat kodeksining 73 va 74-moddalarida nazarda tutilgan hollarda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan sudya qo'llaydi.

Intizomiy qismda jazoni o'tayotganlarga nisbatan ana shu choralarni intizomiy qism qo'mondonligining taqdimnomasiga binoan sudya qo'llaydi.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish o'n sakkiz yoshga to'lmay jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati va voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning birgalikdagi taqdimnomasiga binoan yoxud mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga asosan sudya tomonidan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum etish tarzidagi jazodan ozod qilishni jamoat birlashmasi, jamoa, mahkumning o'zi yoki uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya amalga oshiradi. Ushbu masalalar yuzasidan taqdim etilgan iltimosnomalar ularni rad etish to'g'risida qaror chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o'tgach, qayta ko'rib chiqilishi mumkin (JPK 536-m.).

Mahkumni amnistiya aktiga asosan asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish prokurorning iltimosnomasiga binoan mahkumning jazoni o'tash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq mahkumni jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasidan boshqa tartibli koloniyasiga, turmadan koloniyaga va koloniyadan turmaga o'tkazishni jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan, shuningdek, mahkumning yoki uning himoyachisining iltimosnomasiga ko'ra sudya amalga oshiradi.

Sudya jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasidan boshqa tartibli koloniyasiga, turmadan koloniyaga, koloniyadan turmaga o'tkazishni rad etsa, bu masala yuzasidan kiritilgan taqdimnoma yoki iltimosnoma rad qilish haqida qaror chiqarilgan kundan boshlab kamida olti oy o'tgach qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga va umumiy tartibli tarbiya koloniyasidan kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyasiga

o'tkazishni tarbiya koloniyasi ma'muriyatining voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan sudya amalga oshiradi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sudya uning tuzalish darajasini hisobga oladi. Mahkum tarbiya koloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan yigirma yoshga to'lguniga qadar qoldirilishi mumkin (JPK 537-m.).

Boshqa shaxs sodir etgan jinoyat haqidagi ish yuzasidan tergov harakatlari olib borish zarur bo'lganda jazoni ijro etish koloniyasi yoki tarbiya koloniyasida o'tash sharti bilan ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan mahkum tergov hibsonasida Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning roziligi bilan – uch oygacha muddatga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlarining roziligi bilan – olti oygacha muddatga yoki ish sudda ko'rilishi munosabati bilan – sud ajrimiga binoan ish ko'rib bo'lguniga qadar saqlab turilishi mumkin (JPK 538-m.).

Jarima solishni, majburiy jamoat ishlarini, axloq tuzatish ishlarini va ozodlikni cheklashni jazoning boshqa turi bilan almashtirish Jinoyat kodeksining 44, 45<sup>-1</sup>, 46, 48<sup>-1</sup>, 82, 82<sup>-1</sup>, 83 va 84<sup>-1</sup>-moddalariga muvofiq sudya tomonidan jazoni ijro etuvchi organlarning taqdimnomasiga ko'ra yoki jamoat birlashmasining yoxud mehnat jamoasining iltimosnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Hukmlar, ajrimlar va qarorlarni ijro etishda fuqaroviy da'vo hamda boshqa mulkiy undiruvlarga oid qismi bo'yicha yuzaga keladigan masalalar fuqarolik protsessual qonun hujjatlari hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Mahkumga nisbatan ijro etilmagan bir necha hukm mavjud bo'lib, keyingi hukmni chiqargan sud bundan bexabar bo'lsa, hukm ijro etilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi hukm

qilingan shaxsga Jinoyat kodeksining 60-moddasiga amal qilib, mazkur hukmlarning hammasida belgilangan jazolarni qo'llash to'g'risida ajrim chiqaradi.

Hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalar quyidagi sudlar tomonidan hal etiladi. Birinchi va ikkinchi guruh nogironi bo'lib qolgan shaxslarni ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi, hukm ijrosini kechiktirish to'g'risidagi, hukmni ijro qilmaslik to'g'risidagi, jarima solishni, majburiy jamoat ishlarini, axloq tuzatish ishlarini va ozodlikni cheklashni jazoning boshqa turi bilan almashtirish to'g'risidagi, axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtni umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi, ruhiy kasal shaxslarga qo'llanayotgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi, alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslarga nisbatan majburiy davolash choralari qo'llash, uzaytirish yoki to'xtatish to'g'risidagi fuqaroviy da'vo hamda boshqa mulkiy undiruvlarga oid qismi bo'yicha masalalarni, shuningdek, hukmni ijro etishda yuz beradigan har qanday shubha va noaniqliklarni hukmni chiqargan sud hal qiladi. Basharti hukm uni chiqargan sud faoliyat ko'rsatayotgan hududdan tashqarida ijro etilayotgan bo'lsa, bu masalalar teng darajadagi sud tomonidan hal etiladi, hukm ijro etilayotgan hududda teng darajadagi sud bo'lmasa, yuqori sud tomonidan hal etiladi. Bunday hollarda ajrimning nusxasi hukm chiqargan sudga jo'natiladi.

Mahkumni kasalligi yoki nogironligi sababli jazoni o'tashdan ozod qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish, jazoning shartlilikini bekor qilish, bir jazoni ijro etish koloniyasidan yoki tarbiya koloniyasidan boshqa turdagi koloniyaga, jazoni ijro etish koloniyasidan turmaga va turmadan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish haqidagi masalalarni mahkum jazoni o'tab turgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi hal qiladi.

Ozodlikdan mahrum etishga shartli ravishda hukm qilinganda sinov muddatini qisqartirish yoki shartli hukmni bekor qilib, mahkumni



hukmda belgilangan jazoni o'tash uchun jo'natish haqidagi, hukmning ijro etilishi kechiktirilgan mahkumni jazodan ozod etish, shuningdek, hukmning ijrosini kechiktirishni bekor qilish va mahkumni ozodlikdan mahrum etishni o'tash uchun yuborish to'g'risidagi, sudlanganlikni olib tashlash haqidagi masalalarni shu mahkumning istiqomat joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi hal qiladi (JPK 541-m.).

Hukmni ijro etish to'g'risidagi masalalarni sudya prokuror hamda mahkum ishtirokida sud majlisida hal qiladi. Mahkumning JPK 532-moddasida nazarda tutilgan huquqlari ta'minlanadi. Sudya voyaga yetmagan, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan mahkumlarga doir hukmlarni ijro etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqayotganida himoyachi ishtirok etishi shart.

Jazoni ijro etish muassasasi hududini yoki ma'muriyatning yo'llanmasi bo'yicha o'zi turishi lozim bo'lgan boshqa joyni o'zboshimchalik bilan tashlab ketgan mahkumni manzil-koloniya boshqa tartibli koloniyaga o'tkazish to'g'risidagi masala prokurorning iltimosnomasiga binoan ko'rib chiqiladi. Mahkumning sudda hozir bo'lishini ta'minlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda mazkur masala sud tomonidan mahkumning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi. Bunda mahkumni qamoqqa olish va unga nisbatan qidiruv e'lon qilish haqidagi masala sud tomonidan hal qilinishi kerak.

Jarima jazosiga, axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxs jarima jazosini, axloq tuzatish ishlarini va ozodlikni cheklashni jazoning boshqa turlari bilan almashtirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishi uchun sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan taqdirda, jazoni ijro etuvchi organning taqdimnomasi mahkum yo'qligida ko'rib chiqilishi mumkin. Jarima, majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan, shuningdek, ozodlikni cheklash ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan taqdirda sud mahkumga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash va qidiruv e'lon qilish to'g'risidagi masalani hal qilishi kerak.

Agar masala hukmning fuqaroviy da'vo to'g'risidagi qismini ijro etishga taalluqli bo'lsa, sud majlisiga fuqaroviy da'vog'ar, fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillari ham chaqiriladi. Mazkur shaxslarning sud majlisiga kelmay qolishi ishni ko'rishni to'xtatib qo'ymaydi.

Mahkumni kasalligi yoki nogironligi sababli jazoni o'tashdan ozod etish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish, jazoning shartlilikini bekor qilish to'g'risidagi, bir jazoni o'tash koloniyasidan boshqa tartibli koloniyaga, bir tartibli tarbiya koloniyasidan boshqa tartibli tarbiya koloniyasiga, tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga, jazoni ijro etish koloniyasidan turmaga va turmadan jazoni ijro etish koloniyasiga, maxsus tartibli jazoni o'tash koloniyasidan qattiq tartibli jazoni o'tash koloniyasiga o'tkazish to'g'risidagi, axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtni mahkumning mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masalalar mahkum jazoni o'tab turgan joydagi tuman (shahar) sudining ajrimi bilan hal etiladi.

Ish jazoning ijrosini amalga oshiruvchi muassasa hamda voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning birgalikdagi taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqiladigan hollarda sudya mazkur komissiyani iltimosnoma ko'riladigan vaqt va joy haqida xabardor qiladi.

Boshqa mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish maqsadida muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqidagi taqdimnomani sudya jazoni ijro etish koloniyasida yoki tarbiya koloniyasida ko'rib chiqishi mumkin.

Ishni ko'rish taqdimnoma yoki iltimosnomani o'qib eshittirishdan boshlanadi, keyin sudya taqdim etilgan materiallarni tekshiradi va sud majlisida hozir bo'lgan shaxslarning fikrlarini eshitadi. Oxirida mahkum yoki uning himoyachisiga so'z beriladi. So'ngra sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi (JPK 542-m.).

Sudya shartli hukm qilingan shaxsning sinov muddatini qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqayotganida sud majlisiga ana shu shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat olib boruvchi

organlarning, shuningdek, mahkumni kuzatib turuvchi va u bilan tarbiyaviy ish olib boruvchi jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakillari taklif etiladi.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masalani sudya jazoni o'tab bo'lgan shaxsning, uning himoyachisi yoki qonuniy vakilining yoxud jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasiga asosan ko'rib chiqadi. Bunda iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning sud majlisida qatnashishi shart. U himoyachi olish huquqi bilan ta'minlanadi. Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnomani jamoat birlashmasi yoki jamoa bergan bo'lsa, ularning vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish taqdim qilingan iltimosnomani o'qib eshittirishdan boshlanadi, so'ng sudya sudda hozir bo'lganlarning fikrlarini eshitadi va ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi. Sudlanganlikni olib tashlash rad etilsa, sudyaga bu masalaga doir qayta iltimosnoma ajrim chiqqan kundan boshlab kamida bir yil o'tganidan keyin kiritilishi mumkin (JPK 544-m.).

Axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtни mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masalani jamoat birlashmasi yoki jamoa iltimosnomasi bo'yicha, jazoni o'tab chiqqan shaxs mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda esa, uning iltimosnomasi bo'yicha ham mazkur shaxs turgan joydagi tuman /shahar/ jinoyat ishlari bo'yicha sudning sudyasi ko'rib chiqadi.

Axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtни mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masalani sudya ko'rib chiqayotgan paytda iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning, shuningdek, iltimos qo'zg'atgan jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili qatnashishi shart.

Axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtни mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish mavjud materiallarni o'qib eshittirishdan boshlanadi, so'ng sudya chaqirilgan shaxslarni tinglaydi, mahkumning axloq tuzatish ishlarini o'tash vaqtida halol mehnat qilganligi va namunali xulqidan dalolat beruvchi ma'lumotlarni aniqlab oladi.

Axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan sudya chiqargan ajrim ustidan yuqori sudga shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismda saqlash vaqtini harbiy xizmat muddati hisobiga kiritish to'g'risidagi masalani hududiy harbiy sudning sudyasi ana shunday turdagi jazolarning muddati tugagach, qo'mondonlikning iltimosiga binoan JPKning 545-moddasida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqadi.

Insonparvarlik prinsipidan kelib chiqib va mahkumlarning axloqan tuzalishini rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston qonun hujjatlarida sud tayinlagan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish hollari, tartibi va shartlari belgilangan.

Jinoyat-ijroiya kodeksning 163-moddasiga binoan, sud tayinlagan jazo muddati tugaguniga qadar mahkum quyidagi hollarda jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin:

- muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda;
- jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli;
- amnistiya yoki afv etilganligi tufayli.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, shuningdek, jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni sud Jinoyat-protsessual kodeksning 536-moddasida va Jinoyat-ijroiya kodeksning 164-moddasida belgilangan tartibda qo'llaydi.

Mahkum jazo muddatining Jinoyat kodeksi 73, 74, 89 va 90-moddalarida belgilangan qismini o'tab bo'lganidan so'ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini ko'rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart.

Ma'muriyat mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etishni rad qilgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli.

Muayyan huquqdan mahrum etish tariqasidagi jazodan ozod qilishni jamoat birlashmasi, jamoa, mahkumning o‘zi yoki himoyachisi iltimosnomasiga binoan, sud amalga oshiradi. Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o‘tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin (JIK 164-m.).

Jinoyat kodeksining 75-moddasiga muvofiq, shaxs hukm chiqarilganidan keyin o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan boshqacha og‘ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o‘tashdan ozod qilinishi lozim.

Bunday hollarda jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyati mahkumni jazoni o‘tashni davom ettirishdan ozod qilish to‘g‘risida sudga taqdimnoma kiritadi. Ayni bir vaqtda sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig‘majildi yuboriladi.

Mahkumni axloq tuzatish ishlari jazosidan mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi oqibatida ozod qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma ijtimoiy ta‘minot organlarining tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining xulosasi asosida kiritiladi.

Jazoni o‘tash davrida homiladorlik va tug‘ish ta‘tili berilgan ayollarni jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma bunday ta‘til huquqini beruvchi tibbiy hujjat asosida kiritiladi.

Jazodan amnistiya yoki afv etish asosida ozod qilish tartibi bu haqidagi hujjatlar va boshqa qonunlar (nizom, qarorlar) bilan belgilanadi.

Jazo ijrosini tugatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- mahkumning sud tayinlagan jazo muddatini o‘tab bo‘lishi;
- mahkumning jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi;
- sud hukmining bekor bo‘lishi va ish yuritishning tugatilishi;
- hukmning nazorat tartibida o‘zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi;
- mahkumning vafoti.

## **XXX BOB. VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI YURITISH**

### **30.1. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar**

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish jinoyat-protsessual qonun bilan alohida toifadagi ishlar qatoriga kiritilgan. Chunki voyaga yetmagan ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida o'zining psixologik holati va yoshi bilan bog'liq xususiyatlarga ega. Bu esa, shubhasiz, ushbu shaxslarni jinoyat ishida gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) tariqasida ishtirok etish uchun jalb etish masalalarini jinoyat-protsessual tartibga solishga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining ushbu yo'nalishdagi rivojlanish tamoyilini voyaga yetmagan gumon qilinuvchilar (ayblanuvchilar)ning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlarini kuchaytirish tashkil qiladi. Bu esa sodir etilgan jinoyat holatlarining, voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarning har tomonlama to'liq va xolisona tekshirilishini, voyaga yetmagan shaxsning tarbiyalanib jamiyatga qayta moslashish darajasining oshishini hamda uning kelajakda yangi jinoyat sodir etishining oldini olishini ta'minlaydi.

Jinoyat qilguniga qadar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi umumiy qoidalar, shuningdek, JPKning 548–564-moddalari asosida belgilanadi.

JPK 60-bobi normalari jinoyat protsessining umumiy qoidalariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi, chunki unda jinoyat protsessining umumhuquqiy kafolatlaridan foydalanish bilan bir qatorda voyaga yetmagan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar uchun maxsus kafolatlar qo'llanishi nazarda tutilgan.

Ushbu maxsus kafolatlarining qo'llanishi qonunda belgilangan 18 yosh bilan chegaralanadi. Agar shaxs 18 yoshga to'lmay turib jinoyat sodir etgan bo'lsa, bunday ishni tergov qilish va sudda ko'rib chiqishda

qonuniy vakilning ishtirok etishi majburiy bo'лади. Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda qonuniy vakilning ishtirok etishi shart.

Shu sababli voyaga yetmagan shaxsning yoshini aniqlashdan iborat asosli masala yuzaga keladi, xususan, shaxs tug'ilgan kunida emas, balki keyingi sutkadan boshlab voyaga yetgan hisoblanadi. Ushbu qoida 13, 14 va 16 yoshga to'lgan holatlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Voyaga yetmagan shaxsning yoshini aniqlash uning yoshidan dalolat beruvchi tegishli hujjatlarni aniqlash bilan o'zaro bog'liq. Shu bois surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud voyaga yetmagan shaxsning yoshini tegishli hujjatlar (pasport, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd etish daftaridagi yozuvlar va h.k.) bo'yicha aniqlash qoidasiga qat'iy rioya etishlari kerak. Ushbu savolga hujjatlar yo'qligi yoxud haqiqiylikiga nisbatan muayyan shubha mavjudligi sababli ularni o'rganib javob berish mumkin bo'lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlashi kerak (JPK 173-m. 3-b.).

Sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasi bo'yicha belgilangan kunga taalluqli yilning oxirgi kuni ayblanuvchining tug'ilgan kuni deb hisoblanadi, yoshni eng kam va eng ko'p miqdorini yillar bilan hisoblaganda esa, bu shaxsning ekspertiza taxmin qilayotgan eng katta yoshidan kelib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ichki ishlar idoralarining tergovchilari umumiy asoslarda qo'zg'atadilar. Jinoyatni voyaga yetmagan shaxs katta yoshdagi shaxs bilan birga sodir etgan yoxud voyaga yetmagan shaxs 18 yoshga to'lmagan har qanday hollarda bu tergovga tegishlilik masalasiga aslo ta'sir etmaydi. Shu bois ishni tergov qilishni ichki ishlar idoralarining tergovchilari davom ettiradilar.

Surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha, JPKning 82–84-moddalarida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, quyidagilar isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni);

2) voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;

3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Mazkur holatlar JPKning 82–84-moddalariga ko'ra aniqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga aniqlik kiritadi. Ushbu ma'lumotlar voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarida alohida ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bunday ishlarda ularni aniqlash va qo'llash shart. Aks holda sud jinoyat ishini darhol qo'shimcha tergovga qaytaradi.

Surishtiruvchi, tergovchi, voyaga yetmagan shaxsning o'ziga xos xislatlarini o'rganish davomida, uning sog'lig'iga ham alohida e'tibor berishi kerak. Bunda u voyaga yetmagan shaxs o'z harakatlarining ahamiyatini to'liq anglashi mumin bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashi shart. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining tanishlari va qarindoshlarini so'roq qilish keyinchalik sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlash va jinoyat ishi materiallarini tegishli ekspert muassasalariga yoxud ekspertlarga yuborish uchun majburiy shart bo'lishi kerak. Bunda mutaxassislar voyaga yetmagan shaxsning amaldagi aqliy rivojlanish darajasini, jumladan uning jismoniy yoshiga yoki amaldagi aqliy rivojlanish yoshiga mos keluvchi yoshiga muvofiqligini aniqlashlari kerak.

Tergov va sud organlari voyaga yetmagan shaxsning sog'lig'iga oid ma'lumotlarni aniqlashda bolaligida og'ir kasalliklarga chalingan-chalinmaganligi, qandaydir jismoniy yoki ruhiy nuqsonlarning mavjudligi faktlariga e'tibor berishlari kerak. Bunday faktlar aniqlangan taqdirda tergov organlari, voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etayotganida o'z harakatlari uchun javob berishi mumkinmidi yoki ularni boshqara olarmidi, degan savolga javob berish uchun, jinoyat ishi bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlashi kerak.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining o'ziga xos xislatlari, jumladan uning o'qishi yoki ishi, uning o'qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga bevosita munosabati, o'qish, ishlash, yashash



joyidagi, jamoat joylaridagi xulqi, ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatida hisobda turgan-turmaganligi haqidagi ma'lumotlar tergov organlarining diqqat markazida bo'lishi kerak. Ushbu ma'lumotlar jinoyat ishi materiallarida protsessual shaklda o'z ifodasini topishi kerak. Amaliyotning dalolat berishicha, voyaga yetmagan shaxsning jinoiy xulq-atvori uning g'ayriijtimoiy mayllari hamda mehnatga, bilim olishga, aqliy rivojlanish masalalariga munosabati bilan bog'liq.

Mazkur ma'lumotlar voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining hayot va tarbiyalanish sharoitini tekshirish orqali to'planadi. Bu nafaqat jinoiy harakatlar sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash zarurligi bilan, balki voyaga yetmagan shaxsning javobgarligi masalasini to'g'ri hal qilish va sudning unga nisbatan adolatli jazo chorasini qo'llashi zarurligi bilan ham bog'liq.

Yashash va tarbiyalanish sharoitlarini o'rganishda voyaga yetmagan shaxsning oilasi, ota-onasi, ularning ma'lumot darajasi, mutaxassisligi, axloqiy jihatlari, o'zaro va bolalarga munosabatlari, tarbiyalash bilan bog'liq ota-onalik majburiyatlarini qanday bajarishlari, oiladagi ahvol, oilaning turmush darajasi, uning moliyaviy-moddiy sharoitlari, oiladagi, o'quv yurtidagi, ish joyidagi ahvol, tanish-bilishlari, turmushdagi yaqinlari, qiziqishlari, voyaga yetmagan shaxsning bo'sh vaqtdan qanday foydalanayotganligi va boshqa ma'lumotlar jinoyat ishi materiallarida protsessual yo'l bilan qayd etilishi lozim.

Jinoyat ishida katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor-yo'qligini tekshirish, voyaga yetmagan shaxsni jinoiy faoliyatga jalb etish shart-sharoitlarini aniqlashning zaruriy shartidir. Bunday jalb etishning shakliga ko'ra ushbu harakatlar voyaga yetmagan shaxsni jinoiy harakatlarni sodir etishga majburlash maqsadida, uni ishontirish, qo'rqitish, ongini buzish orqali unda jinoyat sodir etishda ishtirok etish istagini rag'batlantirish bilan bog'liq. Bunday jalb etish uni sotib olish, aldash, baxillik, nafrat yoki boshqa tuban his-tuyg'ularni, qasdni yuzaga keltirish, manqurtlashtirish orqali, diniy ekstremizm yoki fundamentalizmning eng reaksiyon shakllaridan

foydalanish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda katta yoshli ishtirokchi yoki dalolatchi voyaga yetmagan shaxsni jinoiy faoliyatga jalb etish uchun qanday harakatlar sodir etganligini aniqlash muhim.

Jinoyat sodir etilishiga olib kelgan kriminogen holatlarni tekshirish voyaga yetmagan shaxsda jinoyat sodir etish istagini, jumladan g‘ayriijtimoiy mayllar hamda o‘smirning jinoiy qasdni shakllantirgan va jinoyat sodir etish uchun qulay sharoit yaratgan odatlari yuzaga kelishining manbalarini aniqlash bilan bevosita va o‘zaro bog‘liqdir. Shu sababli voyaga yetmagan shaxs yashagan mikromuhitni o‘rganish, o‘qish joyida tarbiyaviy ishlar olib borilishini va oiladagi ahvolni tahlil qilish dastlabki tergov organlari va sud uchun bajarilishi shart bo‘lgan vazifa bo‘lishi kerak.

Jinoyatni voyaga yetmagan shaxs katta yoshli jinoyatchining bevosita ishtirokida sodir etgan bo‘lsa, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ochilgan jinoyat ishini ajratish muhim (JPK 332-m.).

Bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, agar bu ish holatlari bo‘yicha zarur bo‘lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko‘rib chiqishning to‘liq va xolisona bo‘lishiga ta’sir qilmasa, yo‘l qo‘yiladi. Jinoyat ishlarini ajratish surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

### **30.2. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarda qonuniy vakili, himoyachi, pedagog yoki psixologning ishtiroki**

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi voyaga yetmagan shaxsning huquqiy holati, yoshi, huquqiy layoqatida muayyan cheklashlarning, jumladan ota-onalari, vasiylari yoxud homiylarining mulkiy javobgarligi mavjudligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, jinoyat protsessida ushbu shaxslar bir qator protsessual kafolatlarga ega. Ularga, jumladan, haqiqatni aniqlash, voyaga yetmagan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilarning himoyalanih huquqini

ta'minlash, voyaga yetmaganlarning jinoyatlarini ko'rib chiqishda sud muhokamasi profilaktik ta'sirining kafolatlari kiradi.

Shu bois voyaga yetmagan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonuniy vakilni ishda ishtirok etishga jalb qilish shart hisoblanadi.

Ishda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmaganga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasalar va tashkilotlarning vakillari qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek, uning o'rnida ham ishtirok etadi.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilganligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining manfaatlari bilan qonuniy vakilning manfaatlari o'zaro mos kelmasa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafida ishda ishtirok etish uchun qaror yoxud ajrim bilan advokat tayinlanadi.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilish paytidan boshlab yo'l qo'yiladi. Buning uchun avval qonuniy vakilga JPKning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqlar tushuntiriladi.

Shu asosda, qonuniy vakil: o'zi vakillik qilayotgan shaxsning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga chaqirilganidan xabardor bo'lish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning ruxsati bilan shu shaxsning so'roq qilinishida ishtirok etish; o'zi vakillik qilayotgan ganoqdagi shaxs bilan xoli uchrashish; o'zi vakillik qilayotgan shaxs JPKga muvofiq ega bo'lgan protsessual huquqlarni amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi. Hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni

yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Qonuniy vakil guvoh sifatida so‘roq qilinishi, shuningdek, himoyachi, fuqaroviy da‘vogar yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Bunday hollarda qonuniy vakil yuqorida aytib o‘tilgan protsess ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

Ish holatlariga ko‘ra, qonuniy vakil o‘z harakati bilan voyaga yetmagan shaxsning manfaatiga zarar yetkazadi, deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishda qatnashishdan chetlashtirilishi mumkin. Bunday holda albatta, voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini himoya qilish boshqa qonuniy vakilga yoki vasiylik va homiylik organining vakiliga topshiriladi.

Shuningdek, JPKning 51-moddasi talablariga ko‘ra, voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilishdan boshlab, surishtiruvchi yoki tergovchi ishda himoyachining ishtirok etishini ta‘minlash choralarini ko‘radi. Shu maqsadda voyaga yetmagan shaxsga va uning qonuniy vakiliga o‘zlari xohlagan himoyachini taklif etish huquqiga ega ekanligi tushuntiriladi. Agar jinoyat ishi bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yohud ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e‘tiboran to‘rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta‘minlashi shart.

Shundan keyin, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokida so‘roq qilinadi. So‘roq qilish chog‘ida

surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishtirok etishi mumkin. Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So‘roq oxirida himoyachi va qonuniy vakil bayonnoma bilan tanishish va u haqda o‘z mulohazalarini bildirishga haqlidir.

Jinoyat-protsessual qonunida, shuningdek, tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun, shuningdek, voyaga yetmagan ayblanuvchini so‘roq qilishda mutaxassis chaqirilishi nazarda tutilgan. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo‘lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin. Buning uchun avval qonuniy vakilga JPKning 70-moddasida nazarda tutilgan huquqlar tushuntiriladi.

Mutaxassis surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan ayblanuvchiga savollar berishga, so‘roq tugaganidan so‘ng esa, so‘roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to‘g‘riligi va to‘liqligi haqida o‘z fikrlarini yozma ravishda berishga haqlidir. Bu huquqlar surishtiruvchi, tergovchi tomonidan pedagog yoki psixologga voyaga yetmagan shaxsni so‘roq qilishdan oldin tushuntiriladi va bu haqda so‘roq bayonnomasida qayd qilinadi.

### **30.3. Voyaga yetmaganga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llash xususiyatlari**

Voyaga yetmagan shaxs alohida hollarda, ya’ni bu hol sodir etilgan jinoyatning og‘irligi bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda va JPKning 221, 238, 242-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, ushlab turilishi va qamoqqa olinishi mumkin. Binobarin, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i ehtiyot chorasini qo‘yilgan aybning og‘irligi, ayblanuvchining shaxsi, mashg‘ulot turi, yoshi, sog‘lig‘i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni inobatga olgan holda qo‘llash mumkin.

Jinoyatning og'irlik darajasi, jinoyatni takroran sodir etish, jinoiy muhit bilan aloqadorlik, jinoyat sodir etgandan so'ng salbiy xulq-atvorda bo'lish, uzoq vaqt davomida muayyan ish bilan mashg'ul bo'lmaslik kabi holatlar tergovchining voyaga yetmagan shaxsni qamoqqa olish haqida iltimosnoma qo'zg'atishiga huquq beruvchi alohida hollar deb hisoblanadi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini qamoqqa olish yoki uy qamog'iga joylashtirish faqat voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat JPKning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lganda va unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini boshqa ehtiyot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

Ushbu favqulodda ehtiyot chorasini qo'llashda quyidagi holatlar jiddiy ahamiyatga ega: jinoyatning takroriyliigi, qasd shakli, oqibatlari jinoiy harakatlarning oqibatlari, harakatlarning shafqatsiz va tajovuzkor ekanligi, jinoyat sodir etgandan keyingi salbiy xatti-harakatlar, kundalik mashg'ulotining notayinligi, jinoyatchilar bilan mustahkam aloqalari va hokazo.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'iga joylashtirish ehtiyot chorasi qilmish shaxsning yashash va tarbiyalanish sharoitlari, uning shaxsiga xos xususiyatlar, qilmishga munosabatlarini ifodalovchi holatlar majmui hamda voyaga yetmaganning keyingi xatti-harakatlaridan kelib chiqib, mazkur sharoitda ushbu ehtiyot chorasi yagona mumkin bo'lgan chora ekanligidan aniq dalolat bergan taqdirdagina qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan barcha holatlar prokuror jinoyat ishi materiallarini voyaga yetmagan shaxsning o'ziga xos xislatlarini qamoqqa olish haqida iltimosnoma qo'zg'atguniga yoxud tergovchining shu haqidagi iltimosiga rozilik berilguniga qadar aniqlashi kerak.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma

qo'zg'atish haqidagi masalani ko'rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asosliligini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq holatlar bo'yicha so'roq qilishi shart.

BMTning xalqaro standart qoidalariga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsni qamoqda saqlash, ularni jinoyatchilar ta'siri manbalaridan ajratgan holda amalga oshirilishi kerakligi belgilangan. Shunga ko'ra sudning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimida uni kattalardan, shuningdek, voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlash zarurligi ko'rsatilmog'i kerak.

Qamoqqa olingan voyaga yetmagan shaxslar katta yoshdagilardan hamda jazoga hukm etilgan voyaga yetmaganlardan alohida saqlanishlari kerak. Ushbu qaror tergovchi voyaga yetmagan ayblanuvchining himoyachisi oldida unga ayblov qo'yib, uni ayblanuvchi tariqasida so'roq qilganidan keyingina o'qib eshittirilishi kerak. Voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilish paytida himoyachi bilan birga pedagog, shuningdek, uning qonuniy vakili hozir bo'lishlari mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni qamoqqa olish yoki uy qamog'ida saqlashga sanksiya berish haqidagi masalani hal etish chog'ida sud jinoyat ishi materiallari bilan sinchiklab tanishishi va barcha hollarda ham sud majlisida ishtirok etayotgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilishi kerak.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qo'llanilgan voyaga yetmagan ayblanuvchi katta yoshdagilardan, shuningdek, voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlanishi lozim (JPK 558-m.).

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga JPKning 237-moddasida nazarda tutilgan ehtiyot choralaridan tashqari, uni ota-onasining (JPK 555, 556-m.), yopiq bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarga nisbatan esa shu muassasa rahbarlarining qaroviga topshirish ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Ushbu choralarning

qo‘llanilishi o‘smir bilan zarur tarbiyaviy ish olib borish, uning xulqini, bo‘sh vaqtini amalda nazorat qilishni, chaqirilganda hozir bo‘lishini, zararli ta’sirlarga barham berishni ta’minlash imkonini beradi.

Mazkur harakatlar ushbu shaxslarning voyaga yetmagan shaxsning surishtiruvchi, tergovchi va sud huzuriga kelishini hamda munosib xulq-atvorda bo‘lishini ta’minlashdan iborat yozma majburiyat olishi bilan kechadi.

Voyaga yetmagan shaxsni qarovga olgan ota-ona, vasiy, homiy, yopiq bolalar muassasalarining rahbarlaridan tilxat olinayotganida ularga ushbu ehtiyot chorasining mohiyati hamda ularning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar buzilgan taqdirda ular tortilishi mumkin bo‘lgan javobgarlik tushuntirib beriladi. Bundan tashqari, ushbu shaxslar voyaga yetmagan shaxs gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan jinoyatning xususiyati haqida ogohlantiriladilar va ularga o‘smirga qarab turish borasida ayrim tavsiyalar beriladi.

JPKning 556-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan ayblanuvchi o‘z vazifasini bajarmagan taqdirda uni o‘z qaramog‘iga olgan shaxs qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror huzuriga yoki sudga odatda ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari orqali chaqirtiriladi. Ishning holati buni talab qilgandagina boshqacha tartibda chaqirtirishga yo‘l qo‘yiladi. Qamoqda saqlanayotgan voyaga yetmagan shaxs jazoni ijro etish joyining ma’muriyati orqali chaqirtiriladi.

18 yoshgacha jinoyat sodir etgan ayblanuvchi bu vaqtga kelib voyaga yetganligidan qat’i nazar, voyaga yetmagan jinoyatchilarning ishlari bo‘yicha himoyachining qamoqqa olish, ayblov e’lon qilish paytidan boshlab va sud muhokamasi davomida ishtirok etishi shart. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, agar himoyachini ayblanuvchining o‘zi, uning qonuniy vakili taklif qilmagan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi himoyachining ishda yuqorida aytilgan bosqichdan boshlab ishtirok etishini o‘z tashabbusi bilan ta’minlashi shart.



### **30.4. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni sud majlisida ko'rish xususiyatlari**

Sud voyaga yetmaganlar jinoyatlari haqidagi ishni o'z yurituviga qabul qilayotganida, JPK 396-moddasida belgilangan umumiy masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bir qatorda ish yuzasidan ayblanuvchining shaxsiga, yashash va tarbiyalanish sharoitlariga oid ma'lumotlar, jinoyat motivlari, uning sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlar aniqlanganligiga, shuningdek, o'smirni jinoyat sodir etishga jalb etgan katta yoshdagi ishtirokchilar va shaxslar topilganligiga alohida e'tibor qaratadi. Dastlabki tergovning to'liq emasligi, agar buni sud majlisida bartaraf etib bo'lmasa, ishni qo'shimcha tergovga qaytarish uchun asos bo'ladi.

Sudya, sud majlisini tayinlar ekan, tergov organlarining voyaga yetmagan ayblanuvchiga himoyalanih huquqini kafolatlovchi jinoyat-protses-sual normalarga rioya etgan-yetmaganligini tekshiradi va uning qamoqqa olinishi uchun asoslar bo'lgan yoki bo'lmaganligini sinchiklab o'rganadi.

Sud majlisini tayinlashda voyaga yetmagan sudlanuvchining ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarini, shuningdek, o'quv-tarbiya muassasasining yoki o'smirning o'qish yoki ishlash joyidagi jamoat tashkilotining vakillarini sud majlisiga chaqirtirish haqidagi masala albatta muhokama qilinadi. Voyaga yetmagan shaxs haqidagi ishni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida uning qonuniy vakillari, shuningdek, u o'qigan yoki ishlagan korxonasi, muassasa va tashkilot, profilaktika xizmati xabardor qilinadilar. Zarur hollarda sud ushbu tashkilotlar vakillarining sud majlisiga kelishini ta'minlash choralarini ko'radilar.

Voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakilini sud majlisiga chaqirtirish haqidagi masalani hal qilishda JPK 60-moddasining ikkinchi qismida belgilangan qonuniy vakil bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar (ayblanuvchining ota-onasi, farzandlikka oluvchilari, vasiylari, homiy-lari, ayblanuvchiga homiylik qiluvchi muassasa va tashkilotlarning vakillari) ro'yxati tugallangan ro'yxat ekanligini inobatga olish lozim. Agar voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi bo'lmasa va yolg'iz yoki tegishli tartibda vasiy yoki homiy etib tayinlangan shaxsning uyida

yashasa, voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili sifatida sudya vasiylik va homiylik organining vakili chaqirtiriladi.

Sud majlisiga qonuniy vakil sifatida ota-onalardan biri chaqirtiriladi. Agar sud majlisiga ota-onaning ikkovi kelgan bo'lsa, sud ularning fikrini inobatga olib hamda sudlanuvchining qonuniy manfaatlari himoyalanihini ta'minlash vazifalaridan kelib chiqib, ulardan qaysi biriga qonuniy vakillik huquqini berishni hal qiladi. Bu haqda tegishli ajrim chiqariladi. Muayyan holatlarda sud ikkala ota-onani voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakili deb topishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiya vakillarining sud majlisida ishtirok etishi haqidagi masalani sud ayblanuvchi tariqasida voyaga yetmagan shaxs jalb etilgan har bir ish bo'yicha hal qiladi. Bu vakillar sud majlisida ishtirok etishga voyaga yetmagan shaxs haqidagi ish ko'riladigan sud majlisining tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish hamda jinoyat sabablari uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida jalb etiladilar. Ular ish ko'rib chiqilayotgan butun vaqt davomida sud zalida hozir bo'lishga haqlidirlar. Zarur bo'lganda sud ularni sudlanuvchining yashash va tarbiyalanish sharoiti, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar va boshqa masalalar yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilishi mumkin.

18 yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlariga oid ishlar bo'yicha sudning asoslantirilgan ajrimi bo'yicha yopiq sud majlisi o'tkazishga yo'l qo'yiladi (JPK 19-m.). Bunday tartibdan sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini har tomonlama va to'liq tekshirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratish hamda bir qator hollarda voyaga yetmagan shaxsni manfaatdor shaxslarning ehtimol tutilgan ko'ngilsiz ta'sirlaridan saqlash maqsadi ko'zlanadi.

Sud majlisining tayyorlov qismida voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakiliga butun sud majlisi davomida sud zalida hozir bo'lish, sud tergovida dalillarni tekshirishda ishtirok etish, dalillar taqdim etish, iltimoslar qilish va rad etish huquqlari tushuntirib beriladi (JPK 61-m.).

Zarur hollarda u sudlanuvchining shaxsi, sog'lig'i va umumiy rivojlanishi, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsning yashash va

tarbiyalanish sharoitlariga taalluqli masalalar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishlari mumkin.

Qonuniy vakilning sud majlisida ishtirok etishi voyaga yetmagan ayblanuvchining manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan alohida hollarda sud o'zining asoslantirilgan ajrimi bilan qonuniy vakilni sud majlisida ishtirok etishdan batamom chetlashtirishi yoxud u yoki bu sud majlisida ishtirok etishini cheklashi mumkin (JPK 549-m.).

Jinoyat-protsessual qonun sudga voyaga yetmagan sudlanuvchini ham sud zalidan chiqarib yuborish huquqini beradi. Buni sud, taraflarning fikrlarini inobatga olib, unga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlarni tekshirish paytida, himoyachining yoki qonuniy vakilning iltimosi bo'yicha yoxud o'z tashabbusi bilan amalga oshiradi. Masalan, oiladagi ahvolni, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning axloqiy qiyofasini, turmushda noto'g'ri xulqini va shu kabilarni aniqlash chog'ida.

Voyaga yetmagan shaxs sud zaliga qaytarilganidan so'ng raislik qiluvchi unga yo'qligida bo'lib o'tgan muhokama mazmunini yetarli hajmda va shaklda ma'lum qiladi va uning yo'qligida so'roq qilingan shaxslarga savol berishi uchun voyaga yetmaganga imkoniyat yaratib beradi (JPK 561-m.). Voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud, JPKning 457-moddasida ko'rsatilgan masalalardan tashqari, basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa, unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur (JPK 563-m.).

Jamoat tarbiyachisi odatda tegishli iltimosnoma yo'qligi sababli, mahkum qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish uchun tashkilotga yoki mehnat jamoasiga berilishi mumkin bo'lmagan hollarda tayinlanadi. Jamoat tarbiyachilarining nomzodlari ish joyidagi mehnat jamoalarining umumiy majlisida yoki jamoat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisini tayinlash zarurligiga doir qarorni jinoyat ishini kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rib chiqayotgan sud ham qabul qilishi mumkin.

## **XXXI BOB. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH**

### **31.1. Tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar**

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, jinoyat, ya’ni jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslargina jinoiy javobgarlikka tortilishi va jazolanishi mumkin. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etayotgan vaqtida aqli noraso holatda bo‘lgan, ya’ni surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi oqibatida o‘z harakatlarini idora qila olmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Bunday shaxslarga sud ajrimiga muvofiq tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

Aqli noraso holatda jinoyat sodir etgan, ammo sud hukm chiqarguniga qadar o‘z harakatlarini idora qilish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslar jazoga tortilmaydilar. Bunday shaxslarga yoxud jazoni o‘tash vaqtida ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ham tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

*Tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari* – sud aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan yoxud bunday qilmishlarni aqli raso holatda sodir etib, hukm chiqarilguniga qadar yoki jazo o‘tayotgan vaqtda ularni o‘z harakatlari uchun javob berish yoki ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ularning buzilgan ruhiy sog‘lig‘ini tiklash, jamiyatni ularning xavfli xatti-harakatlaridan muhofaza qilish va yangi jinoiy qilmishlarning oldini olish maqsadida ko‘radigan vaqtinchalik tibbiy yo‘sidagi choralari.

Tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari jinoiy jazo choralari hisoblanmaydi. Biroq ular davlat majburlov vositalaridir, chunki ushbu

choralar bemorning yoki uning yaqin qarindoshlarining istagidan qat'i nazar qo'llaniladi, fuqarolarning erkinliklarini cheklash bilan bog'liq bo'ladi hamda faqat sudning ajrimi bilan tayinlanadi, o'zgartiriladi va to'xtatiladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun quyidagilar asos bo'ladi: birinchidan, shaxsning jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligi fakti; ikkinchidan, qonunda nazarda tutilgan tartibda aniqlangan ushbu shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish paytida aqli noraso bo'lganligi yoki jinoyat sodir etganidan so'ng uning o'z harakatlari uchun javob berish va ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasallikka chalinganligi.

Aqli norasoning ijtimoiy xavfli qilmishi to'g'risidagi ish yuzasidan quyidagilar isbotlanishi lozim:

1) JPK 82-moddasining 1, 2 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar;

2) shaxs qilmish sodir etgan vaqtida surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi, shuning oqibatida uning aqli noraso holatda bo'lganligi, ya'ni o'z harakatlarini idrok yoki idora qila olmaganligi;

3) mazkur shaxsning dastlabki tergov yuritish va sud muhokamasi vaqtidagi ruhiy holati.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan shaxsning ishi bo'yicha, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxsning ishi bo'yicha shaxsning bundan keyingi xatti-harakati o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkinmi-yo'qmi ekanligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishiga zarurat bor yoki yo'qligini va qanday choralar qo'llash lozimligini hal qilish uchun asos bo'ladigan holatlar ham isbotlanishi lozim.

Shunday ekan, shaxsni aqli noraso deb topish yoxud uning jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka chalinganligi hali uning tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga muhtojligini bildirmaydi.

JPKning 565-moddasiga muvofiq, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rish tartibi JPKning umumiy qoidalari, shuningdek, 566–581-moddalari asosida belgilanadi hamda ushbu normalar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan ruhiy kasallarga nisbatan ular sodir etgan qilmishining xususiyati va o‘zining kasallik holati bo‘yicha jamiyat uchun xavf tug‘diradigan hollarda qo‘llaniladi.

### **31.2. Sud-psixiatriya ekspertizasi aniqlaydigan masalalar**

Ruhiy bemorlarning ijtimoiy xavfli qilmishlari haqidagi ishlar umumiy asoslarda qo‘zg‘atiladi (JPK 221–338-m.). Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ruhiy kasallikka chalinganligi haqida ma‘lumotlarning mavjudligi jinoyat ishi qo‘zg‘atishni istisno etmaydi, chunki aqli norasolik holati sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi asosida aniqlanadi. Ushbu ekspertizani dastlabki tergov vaqtida o‘tkazish mumkin.

JPKning 566-moddasiga muvofiq, jinoyat qilganidan keyin ruhiy kasallikka duchor bo‘lib qolgan shaxsning jinoyati to‘g‘risidagi ish bo‘yicha shaxsda jinoyat sodir etgandan keyin yuzaga kelgan va jazo qo‘llashni istisno etuvchi ruhiy kasallik borligi isbotlanishi lozim.

Agar ushbu shaxslarning ruhiy holati imkon bersa, tergovchi ular ishtirokida ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga haqlidir. Shaxsning tergov harakati o‘tkazishda ishtirok eta olmasligi ekspert xulosasi yoki shifoxona ma‘lumotnomasi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Shu sababli, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ayblanuvchining, sudlanuvchining yoxud ishga ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida jalb qilinmagan shaxsning ruhiy kasalligi masalalari yuzasidan uning jinoyat sodir etganligi yoki Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi haqida ishonarli dalillar mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvni, dastlabki tergovni yuritish va sud muhokamasi vaqtida mazkur shaxsning aqli norasoligi yoki ruhiy kasalligi to‘g‘risida asosli shubha tug‘ilgan bo‘lsa, sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlaydi. Bu qoida jinoyat protsessual-qonunchiligida (JPK 173-m.) ijtimoiy xavfli qilmish

sodir etgan shaxsning ruhiy holatini va unda ruhiy kasallik paydo bo'lgan paytni aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazilishi shart qilib belgilangan.

Ushbu maqsadlarda ish bo'yicha ekspertiza tekshiruviga qadar quyidagi faktik ma'lumotlar aniqlanishi kerak: bunday shaxs ilgari ruhiy kasalliklar bilan og'riganmi; u psixonevrologik dispanserda hisobda tura-dimi, qanday tashxis bilan; shaxs bunday hisobda qancha vaqtdan beri tu-radi; u ilgari ruhiy kasallar shifoxonasiga davolash uchun joylashtirilganmi; unga nisbatan ilgari sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazilganmi; o'tkazilgan bo'lsa, nima sababli o'tkazilgan; ushbu shaxsning salomatligini, uyda va jamoat joylaridagi xulq-atvorini aks ettiruvchi boshqa holatlar.

Sud-psixiatriya ekspertizasi ish holatidan kelib chiqib, ambulatoriya yoki statsionar tarzda tayinlanish mumkin. Ekspertiza tekshiruvi oldiga quyidagi masalalar quyilishi mumkin:

1) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan vaqtda o'z harakatlarini idrok eta olmaydigan yoki idora qila olmaydigan darajada ruhiy kasallik holatida, ruhiyati vaqtinchalik buzilish, aqli zaif yoki boshqa kasallik holatida bo'lganligi;

2) shaxs hozirgi vaqtda ruhiy kasallik holatida bo'lib, hukm qilish va jazolash unga axloq tuzatish jihatidan ta'sir ko'rsata olmasligi;

3) ushbu kasallik surunkalimi yoki shaxs muayyan vaqt mobaynida tuzalishi mumkinmi;

4) shaxs duchor bo'lgan ruhiy kasallik yana ijtimoiy xavfli qilmish keltirib chiqarishi yoki bunga sabab bo'lishi mumkinmi;

5) shaxs o'zining ruhiy holatiga ko'ra to'g'ri ko'rsatuv berishga, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, eksperiment o'tkazish va boshqa tergov hamda sud harakatlarida ishtirok etishga qodirmi;

6) hozirgi vaqtda shaxsning aqli rasolikni istisno qilmaydigan ruhiy nuqsonlari bormi va ular nimalardan iborat.

Shaxsni ekspert tadqiqoti o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish JPKning 265–269-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilib amalga oshiriladi.

Shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilganda jinoyat ishini yuritishning to‘xtatib turilishiga doir masalalar, JPKning 569-moddasiga muvofiq, quyidagicha hal qilinadi: basharti gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ruhiy yoki boshqa og‘ir kasalligi ambulatoriya ekspertizasining xulosasi yoki boshqa tibbiy hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa va qanday kasallikka duchor bo‘lganligini aniqlash, aqli rasoligi, muomalaga layoqatliligi masalasini hal etish, shuningdek, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tanlash uchun statsionar ekspertiza o‘tkazilayotgan bo‘lsa, shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilgan davrda, basharti boshqa protsessual harakatlarni o‘tkazishga hojat bo‘lmasa, ishni yuritish to‘xtatib turilishi mumkin.

Ishni yuritishning to‘xtatib turilishi ayblanuvchini qamoqda saqlash va shaxsning tibbiy muassasada bo‘lishiga oid qonunda belgilangan muddatlar o‘tishini to‘xtatmaydi.

### **31.3. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishni yuritishda himoyachining ishtiroki**

Aqli noraso deb topilgan shaxslarning ko‘rsatuvlari va tushuntirishlari dastlabki tergov jarayonida ham, sud muhokamasida ham daliliy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. JPKning 571-moddasiga muvofiq, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishni yuritishda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash haqida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirok etishi shart.

Ishga kirishgan vaqtdan boshlab himoyachi, basharti himoyasi ostidagi shaxsning sog‘lig‘i xalal bermasa, u bilan xoli uchrashishga haqli, shuningdek, JPKning 53-moddasida nazarda tutilgan boshqa barcha huquqlardan ham foydalanadi.

Sud-psixiatriya ekspertizasi o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimni ijroga yuborishdan oldin tergovchi yoki sud u bilan himoyachini tanishtirishi va uning quyidagi huquqlarini ta‘minlashi zarur: tayinlangan ekspertni yoki umuman ekspertiza muassasasini rad qilish; muayyan shaxsni ekspert qilib tayinlashni iltimos qilish; ekspertning oldiga



qo‘shimcha savollar qo‘yish; ekspertiza o‘tkazilayotganida qatnashish uchun ruxsat so‘rash. Tergovchi yoki sud himoyachining iltimosnomasini, basharti asoslar bo‘lsa, qondiradi va ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimga tegishli qo‘shimchalar va o‘zgartishlar kiritadi.

Sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko‘ra, himoya ostidagi shaxs jinoyat sodir etilgandan so‘ng ruhiy kasal bo‘lib qolgan yoki aqli noraso bo‘lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno etmaydigan, ammo o‘zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishda qiyinchilik tug‘diradigan ruhiy kamchiliklari bo‘lsa, JPK 571-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shart ekanligi haqidagi qoidasi amal qilishda davom etadi. Keyinchalik sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasi asosida shaxs aqli raso va ruhiy sog‘lom deb topilsa, ishda himoyachining ishtiroki masalasi umumiy tartibda hal qilinadi.

Agar aqli noraso shaxsning harakatlari tufayli muayyan bir shaxsga ziyon yetkazilgan bo‘lsa, JPKning 54-moddasiga muvofiq uni jabrlanuvchi deb topish va unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash choralarini ko‘rish zarur. Ushbu ishlar bo‘yicha tergovchi aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishining sabablari va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash choralarini ko‘rishi shart.

Tergovchi ish bo‘yicha to‘plangan dalillar sud-psixiatriya eksperti-zasining xulosasi asosida aqli noraso deb topilgan shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi faktini tasdiqlaydi, degan xulosaga kelganidan hamda JPKning 61-bobida nazarda tutilgan barcha talablarni bajar-ganidan so‘ng u dastlabki tergovni tamomlangan deb topadi. Tergovchi JPKning 572-moddasida belgilangan talablarni bajaradi, ya’ni protsess ishtirokchilarini ish materiallari bilan tanishtirgach va iltimosnomalarni hal qilgach, ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror tuzadi.

Surishtiruvch, tergovchi qarorning tavsif-asoslash qismida JPKning 566-moddasida nazarda tutilgan holatlarni, shuningdek, ishni sudga yuborish asoslariga norozi bo‘lgan himoyachining va boshqa shaxslarning vajlarini, agar shunday vajlar bildirilgan bo‘lsa, bayon

qiladi va ish sahifalariga havola qilib, uning fikricha, ishni sudga yuborish uchun asoslar borligini tasdiqlovchi dalillar keltiradi.

Ishni sudga yuborish to'g'risidagi qarorga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati, shuningdek, dastlabki tergov yuritilgan muddat, ustidan tergov o'tkazilgan shaxsning qamoqda va tibbiy muassasada bo'lgan muddati, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'vo va uni ta'minlash choralari, protsessual chiqimlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar ilova qilinadi.

JPKning 573-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni tergovchi uni sudga oshirish to'g'risidagi qaror bilan birga prokurorga o'tkazadi. Prokuror ish bilan tanishib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi: 1) JPKning 83 va 84-moddalarida (84-moddaning birinchi qismi 2-bandi bundan mustasno) nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ishni tugatish; 2) qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni tergovchiga qaytarish; 3) qarorni tasdiqlab ishni sudga oshirish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish.

### **31.4. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda sud muhokamasi**

Sudya tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni prokurordan olgach, uni JPKning 395–405-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga binoan o'tkaziladigan sud muhokamasiga tayinlaydi. Sudning qonuniy vakilga sud majlisi tayinlanganligi haqida xabar berish, ish hujjatlari bilan tanishish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, dalillar taqdim etish, iltimoslar qilish va rad etish imkonini ta'minlash majburiyatlari ruhiy bemorlarni himoya qilishning qo'shimcha kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Sud muhokamasi JPKning 50–52-boblarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi. Sud majlisida prokuror va himoyachi ishtirok etishi shart.

Sud tergovı prokurorning ishni sudga oshirish to'g'risidagi qarorni o'qib eshittirishidan boshlanadi. Shundan so'ng sud taraflarning ishtirokida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun asoslar mavjudligini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan dalillarni tekshiradi: so'roq qiladi, ko'zdan kechirish o'tkazadi, hujjatlarni o'qib eshittiradi, ekspertlarni tinglaydi, haqiqatga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlarni bajaradi.

Sud tergovı tamomlanganidan so'ng sud taraflarning muzokarasiga o'tadi. Muzokaraning oxirida himoyachi so'zga chiqadi. Oxirgi e'tiroz bildirish huquqi ham unga beriladi.

Taraflarning nutqlarini eshitib bo'lgach, sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi. Alohida xonada sud quyidagi masalalarni hal qiladi:

1) jinoyat sodir etilganmi yoki aqli noraso shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganmi;

2) ana shu jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish ishi ko'rilayotgan shaxs tomonidan sodir etilganmi;

3) mazkur shaxs hozirgi vaqtda ruhiy kasalmi;

4) jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan yoki aqli noraso holda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash talab etiladimi, agar talab etilsa, aynan qanday chorani qo'llash kerak;

5) mazkur shaxs ruhiy kasallikdan umumiy asoslarda davolanishga muhtojmi.

Sud, shuningdek, JPK 457-moddasi 1-qismining 10–14-bandlarida nazarda tutilgan masalalarni ham hal qiladi. Ushbu ish bo'yicha sud JPKning 577-moddasida tartibga solingan tegishli ajrim chiqaradi.

Aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan yoxud bunday qilmishlarni aqli raso holatda sodir etib, hukm chiqarilguniga qadar yoki jazo o'tayotgan vaqtda ularni o'z harakatlari uchun javob berish yoki ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan sud sog'liqni saqlash

organlarining davolash muassasalari amalga oshiradigan quyidagi tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashi mumkin:

- 1) oddiy kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish;
- 2) kuchaytirilgan kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish;
- 3) qat’iy kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish.

### **31.5. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini bekor qilish yoki o‘zgartirish**

Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini bekor qilish yoki o‘zgartirish JPKning 578-moddasida tartibga solingan. Unga muvofiq, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan shaxs sog‘aygan taqdirda yoki sog‘lig‘i o‘zgarib, shaxs ruhiy kasal bo‘lsa-da, sud tomonidan dastlab belgilangan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralaridan boshqa xil davolanishga muhtoj bo‘lsa yoxud bu xildagi choralarga muhtoj bo‘lmasa, sud tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini bekor qiladi yoki o‘zgartiradi.

Jinoyat sodir etgan va keyin ruhiy kasallikka duchor bo‘lib qolganligi tufayli tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llanilgan shaxs sog‘aygan taqdirda sud ishni shaxs ruhiy kasal bo‘lgan bosqichdan boshlab umumiy tartibda yuritishni tiklash masalasini hal qilishi lozim (JPK 579-m.).

Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini bekor qilish yoki o‘zgartirish va ish yuritishni tiklash JPKning 580-moddasida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini bekor qilish yoki o‘zgartirish va ish yuritishni umumiy tartibda tiklash to‘g‘risidagi masalalarni sudda ko‘rib chiqishga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- 1) majburlov chorasi tayinlangan shaxs saqlanayotgan tibbiy muassasa ma‘muriyatining shifokorlar komissiyasi bergan xulosaga asoslangan iltimosnomasi;
- 2) prokurorning shifokorlar komissiyasi bergan xulosaga asoslangan taqdimnomasi;
- 3) mazkur shaxsning himoyachisi, yaqin

qarindoshlari, qonuniy vakillari yoki boshqa manfaatdor fuqarolarning, shuningdek, jamoat birlashmalari va jamoalarning iltimosnomasi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini bekor qilish yoki o'zgartirish, shuningdek, ish yuritishni umumiy tartibda tiklash masalalarini tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risida ajrim chiqargan sud yoki ushbu chora qo'llanayotgan joydagi sud ko'rib chiqadi. Sud majlisida prokuror va himoyachining ishtirok etishi shart.

Shifokorlar komissiyasining iltimosnomaga qo'shib berilgan yoki talab qilib olingan xulosasi sudda shubha tug'dirsa, sud sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlashi, qo'shimcha hujjatlar talab qilishi, iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsni, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilishi va boshqa zaruriy harakatlarni o'tkazishi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini bekor qilish, o'zgartirish, shuningdek, bekor qilishni yoki o'zgartirishni rad etish to'g'risida sud ajrim chiqaradi, bu ajrim sud majlisida o'qib eshittiriladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini bekor qilish yoki o'zgartirish rad qilingan taqdirda takroriy iltimosnoma rad etish haqida ajrim chiqqan kundan olti oy o'tgandan keyingina ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi mumkin.

Sudning ajrimi ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish masalalari JPKning 581-moddasida tartibga solingan.

## **XXXII BOB. YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLAR BO‘YICHA ISH YURITISH**

### **32.1. Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning mazmuni va ahamiyati**

Jinoyat ishlarini yarashuv asosida ko‘rib chiqish – demokratik huquqiy davlat shakllanishi davrida jinoyat huquqini liberallashtirishning ko‘rinishlaridan biri va ayni vaqtda jinoyat protsessida huquqni tiklash funksiyasini amalga oshirishning samarali shakllaridan biridir.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jinoyatdan jabrlangan shaxs hamda jinoiy qilmishni birinchi marta sodir etgan aybdor shaxs (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi) o‘rtasida jabrlanuvchining jinoyatgacha bo‘lgan maqomini to‘liq tiklash va jinoyat tufayli yetkazilgan zararni bartaraf etish to‘g‘risida ahdlashuvga kelish orqali jinoyat ishini tugatishning turlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibidan birining mavjudligi yarashuv uchun ish yuritishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning shartlari quyidagilardan iborat:

1) Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilganligi;

2) shaxs o‘z aybiga iqrorligi (qilmishidan pushaymonligi);

3) shaxsda og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holatining mavjud emasligi;

4) shaxs o‘zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglaganligi va yetkazilgan zararni bartaraf etishga faol harakat qilayotganligi, ya’ni yetkazilgan zararni bartaraf etayotganligi;

5) jabrlanuvchining gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bilan, sudda esa sudlanuvchi bilan yarashganligi to‘g‘risidagi ariza bilan ixtiyoriy ravishda

murojaat etishi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning, ularning qonuniy vakillarining jabrlanuvchi bilan yarashishga roziligining mavjudligi.

### **32.2. Yarashuv to‘g‘risidagi ishni yuritish asoslari va shartlari**

JPKning 582-moddasiga muvofiq, yarashilganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilishi mumkin.

Yarashuv to‘g‘risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek, sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida (maslahat) xonaga kirishidan oldin berilishi mumkin.

Arizada yetkazilgan ziyon bartaraf etilgani, shuningdek, yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritilishini tugatish to‘g‘risidagi iltimos ko‘rsatilgan bo‘lishi shart.

Agar yarashuv to‘g‘risidagi ariza ish birinchi instansiya sudida sud muhokamasidan o‘tkazilayotganda berilgan bo‘lsa, sud uni darhol ko‘rib chiqishga kirishadi.

Agar ish bo‘yicha bir necha jabrlanuvchi bo‘lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirda, yarashuv to‘g‘risidagi ishni yuritish mumkin.

Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ishni yuritishni qayta tiklash to‘g‘risida iltimosnoma berish huquqini yo‘qotishini tushuntirishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jabrlanuvchining (fuqaroviy da‘vogarning) yoki uning qonuniy vakilining yarashuv to‘g‘risidagi arizasini olgach, yetti sutkadan ortiq bo‘lmagan muddatda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining roziligi bilan ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Qarorning tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi: jinoyat ishi qo'zg'atilishining asoslari, ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ular ayblanayotgan qilmishlar va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, shuningdek, yarashuv to'g'risidagi arizaning mazmuni hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining arizaga munosabati.

Hujjatning qaror qismida:

- 1) ishni sudga yuborish to'g'risidagi;
- 2) ehtiyot chorasi to'g'risidagi, shuningdek, fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari to'g'risidagi;
- 3) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qaror ko'rsatiladi.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo'lib, barchasi bilan ham yarashuvga erishilgan bo'lmasa, yarashuvga erishilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi, bu haqda qarorda ko'rsatiladi.

Ish qaror chiqarilganidan keyin uch sutka ichida prokurorning roziligi bilan sudga yuboriladi.

### **32.3. Yarashuv to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar**

Yarashuv to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar bu toifa ishlarni yuritish asoslari va shartlarining majmuidan tashkil topadi. Mazkur holatlar Jinoyat kodeksi va JPKda umumiy tarzda belgilangan.

Yarashuv to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni ajratgan holda, to'liq ravishda, mantiqiy izchillikda keltirish ushbu toifa ishlarning mazmunan to'g'ri, qonuniy va asosli hal etilishiga olib keladi.

Yarashuv to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:



1) qilmishda kvalifikatsiyaga ko'ra Jinoyat kodeksi 66<sup>-1</sup>-moddasida keltirilgan jinoyatlardan birining tarkibi mavjudligi;

2) jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsning ushbu jinoyatga daxldorligi;

3) jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsni yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi, uning Jinoyat kodeksi 66<sup>-1</sup>-moddasida belgilangan talablarni bajarganligi, ya'ni o'z aybiga iqrorligi, jabrlanuvchi bilan yarashganligi, yetkazilgan zararni bartaraf etganligi;

4) jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holatining mavjud emasligi;

5) jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan ixtiyoriy ravishda yarashganligi;

6) jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan ish yuritishni tugatish haqida ariza berganligi;

7) jabrlanuvchining yarashuv asosida ish tugatilganidan so'ng u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqidan mahrum bo'lishidan xabardorligi;

8) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi o'zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglaganligi va pushaymonligi, shuningdek, jabrlanuvchi bilan ixtiyoriy ravishda yarashganligi, o'z aybiga ixtiyoriy iqror bo'lganligi.

Qayd etilgan holatlar tergov jarayonida shu izchillikda tekshiriladi va aniqlanadi. Ushbu holatlar zarur dalillar va hujjatlar bilan tasdiqlanganidan so'ng ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish mumkin.

Mazkur holatlarning aniqlanishi yarashuv instituti qo'llanilishidan kutiladigan maqsadga erishilishiga xizmat qiladi.

### 32.4. Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi jinoyat ishi sudga kelgan paytdan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay o'tkaziladi.

Sud majlisida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), ularning qonuniy vakillari, himoyachilari, prokuror ishtirok etadi.

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi jabrlanuvchining yarashuv to'g'risidagi arizasini o'qib eshittirish bilan boshlanadi.

Sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) sodir etilgan jinoyat holatlari to'g'risidagi so'zlarini eshitadi.

Sud:

yarashuvning ixtiyoriyligi va uning sabablarini;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z aybiga ixtiyoriy iqror bo'lganligini;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglaganligini va yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rgan-ko'rmaganligini;

jabrlanuvchiga (fuqaroviy da'vogarga) yoki gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga biron-bir tazyiq bo'lgan-bo'lmaganligini;

yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq masalalarni;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ular qonuniy vakillarining yarashuvga roziliklarini aniqlaydi.

Shundan so'ng sud himoyachi va prokurorning fikrini eshitadi.

Agar sud majlisi davomida yarashuv, aybga iqror bo'lish ixtiyoriy emasligi, zararni qoplashdan bosh tortish, shuningdek, sodir etilgan qilmishda og'irroq jinoyat tarkibi belgilari mavjudligi aniqlangudek bo'lsa, sud umumiy qoidalar bo'yicha dastlabki tergov yuritilishi uchun ishni prokurorga yuborish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sud muhokamasining natijalari bo'yicha sud qonunda belgilangan tartibda ajrim chiqaradi (JPK 586-m.).

Sud majlisi vaqtida JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga binoan bayonnoma yuritiladi.

Sudning ajrimi quyidagi qoidalar bo'yicha tuziladi.

Sud ajrimining kirish qismida: ajrim chiqarilgan vaqt va joy; ajrim chiqargan sudning nomi, sudyaning, sud majlisi kotibining, taraflarning, tarjimonning ismi, otasining ismi va familiyasi; gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan yili, oyi, kuni va joyi, yashash joyi, ishlash joyi, mashg'uloti, ma'lumoti va ish uchun ahamiyatga molik boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sud ajrimining tavsif qismida yarashuv uchun asos bo'lgan holatlar bayon etiladi, JPKning 585-moddasida sanab o'tilgan masalalarga javoblar ifodalanadi.

Ajrimning qaror qismida sud quyidagi masalalarni hal etadi: sud majlisi bayonnomasini tasdiqlash hamda jinoyat ishini tugatish yoki uni umumiy qoidalar bo'yicha dastlabki tergov yuritish uchun prokurorga yuborish to'g'risidagi; ehtiyot chorasi to'g'risidagi; ashyoviy dalillar to'g'risidagi; zararni qoplash to'g'risidagi.

Sudning ajrimiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), ularning qonuniy vakillari, himoyachi tomonidan xususiy shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin.

## **XXXIII BOB. ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA AMNISTIYA AKTINI QO‘LLASH**

### **33.1. Ishni sudga qadar yuritishda amnistiya aktini qo‘llashning mazmuni va ahamiyati**

Huquqiy demokratik davlat qurishning muhim shartlaridan biri – fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hisoblanadi. Huquqiy demokratik davlatda inson tinch, osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun birinchi navbatda, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilingan bo‘lishi shart. Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar inson huquqlarining ishonchli himoyasini ta’minlashga qaratilgan.

Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar jarayonini erkinlashtirish va chuqurlashtirish Dasturi asosida sud-huquq tizimini liberallashtirishning amalga oshirilayotganligi jamiyatda demokratik tamoyillarni yanada chuqurlashtirishning muhim omili bo‘ldi. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlarga binoan, amnistiya akti asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni qo‘llash imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o‘z mazmuniga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsni mazkur qilmishning huquqiy oqibatlaridan ozod etishdir. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan har qanday asoslarga ko‘ra ozod etishda ijtimoiy xavfli qilmishning huquqiy tabiati o‘zgarmaydi. Chunki, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish doimo jinoyat bo‘lib qolaveradi va yuridik mohiyati o‘zgarmaydi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish quyidagi jinoiy-huquqiy munosabatlarning to‘xtatilganligini bildiradi: davlat vakolatli huquqni qo‘llash organlari orqali aybdorni hukm qilish, ijtimoiy xavfli qilmish uchun jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi o‘z huquq va majburiyatlaridan voz kechadi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs esa hukm

qilinish majburiyatidan ozod etiladi va sodir etgan jinoyatining jazosi sifatida qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum etiladi yoki undan cheklab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 68-moddasida jinoyat sodir qilgan shaxsning amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Amnistiya akti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga muvofiq, insonparvarlik tamoyiliga amal qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga va 93-moddasining 23-bandiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan e'lon qilinadi.

Amnistiya aktiga asosan, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolati faqat sudga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga berilgan.

Amnistiya akti O'zbekistondagi muhim sanalar (O'zbekiston mustaqilligi kuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun va hokazolar) munosabati bilan jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan, jazoni o'tayotgan muayyan doiradagi shaxslarni kechirish orqali jinoiy javobgarlikdan yoki jinoiy jazodan ozod qilishdan iboratdir.

Amnistiya akti muayyan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi jinoyat qonuni normalarini bekor qilmagan holda muayyan turkumdagi jinoyat sodir qilgan shaxslarni kechirib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish orqali amalga oshiriladi.

Amnistiya akti jinoiy javobgarlikdan, jinoiy jazodan ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni bekor qilish orqali ro'yobga chiqarilishi mumkin.

Amnistiya akti jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan yoki jazoni o'tayotgan muayyan turkumdagi keng doiradagi shaxslarga nisbatan chiqarilsa-da, amalda har bir shaxsga nisbatan alohida-alohida qo'llaniladi. Demak, amnistiya akti normativ xususiyatga ega bo'lib, unda amnistiya qilinadigan shaxslarning ismi, otasining ismi

ko'rsatilmay, muayyan turkumda jinoyat sodir qilgan guruhdagi shaxslarga yoki ijtimoiy xavfliligi hisobga olingan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan chiqarilganligi ko'rsatiladi.

Amnistiya akti mamlakat miqyosidagi muhim voqea, qo'lga kiritilgan yutuq yoki jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan chiqarilar ekan, har bir amnistiya aktining mazmuni qanday voqea yoki nima munosabati bilan chiqarilganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, amnistiya akti u e'lon qilingan kungacha sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladi hamda amnistiya aktida ko'rsatilgan muddatda ijro etilishi lozim.

Amnistiya akti umumiy tarzda chiqarilib, amalda alohida-alohida qo'llanilganligi tufayli shaxs amnistiya akti e'lon qilingunga qadar jinoyat sodir qilib, tergovdan, suddan yashiringan yoki jazoni o'tashdan qochgan bo'lsa, ammo amnistiya aktigacha qilmishiga pushaymon bo'lib kelsa, amnistiya aktini qo'llab javobgarlikdan ozod qilish mumkin.

Shunday qilib, amnistiya akti orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsning jinoyatini bekor qilish yoki oqlash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish emas, balki aybdorning davlat tomonidan kechirilishi, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishidan iborat.

Agar shaxs o'zining amnistiya akti orqali javobgarlikdan ozod qilinishiga norozilik bildirsa, unga nisbatan amnistiya akti qo'llanilmaydi. Bunday holda jinoyat ishini yuritish protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda davom ettiriladi, ya'ni tergovchi tomonidan tergov harakatlari davom ettiriladi va ayblov xulosasigacha yetkazilib, prokuror orqali sudga oshiriladi. Ana shunday yo'l bilan jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi shaxsga o'zining rasmiy ravishda oqlanishiga erishish imkoni beriladi. Agar sud ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topsa, ayblov hukmini jazo tayinlamasdan chiqarishi yoki amnistiya aktini qo'llab javobgarlikdan ozod qilishi lozim.

### **33.2. Ishni sudga qadar yuritishda amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar**

Jinoyat-protsessual kodeksning 587-moddasida shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala ko‘rilayotganda, tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala qo‘yilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuboradi. Amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslarga amnistiya aktining qabul qilinganligi va tergovga qadar o‘tkazilayotgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi yoxud tekshiruvga jalb qilingan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ushbu amnistiya akti ta‘siriga tushish holatini tasdiqlovchi dalillarni kiritish mumkin.

Chiqarilgan amnistiya akti asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish haqida qaror qabul qilish uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lishi shart:

1. Jinoyat-protsessual kodeks hamda boshqa qonun normalariga muvofiq amnistiya aktini qo‘llash masalasi, jinoyat protsessining qaysi bosqichidan qat’i nazar, faqat sud tomonidan hal etiladi. Agar mahkum jazoni ijro etish muassasasida jazoni ijro etayotgan bo‘lsa ham, chiqarilgan amnistiya akti asosida qaror qabul qilishga faqat sud haqli bo‘lib hisoblanadi.

2. Har bir chiqarilgan amnistiya akti o‘zining mazmuniga ko‘ra, aniq bo‘lmagan, ya’ni nomuayyan shaxslar doirasiga qaratilgan hujjat bo‘lsa-da, mazkur hujjatni qo‘llash to‘g‘risidagi qaror har bir shaxsga

nisbatan alohida tartibda qabul qilinadi. Darhaqiqat, agar chiqarilgan amnistiya aktining mazmuniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, unda mazkur hujjat qo'llanilishi lozim bo'lgan shaxslarning familiyasi yoki ismi-sharifi ko'rsatilmaydi. Aksincha, qanday turdagi (og'irlik darajasiga ko'ra yoxud ba'zi bir jinoyat turlari) jinoyatlar va jinoyat sodir etgan shaxslar (ayollar, voyaga yetmaganlar, oltmish yoshdan oshganlar, nogironlar va boshqalar) toifasi ko'rsatilgan bo'ladi. Lekin, shunday bo'lsa-da, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amnistiya aktini qo'llash bilan bog'liq har bir holatda mazkur hujjatni alohida, shaxsi aniq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llashi lozim bo'ladi.

3. Chiqarilgan amnistiya aktini qo'llash uchun amnistiya akti qo'llanilayotganni shaxsini tavsiflovchi holatlar o'rganilgan (tekshirilgan) bo'lishi shart. Ya'ni, jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs amnistiya akti qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaxsning muqaddam sudlangan yoki sudlanmaganligini, unga nisbatan amnistiya akti qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligini aniqlashi talab etiladi. Amnistiya aktini qo'llashda quyidagi holatlarga oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiq:

1) agar muqaddam sudlangan shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash masalasi, ushbu holat jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalari hamda amnistiya aktini qo'llashga oid Oliy sud Plenumi qarorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan. Fikrimizcha, bunday holat vujudga keladigan bo'lsa va shaxsning qilmishi huquqiy baholangan tegishli Jinoyat kodeksi normasi chiqarilgan amnistiya aktiga tushadigan bo'lsa, mazkur holatda amnistiya aktini qo'llash lozim bo'ladi. Zero, jinoiy-huquqiy va jinoiy-protsessual qonunlarda amnistiya aktini aynan muqaddam sudlangan yoki sudlanganlik muddati olib tashlanmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini taqiqlovchi norma mavjud emas. Shunday ekan, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsning muqaddam sudlanganligi, agar uning yangi sodir etgan jinoiy qilmishi chiqarilgan amnistiya aktiga tushadigan bo'lsa, unga nisbatan amnistiya aktini qo'llash mumkin;



2) muqaddam amnistiya aktiga asosan javobgarlik yoki jazodan ozod etilgan shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash masalasi, so‘nggi yillarda chiqarilayotgan amnistiya aktlarida «Muqaddam amnistiya akti qo‘llanilgan shaxslarga nisbatan mazkur qaror qo‘llanilmasin» degan mazmundagi alohida band belgilangan. Aynan mazkur omil muqaddam amnistiya aktiga muvofiq jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoxud jazodan ozod etilgan va amnistiya akti qo‘llanilgandan so‘ng qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan yangi qabul qilingan amnistiya aktining qo‘llanilmasligini taqozo etadi. Lekin qonunshunos bunday hollarda ham amnistiya aktini qo‘llash mumkin bo‘lgan holatlarni ham belgilab qo‘ygan. Jumladan, Jinoyat kodeksi Umumiy qismi normalarida belgilangan talablardan kelib chiqqan holda, shaxs muqaddam amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan-etilmaganligidan qat’i nazar quyidagi hollarda amnistiya akti qo‘llanilishi mumkin:

a) jinoyat qonun normalariga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida shaxs muqaddam jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan qilmish jinoyat deb hisoblanmay qolgan bo‘lsa, ya’ni, mazkur jinoiy qilmish Jinoyat kodeksidan jinoyat sifatida chiqarilib tashlanganda. Bunday holatlarda agar muqaddam JKning 167-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, yana jinoyat sodir etadigan bo‘lsa, uning harakatlarini takroriy, xavfli retsidivist yoki boshqa og‘irlashtiruvchi holat bilan baholash mumkin emas;

b) amnistiya akti qo‘llanilgan paytdan boshlab shaxs amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan jinoyat uchun qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlariga teng vaqt o‘tgan bo‘lsa. Masalan, agar shaxs Jinoyat kodeksining 169-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgani uchun (ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan) amnistiya akti bo‘yicha javobgarlikdan ozod bo‘lgan bo‘lib, uch yil o‘tib, yana jinoyat sodir etadigan bo‘lsa, unga nisbatan chiqarilgan yangi amnistiya akti qo‘llanilishi mumkin;

v) shaxs muqaddam boshqa davlat (shu jumladan, sobiq SSSR)ning amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida va amnistiya aktida boshqa holat nazarda tutilmagan holatlarda. Darhaqiqat, bugungi kunga qadar amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalarida boshqa davlatlarning sud organlari tomonidan chiqarilgan hukm yoki ajrimlari, bizning jinoyat-protsessual munosabatlarda qanday holatlarda qo'llanilishi mumkin yoki mumkin emasligini belgilovchi aniq bir norma mavjud emas. Shuning uchun ham tergov va sud organlari shaxs boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin, bizning davlatimizda ham aynan mazkur turdagi jinoyatni sodir etadigan bo'lsa, bu shaxsni xavfli reaktiv deb topish yoki topmaslik masalasida aniq bir to'xtamga kela olmaydilar. Sababi, bu kabi masalalarni tartibga solib turuvchi aniq bir norma mavjud emas;

g) darhaqiqat, muqaddam amnistiya aktiga muvofiq jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoxud jazodan ozod etilgan va amnistiya akti qo'llanilgandan so'ng qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan yangi qabul qilingan amnistiya aktini qo'llash mumkin emas. Lekin, agar amnistiya akti qo'llanilgan shaxs kelgusida ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan bo'lsa, unga nisbatan amnistiya aktini qo'llash mumkin. Bu vaziyatda birinchi amnistiya aktini qancha muddat avval qo'llanilganligi ahamiyat kasb etmaydi;

d) agar jinoyat sodir etgan shaxs muqaddam sudlangan yoki sudlanmaganligi, shuningdek, unga nisbatan o'tmishda amnistiya akti qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligi to'g'risida ma'lumot to'plash imkoni bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi va amaldagi JPK 23-moddasi uchinchi qismi talablaridan kelib chiqib amnistiya akti qo'llanilishi shart.

4. Amnistiya aktini qo'llashning yana bir muhim jihati shundan iboratki, amnistiya faqatgina mazkur akt qabul qilinib, e'lon qilinguniga qadar sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha qo'llaniladi. Ya'ni, agar amnistiya

akti 2017-yil 12-dekabr kuni e'lon qilinsa, mazkur hujjatning ta'sir doirasiga faqat 2017-yil 12-dekabrga qadar sodir etilgan jinoyatlar taalluqli bo'ladi. Jinoyat kodeksining 32-moddasiga muvofiq, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bo'yicha jinoiy harakat (harakatsizlik)ning uzoq vaqt mobaynida sodir etilishi mumkinligini inobatga oladigan bo'lsak, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan amnistiya aktini qo'llash uchun mazkur jinoyat boshlangan va tugallangan (tamomlangan) vaqt aniqlanishi shart bo'lib hisoblanadi. Davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan amnistiya akti, faqat bu jinoyatlar amnistiya akti kuchga kiringunga (e'lon qilinguniga) qadar tamomlangan bo'lsa, qo'llanilishi mumkin.

5. Agar shaxs jinoyat sodir etganidan keyin, og'ir, davomli, lekin tuzatib bo'ladigan kasallikka duchor bo'lsa yoki dastlabki tergov va suddan yashirinsa yoxud sodir etgan jinoyati ba'zi bir omillar sababli o'z vaqtida aniqlanmay qolgan vaqtlarda, chiqarilgan amnistiya aktlarini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

a) agar jinoyat sodir etgan shaxsning harakatlariga bir xil huquqiy oqibat tug'diruvchi, ya'ni shaxsni faqat jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etishni yoxud jazo qo'llanilishi istisno etilishini nazarda tutuvchi holatlarni o'z doirasiga oluvchi bir necha amnistiya akti qabul qilingan bo'lsa, sud shaxs sodir etgan oxirgi jinoyatdan keyin kuchga kirgan amnistiya aktini qo'llashi lozim. Chunki, qo'llanilish kuchi bo'yicha bir xil mazmunga ega bo'lgan amnistiya aktlarining barchasini qo'llash mumkin emas.

b) o'tgan vaqt mobaynida chiqarilgan amnistiya aktlarida faqat shaxsning qilmishi uchun tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo muddatlari kamaytirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, barcha amnistiya aktlari xronologik ketma-ketlikda qo'llanilishi lozim. Masalan, agar shaxsning sodir etgan jinoiy qilmishi uchun 10 yil jazo muddati nazarda tutilgan bo'lsa, birinchi amnistiya aktini qo'llash natijasida 8 yil qolsa, ikkinchi amnistiya aktini 8 yil muddatni kamaytirish bo'yicha qo'llash lozim. O'z navbatida uchinchi amnistiya akti ikkinchi amnistiya aktini qo'llash natijasida qolgan muddatga nisbatan qo'llaniladi;

v) shuningdek, shaxsning harakatlari turli huquqiy oqibat tugʻdiruvchi, yaʼni ayrimlari shaxsni jinoiy javobgarlikdan, boshqalari esa jazodan ozod etishni yoki jazo muddatlari kamaytirilishini nazarda tutuvchi bir necha amnistiya akti taʼsiri doirasiga tushgan hollarda insoniylik prinsipidan kelib chiqib shaxsning ahvolini koʻproq yaxshilaydigan amnistiya akti qoʻllanilishi kerak.

Demak, tergovga qadar toʻplangan materiallar yoki jinoyat ishi boʻyicha amnistiya aktini qoʻllash uchun asoslar mavjud boʻlgan taqdirda, jinoyat ishi qoʻzgʻatishni rad etish yoki tugatish qarorining chiqarilishi yoki chiqarilmasligidan qatʼi nazar mazkur ishda oʻsha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi (roziligi haqida) boʻlishi talab etiladi. Amnistiya aktini qoʻllash uchun asoslar mavjud boʻlgan ishlar yuzasidan oʻsha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasini boʻlmasligi jinoyat-protsessual qonun normalari talablarini buzish deb baholanadi.

### **33.3. Amnistiya aktini qoʻllash toʻgʻrisida ish yuritishning protsessual tartibi**

Oʻzbekiston Respublikasining JPKda amnistiya aktini qoʻllashning protsessual tartibi belgilanmaganligi surishtiruv, tergov va sud organlariga maʼlum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Shu bois Oʻzbekiston Respublikasining «Amnistiya aktini qoʻllash tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida»gi 2008 yil 22 dekabr qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan, JPKga «Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qoʻllash» deb nomlanuvchi yangi 63-bob kiritildi. JPKning mazkur bobida:

– tergovga qadar oʻtkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi (587-m.);

– amnistiya aktini qoʻllash toʻgʻrisidagi ariza (588-m.);

– jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani sudga kiritish to‘g‘risidagi masalani prokuror tomonidan ko‘rib chiqish tartibi (589-m.);

– sud majlisi (590-m.);

– sudning ajrimiga (591-m.) doir jinoyat-protsessual munosabatlar tartibga solingan.

Chiqarilgan amnistiya akti asosida sudga qadar ish yuritish tartibiga ko‘ra tergovchi quyidagi protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishi lozim:

– bayonnoma;

– ayblanuvchining arizasi;

– amnistiya aktini qo‘llash uchun ishni sudga yuborish haqida iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma.

Tergovga qadar to‘plangan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi bo‘yicha amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, Jinoyat-protsessual kodeks 84-moddasi ikkinchi qismi va 333-moddasi uchinchi qismi talablaridan kelib chiqqan holda, surishtiruvchi, tergovchi qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala qo‘yilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining ish qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatishga qarshi yoki qarshi emasligining aniqlanishi talab etiladi. Aynan mazkur harakat (qarshi yoki qarshi emasligini aniqlash) bayonnoma tuzish yo‘li bilan rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq. Bayonomada surishtiruvchi, tergovchi qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala qo‘yilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga amnistiya aktini qo‘llashning oqibatlarini va agar jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etishga yoki jinoyat ishini tugatishga norozi bo‘ladigan bo‘lsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkinligini tushuntirib o‘tishi shart.

Amnistiya akti qo‘llanilayotgan shaxsga amaldagi JPKning 84 va 333-moddalarida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini tushuntirish davomida, agar amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala ko‘rilayotgan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o‘zining aybsizligini

e'tirof etgan holda, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga yoki jinoyat ishini tugatishga e'tiroz bildirib, ish yurituvchi umumiy tartibda davom ettirilishini talab qilsa, uning bu talabi qanoatlantirilishi lozim.

Amaldagi JPKning 587-moddasi birinchi qismi va 588-moddasiga muvofiq, amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasini olgan bo'lishi shart.

Bu holatda ariza ikki xil mazmunda bo'ladi. Birinchisi, bu o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining chiqarilgan amnistiya aktiga muvofiq, jinoyat ishi qo'zg'atilishining rad etilishiga yoki tugatilishiga qarshi emasligini ifodalasa, ikkinchisi esa, aksincha, yuqorida qayd etilgan shaxslarning aynan mazkur holatda qonunning ushbu normasi qo'llanilishiga qarshi ekanligini o'zida aks ettiradi.

Agar ayblanuvchi, sudlanuvchi (u vafot etgan holda—yaqin qarindoshlaridan biri) e'tiroz bildirsa, jinoyat ishini amnistiya aktiga muvofiq tugatishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holda jinoyat ishini yuritish umumiy tartibda olib boriladi va yetarli asoslar mavjud bo'lganda, sud aybdorni jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi yoki jazo tayinlamagan holda ayblov hukmi (JPK 463-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari) yoxud oqlov hukmi chiqaradi.

Agar bir nechta shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha ulardan loaqal bittasi amnistiya aktining ta'sir doirasiga tushsa, unga nisbatan jinoyat ishining qismi amnistiya aktini qo'llash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish uchun Jinoyat-protsessual kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan alohida ish yuritishga ajratilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish

surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo'zg'atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi.

Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza tergovga qadar tekshiruv qaysi shaxsga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan, tegishincha tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruvning, surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berilishi mumkin.

Agar shaxsning harakatlari bir xil huquqiy oqibat tug'diruvchi, ya'ni shaxsni faqat jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etishni yoxud jazo qo'llanilishi istisno etilishini nazarda tutuvchi bir necha amnistiya akti ta'siri doirasiga tushsa, sud shaxs sodir etgan oxirgi jinoyatdan keyin kuchga kirgan amnistiya aktini qo'llashi kerak.

Biroq, agar amnistiya aktlarida faqat jazo muddatlari kamaytirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, barcha amnistiya aktlari xronologik ketma-ketlikda qo'llanilishi lozim.

Shaxsning harakatlari turlicha huquqiy oqibat tug'diruvchi, ya'ni ayrimlari shaxsni jinoiy javobgarlikdan, boshqalari esa jazodan ozod etishni yoki jazo muddatlari kamaytirilishini nazarda tutuvchi bir necha amnistiya akti ta'siri doirasiga tushgan hollarda shaxsning ahvolini ko'proq yaxshilaydigan amnistiya akti qo'llanilishi kerak.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida va birinchi instansiya sudida (sud maslahatxonaga kirgunga qadar) amnistiya aktini qo'llash masalasini hal etishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z aybini bo'yniga olgan-olmaganligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Qonunga ko'ra, amnistiya aktini qo'llash uchun jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi taqdimnomasi, prokurorning iltimosnomasi, sudning amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lgan jabrlanuvchi ular ustidan umumiy asoslarda shikoyat berishi mumkin.

JPK 587-moddasida shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala ko'rilayotganda, tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuboradi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, prokuror tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchiga yoxud tergovchiga qaytarish haqida asoslantirilgan qaror chiqaradi. Prokurorning qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berilishi mumkin.

JPK 36-moddasida belgilanganidek, tergovchi prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o'z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo'yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi.

Prokuror surishtiruvchining, tergovchining taqdimnomasi asosligini tekshirib unga rozi bo'lgan taqdirda, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoxud jinoyat ishi bilan birga sudga yuboradi. Prokuror iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi unga kelib tushgan kundan e'tiboran besh sutkadan kechiktirmay sudga yuborishi lozim.



### **33.4. Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud majlisi**

Prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqidagi yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi iltimosnomasi jinoyat sodir qilingan yoxud dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, okrug, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud iltimosnomani ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining raisi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi belgilaydigan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Sud majlisi iltimosnoma jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi bilan birga sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay o'tkaziladi.

Iltimosnomani ko'rib chiqish sud tomonidan prokuror albatta ishtirok etgan holda amalga oshiriladi.

Sud majlisida amnistiya aktini qo'llash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari ishtirok etadi. Sud majlisi o'tkaziladigan vaqt va joy haqida lozim darajada xabardor qilingan mazkur shaxslarning uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi sud majlisining o'tkazilishiga monelik qilmaydi.

Sud majlisi prokurorning ma'ruzasi bilan boshlanadi, prokuror amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish zarurligini asoslab beradi. So'ngra amnistiya aktinii qo'llash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining,

himoyachining, qonuniy vakilning soʻzlari eshitiladi, taqdim etilgan materiallar tekshiriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

Sud majlisi vaqtida JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalariga koʻra bayonnoma yuritiladi.

Sud muhokamasi natijalari boʻyicha sudya qonunda belgilangan tartibda ajrim chiqaradi, ushbu ajrimning gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini qamoqdan ozod qilishga doir qismi darhol ijro etilishi lozim.

Sudning ajrimi ijro etish uchun prokurorga, maʼlumot uchun esa amnistiya aktini qoʻllash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qoʻyilgan boʻlsa, oʻsha shaxsga, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, jabrlanuvchiga (fuqaroviy daʼvogarga), himoyachiga va qonuniy vakilga yuboriladi.

Agar sud majlisi davomida amnistiya aktini qoʻllash uchun asoslar mavjud emasligi aniqlansa, sud tergovga qadar oʻtkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini umumiy qoidalar boʻyicha tegishincha tergovga qadar tekshiruv oʻtkazish yoki dastlabki tergov ishini yuritish uchun prokurorga yuborish toʻgʻrisida ajrim chiqaradi.

Sud ajrimining kirish qismida:

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudning nomi, sudyaning, sud majlisi kotibining, taraflarning, tarjimonning ismi, otasining ismi va familiyasi;
- 3) amnistiya aktini qoʻllash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qoʻyilayotgan boʻlsa, oʻsha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tugʻilgan yili, oyi, kuni va joyi, ishlash joyi, mashgʻuloti, maʼlumoti, oilaviy ahvoli va ularning shaxsi toʻgʻrisidagi, ish uchun ahamiyatli boshqa maʼlumotlar koʻrsatiladi.

Sud ajrimining tavsif-asoslash qismida iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish uchun asos boʻlgan holatlar bayon etiladi.

Ajrimning qaror qismida sud quyidagi masalalarni hal etadi:

– amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi;

– prokurorning jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomasini qanoatlantirishni rad etish hamda tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini yoxud jinoyat ishini umumiy qoidalar bo‘yicha tegishincha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish yoki dastlabki tergov ishini yuritish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risidagi;

– ehtiyot chorasi to‘g‘risidagi;

– ashyoviy dalillar to‘g‘risidagi;

– fuqaroviy da‘voni ta‘minlash choralari to‘g‘risidagi.

Sudning ajrimiga amnistiya aktini qo‘llash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs tomonidan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vog‘ar), ularning himoyachilari, qonuniy vakillari tomonidan xususiy shikoyat berilishi va prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin, bunday shikoyat va protestlar tegishincha apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rib chiqilishi lozim.

JPKga yangi kiritilgan 536-1-moddaga ko‘ra, mahkumni amnistiya aktiga asosan asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish prokurorning iltimosnomasiga binoan mahkumning jazoni o‘tash joyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan amalga oshiriladi.

## **XXXIV BOB. JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK**

### **34.1. Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorligi tartibining asosiy qoidalari**

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida e’tirof etilishi, mamlakatimizning jinoyatchilikka qarshi kurash borasida hamkorlik qiluvchi xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishi sudlar, prokurorlar, tergovchilarning xorijiy davlatlardagi tegishli muassasalar bilan aloqa qilishini taqozo etadi. Bugungi kunda jinoyatchilikning xavfli va o‘ta xavfli turlari ko‘payib bormoqda va ular transchegaraviy va transmilliy xususiyatga ega bo‘lmoqda.

Xalqaro jinoyat huquqida ikki turdagi jinoyatlar ajratiladi: xalqaro va transchegaraviy. Xalqaro jinoyatlar – bu shunday jinoiy harakatlarki ularni sodir etilishi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlik xalqaro huquq tomonidan belgilanadi (masalan, genotsid, tinchlikka qarshi jinoyatlar, xalqaro gumanitar huquqning buzilishi bilan bog‘liq og‘ir jinoyatlar va hokazo). Transchegaraviy jinoyatlarga umumjinoiy jinoyatlar kiradi va ular muayyan davlat chegarasidan tashqariga chiqadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro hamkorlikning jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha ikki tomonlama, mintaqaviy va universal darajalardagi bir qator yo‘nalishlari mavjud. Ushbu hamkorlik MDH davlatlari o‘rtasida ham, muayyan davlatlar o‘rtasida tuziladigan o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi shartomalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, MDH davlatlarining rahbarlari tomonidan 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan «Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi konvensiya yoki O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi

o'rtasida 1994-yil 23-iyunda imzolangan «Fuqarolik, savdo va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish haqida»gi shartnoma ana shu maqsadga qaratilgan.

Bundan tashqari 2004-yil 27-aprelda Kishinyovda «Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida»gi MDH mamlakatlarining Konvensiyasi qabul qilindi. Shuningdek, 2005-yil 28-avgustda Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida O'zbekiston Respublikasi MDHga a'zo mamlakatlarning 2005–2007-yillarda terrorizm va zo'rvonlik bilan bog'liq ekstremizm ko'rinishlariga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik Dasturining a'zosi sifatida tan olindi. Mazkur Dastur MDH mamlakatlarining rahbarlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan.

*Protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risida so'rov yuborish.* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish zarur bo'lganda sud, prokuror, tergovchi, surishtiruv organi mazkur harakatlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan bajarilishi to'g'risida so'rov kiritadi. O'zarolik prinsipi so'rov kiritilayotganda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining ayrim protsessual harakatlarni bajarishda xorijiy davlatning vakolatli organiga huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi yozma majburiyati bilan tasdiqlanadi.

Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rov quyidagi organlar orqali yuboriladi:

umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlarini yuritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi orqali;

sudning qarori yoki prokurorning roziligi (sanksiyasi) talab qilinmaydigan protsessual harakatlar bo'yicha – O'zbekiston

Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati orqali;

qolgan hollarda – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali yuboriladi.

Zarur hollarda, JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan organlar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan aloqa bog‘laydi (JPK 592-m.).

*Protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to‘g‘risidagi so‘rovning mazmuni va shakli.* Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovda quyidagilar bo‘lishi kerak:

- 1) so‘rov yuborayotgan organning nomi;
- 2) so‘rov yuborilayotgan organning nomi va joylashgan yeri;
- 3) jinoyat ishining nomlanishi va so‘rovning xususiyati;
- 4) o‘ziga nisbatan so‘rov yuborilayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shu jumladan uning tug‘ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, mashg‘uloti turi, yashash joyi yoki turgan joyi haqidagi ma‘lumotlar, uning protsessual maqomi, yuridik shaxs uchun esa uning nomi, yuridik manzili va joylashgan yeri;
- 5) aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar bayoni, shuningdek, so‘ralayotgan hujjatlar, ashyoviy va boshqa dalillar ro‘yxati;
- 6) sodir etilgan jinoyatning haqiqiy holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, uning tavsifi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning qilmish jinoyat deb e‘tirof etilishiga asos bo‘ladigan tegishli moddasi matni;
- 7) agar jinoyat natijasida zarar yetkazilgan bo‘lsa, uning miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovda uni ijro etish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rov uni yuborayotgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi. Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rov va unga ilova qilinayotgan hujjatlar so‘rovni

yuborayotgan organning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi hamda ular yuborilayotgan xorijiy davlatning rasmiy tiliga yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan boshqa tilga tarjima qilinadi (JPK 593-m.).

*Xorijiy davlat hududida olingan dalillarning yuridik kuchi.* Xorijiy davlat hududida jinoyat ishi bo‘yicha protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni ijro etish davomida uning vakolatli organlari tomonidan olingan yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o‘zarolik prinsipi asosida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi so‘rovga ilova qilinib, O‘zbekiston Respublikasiga yuborilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan va topshirilgan dalillar O‘zbekiston Respublikasi JPK talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida olingan dalillar singari yuridik kuchga ega baladi (JPK 594-m.).

*Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasi hududida ijro etish.* Sud, prokuror, tergovchi, surishtiruv organi xorijiy davlatning tegishli vakolatli organidan kelib tushgan, o‘zlariga belgilangan tartibda topshirilgan protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o‘zarolik prinsipi asosida ijro etadi. Agar protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rov kelib tushgan organ uni ijro etishga vakolatli bo‘lmasa, u so‘rovni vakolatli organga yuboradi va bu haqda so‘rov tashabbuskorini yozma ravishda xabardor qiladi. Bevosita sudga, prokurorga, tergov organiga, surishtiruv organiga protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risida kelib tushgan so‘rov JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan tegishli organlar bilan kelishilgan holda ijro etilishi mumkin. Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni ijro etishda O‘zbekiston Respublikasi JPK normalari qo‘llaniladi. Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi bo‘yicha, agar bu O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, xorijiy davlat protsessual qonun hujjatlarining normalari qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda yoki o‘zarolik prinsipi asosida, protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni ijro etishda xorijiy davlat vakolatli organining vakillari JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan tegishli organlar ruxsati bilan hozir bo‘lishi mumkin.

Agar protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni ijro etish mumkin bo‘lmasa, u holda olingan hujjatlar so‘rovni ijro etishga to‘sqinlik qilgan sabablar ko‘rsatilib, so‘rovni olgan organ orqali, zarur bo‘lganda esa diplomatik yo‘llar orqali xorijiy davlatning so‘rovni yuborgan vakolatli organiga qaytarib yuboriladi. Agar so‘rov O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lsa yoki uning ijrosi O‘zbekiston Respublikasi suverenitetiga yoxud xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa, u ijro etilmasdan qaytarib yuboriladi (JPK 595-m.).

*O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni, fuqaroviy da‘vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillarini chaqirish.* O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari O‘zbekiston Respublikasi hududida protsessual harakatlarni bajarish uchun jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan chaqirilishi mumkin. JPK 596-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarni chaqirish to‘g‘risidagi so‘rov JPK 592-moddasida belgilangan tartibda yuboriladi. Shaxslarni chaqirishda protsessual majburlov choralarini qo‘llash tahdidi bo‘lmasligi kerak. Chaqiruv bo‘yicha kelgan, ushbu shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o‘tguniga qadar sodir etilgan qilmishlar uchun yoki chiqarilgan hukmlar asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi yoxud shaxsiy erkinlikning boshqacha cheklanishlariga duchor etilishi mumkin emas. Agar chaqiruv bo‘yicha kelgan shaxs uning hozir bo‘lishi chaqirtirgan mansabdor shaxsga boshqa kerak bo‘lmay qolgan paytdan e‘tiboran o‘n besh sutkalik uzluksiz muddat



o'tguniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududini tark etish imkoniyatiga ega bo'la turib, shu hududda qolishda davom etsa yoki jo'nab ketganidan keyin O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelsa, mazkur immunitetning amal qilishi tugaydi.

Xorijiy davlat hududida qamoqda saqlanayotgan shaxs, basharti bu shaxs JPK 596-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarni chaqirish to'g'risidagi so'rovda nazarda tutilgan protsessual harakatlar bajarilishi uchun xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha o'tkazilgan bo'lsa, belgilangan tartibda chaqiriladi. Bunday shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida bo'ladigan butun davrida qamoqda saqlanaveradi. Uni qamoqda saqlashga xorijiy davlat vakolatli organining tegishli qarori asos bo'ladi. Mazkur shaxs so'rovga berilgan javobda ko'rsatilgan muddatlarda tegishli xorijiy davlat hududiga qaytarilishi kerak.

Shaxsni o'tkazish yoki o'tkazishni rad etish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida yoki o'zarolik prinsipi asosida belgilanadi (JPK 596-m.).

*Jinoyat ishi materiallarini xorijiy davlatning vakolatli organiga yuborish.* Chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan, keyinchalik uning hududidan chiqib ketgan hamda protsessual harakatlarni O'zbekiston Respublikasi hududida uning ishtirokida bajarishning imkoni bo'lmagan taqdirda, tergov qilinayotgan jinoyat ishining barcha materiallari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga topshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi mazkur materiallarni xorijiy davlatning vakolatli organiga tergov qilish uchun yuborish to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Jinoyat ishi materiallariga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi ariza, shuningdek, dalillar ilova qilinadi. Ishdagi har bir hujjat mazkur jinoyat ishini yuritayotgan organning gerbli muhri bilan tasdiqlangan va yuborilayotgan xorijiy davlatning rasmiy tiliga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan boshqa tilga tarjima qilingan bo'lishi kerak (JPK 597-m.).

*Jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish.* Xorijiy davlat vakolatli organining xorijiy davlat hududida jinoyat sodir etgan va O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosini jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday hollarda jinoyat ishini yuritish JPKda belgilangan tartibda olib boriladi. Jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilgan organ qarorning ko'chirma nusxasini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qaror haqida xorijiy davlatning so'rovni yuborgan vakolatli organini yozma ravishda xabardor qiladi. Mazkur organning iltimosiga ko'ra jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qarorning ko'chirma nusxasi ham yuborilishi mumkin (JPK 598-m.).

### **34.2. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish tartibi**

*Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida so'rov yuborish.* O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda yoki o'zarolik prinsipi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organiga xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish to'g'risida so'rov yuborishi mumkin. Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida o'zarolik prinsipi asosida so'rov yuborish, agar so'rov yuborilishiga sabab bo'lgan qilmish har ikkala davlat qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish bo'lsa va shaxs jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berilgan taqdirda – uni sodir etganlik uchun bir yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo yoki og'irroq jazo nazarda tutilganda yoxud shaxs hukmni ijro etish uchun ushlab berilgan taqdirda

– u olti oydan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga yoki og‘irroq jazoga hukm qilinganida amalga oshiriladi.

Xorijiy davlat hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rovni yuborish zaruriyati yuzaga kelganda hamda buning uchun JPK 599-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan asoslar va shartlar mavjud bo‘lganda, barcha zarur materiallar mazkur so‘rovni yuborish haqidagi masalani hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etiladi.

Xorijiy davlat hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rovda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim:

1) so‘rov yuborayotgan organning nomi;

2) o‘ziga nisbatan so‘rov yuborilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning tug‘ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, yashash joyi yoki turgan joyi haqidagi ma’lumotlar va uning shaxsi haqidagi boshqa ma’lumotlar, shuningdek, imkoni boricha tashqi qiyofasi tavsifi, fotosurati va shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa materiallar;

3) o‘ziga nisbatan so‘rov yuborilayotgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning haqiqiy holatlari bayoni va tavsifi, shu jumladan u tomonidan yetkazilgan zararning miqdori haqidagi ma’lumotlar, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qilmish jinoyat deb e’tirof etilishiga asos bo‘ladigan tegishli moddasi matni;

4) shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror yoxud hukm chiqarilgan joy va sana to‘g‘risidagi, shuningdek, hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi ma’lumotlar.

Xorijiy davlat hududida bo‘lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rovga shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorning va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi sud ajrimining tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari ilova qilinishi kerak. Xorijiy

davlat hududida bo'lgan shaxsni hukmni ijro etish uchun ushlab berish to'g'risidagi so'rovga qonuniy kuchga kirgan hukmning tasdiqlangan ko'chirma nusxasi va jazoning o'talmagan muddati to'g'risidagi ma'lumotnoma ham ilova qilinishi lozim (JPK 599-m.).

*O'zbekiston Respublikasiga ushlab berilgan shaxsning jinoiy javobgarligi doirasi.* O'zbekiston Respublikasiga xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxs o'zi ushlab berilguniga qadar sodir etgan va ushlab berilishiga sabab bo'lmagan jinoyati uchun uni ushlab bergan davlatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, jazolanishi, shuningdek, uchinchi bir davlatga topshirilishi mumkin emas. Quyidagi hollarda xorijiy davlatning roziligi talab qilinmaydi, agar:

u ushlab bergan shaxs jinoyat ishi tugatilgan kundan e'tiboran, hukm qilingan taqdirda esa jazo o'talgan yoki har qanday qonuniy asosga ko'ra jazodan ozod qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi hududini tark etmagan bo'lsa. Ushlab berilgan shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududini tark etish imkoniyatiga ega bo'lmagan vaqt bu muddatga qo'shib hisoblanmaydi;

u ushlab bergan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududini tark etgan, ammo keyin ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan bo'lsa.

Xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilgan organ uning ko'chirma nusxasini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organini u tomonidan ushlab berilgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini yuritish natijalari haqida yozma ravishda xabardor qiladi. Mazkur organning iltimosiga ko'ra jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qarorning ko'chirma nusxasi ham yuborilishi mumkin (JPK 600-m.).

*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovni ijro etish.* O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun

ushlab berish to'g'risidagi so'rov O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zarolik prinsipi O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovni yuborgan xorijiy davlat vakolatli organining shunga o'xshash vaziyatda O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining so'roviga binoan shaxsni ushlab berish amalga oshirilishi haqidagi yozma va'dasi bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

agar shaxs jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berilayotganida sodir etilgan qilmish uchun O'zbekiston Respublikasi-ning Jinoyat kodeksi bir yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni yoki og'irroq jazoni nazarda tutsa;

agar o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risida so'rov yuborilgan shaxs olti oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga yoki og'irroq jazoga hukm qilingan bo'lsa;

so'rovni yuborgan xorijiy davlat o'ziga nisbatan so'rov yuborilgan shaxsning faqat so'rovda ko'rsatilgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini hamda sud muhokamasi tugaganidan va jazoni o'taganidan keyin mazkur davlat hududini erkin tark eta olishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining roziligisiz uchinchi davlatga chiqarib yuborilmasligini, topshirilmasligini yoxud ushlab berilmasligini, xuddi shuningdek, qiynoqlarga, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi muomalaga duchor etilmasligini va unga nisbatan o'lim jazosi qo'llanilmasligini kafolatlasa.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Ayni bir shaxsni ushlab berish to'g'risida bir necha davlatning so'rovi mavjud bo'lganda, shaxsni qaysi davlatga ushlab berish kerakligi to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi

Bosh prokuraturasi qabul qilingan qaror to'g'risida o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxsni yigirma to'rt soat ichida yozma ravishda xabardor qiladi va unga mazkur qaror ustidan JPK 602-moddasiga muvofiq shikoyat qilish huquqini tushuntiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxs yozma ravishda xabardor etilgan paytdan e'tiboran o'n sutka o'tishi bilan kuchga kiradi. Qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilingan taqdirda, shaxsni ushlab berish sudning ajrimi qonuniy kuchga kirguniga qadar amalga oshirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish muddati o'tgach yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qarorni, sudning ajrimini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboradi (JPK 601-m.).

*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish.* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o'rinbosarining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarori ustidan so'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudlariga mazkur shaxs yoxud uning himoyachisi tomonidan xabarnoma olingan paytdan e'tiboran o'n sutka ichida shikoyat qilinishi mumkin.

So'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joyning ma'muriyati shikoyatni olishi bilan uni darhol sudga yuboradi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xabarnoma olingan kundan e'tiboran uch sutkadan kechiktirmay sudga O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarorning qonuniyligi va asosliligini tasdiqlovchi materiallarni yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o‘rinbosarining O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi qarori ustidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqish shikoyat sud tomonidan olingan kundan e‘tiboran o‘n sutka ichida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, ochiq sud majlisida prokuror, o‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan shaxs va, agar ishda ishtirok etayotgan bo‘lsa, uning himoyachisi ishtirokida amalga oshiriladi.

Sud majlisi boshlanishida raislik qiluvchi qaysi shikoyat ko‘rib chiqilishini e‘lon qiladi, hozir bo‘lgan protsess ishtirokchilariga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Arizachi va (yoki) uning himoyachisi shikoyatni asoslab beradi, shundan so‘ng so‘z prokurorga beriladi.

Sud muhokamasi davomida sud shikoyat bergan shaxsning aybliligi masalasini muhokama qilmay, ustidan shikoyat berilgan qarorning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiqligini tekshirish bilan cheklanadi.

Shikoyatni ko‘rib chiqish natijasida sud quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

shikoyatni qanoatlantirishsiz qoldirish to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish haqida.

Sudning ajrimi apellatsiya shikoyati berish yoki protesti bildirish muddati tugashi bilan qonuniy kuchga kiradi. Sudning ajrimi o‘qib eshittirilganidan keyin darhol prokurorga, shuningdek, o‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risida qaror qabul qilingan shaxsga va, agar ishda ishtirok etgan bo‘lsa, uning himoyachisiga yuboriladi. Sudning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e‘tiboran o‘n sutka ichida apellatsiya tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat berilishi yoki protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti ajrimni chiqargan sud orqali berilib, sud uni materiallar bilan birgalikda uch sutka ichida O‘zbekiston

Respublikasi Oliy sudiga yuborishi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi appellatsiya shikoyatini yoki protestini ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

sud ajrimini o'zgarishsiz, appellatsiya shikoyatini yoki protestini esa qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;

sudning ajrimini bekor qilish to'g'risida.

Apellatsiya instansiyasi sudning ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va darhol ijro etilishi kerak. Apellatsiya instansiyasi sudning ajrimi prokurorga ijroni tashkil etish uchun, o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan shaxsga va, agar ishda ishtirok etgan bo'lsa, uning himoyachisiga ma'lumot uchun yuboriladi (JPK 602-m.).

*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni xorijiy davlatga ushlab berishni rad etish.* O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni xorijiy davlatga ushlab berishga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi, agar:

o'ziga nisbatan so'rov kelib tushgan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lsa;

so'rov yuborilishiga sabab bo'lgan jinoyat O'zbekiston Respublikasi hududida yoki O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga qarshi uning hududidan tashqarida sodir etilgan bo'lsa;

so'ralayotgan shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasi hududida ayni o'sha qilmish uchun qonuniy kuchga kirgan hukm yoki sudning ajrimi (qarori) yoxud vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi yoki uni tugatish to'g'risidagi bekor qilinmagan qarori mavjud bo'lsa;

so'rov yuborilishiga asos bo'lgan qilmish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra jinoyat bo'lmasa;



O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq jinoyat ishi qo‘zg‘atish mumkin bo‘lmasa yoki tugatilishi lozim bo‘lsa yoxud muddati o‘tib ketganligi tufayli yoki boshqa qonuniy asosga ko‘ra hukmni ijro etish mumkin bo‘lmasa;

so‘ralayotgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasida ayni o‘sha qilmish uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

o‘ziga nisbatan so‘rov kelib tushgan shaxsga uni so‘rayotgan davlatda irqi, diniy e‘tiqodi, fuqaroligi, millati, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy e‘tiqodiga ko‘ra ta‘qib etilishi mumkinligi sababli O‘zbekiston Respublikasida boshpana berilgan bo‘lsa.

So‘ralayotgan shaxsga nisbatan uning yo‘qligida chiqarilgan hukmni ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish, agar hukm qilingan shaxs o‘zining himoyaga bo‘lgan huquqini ta‘minlash uchun yetarlicha imkoniyatga ega bo‘lmagan deb hisoblashga asoslar bo‘lsa, rad etilishi mumkin. Agar so‘rovni yuborgan xorijiy davlat hukm qilingan shaxsga uning ishtirokida takroriy sud muhokamasi o‘tkazilishiga bo‘lgan huquqni kafolatlasa, ushlab berish amalga oshiriladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish amalga oshirilmasa, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organini rad etish asoslarini ko‘rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi (JPK 603-m.).

*O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berishni kechiktirish va vaqtincha ushlab berish.* O‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risida so‘rov kelib tushgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududida boshqa jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilayotgan yoki jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, uni ushlab berish jinoyat ishi tugatilguniga, hukm ijro etilguniga yoki har qanday qonuniy asosga ko‘ra jazodan ozod qilinguniga qadar kechiktirilishi mumkin.

Agar jazoni o‘tayotgan shaxsni ushlab berishni kechiktirish jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketishiga sabab bo‘lishi yoki

jinoyatni tergov qilishga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, so'ralayotgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan belgilangan shartlarga rioya etish majburiyati mavjud bo'lgan taqdirda, vaqtincha ushlab berilishi mumkin.

Vaqtincha ushlab berilgan shaxs jinoyat ishi bo'yicha qaysi protsessual harakatlar bajarilishi uchun ushlab berilgan bo'lsa, o'sha protsessual harakatlar bajarilganidan keyin, biroq shaxs topshirilgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay qaytarib berilishi kerak. Har ikkala davlat vakolatli organlarining o'zaro ahdlashuviga ko'ra bu muddat shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat uchun hukm qilingan yoki qonunga muvofiq hukm qilinishi mumkin bo'lgan jazo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish uchun ushlab turish va qamoqqa olish.* O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida xorijiy davlatning vakolatli organidan tegishli tarzda rasmiylashtirilgan so'rov olinganda va mazkur shaxsni ushlab berish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, ushbu shaxs ushlab turilishi va unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosnomasiga binoan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov olinguniga qadar ham ushlab turilishi mumkin. Iltimosnomada qamoqqa olish to'g'risidagi qarorga yoki qonuniy kuchga kirgan hukmga havola va mazkur so'rov qo'shimcha ravishda taqdim etilishi ko'rsatilishi kerak. Shaxsni qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnoma ushbu so'rov yuborilguniga qadar pochta, telegraf, teleks, faks yoki boshqa aloqa vositalari orqali yetkazilishi mumkin.

Shaxs, agar u boshqa davlat hududida uni ushlab berishga sabab bo'ladigan jinoyat sodir etgan deb gumon qilish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, JPK 605-moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan iltimosnomasiz ham yetmish ikki soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Shaxs ushlanganidan keyin ichki ishlar organlarining yoki boshqa surishtiruv organlarining xodimlari olingan materiallarni prokurorga taqdim etadi, u materiallarni o'rganib chiqadi va ushlab turilgan shaxsning qidiruv e'lon qilingan shaxs ekanligi to'g'risida yetarli asoslar mavjud bo'lgan, shuningdek, JPK 603-moddasida bayon qilingan asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi va uni sudga yuboradi.

Prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma kiritishi, uning sudya tomonidan ko'rib chiqilishi, ajrim chiqarilishi, shuningdek, sudyaning ajrimi ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish JPKning 241 va 243-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Shaxs qamoqqa olinganligi to'g'risida prokuror O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni qamoqqa olish haqida iltimosnoma yoki ushlab berish to'g'risida so'rov yuborgan yoxud yuborishi mumkin bo'lgan xorijiy davlatning vakolatli organini darhol yozma ravishda xabardor qiladi.

O'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi masala ko'rilayotgan shaxsni qamoqda saqlab turish muddati ko'pi bilan uch oyni tashkil etadi. Mazkur muddat ushlab beriladigan shaxsning topshirilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, xorijiy davlatning vakolatli organidan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilingan hollarda JPKning 245-moddasi ikkinchi qismida va 247-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzaytirilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda sud taqdim etilgan materiallarning asosliligini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari talablariga rioya etilganligini hisobga oladi (JPK 605-m.).

*O'zbekiston Respublikasi hududida ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxsni ozod qilish.* Ushlab berishni ta'minlash uchun ushlab

turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs prokurorning qarori asosida darhol ozod qilinishi kerak, agar:

JPK 605-moddasining uchinchi qismiga muvofiq ushlab turilgan shaxsni qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnoma u ushlangan paytdan e'tiboran uch sutka ichida kelib tushmagan bo'lsa;

xorijiy davlat vakolatli organining uni ozod qilish zarurligi to'g'risidagi xabarnomasi kelib tushgan bo'lsa;

qamoqqa olingan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov va unga ilova qilinadigan hujjatlar xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan qirq sutka ichida taqdim etilmagan bo'lsa;

xorijiy davlatning vakolatli organidan qamoqqa olingan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovga qo'shimcha ravishda so'ralgan ma'lumotlar bir oy ichida, xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi kelib tushgan taqdirda esa ikki oy ichida kelib tushmagan bo'lsa;

unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish sud tomonidan rad etilgan bo'lsa;

uni ushlab berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa;

uni ushlab berish to'g'risidagi qaror sud tomonidan bekor qilingan bo'lsa;

o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risida qaror qabul qilingan shaxs uni topshirish uchun belgilangan kundan e'tiboran o'n besh sutka ichida xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan qabul qilib olinmagan bo'lsa, agar bunday topshirish sanasi ko'chirilmagan bo'lsa.

Prokuror qabul qilingan qaror haqida qamoqqa olish to'g'risida ajrim chiqargan sudni yozma ravishda xabardor qiladi.

Shaxsni ushlab berish maqsadida takroran ushlab turish va qamoqqa olishga O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida yangi so'rov olinganidan keyin yo'l qo'yiladi, JPK 606-moddasi birinchi qismining yettinchi va sakkizinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ushlab beriladigan shaxsni topshirish.* O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ushlab

beriladigan shaxsni topshirish joyi, sanasi va vaqti haqida xorijiy davlatning vakolatli organini yozma ravishda xabardor qiladi. Agar mazkur shaxs topshirish uchun belgilangan kundan e'tiboran o'n besh sutka ichida qabul qilib olinmasa, u qamoqdan ozod qilinadi.

Xorijiy davlatning vakolatli organi ushlab berilishi lozim bo'lgan shaxsni o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli qabul qilib olishi mumkin bo'lmay qolgan va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qilgan taqdirda, topshirish sanasi ko'chirilishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi ushlab berilishi lozim bo'lgan shaxsni o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli topshirishi mumkin bo'lmay qolsa, topshirish sanasi o'sha tartibda ko'chirilishi mumkin (JPK 607-m.).

*Ushlab berilgan shaxsni tranzit tarzida o'tkazish.* Xorijiy davlat vakolatli organining uchinchi davlat tomonidan mazkur organga ushlab berilgan shaxsni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomasi JPKning 601 va 603-moddalari talablariga rioya etilgan holda ko'rib chiqiladi (608-m.).

*Ashyolarni topshirish.* Shaxsni xorijiy davlatning vakolatli organiga ushlab berishda jinoyat quroli bo'lgan ashyolar, shuningdek, jinoyat izlarini o'zida aks ettirgan yoki jinoiy yo'l bilan topilgan ashyolar topshiriladi. Bu ashyolar shaxsni ushlab berish uning vafot etganligi yoki boshqa sabablar tufayli amalga oshirilishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda ham mazkur organning iltimosiga binoan topshiriladi.

JPK 609-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan ashyolarni topshirish, agar mazkur ashyolar boshqa jinoyat ishini yuritish uchun zarur bo'lsa, vaqtincha kechiktirib turilishi mumkin. Uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun JPK 609-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan ashyolarni topshirish xorijiy davlat vakolatli organining jinoyat ishini yuritish tamomlanishi bilan ashyolarni qaytarish to'g'risidagi kafolatlari mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi (JPK 609-m.).

## **XXXV BOB. XORIJIY DAVLATLARNING JINOYAT PROTSESSI**

### **35.1. Xorijiy davlatlar jinoyat protsessining umumiy ta’rifi**

Hozirgi davlatlarning jinoyat protsessi tortishuvga asoslangan (Britaniya) yoki tergov va tortishuvga asoslangan (Fransiya va boshqalar) protsess sifatida amal qiladi. Islom dini dunyosiga kiruvchi davlatlarda u islom huquqi va dunyoviy qonunchilikka asoslangan.

Ayrim xorijiy davlatlarda qonunning ustunligi prinsipi endilikda bosh prinsip bo‘lmay qolgan. Hukumat va sud muassasalariga jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko‘rib chiqishni tartibga soluvchi hujjatlar chiqarish vakolati berilgan. Ba’zan davlatlar bir-birlaridan huquqiy tizim namunalari oladilar va o‘zlarining tarixiy, milliy va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘zlariga moslashtirishga harakat qiladilar.

Masalan, *Britaniyaning* huquqiy tizimini meros qilib olgan AQSH «umumiy huquq» mamlakatlariga kiritiladi. Bu Amerika sudlari qo‘llaydigan qonunlarning asosiy qismi an’anaviy ravishda pretsedent huquqidan tashkil topganligini bildiradi. Pretsedent huquqi – oraliq apellatsiya sudlari va so‘nggi instansiya sudlari o‘z qarorlarini tushuntirish uchun bergan yozma xulosalar asosida chiqarilgan yuridik prinsiplar va qoidalardan iborat. Sud pretsedenti doktrinasiga muvofiq, ushbu qarorlar barcha keyingi ishlarni ko‘rib chiqishda majburiy hisoblanadi. Mazkur ishlar boshqalaridan farq qilishi isbotlangan yoxud, ba’zan bo‘lib turganidek, bu qarorlar bekor qilingan hollar bundan mustasno. Garchi AQSH yurisprudensiyasining asosini pretsedent huquqi tashkil etsa-da, hozirgi vaqtda pretsedent huquqi (umumiy huquq) qoidalari bilan bir qatorda federal qonun chiqaruvchi organlar va shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari qabul qilgan qarorlar (statut huquqi) keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, sud muhokamasida ko‘pincha ma’muriy organlar qabul qiladigan ko‘plab qonun hujjatlari va nizomlardan foydalaniladi.

*AQSH* sudlarining qarorlari nashr etilganda ular odatda «dokladlar» deb ataluvchi jildlangan tomlarga jamlab eʼlon qilinadi. Koʻpchilik shtatlarning oʻz rasmiy «dokladlari» mavjud. Barcha shtatlar sudlarining qarorlari xususiy noshirlar mijozlarga qulaylik boʻlishi uchun chop ettiradigan mintaqaviy «*dokladlarga*» kiritiladi. Federal sud organlarining qarorlari alohida «dokladlar» sifatida chop etiladi. Har bir shtatda baʼzan kodeks deb ataladigan koʻp jildli qonun hujjatlari yoki statutlar toʻplami boʻladi. Federal qonun hujjatlari birgalikda Qoʻshma shtatlar kodekslariga jamlangan. Bundan tashqari, federal darajadagi va shtatlar darajasidagi maʼmuriy qarorlarning koʻplab eʼlon qilingan jildlari mavjud. Britaniyada jinoyat protsessi parlamentning uch yuz yil davomida qabul qilingan 300 dan ortiq hujjatlarida mustahkamlangan protsessual normalar asosida amalga oshiriladi. Oʻzaro ziddiyatli qadimiy qonun hujjatlarining koʻpligi, protsessual qoidalar, institutlar va shakllarning arxaik va kazuistik ekanligi, sud pretsedentlarining mavjudligi, qonunlarning kodekslarga jamlanmaganligi, ingliz jinoyat protsessini nihoyatda murakkab qiladi.

Yevropaning kontinental davlatlarida jinoyat-protsessual qonun hujjatlari yozma xususiyatga ega boʻlib, har bir mamlakat oʻzining jinoyat-protsessual kodeksiga yoki jinoyat-protsessual qonuniga yoxud qoidalariga ega. Ushbu qonun hujjatlari doimiy ravishda yangi qonunlar (Germaniyada), dekretlar, ordonanslar (Fransiyada) bilan toʻldirilib va oʻzgartirilib boradi.

Hozirgi Fransiyaning jinoyat protsessi 1958-yilgi Konstitutsiya, 1958-yilgi JPK va hukumat majlislarida qabul qilingan tegishli ordonanslar asosida amalga oshiriladi.

Germaniya jinoyat protsessining asosini 1965-yilgi tahrirda amal qilayotgan 1877-yilgi Jinoyat-protsessual qoidalar tashkil qiladi.

Jinoyat protsessi prokuratura, politsiya yoki hududiy sudyalarga jinoyat haqida yozma yoki ogʻzaki shaklda ariza berishdan boshlanadi. Jinoiy taʼqibni boshlash haqidagi masalani prokuratura hal qiladi. Prokuratura bunday qarorni qabul qilishdan avval dastlabki tekshiruv –

surishtiruv o'tkazadi. Surishtiruv chog'ida jinoyatning holatlari aniqlanadi, dalillarni qayd etish choralari ko'riladi, hujjatlar talab qilib olinadi. Prokuratura xodimlari qasamyod qildirib so'roq qilishdan boshqa har qanday tergov harakatini o'tkazishi, ushbu harakatlarni o'tkazishni politsiyaga topshirishi mumkin.

Politsiya federatsiya yoki o'lkalar darajasidagi ichki ishlar vazirliklarining tasarrufidadir. U jinoyatlarni aniqlashda keng, ularni tergov qilishda esa tor vakolatlarga egadir. Politsiya jinoyatlar haqidagi arizalar asosida dalillar yo'qotilishiga to'sqinlik qilish maqsadida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari o'tkazishga haqlidir. To'plangan barcha materiallarni politsiya darhol prokurorga yoki bevosita hududiy sudyaga berishi shart. Politsiya ushlangan shaxs qochishga uringan taqdirda uni hibsga olish haqida topshiriq berishga haqlidir. U ayrim tergov harakatlarini ham o'tkazishga majbur. Biroq amalda politsiya asosiy tergov organi hisoblanadi. So'nggi yillarda politsiyani prokuraturaning tezkor tasarrufidan ozod qilish, uning mustaqilligini kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirish tamoyillari kuzatilmoqda.

O'tkazilgan surishtiruv ayblov uchun yetarli asos bergan hollarda prokuratura ish materiallarini dastlabki tergov o'tkazish uchun sudga beradi yoki ushbu jinoyat ishi bilan shug'ullanadigan sudda ko'rib chiqish uchun ayblov hujjatini jo'natadi.

Jahondagi barcha konstitutsiyalar orasida *Yaponiyaning* 1946-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi jinoyat protsessiga oid eng ko'p normalarga ega. Unda, jumladan, jinoyat protsessining quyidagi prinsiplari mustahkamlangan: hech kim uning ishi sudda ko'rib chiqilishidan iborat huquqidan mahrum etilishi mumkin emas (32-m.), jinoyat sodir etilgan joyda ushlangan hollardan tashqari hollarda shaxsni ushlab turish uchun vakolatli adliya organi bergan va ushlab turish sababi aniq ko'rsatilgan order zarur (33-m.), ushlangan shaxs ushlanganidan so'ng darhol buning sababini bilish va advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega, ushlangan shaxsning talabi bo'yicha ushlab turish sababi unga ochiq sud majlisida uning o'zi va advokati ishtirokida ko'rsatiladi (34-m.),



shaxsning turar joyiga kirib tergov o'tkazish, shuningdek, hujjatlar va shaxsiy ashyolarini tintish va olib qo'yish uchun sud idoralari bergan order bo'lishi zarur (35-m.), qiynash qat'iy man etiladi (36-m.), ayblanuvchi o'z ishining xolis sudda tez va oshkora ko'rib chiqilishi huquqiga ega (37-m.) va h.k.

Ayblanuvchiga davlat hisobidan uning talabi bo'yicha so'roq qilinishi mumkin bo'lgan guvohlarni chaqirish, shuningdek, malakali advokat yordamidan foydalanish huquqi berilgan.

Konstitutsiyada ushbu prinsiplar qayd etilganligining boisi shundaki, avvalgi Konstitutsiya amal qilgan davrda jinoyat ishlari bo'yicha o'tkaziladigan tergovlarda gumon qilinuvchining eng oddiy huquqlari buzilar, sudlar esa shakllanib bo'lgan ishonchiga asoslangan adolatsiz hukmlar chiqarar edi. 1948-yilda Yaponiyada gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlari himoya qilinishini kuchaytiruvchi yangi Jinoyat-protsessual kodeks qabul qilindi. Ayrim o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan JPK hozir ham amal qilmoqda.

Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, jinoyatlarni asosan politsiya tergov qiladi, prokuratura esa unga umumiy ko'rsatmalar beradi, xolos. Ayrim hollarda prokuror zarur deb hisoblasa, tergovni o'zi o'tkazishi mumkin. Yaponiyada jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyati xizmat vazifasi hisoblanadigan tergovchilar instituti yo'q.

Yaponiya politsiyasi jinoyatlarni tergov qilish borasida katta imkoniyatlarga ega. Ammo ko'plab gumon qilinuvchilar mavjud bo'lgan yoki poraxo'rlik bilan bog'liq yoxud kompaniyalar faoliyatiga aloqador bo'lgan murakkab ishlarni prokuratura politsiya yordamida tergov qiladi. Adliya vaziri nafaqat prokurorlar faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va ushbu faoliyatni nazorat qiladi, balki uning vakolatiga ayrim ishlarni tergov qilish va ular yuzasidan choralar ko'rish munosabati bilan bosh prokurorning harakatlariga rahbarlik qilish huquqi ham kiradi.

JPKda prokurorga jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish zarurati bo'lmasa, uning tavsiflanishi, yoshi va qayerda ekanligi, jinoyatning og'irlik darajasi va sodir etilish holatlari, shuningdek, jinoyat sodir

etilganidan so'ng qaror topgan holatlarni inobatga olib, ayblov qo'zg'atmaslik huquqi berilgan.

*Islom huquqida* jinoyat ishlarining mazmuniga qarab ularni ko'rib chiqish tartibida muhim farqlar yo'q. To'g'ri, bitimlar va shaxsiy maqom masalalari bo'yicha fuqaroviy-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan odatdagi tortishuvlar, shuningdek, ma'naviy buzqlikda yolg'on ayblash, qotillik va badanga shikast yetkazish kabi jinoyatlarni qozi faqat huquqi buzilgan shaxsning da'vosi bo'yicha ko'rib chiqadi. Boshqa ishlar har qanday shaxsning talabi bo'yicha, jumladan, qozining o'z tashabbusi bilan ham sudda muhokama qilinishi mumkin. Har qanday masalani qozi bitta majlis davomida yakka tartibda hal qiladi.

Qozilarning huquqiy vakolati (yurisdiksiya) doirasi ancha o'zgaruvchan bo'lib, turli omillar ta'sirida vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Saxih xalifalar (chahoryorlar) hukmronlik qilgan davrlarida qozilarga odatda fuqaroviy va oilaviy ishlarga doir nizolarni hal qilish huquqi berilgan. Ba'zi vaqtlarda ularga amaldorlarning o'zboshimchaligi yuzasidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish topshirilgan. Vaqt o'tishi bilan qozilar vakolatlarining doirasi kengayib borgan va boshqa toifadagi ishlarni ham qamrab ola boshlagan.

Odatda, qozining vakolatlar doirasi uni tayinlash paytida belgilanadi. Badanga yetkazilgan shikast uchun tovon to'lash masalalaridan boshqa barcha jinoyat ishlarini ko'rib chiqishga oid ko'pchilik hollar uning vakolatiga kiritilmaydi. Ushbu vazifa uzoq vaqt davomida huquqbuzarga nisbatan majburiy jazo choralari qo'llash imkoniga ega bo'lgan hukmdor, uning joylardagi vakillari va mirshablarning vakolatiga kirib kelmoqda. Bunday «mehnat taqsimoti» ko'p jihatdan qozilar o'zining samarali majburlov apparatiga deyarli ega bo'lmaganligi va shu bois ularning qarorlari nizolashgan tomonlar uning qaroriga ixtiyoriy ravishda rozi bo'lgan hollardagina to'liq va aniq amalga oshishi mumkinligi bilan izohlanadi. Kuch ishlatishga to'g'ri kelganda esa qozi tegishli vositalarga ega bo'lgan organlarga murojaat etishga majbur bo'ladi.

Shu bois islom davlati haqidagi nazariyada sud hokimiyatini ijro etuvchi hokimiyatdan butunlay ajratish nazariyasi bo‘lmaganligini, qozining ijro etuvchi apparat bilan o‘zaro munosabatining va ular vakolatlarini ajratib qo‘yishning aniq huquqiy asoslari ishlab chiqilmaganligini eslash zarur. Natijada hukmdorlar va joylardagi vakillar qozilarning vakolatlari doirasini belgilab qo‘yish bilan cheklanmay, balki odil sudlovni amalga oshirishlariga bevosita aralashishlari ham mumkin. Qozi chiqargan qarorlarning ijrosi ham ularga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Agar xalifa ularni tan olmasa, qozining iste’foga chiqishdan boshqa chorasi qolmagan. Joylardagi vakillar, o‘z navbatida, yuridik jihatdan sud qarorlarini ijro etishi shart bo‘lmagan. Bu o‘rinda ko‘p narsa qozining obro‘sig va joylardagi vakil bilan munosabatiga bog‘liq bo‘lgan. Ushbu munosabatlar yaxshi bo‘lsa, vakil ham qozini qo‘llab-quvvatlagan, qozining qarorlari bajarilgan. Aks holda, qozi ojiz bo‘lib qolgan.

Dunyoviy sudlarning ishlarni ko‘rib chiqish tartibi qozilar qo‘llagan protsess qoidalaridan jiddiy farq qiladi. Masalan, ular islom huquqida taqiqlangan dalillarni (jumladan, qiynoq orqali olingan ko‘rsatuvlarni) ham qabul qilishlari mumkin. Ammo dunyoviy sudlar islom huquqining ko‘plab qoidalarini jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga moslashtirishning yo‘llaridan biri bo‘ldi. Bunda o‘zgargan manfaatlar va shart-sharoitlarni inobatga olishning adolatliligi va zarurligiga asoslanilgan.

Ko‘plab islom davlatlarining hozirgi sud tizimlariga ilk o‘rta asr davridayoq qaror topgan islomiy va dunyoviy sudlarning dualizmi xosdir. Faqat to‘rtta davlatda (Misr, Jazoir, Yaman va Tunisda) qozilar sudlari hozirgi vaqtda tugatilgan.

Qozilar saqlanib qolgan arab mamlakatlarining sud tizimini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhi ancha yuksak ijtimoiy taraqqiyot darajasiga erishgan va davlat tabiatan o‘rta va yuqoriroq sinflarning manfaatlarini ifodalaydigan mamlakatlarda (Iordaniya, Livan, Marokash, Sudanda) qaror topgan. Ushbu guruhga Iroq, Liviya va Suriya

davlatlarining sud tizimlari ham kiradi. Bu mamlakatlarning har birida musulmon sudlari o'ziga xos tarzda tashkil qilingan. Ko'pincha ular faqat quyi instansiya sudlarini shakllantirish bilan cheklanib qoladi (masalan, Marokashda). Biroq ayrim hollarda musulmon sudlarining ko'p bosqichli tizimi amal qiladi. Masalan, Sudanda ularga uch bosqichdagi tuman musulmon sudlari va bir qancha apellatsiya sudlari kiradi.

Aholisi islom huquqining turli yo'nalishlari va mazhablariga amal qiladigan mamlakatlar sud tizimlarining xususiyati shundaki, ularda musulmon sudlarining bir necha parallel (muvoziy) tizimlari tashkil qilinadi (masalan, Iroq va Livanda sunniylik va ja'fariylik sudlari, Iroq va Suriyada druzdlar uchun maxsus sudlar). Ko'pincha ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarda apellatsiya instansiyasi vazifasini bajaruvchi oliy musulmon sudlari ham tashkil qilinadi. Masalan, Livanda oliy sunniy va ja'fariy sudlar uch nafar sudya va maxsus prokurordan iborat bo'ladi, Iordaniyada esa apellatsiya sudini qirol rais va boshqa a'zoldan iborat tarkibda tayinlaydi. Liviyada bir necha apellatsiya sudlari tashkil qilingan bo'lib, ularning har biri rais, uning o'rinbosari va maslahatchilaridan iborat. Ayni paytda qarorni uchta maslahatchi ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Ayrim hollarda musulmon sudlarining qarorlari yuzasidan apellatsiya shikoyatlari yuqori turuvchi fuqarolik sudiga (Marokashda), Iroq, Suriya, Sudanda esa – oliy sud instansiyasining maxsus palatasiga beriladi (Sudanda bosh qozikalon Oliy sud a'zosi hisoblanadi). Bu yerda musulmon sudlarining tarkibini davlat boshlig'i, adliya vaziri yoki oliy kengash belgilaydi. Barcha qozilar davlat xazinasidan maosh oladilar, musulmon sudlarining qarorlarini esa vakolatli davlat muassasalari – politsiya, ichki ishlar idoralari va shu kabilar bajaradilar.

Yaqin vaqtlargacha *Isroil* davlatining jinoyat protsessi haqida biz juda kam ma'lumotlarga ega edik. Sobiq Ittifoq parchalanishi bilan O'zbekiston va Isroil o'rtasida normal diplomatik munosabatlar o'rnatilishi, o'zaro foydali munosabatlarning (ayniqsa iqtisodiyot va savdo-sotiq sohasida) muvaffaqiyatli rivojlanishi, «O'zbekiston – Isroil»

do'stlik va madaniy aloqalar jamiyatining ta'sis etilishi va faoliyat ko'rsatishi hamda munosabatlarning yanada rivojlanishi va terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik o'rnatishning zarurligi ushbu davlatning jinoyat protsessini o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi.

Isroildagi jinoyat protsessi quyidagi prinsiplarga asoslangan:

1) u yoki bu harakatni sodir etganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilmagan hech bir shaxs jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas (qonuniylik prinsipi). Ushbu prinsipning amaliy ma'nosi shundaki, sodir etilish paytida qonun bilan taqiqlangan harakat jazolanadigan harakat deb hisoblanadi. U yoki bu harakatni taqiqlovchi yoki ilgari taqiqlangan harakat uchun qattiqroq jazo belgilovchi yangi qonun qo'llanilgan taqdirda, unda nazarda tutilgan jazo taqiqlangan harakatni yangi qonun e'lon qilinganidan keyin sodir etgan shaxslargagina qo'llanilishi mumkin. Yangi qonun ilgari qilinishi mumkin deb hisoblangan yoki ilgari yengilroq jazo belgilangan harakatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Masalan, 1990-yilda avtomobil o'g'riligi uchun eng qattiq jazo muddatini uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum etishga almashtirgan qonun qabul qilindi. 1989-yilda avtomobil o'g'irlagan shaxs ushbu jinoyatni sodir etganligi uchun uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinishi mumkin emas.

Nima jinoyat ekanligini va u yoki bu jinoyatni sodir etgan odam qanday jazoga tortilishi mumkinligini belgilash qonun chiqaruvchi hokimiyatning vakolatiga kiradi. Sud u yoki bu harakatni «o'xshashiga qarab» yoki har qanday boshqa prinsipga asoslanib jinoiy harakat deb e'lon qilish huquqiga ega emas. Qonun chiqaruvchi hokimiyat va sud hokimiyati funksiyalarining aniq ajratilganligi huquqiy davlat tuzilishining eng muhim xususiyatidir.

Biror bir harakat Isroilda jinoyat deb hisoblanishi uchun u tegishli qonun hujjatida jinoyat deb aniq belgilangan bo'lishi kerak. U yoki bu harakatning axloq mezonlari nuqtai nazaridan gunoh deb hisoblanishi hali uni jinoyatga aylantirmaydi. Agar qonunda muayyan harakatning sodir etilishi taqiqlanmagan bo'lsa, u jinoyat hisoblanmaydi.

Masalan, Isroil qonunlarida hayoti yoki sog'lig'iga bevosita xavf tahdid solayotgan odamga yordam ko'rsatish barchaning majburiyati ekanligi nazarda tutilmagan. Har bir fuqaroni u yoki bu aniq vaziyatda, jumladan, yo'l-transport hodisasidan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatish majburiyatini yuklovchi va boshqa qonunlar bor. Ularning fikricha, inson hayotini qutqarish yoki jabrlangan shaxsga yordam ko'rsatishdan bo'yin tovlayotgan shaxs eng og'ir axloqiy qoralashga munosib (qutqarish yoki yordam ko'rsatish harakatlari o'z hayotiga xavf tug'ilishi bilan bog'liq bo'lmagan taqdirda). Ayni paytda bu qilmish, qonunda jinoyat deb belgilanmagan bo'lsa, jinoyat hisoblanmaydi;

2) aybi jinoiy niyat qilganlikdangina iborat bo'lgan shaxs jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas. Bu prinsip jinoiy niyatlar va mo'ljallarning o'zi og'ir jinoyat hisoblanishi mumkin emasligini bildiradi. Faqat aniq faol yoki passiv jinoiy harakatgina jinoyat deb topilishi mumkin. Passiv harakat, ya'ni harakatsizlik qonunda nazarda tutilgan majburiyatning buzilishi bo'lgan taqdirdagina jinoyat deb topilishi mumkin. Bunday majburiyatning manbai bo'lib u yoki bu qonun hujjati, boshqa shaxs bilan imzolangan bitim, ushbu shaxsning muayyan harakatlarni sodir etishini nazarda tutuvchi lavozimni egallagani kabilar xizmat qilishi mumkin.

Xususan, o'z bolasini boqmaganligi natijasida bolasi o'lgan yoki kasallikka chalingan bo'lsa, ota yoki ona og'ir jinoyat sodir etganlikda aybdor hisoblanadi. Plajda (tegishli mehnat shartnomasida nazarda tutilgan) o'z vazifasini bajarmaganligi oqibatida cho'kayotgan shaxsning o'limiga sababchi bo'lgan qutqaruvchi haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Bemorga zarur dori berayotgan shifokor yoki hamshira ularning harakatsizligi tufayli bemorning ahvoli yomonlashganligi uchun javobgarlikka tortiladi.

U yoki bu jinoiy harakatni sodir etganlik uchun ayb faqat o'z xatti-harakatini nazorat qilishga qodir bo'lgan, ya'ni o'zini qonun talablariga mos tarzda tutish uchun obyektiv imkoniyatga ega bo'lgan shaxsgagina qo'yilishi mumkin. Demak, u yoki bu jinoiy harakatni – ham aktiv, ham

passiv harakatni – sodir etishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy zo‘rlik ishlatib majbur etilgan odam ushbu jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilishi mumkin emas. Masalan, boshqa bir odam ustiga itarib yuborilgan yoxud bog‘lab qo‘yilgani uchun chaqiruv xatiga muvofiq harbiy xizmatga borish uchun hozir bo‘la olmagan shaxs aybdor deb topilishi mumkin emas;

3) qonundan taqiqlangan harakatning ma‘nosini tushunishga qodir bo‘lmagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Binobarin, 12 yoshgacha bo‘lgan shaxslar, shuningdek, ruhiy kasalligi yoki aqliy zaifligi tufayli haqiqiy holatdan kelib chiqib, har qanday aloqadan mahrum bo‘lgan yoki qonunga amal qilish uchun hech bir imkoniyati bo‘lmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Masalan, kasalligi tufayli jinoyat sodir etishga turtki beruvchi mutlaqo boshqarib bo‘lmas ichki impulslar ta‘siriga duchor bo‘lgan shaxs ushbu impulslar ta‘sirida jinoyat sodir etganligi uchun jazoga hukm etilishi mumkin emas.

Isroil qonunlarida nafaqat xususiy shaxslarni, balki turli xil jamoat yoki tijorat birlashmalari (kompaniyalar, konsernlar, kotezkor shirkatlar va sh.k.)ni jinoiy javobgarlikka tortish mumkinligi nazarda tutilgan. Odatda, u yoki bu birlashma yuqori lavozimli rahbarlaridan birining jinoiy harakat sodir etganligi ushbu birlashmani jinoiy javobgarlikka tortishning zarur sharti bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu rahbarning vazifalari va vakolatlari shunchalik keng bo‘lishi kerakki, uning jinoiy harakatlarini mazkur birlashmaning jinoiy harakatlari bilan bir deb hisoblash mumkin bo‘lishi kerak. Jamoat yoki tijorat birlashmasini jinoiy javobgarlikka tortish ushbu birlashmaning u yoki bu aniq jinoiy harakatlarni sodir etishda aybdor bo‘lgan xodimlarini shaxsiy jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi;

4) aybi bo‘lmagan shaxs jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas. Ushbu prinsip aybi faqat jinoiy niyatida bo‘lgan shaxs jinoiy ta‘qib etilishi mumkin emasligi haqidagi prinsipga (ya‘ni jinoyat protsessining 2-prinsipiga) qo‘shimchadir.

Harakatda aniq ayb tarkibi bo'lmasa, nafaqat niyat, balki harakat ham jinoyat deb topilishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, ushbu harakatni sodir etayotgan shaxs muayyan jinoiy maqsadga asoslanishi kerak. Odatda jinoyat sodir etilayotgan paytda jinoyatchining ushbu harakat qonunni buzish ekanligini bilishi aybdan dalolat beradi.

Masalan, inson o'zlashtirib olgan narsasi boshqa birovga (tashkilotga, birlashmaga va shu kabilarga) tegishliligini bilgan taqdirdagina o'g'rilik sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin. Garderobda yanglishib, ya'ni birovning zontini o'ziniki deb o'ylab olgan kimsa o'g'ri deb hisoblanishi mumkin emas. O'zining qurboni politsiyachi ekanini bilmagan shaxs politsiyachiga tajovuz qilishda aybdor deb topilishi mumkin emas. Harakatlari boshqa birovning o'limiga olib kelishi yoki kimgadir jismoniy ziyon yetkazishi mumkinligini bilmagan shaxs qasddan odam o'ldirganlikda yoki qasddan jismoniy ziyon yetkazganlikda aybdor deb topilishi mumkin emas.

Alohida ijtimoiy qiziqish uyg'otuvchi ayrim hollarda qonun jinoiy niyat mavjudligi mezoni bilan cheklanib qolmaydi, balki qo'shimcha aybdorlik mezoni – jinoiy beparvolik mezonini kiritadi. Masalan, Isroil qonunida inson o'limiga yoki jismoniy ziyon yetkazilishiga olib kelgan beparvolik jinoyat deb tan olinadi. Beparvoligi inson o'limiga sabab bo'lgan shaxs u o'z harakati yoki harakatsizligi o'limga olib kelishi mumkinligini anglamagan taqdirda ham aybdor deb topilishi mumkin. Bunda shu hol yuz berishini anglashi kerakligining o'zi yetarli hisoblanadi.

Qonunni bilmaslik jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi, chunki jinoyat qonunlarining asosiy qoidalarini har bir fuqaro bilishi zarur, deb hisoblanadi;

5) harakatlari muayyan holatlar tufayli oqlasa bo'ladigan yoki chidasa bo'ladigan deb topilishi mumkin bo'lgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bunga o'zini himoya qilish harakati, majburan qilingan harakatlar, zaruriy xususiyatga ega bo'lgan harakatlar, mastlik kabilar kiradi.



Xususan, sudlanuvchi shaxs (masalan, biror shaxsni qonuniy ravishda qamagan politsiyachi yoki muayyan vaziyatlarda oddiy fuqaro) unga ayb sifatida qo'yilayotgan harakatlarni bajarishga majbur bo'lganligini yoki qonunan bunga vakolatli bo'lganligini aytadi. Yoki boshqa misol: harbiy harakatlar vaqtida birovning uyiga kirish haqida buyruq olgan askar, garchi unga berilgan buyruq noqonuniy xususiyatga ega bo'lganligi keyinchalik aniqlansa ham, harakatlarining oqlanganligi prinsipiga asoslangan himoyalani variantidan foydalanishi mumkin. Biroq tinch aholiga qarata o'q uzish yoki hech bir aybsiz odamni urish haqida buyruq olgan askar unga ushbu harakatni sodir etish buyurilganligini aytib, o'zini oqlay olmaydi. Bunday buyruq g'ayriqonuniyligi aniq ko'rinib turgan topshiriqning yaqqol misolidir. Bu kabi buyruqqa bo'ysungan shaxs o'z harakatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O'zini himoya qilish, harakatlarning majburiyligi va zaruriy xususiyati tegishli ravishda bizning qonunchilikdagi zaruriy mudofaa, buyruqni bajarish va oxirgi zaruratga o'xshaydi.

Odatda, jinoyat sodir etish paytida jinoyatchining alkogoldan yoki narkotik vositalardan mastlik holati aybni yengillashtiruvchi holat bo'la olmaydi. Shu bilan birga, muayyan vaziyatlarda (masalan, agar inson o'zi bilmagan holda yoki majburan (kimdir mast qiluvchi moddani uning ovqatiga qo'shgan va boshqa hollarda) mastlik holatiga tushib qolgan bo'lsa) ana shu vazifani bajarishi mumkin. Qolgan barcha hollarda mast holda jinoyat sodir etgan shaxs odatdagi tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Qonunda mast holda jamoat joylarida paydo bo'lish taqiqlanadi;

6) aybi butunlay aniq isbotlanishi mumkin bo'lmagan shaxs jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas. Ushbu prinsip ko'pchilik jinoyatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Undan chekinishga qonunda maxsus ko'rsatilgan ayrim hollardagina yo'l qo'yiladi.

Shunday qilib, Isroil qonunchiligiga ko'ra, jinoyat huquqi sohasi uning qo'llanilishi bilan juda kam farq qiladi.

## **35.2. Ayrim xorijiy mamlakatlarda sudgacha bo‘lgan ish yuritish va uning farqlanishi hamda sud muhokamasining o‘ziga xos xususiyatlari**

Ko‘pchilik xorijiy davlatlarda sudgacha bo‘lgan ish yuritish vazifasi politsiya organlariga yuklatilgan. Britaniyada dastlabki tergov ayblovchi dalillarni qidirib topishga va qayd etishga kirishgan paytdan boshlanib, to‘plangan dalillar birinchi instansiya sudiga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan paytda yakunlanadi. Bunda ishning barcha holatlarini chuqur tekshirish talab etilmaydi, taxminan bo‘lsa-da, ayblanuvchining aybdorligini ko‘rsatuvchi ayblov dalillarini to‘plash yetarli bo‘ladi. Dastlabki tergovni o‘tkazuvchi asosiy organ politsiyadir. Ingliz politsiyachilari (konstebellar) tergov chog‘ida katta huquqlardan, xususan, tintuv o‘tkazish va ashyolarni olib qo‘yish huquqidan foydalanadilar. Ayrim ishlarni (masalan, agar o‘lim sababi shubha tug‘dirsa, murdani aniqlashga doir ishlarni) koronerlar (grafliklar yoki shaharlarning kengashlari tayinlaydigan mansabdor shaxslar tergov qiladilar. Koronerlar tergovni o‘z tashabbusi bilan boshlashlari va zarur tergov harakatlarini o‘tkazishlari mumkin. Og‘ir jinoyatlar (jumladan, o‘lim jazosiga tortiladigan jinoyatlar)ga doir ishlar bo‘yicha jinoiy ta‘qibni ichki ishlar vaziri tayinlaydigan ommaviy ta‘qiblar direktori amalga oshiradi. Rasman politsiyachi amaldorlar ayblov dalillariga ega bo‘lgan bayonnomalar tuzishga haqli emasdir, ammo ular sudyaga guvohlarni taqdim etadilar va o‘zlari ham aniqlagan holatlar yuzasidan ko‘rsatuvlar beradilar. Bu bilan ular ayblovchi va guvoh funksiyalarini baravar bajaradilar. Ayblanuvchini oqlovchi yoki uning aybini yengillashtiruvchi dalillarni to‘plash vazifasi ayblanuvchining o‘ziga yoxud uning advokatiga yuklatiladi.

*Fransiyada* ko‘p hollarda dastlabki tergov butunlay politsiya surishtiruv shaklida o‘tkaziladi. Uning asosiy organlari prefektlar va sud politsiyasidir. Xususan, JPKning 30-moddasida prefektlar va sud politsiyasiga ichki va tashqi xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni va nojo‘ya harakatlarni tergov qilish bo‘yicha juda katta vakolatlar berilgan. Prefekt

bevosita o'zi yoki politsiya orqali ushbu jinoyatlar va nojo'ya harakatlarni tergov qilish uchun barcha zarur harakatlarni amalga oshirishga haqlidir. U hibsga olishi, ashyolarni olib qo'yishi, tintuv o'tkazishi va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ushbu harakatlarni sud tekshirmaydi. JPKning 61–63-moddalarida politsiyaning nafaqat gumon qilinuvchilarni, balki jinoyat sodir etilgan joyda yoki uning yaqinida bo'lgan jabrlanuvchilar, guvohlarni ham ushlab turish huquqi belgilangan. JPKda shaxslarni ushlab turish uchun asoslar ro'yxati kengaytirilgan. Buning ustiga sud politsiyasining ishni prokurorga topshirmay, surishtiruv o'tkazishi mumkin bo'lgan muddat cheklanmagan. Gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va har qanday shaxs tergov manfaatlari yo'lida ushlab turilishi mumkin.

Qonunda bevosita ko'rsatilganligi sababli (ba'zan esa prokurorning ixtiyoriga ko'ra) dastlabki tergovni o'tkazish shart deb topilgan ayrim ishlar bo'yicha dastlabki tergovdan avval politsiya surishtiruvi amalga oshiriladi. Dastlabki tergov o'tkazish – tergov sudyasigagina tegishli bo'lgan funktsiya. Tergov sudyalari oliy tribunallar a'zolaridan tayinlanadi. Tergov sudyasi respublika prezidentining dekreti bilan uch yil muddatga tayinlanadi. Og'ir jazo choralari qo'llanilishi nazarda tutilgan jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha, shuningdek, qilmishni 18 yoshgacha bo'lgan shaxs sodir etganda, dastlabki tergov o'tkazilishi shart. Ko'pchilik ishlar tergov sudyasiga politsiya tergovni yakunlaganidan keyingina kelib tushadi.

Tergov sudyalari o'z yurituvida bo'lgan deyarli har bir ish bo'yicha dastlabki qamoq chorasini qo'llaydilar. Tergov sudyasi shaxsga nisbatan dastlabki qamoq ko'rinishidagi ehtiyot chorasini tanlash haqida o'z qarorini asoslab berishi shart emas.

*Germaniyada* dastlabki tergovni tergov sudyasi o'tkazadi. Dastlabki tergov davlatga xiyonat qilganlik taqiqlangan birlashmalarda ishtirok etganlik, davlat xavfsizligiga va mudofaaga qarshi jinoyatlar sodir etganlik, odam o'ldirish to'g'risidagi ishlar va qasamyod qilgan (prisyajniy) sudyalarda sudloviga tegishli bo'lgan boshqa og'ir jinoyatlarga

doir ishlar bo'yicha, shuningdek, ayblanuvchi iltimos qilgan boshqa barcha hollarda o'tkazilishi shart. Dastlabki tergovda so'roq qilish, ko'zdan kechirish, ashyolarni olib qo'yish, tintuv, ekspertiza o'tkazish amalga oshiriladi, hujjatlar talab qilib olinadi va boshqa tergov harakatlari amalga oshiriladi. Ayblanuvchi prokuratura vakili va himoyachi ishtirokida so'roq qilinadi. Dastlabki tergov yakunlanganligi haqida ayblanuvchiga xabar beriladi, jinoyat ishi esa prokuraturaga topshiriladi.

Jinoyat ishi prokuraturaning ayblov hujjati bilan birga oralik bosqich deb ataladigan va uni sudda muhokama qilishga tayinlash masalalari hal qilinadigan bosqichdan keyingina sudga kelib tushadi. Sudda muhokama qilish uchun tayinlash haqidagi ajrim ayblanuvchiga ish sudda ko'rib chiqilguniga qadar topshiriladi. Uni ko'rib chiqish kuni va soatini sud raisi tayinlaydi, guvohlarning hozir bo'lishini va sudga dalillarning taqdim etilishini prokuratura ta'minlaydi (agar ish prokuraturadan kelib tushgan bo'lsa).

Sudlovga tegishlilik jinoiy jazolanadigan qilmishning og'irligini inobatga olgan holda aniqlanadi. Germaniyaning jinoyat qonunchiligiga ko'ra, ularning uch xil turi mavjud: jinoyatlar, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar va nojo'ya harakatlar. Jinoyat – bir yil va undan ortiq vaqtga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan qilmish. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan yoki jarima solinadigan boshqa barcha qilmishlar kiradi. Nojo'ya harakatlar – olti haftagacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 500 yevrogacha miqdordagi jarima bilan jazolanadigan qilmishlar.

Ushbu jinoyat ishlarini ko'rib chiqish uchun Germaniyada 4 bosqichdagi sudlar tizimi tashkil qilingan: hududiy sudlar; o'lka sudlari; o'lkaning oliy sudi; Oliy federal sud. Dastlabki uch bosqichdagi sudlar asosida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish uchun turli sud organlari tashkil etiladi.

AQSHda jinoyatlarni tergov qiladigan keng tarmoqli politsiya apparati tashkil etilgan. Bular – FTB (Federal tergov byurosi),

Immigratsiya va naturalizatsiya xizmati, Qirg' oq soqchilik xizmati, Razvedka va boshqa federal politsiya muassasalari. Bunda FTB federal jinoyat qonunlarida nazarda tutilgan taxminan 200 turdagi jinoyatlar (xoinlik, sabotaj, odamlarni o'g'irlab evaziga pul so'rash va boshqalar) bo'yicha tergov olib boradi. Jinoyat protsessining federal qoidalari AQSH okrug federal sudlariga davlatga qarshi jinoyat sodir etganlik uchun ayblov qo'yishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsga qasamyod qilib keltirilgan yozma ariza asosida jinoiy ta'qibni boshlash imkonini beradi. Bunday ariza asosida fuqaro aybdor deb topiladi va hibsga olinadi. Ayblanuvchini hibsga olish uchun order ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan tergov harakatlarini dastlabki o'tkazishsiz berilishi mumkin va hibsga olish uchun ayblanuvchi jinoyat sodir etganligi haqida taxmin mavjudligining o'zi yetarli bo'ladi. Hibsga ordersiz ham olish mumkin.

Hibsga olingan shaxs amalda nazoratsiz bo'lgan jinoiy ta'qib organlarining ixtiyoriga tushadi. Ushbu organlarning hibsga olingan shaxsga nisbatan majburiyatlari berilgan ariza haqida xabar berish va uning advokat chaqirish hamda dastlabki tergov o'tkazishni iltimos qilish huquqini tushuntirish bilan cheklanadi. Dastlabki tergov o'tkazish haqida iltimos qilingan taqdirda jinoiy ta'qib organining vazifasi guvohlarning ko'rsatuvlarini tinglashdan iborat bo'ladi. Okrug federal sudlarining sudloviga tegishli ishlar bo'yicha jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi davlat organlari o'zlarining tergovni tamomlash haqidagi qarorlarini ishning haqiqiy holatlariga va huquq normalariga havola etgan holda asoslashga majbur emasdir. Guvohlarning ko'rsatuvlaridan jinoyat sodir etilgan va uni ayblanuvchi sodir etgan deb hisoblash uchun real asoslar mavjudligi kelib chiqsagina ishni okrug federal sudiga darhol yuborish haqida qaror qabul qilinadi. Bularning barchasi politsiya, prokuratura va sudga jinoyat sodir etmagan shaxslarni ta'qib etish imkonini beradi. Bu esa keyinchalik tergov organlari yetkazgan zararni qoplashga olib keladi.

*Britaniyada* davlatga qarshi va ayblov akti chiqarishni talab etuvchi boshqa og'ir jinoyat haqidagi ishlar qasamyod qilgan sudlarning

sudloviga taalluqlidir. Ushbu ishlar bo'yicha dastlabki ish yuritish ayblovchi to'plagan dalillarning jinoyat ishini qasamyod qilgan sudlar ko'rib chiqishi uchun tayinlashga yetarliligi haqidagi masalani hal qilishi kerak bo'lgan sudya (sudyalar) oldida yuz beradi. Buning uchun sudya ayblovchining, ayblov guvohlarining so'zlarini tinglaydi va ayblovchi to'plagan boshqa dalillarni ko'rib chiqadi. Ayblanuvchi o'zini himoya qilish uchun tushuntirishlar berishga va dalillar taqdim etishga haqlidir. Dalillarni advokat ham taqdim etishi mumkin. Dastlabki ish yuritish jinoyat ishini qasamyod qilgan sudyalar ko'rib chiqishi uchun tayinlashga ma'lumotlarning yetarliligi hamda ehtiyot chorasi (ayblanuvchi hibsga olinishi kerakmi yoki garovga mulk olinib qo'yib yuborilishi mumkinmi) haqidagi masalalarni hal qilish maqsadiga ega.

Ayblanuvchini garov evaziga qo'yib yuborish qoidalari xiyonatga doir ishlarga qo'llanilmaydi. Boshqa barcha ishlar bo'yicha mulkni garovga olish asosida qamoqdan ozod qilishga yo'l qo'yiladi. Ehtiyot chorasi sifatida garov (mulkiy kafillik)ni tanlash asosi va sharti qonunda aniq belgilanmagan va odatda sudning ixtiyori bo'yicha belgilanadi. Kafilga qo'yiladigan asosiy talab – to'lovga qobillik. Protsess boshlangunicha garov evaziga ozodlikka chiqish huquqi – hamma uchun ham qo'llaniladigan amaliy imtiyoz emas. Dastlabki ish yuritish tugaganidan keyin muayyan haq evaziga ayblanuvchi ba'zi hujjatlar (guvohlarning yozma ko'rsatuvlari va sh.k.)ning nusxalarini olishi mumkin. 1971-yildan so'ng ayblov hujjatiga ega bo'lgan ishlar odatda Toj sudiga (Court of the Crown) yuboriladi. Ushbu sud ularni, qayerda sodir etilganidan qat'i nazar, ko'rib chiqadi. Mazkur ishlarning sudlovga tegishliligini qirol kursisi (Royal bench) sudi bo'linmasining raisi aniqlaydi.

*Fransiyada* jinoyat ishini qasamyod qilgan sudyalar ko'rib chiqishi uchun tayinlash haqidagi masalani apellatsiya sudining ayblov kamerasi hal qiladi. Biroq ushbu kamera ayblanuvchining huquqlarini kafolatlamaydi. Prokurorni ayblovni yozma shaklda ifodalashga va ham ayblovchi dalillarni, ham ayblanuvchining foydasiga xizmat qiladigan

dalillarni keltirishga majburlovchi ayblov hujjati haqidagi qoidalar amal qilmaydi. Ayblov kamerasing majlisida ayblanuvchining nomidan faqat advokat qatnashishi mumkin. Ayblov kamerasing jinoyat ishini sudda ko‘rib chiqishga tayinlash haqidagi qarori yuzasidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

*Germaniyada* uchastka sudida nojo‘ya harakatlar haqidagi ishlarni bir nafar sudya yoxud bir nafar sudya (ikki nafar sudya) va ikki nafar sheffendan<sup>1</sup> iborat tarkibdagi sud ko‘rib chiqadi.

O‘lka sudi jinoyat ishlarini quyidagi tarkibda ko‘rib chiqadi: kichik jinoyat palatasi – bir nafar sud a‘zosi va ikki nafar sheffen; katta jinoyat palatasi – uch nafar sud a‘zosi va ikki nafar sheffen. Ushbu sud instansiyalarida uchastka sudi, qasamyod qilgan sudyalarning sudi yoki o‘lka oliy sudining sudloviga tegishli bo‘lmagan jinoyat ishlari ko‘rib chiqiladi.

Qasamyod qilgan sudyalarning sudi bir yoki bir necha o‘lka sudlari hududida uch nafar professional sudya, jumladan, o‘lka oliy sudining a‘zosi bo‘lgan raislik qiluvchi, sudyalarning bilan birgalikda sud muhokamasi vaqtida aybdorlik haqidagi masalani ham, jazo chorasi haqidagi masalani ham hal qiluvchi olti nafar qasamyod qilgan maslahatchilardan iborat tarkibda amal qiladi. Qasamyod qilgan sudyalarning sudida qasddan odam o‘ldirish, nomusga tegish, bosqinchilik va boshqa jinoyatlar haqidagi ishlar ko‘rib chiqiladi.

O‘lka oliy sudida davlatga xiyonat, davlat sirini oshkor etish, genotsid kabi jinoyatlarga oid ishlar ko‘rib chiqiladi. Oliy Federal sudning og‘ir jinoyatlar bilan shug‘ullanuvchi senati oliy sud instansiyasi hisoblanadi. Unda o‘ta muhim ishlar ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, Germaniyada Oliy Federal sudning besh nafar sudyalardan iborat Maxsus senati boshchilik qiladigan favqulodda sudlar tizimi mavjud. Ular Konstitutsiyani muhofaza qilish idorasi taqdim etadigan jinoyat ishlarini ko‘rib chiqadilar. Ushbu idoraning faoliyati, aslida, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Tergov muddatlari ba‘zan bir necha yil davom etadi.

---

<sup>1</sup> Sheffen (nem.) – maslahatchi.

Sud muhokamasi sudlanuvchining va sudga chaqirilgan boshqa shaxslarning hozir bo'lganliklarini tekshirishdan boshlanadi. Guvohlar sud zalidan chiqarilganlaridan keyin ishni sudda ko'rib chiqishga tayinlash haqidagi ajrim e'lon qilinadi va sudlanuvchi so'roq qilinadi. So'ngra sud tergov jarayonida dalillar tekshiriladi: guvohlar, ekspertlar so'rov qilinadi, hujjatlar o'qib eshittiriladi, ashyoviy dalillar ko'zdan kechiriladi va h.k.

Germaniya jinoyat protsessi ayrim cheklashlar bilan birga taftish o'tkazish tartibida ham apellatsiyaga berish orqali hukm yuzasidan shikoyat qilishni nazarda tutadi. Apellatsiya tartibi, aslida, birinchi instansiya sudida ishni ko'rib chiqishni takrorlaydi. Bunda jinoyat ishi yangitdan mazmunan hal qilinishi mumkin.

Taftish tartibida uchastka sudlarining hukmlari oliy o'lka sudining og'ir jinoyatlar bilan shug'ullanuvchi senatida, sheffenlar sudining hukmlari esa – o'lka sudida, qasamyod qilgan sudyalarda sudining hukmlari esa – federal sud qoshidagi og'ir jinoyatlar bilan shug'ullanuvchi senatda tekshiriladi. Taftish tartibida hukmning qonun talablariga mosligi tekshiriladi.

O'lka oliy sudlarining va Federal sudning hukmlari yuzasidan na apellatsiya tartibida va na taftish tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng ijro etilishi lozim. Hukm chiqargan sud uning tasdiqlangan nusxasini prokurorga yuboradi. Prokuror jinoyatchini ushlab kelish yoki hibsga olish haqida buyruq chiqarish orqali hukmni ijro ettiradi.

*Yaponiya* Jinoyat-protsessual kodeksiga anglo-amerika huquqidan tortishuv prinsipi kirib kelgan. Jinoyat ishi quyidagi ketma-ketlikda oshkora ko'rib chiqiladi: raislik qiluvchi ayblanuvchiga uning shaxsini tasdiqlashga qaratilgan savollar beradi. Prokuror ayblov xulosasini o'qib eshittiradi. Raislik qiluvchi ayblanuvchiga o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik huquqini tushuntirib beradi. Ayblanuvchi va uning himoyachisi ish yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar. Sud zalida prokurorning taqdimnomasi bo'yicha va sudning roziligi bilan dalillar tekshiriladi. Undan keyin himoya



tarafi taqdim etgan dalillar tekshiriladi. Guvohga savollarni nafaqat ayblov va himoya vakillari, balki sudyalalar ham beradilar. Odatda dalillarni tekshirishning yakuniy bosqichida ayblanuvchiga savollar beriladi. Dalillarni tekshirish yakunlangach jinoyat ishini sud zalida ko‘rib chiqish prokurorning ayblov nutqi, himoyachining nutqi hamda sudlanuvchining oxirgi so‘zi bilan tamomlanadi. So‘ngra, biroz davom etadigan tanaffusdan keyin hukm o‘qib eshittiriladi.

Ishning bunday tartibida, bir tomondan prokuror, boshqa tomondan, ayblanuvchi va uning himoyachisi teng huquqli taraflar sifatida ish ko‘radilar, raislik qiluvchi esa betaraf hakam vazifasini bajaradi.

Avtomashinalarning haydovchilari sodir etadigan yo‘l-transport harakatiga oid qonunlarning buzilishi haqidagi ishlar jinoyat ishlarini sudda ko‘rib chiqishning tezlashtirilgan tartibi haqidagi qonunga muvofiq soddalashtirilgan sudlov sudlarida hal qilinadi. Bu ishlarni ko‘rib chiqishda prokuror va himoyachi sud zalida odatda hozir bo‘lmaydilar. Sudya, prokuror taqdim etgan ayblov xulosasi, hujjatlar va ashyoviy dalillarga asoslanib, jarima yoki penya solish haqidagi qarorni darhol o‘qib eshittiradi. Sud zalida o‘z ishlari bo‘yicha qaror chiqarilishini kutayotgan boshqa shaxslar ham ko‘p bo‘lganligi bois, ayblanuvchiga o‘z fikrini bayon etishi uchun vaqt amalda berilmaydi. Sud qaroriga rozi bo‘lmaganlar JPKda nazarda tutilgan tartibni qo‘llagan holda o‘z ishining sudda ko‘rib chiqilishini talab etishlari mumkin. Yaponiya jinoyat protsessining eng katta muammosi shundaki, ishning sudda tezlik bilan ko‘rib chiqilishi huquqi Konstitutsiyada qayd etilgan bo‘lishiga qaramay, bunday muhokamaga haddan tashqari ko‘p vaqt sarflanadi. Turli instansiyadagi sudlarda ishlarni ko‘rib chiqish uchun o‘rtacha uch oydan (soddalashtirilgan sudlov sudlarida) 6,5 oygacha (mamlakatning Oliy sudida) vaqt sarflanadi. Ammo jinoyat ishlarining asosiy ko‘pchiligi har holda nisbatan qisqa vaqtda ko‘rib chiqiladi, chunki ayblanuvchilar ularga jinoyat sifatida qo‘yiladigan faktlarning ham, qo‘llaniladigan qonunlarning ham ustidan shikoyat qilmaydilar.

Ko‘plab ayblanuvchilar ishtirok etadigan yoki ayblanuvchilar o‘zlarining aybsizligini qattiq turib himoya qiladigan ishlarni ko‘rib chiqish uzoq vaqt talab qiladi. Chunki ko‘plab dalillar tekshiriladi, guvohlar uzoq vaqt so‘roq qilinadi. Shunday hollar bo‘ladiki, birinchi instansiya sudining o‘ziga ishni ko‘rib chiqish uchun deyarli 10 yil vaqt talab qilinadi, apellatsiya tartibida ko‘rib chiqish bilan birga esa 20 yildan ortiq vaqt sarflanadi. Bu vaqt mobaynida ayblanuvchi shunchalik ko‘p ma‘naviy va jismoniy azoblar tortadiki, ularning o‘zi endilikda jinoiy jazoni tashkil qiladi. Uzoq vaqt davom etadigan sud muhokamasidan so‘ng u aybsiz deb topilsa, Konstitutsiyaning 20-moddasiga asoslangan qonunga muvofiq, tovon puli oladi.

*AQSH* jinoyat protsessida davlat jinoyatlari va boshqa og‘ir jinoyatlar haqidagi ishlar qasamyod qilgan sudyalar sudloviga kiritilgan. Bu ishlar tortishuv shaklida yuritiladi, ular yuzasidan sudya huzurida dastlabki tergov olib borilishi shart. Amalda undan avval politsiya tergovi amalga oshiriladi. Aynan shu bosqichda ayblanuvchiga, ba‘zan esa guvohlarga ham qo‘rqituvchi ma‘naviy va jismoniy ta‘sir choralari qo‘llab, so‘roq qilishga yo‘l qo‘yiladi. Politsiya organlari dalillarni to‘plagach, ularni sudga tortishuv tartibida ko‘rib chiqish uchun taqdim etishlari kerak. Dalillarni sudya ayblanuvchi yoki uning himoyachisi ishtirokida ko‘rib chiqadi. Dalillar yetarlicha to‘plangan deb topilgach, ayblov xulosasi tuziladi. Uni federal prokuror yoki shtat prokurori ayblov aktida bayon etadi. Unda ayblanuvchi buzgan qonun, qoidalar, qarorlar yoki boshqa huquqiy hujjatlarga havola qilinishi kerak. Aslida, bu talab federal sudlarda bajarilishi shart emas. Zero, Federal qoidalarda aytilganidek, «qilingan havolalardagi xatolik yoxud havola qilmaslik ayblov hujjatining yoki hukmning bekor qilinishiga asos bo‘lmaydi». So‘ngra jinoyat ishi sudda muhokama qilishga tayinlash uchun jo‘natiladi.

Nazariy jihatdan, o‘lim jazosiga tortilmaydigan jinoyat haqidagi har bir ish bo‘yicha ayblanuvchi garov evaziga ozod qilinish huquqiga ega; o‘lim jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarga oid ishlar

bo'yicha esa garov evaziga ozod qilish masalasini sudya ko'rib chiqadi. Garov evaziga ozod qilishning deyarli barcha hollarida garov miqdorini sudya o'z ixtiyori bilan belgilaydi. Garov haqidagi masalani hal qilishga ta'sir etuvchi fikr-mulohazalar ishning muayyan holatlari, sudlanuvchining shaxsiga xos xislatlar va obro'-e'tiboriga bog'liq bo'ladi, biroq asosiysi – muayyan sudyaning shaxsiy fikri.

Shtatlarning federal qonunlari bo'yicha jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga tayinlashda muayyan farqlar mavjud. Ushbu tartibning eng tipik jihati quyidagilarda ifodalanadi: prokuror tuzgan ayblov hujjati dastlabki tergov tamomlangandan so'ng jinoyat ishi qaysi sudning sudloviga tegishli bo'lsa, o'sha sudning kotibiga yuboriladi. Kotib hujjatning to'g'ri tuzilganligini tekshiradi, so'ngra uni sudyaga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Sudya o'z imzosi bilan ayblov hujjatini tasdiqlaydi. Og'irroq jinoyatlar bo'yicha ishni sudda ko'rib chiqishga Katta juri (23 nafar qasamyod qilgan sudyalari) qarori bilan tayinlanadi. Ushbu juri asosan muayyan talablarga javob beradigan shaxslardan tashkil topadi. Katta juri majlislari yopiq tarzda o'tadi. Ularda ayblovchi dalillar ko'rib chiqiladi hamda ayblovchining mulohazalari tinglanadi. So'nggi vaqtlarda majlislarga ayblanuvchini chaqirib uning ko'rsatuvlarini olish amaliyoti qaror topdi. Jinoyat ishini sudda ko'rib chiqishga tayinlash haqidagi qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi hamda ayblov hujjatidagi tasdiqlash haqidagi yozuv shaklida bayon etiladi.

*Britaniyada* jinoyat ishini mazmunan (umuman ko'rib chiqishdan avval ayblov hujjatini tasdiqlash va sudlanuvchiga taqdim etish; sudlanuvchining unga qo'yilgan ayb xususidagi fikrini aniqlash; qasamyod qilgan sudyalari jurisi (kursisi)ni shakllantirish ishlari bajariladi. Tom ma'nodagi sud muhokamasi sud tergov, taraflar muzokarasi, qasamyod qilgan sudyalarning hukm tuzishi va chiqarishi, jazo belgilash va sudya(lar)ning hukm chiqarishi kabilarni o'z ichiga oladi. 1933 yilgacha ayblov hujjatini Katta juri (12–13 nafar qasamyod qilgan sudyalari) tasdiqlaganlar. Hozir esa buni rasman sudning idora xodimi (klerk) bajaradi. Sudlanuvchi ayblov hujjatidan birinchi bor

jinoyatning yuridik tavsifini, ayblov ifodasini va sud majlisiga chaqiriladigan guvohlar ro'yxatini bilib oladi. Ishning bundan buyongi borishi sudlanuvchining ayblov hujjatiga (ayblovning yuridik tavsifi va ifodasiga) munosabatiga bog'liq. Sudda ayblov qo'yilganidan so'ng ayblanuvchi quyidagilar haqida ogohlantiriladi: «Agar istamasangiz, javob berishga majbur emassiz, ammo siz aytgan gaplar bayonnomaga kiritilishi va dalil sifatida sudga qarshi foydalanilishi mumkin». Agar ayblanuvchi o'z aybini tan olsa, sud tergovni hatto yuritilmaydi va sud hukm chiqaradi. Sud muhokamasi ayblanuvchi o'zining aybdorligiga iqrorga bo'lmagan taqdirdagina to'liq amalga oshiriladi. Ushbu holda sud tergovni va taraflar muzokarasini o'z ichiga oluvchi sud muzokarasi boshlanadi.

Sud muhokamasini ayblov hujjatining mohiyatini bayon etuvchi ayblovchi o'z nutqi bilan ochadi. Shundan so'ng ayblov dalillari tekshiriladi va bu harakat ayblovchining tekshiruv natijalari bo'yicha takroran so'zga chiqishi bilan yakunlanadi. Sudlanuvchiga (uning himoyachisiga) ayblov isbotlanmaganligi va ish tugatilishi lozimligi haqida arz qilish (va oqlovchi dalillarni taqdim etish) imkoniyati beriladi. Sudya bunga rozi bo'lgan taqdirda qasamyod qilgan sudyalarga sudlanuvchini oqlash haqida ko'rsatma berishi mumkin. Biroq amalda bunday hol uchramaydi.

Oqlovchi dalillarni tekshirish himoyachi (sudlanuvchi)ning kirish so'zi bilan boshlanadi. Shundan so'ng sudlanuvchi ishning mohiyati bo'yicha ko'rsatuvlar beradi. So'ngra himoyaning guvohlari so'roq qilinadi va boshqa oqlovchi dalillar tekshiriladi. Tekshiruv natijalari bo'yicha himoyachi (sudlanuvchi)ning takroriy so'zga chiqishida xulosa qilinadi. Sud tergovni ayblovchining uchinchi nutqi bilan tamomlanadi. Ayblovchi bunda oqlov dalillarini tahlil qiladi.

Shundan so'ng sudya qasamyod qilgan sudyalarga qarata murojaat qiladi. Unda ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha qanday hukm chiqarish lozimligi haqida aniq tushuncha beradi. Shundan keyin qasamyod qilgan sudyalar maslahat qilish uchun kirib ketadilar va ko'pchilik ovoz bilan

hukm chiqaradilar. Qasamyod qilgan sudyalarning hukmi, ya'ni ular shaxsning aybdorligi yoki aybsizligiga doir savolga bergan javobi asoslantirilmaydi. Qasamyod qilgan sudyalarning ayblov qaroridan keyin sudya o'z ayblov hukmini chiqaradi va unda jazo belgilaydi. Qasamyod qilgan sudyalarning oqlov qaroridan so'ng sudya oqlov hukmi chiqaradi.

*Fransiyada*, qonunga muvofiq, jinoyat ishini uch nafar doimiy a'zo va to'qqiz nafar maslahatchidan iborat sud ko'rib chiqadi. Bu ishning barcha masalalarini hal qiluvchi yaxlit hay'atdir. O'lim jazosi, katorga ishlari yoki huquqlari cheklangan holda ozodlikdan mahrum etish jazolari tayinlanishi mumkin bo'lgan ishlar ushbu sudning sudloviga tegishlidir. Sud majlisida raislik qiluvchiga (odatda u apellatsiya sudi kameralaridan birining raisi) ishni sudga tayyorlash borasidagi barcha tadbirlar; sudlanuvchini sudning qamoq uyiga o'tkazish haqida topshiriq berish; sudlanuvchini dastlabki so'roq qilish; tergov materiallarini to'ldirish haqida topshiriqlar berish; himoyachi tayinlash kabi vazifalar yuklatilgan. Fransiya sudida qasamyod qilgan sudyalar sudi raisining alohida mavqei diskretion hokimiyat (o'z xohishi bo'yicha qaror chiqarish hokimiyati) nomi bilan ma'lum. Sudya o'z tashabbusi bilan dalillarni talab qilib olishi, sud tergovining borishini boshqarish xususida yakka tartibda qarorlar qabul qilishi, ayblanuvchini so'roq qilishi mumkin. Ushbu so'roq odatda ayblov tabiatiga ega bo'ladi.

Ishni sudda ko'rib chiqish ishning sud muhokamasiga tayinlanishi haqidagi qarorni o'qib eshittirish hamda ishning mohiyatini bayon etuvchi prokurorning qisqacha nutqi bilan boshlanadi. Uning markaziy qismi – raisning sudlanuvchini so'roq qilishi. Faqat raisdan keyingina sudlanuvchini prokuror hamda sud muhokamasining boshqa ishtirokchilari so'roq qiladilar. Garchi sud muhokamasi tortishuvga asoslangan deb hisoblansa-da, prokurorga ayblanuvchi va uning himoyachisiga qaraganda, kengroq huquqlar berilgan. Prokuror shaxsan o'zi so'roq qiladi, himoyachi esa guvohlar va ekspertlarga faqat raislik qiluvchi orqali savollar berishi mumkin. Qonunda guvohlarni sud majlisiga chaqirish borasidagi xarajatlarni buni iltimos qilgan taraf

qoplashi kerakligi ko'rsatilgan. Ish materiallarini tekshirish sud muzokaralari bilan yakunlanadi. Dastlab fuqaroviy da'vogar va prokuror so'zga chiqadilar. So'ngra so'z himoyachiga beriladi. Sudya va maslahatchilar sudlanuvchining oxirgi so'zini tinglab bo'lgach, maslahatxonada hukm chiqaradilar.

Ayblov xulosasi chiqarish uchun 8 ovozdan iborat ko'pchilik zarur. Jazo chorasi haqidagi masala oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Sud muhokamasi hukmni o'qib eshittirish bilan yakunlanadi. Nazariy jihatdan Fransiyada dalillarni sudyalarning ichki e'tiqodi bo'yicha erkin baholash tizimi mavjud. Biroq politsiya bayonnomalarida qayd etilgan faktlarni guvohlarning ko'rsatuvlari bilan rad etishni taqiqlovchi qoida amal qiladi. Bu qoidani sud amaliyoti politsiya amaldorlaridan kelib chiquvchi barcha dalillarga taalluqli deb hisoblaydi. Mazkur hujjatlarni ham sudyalar erkin baholay olmaydilar.

AQSHda qasamyod qilgan sudyalar ishtirokidagi sud muhokamasi qasamyod qilgan sudyalar tarkibini shakllantirishdan boshlanadi. Taraflar qasamyod qilgan sudyalarni rad etishlari mumkin. Biroq amalda sudlanuvchi o'zini malakali va faol advokat xizmatlari bilan ta'minlashga qodir bo'lgan taqdirdagina ushbu imkoniyatdan foydalana oladi. Ushbu advokat sudgacha, qasamyod qilgan sudyalar ro'yxati sudlanuvchiga topshirilganda, qasamyod qilgan sudyalarni rad etish mumkin bo'lgan holatlarni aniqlashi kerak bo'ladi. Qasamyod qilgan sudyalarni rad etish asoslarini tartibga soluvchi qonun normalarining noaniqligi, rad etgan sudlanuvchining raddiyasini qoniqtirishni asoslantirmagan holda rad etish mumkinligi sudga qasamyod qilgan sudyalarning istalgan tarkibini tanlashini osonlashtiradi. Ayblanuvchi o'zini guvoh sifatida so'roq qilishlarini so'ragan taqdirda u himoyaning guvohi sifatida – guvohlik qasamyodi qabul qildirilib va yolg'on guvohlik bergani uchun javobgarligi haqida ogohlantirilib, so'roq qilinishi mumkin. Sudyalar, ba'zan esa prokurorlar ham yolg'on guvohlik bergani uchun ayblanuvchini javobgarlikka tortish maqsadida, uni guvoh sifatida ko'rsatuv berishga majburlashga harakat qiladilar.

Ayblanuvchi ko'rsatuv berishdan qat'iy bosh tortgan taqdirda unga nisbatan «sudni hurmat qilmaganlik uchun» jazolash haqidagi qonun qo'llanilishi mumkin. Buning uchun nafaqat ayblanuvchilar, balki sudlanuvchining huquqlarini himoya qilishdan iborat burchini vijdonan bajarayotgan va bu bilan sudning g'ashiga tegayotgan advokatlar ham javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Sud muhokamasiga xos bo'lgan jihatlardan biri sudning politsiya bilan yaqin aloqasidir: siyosiy ishlar bo'yicha guvohlar sifatida sud majlisida haq to'lanadigan shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Sudlanuvchi aybiga iqrorga bo'lgan taqdirda, sud tergov o'tkazmasdan turib va qasamyod qilgan sudyalarning hukmini eshitmay turib jazo tayinlash huquqiga ega. Ushbu holda guvohlar aybdorga qanday jazo tayinlanishi masalasi xususida qaror chiqarish uchungina so'roq qilinishlari mumkin. Sud tergov ayblanuvchi aybini rad etgan taqdirdagina o'tkaziladi. U ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchisi ayblovchi (prokuror)ning so'zga chiqishi bilan boshlanadi. Shundan so'ng ayblov guvohlari so'roq qilinadilar va boshqa ayblov dalillari tekshiriladi. Himoyachi ayblovchi chaqirgan guvohlarni so'roq qilishga, ularga ayblovchi bilan birga savollar berishga haqlidir. Sud tergovining ikkinchi qismi ayblovchiga o'z e'tirozlarini bildirayotgan himoyachining nutqi bilan boshlanadi. So'ngra himoyachi himoya guvohlarini so'roq qiladi va sudlanuvchining foydasiga boshqa dalillarni taqdim etadi. Bunda ayblovchi himoyaning guvohlariga himoyachi bilan birga savol berish huquqiga egadir. Shundan so'ng ayblovchiga yana so'z beriladi.

Sud tergov himoya taraf taqdim etgan dalillarni ko'rib chiqish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng sudya qasamyod qilgan sudyalarga qarata nutq so'zlaydi. Unda ko'rib chiqilgan dalillarning ahamiyatini tushuntirib beradi, ya'ni mazkur ish bo'yicha qanday qaror chiqarish lozimligi haqida tushuncha beradi. Og'ir jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qasamyod qilgan sudyalarning yakdil qarori talab etiladi. Qasamyod qilgan sudyalarning qarori va uning asosida chiqarilgan jazo tayinlash haqidagi hukm sud majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Buyuk Britaniyada hukmlarni qayta ko‘rib chiqish apellatsiya deb ataladi. Faktik asoslar bo‘yicha qasamyod qilgan sudyalarning chiqargan qaror yuzasidan shikoyat qilishga (apellatsiyaga) ishni ko‘rib chiqqan sudyaning yoki apellatsiya instansiyasining ruxsati bilangina yo‘l qo‘yiladi. Hukmning jazo chorasini belgilash qismi yuzasidan faqat apellatsiya instansiyasining ruxsati bilan shikoyat qilinishi mumkin. Buyuk Britaniyada borgan sari ko‘proq qaror topayotgan amaliyotga muvofiq, sudya o‘z hukmini jazoni yengillashtirish tarafiga ham, og‘irlashtirish tarafiga ham qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Bu narsa hukm sud majlisining bayonnomasida qayd etilganidan keyin qilinadi. Ushbu hollarda sudya mahkumni o‘z huzuriga chaqirib, unga yangi hukmni e‘lon qiladi. Buning natijasida amalda hukmlar yuzasidan shikoyat qilish institutiga jiddiy tuzatishlar kiritiladi.

Fransiyada qasamyod qilgan sudyalarning ishtirokidagi sud hukmi yuzasidan faqat jinoyat qonuni va protsessual shakllar buzilganligi vajidan kassatsiya tartibida respublikaning kassatsiya sudiga shikoyat qilinishi mumkin. Kassatsiya sudi qonun rasman buzilganligini aniqlagan taqdirdagina hukmni bekor qiladi. U ishning mazmunan to‘g‘ri hal qilinganligini tekshirmaydi.

AQSHda hukm yuzasidan shikoyat qilish institutiga apellatsiya va kassatsiya elementlarning uyg‘unligi xos. Hukmni faktik asoslari bo‘yicha tekshirish kamdan-kam uchraydi. Mahkumning shikoyat ko‘rib chiqilayotgan paytda (shikoyat berilgan paytdan boshlab u rad etilguncha) qamoqda o‘tkazgan vaqti hukm tayinlagan jazo muddatiga kirmaydi. AQSHda shikoyat berishning juda murakkab va ko‘p bosqichli tizimi mavjud. Bir qator hollarda hukmlarni shtatlarning oliy sudlari va AQSH Oliy sudi bir necha yillar davomida qayta ko‘rib chiqadilar.

Umuman olganda, AQSH sudlari yagona sud tizimidan yoki davlat tuzilmasidan iborat emas. «Aslida, – deb yozadi D. Midor, – biz yagona Amerika sudlar tizimi haqida so‘z yurita olmaymiz. Buning o‘rniga ko‘plab bir-biridan mustaqil bo‘lgan tizimlarga egamiz. Xuddi shuningdek, Amerika huquqining manbalari ham juda ko‘pdir. Bir tizim



sudlari ko‘pincha boshqa tizimda ishlab chiqilgan qonunni qo‘llaydilar va izohlaydilar. Buning ustiga, ko‘pincha ayni bir ish ikki yoki undan ortiq bir-birini takrorlovchi sud tizimlarining sudloviga tegishli bo‘ladi. Bu va boshqa holatlar Qo‘shma Shtatlar sudlov tizimining nihoyatda murakkab bo‘lishiga olib kelgan»<sup>1</sup>. Amerika sud tizimidagi asosiy farq shtatlar bilan federal tuzilmalar o‘rtasida ko‘zga tashlanadi. Federal hukumat va shtatlar hukumatlari birgalikda mavjud bo‘lib, federal hukumatga keng vakolatlar berilgan. Ayni paytda qolgan barcha vakolatlar shtatlarning hukumatlariga tegishlidir. Ushbu hukumatlarning har biri o‘zining mustaqil va yetarli sud tizimiga ega.

Hozirgi vaqtda 50 ta shtat va, binobarin, 50 ta shtat sud tizimlari mavjud. Shunga o‘xshash tizimlar Kolumbiya okrugida va Puerto-Riko Hamdo‘stligida ham bor. Virjiniya orollari, Guama, Amerika Samoasi va Mariana orollarining shimoliy zonasida ham hududiy sudlar mavjud. Shunday qilib, Amerika sud tizimi Men shtatining shimoli-sharqiy sohillaridan to Tinch okeanining eng uzoqdagi orollarigacha va Puerto-Rikodan Alyaskagacha cho‘ziladigan ulkan hududni qamrab oladi.

Sud tizimining va shtatlardagi 50 ta sud tizimlarining tuzilishi piramidaga o‘xshaydi. Umuman olganda, bu tizimlar o‘xshash, ular o‘rtasidagi farqlar muayyan tuzilishi va faoliyatiga taalluqlidir. Piramidaning asosini birinchi instansiya sudlari tashkil etadi. Uning cho‘qqisida odatda oliy sud deb ataluvchi eng yuqori instansiya sudi turadi. Ko‘pchilik shtatlarda va federal tizimda oraliq nazorat, ya’ni apellatsiya sudlari ham mavjud. Bu sudlarning barchasi o‘z tabiati (xarakteri) va sud hokimiyati konsepsiyasi bo‘yicha Angliyaning umumiy huquqi va adolat huquqi sudiga asoslanadi. Ushbu yuridik tizimni XVII va XVIII asrlarda Angliyadan ko‘chib kelgan muhojirlar Shimoliy Amerika qirg‘oqlariga olib kelganlar. Luiziana shtati, shu nuqtai nazardan, noyob gibriddir, chunki uning ildizlari Fransiyaning fuqarolik huquqi tizimiga borib taqaladi.

Amerika sudlari Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlardagi sudlardan hokimiyatlar bo‘linishi va konstitutsiyaviy nazorat huquqi kabi

---

<sup>1</sup> *Мидор Д.* Американские суды. – Сент-Пол, 1991. – С. 3.

asosiy jihatlari bilan farq qiladi. Amerikaning hokimiyatlar bo‘linishi konsepsiyasiga muvofiq, butun davlat hokimiyati uch qismga – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi kerak. Har bir tarmoqning boshida alohida mansabdor shaxs yoki rasmiy organ turadi. Eng oddiy tarzda ushbu doktrinaning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: qonun chiqaruvchi tarmoq qonunlar ishlab chiqadi, qonun hujjatlari chiqaradi; ijro etuvchi hokimiyat qonunlarga rioya etilishini ta’minlaydi; sud hokimiyati esa qonunlarni talqin etadi va tushuntiradi, ishlar bo‘yicha qarorlar chiqaradi. Hokimiyatni bunday bo‘lishdan ko‘zlangan maqsad fuqarolarni ayrim shaxslar yoxud yagona tashkilot qo‘lida to‘plangan hokimiyatning suiiste’molliklaridan himoya qilishdir. Amerika siyosatining sirlari orasida ushbu prinsipga erkinlik va huquqiy davlat kafolati sifatida asosiy ahamiyat beriladi. Mazkur prinsip AQSHning barcha davlat tuzilmalarida o‘z ifodasini topgan. Shu bois federal sudlar va shtatlarning sudlari qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqdan mustaqil bo‘lgan hokimiyatning alohida tarmog‘i sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

AQSH sudlariga xos yana bir jihat – konstitutsiyaviy nazorat huquqi. Ushbu doktrinaga muvofiq, sud qonun hujjati (statuti)ni yo Federal Konstitutsiyaga, yo shtat Konstitutsiyasiga zid deb, binobarin, ijro etilmasligi lozim deb e’lon qilish vakolatiga ega. Shu tariqa, sudlar ijro etuvchi hokimiyat vakillarining qarorlarini ham Konstitutsiyaga xilof deb e’lon qilish huquqiga egadirlar. Hujjatlarning Konstitutsiyaga mos yoki mos emasligi haqidagi qarorlar har qanday fuqaroviy yoki jinoyat ishlari munosabati bilan qabul qilinishi mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarida alohida Konstitutsiyaviy sudlar yo‘q. Har qanday sud, u shtat darajasida bo‘ladimi, yoki federal darajadami, agar muhokama qilinayotgan ish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lsa, shtat darajasidagi yoki federal darajadagi yuridik hujjatlar yoxud qarorlarning konstitutsiyaviyligi xususida qaror qabul qilishi mumkin. Shtat sudlari shtat konstitutsiyasining ham, Federal Konstitutsiyani ham qo‘llaydilar; bunda ular o‘rtasida ziddiyat kelib chiqqanida, Federal Konstitutsiyaga ustunlik

beriladi. Federal sudlar Federal Konstitutsiyaga muvofiq faoliyat ko'rsatadilar; ular, agar shtatlar konstitutsiyalari qoidalarining mazmuni tahlil qilinayotgan bo'lsa, garchi odatda bu kabi qarorlarni shtat sudlari qabul qilsalar ham, ushbu konstitutsiya qoidalariga murojaat etish huquqiga ham egadirlar. Britaniyada noma'lum bo'lgan va kontinental huquqning odatdagi sudlarida qo'llanilmaydigan konstitutsiyaviylik haqida qaror chiqarish huquqi Amerika sudlariga xalqning saylab qo'yilgan vakillari chiqargan hujjatlarni, ular yuqoriroq mavqedagi qonun – Konstitutsiyaga zidligi sababli, bekor qilish huquqini beradi.

Konstitutsiyaviy nazorat huquqi va hokimiyatlar bo'linishi AQSHning «Qonun hokimiyati» konsepsiyasining asosiy elementlaridir. Ular qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning harakatlarini nazorat qilish uchun asosiy davlat hujjatlarini qo'llaydigan sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlaydi. Qonun hokimiyati barcha uchun bajarilishi majburiy bo'lgan hamda belgilangan tartibga muvofiq tarzda amal qiladigan obyektiv mustaqil sudyalarning qo'llaydigan prinsiplar, normalar va qoidalar majmui bo'lishini ham nazarda tutadi. Pirovard natijada sudlar muhofaza etadigan huquqiy tartib barcha shaxslarni qamrab oladi va hech kim qonundan ustun bo'lmaydi.

AQSHdan farqli ravishda, *Isroilning jinoyat protsessi* tizimi ancha mukammal bo'lib, uch darajadagi sudlardan, ya'ni yarashtiruv sudlari, okrug sudlari, Oliy suddan iborat. Bundan tashqari, Isroilda aniq belgilari bo'yicha birlashtirilgan u yoki bu masalalarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan quyidagi sudlar mavjud: mehnat nizolari (xodimlarning ish beruvchilarga da'volari, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari, ishdan bo'shatilganda tovon to'lash, Milliy sug'urta boshqarmasidan u yoki bu nafaqalarni olish kabilar) bo'yicha sudlar, transport sudlari (yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzganlik haqidagi ishlar, yo'l politsiyasi vakillarining tegishli qarorlari yuzasidan tegishli da'volar qilish va boshqalar), harbiy sudlar (harbiy xizmatchilarning jinoyat tarkibiga ega bo'lmagan mansab bilan bog'liq nojo'ya harakatlarini ko'rib chiqadi), *ravvinat* sudlari va boshqa uyushmalarning (urug'larning) diniy sudlari.

Barcha fuqarolik sudlarida sudyalar komissiyaning qarorlariga asosan kasbiga ko‘ra tayinlanadilar. Ushbu komissiyaga adliya vaziri va hukumatning yana bir vakili, kneset (parlament)ning ikki nafar deputati, advokatlar hay‘atining ikki nafar vakili va Oliy sudning uch nafar sudyasi, jumladan, Oliy sud prezidenti kiradi. Tayinlangan sudya yosh chegarasi bo‘yicha belgilangan vaqtgacha o‘z vazifalarini bajaradi – 70 yoshida u iste‘foga chiqishi shart. Sudyaning qarori u yoki bu mansabdor shaxsga yoxud umuman hukumatga «yoqmay qolganda» ishdan bo‘shatilishi mumkin emas. Isroilning barcha fuqarolari qonun va sud oldida tengdirlar. Fuqaro davlatdan da‘vo qilib sudga arz qilishi mumkin. Bunda sudyaning nazarida davlatning maqomi oddiy fuqaroning maqomidan aslo farq qilmaydi.

Yarashtiruv sudlari mayda huquqbuzarliklarga oid jinoyat ishlarini ko‘rib chiqadilar. Okrug sudlari og‘ir jinoyatlar (qotillik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va boshqalar) haqidagi ishlarni ko‘rib chiqish, shuningdek, yarashtiruv sudlari chiqargan hukmlar yuzasidan berilgan shikoyatlarni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadilar.

Isroilda eng yuqori sud bosqichini Oliy sud tashkil qiladi. U okrug sudlari chiqargan hukmlar yuzasidan berilgan shikoyatlarni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi. Ayrim hollarda Oliy sudga yarashtiruv sudi chiqargan qaror xususida berilgan shikoyat yuzasidan okrug sudi chiqargan kassatsiya qarori borasida protest bildirilishi mumkin.

Ba‘zan Isroilning Oliy sudi Oliy adolat sudi sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy adolat sudiga protest bildirilishi mumkin bo‘lgan qarorlarning misoli bo‘lib qonunga xilof tarzda hibsga olish, ravvinat sudining o‘z vakolatlari doirasidan chiqishi kabilar hisoblanadi. Oliy adolat sudiga shikoyat quyi instansiyadagi hech bir sud muassasasiga berilishi mumkin bo‘lmagan holdagina murojaat qilish mumkin.

Isroilda u yoki bu fuqaroga qarshi jinoiy ayblov bilan xususiy shaxs emas, balki davlat chiqadi. Jinoyat protsessi ikkita asosiy qismga bo‘linadi. Protsessning birinchi qismida sudlanuvchining aybi

aniqlanadi. Agar sudlanuvchi aybdor deb topilsa, ikkinchi qismda sud jazolash haqida hukm chiqaradi.

Jinoyat protsessi boshida sudya sudlanuvchidan unga qarshi taqdim etilgan ayblov xulosasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda o'zini aybdor deb hisoblash-hisoblamasligini so'raydi. Agar sudlanuvchi aybiga iqrор bo'lsa, sud uni aybdor deb e'lon qiladi va protestning birinchi qismi yakunlanadi, agar sudlanuvchi o'zini aybdor deb tan olmasa, dalillarni tinglash boshlanadi. Davlat prokuraturasining vakillari sudga ayblov guvohlarini chaqirtiradilar. Ushbu guvohlar o'z ko'rsatuvlarini beradilar. So'ngra sudlanuvchi sudga himoyaning guvohlarini taklif qiladi.

Har bir guvoh uch bora so'roq qilinadi – avval qaysi tarafning foydasiga guvohlik bermoqchi bo'lsa, o'sha taraf tomonidan, so'ngra boshqa tarafning vakili tomonidan va yana qaysi tarafning foydasiga ko'rsatuv berayotgan bo'lsa, o'sha tarafning vakili tomonidan.

Sud taraflarning guvohlik ko'rsatuvlari va arizalarini eshitgach, sudlanuvchining aybdorlik darajasi haqida qaror qabul qiladi. Agar sudlanuvchi aybdor deb topilsa, ayblov vakillari va sudlanuvchining advokatlariga sudlanuvchiga tayinlanishi kerak bo'lgan jazo chorasi borasida o'z fikrlarini bayon etishi uchun imkon beradi. Shundan so'ng sud hukm chiqaradi va jazo tayinlaydi.

Bir qator xorijiy davlatlarda o'ziga xos soddalashtirilgan (yig'ma) ish yuritish mavjud. Buyuk Britaniyada turli xil jinoyat ishlarining anchagina qismi soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqiladi. Ularga transport haydash qoidalarini buzganlik, badanga xavfli shikast yetkazganlik, bolalarni o'g'irlaganlik, nomusga tegish, uyga buzib kirib o'g'rilik qilish kabilar haqidagi jinoyat ishlari kiradi. Ishlar yig'ma tartibda ko'rilganda, ayblov hujjati tuzish, ishni sudda muhokama qilishni tayinlash va boshqa protsessual kafolatlarga rioya etish talab etilmaydi. Sud jarayoni nihoyatda soddalashtiriladi: ishlarni sud qasamyod qilgan sudyalarsiz yakka o'zi ko'rib chiqadi; belgilangan tartibda protsessual jihatdan tekshirilmagan ma'lumotlar hukm uchun

asos qilib olinishi mumkin. Ishlarni yig‘ma tartibda ko‘rib chiqish odatda bir necha daqiqa davom etadi. Sudya (sudyalari) o‘z hukmi bilan deyarli har doim guvoh sifatida qatnashayotgan fikrlari va xulosalarini tasdiqlaydi. U politsiyachilarning ko‘rsatuvlari bo‘yicha hukm chiqaradi.

Fransiyada ikki oygacha bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadigan nojo‘ya harakatlar haqidagi ishlarni sudya yakka o‘zi ko‘rib chiqadi. O‘rtacha og‘irlikdagi jazoga tortishga olib keluvchi huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni uch nafar professional sudya (yuqori instansiya tribunali) prokurorning albatta ishtirok etishi va himoyachining ishtirokiga ruxsat etilishi bilan hal qiladilar. Ish yuritish og‘zaki, rasmiy va tortishuvga asoslangan holda amalga oshiriladi. Quyi turuvchi sudlarning hukmlari xususida apellatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

AQSHda, qasamyod qilgan sudyalari sudida ish yuritishdan tashqari, nojo‘ya harakatlarga oid ishlar bo‘yicha yig‘ma ish yuritish ham mavjud. Bu – dalillarni tekshirish haqidagi protsessual talablarni bajarmasdan, ayblov hujjati tuzmasdan, ishni sud muhokamasiga tayinlamasdan va qasamyod qilgan sudyalari ishtirokisiz ish yuritish. Asosan politsiya yoki jabrlanuvchi taqdim etgan materiallar bo‘yicha butun ish yuritish magistrat oldida yuz beradi. Protsessual qoidalarga ishda advokat ishtirok etgan holdagina rioya etiladi. Bu esa kamdan-kam hollarda bo‘ladi. Ayblanuvchini sudga politsiyachi olib keladi. Ish muhokamasi politsiya tuzgan va jinoyat sodir etilganligi faktini tasdiqlovchi bayonnomalarni o‘qib eshittirishdan boshlanadi. So‘ngra ayblov guvohlari so‘roq qilinadi, ayblanuvchining e‘tirozlari eshitiladi. Ayblanuvchi taklif qilgan guvohlar ham so‘roq qilinishi mumkin. Shundan keyin ayblanuvchiga oxirgi so‘z bilan chiqish imkoni beriladi. So‘ngra sudya xulosalar chiqarish uchun politsiya materiallari asos bo‘lgan hukmni e‘lon qiladi. Bu jarayon atigi bir necha daqiqa vaqtni oladi. Yig‘ma ish yuritishdan voz kechish va ishlarni qasamyod qilgan sudyalarga ko‘rib chiqish uchun berish advokatga, uning sudni bunday qaror chiqarish zarurligiga ishontirish mahoratiga bog‘liq. Ba‘zan,

aksincha, advokatlar ayblanuvchilarni yengilroq jinoyatni sodir etganlikda aybiga iqror bo'lishga va shu tariqa ishni sudyaning yolg'iz o'zi ko'rib chiqishi uchun qoldirishga ko'ndiradilar. Sababi, advokatning muayyan qarorga kelish uchun yolg'iz sudya bilan kelishishi oson bo'ladi.

### **35.3. MDH mamlakatlaridagi jinoyat protsessining ijtimoiy-huquqiy xususiyati**

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida jinoyat-protsessual qonun hujjatlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi qabul qilingan konstitutsiyalar bilan to'liq mosligi;

2) xalqaro huquqiy normalarning amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga implementatsiya qilinganligi;

3) inson huquqlari kafolatlarining kuchaytirilganligi hamda birinchi o'ringa shaxs huquqlarini muhofaza qilish vazifalari olib chiqilganligi;

4) jahon andozalari talablariga javob beruvchi yangi JPKlarning ishlab chiqilganligi.

Buning natijasida MDHning ko'pchilik mamlakatlarida yangi JPKlar qabul qilindi. Ular avvalgidek, yuzaga kelayotgan muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirib borilmoqda.

Ana shunday muammolardan biri – tergov apparatining huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi o'rni. Qozog'iston Respublikasida mustaqil davlat tergov qo'mitasi ta'sis etilgan edi. Tergovchilarning tezkor ishdan uzilib qolganligi va jinoyatlarning ochilishi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga tayyor emasliklari sababli uning faoliyati muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Rossiya Federatsiyasida Rossiya IIV huzurida rasman unga bo'ysunmaydigan, ammo o'zining butun ishini ichki ishlar idoralari bilan muvofiqlashtiradigan tergov qo'mitasi faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda

prokurorning jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishga aralashuvini cheklash tamoyili ko‘zga tashlanmoqda.

MDH mamlakatlarining ko‘pchiligida, avvalgidek, materiallarni sudgacha tayyorlashning bayonnoma shakli mavjud. U jamiyat uchun katta xavf tug‘dirmaydigan va odatda aniq sharoitlarda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tabaqalashtirilgan jinoyat protsessining shakllaridan biridir. Agar, masalan, Rossiyada ushbu protsessual shakl dastlab 19 ta jinoyat tarkibiga qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik u ancha kengayib hozirgi vaqtda taxminan 50 ta jinoyat tarkiblari bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin. Bu esa jinoyat protsessidagi jinoyatlar sonining kattagina qismini tashkil qiladi. Uning yutug‘i shundaki, u jinoyatlarni tez ochish, shuningdek, jinoyatning barcha holatlarini hamda javobgarlikka tortilayotgan shaxsga oid ma‘lumotlarni to‘liq, xolisona va har tomonlama tekshirish imkonini beradi. U, shuningdek, sudning aybdorga nisbatan hukm chiqarish paytini jinoyat sodir etilgan paytga eng ko‘p darajada yaqinlashtirish va bu bilan jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga ham imkon beradi.

Jinoyat ishini sudda muhokama qilish uchun materiallarni tayyorlashning bayonnoma shaklini hozirgi paytdagi yuritish ko‘pgina mamlakatlarda (roman-german, anglo-sakson huquqiy tizimlarida) amal qiladigan jinoyat ishlari bo‘yicha jinoyat protsessi bilan bemaol qiyoslasa bo‘ladi.

MDH mamlakatlaridagi jinoyat protsessining boshqa bir xususiyatini ulardan ayrimlarida qasamyod qilgan sudyalar sudining mavjudligi tashkil etadi. Biroq Rossiyada masalan, barcha xududiy mintaqalardan atigi to‘qqiztasida qasamyod qilgan sudyalar sudi tashkil qilingan va amal qilmoqda. Ularda jinoyat ishlari umumiy miqdorining taxminan 3–4 % ko‘rib chiqilmoqda. Ularning 40 % oqlov hukmi bilan yakunlamoqda.

MDH mamlakatlarida fuqaroga surishtiruv va dastlabki tergov organlari, prokuratura va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararni qoplashga alohida e‘tibor beriladi. Bu jinoyat protsessida shaxs huquqlarini muhofaza qilishni kuchaytirish siyosatini aks ettiradi.



---

---

## MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
----------------	---

### *UMUMIY QISM*

#### **I BOB. «JINOYAT PROTSESSI» TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA VAZIFALARI**

1.1. «Jinoyat protsessi» tushunchasi va uning vazifalari.....	9
1.2. Jinoyat protsessining tizimi, protsessual harakatlar, protsessual qarorlar, jinoyat-protsessual funksiyalar.....	16
1.3. Jinoyat-protsessual huquq. Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar.....	34
1.4. Jinoyat-protsessual shakl va uning bo‘linishi.....	37

#### **II BOB. JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNLAR**

2.1. Jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritish tartibining mohiyati.....	39
2.2. Jinoyat-protsessual norma tuzilishi va turlari.....	41
2.3. Jinoyat-protsessual qonunning vaqt, hudud va chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan amal qilishi.....	48

#### **III BOB. JINOYAT PROTSESSINING PRINSIPLARI**

3.1. «Jinoyat protsessi prinsiplari» tushunchasi va ularning ahamiyati.....	51
3.2. Jinoyat protsessi prinsiplarining tizimi va tasniflanishi.....	52
3.3. Qonuniylik prinsipi.....	54
3.4. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi.....	57

3.5. Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish.....	58
3.6. Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi.....	60
3.7. Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi.....	62
3.8. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish.....	63
3.9. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.....	65
3.10. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish.....	68
3.11. Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi.....	70
3.12. Jinoyat ishlari yuritiladigan til.....	73
3.13. Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki.....	75
3.14. Haqiqatni aniqlash.....	76
3.15. Aybsizlik prezumpsiyasi.....	77
3.16. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash.....	79
3.17. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv.....	81
3.18. Dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish.....	83
3.19. Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi.....	84

#### **IV BOB. JINOYAT PROTSESSINING ISHTIROKCHILARI**

4.1. «Jinoyat protsessining ishtirokchilari» tushunchasi va tasniflanishi.....	85
4.2. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar.....	88
4.3. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari va jamoalar.....	103
4.4. Jinoyat protsessda o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar.....	105
4.5. Jinoyat protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.....	119
4.6. Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar. Rad etishlar.....	127
4.7. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi.....	131

## **V BOB. DALILLAR VA ISBOT QILINISHI LOZIM BO‘LGAN HOLATLAR**

- 5.1. Dalillar va isbotlash predmeti.....134  
5.2. Isbot qilishning umumiy shartlari.....143

## **VI BOB. TERGOV HARAKATLARI**

- 6.1. «Tergov harakatlari» tushunchasi, tizimi va tasniflanishi.....159  
6.2. So‘roq qilish.....164  
6.3. Yuzlashtirish.....175  
6.4. Tanib olish uchun ko‘rsatish.....176  
6.5. Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish.....180  
6.6. Ko‘zdan kechirish.....183  
6.7. Guvohlantirish.....188  
6.8. Murdani eksqumatsiya qilish.....194  
6.9. Eksperiment.....196  
6.10. Olib qo‘yish.....199  
6.11. Tintuv.....202  
6.12. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash va olib qo‘yish.....205  
6.13. Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan  
so‘zlashuvlarni eshitib turish.....207  
6.14. Ekspertiza.....209  
6.15. Taftish.....219  
6.16. Ekspertiza uchun namunalar olish.....225  
6.17. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish.....227  
6.18. Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo‘shib  
qo‘yish.....230

## **VII BOB. PROTSESSUAL MAJBURLOV**

- 7.1. «Protsessual majburlov» tushunchasi, turlari.....233  
7.2. Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va  
chegaralari.....235

7.3. Ushlab turish.....	239
7.4. Ehtiyot choralari.....	248
7.5. Lavozimdan chetlashtirish.....	285
7.6. Majburiy keltirish.....	288
7.7. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish.....	289
7.8. Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash, protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik.....	294

## **VIII BOB. JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH**

8.1. Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar va uni qoplash.....	306
8.2. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo. Boshqa mulkiy undirishlar.....	307
8.3. Hukmning mulkiy undirishlar to'g'risidagi qismi ijrosini ta'minlash.....	319

## **IX BOB. JINOYATLARNING OLDINI OLIH CHORALARI**

9.1. Jinoyatlarning oldini olish choralari mazmuni va ahamiyati.....	330
9.2. Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash.....	334
9.3. Jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida taqdimnoma va xususiy ajrim hamda ularni bajarish.....	338

## **X BOB. REABILITATSIYA**

10.1. «Reabilitatsiya» tushunchasi, asoslari va oqibatlar.....	344
10.2. Qisman reabilitatsiya etishning asoslari va oqibatlar.....	349
10.3. Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash tartibi.....	353

## **XI BOB. PROTSESSUAL MUDDATLAR VA CHIQIMLAR**

11.1. Protsessual muddatlar mazmuni va ularning ahamiyati.....	360
11.2. Muddatlarni hisoblash, uzaytirish va tiklash.....	363
11.3. Protsessual chiqimlar mazmuni.....	365
11.4. Protsessual chiqimlarni to‘lash va undirish tartibi.....	368

### *MAXSUS QISM*

## **XII BOB. ISHNI SUDGA QADAR YURITISH**

12.1. Ishni sudga qadar yuritish mazmuni va shakllari.....	371
12.2. Tergovga qadar tekshiruv.....	372
12.3. Jinoyat ishini tergov qilish.....	375

## **XIII BOB. TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV, JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH**

13.1. Tergovga qadar tekshiruv tartibi.....	377
13.2. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va tekshirish tartibi.....	378
13.3. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni hal qilish tartibi.....	387
13.4. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish, uning sabablari va asoslari.....	391
13.5. Tergovga qadar tekshiruvda uni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslarning o‘zaro hamkorligi.....	398

## **XIV BOB. DASTLABKI TERGOVNING UMUMIY SHARTLARI**

14.1. «Dastlabki tergovning umumiy shartlari» tushunchasi, tizimi va ahamiyati.....	402
14.2. Dastlabki tergovning umumiy shartlari mazmuni.....	404

## **XV BOB. SURISHTIRUVNING UMUMIY SHARTLARI**

- 15.1. «Surishtiruvning umumiy shartlari» tushunchasi, tizimi va ahamiyati.....423
- 15.2. Surishtiruvning umumiy shartlari mazmuni.....424

## **XVI BOB. JINOYAT ISHIDA GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHI TARIQASIDA ISHTIROK ETISHGA JALB QILISH**

- 16.1. Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslari va protsessual tartibi. Gumon qilinuvchini so‘roq qilish.....433
- 16.2. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish tartibi. Ayblanuvchini so‘roq qilish.....442
- 16.3. Ayblovni o‘zgartirish, tugatish va to‘ldirish. Tugatilgan ayblovni qayta tiklash.....446

## **XVII BOB. SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISH HAMDA QAYTA TIKLASH**

- 17.1. Surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning mohiyati va asoslari.....449
- 17.2. Surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishning tartibi.....450
- 17.3. Qidiruv e‘lon qilish.....452
- 17.4. Surishtiruv va dastlabki tergov to‘xtatilganidan keyingi harakatlar.....455
- 17.5. To‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergovni qayta tiklash.....456

## **XVIII BOB. SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOVNI TAMOMLASH**

- 18.1. Surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlash.....459
- 18.2. Jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqish huquqini ta‘minlash.....460

18.3. Jinoyat ishini tugatish.....	463
18.4. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi tuzish bilan tergovni tamomlash.....	467

**XIX BOB. SURISHTIRUV, DASTLABKI TERGOV VA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUVNI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLARNING QONUNLARNI IJRO ETISHI USTIDAN NAZORAT**

19.1. Surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazoratning mohiyati va vazifalari.....	479
19.2. Prokurorning surishtiruv, dastlabki tergov va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazoratni amalga oshirishdagi vakolatlari.....	480
19.3. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokuror hal etishi lozim bo‘lgan masalalar.....	488
19.4. Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning qarori.....	490

**XX BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDIDA ISH YURITISH. SUDLOVGA TEGISHLILIK VA JINOYAT ISHINI SUDDA KO‘RISH UCHUN TAYINLASH**

20.1. Sudlovga tegishlilik.....	492
20.2. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash.....	494

**XXI BOB. SUD MUHOKAMASINING UMUMIY SHARTLARI**

21.1. «Sud muhokamasining umumiy shartlari» tushunchasi va ahamiyati.....	501
21.2. Sud muhokamasining umumiy shartlarining mazmuni.....	506

## **XXII BOB. SUD MUHOKAMASINING TARTIBI**

22.1. Sud muhokamasi. Sud majlisining tayyorlov qismi.....	521
22.2. Sud tergovi.....	528
22.3. Taraflarning muzokarasi.....	537
22.4. Sudlanuvchining oxirgi so‘zi.....	538
22.5. Sudning qaror qabul qilish uchun alohida (maslahat) xonaga kirishi, hukm chiqarish va uni e‘lon qilish.....	538
22.6. Hukm chiqarishda va u e‘lon qilinganidan keyin sud hal qiladigan boshqa masalalar.....	540

## **XXIII BOB. HUKM**

23.1. Hukm mazmuni va ahamiyati.....	543
23.2. Hukm chiqarish paytida sud hal qiladigan masalalar.....	544
23.3. Hukm turlari. Hukmning tuzilishi.....	546
23.4. Hukmning qaror qismida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar.....	549

## **XXIV BOB. HUKM, AJRIM VA QARORLARNING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI VA ADOLATLILIGINI TEKSHIRISH**

24.1. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning mazmuni va ahamiyati.....	552
24.2. «Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlari» tushunchasi.....	553
24.3. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlarining mazmuni.....	554

## **XXV BOB. APELLATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH**

25.1. Apellatsiya tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati.....	565
25.2. Apellatsiya instansiyasi sudning vakolatlari.....	569
25.3. Apellatsiya instansiyasida ish yuritish tartibi.....	572



## **XXVI BOB. KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH**

- 26.1. Kassatsiya tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati.....576  
26.2. Kassatsiya instansiyasida ish yuritish tartibi.....578

## **XXVII BOB. NAZORAT TARTIBIDA ISH YURITISH**

- 27.1. Nazorat tartibida ish yuritish mazmuni va ahamiyati.....584  
27.2. Jinoyat ishini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib olish.....586  
27.3. Nazorat instansiyasi sudida jinoyat ishini ko‘rish tartibi.....588

## **XXVIII BOB. YANGI OCHILGAN HOLATLAR MUNOSABATI BILAN ISH YURITISHNI QAYTADAN BOSHLASH**

- 28.1. Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash mazmuni va ahamiyati.....591  
28.2. Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish va tergov o‘tkazish.....593

## **XXIX BOB. HUKM, AJRIM, QARORLARNI IJRO ETISH**

- 29.1. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish mazmuni.....596  
29.2. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro ettirish.....599  
29.3. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishda yuzaga keladigan masalalarni hal qilish.....611

## **XXX BOB. VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI YURITISH**

- 30.1. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarda isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar.....622  
30.2. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarda qonuniy vakili, himoyachi, pedagog yoki psixologning ishtiroki.....626

30.3. Voyaga yetmaganga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llash xususiyatlari.....	629
30.4. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni sud majlisida ko'rish xususiyatlari.....	633

### **XXXI BOB. TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH**

31.1. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar.....	636
31.2. Sud-psixiatriya ekspertizasi aniqlaydigan masalalar.....	638
31.3. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishni yuritishda himoyachining ishtiroki.....	640
31.4. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda sud muhokamasi.....	642
31.5. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini bekor qilish yoki o'zgartirish.....	644

### **XXXII BOB. YARASHUV TO'G'RISIDAGI ISHLAR BO'YICHA ISH YURITISH**

32.1. Yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritishning mazmuni va ahamiyati.....	646
32.2. Yarashuv to'g'risidagi ishni yuritish asoslari va shartlari.....	647
32.3. Yarashuv to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.....	648
32.4. Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi.....	650

### **XXXIII BOB. ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA AMNISTIYA AKTINI QO'LLASH**

33.1. Ishni sudga qadar yuritishda amnistiya aktini qo'llashning mazmuni va ahamiyati.....	652
33.2. Ishni sudga qadar yuritishda amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlarda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.....	655

33.3. Amnistiya aktini qo'llash to'g'risida ish yuritishning protsessual tartibi.....	660
33.4. Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud majlisi.....	665

### **XXXIV BOB. JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK**

34.1. Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorligi tartibining asosiy qoidalari.....	668
34.2. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish tartibi.....	674

### **XXXV BOB. XORIJIY DAVLATLARNING JINOYAT PROTSESSI**

35.1. Xorijiy davlatlar jinoyat protsessining umumiy ta'rifi.....	686
35.2. Ayrim xorijiy mamlakatlarda sudgacha bo'lgan ish yuritish va uning farqlanishi hamda sud muhokamasining o'ziga xos xususiyatlari.....	698
35.3. MDH mamlakatlaridagi jinoyat protsessining ijtimoiy-huquqiy xususiyati.....	719

MIRENSKIY Boris Aronovich, *yuridik fanlar doktori, professor;*  
RAJABOVA Mavjuda Abdullayevna, *yuridik fanlar doktori, professor;*  
MIRAZOV Davron Miragzamovich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
SHARAFUTDINOV Alisher Ozodovich, *O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist;*  
AKILOV Alimjon Rahimovich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
RAJABOV Baxtiyor Almaxmatovich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
MURODOV Baxtiyorjon Baxodirovich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
MATCHANOV Alimjan Atabayevich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
AKRAMXODJAYEV Boriy Toxtaxodjayevich, *yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*  
KADIROVA Viktoriya Vladimirovna, *yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*  
RAHMONQULOV Ahror Xudoyorovich, *yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*  
RASHIDOV Behzod Nurboyevich, *yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*  
KULMATOV Sharof Asadovich, *yuridik fanlar doktori, dotsent;*  
SULTONOV Abdulla Azamatovich, *dotsent*

# JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ

DARSLIK

Muharrir **S. S. Qosimov**

---

Bosishga ruxsat etildi 26. 07. 2019. Nashriyot-hisob tabog'i 50,0  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № . Bahosi kelishilgan narxda.

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
1000197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68